MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ScienceInnovation
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA **TASVIRIY SAN'AT, CHIZMACHILIK** VA **MUSIQA** FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA TENDENSIYALAR

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



2025-YIL 22-23-OKTABR

MATERIALLAR TO'PLAMI

I

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TASVIRIY SAN’AT, CHIZMACHILIK VA MUSIQA FANLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA TENDENSIYALAR” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2025-yil 22-23-sentabr
1-qism

COLLECTION OF MATERIALS

OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC “MODERN APPROACHES AND TRENDS IN TEACHING FINE ARTS, DRAFTING, AND MUSIC IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION”

September 22-23, 2025
Part 1

Toshkent 2025

ISSN: 2181-3337

“Oliy pedagogik ta’limda tasviriy san’at, chizmachilik va musiqa fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuv va tendensiyalar” mavzusidagi ilmiy-nazariy anjumani materiallar to‘plami, 1-qism (2025-yil 22-23-sentabr) – T.: Science and Innovation, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Gulira’no Rakhmatullayeva, Kozim Ergashov, Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Zulayxo Xakimova, Iqboloy Sobirova, Asila Khaydaraliyeva

Tahririyat hay’ati a’zolari

Rais: *B.B.Baymetov (CHDPU)*	*E.Jabborov (QarDPI)*
Rais o‘rinbosarlari:	*B.B.Nusharov (GulDU)*
B.E.Xusanov (NDPI)	*N.P.Jumaboyev (GDPI)*
X.E.Sultanov (CHDPU)	*S.A.Shovdirov (NavDPI)*
U.N.Xodjamqulov	*N.D.Kultasheva (TKXU)*
S.X.Gayupova	*Z.Sh.Bayzaxova (Qozog‘iston, M.Auezov JQU)*
D.M.Maxmudova	*S.A.Juldasbekova (Qozog‘iston, M.Auezov JQU)*
J.E.O‘sarov	*F.U.Toshpulatov (TerDPI)*
Dastur qo‘mitasi a’zolari:	*N.Y.Mukeeva (Qozog‘iston, K.Juhanov AMU)*
S.S.Bulatov (CHDPU)	*Q.B.Panjiyev (XNU)*
A.Sulaymonov (TAQU)	*A.R.Juldasheva (Qirg‘iziston, I.Arabayeva QDU)*
O.V.Shalyapin (Rossiya, NDPU)	*R.Z.Xayrov (GDPI)*
D.A.Qurbanova (MRDI)	*G.A.Ibroximjanova (XNU)*
S.Sh.Aliyeva (O‘zrResFA, San’atshunoslik Instutit)	*A.Q.Lutfullayev (O‘zMPU)*
N.X.Tolipov (CHDPU)	*Sh.N.Rahimov (O‘zMPU)*
K.M.Gulyamov (MRDI)	*R.S.Shermuxamedov (CHDPU)*
S.A.Toshtemirova (CHDPU)	*Abdullayeva Muborak Sobirovna (CHDPU)*
D.Tulanova (O‘zMPU)	*Xamidov Dilshod Olimjon O‘g‘li (GULDU)*

© Chirchiq davlat pedagogika universiteti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

SO‘ZBOSHI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari, qadrli mehmonlar, aziz hamkasblar!

Bugun biz sizlar bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetida o‘tayotgan muhim va dolzarb mavzuga bag‘ishlangan – “Oliy pedagogik ta’limda tasviriy san’at, chizmachilik va musiqa fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuv va tendensiyalar” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida yuz ko‘rishib turganimizdan behad mamnunman.

Jamiyatimizning ma’naviy yuksalishi, yosh avlod qalbida go‘zallikka, nafosatga oshnolik tuyg‘ularini kamol toptirishda san’at va musiqaning o‘rni beqiyosdir. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda biz, pedagoglar oldida ushbu fanlarni shunchaki o‘qitish emas, balki ular orqali har bir talabaning ichki dunyosini boyitish, ijodiy tafakkurini o‘stirish va shaxs sifatida shakllantirishdek ulkan vazifa turibdi.

Bizning universitetimiz ta’lim jarayoniga an’anaviy yondashuvlardan chekinib, har bir talabaning o‘ziga xos qobiliyati va iqtidorini yuzaga chiqarishga qaratilgan individual yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, san’at yo‘nalishida bu tamoyil har qanday standartdan ustun turadi.

Aynan shu maqsadda biz ilgari surgan “innovasion pedagogik ta’lim klasteri” g‘oyasi bugun o‘z samarasini bermoqda. Ushbu klaster – fan, ta’lim va amaliyotning uzviy integratsiyasini ta’minlab, bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat bilimli, balki yuksak ijodiy salohiyatli kadr bo‘lib yetishishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, biz dunyoga ochiqmiz. Universitetimiz xalqaro miqyosdagi kadrlarni tayyorlash tashabbusini faol qo‘llab-quvvatlaydi. Chunki san’at – chegara bilmas tildir. U turli madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, insonlar qalbini bog‘lovchi kuchli vositadir.

Alohida ta’kidlamoqchimanki, bugungi kunda san’atning tarbiyaviy vazifasi bilan birga uning inson ruhiyatiga shifobaxsh ta’siri ham ilmiy asosda o‘rganilmoqda. Biz ART-terapiyani zamonaviy pedagogikaning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri deb bilamiz. Shu maqsadda universitetimizda “Art-musiqa terapiya” loyihasi ustida ish boshlangan. Yaqin kelajakda ushbu sohada fundamental izlanishlar olib borish uchun maxsus ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini barpo etish kabi ezgu niyatlarimiz bor.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Ishonamanki, bugungi anjuman o‘zaro fikr almashish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va soha rivoji uchun yangi g‘oyalar va tendensiyalarni belgilab olish uchun samarali maydon bo‘lib xizmat qiladi. Barchangizga sermazmun muzokaralar, ijodiy yutuqlar va muvaffaqiyatli hamkorlik tilayman.

Anjuman ishiga omad!

Shuning bilan “Oliy pedagogik ta’limda tasviriy san’at, chizmachilik va musiqa fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuv va tendensiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanini ochiq deb e’lon qilaman.

E’tiboringiz uchun tashakkur!

1-SHO‘BA

“TASVIRIY VA AMALIY BEZAK SAN’ATI FANLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TENDENSIYALAR: PEDAGOGIK TA‘LIM INNOVATSION KLASTERI, INDIVIDUAL TA’LIM, STEAM, RAQAMLI TA’LIM, INKLYUZIVLIK”

KRITA, SKETCHBOOK VA INFINITE PAINTER DASTURLARINING TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDAGI QULAYLIKLARI

Abdumajitov Avazjon Shuhrat o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san'at va dizayn kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17386734

Annotatsiya. *Ushbu tezis O'zbekiston tasviriy san'at ta'limida Krita, SketchBook va Infinite Painter grafik dasturlarini integratsiya qilishning kelajakdagi imkoniyatlarini prognoz qiladi va tajriba rejasini taqdim etadi. Tadqiqot "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'limni raqamlashtirishning dolzarbligiga asoslanadi.Chirchiq Davlat Pedagogika Universitetining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasida 2026-yilda 150 nafar talaba ishtirokida 4 oylik tajriba va so'rovnoma (N=150) o'tkazish rejalashtirilmoqda. Rejaning maqsadi ushbu dasturlarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali talabalarning raqamli savodxonlik ko'nikmalarini oshirish samaradorligini baholashdir. Krita (ochiq manbali), SketchBook (professional dastur) va Infinite Painter (mobil qurilmalar uchun qulay) dasturlari bepul yoki arzon narxlardagi mavjudligi, foydalanuvchi uchun qulay interfeysi va ijodiy vositalari tufayli raqamli savodxonlikni 35% ga oshirishi kutiladi. Infratuzilma cheklovlari va o'qituvchilar malakasining yetishmasligi muammolar sifatida bashorat qilinadi, ularga yechim sifatida aniq strategiyalar taklif etiladi. Reja ta'lim muassasalariga ushbu dasturlarni integratsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasini taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *krita, sketchbook, infinite painter, tasviriy san'at, raqamli savodxonlik, grafik dasturlar, ta'lim*

Аннотация. *Тезис прогнозирует возможности интеграции графических программ Krita, SketchBook и Infinite Painter в образование изобразительного искусства в Узбекистане и представляет план эксперимента. Исследование опирается на стратегию «Цифровой Узбекистан – 2030», подчеркивающую важность цифровизации образования. В 2026 году в Чирчикском государственном педагогическом университете на направлении «Изобразительное искусство и инженерная графика» планируется проведение 4-месячного эксперимента и опроса (N=150) с участием 150 студентов. Цель плана — оценить эффективность повышения цифровой грамотности студентов путем внедрения этих программ. Ожидается, что доступность, удобный интерфейс и творческие инструменты программ повысят цифровую грамотность на 35%. Проблемы инфраструктуры и квалификации преподавателей прогнозируются как препятствия, для которых предложены решения. План предлагает дорожную карту для интеграции программ в учебные заведения.*

Ключевые слова: *krita, sketchbook, infinite painter, изобразительное искусство, цифровая грамотность, графические программы, образование*

Abstract. *This thesis forecasts the potential of integrating Krita, SketchBook, and Infinite Painter graphic software into fine arts education in Uzbekistan and presents a plan for a future experiment. Aligned with the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, the study emphasizes educational digitalization. A 4-month experiment and survey (N=150) are planned for 2026 at Chirchik State Pedagogical University in the Fine Arts and Engineering Graphics program. The*

plan aims to evaluate the effectiveness of enhancing students' digital literacy skills through these programs. Krita (open-source), SketchBook (professional software), and Infinite Painter (mobile-friendly) are expected to increase digital literacy by 35% due to their affordability, user-friendly interfaces, and creative tools. Infrastructure limitations and insufficient teacher qualifications are anticipated challenges, with solutions proposed. The plan provides a roadmap for integrating these programs into educational institutions.

Keywords: *krita, sketchbook, infinite painter, fine arts, digital literacy, graphic software, education*

Zamonaviy globallashuv davrida oliy ta’lim tizimi talabalarni innovatsion raqamli ko‘nikmalar bilan ta’minlashga va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ta’limni raqamlashtirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi[1].

Krita (ochiq manbali), SketchBook (professional grafik dastur) va Infinite Painter (mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan) grafik dasturlari iqtisodiy samaradorlik va foydalanuvchi uchun qulaylik ta’minlaydi, bu ularni tasviriy san’at va muhandislik grafikasida joriy etish uchun ideal vositalar hisoblanadi.[2] Ushbu tezis O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu dasturlarni integratsiya qilishning kelajakdagi afzalliklarini prognoz qiladi va Chirchiq Davlat Pedagogika Universitetida 2026-yilda o‘tkaziladigan tajriba rejasini taqdim etadi. Tadqiqotning maqsadi talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga tayyorlash orqali raqamli savodxonlikni oshirishdir.

Tadqiqot 2026-yilning yanvar-aprel oylari davomida Chirchiq Davlat Pedagogika Universitetining Tasviriy san’at va muhandislik grafikasida 150 nafar talaba ishtirokida o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda. Talabalar tasodifiy tanlash usuli orqali tajriba (N=75) va nazorat guruhlariga (N=75) bo‘linadi. Tajriba rejasi quyidagi bosqichlardan iborat:

Talabalar 4 oy davomida Krita, SketchBook va Infinite Painter dasturlarida raqamli chizish va ijodiy loyihalar (raqamli portretlar, muhandislik grafikasiga oid loyihalar, mobil ilovalarda grafik dizayn) ishlab chiqadi. Darslar haftada 3 soatdan, jami 48 dars sifatida tashkil etiladi.

Nazorat guruhida:An’anaviy chizish usullari (qog‘oz va qalam) qo‘llaniladi.Muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasini Rangtasvir nomli o‘quv qo‘llanmasi tajriba guruhida qo‘llaniladi.[3] Qo‘llanma rangtasvir fanida grafik dasturlardan foydalangan holda dasturiy vositalarni o‘zlashtirish va loyiha ishlab chiqish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

So‘rovnoma 150 nafar talaba orasida o‘tkaziladi (N=150). Savollar Likert shkalasi (1-5 ball) asosida tuziladi va quyidagi jihatlarni baholaydi:

Dasturlarning foydalanuvchi uchun qulayligi.

Grafik dasturlarda ishlash ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorlig.

Ta’lim jarayonidagi iqtisodiy samaradorligi.

Dasturlarni o‘zlashtirish tezligi.

So‘rovnoma savollari ro‘yxati qo‘shimchada keltiriladi (Qo‘shimcha A).

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884

[2] Krita Foundation. (2023). Krita in Education: A Practical Guide for Art Instructors. https://krita.org/en/education

[3] Abdumajitov A.Sh. (2025). Rangtazsvir o‘quv qo‘llanma

Natijalar SPSS 26 dasturida tahlil qilinadi. Raqamli savodxonlik darajasi boshlang‘ich va yakuniy testlar (masalan, grafik dasturlarda loyihalarini bajarish vaqtini o‘lchash) orqali aniqlanadi.


Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatliligi t-test yordamida baholanadi ($p<0.05$).

O‘zlashtirish динамикаси har oyda testlar orqali kuzatiladi (1-oy: 20-30%, 2-oy: 50-60%, 3-oy: 70-80%, 4-oy: 85-90% o‘zlashtirish darajasi kutiladi).

Tajriba o‘tkazilishi uchun 30 ta zamonaviy kompyuter (minimal talab: 8 GB RAM, i5 protsessor), 10 ta planshet (Infinite Painter uchun) va yuqori tezlikdagi internet aloqasi ta’minlanadi.Dasturiy ta’minot: Krita (bepul), SketchBook (arzon litsenziya), Infinite Painter (mobil ilova sifatida).

ajriba quyidagi natijalarni keltirib chiqarishi prognoz qilinadi:

1. **O‘zlashtirish dinamikasi**: Krita, SketchBook va Infinite Painter dasturlari oy davomida o‘zlashtirish darajasini 85-90% ga yetkazadi



1-rasm. Dasturlarni o‘zlashtirish dinamikasi (prognoz)

2. **Raqamli savodxonlik**: Tajriba guruhida raqamli savodxonlik 35% ga oshadi ($p<0.05$), nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 20% atrofida bo‘ladi.

3. **Foydalanuvchi tajribasi**: So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 90% talaba dasturlarni “juda qulay” yoki “qulay” deb baholaydi (4 yoki 5 ball).

4. **Iqtisodiy samaradorlik**: Krita dasturining bepul mavjudligi va SketchBook, Infinite Painter dasturlarining arzon narxlari ta’lim muassasalari xarajatlarini 45% ga kamaytiradi.[4]

[4] Infinite Painter. (2023). Mobile Art Tools for Creative Education. https://www.infinitepainter.com/education

Krita, SketchBook va Infinite Painter dasturlari ta’lim muassasalari uchun iqtisodiy samaradorlik va foydalanuvchi uchun qulaylik ta’minlaydi.Krita ochiq manbali bo‘lib, resurslari cheklangan muassasalar uchun ideal, SketchBook professional dizayn loyihalari uchun mos, Infinite Painter esa mobil qurilmalarda talabalarga moslashuvchanlik beradi. Ushbu dasturlar talabalarga raqamli chizmachilik va muhandislik grafikasini o‘zlashtirishda yordam beradi.[5]

1. Ammo, infratuzilma cheklovlari (eski kompyuterlar, sekin internet) va o‘qituvchilarning raqamli malakasining yetishmasligi muammolar sifatida kutilmoqda.Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi strategiyalar taklif qilinadi:
2. **Infratuzilma yaxshilanishi**: Davlat-xususiy sheriklik orqali zamonaviy kompyuterlar va planshetlar xarid qilish, yuqori tezlikdagi Wi-Fi tarmog‘ini o‘rnatish.
3. **O‘qituvchilar malakasini oshirish**: Krita, SketchBook va Infinite Painter bo‘yicha 3 haftalik treninglar tashkil etish, xalqaro onlayn platformalar (Coursera, Udemy) orqali sertifikatlash.
4. **Ta’lim dasturlarini yangilash**: Ushbu dasturlarni tasviriy san’at va muhandislik grafikasida majburiy komponent sifatida kiritish.

Xorijiy tajribalar, masalan, AQSh va Yevropada raqamli grafik dasturlarning muvaffaqiyati, O‘zbekiston uchun yo‘l ko‘rsatuvchi namuna bo‘ladi.

Krita, SketchBook va Infinite Painter dasturlari kelajakda O‘zbekiston tasviriy san’at ta’limida raqamli savodxonlikni oshirishda muhim vositalar bo‘lishi kutiladi. Ularning iqtisodiy samaradorligi va qulay interfeyslari talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlaydi. Quyidagi tavsiyalar ta’lim muassasalariga ushbu dasturlarni integratsiya qilishda yordam beradi:

1. Krita, SketchBook va Infinite Painter dasturlarini Tasviriy san’at va muhandislik grafikasida majburiy o‘quv komponenti sifatida kiritish.
2. O‘qituvchilar uchun 3 haftalik treninglar tashkil etish, har chorakda 25 nafar o‘qituvchi uchun seminarlar o‘tkazish.
3. Infratuzilmani yaxshilash uchun davlat-xususiy sheriklik dasturlarini jalb qilish, masalan, 50 ta zamonaviy kompyuter va 20 ta planshet xarid qilish.
4. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu dasturlarning animatsiya, 3D dizayn va arxitektura sohasidagi ta’sirini o‘rganishga yo‘naltirilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884
2. Krita Foundation. (2023). Krita in Education: A Practical Guide for Art Instructors. https://krita.org/en/education
3. Abdumajitov A.Sh. (2025). Rangtazsvir o‘quv qo‘llanma
4. Autodesk. (2023). SketchBook in Education: Enhancing Digital Art Skills. https://www.autodesk.com/education
5. Infinite Painter. (2023). Mobile Art Tools for Creative Education. https://www.infinitepainter.com/education
6. Abdumajitov, a. S. (2025, iyun). Application of open-source graphic programs in uzbek fine arts education: methodology for increasing the creative competence of future teachers.

[5] Autodesk. (2023). SketchBook in Education: Enhancing Digital Art Skills. https://www.autodesk.com/education

Modern american journal of linguistics, education, and pedagogy, 1(3). Chirchiq state pedagogical university. Https://www.researchgate.net/publication/393050503

7. Abdumajitov, a. (2025). O‘zbek tasviriy san’ati ta’limda ochiq manbali grafik dasturlarni qo‘llanish: bo‘lajak o‘qituvchilar ijodlik sakolatligini oshirish metodikasi. Zamonaviy amerika tilshunoslik, ta'lim va pedagogika jurnali , 1 (3), 500-507.
8. Abdumajitov, A. Sh. (2023, iyun). Grafik dasturlar orqali o‘quvchilarga rasm chizishni o‘rgatish [o‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 20-son]. Chirchiq davlat pedagogika universiteti. Https://www.researchgate.net/publication/394998573_o%27zbekistonda_fanlararo_innovatsiyalar_va_ilmiy_tadqiqotlar_jurnali
9. Abdumajitov, A. (2025). Using open source graphic software in Uzbek fine arts education: a methodology for improving the creative skills of future teachers. Journal of Contemporary American Linguistics, Education and Pedagogy, 1 (3), 500-507.

TASVIRIY SAN'AT FANLARIDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANIB OROL DENGIZINING EKOLOGIK MUAMMOSINI AKS ETTIRISH

Abdumajitov Avazjon Shuhrat o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17392257

Annotatsiya*. Ushbu maqola tasviriy san‘at fanlarida grafik dasturlardan (Sketchbook) foydalanib, Orol dengizining ekologik muammosini aks ettirishni o‘rganadi. Birinchi rasm (Quruqlikdagi qayiq va yosh ayol) tahlil qilinib, raqamli san‘atning qurg‘oqchilik, ijtimoiy ta‘sir va ekologik xabardorlikni ifodalashdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola grafik dasturlarning global ta’sirini va ta’limdagi qo‘llanilishini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *orol dengizi, ekologik falokat, raqamli san‘at, grafik dasturlar, sketchbook, ekologik ta’lim.*

Аннотация*. Эта статья исследует представление экологических проблем Аральского моря с использованием графического ПО (Sketchbook) в изобразительном искусстве. Анализируется первое изображение (Лодка на суше и молодая женщина), подчеркивая потенциал цифрового искусства в выражении засухи, социального воздействия и экологической осведомленности. Исследование акцентирует глобальное влияние и образовательное применение графических инструментов.*

Ключевые слова: *Аральское море, экологическая катастрофа, цифровое искусство, графическое ПО, Sketchbook, экологическое образование.*

Abstract*. This article analyzes the pedagogical essence of independent learning in the higher education system and its transformation in the modern digital environment. The role of independent learning is reconsidered based on the limitations of traditional approaches and the opportunities offered by digital technologies. The article examines modern educational theories such as constructivism and connectivism as the foundation for a new paradigm of independent learning. Advanced methodologies like the "flipped classroom," project-based learning, gamification, and their integration mechanisms with digital tools are highlighted. Furthermore, a didactic model developed and tested through a pedagogical experiment in the field of fine arts ("Painting") is presented, with its effectiveness substantiated by statistical data. The conclusion emphasizes that digital integration fundamentally changes the essence of independent learning, transforming it into a central process for developing the core competencies of a 21st-century specialist.*

Keywords: *Keywords: Aral Sea, ecological disaster, digital art, graphic software, Sketchbook, environmental education.*

Orol dengizi – Markaziy Osiyoning ekologik falokati bo‘lib, 1960-yillardan beri suvning haddan tashqari olinganligi natijasida 90% qurib qolgan. Bu muammo tabiatni vayron qildi, baliqchilik sanoatini yo‘qotdi va mahalliy aholiga sog‘liq va iqtisodiy zarar yetkazdi. Orol dengizi okean sathidan 53m balandlikda, Markaziy Osiyo cho‘llarining markazida joylashgan. 1960-yillargacha u, maydoni bo‘yicha, dunyodagi to‘rtinchi eng katta (64,500 km²) ko‘l hisoblangan va uning o‘rtacha chuqurligi-16m, eng chuqur nuqtasi esa 68m ni tashkil etgan. Orol

dengizi mintaqasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz Markaziy Osiyo uchun eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev davrida ushbu muammoni hal qilishga alohida e'tibor qaratilib, kompleks va tizimli yondashuv asosida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentning tashabbusi bilan Orolbo‘yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yaxshilash, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha bir qator strategik dasturlar va loyihalar ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etilmoqda.1 Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi (2017-2021): Mintaqani ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yaxshilash, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha 1,2 milliard dollardan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi. Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi (2017-2021)[6]

O‘zining tarixi mobaynida, Orol dengizi sathi goh ko‘tarilib goh pasayib turgan. Uning tubidan daraxt qoldiqlari aniqlangan va Kaznozoy davrida u Kaspiy dengizi bilan bog‘langan edi.Orol dengiziga Markaziy Osiyoning ikki eng katta daryosi-Amudaryo va Sirdaryo suvlari quyilgan. Ushbu daryo suvlaridan irratsional foydalanish, shunindek, 70-yillarda Amudaryoning Orol dengiziga quyilishini to‘sib qo‘yilishi, Orol dengizi qurishining asosiy sabablari hisoblanadi. So‘nggi 30-40 yillar mobaynida, dengiz sathi keskin pasaydi. XX asrning 50-60 yillarida dengiz sathi Boltiq balandlik tizimi bo‘yicha 53,5m ni tashkil etgan. Orol dengizi suvi sathining o‘zgarishi 1970-yildan (o‘shanda suv sathi 2.4 m pasaygan) boshlab izchil o‘rganilgan. 2009-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Orol dengizining markaziy qismining butunlay qurishi kuzatildi. Ushbu davrda uning maydoni atigi 11,800 kv.km.ni, umumiy suv hajmi esa- 1960 yilgi suv hajmining 10%ni tashkil etgani qayd etildi. Hozirgi kunda Orol dengizi uchta alohida suv havzasiga (akvatoriy) bo‘lingan: shimoliy Kichik dengiz, Katta dengizning G‘arbiy va Sharqiy havzalari. Orol suvining sho‘rlanishi, dengiz hayvonot olamining keskin pasayishga olib keldi va uning sayozlanishi- cho‘llanish va iqlim o‘zgarishini keltirib chiqardi.[7]

Chang bo‘ronlari va sog‘liq uchun xavflar: Qishloq xo‘jaligi kimyoviy moddalari va tuzga boy dengiz tubi kuchli chang bo‘ronlarini keltirib chiqardi, bu esa mahalliy aholi orasida nafas olish va boshqa sog‘liq muammolarini keltirib chiqardi.Aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolar: Dengiz tubining qurib ketishi natijasida yuzaga kelgan chang bo‘ronlari havoga zararli kimyoviy moddalar va tuzlarni chiqarib, atrofdagi hududlarda yashovchi aholi orasida nafas olish kasalliklari va boshqa sog‘liq muammolarini keltirib chiqardi. Ochiq dengiz tubi havoga ko‘p miqdorda zaharli kimyoviy moddalar, jumladan pestitsidlar va o‘g‘itlarni uchurdi. Bu ifloslantiruvchi moddalar bronxit va sil kabi respirator kasalliklarning rivojlanishiga hissa qo‘shib, mintaqadagi 3 millionga yaqin aholining sog‘lig‘iga ta'sir qildi. Suv manbalarining ifloslanishi tufayli kamqonlik va buyrak kasalliklari ko‘rsatkichlari ham sezilarli darajada oshdi.

Migratsiya va ijtimoiy buzilish: Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yomonlashgani sababli,ko‘plab odamlar o‘z uylaridan ko‘chib ketishga majbur bo‘ldilar, natijada ijtimoiy va iqtisodiy buzilishlar yuzaga keldi. Baliqchilik sanoatining tanazzulga uchrashi mahalliy aholi uchun katta iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keldi. Orol dengizi atrofidagi ayrim hududlarda ishsizlik darajasi 60 foizga yetib, qashshoqlik va migratsiyaga olib keldi. Xalqaro aralashuv: Muammoning jiddiyligini tan olgan holda, xalqaro hamjamiyat, jumladan Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi tashkilotlar Orol dengizi inqirozini hal qilish uchun moliyaviy va texnik yordam ko‘rsatdi. To‘g‘on va kanallar qurish: dengizga suv oqimini tiklash

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-maydagi PF-5041-son "2017-2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi to‘g‘risida"gi Farmoni.
[7] https://karakalpakstan.travel/aral-sea/?lang=uz

uchun turli suv xo‘jaligi loyihalari, jumladan, Ko‘k-Orol va Qoraqum kanallari, Orol dengizini uzoqdagi manbalardan suv bilan to‘ldirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi. O‘rmonlarni qayta tiklash va suv-botqoq erlarini tiklash: qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklarni ekish va qisqarayotgan dengiz atrofida botqoq yerlarni tiklash bo‘yicha sa'y-harakatlar amalga oshirildi, bu ekotizimni barqarorlashtirishga va chang bo‘ronlarini yumshatishga yordam berdi. Atrof-muhitni muhofaza qilish kompaniyalari: Orol dengizi inqirozi haqida xabardorlikni oshirish va ekologik toza amaliyotlarni targ‘ib qilish uchun ta'lim dasturlari, jamoatchilikni jalb qilish va barqaror rivojlanish tashabbuslari amalga oshirildi.[8]

Tasviriy san'at fanlarida grafik dasturlar, masalan Sketchbook, bu muammoni vizual va emotsional darajada ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqola birinchi rasmni (Quruqlikdagi qayiq va yosh ayol) tahlil qilib, raqamli san‘atning ekologik xabardorlikni oshirishdagi imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi.



1-rasm.Orol fojeasi

Birinchi rasmda qurib qolgan quruqlikda turgan eski qayiq va uning oldida qizil ro‘mol kiygan yosh ayol tasvirlangan. Ayol qo‘lida bo‘sh suv idishi tutib, orqa fonda tuman va chang bo‘roni, shuningdek, quruqlikka aylangan holat ko‘rinadi. Sketchbook dasturida yaratilgan bu rasmda jigarrang va sariq tonlar qurg‘oqchilikni, shaffof qatlamlar esa vaqt o‘tishi bilan dengizning yo‘qolishini aks ettiradi.[9]

Qayiq o‘tgan kunlardagi baliqchilikni, ammo endi suvsiz qolganligini anglatadi – bu Orolning 34 turi baliqning yo‘qolishini ramziylashtiradi.

Ijtimoiy ta‘sir: Ayol va uning bo‘sh idishi mahalliy aholining, ayniqsa ayollarning, suv tanqisligidan aziyat chekishini ko‘rsatadi; tuzli suvlar sog‘liqqa tahdid solmoqda.

Texnik imkoniyatlar: Qatlamli tahrirlash va gradientlar orqali rasm dinamik effektga ega bo‘lib, tomoshabinni O‘rolning o‘tgan va hozirgi holatini solishtirishga undaydi. Raqamli san‘at interaktivligi (zoom va animatsiya) xabarni kuchaytiradi.

[8] Toshpo‘latova, M., Adirboyeva, Sh., & Bakirov, I. (n.d.).*Orol dengizi suvi va ekologik ta'siri [Orol dengizi inqirozi va uning ekologik ta'siri]* . Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti. https://doi.org/10.5281/zenodo.15074287

[9] https://yangi.cspu.uz/kutubxona/avazjon-abdumajitov-ijodiy-ishlar-katalogi

“Kelajak o‘qituvchisi” konsepsiyasi doirasida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining raqamli savodxonligini oshirish uchun ochiq kodli va bepul grafik dasturiy ta’minotni (Krita, Sketchbook) ta’lim jarayoniga integratsiyalash yahshi natijalar bermoqda.[10] Sketchbook kabi grafik dasturlar tasviriy san‘atda ekologik muammolarni ifodalashda inqilobiy vosita. Birinchidan, qatlamli tuzilish orqali vaqt o‘tishi va yo‘qotishning murakkabligi ko‘rsatiladi. Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti San‘atshunoslik fakulteti, Tasviriy san‘at va dizayn kafedrasining o‘qituvchisi Abdumajitov Avazjon Shuhrat o‘g‘li tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4889-sonli “2020-2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga asoslanib, “Yoshlar Orolni asraydi” nomli ijodiy ishlar ko‘rgazma tanlovi e‘lon qilindi. Ushbu tadbir ta’lim muassasalarida ekologik ongni oshirish, yosh avlodni atrof-muhit muammolariga jalb qilish va barqaror rivojlanish g‘oyalarini targ‘ib qilish orqali ekologik ta’limni sifatli va samarali rivojlantirishda muhim hissa qo‘shdi.Tanlov natijalariga ko‘ra quyidagi talabalar munosib o‘rinlarni qo‘lga kiritishdi. **“Eng yaxshi rangtasvir asari” nominatsiyasi bo‘yicha:1-o‘rin:** Xabibullin Maqsud Marsovich,**2-o‘rin:** Komilova Ozodaxon Erkinjon qizi TSMG 21/2-guruh, **3-o‘rin:** To‘xtayeva Malika O‘tkir qizi TSMG 21/2-guruh, **”Eng yaxshi grafik ish” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rin:** Abdumajitova Nargiza Kamoliddin qizi TSMG 22/2-guruh, **2-o‘rin:** Nizomova Sevinch Shokir qizi 23/2-guruh, **3-o‘rin:** Unarova Nazokat va Tillaboyeva Daureya 21/1-guruh**”Eng yaxshi instalyatsiya” nominatsiyasi bo‘yicha o‘rin:** Abdurasulov Shaxboz Sherali o‘g‘li va Raximjonov Sanjar Zoxid o‘g‘li TSMG 22/2-guruh,**2-o‘rin:** Serikova Nazerke Bostanbek qizi TSMG 22/1-guruh **3-o‘rin:** Amanova Madina Yerg‘ali qizi 21/1-guruh,**”Eng yaxshi plakat” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rin:** Qudratova Nozliya Ilxom qizi TSMG 23/1-guruh, **2-o‘rin:** Baxromova Dilfuza Akromjonovna TSMG 23/1-guruh, **3-o‘rin:** Xurramova E’zoza Sherzod qizi TSMG 23/1-guruh Aytxujayeva Aygul Abdurasil qizi 21/1-guruh sertifikat bilan taqdirlandi.[11]



2-rasm

Orol dengizi qurilishini grafik dasturlarning imkoniyatlaridan foydalanib muvaffaqiyatli aks ettirdi va bu orqali ekologik falokatning ijtimoiy va tabiiy oqibatlarini aniq va ta’sirli tarzda ko‘rsatdi. Ushbu tanlov nafaqat muammoning dolzarbligini anglatishga yordam berdi, balki global miqyosda ekologik ongni oshirishga xizmat qildi. Bu tashabbus yoshlarning ekologik mas’uliyatni o‘zlashtirishiga va mahalliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishga hissa qo‘shishi mumkin. Shu bilan birga, hukumat va xalqaro tashkilotlar grafik san‘at loyihalarini

[10] Abdumajitov, A. S. (2025, June). Application of open-source graphic programs in Uzbek fine arts education: Methodology for increasing the creative competence of future teachers. Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy, 1(3), 400–406. https://www.researchgate.net/publication/393050503

[11] «Yoshlar Orolni asraydi» rasmlar tanlovi g‘oliblari taqdirlandi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti

moliyalashtirish orqali ekologik ta’limni maktab darajasida mustahkamlashi zarur, chunki bu loyihalar atrof-muhit muammolarini tushunarli va jozibador tarzda targ‘ib qilish imkonini beradi. Grafik dasturlarni tasviriy san‘at fanlariga joriy etish global muammolarni hal qilishda muhim o‘rin tutishi mumkin, chunki u nafaqat estetik ta’sir ko‘rsatadi, balki ilmiy ma’lumotlarni ommaboplashtirish va jamoatchilikni jalb qilish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shu tarzda, san’at va texnologiyani birlashtirgan usullar Orol dengizi kabi global ekologik inqirozlarni hal qilishda yangi yondashuvlar va yechimlarni taklif etishi, shu bilan birga kelajak avlodlarni mas’uliyatli ekologik xatti-harakatlariga undashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son. https://lex.uz/docs/5841063.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son. https://lex.uz/docs/4545884.
3. Toshpo‘latova, M., Adirboyeva, Sh., & Bakirov, I. (n.d.).Orol dengizi suvi va ekologik ta'siri [Orol dengizi inqirozi va uning ekologik ta'siri] . Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti. https://doi.org/10.5281/zenodo.15074287
4. Avazjon Abdumajitov Ijodiy ishlar katalogi.2024 https://yangi.cspu.uz/kutubxona/avazjon-abdumajitov-ijodiy-ishlar-katalogi
5. Abdumajitov, A. S. (2025, June). Application of open-source graphic programs in Uzbek fine arts education: Methodology for increasing the creative competence of future teachers. Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy, 1(3), 400–406. https://www.researchgate.net/publication/393050503
6. «Yoshlar Orolni asraydi» rasmlar tanlovi g‘oliblari taqdirlandi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti
7. O‘g‘li, a. S. A. (2023). Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida grafik dasturlar vositasida tasvir ishlashning dolzarbligi va ahamiyati. *Science and innovation*, 2(Special Issue 10), 19-23.

RANGTASVIR FANINI GRAFIK DASTURLAR ORQALI O‘QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

[1]Abdumajitov Avazjon Shuhrat o‘g‘li, [2]Berdiyarova Sevdiyora Ahmadali qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi o‘qituvchisi,
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17392271

Annotatsiya. *Mazkur tezis oliy pedagogik ta’lim tizimida rangtasvir fanini grafik dasturlar orqali o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda raqamli ta’limning zamonaviy yondashuvlari, interaktiv metodlar va Krita, Sketchbook, Infinite Painter grafik dasturlarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi o‘rganiladi. Grafik dasturlarni qo‘llashning talabalarning ijodiy salohiyati va estetik tarbiyasiga ta’siri, shuningdek, ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, tajriba-sinov ishlari (50 nafar talaba ishtirokida), so‘rovnomalar va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Natijada samarali pedagogik shart-sharoitlar aniqlanib, ularning ta’lim sifatiga ta’siri isbotlandi. Xalqaro tajribalar tahlili va kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar keltirilgan*

Kalit so‘zlar: *rangtasvir, raqamli san’at ta’limi, grafik dasturlar, pedagogik shart-sharoitlar, interaktiv metodlar, ijodiy salohiyat, estetik tarbiya.*

Аннотация. *Данная статья посвящена исследованию педагогических условий преподавания изобразительного искусства, в частности живописи, с использованием графических программ в системе высшего педагогического образования. В работе анализируются современные подходы к цифровому образованию, интерактивные методы и интеграция Krita, Sketchbook, Infinite Painter графических программ в учебный процесс. Исследуется влияние графических программ на творческий потенциал и эстетическое воспитание студентов, а также их роль в повышении качества образования. Использованы методы анализа литературы, экспериментальные исследования (с участием 50 студентов), анкетирование и статистический анализ. Результаты определили эффективные педагогические условия и их значение для улучшения образовательных результатов. Представлены выводы по международному опыту и направлениям развития цифрового художественного образования.*

Ключевые слова:*живопись, цифровое художественное образование, графические программы, педагогические условия, интерактивные методы, творческий потенциал, эстетическое воспитание.*

Abstract. *This study explores the pedagogical conditions for teaching painting through graphic software in higher pedagogical education. It analyzes modern digital education approaches, interactive methods, and the integration of Krita, Sketchbook, Infinite Painter graphic software into the teaching process. The research investigates the impact of graphic software on students’ creative potential and aesthetic education, as well as its role in enhancing educational quality. Methods include literature review, experimental studies (with 50 students), surveys, and statistical analysis. The findings identify effective pedagogical conditions and their*

significance in improving educational outcomes. The study also offers insights into international practices and future directions for digital art education.

Keywords:*painting, digital art education, graphic software, pedagogical conditions, interactive methods, creative potential, aesthetic education.*

Rangtasvir fani oliy pedagogik ta’limda estetik tarbiya va ijodiy salohiyatni rivojlantirishning muhim vositasidir. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi rangtasvir o‘qitish metodikalarini tubdan o‘zgartirmoqda . Grafik dasturlar Krita, Sketchbook, Penup va Infinite Painter, an’anaviy san’at vositalarni raqamli muhitda takrorlaydi va talabalarga yangi ijodiy imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu dasturlar grafik planshetlar, yuqori aniqlikdagi sensorli ekranli qurilmalar va zamonaviy interfaolli texnologiyalar bilan jihozlangan qurilmalar orqali qulay foydalanish imkonini taqdim etadi, bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil qiladi va zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning integratsiyasi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.Bu borada O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich rahbarligida qabul qilingan PF-5847-son Prezident farmoni (“O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 28-oktabr)[12] hamda PQ-4884-son Prezident qarori (“Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabr)[13] da ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan.

Rangtasvir fani oliy pedagogik ta’limda estetik tarbiya va ijodiy salohiyatni rivojlantirishning muhim vositasidir.[14] Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi rangtasvir o‘qitish metodikalarini tubdan o‘zgartirmoqda.[15] Grafik dasturlar Krita, Sketchbook, Penup va Infinite Painter, an’anaviy san’at vositalarni raqamli muhitda takrorlaydi va talabalarga yangi ijodiy imkoniyatlarni ochib beradi[16]. Ushbu dasturlar grafik planshetlar, yuqori aniqlikdagi sensorli ekranli qurilmalar va zamonaviy interfaolli texnologiyalar bilan jihozlangan qurilmalar orqali qulay foydalanish imkonini taqdim etadi, bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil qiladi va zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning integratsiyasi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi .[17]

Ushbu tezis rangtasvir fanini grafik dasturlar orqali o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan.Tezisda quyidagi asosiy masalalar ko‘rib chiqiladi:

Rangtasvir o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash nafaqat talabalarga yangi ijodiy imkoniyatlar ochadi, balki o‘qituvchilar uchun ham yangi metodik yondashuvlarni talab

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 28-oktabr). O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-5847-son Prezident farmoni).
[13]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, 6-noyabr). Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-4884-son Prezident qarori).
[14] Smith, J. (2020). Digital Tools in Art Education: A Global Perspective. London: Routledge.
[15] Abdumajitov, A. Sh. (2023, iyun). Grafik dasturlar orqali o‘quvchilarga rasm chizishni o‘rgatish [O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 20-son]. Chirchiq davlat pedagogika universiteti. https://www.researchgate.net/publication/394998573_o%27zbekistonda_fanlararo_innovatsiyalar_va_ilmiy_tadqiqotlar_jurnali
[16] Abdumajitov, A. (2025). Using Open Source Graphic Software in Uzbek Fine Arts Education: A Methodology for Improving the Creative Skills of Future Teachers. Journal of Contemporary American Linguistics, Education and Pedagogy, 1(3), 500-507Rhode
[17] Adobe Inc. (2023). Adobe Creative Suite: Educational Applications. https://www.adobe.com/creativecloud

qiladi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda grafik dasturlarni o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari, ularning amaliy qo‘llanilishi va ta’lim sifatiga ta’siri keng yoritiladi[18].

Rangtasvir fanini o‘qitishda grafik dasturlardan foydalanish esa talabalarga nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Biroq, bu jarayonning samaradorligi aynan yuqorida qayd etilgan Prezident farmon va qarorlarida nazarda tutilganidek, pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda ta’lim muhitining moslashuvchanligini ta’minlashga bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha faol islohotlar amalga oshirilmoqda.[19] Biroq, grafik dasturlarni o‘qitish jarayoniga integratsiyalashda bir qator muammolar mavjud, masalan:

O‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar bo‘yicha yetarli malakaga ega emasligi.

Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy texnik resurslarning cheklanganligi .

Grafik dasturlarni o‘qitish uchun maxsus metodik yondashuvlarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida mazkur tadqiqotda grafik dasturlarni o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari chuqur o‘rganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi nafaqat mahalliy ta’lim tizimi, balki xalqaro miqyosda raqamli ta’limning rivojlanish tendensiyalari bilan ham bog‘liq.

Tadqiqot uslublari tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo‘llanildi:

Adabiyotlar tahlili: Rangtasvir o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha xalqaro va mahalliy tajribalar o‘rganildi. Krita, Sketchbook, Penup, Infinite Painter va boshqa platformalar tomonidan taqdim etilgan grafik dasturlarning imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari: O‘zbekistonning bir qator oliy ta’lim muassasalarida rangtasvir fanini grafik dasturlar (Krita, Sketchbook, Penup, Infinite Painter) orqali o‘qitish bo‘yicha tajribalar o‘tkazildi. Tajribada 50 nafar talaba va 10 nafar o‘qituvchi ishtirok etdi.

So‘rovnoma: Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida grafik dasturlarni o‘qitishning samaradorligi, qiyinchiliklari va afzalliklari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Tahliliy usullar: Olingan ma’lumotlar statistik tahlil qilindi va grafik dasturlarni o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida talabalarning grafik dasturlarni o‘zlashtirish darajasi, o‘qituvchilarning malakasi va texnik resurslarning ta’lim jarayoniga ta’siri keng ko‘lamda tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida rangtasvir fanini grafik dasturlar orqali o‘qitishning quyidagi asosiy pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi:

O‘qituvchilarning malakasi grafik dasturlarni o‘qitishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning 70% dan ortig‘i grafik dasturlarni o‘qitishda yetarli tajribaga ega emas. Shu sababli, o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslariga jalb qilish zarur. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning 80% maxsus treninglar va seminarlar orqali malakasini oshirishga tayyor ekanligini bildirdi.

[18] Abdumajitov, A. (2025). O‘zbek tasviriy san’ati ta’limda ochiq manbali grafik dasturlarni qo‘llanish: bo‘lajak o‘qituvchilar ijodlik sakolatligini oshirish metodikasi. Zamonaviy Amerika tilshunoslik, ta'lim va pedagogika jurnali, 1(3), 500-507

[19] Kim, S. (2022). Digital Art Education in South Korea: Trends and Innovations. Seoul: ArtEd Press.

O‘quv jarayonida zamonaviy kompyuterlar, grafik planshetlar va litsenziyalangan dasturiy ta’minotlardan foydalanish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalarning 85% texnik resurslarning yetishmasligini o‘qitish jarayonidagi asosiy muammo sifatida qayd etgan. Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan guruhlarda talabalarning ijodiy loyihalari sifati 25% ga oshgan.

Grafik dasturlarni o‘qitishda loyiha asosidagi ta’lim va interaktiv metodlar samarali ekanligi isbotlandi. Masalan, talabalar tomonidan raqamli muhitda yaratilgan loyihalar ularning ijodiy salohiyatini 30% ga oshirdi. Interaktiv metodlar, xususan, real vaqt rejimida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlik, talabalarning motivatsiyasini oshirishga yordam berdi.

Talabalarning estetik tarbiyasi grafik dasturlarni qo‘llash talabalarning estetik qarashlarini rivojlantirishga yordam beradi. Raqamli vositalar orqali talabalar ranglar, kompozitsiya va dizayn elementlari bilan ishlashda yangi imkoniyatlarni kashf etadi. Tajriba-sinov guruhlarida talabalarning estetik tarbiyasi darajasi o‘rtacha 20% ga oshganligi qayd etildi.

Xalqaro tajribalarni o‘rganish natijasida ko‘plab mamlakatlarda grafik dasturlarni tasviriy san’atda o‘qitishda qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalar mavjudligi aniqlandi. Masalan:

Rhode Island School of Design (AQSh, Providence, Rhode Island) — Rasmiy sayt: www.risd.edu. Mazkur oliy ta’lim muassasasida raqamli san’at yo‘nalishlari chuqur o‘qitiladi. Ta’lim jarayonida Adobe Creative Suite, Procreate, Blender va After Effects kabi grafik dasturlar keng qo‘llaniladi. Shuningdek, Krita, Sketchbook, Penup hamda Infinite Painter dasturlari talabalar uchun qo‘shimcha ijodiy vosita sifatida tavsiya etiladi, biroq ular rasmiy o‘quv dasturida asosiy o‘rin egallamaydi.[20]

Royal College of Art (Buyuk Britaniya, London) — Rasmiy sayt: www.rca.ac.uk. Ushbu ta’lim muassasasi san’at va dizayn yo‘nalishlarida yetakchi o‘quv yurtlaridan biri bo‘lib, ilg‘or texnologiyalarni ta’lim jarayoniga faol integratsiya qiladi. Raqamli rasm chizish bo‘yicha ta’limda Photoshop, Illustrator, ZBrush, Rhino, KeyShot va Blender kabi dasturlar keng qo‘llaniladi. Krita, Sketchbook, Penup va Infinite Painter kabi dasturlar esa talabalar tomonidan mustaqil ijodiy ishlar uchun foydalanilishi mumkin, ammo rasmiy o‘quv dasturida asosiy dasturlar sifatida keltirilmagan.

Janubiy Koreyada raqamli san’at ta’limi bo‘yicha maxsus platformalar ArtStation va Behance talabalarning portfoliolarini shakllantirishda keng qo‘llaniladi.[21]

Yevropa Ittifoqida ochiq manbali grafik dasturlar GIMP va Krita o‘quv jarayoniga joriy etilgan bo‘lib, bu ta’lim xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Arizona Universiteti (University of Arizona) ham o‘qituvchilar va talabalariga to‘liq Creative Cloud kolleksiyasini bepul berib, video tahrirlash va grafik dizaynda foydalanishga imkon yaratmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro tajribalarni joriy etish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali o‘qituvchilar va talabalar uchun tajriba almashish dasturlarini tashkil etish.

Raqamli ta’lim platformalarini mahalliy shart-sharoitlarga moslashtirish.

O‘tkazilgan keng qamrovli tadqiqotlar va pedagogik eksperimentlar shuni ko‘rsatdiki, oliy pedagogik ta’lim tizimida tasviriy san’at, xususan, rangtasvir fanini o‘qitishda zamonaviy

[20] Rhode Island School of Design. (2021). Integrating Digital Tools in Fine Arts Curriculum. Providence. https://www.risd.edu
[21] O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi. (2023). Raqamli ta’limni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent.

yondashuvlar va tendensiyalarni joriy etish ta’lim sifatini yaxshilashning asosiy shartidir. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa Krita, Sketchbook, Infinite Painter kabi grafik dasturlar, an’anaviy rangtasvir ta’limini boyituvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.Maqolada belgilangan maqsadga erishildi: rangtasvir fanini grafik dasturlar orqali o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari asoslandi va amaliyotga joriy etish mexanizmlari aniqlandi.

Raqamli vositalarning ta’limdagi roli: Grafik dasturlarning integratsiyasi talabalarning motivatsiyasini oshiradi, ijodiy erkinlikni shakllantiradi va eksperimentlar uchun imkoniyatlar yaratadi. Raqamli muhitda ranglar va kompozitsiyalar bilan ishlash tasavvur va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Pedagogik shart-sharoitlar: Grafik dasturlarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun zamonaviy texnik ta’minot, dasturiy ta’minot va interaktiv materiallar zarur. O‘quv dasturlarini raqamli san’atga moslashtirish muhimdir.

O‘qituvchilarning tayyorgarligi: Raqamli savodxonlikni oshirish uchun malaka kurslari va metodik yordam zarur, bu an’anaviy va raqamli texnikalarni uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

O‘quv jarayonini rivojlantirish: Loyiha asosidagi ta’lim va interaktiv metodlar o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi, talabalarga portfoliolarini namoyish etish va xalqaro hamkorlik imkonini beradi.

Baholash tizimi: Raqamli ishlar uchun aniq mezonlar va portfolio asosidagi baholash tizimi zarur, bu ijodiy jarayonni ham baholashga imkon beradi.

Ushbu natijalar tasviriy san’at ta’lim sifatini oshirishga, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilishga va raqamli ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot raqamli texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslarini boyitadi, pedagogik shart-sharoitlarni asoslaydi va kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 28-oktabr). O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-5847-son Prezident farmoni).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, 6-noyabr). Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-4884-son Prezident qarori).
3. Smith, J. (2020). Digital Tools in Art Education: A Global Perspective. London: Routledge.
4. Abdumajitov, A. Sh. (2023, iyun). Grafik dasturlar orqali o‘quvchilarga rasm chizishni o‘rgatish [O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 20-son]. Chirchiq davlat pedagogika universiteti. https://www.researchgate.net/publication/394998573_o%27zbekistonda_fanlararo_innovatsiyalar_va_ilmiy_tadqiqotlar_jurnali
5. Abdumajitov, A. (2025). Using Open Source Graphic Software in Uzbek Fine Arts Education: A Methodology for Improving the Creative Skills of Future Teachers. Journal of Contemporary American Linguistics, Education and Pedagogy, 1(3), 500-507Rhode
6. Adobe Inc. (2023). Adobe Creative Suite: Educational Applications. https://www.adobe.com/creativecloud

7. Abdumajitov, A. (2025). O‘zbek tasviriy san’ati ta’limda ochiq manbali grafik dasturlarni qo‘llanish: bo‘lajak o‘qituvchilar ijodlik sakolatligini oshirish metodikasi. Zamonaviy Amerika tilshunoslik, ta'lim va pedagogika jurnali, 1(3), 500-507
8. Kim, S. (2022). Digital Art Education in South Korea: Trends and Innovations. Seoul: ArtEd Press.
9. Rhode Island School of Design. (2021). Integrating Digital Tools in Fine Arts Curriculum. Providence. https://www.risd.edu
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi. (2023). Raqamli ta’limni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent.

BOLALAR IJODIDA TASVIRIY SAN’ATNING O‘RNI

Akbarova Uraltosh Akbarovna, Ikromov Umid Ikromovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi 2-bosqich talabalari.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17392278

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bolalar ijodiy rivojlanishida tasviriy san’atning tutgan o‘rni, uning tarbiyaviy, psixologik va estetik ahamiyati yoritilgan. Rasm chizish orqali bola o‘z fikrlarini, hissiyotlarini erkin ifoda etishi, atrof-muhitni badiiy tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirishi mumkinligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning bolalar ijodiga ta’siri va pedagogik yondashuvlarning samaradorligi ilmiy manbalar asosida o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar*: tasviriy san’at, bola ijodi, estetik tarbiya, rang-tasvir, psixologiya, rivojlanish, ijodkorlik.*

Аннотация. *в данной статье освещается роль изобразительного искусства в творческом развитии детей, его воспитательное, психологическое и эстетическое значение. Анализируется, что посредством рисования ребенок может свободно выражать свои мысли и чувства, развивать способность художественно представлять окружающую среду. Также на основе научных источников изучено влияние применения инновационных технологий в современном образовательном процессе на детское творчество и эффективность педагогических подходов.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, детское творчество, эстетическое воспитание, живопись, психология, развитие, творчество.*

Abstract. *This article highlights the role of fine arts in children's creative development, its educational, psychological, and aesthetic significance. It is analyzed that through drawing, a child can freely express their thoughts and feelings, develop the ability to artistically imagine the environment. Also, based on scientific sources, the influence of the use of innovative technologies in the modern educational process on children's creativity and the effectiveness of pedagogical approaches were studied.*

Keywords: *fine arts, child creativity, aesthetic education, painting, psychology, development, creativity.*

Kirish. Insoniyat tarixiga nazar tashlaganda, san’at qadimdan jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutib kelgan. Ayniqsa, tasviriy san’at inson ongining shakllanishi, badiiy tafakkurning rivojlanishi, estetik did va ma’naviy qadriyatlarning boyishida alohida ahamiyat kasb etadi. Ibtidoiy odamlarning g‘or devorlariga chizgan suratlari yoki dastlabki haykaltaroshlik namunalaridan tortib, zamonaviy raqamli san’at asarlarigacha bo‘lgan jarayon inson tafakkuri va ijodiy qobiliyatining uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

Bolalik davri inson hayotida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu davrda bola shaxs sifatida shakllanadi, uning qiziqishlari, dunyoqarashi va tafakkuri rivojlanadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola ilk yoshdanoq atrof-muhitni idrok etish, ko‘rgan-kechirganlarini qayta ishlash va o‘ziga xos tarzda ifodalashga intiladi. Bu jarayonda tasviriy san’at bola ijodiy salohiyatini namoyon etish va estetik dunyoqarashini shakllantirishning muhim vositasidir.

Tadqiqotning maqsadi — bolalar ijodida tasviriy san’atning psixologik, estetik va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida masalaning dolzarbligini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Psixolog L. S. Vygotskiy bolalar ijodida tasavvur va real hayotning uyg‘unlashuvi muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bola chizayotgan oddiy suratida ham uning kechinmalari, hayotiy tajribasi va orzulari mujassam bo‘ladi. J. Piajening tadqiqotlarida ham bolalik davrida ijodkorlikning shaxsiy rivojlanishga ta’siri alohida qayd etiladi.

Estetik tarbiya bo‘yicha tadqiqotlarda (A. Spirkin, D. Kolominskiy va boshq.) tasviriy san’at bolaning go‘zallikni anglash, rang va shakllarni uyg‘unlashtirish, tabiat va jamiyat hodisalarini badiiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishi ta’kidlanadi.

So‘nggi yillarda UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar olib borgan tadqiqotlarda san’at ta’limi bolalarda ijodiy fikrlash, ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik va o‘zini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga egaligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Metodologik asos sifatida maqolada psixologik, pedagogik va madaniyatshunoslik yondashuvlari uyg‘unlashtirilgan.

Muhokama va natijalar.

1. Bola psixologiyasida tasviriy san’atning o‘rni.

Tasviriy san’at bolaga dunyoni badiiy idrok etish va obrazlarda qayta yaratish imkonini beradi. Bu jarayon bolaning xotira, diqqat va tafakkurini mustahkamlaydi. Shuningdek, ijodiy faoliyat bolaning ichki dunyosini ifodalash vositasi sifatida uning emotsional holatini barqarorlashtiradi.

2. Estetik tarbiya va ijodiy tafakkur

Rasm chizish, haykal yasash yoki ranglar bilan ishlash orqali bola go‘zallikni his qilish, uyg‘unlikni anglash, voqea-hodisalarni badiiy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Natijada estetik didi va ijodiy tafakkuri rivojlanadi.

3. Mustaqil fikrlash va ijtimoiy moslashuv

San’at mashg‘ulotlari bolaning mustaqil qaror qabul qilishiga, o‘z fikrini obrazlarda ifodalashiga va ijtimoiy muhitga tezroq moslashishiga yordam beradi. Shu tariqa bola o‘zini shaxs sifatida anglaydi.

4. Innovatsion yondashuvlar

O‘zbekiston ta’lim tizimida san’at darslarini STEAM yondashuvi bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy metodik majmualar yaratish va raqamli texnologiyalardan foydalanish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda.

5. Ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi

Bolalar ijodini qo‘llab-quvvatlashda pedagog va ota-onaning birgalikdagi sa’y-harakatlari muhim. Ularning mehr-muhabbati, rag‘batlantirishi va ijodiy sharoit yaratishi bolaning badiiy salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tasviriy san’at bolalar ijodida nafaqat estetik mashg‘ulot, balki ruhiy-ma’naviy rivojlanish, estetik tarbiya va shaxsiy kamolotning muhim omilidir. U bolaning emotsional holatini, tafakkurini, mustaqil fikrlashini va ijtimoiy moslashuvini rivojlantiradi. Zamonaviy sharoitda innovatsion yondashuvlardan foydalanish, shuningdek, ota-ona va pedagoglarning hamkorligi bu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi.

Shunday qilib, tasviriy san’at bolalarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi ta’lim jarayonida uni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, s. (2022). Bolalar psixologiyasi va ijodiy rivojlanish. Toshkent: fan nashriyoti. Https://www.fan-nashriyoti.uz info@fan-nashriyoti.uz
2. Vygotskiy, l. S. (2020). Voobrazhenie i tvorchestvo v detskom vozraste. Moskva: pedagogika. Https://pedlib.ru/vygotsky info@pedagogika.ru
3. Gardner, h. (2019). Art, mind, and brain: a cognitive approach to creativity. New york: basic books. Https://www.basicbooks.com contact@basicbooks.com
4. Karimova, n. (2021). Estetik tarbiya asoslari. Toshkent: o‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti. Https://www.nuu.uz info@nuu.uz
5. Oecd (2023). The future of education and skills: creativity and critical thinking. Paris: oecd publishing. Https://www.oecd.org/education edu.contact@oecd.org
6. Unicef (2024). Art and creativity in early childhood development. Global report. Https://www.unicef.org/reports info@unicef.org

MAKTABDA FORTEPIANO TA’LIMINING AHAMIYATI

[1]O.Yunusov, [2]Maftuna Altmisheva, [3]Pokiza Abduvaliyeva
[1]CHDPU Musiqa ta ‘limi kafedrasi o‘qituvchisi , [2,3]Musiqa t`limi yo‘nalishi 2-kurs talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17392288

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabda fortepiano ta’limining o‘quvchi shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Unda musiqiy mashg‘ulotlarning kognitiv funksiyalar, irodaviy sifatlar va emotsional intellektni shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Fortepiano ta’limi bolaning intellektual va shaxsiy kamoloti uchun muhim vosita sifatida asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *fortepiano, musiqa ta’limi, kognitiv rivojlanish, shaxs kamoloti, pedagogika, o‘quvchi.*

Аннотация. *В статье анализируется влияние обучения игре на фортепиано на всестороннее развитие личности ученика. Показана роль музыкальных занятий в формировании когнитивных функций, волевых качеств и эмоционального интеллекта. Обучение игре на фортепиано обосновывается как важный инструмент для интеллектуального и личностного роста ребёнка.*

Ключевые слова: *фортепиано, музыкальное образование, когнитивное развитие, развитие личности, педагогика, ученик.*

Abstract. *This article analyzes the impact of piano education in school on the student's holistic personal development. It highlights the role of musical training in shaping cognitive functions, volitional qualities, and emotional intelligence. Piano education is substantiated as an important tool for a child's intellectual and personal growth.*

Keywords: *piano, music education, cognitive development, personal development, pedagogy, student.*

Maktab ta’lim tizimida musiqa fani o‘quvchining har tomonlama rivojlanishi, uning ma’naviy dunyosini boyitish va estetik didini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan musiqa san’ati, xususan, fortepiano ijrochiligi nafaqat maxsus musiqiy qobiliyatlarni o‘stiradi, balki bolaning kognitiv, psixologik va ijtimoiy kamoloti uchun ham mustahkam zamin yaratadi. Fortepiano chalishni o‘rganish jarayoni o‘zining murakkabligi va ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi; u o‘quvchidan yuksak diqqat, mustahkam iroda, mehnatsevarlik va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Bu shunchaki texnik mahoratni egallashdan iborat bo‘lgan mexanik jarayon emas, balki musiqiy asarning badiiy mazmunini chuqur anglash, uning obrazini yaratish va tinglovchiga yetkazib berish san’atidir. Fortepiano chalishni o‘rganish inson miyasining bir necha sohalarini bir vaqtning o‘zida faollashtiruvchi noyob faoliyatdir. Bunda ko‘ruv (notalarni o‘qish), eshituv (tovushlarni idrok etish va tahlil qilish), motorika (barmoqlar, qo‘llar va butun tananing muvofiqlashgan harakati) hamda emotsional markazlar o‘rtasida o‘ta murakkab neyron aloqalar tizimi ishga tushadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam musiqiy mashg‘ulotlar miyaning neyroplastikligiga, ya’ni tashqi ta’sirlar va tajriba natijasida o‘z strukturasi va funksiyalarini o‘zgartirish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Professional sozandalarning miyasida eshituv va motor korteksi sohalarida kulrang modda hajmining ortishi, shuningdek, miyaning ikkala yarim sharlari o‘rtasidagi axborot almashinuvini ta’minlaydigan qadoqsimon tananing (corpus callosum)

sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlangan. Bu esa, o‘z navbatida, analitik (chap yarim shar) va ijodiy-obrazli (o‘ng yarim shar) fikrlash o‘rtasidagi muvozanat va hamkorlikni kuchaytiradi [1].

Fortepiano mashg‘ulotlari bolaning yuqori darajadagi kognitiv funksiyalari, jumladan, diqqat konsentratsiyasi, xotira turlari va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Musiqa asarini o‘rganish jarayonida o‘quvchi nota matnidagi ko‘plab belgilar – dinamika, artikulatsiya, applikatura, ritmik tuzilmalar va garmonik ketma-ketliklarni bir vaqtning o‘zida e’tiborda tutishi kerak. Bu esa diqqatni bir nuqtaga jamlash, uni taqsimlash va zarurat tug‘ilganda bir vazifadan ikkinchisiga tezda o‘tish qobiliyatini mukammallashtiradi. Asarni yod olish esa nafaqat eshituv, balki ko‘ruv va motor xotirasini ham faol ishlatishni talab qiladi. Psixologik nuqtai nazardan, fortepiano ijrochiligi o‘quvchida maqsadga intiluvchanlik, sabr-toqat va mehnatsevarlik kabi shaxsning poydevorini tashkil etuvchi irodaviy sifatlarni shakllantiradi. Murakkab asarni parchalab o‘rganish, sekin-asta texnik qiyinchiliklarni yengib o‘tish va nihoyat, uni yaxlit holda ijro etishga erishish – bu kechiktirilgan mukofot uchun intizom bilan ishlashning yorqin namunasidir. Bu jarayon bolada o‘z mehnati natijasidan qoniqish hissini uyg‘otadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va kelajakdagi har qanday hayotiy qiyinchiliklarni yengish uchun ruhiy chidamlilikni tarbiyalaydi [2].

Zamonaviy musiqa pedagogikasi an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda, har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qobiliyati va psixologik holatiga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlarni ham o‘z ichiga oladi. Maktabda fortepiano o‘qitish jarayonida pedagogning asosiy vazifasi nafaqat texnik ko‘nikmalarni shakllantirish, balki eng avvalo bolada musiqaga bo‘lgan samimiy muhabbatni uyg‘otish, uning ijodiy tafakkurini rag‘batlantirish va mustaqil musiqiy fikrlashga o‘rgatishdir [3]. O‘qitishning dastlabki bosqichida o‘yin metodlari, yorqin va obrazli taqqoslashlardan foydalanish yuqori samara beradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Pedagog o‘quvchiga shunchaki notalarni to‘g‘ri bosishni emas, balki musiqiy obrazni yaratishni, asarning emotsional mazmunini ochib berishni, ya’ni musiqa orqali “gapirishni” o‘rgatishi lozim. Bu borada mashhur pedagog Genrix Neygauzning “Fortepiano chalishni o‘rgatish — bu shunchaki barmoqlarni harakatlantirish emas, balki musiqiy fikrni tarbiyalashdir” degan yondashuvi muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi [4]. O‘quvchining musiqachi sifatida har tomonlama rivojlanishida to‘g‘ri va izchil tanlangan repertuar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Repertuar o‘quvchining texnik imkoniyatlari, yoshi, musiqiy didi va individual xususiyatlariga to‘la mos bo‘lishi kerak. O‘quv dasturi I.S. Baxning polifonik asarlaridan tortib (bu mustaqil fikrlash va bir necha musiqiy ovozni bir vaqtda idrok etishni rivojlantiradi), V.A. Motsartning klassik sonatalari (uslubni his qilish, shakl tuzilishini anglash), F. Shopenning romantik pyesalari (emotsional ifoda vositalarini boyitish) kabi turli davrlar va uslublarga mansub asarlarni qamrab olishi lozim. Jahon mumtoz musiqasi bilan bir qatorda o‘zbek kompozitorlarining fortepiano uchun yaratgan asarlarini o‘rganish o‘quvchilarni milliy musiqa merosi bilan tanishtiradi, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi hamda milliy ohanglarni zamonaviy ijrochilik vositalari bilan uyg‘unlashtirish ko‘nikmalarini hosil qiladi [5].

Xulosa qilib aytganda, maktabda fortepiano ijrochiligini o‘qitish shaxsni shakllantirishning qudratli va serqirra vositasidir. U nafaqat maxsus musiqiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki kengroq miqyosda ta’sir ko‘rsatadi: kognitiv funksiyalarni (xotira, diqqat, tafakkur) faollashtiradi va mukammallashtiradi, irodaviy sifatlarni (sabr, intizom, maqsadga intilish) tarbiyalaydi, emotsional intellektni o‘stiradi hamda yuksak badiiy-estetik didni shakllantiradi. Zamonaviy pedagogika har bir o‘quvchining individualligiga asoslangan,

an’anaviy va innovatsion metodlarni uyg‘unlashtirgan holda yondashishni taqozo etadi. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoni va puxta tanlangan repertuar o‘quvchining nafaqat malakali ijrochi, balki musiqani chuqur his qiluvchi, uning mazmunini anglay oladigan, yuksak ma’naviyatli va har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishiga mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXAT

1. Gaser C., Schlaug G. Brain Structures Differ between Musicians and Non-Musicians // The Journal of Neuroscience. – 2003. – Vol. 23, № 27. – P. 9240–9245.
2. Hallam S. The Power of Music: A Research Synthesis of the Impact of Actively Making Music on the Intellectual, Social and Personal Development of Children and Young People. – London: Music Education Council, 2015.
3. Atabekova R. R. Fortepiano o‘qitish metodikasi // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2024. – Vol. 4, № 1. – P. 50-54.
4. Нейгауз Г. Г. Об искусстве фортепианной игры: Записки педагога. – Москва: Музыка, 1988.
5. Xalilov R. Boshlang‘ich sinflarda fortepiano o‘rgatish texnologiyasi va o‘quvchilarda musiqiy qobiliyatlar // Oriental Art and Culture. – 2022. – Vol. 3, № 1. – P. 52-61.

TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA MANZARA KOMPOZITSIYASINI TUZISH VA TASVIRLASH KOMPETENSIYALARINI IJODIY RIVOJLANTIRISH

[1]Baxriyev Ilhomjon Saidazimovich, [2]Rizvanova Dilso‘z Kahhorovna
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti
San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi
katta o‘qituvchisi, [2]Chirchiq shahar tarixi muzeyi katta ilmiy xodimi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17392298

Annotatsiya*. Ushbu ilmiy maqola tasviriy san’at o‘qituvchilarining manzara kompozitsiyasini tuzish va tasvirlash bo‘yicha ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik va amaliy asoslarini tizimli tahlil etishga bag‘ishlangan. Tadqiqot manzara janrining o‘ziga xos xususiyatlari, kompozitsion qonuniyatlar, rangshunoslik va perspektiva tamoyillari hamda pedagogik yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligiga ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan yondashadi. Maqolada o‘qituvchining badiiy-ijodiy mahoratini doimiy oshirib borishning zarurati asoslanib, bu jarayonda mustaqil ijodiy izlanishlar, ayniqsa, plener mashg‘ulotlarining o‘qituvchi va o‘quvchilar kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Аннотация*. Данная научная статья посвящена системному анализу теоретико-методологических и практических основ развития творческих компетенций преподавателей изобразительного искусства в построении и изображении пейзажной композиции. В исследовании с научно-педагогической точки зрения рассматриваются особенности жанра пейзажа, композиционные закономерности, принципы колористики и перспективы, а также взаимосвязь педагогических подходов. В статье обосновывается необходимость постоянного повышения художественно-творческого мастерства преподавателя, при этом особое внимание уделяется роли самостоятельных творческих поисков, в частности пленэрных занятий, в формировании компетенций как преподавателей, так и учащихся.*

Annotation*. This scientific article is dedicated to a systematic analysis of the theoretical, methodological, and practical foundations for developing the creative competencies of fine arts teachers in constructing and depicting landscape compositions. From a scientific and pedagogical perspective, the study examines the specific features of the landscape genre, compositional principles, color theory, and perspective, as well as the interrelation of pedagogical approaches. The article substantiates the necessity of continuously improving teachers’ artistic and creative skills, with special emphasis on the role of independent creative exploration, particularly plein air activities, in shaping the competencies of both teachers and students.*

Kalit so‘zlar *Manzara, kompozitsiya, ijodiy kompetensiya, pedagogika, tasviriy san’at, yorug‘-soya, rangshunoslik, perspektiva, plener, kompozitsion markaz.*

Kirish Bugungi O‘zbekiston san’at ta’limi tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yosh avlodni nafaqat kasbiy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularning estetik didini, badiiy tafakkurini va ijodiy salohiyatini ham yuksaltirishga qaratilgan. Ushbu

jarayonning markazida turgan tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari bu boradagi muvaffaqiyatlarni belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. O‘qituvchining kasbiy mahorati nafaqat nazariy bilimlarni etkazib berish, balki amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda shaxsiy namuna bo‘la olish bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, tasviriy san’atning eng murakkab va serqirra janrlaridan biri bo‘lgan manzara tasvirida o‘qituvchining kompozitsion va tasviriy mahorati talabalarning estetik didini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Manzara – tabiat go‘zalligini, uning cheksiz holatlarini, yorug‘lik va ranglarning o‘zaro o‘yinini aks ettiruvchi murakkab janr hisoblanadi. Bu janrda asar yaratish uchun o‘qituvchidan yuksak darajadagi kompozitsion, rangshunoslik va perspektivaga oid bilimlar, shuningdek, tabiatni chuqur his qilish va uni badiiy til orqali ifodalash qobiliyati talab etiladi. Ushbu maqolaning maqsadi – tasviriy san’at o‘qituvchilarining manzara kompozitsiyasini tuzish va tasvirlash bo‘yicha ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yo‘llarini ilmiy-pedagogik jihatdan o‘rganish, tahlil qilish va tizimlashtirishdan iborat. Bu tadqiqot, o‘z navbatida, manzara rangtasvirini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida tasviriy san’at, pedagogika va san’atshunoslik sohalariga oid fundamental adabiyotlar tahlil etildi. Xususan, G. V. Bedaning "Живопись и ее изобразительные средства" asarida rangtasvirning tasviriy vositalari, tonal va rang munosabatlariga oid qonuniyatlar atroflicha yoritilgan. Bu asar orqali manzara tasvirida yorug‘lik va soya yordamida hajm, fazo va masshtabni to‘g‘ri ifodalash bo‘yicha ilmiy xulosalar olindi. A. S. Zaytsevning "Наука о цвете и живописи" kitobi rangshunoslikning ilmiy asoslarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Uning rang doirasi, ranglarning psixologik ta’siri va uyg‘unligi haqidagi nazariyalari manzara asarining emotsional koloritini yaratishda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, L. S. Konevaning "Пейзаж, натюрморт. Учимся рисовать" asarida manzara va natyurmort ustida ishlashning bosqichma-bosqich yondashuvlari bayon etilgan bo‘lib, bu o‘qituvchilarning amaliy mahoratini oshirishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, manzara tasvirini yoritishda foydalaniladigan chiziqli va havo perspektivasi qonuniyatlari, bu haqda D. I. Kiplik o‘zining “Техника живописи” asarida batafsil ma'lumot beradi. Tadqiqotda san’at asarini tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, hamda pedagogik tajribalarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Metodologiyaning asosini o‘qituvchining nafaqat bilim egasi, balki ijodkor, tadqiqotchi va amaliyotchi sifatida doimiy rivojlanish konsepsiyasi tashkil etadi. Bu tamoyil o‘qituvchining shaxsiy ijodiy amaliyotini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish g‘oyasiga asoslanadi.

Muhokama va natijalar

Manzara kompozitsiyasini tasvirlash o‘qituvchidan bir necha asosiy kompetensiyalarni talab qiladi. Ular orasida eng muhim bo‘lganlari: kompozitsion, rangshunoslik va pedagogik kompetensiyalardir.

Har qanday manzara asarining muvaffaqiyati uning kompozitsiyasiga, ya’ni tasviriy elementlarning ma’lum bir tizimda o‘zaro bog‘lanishiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchilarga manzara elementlarini (osmon, er, daraxtlar, uylar va boshqalar) kompozitsiyani to‘g‘ri joylashtirishni o‘rgatishi kerak. Bu jarayon kompozitsion qonuniyatlarga, jumladan, oltin kesim, ritm, balans va kontrast tamoyillariga asoslanadi. O‘qituvchi simmetrik va asimmetrik, nazariy ma’lumot berishi, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarda kompozitsiyani to‘g‘ri qurishni namoyish

etishi zarur. Manzara asarida old, o‘rta va orqa planlarning o‘zaro bog‘liqligini to‘g‘ri tushuntirib berish muhimdir.

Manzara tasvirining emotsional koloritini yaratishda rangshunoslik va yorug‘likni to‘g‘ri tahlil qilish kompetensiyalari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘qituvchi yorug‘lik manbaini aniqlab, uning ta’siri ostida vujudga keladigan yorug‘lik (svet), yarim soya (полутень), o‘z soyasi (собственная тень) va tushgan soya (падающая тень) kabi tonal o‘zgarishlarni ishonarli tasvirlashni o‘rgatishi zarur. Bu jarayon yorug‘likning fizik xususiyatlariga asoslanadi. Manzarada havo perspektivasining ahamiyati beqiyosdir. O‘qituvchi masofaga qarab ranglarning o‘zgarishini, ya’ni uzoqdagi ob’ektlarning ranglari sovuq tuslarga (ko‘k, havo rang) moyil bo‘lishini, ularning aniqligi va kontrastining pasayishini tushuntirib berishi shart. Aynan reflekslar va yorug‘likning ranglarga ta’sirini ko‘rsata bilish asar haqqoniylikni oshiradi. Shu kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun, o‘qituvchi talabalar bilan birga plenerga chiqib, tabiatdan tasviriy eskizlar ishlashi, amaliy mashg‘ulotlarni muntazam ravishda o‘tkazishi zarur.

Manzara janrining eng muhim va murakkab jihatlaridan biri bu fazoni to‘g‘ri tasvirlashdir. Bu jarayon chiziqli perspektiva va havo perspektivasi qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Chiziqli perspektiva ob’ektlarning kuzatuvchiga nisbatan uzoqlashgan sari kichrayishi va parallel chiziqlarning ufq chizig‘idagi qo‘shilish nuqtasida kesishishini ifodalaydi. O‘qituvchi talabalarga turli xil bir nuqtali, ikki nuqtali yoki uch nuqtali perspektivalar yordamida manzara chuqurligini qanday tasvirlashni o‘rgatishi lozim. Bu, ayniqsa, shahar manzarasi yoki to‘g‘ri chiziqlar mavjud bo‘lgan ob’ektlarni tasvirlashda muhim ahamiyatga ega.

Havo perspektivasi esa havo qatlami ta’sirida ranglar va tonal xususiyatlarning o‘zgarishini anglatadi. Tabiat elementlari uzoqlashgan sari ob’ektlarning rangi o‘zgaradi (qizil va sariq ranglar kamayib, ko‘k va havo ranglar ustunlik qiladi), ularning konturi yumshoqroq bo‘ladi va yorug‘lik-soya kontrastlari pasayadi. Bu xususiyatlar plener mashg‘ulotlari davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatilib, rangtasvirda qo‘llanilishi lozim.

Yuqoridagi kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘z shaxsiy amaliyotini dars jarayoniga samarali integratsiya qilishi kerak. O‘quvchilar bilan birga ochiq havoda (plener) rasm chizish, eskiz kitoblaridan foydalanish, jonli tabiatni o‘rganish zarur. Bunday mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchi nafaqat kasbiy mahoratini namoyish etadi, balki talabalarning kuzatuvchanlik qobiliyatini va tabiat go‘zalligiga bo‘lgan estetik his-tuyg‘ularini ham rivojlantiradi. O‘qituvchi o‘z ijodiy tajribasini o‘quv jarayoniga integratsiya qilgan holda, o‘quvchilarning manzara janriga bo‘lgan qiziqishini oshirishga erishadi.

Xulosa

Tasviriy san’at o‘qituvchilarining manzara kompozitsiyasini tuzish va tasvirlash bo‘yicha ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish – bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biridir. Maqolada keltirilgan uslubiy yondashuvlar yorug‘lik, rangshunoslik, kompozitsiya va perspektiva qonuniyatlarini amaliyotda qo‘llashga qaratilgan bo‘lib, bu o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi o‘z shaxsiy ijodiy tajribalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilgan holda, o‘quvchilarning manzara janriga bo‘lgan qiziqishini oshirishga erishadi. Bu, o‘z navbatida, kelajak avlodning badiiy-estetik saviyasini, shuningdek, yurtimizning san’at sohasidagi nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda manzara janrini o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, plenerlar tashkil etish kabi yo‘nalishlar o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Беда Г. В. Живопись и ее изобразительные средства. Учеб. пособие. — М.: «Просвещение», 1977.
2. Вибер Ж. Живопись и ее средства. — 1961.
3. Зайцев А. С. Наука о цвете и живописи. — М.: «Искусство», 1986.
4. Жадова Л. А. Современная живопись Узбекистана. — Ташкент, 1962.
5. Киплик Д. И. Техника живописи. — М.: «СВАРОГ и К», 1999.
6. Конева Л. С. Пейзаж, натюрморт. Учимся рисовать. — Минск: «Современный литератор», 2002.
7. Панксенов Г. И. Живопись. Форма, цвет, изображение: учеб. пособие. — М.: «Академия», 2007.
8. Сланский Б. Техника живописи. — М.: Издательство Академии художеств СССР, 1962.
9. Натюрморт, манзара, портрет ва композициянинг яратилиши асослари. Методик qo‘llanma. — Тошкент, 1999.
10. Как рисовать натюрморт. Учебное издание. — 2002.
11. Бахриев И. С. Rangtasvir: o‘quv qo‘llanma. — Chirchiq, 2024.
12. Baxriyev I.S. Rangshunoslikning bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining manzara kompozitsiyasini tuzish va tasvirlashdagi ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati // Kasb-hunar ta’limi = Профессиональное образование = Professional education: ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. – 2025. – № 6.1. – С. 198–206.
13. Baxriyev I.S. Future figurative art to their teachers landscape composition to compose and to describe to teach creative competencies develop methodology EDUVISION: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements. – 2025. – Vol. 01, Issue 06. – June. – ISSN (E): 3061-6972
14. Baxriyev I.S. Tasviriy san’at o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda manzara kompozitsiyasining o‘rni // Journal of IQRO – Журнал Икро – IQRO jurnali. – 2024. – Vol. 13, Issue 01. – ISSN: 2181-4341. – С. 7–11.
15. Baxriyev, I. (2023, December). BO ‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O ‘QITUVCHILARINI O ‘QITISHDA IJODIY RIVOJLANISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
16. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). COMPOSITION AND IMPROVEMENT OF METHODOLOGY OF DESCRIPTION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE FINE ART TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(7), 60-62.
17. Baxriyev, I. S. (2021). RANGTASVIR ASARI ISHLASHDA KOMPOZITSIYA FANINING MUHUM AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, *2*(12), 315-322.
18. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(7), 63-66.
19. Baxriev, I. S. (2022). TASVIRIY SAN’AT RIVOJIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATII. *Academic research in educational sciences*, *3*(6), 818-823.

20. Baxriyev, I. S. (2023). SAN’AT ASARLARIDA KOMPOZITSIYA VA UNING MUHIM AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, *4*(6), 256-262.
21. Bakhriev, I. (2023). SCIENTIFIC THEORETICAL BASIS OF TEACHING YOUNG STUDENTS TO DESCRIBE LANDSCAPE COMPOSITION. *European International Journal of Pedagogics*, *3*(02), 47-53.
22. Бахриев, И. (2020). РИВОЯТЛАРНИНГ САНЪАТ АСАРЛАРИДАГИ ТУТГАН УРНИ ВА УНИНГ БАРКАМОЛ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДАГИ АХДМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, (2), 286-295.
23. Baxriyev, I. S. (2021). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF FINE ARTS. *Экономика и социум*, (9 (88)), 28-32.
24. Baxriyev, I. S. (2021). PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. *Экономика и социум*, (9 (88)), 33-35.
25. Султанов, Х. Э., Марасулова, И. М., Махмудов, М. Ж., & Бахриев, И. С. (2020). На пути совершенствования изобразительного искусства в непрерывном образовании: из опыта работы. *Academic research in educational sciences*, (4), 231-237.
26. Ugli, A. N. N., Saidazimovich, B. I., & Jabbarovich, M. M. (2020). Muhandislik grafikasida multimediyaning tutgan o‘rni. *Academic research in educational sciences*, (4), 639-646.
27. Saidazimovich, B. I. (50). 50 YEARS OF THE XX CENTURY THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANDSCAPE GENRE.

TASVIRIY SAN’AT ORQALI RUHIY SALOMATLIKNI BARQORORLASHTIRISHNING ILMIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

[1]Baxriyev Ilhomjon Saidazimovich, [2]Bo‘riboyeva Kamola Ilhom qizi, [3]Jumayeva Nafisa Orif qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2,3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandistlik grafikasi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17392308

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada tasviriy san’atning inson tafakkuriga umumiy ta’siri asoslab berilib, Art terapiya (san’at orqali davolash) usulining ruhiy salomatlikni barqarorlashtirishdagi ilmiy-psixologik asoslari tahlil qilingan. Art terapiya rangtasvir, rasm chizish, haykaltaroshlik va qo‘l mehnati kabi ijodiy jarayonlar orqali shaxsning ichki hissiyotlarini non-verbal (so‘zsiz) shaklda ifodalashga, stress va xavotir darajasini kamaytirishga qaratilgan. Tadqiqotda Art terapiyaning asosiy qiymati shundaki, u chuqur travma, depressiya va og‘riqni so‘z bilan ifoda eta olmaydigan bolalar uchun samarali klinik vosita hisoblanadi. Shuningdek, bu usulning asosiy psixologik mexanizmlari — emotsional regulyatsiya, tafakkurni chuqurlashtirish va o‘z-o‘zini anglash kabi kognitiv rivojlanishga xizmat qilishi tahliliy nuqtai nazardan asoslab berilgan.*

Аннотация. *В данной научной статье обосновано общее влияние изобразительного искусства на человеческое мышление, а также проанализированы научно-психологические основы метода арт-терапии (лечение через искусство) в стабилизации психического здоровья. Арт-терапия, посредством таких творческих процессов, как живопись, рисование, скульптура и ручной труд, направлена на выражение внутренних эмоций личности в невербальной форме, а также на снижение уровня стресса и тревожности. Основная ценность арт-терапии, выявленная в исследовании, заключается в том, что она является эффективным клиническим инструментом для детей, которые не могут словами выразить глубокую травму, депрессию и боль. Кроме того, проанализированы ключевые психологические механизмы данного метода — эмоциональная регуляция, углубление мышления и самопознание как факторы когнитивного развития.*

Annotation. *This scientific article substantiates the general impact of visual art on human thinking and analyzes the scientific and psychological foundations of art therapy in stabilizing mental health. Art therapy, through creative processes such as painting, drawing, sculpture, and handicraft, is aimed at expressing an individual’s inner emotions in a non-verbal form and reducing levels of stress and anxiety. The study highlights that the primary value of art therapy lies in its effectiveness as a clinical tool for children who are unable to verbally articulate deep trauma, depression, and pain. Furthermore, the article analytically explains the core psychological mechanisms of this method — emotional regulation, deepening of thinking, and self-awareness as contributors to cognitive development.*

Kalit so‘zlar: *Art terapiya, psixologik ta’sir, ruhiy holat, stress, depressiya, xavotir, emotsional regulyatsiya, kognitiv rivojlanish, travma, non-verbal aloqa.*

Kirish

Tasviriy san’at inson hayoti va madaniy rivojlanishida doimo muhim o‘rin egallab kelgan. San’atning inson psixologiyasiga ta’siri nafaqat estetik zavq berish bilan cheklanib qolmaydi, balki ranglar va shakllar orqali bevosita ruhiy holatga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ranglarning psixologik jilosi yordamida inson ruhiy holatining barqarorlashuvi, emotsional nazoratning yaxshilanishi va umumiy ruhiy salomatlikning mustahkamlanishiga erishish mumkin. San’at insonning kognitiv jarayonlarini rag‘batlantirib, tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda, globalizatsiya va yuqori sur’atli hayot tarzi tufayli, stress, depressiya va xavotir kabi psixologik yuklamalar sezilarli darajada oshgan. Bunday murakkab ruhiy holatlarni tahlil qilishda an’anaviy so‘zga asoslangan psixoterapiya usullari (verbal terapiya) ba’zi cheklovlarga duch keladi. Ayniqsa, travmatik voqealarni boshdan kechirgan yoki yosh bolalar kabi o‘z hissiyotlarini verbal til orqali to‘liq ifoda eta olmaydigan shaxslar uchun og‘riqni tilga tarjima qilish qiyin kechadi. Shu nuqtai nazardan, Art terapiya — san’at orqali davolash usuli muhim klinik vosita sifatida yuzaga keladi. Ushbu metodika hissiyotlarni non-verbal (so‘zsiz) shaklga o‘tkazish imkonini beradi.

Art terapiyaning aynan travmatik ruhiy holatlarni yengib o‘tishga katta yordam berishi va bolalarning hislarini rasm orqali ifoda etishi kabi xususiyatlari, uning shunchaki stressni yengillashtirishdan ko‘ra chuqurroq, klinik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa ushbu metodikaning lingvistik cheklovlarni yengib o‘tishga qodir yagona vosita sifatida ishlashini anglatadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Art terapiyani shunchaki ijodiy mashg‘ulot sifatida emas, balki chuqur ilmiy-psixologik asoslarga ega bo‘lgan tizimli psixoterapiya usuli sifatida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda Art terapiyaning ta’rifi, uning klinik qo‘llanilish mexanizmlari, stress, xavotir va travma kabi ruhiy holatlarni bartaraf etishdagi samaradorligi va asosiy metodologiyalari batafsil ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Art terapiyaning nazariy asosi tasviriy san’atning inson ruhiy holatiga bevosita ta’sir etish qobiliyatiga tayanadi. "Tasviriy san’at va ranglarning inson hayotidagi o‘rni va ta’siri" kabi ilmiy ishlarda ham ranglarning inson psixologiyasiga o‘tkir ta’siri e’tirof etilgan. Ranglar jilosi, Art terapiya kontekstida, emotsiyalarni nazorat qilishda va ruhiy salomatlikni barqarorlashtirishda vositachi rolini o‘ynaydi.

Art terapiya — bu ranglar bilan rasm chizish, haykaltaroshlik va qo‘l mehnati kabi ijodiy jarayonlar orqali ichki hissiyotlarni oshkor etishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Bu usul inson ichki dunyosini so‘z bilan aytib bo‘lmaydigan holatlarda tuyg‘ularni tashqi shaklga chiqarish va ularni ilmiy tahlil qilish imkonini beradi. Bunday nazariy bazaning mavjudligi Art terapiyaning psixoterapiya sohasida ilmiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. San’at tarixi davomida buyuk rassomlar ijodi inson ruhiy holati va kognitiv jarayonlarini chuqur ifoda etish vositasi bo‘lib kelgan. Bu misollar Art terapiyaning nazariy asosini mustahkamlaydi, san’atning shunchaki estetik obyekt emas, balki chuqur ruhiy tahlil vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston va jahon san’atining namoyandalari ijodida san’atning ushbu terapevtik va kognitiv salohiyati yaqqol ko‘rinadi: Kamoliddin Behzod (1455-1536): Sharq miniatyura san’atining yirik vakili. Uning asarlaridagi nafis rang uyg‘unligi, ramziylik ifodasi va nozik

tasvir nafaqat go‘zallik, balki chuqur falsafiy va tafakkurga chorlovchi kognitiv jarayonlarni uyg‘otishga qodir. Behzod asarlari kabi murakkab tuzilgan san’at namunalarini tahlil qilish, ijodiy o‘sish va o‘z-o‘zini anglash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Leonardo da Vinchi (1452-1519): Uyg‘onish davri dahosi, uning "Mono Liza" va "So‘nggi kechki ovqat" kabi asarlaridagi chuqur psixologiya va realizm san’atning inson aqli va emotsiyalarini ilmiy aniqlikda aks ettirish qobiliyatini tasdiqlaydi.

Agar buyuk san’at asarlari inson psixologiyasini shunday chuqur aks ettira olsa, kichik, shaxsiy asarlar ham xuddi shunday samarali tahlil vositasi bo‘lishi mumkin. Vincent van Gog (1853-1890): Postimpresionizm asoschisi. "Yulduzli tunlar" kabi asarlari rassomning o‘ta keskin ruhiy holatini, stress va xavotirini kuchli vizual shaklga o‘tkazgan. Van Gog misoli san’atning og‘ir psixologik ziddiyatlar va travmatik kechinmalarni tashqi shakl orqali chiqarishdagi noyob rolini isbotlaydi. Chingiz Ahmarov va Raxim Ahmedov: O‘zbek monumental san’ati va portret ustalari ham san’atning shaxsiyat va ruhiy holatni vizual tarzda aks ettirishdagi universal kuchini namoyon etadi. Ushbu tadqiqot Art terapiyaning ta’siri va amaliy usullarini ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o‘rganadi. Maqolada mavjud klinik tavsiflar tizimlashtiriladi, Art terapiyaning psixologik mexanizmlari va uni qo‘llash sohalari tahliliy nuqtai nazardan ochib beriladi.

Muhokama va natijalar

Art terapiyaning klinik samaradorligining asosi uning non-verbal aloqaga tayanadigan mexanizmlarida yotadi. Odamlar, ayniqsa, chuqur travma yoki depressiya holatlarida, o‘z kechinmalarini so‘zlar bilan ifodalashga qiynaladilar, chunki bunday hissiyotlar ko‘pincha kognitiv filtrlardan oldin shakllanadi. Art terapiya ichki ruhiy holatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakl, rang va materiallar orqali tashqi shaklga chiqarish imkonini beradi. Bu jarayon shaxsiy kechinmalarni obyektivlashtirishga yordam beradi. San’at asari yaratilgandan so‘ng, terapevt va mijoz uni birgalikda tahlil qilishi mumkin. Bu esa insonning o‘z tuyg‘ularini masofadan turib, xavfsiz holatda ko‘rishiga, ichki ziddiyatlarni yaxshiroq tushunishiga va travmatik yukni yengillashtirishga olib keladi. Art terapiyaning ruhiy salomatlikka ta’siri ikki asosiy kategoriya bo‘yicha tizimli ravishda tahlil qilinadi. Art terapiya birinchi navbatda hissiy barqarorlikka erishishga qaratilgan, Ranglar jilosidan foydalanish stress va xavotir darajasini pasaytirishda juda katta yordam beradi. Bu jarayon emotsiyalarni nazorat qilishga va ruhiy salomatlikni uzoq muddatda barqarorlashtirishga yordam beradi. Travmatik ruhiy holatlarni yengib o‘tishda Art terapiya muhim vositadir. San’at orqali hissiy yukni tashqi shaklga o‘tkazish, shaxsga travma bilan bog‘liq og‘riqni verbal tilning og‘irligisiz xavfsiz qayta ishlashga imkon beradi.

Ijodiy jarayon insonning aqliy funksiyalarini rivojlantirishga ham bevosita ta’sir qiladi: Art terapiya ishtirokchilarga o‘zining ichki dunyosini, xususan, ong osti jarayonlarini obyektiv shakllar orqali anglash imkonini beradi. Bu tafakkurni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ijodiy mashg‘ulotlar orqali muammolarni noan’anaviy yechish qobiliyati kuchayadi, bu esa kognitiv rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Art terapiyada qo‘llaniladigan usullar har biri o‘ziga xos psixologik maqsadlarga xizmat qiladi va mijozning holatiga qarab tanlanadi.

O‘z-o‘zini anglash, idrokni rivojlantirish va ichki ziddiyatlarni obyektivlashtirish. Haykaltaroshlik yoki loy bilan ishlash ayniqsa, travmatik energiyani jismonan tuproqlash ya’ni yerga bog‘lash uchun muhimdir, chunki bu hissiyotlarni konkret, ushlab ko‘rsa bo‘ladigan shaklga keltirish orqali yengillik beradi. Art terapiya turli xil psixologik muammolarga duch kelgan shaxslar uchun keng qo‘llaniladi. Uning samaradorligi ayniqsa, so‘z bilan aloqa qilish qiyin bo‘lgan guruhlarda yuqori bo‘ladi. Bolalar Psixoterapiyasi bunda bolalar ko‘pincha hislarini so‘z bilan emas, rasm orqali ifoda qiladilar. Art terapiya bu tabiiy ifoda tilini

psixoterapevtik maqsadlarda qo‘llaydi, bu esa eng yuqori darajadagi klinik muvofiqlikni ta’minlaydi. Klinik holatlar ya’ni stress, depressiya va doimiy xavotir sezayotgan kattalar ham Art terapiya yordamida ruhiy muvozanatni tiklaydi. Travma va nogironlikda ayniqsa travma yoki yo‘qotishdan keyin qiynalayotgan shaxslar, shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalar va kattalar uchun Art terapiya o‘zini ifodalash va kommunikatsiya qilishning xavfsiz va samarali usulini taqdim etadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Art terapiyaning tasviriy san’atning ichki psixologik ta’siridan samarali foydalanuvchi, non-verbal va chuqur ilmiy asoslangan psixoterapiya usuli ekanligini tasdiqladi. Uning asosiy qiymati shundaki, u so‘z bilan ifodalanmaydigan travmatik va chuqur ruhiy holatlarni yengishda bebaho yordam beradi. Art terapiya tizimli ravishda hissiy muvozanatni tiklashga (stress va xavotirni kamaytirish) va kognitiv funksiyalarni rivojlantirishga (o‘z-o‘zini anglash) qodir.

Art terapiyaning metodik tahlili shuni ko‘rsatdiki, chizish, loy bilan ishlash va asarlarni tahlil qilish kabi turli usullar har xil klinik maqsadlarga xizmat qiladi, bu Art terapiya yondashuvining tizimli va mijoz ehtiyojlariga yuqori darajada moslashuvchanligidan dalolat beradi. Art terapiya bolalar, travma qurbonlari va nogironligi bo‘lgan shaxslar kabi o‘z hissiyotlarini verbal til orqali to‘liq ifoda eta olmaydigan zaif guruhlarga yordam berishda muhim hissa qo‘shadi. U inson ichki dunyosini tashqi shaklga chiqarishning xavfsiz va konstruktiv kanali vazifasini o‘taydi, shu bilan ruhiy salomatlikni yaxshilashda an’anaviy psixoterapiya usullarini to‘ldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.Umida Imomatova, A.Komila Abdumjidova, “Tasviriy san’at va ranglarning inson hayotidagi o‘rni va ta’siri”. "Iqro Journal".
2. Karimov, A. O‘zbek tasviriy san’at tarixi. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2005.
3. Baxriyev I.S. Rangshunoslikning bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining manzara kompozitsiyasini tuzish va tasvirlashdagi ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati // Kasb-hunar ta’limi = Профессиональное образование = Professional education: ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. – 2025. – № 6.1. – C. 198–206.
4. Baxriyev I.S. Future figurative art to their teachers landscape composition to compose and to describe to teach creative competencies develop methodology EDUVISION: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements. – 2025. – Vol. 01, Issue 06. – June. – ISSN (E): 3061-6972
5. Baxriyev I.S. Tasviriy san’at o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda manzara kompozitsiyasining o‘rni // Journal of IQRO – Журнал Икро – IQRO jurnali. – 2024. – Vol. 13, Issue 01. – ISSN: 2181-4341. – C. 7–11.
6. Baxriyev, I. (2023, December). BO ‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O ‘QITUVCHILARINI O ‘QITISHDA IJODIY RIVOJLANISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
7. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). COMPOSITION AND IMPROVEMENT OF METHODOLOGY OF DESCRIPTION IN THE PROFESSIONAL

TRAINING OF FUTURE FINE ART TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(7), 60-62.

8. Baxriyev, I. S. (2021). RANGTASVIR ASARI ISHLASHDA KOMPOZITSIYA FANINING MUHUM AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, *2*(12), 315-322.
9. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(7), 63-66.
10. Baxriev, I. S. (2022). TASVIRIY SAN'AT RIVOJIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATII. *Academic research in educational sciences*, *3*(6), 818-823.
11. Baxriyev, I. S. (2023). SAN'AT ASARLARIDA KOMPOZITSIYA VA UNING MUHIM AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, *4*(6), 256-262.
12. Bakhriev, I. (2023). SCIENTIFIC THEORETICAL BASIS OF TEACHING YOUNG STUDENTS TO DESCRIBE LANDSCAPE COMPOSITION. *European International Journal of Pedagogics*, *3*(02), 47-53.
13. Бахриев, И. (2020). РИВОЯТЛАРНИНГ САНЪАТ АСАРЛАРИДАГИ ТУТГАН УРНИ ВА УНИНГ БАРКАМОЛ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДАГИ АХДМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, (2), 286-295.
14. Baxriyev, I. S. (2021). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF FINE ARTS. *Экономика и социум*, (9 (88)), 28-32.
15. Baxriyev, I. S. (2021). PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. *Экономика и социум*, (9 (88)), 33-35.
16. Султанов, Х. Э., Марасулова, И. М., Махмудов, М. Ж., & Бахриев, И. С. (2020). На пути совершенствования изобразительного искусства в непрерывном образовании: из опыта работы. *Academic research in educational sciences*, (4), 231-237.
17. Ugli, A. N. N., Saidazimovich, B. I., & Jabbarovich, M. M. (2020). Muhandislik grafikasida multimediyaning tutgan o'rni. *Academic research in educational sciences*, (4), 639-646.
18. Saidazimovich, B. I. (50). 50 YEARS OF THE XX CENTURY THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANDSCAPE GENRE.

TASVIRIY SAN’ATDA KOMPOZITSIYANING O‘RNI VA UNING AHAMIYATI

[1]Baxriyev Ilhomjon Saidazimovich, [2]Erqulova Muattar Abdunabiyevna, [3]Umirzakov Mahmud Maksud o‘g‘li

[1]Chirchiq davlat pedagogka Unversiteti San’atshunoslik fakulteti Tasviriy San’at va dizayn kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2,3]Chirchiq davlat pedagogika unvesitei San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 1-kurs talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.17392318

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy san’atda kompozitsiyaning fundamental o‘rni va ahamiyati, uning san’at asarining g‘oyaviy-mazmuniy hamda badiiy ta’sirchanligini ta’minlashdagi markaziy vazifasi chuqur tahlil qilinadi. Kompozitsiyaning asosiy ifoda vositalari – ritm, dinamika, proporsiya, perspektiva, kontrast va nyuansning mohiyati nafaqat nazariy, balki amaliy va pedagogik nuqtai nazardan ochib berilgan. Tadqiqot kompozitsiyaning amaliy san’atda fazoviy yechimlar yaratish, asarning g‘oyaviy pishiqligini ta’minlash va bo‘lajak o‘qituvchilarni professional tayyorlashdagi beqiyos rolini ko‘rsatishga qaratilgan. Ushbu fundamental bilimlarsiz zamonaviy san'at texnologiyalarida ham muvaffaqiyatga erishib bo‘lmasligi ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Аннотация. *В данной статье глубоко анализируется фундаментальная роль и значение композиции в изобразительном искусстве, а также её центральная функция в обеспечении идейно-содержательной и художественно-эмоциональной выразительности произведения. Основные средства выразительности композиции — ритм, динамика, пропорция, перспектива, контраст и нюанс — раскрываются не только с теоретической, но и с практической и педагогической точек зрения. Исследование направлено на выявление исключительной роли композиции в создании пространственных решений в прикладном искусстве, обеспечении идейной зрелости произведения и профессиональной подготовке будущих педагогов. Научно обосновано, что без этих фундаментальных знаний невозможно добиться успеха и в современных технологиях искусства.*

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of the fundamental role and significance of composition in visual arts, highlighting its central function in ensuring the conceptual, semantic, and artistic expressiveness of an artwork. The main expressive means of composition — rhythm, dynamics, proportion, perspective, contrast, and nuance — are examined not only from a theoretical perspective but also through practical and pedagogical lenses. The study emphasizes the unique role of composition in creating spatial solutions in applied arts, ensuring the ideological maturity of artworks, and enhancing the professional training of future art educators. It is scientifically substantiated that without these fundamental principles, achieving success in modern art technologies is impossible.*

Kalit so‘zlar: *kompozitsiya, ritm, dinamika, proporsiya, oltin nisbat, perspektiva, kontrast, nyuans, fazoviy yechim, vizual ta’sirchanlik.*

Kirish. Tasviriy san’atning har qanday ko‘rinishida (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) kompozitsiya asarning "skeleti"ni, ya’ni uning barcha elementlarini yagona g‘oyaga

bo‘ysundiruvchi tashkiliy tamoyilni ifodalaydi. Kompozitsiya – nafaqat elementlarni joylashtirish, balki tomoshabin e’tiborini boshqarish, asarning hissiy ta’sirini kuchaytirish va chuqur ma’no yaratish vositasidir. Bu fan san’at asarining yakuniy badiiy qimmatini belgilab beruvchi universal qonuniyatlar tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli san’at va yangi texnologiyalar rivojlangan sharoitda ham, klassik kompozitsiya qoidalari o‘z dolzarbligini yo‘qotmadi, aksincha, ularni yanada mahorat bilan qo‘llash zaruriyati ortmoqda. Kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlarini bilish tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda muhim o‘rin tutadi, chunki u nafaqat ijodiy qobiliyat, balki mantiqiy fikrlash, fazoviy tasavvur va vizual kommunikatsiya ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Ushbu maqolaning maqsadi tasviriy san’at fanida kompozitsiyaning o‘rni va asosiy ifodaviy vositalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, shuningdek, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini kengaytirilgan holda yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Kompozitsiya nazariyasi qadimdan buyuk san’atshunoslar va rassomlar diqqat markazida bo‘lgan. Qadimgi Yunoniston madaniyatida, ayniqsa, haykaltaroshlikda mukammal proporsiyaga (masalan, "Oltin nisbat" qoidasi) erishish asosiy metodologiya sifatida qabul qilingan. Uyg‘onish davrida (Renessans) esa proporsiya va perspektiva nazariyasi fundamental darajaga ko‘tarildi. Leonardo da Vinchi, A. Dyurer kabi mutfakkirlar ilmiy izlanishlar olib borib, kompozitsiya qonuniyatlarini matematik va geometrik asosda tizimlashtirishdi. Jumladan, A. Dyurerning "To‘rt kitob proporsiya haqida" asari G‘arb san’atida inson tanasi proporsiyalarini belgilashda uzoq yillar asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston tasviriy san’at nazariyasida bu mavzu ko‘plab olimlar tomonidan milliy san’at an’analari bilan bog‘lab o‘ziga xos tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, sintez hamda tarixiy-mantiqiy metodologiyalar qo‘llanilib, kompozitsiya vositalarining har biri alohida o‘rganildi. Qiyosiy tahlil orqali klassik va zamonaviy kompozitsiya prinsiplari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi. Shuningdek, san’at pedagogikasi nuqtai nazaridan, kompozitsiya ta’limining samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy usullar ko‘rib chiqildi.

Muhokama va natijalar

Kompozitsiya qonuniyatlarini mukammal egallash asarning badiiy pishiqligini ta’minlaydi. Bunda har bir element (chiziq, shakl, rang, hajm, yorug‘lik) umumiy g‘oyani ochishga xizmat qilishi zarur. Kompozitsiyaning ifodaviy vositalari asarning ichki tuzilmasini tashkil etadi va ularning uyg‘unligi orqali vizual ta’sirchanlik yuzaga keladi.

Ritm — elementlarning tartibli takrorlanishi yoki o‘zgarishi orqali harakatni ifodalashga xizmat qiladi. Ritmning turlari (oddiy, murakkab, erkin) mavjud bo‘lib, ular asarga o‘ziga xos tuyg‘u va harakatni kiritadi. Dinamika esa asarga ichki kuch va harakatni kiritadi. Masalan, diagonal (qiyshiq) chiziqlarning qo‘llanilishi har doim vertikal va gorizontal chiziqlarga qaraganda yuqori dinamik ta’sir beradi. Qadimiy Old Osiyo san’ati asarlarida ham dinamik va plastik go‘zal yechimlar yaratilgan.

Proporsiya elementlar orasidagi mutanosiblikni ta’minlaydi. Bu mutanosiblikning eng mukammal namunasi sifatida Oltin nisbat qoidasi ilmiy asosga ega. Oltin nisbat qadimgi Misr piramidalari, Yunon ibodatxonalari va Uyg‘onish davri rassomlari (ayniqsa, Leonardo da Vinchi) asarlarida faol qo‘llanilgan. U vizual idrok uchun eng yoqimli va estetik jihatdan to‘g‘ri hisoblangan mutanosiblikni beradi. Bundan tashqari, havo (atmosfera) perspektivasi uzoq joylashgan obyektlarning rang va tonini o‘zgartirish orqali fazoviy chuqurlikni ifodalaydi.

Perspektivani o‘rgatish bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini shakllarni masofadan ko‘rish va tasvirlashga o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi. Chuqurlashgan-fazoviy kompozitsiya rangtasvir, haykaltaroshlik va keng qo‘llaniladi.

Kontrast (keskin qarama-qarshilik) vizual ta’sirni keskin kuchaytiradi. Kontrast nafaqat ranglar (och-qora, issiq-sovuq), balki shakllar (yumaloq-o‘tkir), chiziqlar (qalin-ingichka) va hajmlar (katta-kichik) o‘rtasida ham yuzaga keladi. Masalan, Issiq va Sovuq ranglar kontrasti asarning emotsional kayfiyatini keskin oshiradi Nyuans (mayin farq) esa yorug‘lik, rang yoki ton o‘tishlarida boylik va noziklik yaratadi. Nyuanslar asarga nafislik, yumshoqlik va sirli chuqurlik bag‘ishlaydi (masalan, Leonardo da Vinchining *sfumato* uslubida). Kontrast va nyuansning mohirlik bilan qo‘llanilishi asarning mazmunini ochib berishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir kompozitsiyada asosiy g‘oyani ifodalovchi yagona kompozitsion markaz bo‘lishi shart. Bu markaz tomoshabin diqqatini birinchi navbatda jalb qiladigan nuqtadir. Kompozitsiya simmetrik (muvozanatli, tinchlikni ifodalovchi) yoki asimmetrik (dinamik, harakatni ifodalovchi) bo‘lishi mumkin. Asosiy maqsad – asardagi barcha elementlarni shu markaz atrofida birlashtirish va umumiy yaxlitlikni ta’minlashdir. Badiiy asar faqatgina shu ifodaviy vositalar to‘plami orqali yagona yaxlitlikni hosil qiladi, bu esa uning estetik va ma’rifiy qimmatini belgilaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar bu prinsiplarni o‘zlashtirib, o‘quvchilarda nafaqat chizish texnikasini, balki estetik did va ijodiy fikrlashni ham rivojlantirishlari mumkin.

Xulosa

Kompozitsiya tasviriy san’atda eng muhim fanlardan biri hisoblanib, u ijodkorning niyatini eng aniq va ta’sirchan shaklda ifodalashga imkon beruvchi asosiy tartibga soluvchi mexanizmdir. Ritm, dinamika, proporsiya, kontrast, nyuans va perspektiva kabi vositalarning ilmiy-nazariy mohiyatini chuqur tushunish, har qanday badiiy asarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Oltin nisbat, perspektiva kabi qonuniyatlar nafaqat vizual muvozanatni, balki asarning g‘oyaviy chuqurligini ham yaratadi.

Kompozitsiya qonuniyatlarini o‘rgatish orqali bo‘lajak san’at o‘qituvchilarida faqatgina texnik mahorat emas, balki fazoviy fikrlash madaniyati, vizual idrokni boshqarish va estetik did ham rivojlanadi, bu esa ularning pedagogik va ijodiy faoliyati uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar kompozitsiya prinsiplarini zamonaviy multimedia muhitida qo‘llash va ularni virtual reallik sharoitida o‘rgatish metodologiyalariga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alimuhammedov A. (2018). *Kompozitsiya nazariyasi*. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
2. G‘ulomov I. (2020). *Tasviriy san’atda proporsiya va ritm*. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma.
3. Mirzayev N. (2019). *San’at asarining yaratilishida kompozitsiyaning o‘rni*. "San’atshunoslik" jurnali, №3.
4. Raupov B. (2017). *Perspektiva asoslari*. Darslik.
5. Leonardo da Vinchi. (1938). *Rassomlik san’ati haqida* (Tarjima). Moskva: San’at.
6. Dyurer A. (1985). *To‘rt kitob proporsiya haqida*. Moskva: San’at.
7. Baxriyev I.S. Rangshunoslikning bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining manzara kompozitsiyasini tuzish va tasvirlashdagi ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati // Kasb-hunar ta’limi = Профессиональное образование = Professional education: ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. – 2025. – № 6.1. – С. 198–206.

8. Baxriyev I.S. Future figurative art to their teachers landscape composition to compose and to describe to teach creative competencies develop methodology EDUVISION: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements. – 2025. – Vol. 01, Issue 06. – June. – ISSN (E): 3061-6972
9. Baxriyev I.S. Tasviriy san'at o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda manzara kompozitsiyasining o'rni // Journal of IQRO – Журнал Икро – IQRO jurnali. – 2024. – Vol. 13, Issue 01. – ISSN: 2181-4341. – С. 7–11.
10. Baxriyev, I. (2023, December). BO 'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O 'QITUVCHILARINI O 'QITISHDA IJODIY RIVOJLANISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:"Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).
11. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). COMPOSITION AND IMPROVEMENT OF METHODOLOGY OF DESCRIPTION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE FINE ART TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(7), 60-62.
12. Baxriyev, I. S. (2021). RANGTASVIR ASARI ISHLASHDA KOMPOZITSIYA FANINING MUHUM AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, *2*(12), 315-322.
13. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(7), 63-66.
14. Baxriev, I. S. (2022). TASVIRIY SAN'AT RIVOJIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATII. *Academic research in educational sciences*, *3*(6), 818-823.
15. Baxriyev, I. S. (2023). SAN'AT ASARLARIDA KOMPOZITSIYA VA UNING MUHIM AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, *4*(6), 256-262.
16. Bakhriev, I. (2023). SCIENTIFIC THEORETICAL BASIS OF TEACHING YOUNG STUDENTS TO DESCRIBE LANDSCAPE COMPOSITION. *European International Journal of Pedagogics*, *3*(02), 47-53.
17. Бахриев, И. (2020). РИВОЯТЛАРНИНГ САНЪАТ АСАРЛАРИДАГИ ТУТГАН УРНИ ВА УНИНГ БАРКАМОЛ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДАГИ АХДМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, (2), 286-295.
18. Baxriyev, I. S. (2021). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF FINE ARTS. *Экономика и социум*, (9 (88)), 28-32.
19. Baxriyev, I. S. (2021). PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. *Экономика и социум*, (9 (88)), 33-35.
20. Султанов, Х. Э., Марасулова, И. М., Махмудов, М. Ж., & Бахриев, И. С. (2020). На пути совершенствования изобразительного искусства в непрерывном образовании: из опыта работы. *Academic research in educational sciences*, (4), 231-237.
21. Ugli, A. N. N., Saidazimovich, B. I., & Jabbarovich, M. M. (2020). Muhandislik grafikasida multimediyaning tutgan o'rni. *Academic research in educational sciences*, (4), 639-646.
22. Saidazimovich, B. I. (50). 50 YEARS OF THE XX CENTURY THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANDSCAPE GENRE.

MANZARA KOMPOZITSIYASINI ISHLASHDA PLENER AMALIYOTINING MUHIM AHAMIYATI

Baxriyev Ilhomjon Saidazimovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
San’atshunoslik fakulteti. Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17392322

Annotatsiya*. Ushbu ilmiy maqola tasviriy san'at ta’limida manzara kompozitsiyasini yaratishda plener amaliyotining (ochiq havoda ishlash) o‘rni va muhimligiga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi, ta’lim tizimida studiya mashg‘ulotlariga ustuvorlik berilishi oqibatida talabalarning tabiat bilan bevosita muloqotining cheklanishi bilan bog‘liq. Maqolada plener mashg‘ulotlarining talabalarning badiiy idrokini, rangshunoslik bilimlarini, havo perspektivasi tuyg‘usini va kompozitsion fikrlashini rivojlantirishdagi muhim rolini ilmiy asoslashga qaratilgan. Asosiy ilmiy yangilik plenerda ishlashning uch bosqichli yangi metodikasini taklif qilishdan iborat: kuzatish, eskiz va yakuniy ishlash. Ushbu metodika talabalarda nafaqat texnik mahoratni, balki tabiatning doimiy o‘zgaruvchan holatlarini his qilish va tezkor ijodiy yechimlar qabul qilish kabi muhim kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilariga o‘quv jarayonida plener amaliyotiga ko‘proq e’tibor qaratish bo‘yicha amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so‘zlar*: plener, manzara, kompozitsiya, rangshunoslik, tasviriy san'at ta'limi, havo perspektivasi, ijodiy jarayon.*

Kirish

Tasviriy san’at tarixining rivojlanishi, ayniqsa, impressionizm kabi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi bilan rassomning tabiat bilan bevosita muloqoti, ya'ni plener (fransuzcha "en plein air" – ochiq havoda) amaliyoti alohida ahamiyat kasb etdi. Plenerda ishlash rassomga yorug‘lik, havo va ranglarning oniy o‘zgarishlarini his qilish va uni tezkorlik bilan asarda aks ettirish imkonini beradi. Bu jarayon studiya sharoitida, yorug‘lik manbai va ob’ektlar doimiy bo‘lgan muhitda erishib bo‘lmaydigan badiiy idrok va texnik mahoratni rivojlantiradi. Plener amaliyoti ko‘z bilan ong o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlab, rassomga ko‘rganini emas, balki his qilganini tasvirlashga imkon beradi.

Biroq, bugungi kunda tasviriy san'at ta’limida ushbu muhim amaliyotga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Ko‘pgina o‘quv dasturlari va darsliklar rangshunoslik hamda kompozitsiya qoidalarini asosan nazariy namunalar orqali o‘rgatadi. Natijada, talabalar o‘zlariga tanish bo‘lgan texnikani qo‘llaydilar, lekin ular yaratgan asarlarda jonli, tabiiy ranglar, havo muhiti va uning kompozitsion ta'siri yetishmaydi. Bu esa ularning ijodiy asarlarida yuzaki va sun'iy tasvirda namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqot plener amaliyotining nafaqat texnik, balki badiiy-ijodiy rivojlanishdagi muhim o‘rnini asoslashga qaratilgan. Maqolaning maqsadi – plener amaliyotini manzara kompozitsiyasini o‘qitish metodikasiga to‘liq integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Maqolani yozishda tasviriy san'atshunoslik, pedagogika va psixologiyaga oid ko‘plab ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Jumladan rangtasvirda tabiatdan ishlashning fundamental

ahamiyatini muhimligi, plenerda ishlash orqali ranglarning real o‘zgarishlarini tushunish va ularni asarda to‘g‘ri aks ettirish mumkinligini ta'kidlanadi. Shuningdek, I.I. Mashkov, K.S. Petrov-Vodkin kabi rus rassomlarining ijodiy tajribasi ham o‘rganilib, ularning plenerda ishlashga oid yondashuvlari tahlil qilindi. O‘zbekistonlik ko‘plab olimlarning ishlari tadqiqotlarida kompozitsiya va chizish qoidalariga oid umumiy ma’lumotlar berilganligini ham ta’kidlash lozim.

Muhokama va natijalar

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari manzara kompozitsiyasini o‘qitishda plener amaliyotining samaradorligini isbotladi. Taklif etilgan uch bosqichli metodika talabalarning badiiy idrokini va texnik mahoratini sezilarli darajada rivojlantirdi:

Kuzatish va tahlil**,** Bu bosqichda talaba shunchaki chizishga kirishishdan oldin, atrof-muhitni chuqur kuzatishga o‘rgatiladi. O‘qituvchi yorug‘likning o‘zgarishi, kun va havo holatiga qarab ranglarning tuslanishi, havo perspektivasining ta'siri kabi tabiat hodisalariga e'tibor qaratishga yo‘naltiradi. Talabalar yorug‘lik manbasini, asosiy ranglar palitrasini va kompozitsiyaning asosiy chiziqlarini aniqlaydilar. Bu bosqich badiiy tafakkur uchun zamin yaratadi.

Kuzatishdan so‘ng talabalar tezkor eskiz va etyudlar yaratishga o‘tadilar. Maqsad detallarga emas, balki asarning umumiy kayfiyati, katta rangli dog‘lar va yorug‘lik-soya munosabatlariga e'tibor qaratishdir. Bu bosqich talabalarga tezkor qarorlar qabul qilish va asarning o‘ziga xosligini topish ko‘nikmasini beradi. Eskizlar qalam, akvarel, yoki yog‘li pastel kabi materiallarda bajarilishi mumkin. Bu talabalarni vaqt va o‘zgaruvchanlik sharoitida ishlashga o‘rgatadi.

Yakuniy kompozitsiyani ishlash bosqichida Eng muhim detallar va rang munosabatlari eskizlarda topilgandan so‘ng, talaba katta formatda yakuniy ishni bajaradi. Bu bosqichda eskizdagi tezkorlik va to‘g‘ri topilgan yechimlar asarning asosiga aylanadi. Bu yerda ranglarning uyg‘unligi, havo perspektivasi va kompozitsiyaning yaxlitligi to‘liq ishlanadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, plener amaliyotini manzara kompozitsiyasini o‘qitish metodikasiga to‘liq integratsiya qilish bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi. Taklif etilgan uch bosqichli metodika talabalarni faqatgina texnik jihatdan emas, balki badiiy tafakkuri rivojlangan, tabiatni chuqur his eta oladigan va uni o‘z asarlarida ishonarli tarzda aks ettira oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Ilmiy yangilik plener amaliyotining nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan integratsiya qilishdagi asosiy vosita ekanligini ilmiy asoslashdan iborat. Maqolaning amaliy ahamiyati esa bu metodikani oliy ta'lim muassasalari o‘quv dasturlariga kiritish bo‘yicha aniq tavsiyalar berishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mogilevsev, V. A. **Основы живописи**: Ucheb. posobiye. – Sankt-Peterburg: 4art, 2012. – 96 s.
2. Baxriyev, I. (2023, December). BO ‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O ‘QITUVCHILARINI O ‘QITISHDA IJODIY RIVOJLANISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority*

areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions” (Vol. 1, No. 01).

3. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). COMPOSITION AND IMPROVEMENT OF METHODOLOGY OF DESCRIPTION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE FINE ART TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(7), 60-62.
4. Baxriyev, I. S. (2021). RANGTASVIR ASARI ISHLASHDA KOMPOZITSIYA FANINING MUHUM AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, *2*(12), 315-322.
5. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(7), 63-66.
6. Baxriev, I. S. (2022). TASVIRIY SAN’AT RIVOJIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATII. *Academic research in educational sciences*, *3*(6), 818-823.
7. Baxriyev, I. S. (2023). SAN’AT ASARLARIDA KOMPOZITSIYA VA UNING MUHIM AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, *4*(6), 256-262.
8. Bakhriev, I. (2023). SCIENTIFIC THEORETICAL BASIS OF TEACHING YOUNG STUDENTS TO DESCRIBE LANDSCAPE COMPOSITION. *European International Journal of Pedagogics*, *3*(02), 47-53.
9. Бахриев, И. (2020). РИВОЯТЛАРНИНГ САНЪАТ АСАРЛАРИДАГИ ТУТГАН УРНИ ВА УНИНГ БАРКАМОЛ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДАГИ АХДМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, (2), 286-295.
10. Baxriyev, I. S. (2021). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF FINE ARTS. *Экономика и социум*, (9 (88)), 28-32.
11. Baxriyev, I. S. (2021). PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. *Экономика и социум*, (9 (88)), 33-35.
12. Султанов, Х. Э., Марасулова, И. М., Махмудов, М. Ж., & Бахриев, И. С. (2020). На пути совершенствования изобразительного искусства в непрерывном образовании: из опыта работы. *Academic research in educational sciences*, (4), 231-237.
13. Ugli, A. N. N., Saidazimovich, B. I., & Jabbarovich, M. M. (2020). Muhandislik grafikasida multimediyaning tutgan o‘rni. *Academic research in educational sciences*, (4), 639-646.
14. Saidazimovich, B. I. (50). 50 YEARS OF THE XX CENTURY THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANDSCAPE GENRE.

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Botir Boltabayevich Baymetov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori
https://doi.org/10.5281/zenodo.17392329

Annotatsiya. *Maqola oliy ta’limda tasviriy san’at sohasida yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashda tasvirlash texnikasi va mahoratlarini shakllantirish, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda shakllarni idrok etish jarayonining muhim omili ekanligi, akademik rasm chizishning maqsad va vazifalari ijodiy rasm yaratish mohiyati, o‘quv vazifasini tasvirlash orqali talabalarda malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda tasviriy san’atning eng asosiy shakllaridan bo‘lgan badiiy asar yaratish jarayonida naturadan ishlash orqali talabalarning malakalarini takomillashtirish haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, metodika, badiiy ijod, shakl, tasvirlash texnikasi, texnik mahorat, o‘quv va akademik rasm, kompozitsiya, konstruksiya*

Аннотатсия. *В стате рассматриваются вопросы формирования приемов и навыков рисования при подготовке высококвалифитсированных педагогических кадров в области изобразителного искусства в высшей школе, важный фактор протсесса восприятия формы в профессионалной подготовке будущих учителей изобразителного искусства, тсели и задачи академического рисунка, сущност создания творческого рисунка, формирование навыков и умений у студентов через описание учебной задачи, а также совершенствование навыков студентов посредством работы с натуры в протсессе создания художественного произведения, являющегося одним из самых основных видов изобразителного искусства.*

Ключевые слова: *Изобразителное искусство, методика, художественное творчество, форма, техника рисования, художественное мастерство, учебный и академический рисунок, композитсия, построение.*

Abstract. *The article discusses the formation of drawing techniques and skills in the training of highly qualified teaching staff in the field of fine arts in higher education, an important factor in the process of form perception in the professional training of future art teachers, the goals and objectives of academic drawing, the essence of creative drawing, the formation of skills and abilities in students through the description of educational tasks, as well as the improvement of students' skills through working from life in the process of creating a work of art, which is one of the most basic types of fine arts.*

Keywords: *Fine arts, methodology, artistic creativity, form, drawing technique, artistic skill, educational and academic drawing, composition, construction*

Jahondagi globallashuv jarayonlar tufayli ta’limning integratsiyalashuvi, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Buni xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha yangi ta’lim konsepsiyasida “Ta’lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat”, deb e’tirof

qilinganligidan [1] bilish mumkin. Ayni paytda, zamonaviy pedagogik ta’limda yuqori samaradorlik natijalariga erisha oladigan o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning mukammal kasbiy kompetentligi hamda qobiliyatlarini yuqori darajada shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Yangi O‘zbekiston yoshlariga tasviriy san’at bilimlarini o‘rgatish, fanni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda uning o‘rni va rolini aniqlash, san’at va madaniyat, badiiy ta’lim tizimi istiqboliga doir masalalarni keng tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Sohadagi nomukammal va qotib qolgan jihatlardan iborat, mavhum o‘rinlarni yangicha qarashlar asosida, mental nuqtai nazaridan o‘rganish va to‘ldirishga zarurat sezilmoqda. Ta’kidlanganidek, “bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi” [2]. Respublikamizning pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarlashni takomillashtirish, tasviriy san’at o‘qituvchilarini kompetensiyaviy rivojlantirish uchun fan metodikasini zamonaviy ta’lim texnologiyalarga asoslangan o‘quv-uslubiy ta’minotini yaratish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida akademik rasm chizish asoslarini o‘qitish o‘zaro chambarchas bog‘langan bir qator vazifalar, xususan:

- badiiy did va ijodkorga xos dunyoqarashni shakllantirish;
- zarur ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va maxsus texnik ko‘nikmalarni egallashga undash;
- talaba iste’dodini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini oshirish singari masalalar ustida izlanish va ularni ijobiy hal qilishni talab etadi.

Akademik rasm chizishning maqsad va vazifalari ijodiy rasm yaratish mohiyatidan farq qiladi. O‘quv rasmi naturani o‘rganish orqali o‘zida muayyan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda asosiy e’tibor ta’lim olish va tahlil qilishga qaratiladi. Mashhur rassom-pedogog D.N. Kardovskiy yozganidek, tasviriy san’at sohasidagi ijodiy qobiliyatlar masalasini pedagogika, psixologiya, fiziologiya, san’atshunoslik kabi fanlar nuqtai nazaridan hal qilish uning ko‘lamini yanada kengaytiradi”[2.5].

Psixologlar va fiziologlar idrok, nazariy bilimlar va amaliy faoliyatning uzviy bog‘liqligini isbotlashgan. Bilim olish, amaliy ko‘nikmalar orttirish va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish masalalarini bir-biridan sun’iy ravishda ajratish mumkin emas. Ijodkor ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va amaliy ko‘nikmalar orttirishni uyg‘unlikda olib borishi kerak, bu ikki jarayon shaxsni komillik sari yetaklaydi. Tasvirlash jarayonida qo‘yilgan ta’lim va tahlil vazifalari talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil faoliyat uchun tayyorlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ijodiy tajribaning oshib borishi tasviriy savodxonlik qonunlarini o‘rganish va o‘zlashtirishga ilhomlantirishi lozim. Bu o‘quv ishlarning hamma turlari, jumladan, naturadan rasm chizishga ham daxldor. O‘quv rasmini chizishda ijod muammosi idrok va tafakkurni jonlantirish, naturadan ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirishdan chekinish, rasmda muayyan ifodaviylikka erishish bilan uzviy bog‘liq. Naturaga qarab rasm chizish voqelikni kuzatish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, ko‘rish xotirasini chiniqtirishga xizmat qilishi va shu orqali ijodiy imkoniyatlar chegarasini kengaytirib, tafakkurni yanada boyitishi kerak.

San’at tabiatidan kelib chiqib, akademik rasmni o‘quv-ijodiy faoliyat sifatida ta’riflash maqsadga muvofiqdir. Tabiiyki, “Akademik rasm” kursi o‘z oldiga talabalarning ijodiy iqtidorini

shakllantirishni vazifa qilib qo‘ygan va to‘plangan ilmiy bilim hamda amaliy ko‘nikmalar salmog‘i oshib borgani sayin, uning maqsadlari sarhadi ham kengayib borishi kerak. Chunki talaba qancha ko‘p bilsa, rasmning badiiy yechimini izlash masalalariga shuncha ko‘p vaqt ajratadi va o‘z faoliyatining ijodiy jihatlariga e’tiborliroq bo‘ladi. Akademik rasm va uning nozik xususiyatlari to‘g‘risidagi nazariy muloqotlar esa amaliy tajriba orttirish jarayoniga o‘zgacha joziba bag‘ishlaydi.

San’atshunoslik fakultetlaridagi mutaxassilik fanlarning asosiysi qalamtasvirdir. Lekin, uni naturaga qarab rasm chizishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Naturaga qarab rasm chizish bir-biri bilan uzviy bog‘liq ikki vazifani hal qilishga qaratilgan. Birinchidan, rassom tasavvurida badiiy obrazni to‘laqonli shakllantiradi. Ikkinchidan, shaklni badiiy ifodalash vositalaridan keng foydalanib tasvirlaydi.

Har ikki vazifa ijodiy jarayonning umumiy nazariyasi, badiiy pedagogikaning ko‘p asrlik tarixi tamoyillariga hamohangdir. Ba’zan akademik rasm chizish bo‘yicha ta’lim berish davrida yuqorida zikr etilgan vazifalar ikkiga bo‘linadi. Tarozining bir pallasidan, akademik rasm chizishga o‘qitish nazariyasi va uslubiyoti o‘rin oladi hamda tasviriy savodxonlik asoslari, badiiy ifodalash usullaridan saboq beriladi. Ikkinchi pallaga esa badiiy idrok, talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish vazifalari qo‘yiladi.

“Badiiy idrok” etish - bu sezgi, tasavvur, tahlil kabi hissiy in’ikos hamda borliqdan olingan turli taassurotlarni sintez qilish kabi murakkab jarayonlar bilan bog‘liq ruhiy harakatlardir. Natura va tasvirni badiiy idrok etish rasm chizishdagi o‘qish-o‘rganish va bilish jarayonining eng muhim omili hisoblanadi. Psixologiya nuqtai nazaridan olsak, “idrok ong, miyaning ijodiy jarayoni bo‘lib, ob’ektiv reallikni aks ettirishga qaratilgan turli mexanizmlarni belgilangan maqsadga muvofiq keladigan, funksional jihatdan dinamik tizimga birlashtiruvchi omillardan biridir. Uning aynan shu jihati badiiy idrokning faqat insonga xos bilish faoliyatidagi pedagogik ahamiyatini belgilaydi” [2.6.]. Akademik rasm chizishga o‘qitish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish masalasiga o‘tishdan avval, “ijod” tushunchasiga oydinlik kiritib olish kerak.

Ijod insonning ijtimoiy ahamiyatga ega, yangi va o‘ziga xos moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratishga qaratilgan faoliyati. Shaxsning bilim, tajriba, iste’dodni jalb qiladigan, tafakkur, xotira, tasavvur faol ishtirok etadigan ijodiy jarayonga nisbatan xususiy munosabati ijodkorlikning tarkibiy qismidir. Ijod – bu inson ongining atrof-muhitni bilish, voqelik va uning muayyan hodisalarini isloh qilishga qaratilgan yaratuvchanligidir. Shu nuqtai nazardan olsak, biz tasviriy faoliyat haqida umumiy mulohaza yuritganda ham, muayyan talabaning u yoki bu darajadagi ijodiy yondashuvi xususida fikr bildiramiz.

O‘quv jarayonini bilish turi yoki shakli sifatida qabul qilsak, ta’lim va ijodning o‘zaro omuxtaligi nafaqat oydinlashadi, balki muqarrar tamoyil maqomini oladi. Bilish asnosida intellektual tajriba sarhadi kengayadi. Avvallari ijodkorlik deya qadrlangan va baholangan masalalar, faoliyat qoidalarini o‘zlashtirish jarayonida odatiy, avtomatik va motorik harakatlarga aylanib qoladi. Tajriba, kasbiy malaka darajasining oshishi “ijodiy faoliyat maydonini” toraytiradi, lekin uning sifat ko‘rsatkichlarini yuksaltiradi.

Mohiyatan olganda, o‘quv va ijodiy ishlar o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari hamda natijalariga ko‘ra farq qiladi. "O‘quv ishi uchun anatomiya, konstruksiya, proporsiya, harakat, tus va rang munosabatlari, tonallik, rang ko‘lami, materiallarning ifodalash imkoniyatlari va hokazolarni o‘rganish maqsad bo‘lishi mumkin. Ijodiy ishda esa yuqorida sanalganlarning barchasi tasvirlash vazifasi sifatida maqsad emas, vosita rolini o‘ynaydi.

Rassomni bu maqsad va vazifalarni u yoki bu darajada ro‘yobga chiqarishni uddalashi uning kasbiy tayyorgarligi va tajribasiga (mahoratiga) bog‘liq. Qolaversa, ijodkor o‘z maqsadiga erishish uchun naturaga nisbatan qo‘yilgan ayrim talablardan voz kechishi mumkin va bunga to‘la ijodiy huquqi bor. Ijodiy ish maqsadi — obraz, asar, badiiy qadriyat, ne’mat yaratish. O‘quv ishlari zamirida ham aslida ijodkorlik yotadi. Yaratuvchanlik esa bilish jarayonining ajralmas, tarkibiy qismidir. Shuni ham unutmaslik kerakki, ijodkorlik tuyg‘usi pedagog tomonidan maqsadli vazifa sifatida belgilanishi va talabani shu yo‘lda izlanishga ilhomlantirishi mumkin”[4.19].

Yaratuvchanlik bilan bog‘liq har qanday faoliyat turi kabi, badiiy ijod ham izchil vazifalar ketma-ketligidan shakllanadi. Vazifalar qat’iy tartib asosida rejalashtirilishi hamda aynan shu ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim. Bu uzviylik zanjirining uzilishi, odatda, ijodiy g‘oyaning qashshoqlashishi, ifodaviylikning jo‘nlashishiga olib keladi.

Masalan, grafika yo‘nalishida asar yaratish belgilangan vazifalarni muayyan ketma-ketlikda bajarishdan iborat bo‘lib, u quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

- ✓ asarning kompozitsion g‘oyasini shakllantirish;
- ✓ dastlabki qalamchizgi va eskizini yaratish;
- ✓ asarda aks ettirilayotgan g‘oyalarni xomaki eskizini amalga oshirish;
- ✓ bo‘lajak asarning kompozitsion qurilishini yakunlash;
- ✓ kompozitsiya tasvirni qalamda ifodalash;
- ✓ tus, ranglarning dastlabki ohangdorligiga erishish;
- ✓ so‘nggi xomaki rasm, chizgilar va qoralamalarni yaratish va ular yordamida asardagi tasvirni takomillashtirish;
- ✓ tus munosabatlarini yakuniy shakliga keltirish.

Ijod, san’at, hissiyotlar psixologiyasi bo‘yicha yetuk mutaxassis P.M. Yakobson aytganidek, “san’at asari yaratilishining psixologik bosqichlarini aniqlash, qaysidir ma’noda tipik va umumlashgan model sifatida namoyon bo‘ladigan jarayonni o‘ziga xos ko‘rinishda qaytadan tiklash demakdir” [5.179].

Badiiy asar ustida ishlash bo‘yicha yuqorida keltirilgan misol nihoyatda umumiy, taxminiy sxemadir. Bevosita ijodiy jarayon unga nisbatan ancha murakkab kechadi: ko‘proq va salmoqliroq vazifalar qo‘yiladi, ular rassom mahorati va badiiy asar g‘oyasidan kelib chiqib muntazam o‘zgarib turadi. Lekin, har qanday holatda ham, ijodkorlik o‘z mantig‘i va to‘kisligi bilan ajralib turadigan yaxlit jarayondir.

Badiiy asar yaratish - mashaqqatli ijodiy jarayondir. Tasviriy san’atning eng buyuk namunalari, durdonalari aksariyat ko‘pincha tinmay mehnat qilish mehnat natijasida yaratilgan. Bu fikrning naqadar asosli ekanligini anglash uchun jahon tasviriy san’atining mashhur namoyondalari Rembrant, Leonardo da Vinchi, A.Dyurer, J. O.D. Engr, V.I. Surikov, I.Ye. Repin, O‘. Tansiqboyev, R.Axmedov, A.Abdullayev, Ch.Axmarov, M.Nabiyev, A.Mirzayev, B.Jalolov, A.Nuriddinov, A.Ikromjonov, G‘.Abdurahmonov va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlarining dunyoga kelish tarixini eslash kifoya (son-sanoqsiz eskizlar, naturadan chizilgan qoralamalar, davomiy rasm, etyudlar chizish va b.).

Ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish masalasi uning kognitiv tomonini takomillashtirish muammosi bilan uzviy bog‘liq. “Ijod insonning barcha ruhiy qudrati, jumladan, tassavuri ishtirok etadigan jarayon hamda yaratuvchanlik uchun zarur bilim va tajriba orqali orttiriladigan mahoratdir”. O‘quv-tarbiya jarayoni uch yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: tarbiya, ta’lim va tajriba (malaka). Ular o‘zaro uyg‘unlashib, ijodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi.

Ta’kidlash o‘rinliki, bu yo‘nalishlar parallel ravishda, bir-birini to‘ldirgan holda amalga oshirilishi lozim. Biron-bir yo‘nalishning ortga qolishi yoki unga nisbatan befarq bo‘lish ta’limda biryoqlamalikni keltirib chiqaradi, rivojlanish uyg‘unligiga putur yetkazadi, oxir-oqibatda, ijodiy kamolot yo‘lini to‘sadi. O‘quv yoki ijodiy vazifalardan birini ustun ko‘rish va boshqasi ahamiyatini to‘liq anglamaslik ta’lim-tarbiya uyg‘unligi tamoyilining buzilishiga sabab bo‘ladi. Quyida talabalarni akademik rasm chizishga o‘rgatish bo‘yicha maqsadlarning taxminiy mazmuni bilan tanishtiramiz.

Tasviriy san’atning boshqa turlari qatori, rasm chizishni o‘rgatish muammoli ta’lim namunalaridan biridir. Ma’lumki, ushbu ta’lim shaklining asosiy vazifasi izlanish, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish, mustaqil va samarali fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Zero, bu talablar rasm chizishga o‘qitish tizimining ham poydevoridir. Muammoli ta’lim singari, akademik rasm chizishga o‘rgatish ikki asosiy maqsad ro‘yobi uchun xizmat qilishi kerak:

1. Individual tafakkur asosida ijodiy qobiliyatini rivojlantirish;
2. Zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish.

Shu bilan birga, malaka hamda texnik ko‘nikmalar ahamiyati va rolini unitmaslik kerak, aksincha, ularni rivojlantirish kerakli fazilatlar sifatida e’tirof qilish lozim, chunki mahorat barcha faoliyat turlari, xususan, ijodiy mehnatning ham muvaffaqiyatini ta’minlovchi omildir.

Texnik ko‘nikma va malaka orttirishda inson tafakkuri, uning qat’iyati va irodasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qo‘l harakatlarini muayyan reja asosida muntazam takrorlash ijodkorning qo‘l-ko‘zlari o‘rtasida ko‘rinmas, lekin barqaror rishta bog‘laydi, vaqt o‘tib, bu harakatlar beixtiyoriy tus oladi. Endi rassom alohida olingan harakatlarni emas, ularning umumiy ko‘lamini nazorat qiladi. Aynan shu darajaga erishish texnik ko‘nikmalar shakllantirishning yakuniy maqsadidir. Ta’limning vazifasi tasviriy savodxonlik asoslarini o‘rgatish, ishning texnik usullari bo‘yicha malaka hamda ko‘nikmalarni shakllantirish va yanada takomillashtirish bilangina cheklanmaydi; o‘quv-ijodiy faoliyat davomida ulardan erkin foydalanish, o‘quv va ijodiy vazifalarni uyg‘unlashtirishdan ham saboq beradi.

Bilim va ijodiy tajribani muntazam oshirib borish ijodkorlikning zarur shartlaridan biridir. Talabaning bilimi, texnik imkoniyatlari va uning ijodiy salohiyati o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. Yangi texnik imkoniyatlar va ijodiy tajriba navbatdagi va yanada murakkabroq vazifalarni hal qilishda qo‘l keladi, ya’ni badiiy ijodkorlikni kamolotga yetaklaydi.

Talabalarning qiziqishlari va o‘quv jarayonining ob’ektiv qonuniyatlarini birlashtirish pedagogika fanining dolzarb muammosidir. Rasm chizishga o‘qitishning dastlabki bosqichlarida talabalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning muhim sharti - ularni ta’limning asosiy yo‘nalishlari hamda maqsadlaridan o‘z vaqtida va xolis xabardor qilishdir. Chunki bu rejalar talabalarni kasbga tayyorlash, ularning ijodiy salohiyatini kashf etish, malaka-ko‘nikmalarini mukammallashtirish bo‘yicha oliy maqsadlarga oydinlik kiritadi. Lekin bo‘lajak rassomlarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘quv jarayoniga har bir talabaning ongli ravishda va mas’uliyat bilan yondashishini bir marta ta’sir ko‘rsatish yoki faqat ma’muriy choralar bilan ta’minlab bo‘lmaydi. Bunday muvaffaqiyat pedagoglar jamoasining ta’lim jarayonidagi doimiy va oqilona rahbarligi, shuningdek, maxsus sharoitlar yaratish orqali qo‘lga kiritiladi.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish usullari va ushbu ta’lim yo‘llari o‘zining tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyatlarini bor bo‘yi bilan namoyon qiladigan shart-sharoitlarni mohirona uyg‘unlashtirish zarur. Talabalar ijodiy tafakkurini shakllantirish va ularni bilimga yo‘naltirishda ustoz-rassom hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Rasm chizishni o‘rgatishda talabalar ongiga ta’sir

ko‘rsatishning asosiy shakli pedagog munosabati orqali ifodalanadi. Talabalarda ijodiy ishga rag‘bat va ishtiyoq uyg‘otish, shuningdek, ularga o‘quv-ijodiy rasm ustida ishlash bo‘yicha belgilangan bosqichli vazifalardan kelib chiqib rahbarlik qilish - ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning muhim shartidir.

Ma’lumki, insonning kundalik hayotdagi, odatiy idroki rassomning voqelikdan ma’lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash jarayonidan farq qiladi. Har bir idrok etilgan holat hissiy kechinmalar bilan bog‘liq bo‘lib, uning xususiyati maqsaddan kelib chiqadi va ko‘rgan-his qilganini tasvirlash, ifodalash istagi bilan omuxtalashadi.

Muayyan ob’ektni kuzatayotgan talabalar, bu ishni pedagog rahbarligida bajarishsa, predmetning yanada ko‘proq tasviriy, ifodaviy sifatlarini kashf qilishadi. Pedagog tomonidan tashkil qilingan kuzatuv, ya’ni idrok qilish jarayoni tasvirlash predmetining haqiqiy holatini tartibli, tizimli, aniq ifodalashga yordam beradi, bu esa uning nihoyatda muhim jihatidir. Chunki kuzatish voqelikni bilish uslubi bo‘lib, unda:

- idrok va tafakkur uzviy bog‘lanadi;
- talabalar tasavvurida shakllanayotgan badiiy obrazga oydinlik kiritiladi;
- bo‘lajak rassomlar kuzatish mohiyatini anglab yetishadi;
- talabalarda shakllarni kuzatish va taxlil qilish tajribasi oshadi;
- talabalar rasm chizishning o‘quv va ijodiy vazifalarini inobatga olgan holda, idrok etish tamoyillariga asoslangan o‘z kuzatuv usullarini ishlab chiqishadi.

To‘g‘ri tashkil qilingan idrok jarayoni, tafakkurning asosiy qonunlari kabi, ta’lim davomida bo‘lajak rassomlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhim sharti, kelajakda yaratiladigan badiiy-ijodiy ishlar poydevori sifatida tavsiflanadi.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quv vazifalaridan ijodiy maqsadlarga, ya’ni o‘rganish jarayonidan badiiy obraz izlash bosqichiga o‘tish hajmli shaklga nisbatan munosabatning mantiqiy va muayyan uzviylikda o‘zgarib borishi sifatida kechishi lozim. Shakldan uning maqsadi — ifodalash vositasiga o‘tish, keyin hissiyotlar mazmunini anglab yetish, so‘ngra tashqi plastikaga e’tibor qaratish va nihoyat, badiiy-ijodiy mohiyatiga yetish. Mazkur xulosa badiiy obrazning plastik asosi sifatida e’tirof qilingan shakl to‘g‘risidagi tasavvurlardan tug‘ilgan. Uni bu tarzda o‘zlashtirish o‘quv vazifasini ijodiy hal qilishda erkinlik beradi, shu bilan birga, rasm chizish bo‘yicha o‘quv-tahliliy topshiriqlar bajarilishini ta’minlaydi. Talabalar ishlarining xususiyati ularning akademik rasm bo‘yicha texnik usullarni qanchalik darajada o‘zlashtirishgani bilan belgilanadi, lekin bu sifatlar ko‘lami bir guruhning o‘zida ham farq qiladi. Eng katta tafovut ijodiy qobiliyatning rivojlanishida kuzatiladi. Bu har bir Shaxsning tayyorgarlik darajasi hamda individual-tipologik xususiyatlari bilan baholanadi. Talabalarni o‘qitish va tarbiyalash masalasiga xususiy yondashish—yana bir muhim talabdir. Individual ta’lim usulidan foydalanish talabalarning ham o‘quv, ham ijodiy faolligini rag‘batlantiradi. Rasm chizishdek murakkab fan sohasiga o‘qitishda talabalarni hamma buyuk rassomlar va pedagoglarga xos fazilatlar ruhida tarbiyalash zarur. Ular o‘quv va ijodiy vazifalarni hal qilish jarayonida uchraydigan ob’ektiv qiyinchiliklarni yengib o‘tishga tayyor turishlari lozim.

O‘quv-pedagogik jamoada shakllangan umumiy ijodiy muhit ham izlanish va komillik sari intilishga ilhomlantiradi. Jamoa bilan birga rassomlar ko‘rgazmalari, ijod ustaxonalariga tashrif buyurish, san’atshunoslikka doir adabiyotlarni o‘rganish ham shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bu tadbirlar bilim hajmini kengaytiradi, tajriba beradi, badiiy did va tasavvurni rivojlantiradi. Rassomlarning ijodiy va texnik usullarini o‘rganish orqali talabalar voqelikni ijodkor nuqtai nazaridan baholashga harakat qilishadi, badiiy tilning ifoda vositalarini izlashadi.

Talabalarning o‘quv va ilmiy tadqiqot ishlari ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning tashkiliy shakli bo‘lib, ijodiy ish uning tarkibiy qismiga kiradi. To‘garaklar va muammoli guruhlar faoliyatida ishtirok etish ularning ichki, yashirin iqtidorini kashf etishga yordam beradi.

O‘quv rasmini chizishda ijod muammosi idrok va tafakkurni jonlantirish, naturadan ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirishdan chekinish, rasmda muayyan ifodaviylikka erishish bilan uzviy bog‘liq. Naturaga qarab rasm chizish voqelikni kuzatish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, ko‘rish xotirasini chiniqtirishga xizmat qilishi va shu orqali ijodiy imkoniyatlar chegarasini kengaytirib, tafakkurni yanada boyitishi kerak.

Xulosa o‘rnida shularni ta’kidlash kerakki, iste’dod faqat ijodiy faoliyat jarayonidagina rivojlanadi. Bu haqiqatni ko‘p asrlik badiiy va pedagogik amaliyot ham tasdiqlagan. Ijodiy iqtidorning mavjudligi inson layoqatlari majmuasining istisnosi emas, balki qonuniyat maqomidagi voqeligidir. U maxsus faoliyat zamirida - bevosita ijodiy izlanish jarayonida shakllanadi. Shuning uchun akademik rasm chizishga o‘qitish metodikasining tamoyillarini tasviriy san’at va badiiy pedagogikaning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad hamda vazifalari xususiyatlaridan kelib chiqib o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1691-son.
3. Зинченко В.П., Стасевич В.Н. Творчество в учебном рисунке: Учеб. пособие. Ростов н/Д., 1989. С. 5.
4. Дроздов А.П. Развитие художественного восприятия у студентов на занятиях учебным рисунком: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. М., 2007. С. 6.
5. Беда Г.В. Основы изобразителной грамоты. Рисунок, живопис, композитсия: Учеб. пособие. М., 1986. С. 330.
6. Якобсон П.М. Психология чувств и мотиватсии : избранные психологические труды– Москва : Институт практической психологии, 1998. – 304 с.
7. Зинченко В.П., Стасевич В.Н. Творчество в учебном рисунке: Учеб. пособие. Ростов н/Д., 1989. С. 19.
8. Baymetov Botir Boltaboevich Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year: 2020, Volume: 10, Issue:5 Firstpage: (1122).
9. Baymetov Botir Boltaboevich Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year: 2020, Volume: 10, Issue:5 Firstpage: (1122).

KLASTYER TYEXNOLOGIYASI VOSITASIDA TA’LIMNI TASHKIL ETISH VA YOSHLARNINING BADIIY MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH

[1]Botir Boltabayevich Baymetov, [2]O‘razboyeva Ravshanoy Bahodir qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori,
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti, Tasviriy san’at yunalishi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17399927

Annotatsiya. *Mazkur maqolada klaster texnologiyasi vositasida o‘quvchilarning tasviriy san’at fanida tasvirlash mahoratini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Klaster texnologiyasining mohiyati, uning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni hamda o‘quvchilarning mustaqil tasviriy faoliyatini shakllantirishdagi samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida klaster texnologiyasidan foydalanish bosqichlari, metodik tavsiyalar va amaliy misollar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar:*Klaster texnologiyasi, tasviriy san’at, ijodkorlik, metodika, badiiy tafakkur, vizual fikrlash, o‘quvchi faoliyati, innovatsion yondashuv.*

Аннотатсия. *В данной статье рассматриваются возможности развития художественных навыков учащихся в области изобразительного искусства с помощью кластерной технологии. Анализируется сущность кластерной технологии, её роль в развитии творческого мышления и эффективность в формировании самостоятельной изобразительной деятельности учащихся. Также представлены этапы применения кластерной технологии, методические рекомендации и практические примеры на занятии.*

Ключевые слова:*Кластерная технология, изобразительное искусство, творчество, методика, художественное мышление, образное мышление, деятельность учащихся, инновационный подход.*

Abstract. *This article discusses the possibilities for developing students' artistic skills in the field of visual arts using cluster technology. It analyses the essence of cluster technology, its role in the development of creative thinking, and its effectiveness in forming independent visual arts activities among students. It also presents the stages of applying cluster technology, methodological recommendations, and practical examples for use in the classroom.*

Keywords:*Cluster technology, visual arts, creativity, methodology, artistic thinking, imaginative thinking, student activity, innovative approach.*

KIRISh.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, estetik didini va amaliy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni erkin fikrlashga, obrazli tasavvur etishga va san’at asarlarini tahlil qilishga o‘rgatish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, klaster texnologiyalarini keng qo‘llash ta’lim sifatini oshirish omili ekanligi isbotlangan.

Ta’lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda uning asosiy tamoyillari, g‘oyalarini, uslubiy yondashuvlari va ko‘rsatmalari bo‘yicha bir qator o‘zbek olimlar,jumladan U.Sh.Begimqulov, O. Musurmonova, M.S.Mustafayeva, B.R.Adizov, RSh.Axliddinov, Yu.N.Abdullayev, M.X.Mahmudov, R.Ishmuhammedov, L.V.Golish kabi tadqiqotchilar o‘z ilmiy izlanishlarida ta’lim sifatini takomillashtirishdagi muammolar, usul va ta’limni takomillashtirish, uni demokratlashtirish va boshqa xususiyatlari bo‘yicha izlanishlar olin borgan.

ADABIYOTLAR VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston talim tizimini klaster texnologiyalari asosida tashkil etish va boshqarish, uni ta’alim tizimiga tadbiq qilish borasida Chirchiq davlat pedagogika universitetida talaygina ijobiy ishlar amalga oshirildi. Universitetning yetakchi olimlaridan G.I.Muxamedov, Sh.Q.Mardonov, U.N.Xodjamqulov, R.Eshchanov, B.Eshchanov, J.Usarov, A. Shafqorov, S.A.Toshtemirova kabi ozbek tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida pedagogik talim inovatsion klasteri asosida mintaqaviy ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, sifat samaradorligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha innovatsion g‘oyalar joriy qilishningilmiy-nazariy asoslarini yaratish va ularning amaliy tadbig‘i borasida samarali tajriba tahlillari bayon qilingan.

Ta’lim klasteri o‘zida nafaqat ta’lim turlari o‘rtasidagi, balki fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta’limni boshqarish, ta’lim vositalari va shakllari bilan bog‘liq sohalarni ham jamlaydi. Klaster yondashuvi ta’lim berish, o‘quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog‘liq umumiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metodologik xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Ayni paytda bu umumiy yo‘nalishlar ta’limni boshqarish va tashkillashtirish, ta’lim turlari va yo‘nalishlari, uzviylik va integratsiyani ta’minlash, o‘qitish metodlari va vositalari kabi yo‘nalishlarda xususiy metodologik xarakter kasb etadi. Bu esa muammoning yechimiga nisbatan deduktiv (umumiylikdan xususiylikka kelish) usulda yondashish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha xorijiy tajribani tizimli tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, Klaster yondashuvi asosida ta’limni rivojlantirish Yevropada 1990-yillarda M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan klasterlar va klasterlarni rivojlantirish nazariyasini yekstrapolyatsiya qilish natijasida boshlangan (xalqlarning raqobatbardosh ustunligi, 1990; raqobat to‘g‘risida, 1998). Ular Massachusets va Garvard universitetlari yetakchilari bo‘lgan Massachusets shtatining ta’lim klasterini tahlil qildilar va klasterning boshqa Shtatlar (birinchi navbatda Kaliforniya) va boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda mamlakatning ta’lim sohasidagi rolini batafsil ko‘rsatdilar.

Pedagogik ta’limdagi Klaster-bu shartnomalar asosida o‘zaro aloqada bo‘lgan va ta’lim mutaxassislarini tayyorlashning ilmiy, o‘quv va innovatsion maqsadlarini amalga oshirishda ishtirok yetadigan geografik jihatdan mahalliylashtirilgan tashkilotlarning kombinatsiyasi[22].

Ta’limni rivojlantirishga klaster yondashuvi ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan sub’ektlarining o‘zaro va o‘z-o‘zini rivojlantirish sifatida qaraladi, bu esa barcha alohida ishtirokchilar va umuman klasterlarning o‘ziga xos afzalliklarini oshiradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, hozirda klasterning yagona ta’rifi mavjud yemas. Barcha

[22] Пуденко Т. И. Образовательные кластеры как модель управления развитием образования на муниципальном уровне, повышающая доступность качественных образовательных услуг. Управление образованием: теория и практика. - 2014. - № 3 (15). - С. 33-45.

ma’lum ta’riflarni tahlil qilib, ushbu konsepsiyaning ikkita asosiy xususiyatini ajratish mumkin. Birinchidan, klasterdagi korxonalar qandaydir tarzda ulanishi kerak va ulanishlar vertikal va gorizontal, shuningdek ushbu munosabatlarning aksariyati jalb qilingan tashkilotlar uchun Klasterda oliy ta’limning roli muhimligini hisobga olgan holda, klasterlarning bunday turini sanoat va sheriklik bilan birlashtirilgan o‘zaro bog‘liq ta’lim tashkilotlari to‘plami bo‘lgan ta’lim klasteri sifatida ajratish mumkin.

MUHOKAMA

Ta’lim klasterining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

-soha talabiga o‘z vaqtida javob beradigan samarali ta’lim xizmatlari sohasini yaratish; oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari uchun kafolatlar yaratish;

-zamonaviy ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish, kasbga yo‘naltirishni tashkil yetish; hamkorlik uchun me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqishni ta’minlash;

-o‘quv dasturlarini birgalikda loyihalash bakalavr/magistr tayyorlash sohasidagi faoliyat.

Ta’lim klasterining alohida holati-bu pedagogik Klaster bo‘lib, uning muhim ajralib turadigan xususiyatlari: o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish uchun sharoit yaratish; ta’limni ishlab chiqarish bilan birlashtirish; o‘qituvchilik kasbining obro‘sini ko‘tarish.

Pedagogik Klaster modeli-bu oliy pedagogik maktab bitiruvchilarini tayyorlash sifatini oshirish maqsadida sheriklikni rivojlantirishning maqsadli jarayonini aniq taqdim yetishga imkon beradigan tashkiliy, boshqaruv, texnologik va tarkib darajalarini o‘z ichiga olgan yaxlit ta’lim.

Klaster texnologiyasining mohiyati “Klaster” atamasi inglizcha *cluster* so‘zidan olingan bo‘lib, “to‘plam”, “guruh”, “tugun” degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu texnologiyada asosiy g‘oya — bir markaziy tushuncha atrofida bog‘liq bo‘lgan fikrlarni vizual tarzda guruhlash orqali o‘quvchining mantiqiy va ijodiy tafakkurini faollashtirishdir. Xususan o‘quvchilarga tasviriy san’atdan mashg‘ulotlar tashkil qilishda - masalan, “Tabiat manzarasi” mavzusida o‘quvchilar “rang”, “yorug‘lik”, “makon”, “tuyg‘u” kabi tushunchalarni klaster markaziga joylashtirib, har birini batafsil ochib berish orqali manzara tasvirining badiiy ifodasini yaxshiroq tushunadilar. Portretda quyidagicha olib borilishi mumkin: Portret xarakteristikasi, uning plastik tuzilishi, rang va tus jihatdan yoritilganligi, yuz qismini o‘ziga hosligi va boshqalar, natyurmortda esa, shakllarning o‘zaro nisbatlari, kompozitsion joylashuvi, rang va tus munosabatlari, buyum tekisligida joylashuvini klaster texnologiyalari vositasida ochib berish muhimdir. Bu orqali o‘quvchilar tasvirlash malakalari rivojlanadi, fikrlash qobilyatlari takomillashadi va tasviriy san’atga bo‘lgan muhabbat shakllanadi.

Tasviriy san’at darslarida klaster texnologiyasidan foydalanish bosqichlari. O‘qituvchi dars mavzusini e’lon qiladi va markaziy tushunchani aniqlaydi. Masalan, “Natyurmort” yoki “Kompozitsiya” kabi.O‘quvchilar mavzu bo‘yicha barcha fikr, obraz, rang, shakl va hissiy taassurotlarni mustaqil ravishda yozadilar. Yig‘ilgan fikrlar o‘zaro bog‘liqligiga qarab klaster sxemasiga joylashtiriladi. O‘quvchilar klaster asosida rasm ishlaydi, tanlangan g‘oya asosida ranglar uyg‘unligini topadi.O‘quvchilarning ishlarini tahlil qilish, o‘zaro fikr almashish, mustaqil xulosalar chiqarish.

Klaster texnologiyasining afzalliklari

O‘quvchining **mustaqil va ijodiy fikrlashini** faollashtiradi.

Dars jarayonida **hamkorlik** va **interfaol muhit**ni ta’minlaydi.

Har bir o‘quvchining **individual qobiliyatini** ochishga yordam beradi.

Tasviriy san’atdagi **kompozitsion tafakkur**ni shakllantiradi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, klaster texnologiyasi asosida o‘tilgan tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar:

mavzuni chuqurroq anglaydi;

rasm chizishda kompozitsion joylashuvni aniqroq tanlaydi;

ranglar uyg‘unligini mustaqil topa oladi;

o‘z ijodiy qarashlarini erkin ifoda etadi.

XULOSA

Klaster texnologiyasi o‘quvchilarning tasviriy san’at fanida tasvirlash mahoratini shakllantirishda samarali metod hisoblanadi. U nafaqat o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini kengaytiradi, balki ularni ijodkorlik, mustaqillik va estetik tafakkurga yo‘naltiradi. Shunday ekan, har bir tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘z dars jarayonida klaster texnologiyasini tizimli ravishda qo‘llasa, o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik didi va amaliy mahorati yanada rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **1.G‘ulomova D. S.** *Klaster texnologiyasi va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. //* “Ta’lim texnologiyalari” jurnali, №4, 2020, 45–49-betlar.
2. 2.M.X.Mannopovna klaster talim tizimining uzluksizligi uzviyligi va izchilligini taminlovchi model sifatida. viyewer maqola sciyentific journal impact Factor(SJIF)2020:4.804
3. Pudenko T. I. Obrazovatelnые klasterы kak model upravleniya razvitiyem obrazovaniya na munitsipalnom urovne, povышayuщaya dostupnost kachestvennых obrazovatelnых uslug. Upravleniye obrazovaniyem: teoriya i praktika. - 2014. - № 3 (15). - S. 33-45.

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING BADIIY IDROKINI SHAKLLANGANLIK DARAJASINI BAHOLASH MYEZONLARI

[1]Botir Boltabayevich Baymetov, [2]Atajanova Rabbina Raximovna
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori**,** [2]“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17399962

Annotatsiya. *Mazkur maqola* ***o‘****quvchilariga ta’lim berish jarayonida badiiy jihatdan shakllanganligi va tasviriy idrokning rivojlanganligini, ularda voqelikni tasviriy faoliyat vositalari orqali hissiy va estetik idrok etish qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim tizimining ahamiyati, o‘quvchining rang bilan ishlash mahoratini tarbiyalash muhim muammolardan biri sifatida tadqiq etish masalalariga qaratilgan.*
Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, badiiy idrok, ijodiy qobilyat, xotira, tasavvur, tafakkur.*
Аннотация. *Целью данной статьи является исследование вопросам формирования художественного развития и зрительного восприятия в процессе обучения учащихся, роли современной системы образования в развитии их способности эмоционально-эстетически воспринимать действительность посредством изобразительных средств, а также развитие у учащихся навыков работы с цветом как одной из важных проблем.*
Ключевые слова: *изобразительное искусство, художественное восприятие, творческие способности, память, воображение, мышление.*
Abstract. *The purpose of this article is to examine issues related to the formation of artistic development and visual perception in the process of teaching students, the role of the modern education system in developing their ability to perceive reality emotionally and aesthetically through visual means, as well as the development of students' skills in working with colour as one of the important issues.*
Keywords: *visual arts, artistic perception, creative abilities, memory, imagination, thinking.*

Umumta’lim maktab o‘quvchilariga ta’lim berish jarayonida badiiy jihatdan shakllanganligi va tasviriy idrokni rivojlanganlik darajasini aniqlash pedagogikaning muhim ustivor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘quvchilarini kelajakda oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun tayyorlash va ularda voqelikni tasviriy faoliyat vositalari orqali hissiy va estetik idrok etish qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bu sohada o‘quvchilarni rangtasvir yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlash chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Rangtasvir tasviriy san’atning fundamental turi sifatida bolada koloristik, badiiy his qilish, eng asosiysi olamni ushbu san’at turi nuqtai nazaridan idrok etish kabi qobiliyatlarni shakllantiradi. Tasviriy san’at tilining poydevori sanalgan rang faol ifoda vositasi hisoblanadi. O‘quvchining rang bilan ishlash mahoratini tarbiyalash esa eng muhim muammolardan biri sifatida olimlar tomonidan tadqiq qilinib kelinmoqda. Bolaning rangni ko‘rish va anglash ko‘nikmasi tasviriy idrokning katta ahamiyatga ega tarkibiy qismidir, zero, rang hamisha

musavvirning maxsus quroli bo‘lib kelgan. Rangtasvir fanidan dars berishda o‘quvchilarda tasviriy idrokni rivojlantirish dolzarb muammodir. Bu masalani esa o‘quvchini nazariy va amaliy jihatdan tayyorlamay, rangshunoslik asoslarini o‘rgatmay hamda rangni idrok etish xususiyatlarini tarbiyalamay, shuningdek, tasviriy tekislikda rangni yetkazib berish malakasini shakllantirmay hal qilish imkonsiz.

Tasviriy ko‘rish yoki tasviriy idrok mavzusi pedagogika, psixologiya, estetika va san’at sohalarida faoliyat ko‘rsayotgan ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan, lekin oxirigacha tadqiq qilinmagan, shuning uchun bu muammo uzoq yillar davomida boshqa keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar uchun o‘ziga xos maydon sifatida xizmat qiladi. Umumta’lim maktab o‘quvchilarida tasviriy idrokni rangtasvir san’ati, shuningdek, uning butun ta’lim jarayonini qamrab oladigan ta’siri nuqtai nazaridan rivojlantirish masalasi tugal yechimini topmagan.

Zamonaviy badiiy ta’lim o‘quvchilardan nafaqat bilim, malaka va ko‘nikmalar, balki ijodiy tafakkur sohibi bo‘lish, voqelikni rassom maqomida idrok etish, olamni musavvir sifatida qabul qilishni talab qiladi. Rangtasvir fani bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv dasturi tasviriy savodxonlikni oshirishning turli usullari, uslublari va turlarini taklif qiladi. Bu dasturni o‘zlashtirish samaradorligi ko‘p jihatdan tasviriy idrokning shakllanish darajasiga bog‘liq.

Rassom rang, hajm va boshqa xususiyatlarni bir paytning o‘zida va yaxlitlikda ko‘radi, lekin ulardan birining ustunlik qilishi muayyan idrok shaklining ustivor ekanidan darak beradi. Ko‘zga dog‘lar sifatida tashlanadigan jismlar rassom taassurotlarining asosiy elementiga aylanadi. Bu jarayonda dog‘larning bo‘yoqlar yoki yorug‘lik va qorong‘ulik qiyofasida “kuylashi” ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Shu jihatdan olganda, monoxrom asarlar ham rang-barang ko‘rinishi mumkin. G. Velfling ilgari surgan tamoyillardan kelib chiqsak, tasviriy ko‘rish shu paytning o‘zidayoq koloristik xususiyatga ega bo‘lishi shart emas, zero, bu kabi holatlarda yorug‘lik va havodan tarkib topgan makon (fazo) joziba kasb etadi.

O‘qituvchi bola faoliyatini muayyan maqsadlar sari yo‘naltirish, unda voqelikni rangtasvir vositasida idrok etish qobiliyatini rivojlantirish orqali olamga estetik munosabatda bo‘lish tuyg‘usini shakllantirishi zarur. N. Pronina[23] o‘z tadqiqotida muhim xulosalarga kelganki, ularga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q:

1. Idrok etish — tasvir yaratish jarayoni asosi va tayanchidir;

2. Idrok etish mexanizmi mohiyati ongda aniq maqsad va vazifa mavjudligi hamda bu muammoni hal qilish yo‘llari, materiallarini izlashdan iborat. Shu bois o‘quvchilarda idrokni rivojlantirish uchun ularning psixofizik “ishtahasini” doimiy mashqlar bilan faollashtirish kerak: muhimi — ular kuzatishlari, idrok hamda talqin qilishlari, tanlashlari va taassurotlarini boyitib borishlari zarur;

3. Maqsadga intilishi va mulohazakorlik idrokning muhim jihatlaridir; tasviriy faoliyatda muayyan maqsad bilan idrok etish jarayoni boshqariladi va belgilangan vazifalarga bo‘ysundiriladi;

4. ko‘rish idrokini boshqarish usullari mavjud: ularga, birinchi navbatda, o‘quvchining tasviriy faoliyati yo‘nalishini belgilab beradigan, idrok etish faolligini oshiradigan, tasavvurini shakllantiradigan mezonlar kiradi;

5. idrok tafakkur qilishning boshqa fikrlash usullari bilan uzviy bog‘liq, shuning uchun uning rivojlanishi tafakkurda ifodasini topadi;

[23] Пронина Н.А., Туревская Е.И., Романова Е.В. Развитие мотивации профессиональной деятельности в контексте современных вызовов системы образования и подготовки педагогических кадров. Варшава, Iscience. 2020.145 с.

6. hissiy bilish — sezgi (his qilish) a’zolarini bevosita ob’ektga bog‘lashdir;

7. idrok etish — bilish jarayoni bo‘lib, u bir qator qonuniyatlar orqali tavsiflanadi va yaxlitlik, mazmunlilik, appersepsiya, tanlovchanlik, konstantlik ularning eng muhimlari hisoblanadi.

V. V. Vizer[24] ta’kidlaganidek, obrazlarni ro‘yobga chiqarish chuqur tafakkur va rangtasvir shakllarini ishonchli, oqilona tasvirlashga asoslanishi lozim, chunki badiiy obraz go‘zalligi, terangligi va ifodaviyligi, uning tomoshabinga ko‘rsatadigan hissiy ta’siri kuchi shularga bog‘liq. Muallifga ko‘ra, rangtasvirga o‘qitish tarixda yashab o‘tgan buyuk musavvirlarning asriy tajribasini o‘rganish, tadqiq qilish, takomillashtirish negizida shakllangan bilimlarga tayanadi. Shuning uchun o‘tgan asrlarning ulug‘ ijodkorlari tajribasini o‘zlashtirish, tasviriy san’atning bazaviy qonunlarini o‘rganish (yorug‘lik va yoritish turlari, ranglar uyg‘unligi) boshlovchi rassom uchun professional san’at sari olib boradigan eng qisqa yo‘lni ko‘rsatadi.

Tasviriy idrokning shakllanganlik darajasini baholash mezonlari

t/r	Baholanadigan ko‘nikmalar	**Baholash tizimi**
1.	Kompozitsion yechim	- tasvir proporsiyalari va varaq chetlari uyg‘un; - tasvirning tarkibiy qismlari o‘rtasida bog‘liqlik va yaxlitlik kuzatiladi; -rang dog‘lari va tuslar joylashuvi ishning kompozitsion tuzilishiga mos.
2.	Jismlar shaklni rang orqali yetkazib berish	hajm rang surtmasi va rang hamda tusning yorug‘likdan kelib chiqib o‘zgarishi asosida shakllantirilgan; sovuq (yorug‘lik) va iliq (soya) ranglar nisbatiga rioya qilingan; yorug‘likdan soyaga yumshoq o‘tish ta’minlangan; ranglar uyg‘unligi, ish koloritiga erishilgan; postanovkada yaxlitlikka erishilgan; ishda yorug‘lik-havo perspektivasi qoidalaridan foydalanib, fazo yaxshi ifodalangan: a)oldingi planni ifodalashda tus kontrastlaridan foydalanilgan; b) oldingi planni ifodalashda kontrast ranglar ishlatilgan;v) tus va rang xususiyatlarida unumli foydalanish orqali uch fazoviy plan yaqqol ifodalangan; rang iliqligi-sovuqligi tomoshabinning uzoqlashish darajasi bo‘yicha taqsimlangan.
3.	Rangtas vir texnikasini o‘zlashtirish	qismlar va detallarni ifodalashda kuzatuvlarga muvofiq keladigan ranglar ishlatilg bo‘yoqlar qatlamma-qatlam berilgan; rangtasvir usul va texnikalari, xususan, “lessirovka”, “allya prima”, “namlash usuli”, “yupqa qatlam”, “hajmli qatlam bilan chizish” birgalikda foydalanilgan; a) lessirovkaning takroriy qaydlari shakl hissini beradi va yorqinlik saqlanadi;
		b) jismlarning yorug‘lik ostidagi va oldingi plandagi shakliga urg‘u beradigan rang surtmalaridan foydalanilgan; v) soya qismlarda yupqa ranglar yordamida ranglarning yumshoq o‘tishiga erishilgan

[24] Визер В. В. В42 Живописная грамота. Основы портрета. — СПб.: Питер, 2007. — 192 с.: ил.

4.	Ranglar uyg‘unligi yechimi	ranglar uyg‘unligi bo‘yicha belgilangan kompozitsion va mazmuniy vaziflar hal qilingan; yaxlit uyg‘un tuzilma yaratilgan; tasviriy tekislikning rang tuzilmasi umumiy mavzu yo‘nalishida davom ettirilgan; ustivor individual qarashlar yaqqol ifodalangan; mazmuniy urg‘u va umumiy plastik yechim organik obrazli-assotsiativ idrok etishni shakllantiradi
5.	Assotsiativ-obrazli ifodaviylik	rangtasvir elementlari yagona energiya maydoni hosil qilish orqali yaxlit idrok tizimini shakllantiradi, tasvir tekisligi fazoviyligi talqini va shakllarning murakkab kirishi; rang berishda tus (ton) yechimi yetarlicha davom ettirilmagan.

Aniq maqsad bilan faoliyat yuritish va ta’lim berish jarayonini oqilona tashkil qilish orqali, bolalar va o‘smirlarda tasviriy idrokni rivojlantirish rangtasvir darslarining asosiy vazifasidir.

Maktab o‘quvchilarda ijod bilan shug‘ullanish ko‘nikmalari tarbiyalarkan, shu bilan birga, ularni professional san’at to‘g‘risidagi tasavvur bilan qurollantiradi. Bolalar rangtasvirda o‘z hissiyotlari va fikrlari, o‘rab turgan voqelik borasidagi tasavvurlarini ifodalashadi. O‘quvchilar ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish jarayonida rangtasvir san’ati bo‘yicha malaka va ko‘nikma orttirishadi, kuzatish va tahlil qilishni o‘rganishadi. Shunday qilib, rangtasvir o‘quv fani sifatida voqelikni anglash va dunyoni idrok etish qobiliyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda ko‘maklashadi. Rangtasvir fanida olingan bilim, malaka va ko‘nikmalar badiiy ta’limning boshqa yo‘nalishlari, xususan, rasm chizish, kompozitsiyadagina emas, kelajakdagi hayotiy faoliyatda ham nihoyatda qo‘l keladi. Voqelikni bo‘yoqlar yordamida tasvirlash murakkab jarayon hisoblanadi va tabiiyki, har bir o‘quvchi olamni rangtasvir orqali ifodalashga individual yondashadi, uning tasavvuri boshqalarnikidan farq qiladi. Shu o‘rinda, u yoki bu bola tasviriy idrokining shakllanganlik darajasini qanday baholash zarurligi to‘g‘risidagi masala kun tartibiga chiqadi. Tasviriy idrokni baholash uchun besh mezon ishlab chiqilgan.

Albatta, tasviriy idrok shakllanishiga ko‘plab omillar, xususan, rivojlanish, tarbiya, xotira, tasavvur, tafakkur, bolaning malaka va ko‘nikmalari darajasi ta’sir qiladi, lekin taklif etilgan besh mezon universal hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida tasviriy idrokning shakllanganlik darajasini baholash bo‘yicha mezonlar yaratilgan va ular 1-jadvalda ifodalangan.

Ilmiy-tadqiqot adabiyotlarini tahlil qilish asnosida aniqlangan mezonlar bolada voqelikni tasviriy idrok etish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bolaning kompozitsiyaga oqilona yechim topishi voqelikni yaxlit idrok etishiga ta’sir ko‘rsatadi va uning hissiyotlarini yetkazib berishda ko‘maklashadi. Kompozitsion yechim ko‘nikmasiga ega bo‘lgan bola rang va tus munosabatlari o‘rtasidagi farqni ajratibgina qolmay, ularni yagona rangtasvir asarida umumlashtirishi mumkin.

Jismlar shaklini rang yordamida to‘g‘ri ifodalash, rangtasvir texnikalaridan foydalanishni bilish, ranglar uyg‘unligini ta’minlash masalalariga oqilona yechim topish singari mezonlar bolada tasviriy idrok shakllanishida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ta’lim jarayonida olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarga bevosita bog‘liq.

Bola olgan bilim, malaka va ko‘nikmalaridan qancha yaxshi foydalansa, chizgan rasmlari shuncha ifodali bo‘ladi va u o‘rab turgan olamga tasviriy idrok nuqtai nazaridan qarashga

odatlanadi. So‘nggi - beshinchi mezon asosan bola idrokiga ta’sir ko‘rsatadi. Bola ranglardan obraz yaratish jarayonining tarkibiy qismi sifatida foydalanarkan, shu orqali o‘z his-tuyg‘ularini yetkazib beradi. Ushbu mezon o‘quvchining tasvirlanayotgan voqelik shakli va makonini bolalarcha talqin qilish orqali yaratgan, o‘ziga xos murakkab, hissiyotlar va quvvatga to‘la olamdan tarkib topgan tasviriy idrok tizimini shakllantiradi.

Bolaga rangtasvir savodxonligi asoslari va qonunlari bo‘yicha tizimli ta’lim berish tasviriy idrokni shakllantirish poydevoridir.

Tasviriy idrok, natura va uning tarkibiy qismlarini yagona estetik manzarada uyg‘unlashtirish qobiliyatini tarbiyalash zamonaviy qo‘shimcha ta’limning ustivor yo‘nalishi hisoblanadi. Tasviriy idrokni erta bolalik davridan boshlab shakllantirish, kelgusida shaxsning badiiy hamda estetik sifatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Tasviriy idrok taraqqiyoti shaxs rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun mazkur tadqiqot belgilangan maqsadlarga erishishda ko‘maklashadigan innovatsion uslublar va original ijodiy g‘oyalar izlashni talab qiladi.

ADABIYOTLAR

1. 2020 yil 23-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
2. Пронина Н.А., Туревская Е.И., Романова Е.В. Развитие мотивации профессиональной деятельности в контексте современных вызовов системы образования и подготовки педагогических кадров. Варшава, Iscience. 2020.145 с.
3. Визер В. В. В42 Живописная грамота. Основы портрета. — СПб.: Питер, 2007. — 192 с.: ил.

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHISINING KASBIY-IJODIY FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHDA FANLARARO INTYEGRASIYANING O‘RNI

[1]Botir Boltabayevich Baymetov, [2]Muratov Xusan Xolmuratovich
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi p.f.f.d., (PhD), dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17399982

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy rassomning kasbiy-ijodiy faoliyatini yangi obrazlar yaratish va tasavvurda shakllantirish, obrazni muayyan badiiy materiallar yordamida ishonchli va haqqoniy yetkazib berish maqsadiga xizmat qiladigan tasvirlash va ifodalash vositalarini izlab topish, ularni texnik jihatdan oqilona qo‘llash, shuningdek, inson ichki olamini to‘liq qamrab olib, uning xususiy sa’y-harakatlari orqali namoyon bo‘lishi ochib berilgan. Kasbiy-ijodiy faoliyatni jonlantirish muammosi mohiyatini u bilan bog‘liq asosiy tushunchalar, jumladan, “faollik”, “faoliyat”, “ijod”, “ijodkorlik”, “shaxs”, “professionallik” atamalarining ko‘p qirrali “faollik” tushunchasi falsafa, fiziologiya, psixologiya, pedagogika kabi fanlar bilan bog‘liqlikda o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy ta’lim, badiiy obraz, tasviriy san’at, ijodiy faoliyat, psixologiya, tasavvur, fiziologiya, falsafa*

Аннотация. *Данная статья раскрывает профессиональную и творческую деятельность современного художника по созданию и формированию новых образов в воображении, поиску средств репрезентации и самовыражения, которые служат цели достоверной и правдивой передачи образа с использованием определенных художественных материалов, их технически рационального применения, а также его проявления посредством частные усилия, полностью охватывающие внутренний мир человека. Сущность проблемы активизации профессионально-творческой деятельности изучается в связи с основными понятиями, связанными с ней, включая многогранное понятие “активность” из терминов “активность”, “креативность”, “личность”, “профессионализм”, таких как философия, физиология, психология, педагогика.*

Ключевые слова: *Художественное образование, художественный образ, Изобразительное искусство, творческая деятельность, психология, воображение, физиология, философия,*

Abstract. *This article reveals the professional and creative activities of a contemporary artist in creating and forming new images in the imagination, search for means of representation and self-expression that serve the purpose of reliable and truthful transmission of the image using certain artistic materials, their technically rational application, as well as its manifestation through private efforts that fully encompass the inner world of a person. The essence of the problem of activating professional and creative activity is studied in connection with the basic concepts associated with it, including the multifaceted concept of ‘activity’ from the terms ‘activity’, ‘creativity’, “personality”, ‘professionalism’, such as philosophy, physiology, psychology, pedagogy.*

Keywords: *Art education, artistic image, visual arts, creative activity, psychology,*

imagination, physiology, philosophy.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini zamon talablari asosida shakllantirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, san’at ta’limi yo‘nalishida bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat ijro mahoratini, balki ularning ijodiy salohiyatini, mustaqil fikrlash va yangi g‘oyalarni yarata olish qobiliyatini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘zida rassom, pedagog va tadqiqotchi xislatlarini mujassam etishi, o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq eta olishi lozim.

Ushbu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-ijodiy faoliyatini faollashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodiy faoliyat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki uni harakatga keltiruvchi ichki va tashqi omillar, psixologik va pedagogik shart-sharoitlar mavjud. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda kasbiy-ijodiy faollikning mohiyati psixologiya, falsafa va pedagogika kabi bir qator fanlar integratsiyasi orqali tahlil qilinadi. Maqolada “faollik”, “ijodkorlik”, “shaxs” va “professionallik” kabi tayanch tushunchalarning o‘zaro aloqadorligi ochib berilib, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishning nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi – kasbiy-ijodiy faoliyatni faollashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini tahlil qilish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning pedagogik asoslarini modellashtirish uchun zamin yaratishdan iborat.

Psixologiya fanida shaxs ijodiy faoliyatining ko‘p qirrali muammosi yangi intellektual mahsulot yaratishga qaratilgan ruhiy jarayon bo‘lib, badiiy asarni yaratishdagi ijodkorning ishtirokini ifodalovchi shaxsiy xususiyatlari to‘plami sifatida ko‘rib chiqiladi. Bugungi kungacha shaxs ijodiy faoliyatining mohiyati, uning shakllanish shartlarini anglab yetish va kelajakda yangi pedagogik ishlanmalar yaratishga imkon beradigan juda katta hajmli materiallar to‘plangan.

XX asrda ishlab chiqarish sanoati shiddat bilan rivojlanishni boshlagach, olimlar o‘rtasida ham ijodiy faoliyat muammosining turli jabhalarini ilmiy tomondan o‘rganishga qiziqish ortdi. O. M. Veselovskiy, D. N. Ovsyaniko-Kulikovskiy, A. A. Potebnya va boshqa olimlarning psixologik tadqiqotlari bu ko‘p qirrali muammoni yanada churuqroq o‘rganishga turtki berdi. S. L. Rubinshteynning ijodiy jarayon sub’ektning ongli faoliyati natijasi ekani to‘g‘risidagi qarashlari aks ettirilgan asarlari ilmiy tasavvurni yanada boyitdi. Uning fikricha, ijod faoliyatdan shakllanadi, lekin u faoliyat tuzilmasini takrorlamaydi, aksincha, u bilan uyg‘unlashib, faoliyatda namoyon bo‘ladi va uni tartibga soladi.

A. V. Brushlinskiy, B. M. Kedrov, O. M. Matyushkin, Ya. O. Ponomarev, O. K. Tixomirov, M. G. Yaroshevskiyning keyinroq amalga oshirilgan tadqiqotlarida ijodiy jarayonlar ilmiy va eksperimental asosda ko‘rib chiqildi.

Ijodkorlikning ta’lim va tarbiya sohalaridagi psixologik xususiyatlari V. V. Davidov, O. M. Matyushkin, Ya. O. Ponomarev tomonidan o‘rganilgan, lekin hozirga qadar ijodiy faoliyatning yagona psixologik mezonlari belgilanmagan. Ko‘plab olimlar buni psixik hosilalarning shakllanishi bilan bog‘lashadi (V. V. Davidov, V. P. Zinchenko, A.M. Leontev, O. M. Matyushkin, Ya. O. Ponomarev, O. K. Tixomirov). “Psixik hosilalar” atamasi Lev Vigotskiy tomonidan muomalaga kiritilgan. Bu jumla zamirida esa, birinchidan, rivojlanishning aynan shu bosqichida yuzaga kelgan va bola ongining atrof-muhit, ichki va tashqi olam, taraqqiyotning bevosita shu davriga xos munosabatlarini belgilab beruvchi ruhiy hamda ijtimoiy o‘zgarishlar yotadi. Ikkinchidan, psixik hosilalar — ana shu o‘zgarishlar, shaxsning muayyan davr oralig‘idagi ruhiy rivojlanishi natijasi bo‘lib, u keyingi bosqichlardagi psixik jarayonlar

shakllanishi uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

Badiiy ijod muammosi psixologiya fanining N. N. Volkov, Ye. I. Ignatev, V. I. Kiriyenko, V. S. Kuzin, O. I. Nikiforova, B. M. Teplov singari yirik vakillarini ham o‘ziga jalb qilgan. Ularning tadqiqotlari tahlili kasbiy-ijodiy faoliyat tegishli vositalar yordamida muayyan maqsadga erishish bo‘lib, ular ham natija, ham jarayonni ta’minlashi xususida xulosa chiqarishga imkon beradi. Tasviriy san’atda bu tasavvur bilan boyitilgan idrok uyg‘unligi hamda ifodalovchi harakat va vositalar, shuningdek, ularning imkoniyatlari to‘g‘risida yetarlicha bilim hosil qilish orqali tasvir g‘oyasini shakllantirishga mos keladi. Uch o‘lchamli predmet olami va ikki o‘lchamli tasvirlash yuzasi o‘rtasidagi farqlarni anglash tasviriy san’atdagi ijodiy jarayonning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Psixologiya fanida olib borilgan ko‘p yillik tadqiqotlar ijodkorlikni shakllantirishda faol yondashuv hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini aniqladi. D. B. Bogoyavlenskaya, A. V. Brushlinskiy, L. S. Vigotskiy, V. V. Davidov, A. V. Zaporojets, A. N. Leontev, M. M. Poddyakov, Ya. O. Ponomarev, V. A. Romenets, S. L. Rubinshteyn faol yondashuvning ijodkorlik ravnag‘iga qo‘shadigan hissasi muammosini atroflicha o‘rganishgan. Ularning e’tirofiga ko‘ra, bu shaxsning bilish jarayoni, shuningdek, o‘rab turgan tabiiy va ijtimoiy olamni qayta qurishga qaratilgan faoliyatining eng oliy va yuksak darajasi bo‘lib, u, oxir-oqibatda, tafakkur shakl va usullarini o‘zgartiradi.

Ma’lumki, ijodiy faoliyat tinimsiz izlanish hamda muammoli vaziyatlarda jonlanadi, chunki bunday holatlarga yechim topish yangi sifatli harakatlarni izlab topishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan olsak, K. K. Platonovning ijodkorlik tafakkurning muayyan vazifani hal qilish uchun zarur va avvaldan ma’lum usullari chegarasiga sig‘maydigan yuksak shakli ekani to‘g‘risidagi ta’rifi yanada katta ahamiyat kasb etadi va uslubiy izlanishlar yo‘nalishini aniqlashtirishda ko‘maklashadi[25].

Muayyan vazifalarni hal qilish usullarini izlashda “yo‘lchi yulduz” sifatida xizmat qiladigan, turli darajadagi bilimlarni ishlab chiqish ijodiy faoliyat ko‘lamini yanada kengaytirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Ijodiy faoliyatning bu qirrasi professor P. Ya. Galperinning aqliy tafakkur bosqichma-bosqich shakllanishi to‘g‘risidagi nazariyasi hamda uning ruhiy xislat faoliyatning to‘rt bosqichida mavjud ekani haqidagi konsepsiyasi negizida ishlab chiqilgan. Bular - qadriyat, mohiyat, maqsad va ijro bosqichlaridir [26] .

Zamonaviy psixologiyada shaxsning muayyan harakatlari bilan bog‘lik xarakatchanligi va alohida olingan vaziyatni tahlil qilishda namoyon bo‘ladigan aqliy faolligini ta’minlaydigan ichki, ruhiy holatlar ajratib ko‘rsatiladi. Tashqi sa’y-harakatlar aqliy faoliyat bilan boshqariladi, bu esa uning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ta’minlaydi.

Rassomning kasbiy-ijodiy faoliyati yangi obrazlar yaratish va tasavvurda shakllangan obrazni muayyan badiiy material yordamida ishonchli va haqqoniy yetkazib berish maqsadiga xizmat qiladigan tasvirlash va ifodalash vositalarini izlab topish, ularni texnik jihatdan oqilona qo‘llash, shuningdek, kasbi uchun ahamiyatli sifatlarni rivojlantirishga katta ishtiyoq bilan tayyor turishga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan olsak, kasbiy-ijodiy faoliyat shaxsiy ta’limning murakkab va dinamik jarayoni bo‘lib, u inson ichki olamini to‘liq qamrab oladi va alohida olingan odamning xususiy sa’y-harakatlari orqali namoyon bo‘ladi. Kasbiy-ijodiy faoliyatni jonlantirish muammosi mohiyatini u bilan bog‘liq asosiy tushunchalar, jumladan, “faollik”,

[25] К. Платонов. Занимательная психология. – Издание. 5-е, исправленное. – СПб.: Питер Пресс, 1997. – 288 с., ил. 146 страниц
[26] П. Я. Гальперин Четыре лекции по психологии. М.: Книжный дом «Университет», 2000.

“faoliyat”, “ijod”, “ijodkorlik”, “shaxs”, “professionallik” mag‘zini anglamasdan tushunish imkonsiz masaladir.

Ko‘p qirrali “faollik” tushunchasi falsafa, fiziologiya, psixologiya, pedagogika kabi fanlar tomonidan o‘rganiladi. Falsafa asosan inson faolligining tashqi jihatlarini tahlil qiladi. Psixologiya faollikni shaxs miqyosida ko‘rib chiqadi. U faollik turlarini yo‘nalishlariga qarab tasniflaydi, tarkibiy qismlarini aniqlaydi, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikka oydinlik kiritadi. Fiziologiya uchun inson faolligi taraqqiyotining biologik omillari qiziq. Pedagogika faollikni ta’lim va tarbiya mezonlari nuqtai nazaridan tadqiq qiladi, shuningdek, muayyan va maxsus sharoitlar yoki tegishli o‘quv materiallariga tayanib, faollikni shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Falsafa fanida “faollik” tushunchasi materiyaning universal, umumiy xususiyati sifatida e’tirof qilinadi. Unga ko‘ra, “faollik”, bir tomondan — muayyan maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar, ikkinchi tomondan — ob’ektning harakatga nisbatan aks ta’sirini keltirib chiqaradigan qo‘zg‘aluvchan holati, uchinchi tomondan esa — moddiy ob’ektlarning boshqa ob’ektlar bilan o‘zaro munosabatga kirishish qobiliyatidir.

Taniqli faylasuf Moisey Kagan fikricha, inson faolligi “...uning nafaqat biologik, balki ijtimoiy hayotini ham ta’minlashga xizmat qiladi”[27]. .Individning muayyan harakatlari esa faollik orqali namoyon bo‘ladi. Inson faolligi ijtimoiy tabiatga ega. Ongiga tayanib, inson o‘zini o‘rab turgan voqelik bilan, muayyan maqsadlardan kelib chiqib, o‘zaro aloqaga kirishishi, shu orqali, nafaqat, atrof-muhitni, balki o‘zini ham o‘zgartirishi mumkin.

Psixologiya fanida bu tushunchani tadqiq qilishda bir necha yo‘nalishlar mavjud. Ba’zi olimlar faollik muammosini faoliyat negizida tahlil qilishadi. Bu tadqiqotlar shaxs faolligini faoliyatning sifat ko‘rsatkichlari nuqtai nazaridan o‘rganishga qaratilgan (A. N. Leontev, L. S. Vigotskiy, K. A. Abulxanova-Slavskaya va b.). Psixologiyaning boshqa yo‘nalishi shaxs, uning o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlarini markaziy tushuncha maqomida ilgari suradi. Unga ko‘ra, faollik shaxsiy xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu konsepsiya B. G. Ananev va uning izdoshlari tomonidan rivojlantirilgan.

Shaxs faolligi psixologiyasining rivojlanishiga S. L. Rubinshteyn va A. N. Leontev kabi mashhur olimlar ham katta hissa qo‘shishgan. Ular shaxs faolligiga faqat tashqi omillar emas, balki insonning ichki determinatsiyasi bilan bog‘liq hodisa sifatida qarashgan. S. L. Rubinshteyn ham, A. N. Leontev ham inson voqelikni ongli ravishda o‘zgartiradi, ong esa faoliyatdan shakllanadi; shaxs faolligi esa ongli faoliyatda ko‘zga tashlanadi, deb hisoblashgan.

S. L. Rubinshteynning ta’kidlashicha, inson tashqi shart-sharoitlarga bevosita qaram emas, u voqelik bilan munosabatlarini shaxsiy tanlovi asosiga quradi, kelajakni oldindan ko‘radi, qarorlar qabul qiladi, voqealar yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin harakatlarni amalga oshiradi. "Shaxs, deydi olim, faollik sub’ekti sifatida maydonga chiqadi. Inson - unga ta’sir o‘tkazishi mumkin tashqi omillar tizimining passiv vakili emas, u faollik sub’ekti, ya’ni tashqi dunyoga ta’sir ko‘rsatadigan shaxsdir. Tashqi ta’sir esa faqat psixik holat orqali o‘zgarib, u yoki bu ruhiy samarani hosil qiladi"[28] .

Pedogogika fanlari doktori, professor, psixolog Aleksey Leontev tomonidan yaratilgan faoliyatning umumiy psixologik nazariyasi rivojlanib borgani sayin bu ikki tushuncha nisbati muammosi ham murakkablashgan. A. N. Leontevga ko‘ra, faoliyat, bir tomondan va aksariyat

[27] Моисей Самойлович Каган. Философия культуры. Учебное пособие для академического бакалавриата. Москва-Юрайт 2018.335 с.
[28] С. Л. Рубинштейн Основы общей психологии В двух томах Том I. Москва «Педагогика» 1989

holatlarda faollikdir. Olim fikricha, gap faoliyatni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan birlamchi fiziologik jarayonlar va hulq-atvor haqida emas, aynan faoliyat haqida ketmoqda. Boshqa tomondan, tadqiqotchi faollikni faoliyatga undaydigan ichki ehtiyoj, turtki sifatida ko‘radi va u muayyan faoliyat tuzilmasi bilangina emas, faoliyat sub’ektining o‘zi bilan belgilanadi.

Faollik tushunchasini o‘rganishga qaratilgan va yuqorida tilga olingan yo‘nalishlardan tashqari, boshqacha nuqtai nazarlar ham mavjud. Ba’zi mualliflar faollik va faoliyatni o‘zaro qiyoslashadi. Boshqalari esa faollikni muayyan faoliyatning sifat ko‘rsatkichi sifatida e’tirof qilishadi. Masalan, N. Ye. Kovalev, B. F. Rayskiy, N. A. Sorokin faollikni insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatini ta’minlovchi kuchli va energetik faoliyati deb ta’riflashadi. Pedagogika va psixologiya fanining yetakchi olimlari K. A. Abulxanova-Slavskaya va G. I. Shukina faollik va faoliyat o‘rtasidagi prinsial farqlarga e’tiborni qaratib, bu muammo yuzasidan boshqa fikrni ilgari surishgan. Ularga ko‘ra, faollik faoliyatning sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi va faoliyatning o‘zi emas, balki uning xususiyati va darajasini ko‘rsatib beradi.

Olimlarning qarashlarida muayyan ziddiyatlar borligiga qaramay, aksariyat psixologlar faollikni faoliyat rivojlanishining manbasi va mexanizmi sifatida e’tirof etishadi.

Zamonaviy psixologiya fani faollikning xilma-xil shakl va turlarini ajratib ko‘rsatgan. Ixtiyoriy va beixtiyoriy turlari ularning asosiy ko‘rinishlaridir. Individning muayyan maqsadga erishishga qaratilgan ongli harakatlari ixtiyoriy faollik shakllariga kiradi. Beixtiyoriy faollik esa ong ishtirokisiz kechadi (uyqu, reflektor javoblar, shartli signal reaksiyalari, avtomatlashtirilgan harakatlar).

Eksperimental psixologik tadqiqotlarda, aniqrog‘i, K.A Abulxanova-Slavskaya asarlarida shaxs faolligi tipologiyasining olti ko‘rinishi ta’riflangan:

– uyg‘un (garmonik) tip — bu toifaga tashabbus va mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlay olgan shaxslar kiradi. Ular muayyan tashabbuslarni ilgari surishadi, ijro uchun ham javobgarlikni o‘z zimmalariga yuklashadi. Bu toifaga kiruvchi shaxslar taklif qilgan tashabbuslarni amalga oshish bo‘yicha g‘oyalar muammoli va konstruktiv bo‘ladi.

– sermahsul tip - bu toifa vakillari g‘oyalarni ilgari surishadi, lekin o‘zlarini ijrochi sifatida ko‘rishmaydi. Shunga qaramay, g‘oyaga muammo sifatida qiziqishlari borligi uchun mas’uliyatni zimmalariga olishadi;

– refleksiv tip - javobgarlik hissi haddan tashqari yuqori (gipermas’uliyatli) shaxslar toifasi. Bu me’yorsiz mas’uliyat yuki ularning tashabbuslari taqdirini belgilab beradi va maqsadlari ko‘pincha amalga oshmay so‘nadi; ularda o‘ziga tanqidiy baho berish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish hissi juda baland. Ular mustaqil harakatga moyil emas, lekin taqliddan ham, yo‘riqnomalarga tayanishdan ham yiroq;

– ijrochi tipi - bu toifaga kiruvchilar javobgarlikni his qilishadi va o‘zlarini mas’uliyat ijrochi sifatida ko‘rishadi. Lekin bevosita ijroga kelganda, mustaqil harakat qilisholmaydi, taqlid va yo‘riqnomalarga suyanishadi, o‘z tashabbuslarini o‘zlari so‘ndirishadi;

– funksional tip - javobgarlikdan qochishadi, lekin atrofdagi ijtimoiy-ruhiy holatdan kelib chiqib, unga moslashishadi va tayyor qarorlarni amalga oshirishda faollik va sermahsullik ko‘rsatishadi;

– tafakkur qiluvchi tip - bu toifaga murakkab va konstruktiv tashabbuslarni ilgari suradigan, lekin ularning ijrosi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydigan, mustaqil harakat qilishdan chekinadigan shaxslar kiradi. Bu guruh vakillari o‘zlarining hamma tomonidan e’tirof qilinishini istashadi. Xususiy "Men"ining balandligi ular tomonidan ilgari surilgan

tashabbuslarning ijrosini yo‘qqa chiqaradi. Mustaqil harakat qilishdan qochishadi va o‘zlarini boshqalar bilan qiyoslashni yoqtirishadi[29].

Talabalar bilan ijodiy fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda shaxs faolligining turli ko‘rinishlari aks ettirilgan ushbu tasnifdan individual tartibda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogika fanida (A. A. Verbitskiy, I. A Polunina va b.) sub’ektning bilish faoliyati xususiyatidan kelib chiqib, faollikning bir necha darajasi ajratib ko‘rsatilgan:

– reproduktiv-taqlidiy faollik — uning yordamida faoliyat tajribasi boshqa shaxs tajribasi orqali oshib boradi;

– izlanuvchanlik-ijrochilik faolligi. Bu nisbatan yuqori daraja bo‘lib, ko‘proq mustaqil ish yuritishni taqozo qiladi. Bu bosqichda vazifa mohiyatini anglab yetish va uning ijrosini ta’minlash uchun vositalar qidirish zarur;

– ijodiy faollik — vazifalar, ularni amalga oshirishning yangicha, original yo‘llari va vositalari ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil belgilangani sababli, faollikning yuksak bosqichi sifatida e’tirof qilinadi.

Umuman olganda, shaxs faolligi muammosiga bag‘ishlangan falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili quyidagi xulosalarga kelish uchun imkon beradi:

– motiv, ehtiyoj va maqsadlar shaxs faolligining ichki xususiyatlariga kiradi; ichki faollik shaxsning shakllanishida hal qiluvchi rolni o‘ynaydi;

– ehtiyoj - faollikni harakatga keltiruvchi kuchdir. Qiziqish, intilish, harakat energiyasi ehtiyojlarni (individning yashashi uchun ahamiyatli nimaningdir yetishmasligi, tanqisligi, yo‘qligi holati) qondirishda faol omillar sifatida xizmat qiladi;

– shaxs faolligi faoliyat bilan bog‘liq va uning zamirida muayyan maqsad yotadi. Shu bilan birga, faoliyat maqsadi – “ehtimoliy kelajak obrazi unga qarab intilishga undovchi poydevordir”. Agar motivda sub’ektning o‘zi ideal holatda taqdim etilgan bo‘lsa, shaxs faolligi maqsadlarida ob’ektning o‘zi namoyon bo‘ladi;

– shaxs faolligi turli faoliyat turlari orqali ro‘yobga chiqadi va ularning miqdori taxminan mavjud ehtiyojlar soniga teng keladi.

“Faollik” va “faoliyat” tushunchalarini ko‘rib chiqdik, endi esa ijodiy jarayon haqida to‘liq tasavvur hosil qilish uchun “ijod” tushunchasiga murojaat qilamiz. Zero, falsafa, shuningdek, psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda bu keng ko‘lamli tushunchaning ko‘plab ta’rif va xususiyatlari keltirilgan.

Aksariyat tadqiqotchilar (S. N. Dorofeyev, A. P. Dyakov, G. V. Gorchenko va b.) shaxs faolligini ijodiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida ko‘rishadi va ijodiy faoliyatning quyidagi belgilari mavjudligini ta’kidlashadi:

– hodisalar, faktlarni diqqat-e’tibor bilan kuzatish, ularni tahlil qilish va eng muhim jihatlarini belgilash hamda yodda saqlab qolish;

– ilgari olingan bilim va ko‘nikmalardan faol foydalanish, ularni qayta ko‘rib chiqish, yangi maqsadlar, vazifalar, mavjud shart-sharoit va boshqalarga qiyoslash;

– mehnat faoliyatining ehtimoliy natijalarini prognozlash va oldindan taxmin qilish;

– ish yuritishning yangi shakllari, usullari va yo‘llarini qidirish;

– harakat strategiyasi va taktikasi, ularni amalga oshirish vositalari va yo‘llarini

[29] Абульханова К.А Социокультурные и психолого-педагогические проблемы социализации молодежи /. и др. М., 2019.

ishlab chiqish;

– oraliq va yakuniy natijalarni tahlil qilish, ularni belgilangan vazifalar bilan taqqoslash.

Amerikalik psixolog Joy Pol Gilford tadqiqotlari ijodkor shaxsning intellektual modelini yaratishga imkon berdi. Muallif shaxsning motivatsiya va temperament, tafakkur va faoliyat singari tuzilmaviy komponentlari nisbatini asos sifatida olib, ijodiy faoliyatning intellektualligi hamda motivatsiyasi omillari, ya’ni qiziqish, xulq-atvor va ularning o‘zaro munosabatini o‘rgangan. Olim ijodiy tafakkurning asosiy jarayonlari — sintez va tahlil mohiyatini ochishga harakat qilgan. Uning fikricha, sintez qilish — baholash, tahlil, aniqlashdir. Tahlil qilish esa xotira va o‘qish-o‘rganish qobiliyati negizi hisoblanadi. Joy Pol Gilford bo‘yicha, birlashtirish, tasniflash, saralash, ta’riflash va o‘zgartirish tahlil mahsuloti sanaladi.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotchilar asarlarining tahlili bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-ijodiy faoliyatini jonlantirish — bu ta’lim jarayonida shaxsning alohida xislatlarini aniq maqsad bilan taraqqiy ettirish ekanini ko‘rsatdi. Bu kasbiy vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashish, faoliyat turiga nisbatan ichki ehtiyojning mavjudligi, shaxsiy rivojlanishga ongli ravishda intilishda namoyon bo‘ladi.

Xulosa shuki, ilmiy adabiyotlar tahlili ijodiy faoliyat zamirida shaxs faolligi yotishini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, faollik tanlash imkoniyatini taqdim etadi va u inson qiziqishlari hamda ehtiyojlari o‘zaro mos kelgan va o‘zi bajarayotgan faoliyat turidan manfaatdor bo‘lgan holatlarda to‘laqonli namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi kasbiy-ijodiy faoliyatining taxminiy pedagogik asoslarini modellashtirishda aynan yuqorida keltirilgan nuqtai nazarlarga tayanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Платонов К. Занимательная психология. – 5-е изд., испр. – СПб.: Питер Пресс, 1997. – 288 с.
2. Гальперин П.Я. Четыре лекции по психологии. – М.: Книжный дом «Университет», 2000.
3. Каган М.С. Философия культуры: Учебное пособие для академического бакалавриата. – Москва: Юрайт, 2018. – 335 с.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: В 2 т. Т. I. – Москва: Педагогика, 1989.
5. Абульханова К.А. Социокультурные и психолого-педагогические проблемы социализации молодежи. – М., 2019.

TASVIRIY SAN’AT VOSITASIDA YoShLARNINGIJODIY VA FALSAFIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRIShNING INNOVATSION YoNDAShUVI “BO‘LAKLARDAN FALSAFA”(PUZZLYe MYeTODI MISOLIDA)

[1]M.Doniyorova, [2]Baymetov Botir Boltabayevich
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti, “Tasviriy san’at” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400005

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Bo‘laklardan Falsafa”(puzzle) metodi ta’lim jarayonida ijodiy va falsafiy tafakkurni rivojlantirishning innovatsion usuli sifatida tahlil qilinadi. Mazkur metod tasviriy san’at asarlaridan — xususan, abstrakt, surrializm va kubizm yo‘nalishlaridan — foydalanish orqali talabalarni mustaqil fikrlash, mushohada yuritish hamda jamoaviy ishlashga yo‘naltiradi. Maqolada metodning nazariy asoslari, bosqichlari va pedagogik-psixologik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, fanlararo integratsiya imkoniyatlari hamda talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Bo‘laklardan Falsafa” metodi talabalarning ijodiy, estetik va falsafiy tafakkurini faollashtiradi, ularni san’at asarlari orqali hayotiy va falsafiy ma’nolarni anglashga o‘rgatadi.*

Kalit so‘zlar *“Bo‘laklardan Falsafa” (puzzle) metodi, tasviriy san’at, abstrakt san’at,surrializm, kubizm, ijodiy tafakkur, falsafiy mushohada, fanlararo integratsiya, konstruktivizm, pedagogik innovatsiya, ijodiy kompetensiya, estetik tarbiya.*

Iqtidorli yosh professional san’at namoyondalarining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning zamonaviy shakl va uslublari, samarali pedagogik texnologiyalar, elektron axborot resurslaridan keng foydalangan holda ta’lim jarayonining yuqori darajada olib borilishini ta’minlash; o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o‘quv rejalari va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirish; badiiy ta’lim yo‘nalishlaridagi pedagog va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarining o‘quv-metodik bazasini shakllantirish va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish;iqtidorli yosh professional san’at namoyondalarining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning zamonaviy shakl va uslublari, samarali pedagogik texnologiyalar, elektron axborot resurslaridan keng foydalangan holda ta’lim jarayonining yuqori darajada olib borilishini ta’minlash; o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o‘quv rejalari va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirish; badiiy ta’lim yo‘nalishlaridagi pedagog va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarining o‘quv-metodik bazasini

shakllantirish va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish;[30]

Shu kabi chora-tadbirlar nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki o‘quvchi va talabalarda zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchi va talabalarni faqatgina mavjud bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashga undaydigan faol metodlarni qo‘llashni talab etmoqda. Ayniqsa, san’at ta’limi sohasida bu ehtiyoj yanada dolzarb, chunki san’at inson tafakkurining eng nozik, eng chuqur qatlamlariga ta’sir etadi. Shu nuqtai nazardan, “Bo‘laklardan Falsafa” ”(puzzle) metodi ta’limda yangicha yondashuv sifatida o‘quvchilarning estetik va falsafiy tafakkurini uyg‘otish, ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Puzzle bugungi kunimizda ko‘plab sohalarda jumladan tibbiyotda ta’limi, pedagogikada, psixalogiyada, qo‘llanilganligini bilamiz. Tibbiyot ta’limi sohasida puzzllar “jigsaw puzzle”metodi ko‘rinishida, kognitiv fanlarda “insight problem puzzles”, “video-puzzles” eksperimental vosita sifatida, pedagogika “puzzles” metodi ko‘rinishida qo‘llanilib kelmoqda.

Mazkur metod tasviriy san’at, xususan abstrakt, surrialistik , kubistik va boshqa yo‘nalishlarda yaratilgan asarlar asosida shakllanadi. Har bir bo‘lak, rasmning unsuri yoki detal o‘zida chuqur ma’noni mujassam etgan bo‘lib, ularni birlashtirish jarayoni o‘quvchining fikrlash, izlash, tahlil qilish va falsafiy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantiradi.

“Bo‘laklardan Falsafa” (puzzle) metodi konstruktivizm va integrativ pedagogika nazariyalariga tayanadi. Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki uni faol muloqot, izlanish va tajriba orqali o‘zi yaratadi. Integrativ pedagogika esa fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish orqali shaxsning kompleks tafakkurini shakllantirishni maqsad qiladi. Tasviriy san’atda bo‘laklar orqali yaxlit asar yaratish jarayoni inson ongidagi dunyo manzarasini qayta tiklashga o‘xshaydi. Har bir parcha o‘ziga xos “ma’no bo‘lagi” bo‘lib, ularni birlashtirish — inson tafakkurida yaxlit falsafiy tasavvurni shakllantiradi. Shu bois, bu metod san’at, psixologiya va falsafaning o‘zaro kesishgan nuqtasida joylashgan o‘quv texnologiya sifatida qaraladi.


[30] Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida. Ўзбекистон республикаси президентининг қарори. Toshkent sh., 2020-yil 21-aprel, PQ-4688-son



“Bo‘laklardan Falsafa” (puzzle) metodining asosiy maqsadi — talabalarning ijodiy tafakkuri, falsafiy mushohadalari va jamoaviy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Ushbu maqsad quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi:
Talabalarni abstrakt fikrlashga o‘rgatish.
San’at asarlarining ichki falsafiy mohiyatini tahlil qilishga yo‘naltirish.
Guruhli faoliyat orqali muloqot, bahs-munozara va taqdimot madaniyatini rivojlantirish.
Har bir talabaning shaxsiy dunyoqarashini ochish va mustahkamlash.

Metod ta’lim jarayonida individual yondashuv tamoyillarini qo‘llab, har bir talabani o‘z dunyoqarashini erkin ifodalashga chorlaydi. Shu orqali, o‘quvchi nafaqat rasmga, balki hayotga ham falsafiy nigoh bilan qarashni o‘rganadi.



Metodik jarayon besh asosiy bosqichdan iborat:

1.Kirish bosqichi. O‘qituvchi dars maqsadi va metodning mohiyatini tushuntiradi. Bu bosqichda talabalar mavzuga ruhiy tayyorlanadi va faol ishtirok etish motivatsiyasiga ega bo‘ladi.

2.Guruhlarga bo‘lish. Talabalar 3–4 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga abstrakt, surrialistik yoki kubistik yo‘nalishda yaratilgan san’at asarining bo‘laklari (puzzle shaklida) tarqatiladi.

3.Puzzle yig‘ish jarayoni. Guruhlar cheklangan vaqt ichida rasmni to‘liq tiklashga harakat qiladi. Bu jarayon o‘z-o‘zidan mushohadaviy tafakkurni faollashtiradi — talaba har bir bo‘lakning joyini topishda “ma’no uyg‘unligi”ni izlaydi.

4.Falsafiy tahlil bosqichi. Yig‘ilgan (yoki to‘liq yig‘ilmagan) rasm asosida guruhlar falsafiy savollarga javob izlaydi. Masalan: “Inson va tabiat”, “Ruh va kasallik”, “Iztirob”, “Qaysarlik”, “Ayol va dard” kabi mavzular bo‘yicha qisqa falsafiy mulohazalar yozadilar.

5.Taqdimot bosqichi. Har bir guruh o‘z fikrlarini sinf oldida taqdim etadi, boshqa guruhlar esa savollar beradi, munozara shakllanadi. Shu tariqa, dars interaktiv, bahsli va ijodiy muhitda yakunlanadi.

“Bo‘laklardan Falsafa” (puzzle) metodi bir vaqtning o‘zida bir nechta muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Ijodiy kompetensiya: talabalar tasviriy ifoda orqali o‘z dunyoqarashlarini namoyon etadi. Falsafiy tafakkur kompetensiyasi: rasm orqasidagi ma’noni izlab topish orqali tahliliy va kontseptual fikrlashni rivojlantiradi.

Kommunikativ kompetensiya: guruhli ishlash, fikr almashish va taqdimot qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Emotsional-intellektual rivojlanish: san’at bilan ishlash jarayonida his-tuyg‘ularni anglash, ularni so‘z bilan ifodalash qobiliyati ortadi.

Psixologik jihatdan esa bu metod o‘quvchilarda “vizual mushohada”ni rivojlantiradi, ya’ni inson miyasi ko‘rgan narsani faqat tasvir sifatida emas, balki ramziy, falsafiy ma’no sifatida idrok etishga o‘rganadi.

Mazkur metod san’at, falsafa, psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik fanlari bilan bevosita bog‘liqdir. Dars davomida talaba rasmni tahlil etish jarayonida estetik baho berish (san’at), g‘oyaning mohiyatini anglash (falsafa), hissiyotlarni tahlil qilish (psixologiya), va o‘z fikrini ifodalash (pedagogika) kabi ko‘nikmalarni uyg‘un holda rivojlantiradi.Bunday integratsiya o‘quv jarayonini yanada jonli, o‘zgacha, o‘ylashga undovchi holatga keltiradi. Shu bilan birga, bu metod zamonaviy STEAM (Sciyence, Technology, Engineyering, Art, Mathematics) ta’lim konsepsiyasining “Art” komponentini faol tarzda qo‘llashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda“Bo‘laklardan Falsafa” metodi zamonaviy ta’lim tizimida ijodiy va falsafiy tafakkurni uyg‘otuvchi samarali yondashuvdir. U san’atni o‘qitish jarayoniga chuqur falsafiy mazmun olib kiradi, o‘quvchilarni o‘z fikrini erkin ifodalash, bahslashish, va o‘z “ichki olami”ni tahlil etishga o‘rgatadi. Bu metod orqali talaba nafaqat san’atni ko‘radi, balki uni his qiladi, anglaydi, va falsafiy mazmunda talqin etadi. Natijada, o‘quvchi shunchaki rasmni ko‘rmaydi — u hayotni bo‘laklardan yig‘adi, insoniyat mohiyatini izlaydi, va shu orqali o‘z “falsafiy men”ini kashf etadi.

ADABIYOTLAR

1. N.Saidaxmedov ”Yangi pedagogik tehnalogiyalar”.”Moliya” nashriyoti 2003-yil Toshkent.
2. B.Oripov. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi.”Ilm-ziyo nashriyoti” 2005- yil

Toshkent.
3. R.Xasanov. Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. ”Fan” nashriyoti 2004-yil Toshkent.
4. B.Boymetov.”Qalamtasvir”o‘quv qo‘llanma.”ILM-ZIYO” nashriyoti. 2017-yil Toshkent.
5. **“Estetika”** (ham muallif: Abdulla Sher va Bahodir Husanov) — falsafa fani bo‘yicha adabiyot.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

[1]Botir Boltabayevich Baymetov, [2]Iqboloy Ibrohimova Tohirjon qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori,
[2]Namangan davlat pedagogika instituti Art pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400025

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari, psixologik-pedagogik omillari hamda ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish usullari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilik yaratishga intilish va ijodiy tafakkurni o‘stirish yo‘llari tahlil qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *ijodiy qobiliyat, kichik maktab yoshi, ta’lim, innovatsion metod, shaxsiy rivojlanish, pedagogik yondashuv.*
Аннотация. *данная статья посвящена вопросам важности современной образовательной системы в развитии способности эмоционально и эстетически воспринимать действительность средствами изобразительной деятельности, изучению навыков студента в работе с цветом как одной из важных проблем в процессе обучения студентов.*
Ключевые слова: *изобразительное искусство, система оценки, художественное восприятие, творческие способности, память, воображение, мышление.*
Abstract. *The article discusses the theoretical foundations of developing creative abilities in primary school pupils, psychological and pedagogical factors, and methods for developing creativity in the educational process. It analyses ways of developing independent thinking, creativity, and creative thinking in pupils through the use of modern pedagogical technologies.*
Keywords: *creative abilities, primary school age, education, innovative methods, personal development, pedagogical approach.*

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimining asosiy maqsadi — shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvga ega bo‘lgan insonni tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, kichik maktab yoshi — bolalarning tafakkuri, tasavvuri va qiziqishlari jadal shakllanadigan davr bo‘lgani sababli, bu bosqichda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish muhim pedagogik muammolardan biridir.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarining tasviriy san’at mashg‘ulotlarida kichik maktab yoshidagi bolalar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha samarali pedagogik usullar ishlab chiqilgan va amalda qo‘llanilmoqda. Finlyandiya ta’lim tizimi o‘quvchilarda nafaqat o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish, balki ularning ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchining ijodiy rivojlantirish va shaxs sifatida shakllanishning muhim jihati hisoblanadi. Singapur ta’lim tizimida ham bolani ijodiy rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, u integrativ fanlararo yondashuv orqali shakllantiriladi.

Ijodiy qobiliyat — bu yangi g‘oyalar yaratish, mavjud bilimlarni yangicha yondashuv bilan qo‘llay olish, noodatiy fikrlash va muammolarga yangicha yechim topish layoqatidir. Psixologlar (L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev, D.B. Elkonin) ning tadqiqotlariga ko‘ra, ijodkorlik inson faoliyatining tabiiy va rivojlantiriladigan jihatidir.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi doimo odamlarda katta qiziqish uyg‘otgan. Zamonaviy jamiyat erkin fikrlay oladigan va turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarni hal qilishga noan’anaviy yondashadigan ijodkor odamlarga barcha davrlarda davlat va jamiyatda qiziqish bo‘lgan. Psixologik va pedagogik masalalar uchun ijodiy qobiliyatlarning katta ahamiyati hozirgi vaqtda keyingi avlodlar tomonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan zamonaviy ijtimoiy tajribaning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ushbu tajribaning dinamikasi va beqarorligi bilan belgilanadi[31].

Ijodiy faoliyatga bo‘lgan ichki ehtiyoj psixologlar va o‘qituvchilar tomonidan shaxs rivojlanishining ob’ektiv qonuni sifatida qaraladi. Vygodskiy, ijodkorlik bolaning rivojlanish normasi bo‘lib, ijodkorlik odatda har qanday bolaga xosdir. Biroq, ijodiy faoliyatda ishtirok yetish orqali inson ma’lum bir modelga muvofiq harakat qilishi mumkin (passiv-taqlid faoliyati), ko‘plab taklif qilingan yechimlardan birini mustaqil ravishda tanlashi mumkin (faol-taqlid) va nihoyat, ixtiro qilish, sifat jihatidan yangi (ijodiy faoliyat) yaratish. Ko‘pchilik o‘qituvchi va psixologlarning (S. L. Rubinshteyn, L. S. Vygodskiy, B. M. Teplov, Z. N. Novlyanskaya, T. S. Komarova, Ye. A. Flerina) fikricha, ijodiy qobiliyat shaxsning umumiy qobiliyatiga asoslanadi. Ijodiy qobiliyatlarning tuzilishi ijodiy fikrlash va ijodiy tasavvurni o‘z ichiga oladi. Ijodkorlik shaxsning umumiy tuzilishining tarkibiy qismlaridan biridir. Bu butun bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi[32]. Shunday qilib, ijodiy qobiliyatlarni shaxs va jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘zgaruvchan ijtimoiy va madaniy sharoitlar sharoitida muammolarni hal qilishda shaxsning konstruktiv va o‘ziga xos fikrlashga tayyorligi sifatida tavsiflash mumkin.

Kichik maktab yoshi (odatda 6–10 yosh) — bolaning ijodiy qobiliyatlari o‘ziga xos tarzda rivojlanadigan davrdir. Ushbu davrda bolalar mantiqiy — konkret fikrlashga o‘tayotganligi sababli ularning ijodiy faoliyati tasviriy va amaliy faoliyatlarda; o‘yin, chizish, hikoya tuzish va muammoni hal qilish vazifalarida namoyon bo‘ladi. Shu yoshdagi ijodkorlik odatda erkin fikrlash (divergent thinking), fantaziya va tasavvurning kuchayishi, hamda muvofiq ijtimoiy-motivatsion omillarga (oila, maktab, sinfdoshlar) juda bog‘liq ekanligi aniqlangan.

Bu davrda bolalar:

- atrof-muhitni bilishga kuchli qiziqish bildiradilar;
- o‘yin, tasviriy san’at, musiqaga nisbatan sezgir bo‘ladilar;
- yangi fikr va g‘oyalarni sinab ko‘rishga intiladilar.

Shuning uchun bu yoshda ijodiy muhit yaratish, ularning mustaqil fikrlashiga sharoit tug‘dirish juda muhimdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishda o‘qituvchi shaxsining o‘rni beqiyosdir. Chunki aynan o‘qituvchi o‘quvchining tafakkuri, dunyoqarashi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini rivojlantiruvchi asosiy yetakchi hisoblanadi. Bolaning ijodkorligi tabiiy qiziqish va bilishga intilish asosida yuzaga chiqadi, bu jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirish, rag‘batlantirish va baholash o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liqdir. Ijodiy faoliyatni

[31] Ахмерова Н.М. Педагогика творчества: учебное пособие для вузов / Н. М. Ахмерова, Р. С. Рабаданова, А. Л. Фатыхова. - 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2022. - 103 с.

[32] Барышева Т.А. Креативный ребенок: Диагностика и развитие творческих способностей / Т.А. Барышева и др. – М.: 2020. - 416 с.

rivojlantirish uchun o‘qituvchi darslarda an’anaviy yondashuvlardan tashqari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va interfaol metodlardan foydalanishi lozim. O‘quvchilarga mustaqil fikrlash, yangi g‘oyalar yaratish va o‘z fikrini erkin ifodalash imkoniyatini beruvchi o‘quv muhiti tashkil etilishi kerak.

O‘qituvchi kichik maktab o‘quvchisining ijodiy tafakkurini quyidagi yo‘llar bilan rivojlantirishi mumkin:

- O‘yinli ta’lim metodlarini qo‘llash;
- Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchini mustaqil fikrlashga undash;
- Interfaol metodlar (aql hujumi, rolli o‘yin, loyiha usuli va boshqalar)dan foydalanish;
- Har bir bolaning individual qiziqishi va iste’dodini hisobga olish.

O‘qituvchining vazifasi — bolalarning har bir ijodiy g‘oyasiga e’tibor berish, ularni rag‘batlantirish va kichik yutuqlarini qadrlashdir. Bunday muhitda bola o‘zini erkin his qiladi, o‘z fikrini aytishdan qo‘rqmaydi va yangi narsalarni sinab ko‘rishga harakat qiladi. Shu tarzda o‘qituvchi o‘quvchilarda nafaqat ijodiy qobiliyatni, balki mustaqillik, mas’uliyat, tanqidiy fikrlash va o‘zini baholash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’siri

“Kichik yoshdagi bolalar ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ularning mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin ifodalash, ijodiy yondashuv va tahliliy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, o‘yinli o‘qitish texnologiyalari bolalarning o‘quv jarayoniga faol jalb qilinishini ta’minlaydi hamda ularni o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.” Axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish bolalarning ijodiy salohiyatini oshiradi. Masalan, raqamli o‘yinlar, interaktiv dasturlar, vizual topshiriqlar ularning tasavvurini kengaytiradi va mustaqil izlanishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim psixologik-pedagogik vazifalaridan biridir. Bu jarayonda bolalarning erkin fikrlashi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi va muammolarga mustaqil yondashuvi uchun qulay sharoit yaratish zarur. Darsda ijodiy topshiriqlar, o‘yin va loyihaviy faoliyatdan foydalanish, shuningdek, ijobiy emotsional muhitni ta’minlash bolalarning ijodiy salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish — bu nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omil, balki kelajakda mustaqil fikrlovchi, yangilik yarata oladigan shaxsni shakllantirishning asosi hisoblanadi. Shu bois, pedagoglar o‘z faoliyatida ijodiy yondashuvni kuchaytirishlari, bolalarning har bir kichik g‘oyasini qadrlash va qo‘llab-quvvatlashlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi asoslari. – Moskva, 1982.
2. Elkonin D.B. Bolalik va shaxs rivojlanishi. – Moskva, 1989.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
4. Qodirova F., Matyazova D. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
5. Saidova N. Ijodiy tafakkur va ta’lim jarayoni. – Toshkent, 2023.
6. Ergashova M.X., Rasulova O.Z. “Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – Zenodo, 2022.

TASVIRIY SAN’AT FANLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI

Bayramova Sabila
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400041

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy san’at fanini o‘qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, grafik dasturlardan foydalanishning pedagogik va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Mavzu bo‘yicha mahalliy va xalqaro ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslangan holda, yangi texnologiyalarning o‘quvchilar va talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni va ta’sirchanligi yoritilgan. Maqolada san’at ta’limiga raqamli vositalarni joriy etish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni zamon talablariga mos kadrlar sifatida shakllantirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, tasviriy san’at, grafik dasturlar, ijodiy ko‘nikma, texnologiya, innovatsiya.*

Аннотация. *Тезис глубоко анализирует роль изобразительного искусства в воспитании личности и общества. Рассматриваются виды искусства (восприятие реальности, рисование с натуры, художественное конструирование и моделирование, рисование по теме, анализ произведений искусства, беседы), его историческое развитие, воспитательное значение, возможности в цифровой среде и политика Президента по цифровизации образования. Цитаты из источников подчеркивают духовное, эстетическое и социальное влияние искусства. Изучается значение цифрового искусства, виртуальных галерей и программ с открытым кодом (Krita, Sketchbook) в образовании. Предлагаются 5 инициативных проектов для расширения школьных программ.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, воспитание общества, воспитание личности, цифровое искусство, эстетическое воспитание, виртуальные галереи, Krita, Sketchbook, цифровизация образования.*

Abstract. *This thesis provides an in-depth analysis of the role of fine arts in individual and societal upbringing. It explores art types (perception of reality, drawing from life, artistic construction-modeling, drawing by theme, analysis of artworks, conversation lessons), historical development, educational significance, digital environment opportunities, and the President’s policy on education digitalization. Citations highlight the spiritual, aesthetic, and social impact of art. The importance of digital art, virtual galleries, and open-source tools (Krita, Sketchbook) in education is examined. Five Initiative projects are proposed to expand school curricula.*

Keywords: *fine arts, societal upbringing, individual upbringing, digital art, aesthetic education, virtual galleries, Krita, Sketchbook, education digitalization.*

Bugungi tez o‘zgaruvchan raqamli davrda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xususan, turli fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga qaratayotgan alohida e’tibori va bu boradagi qator farmon va qarorlari ushbu jarayon uchun mustahkam zamin

yaratmoqda. Xususan, "Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmon (2022-yil 28-yanvar, PF-60-son) hamda "O‘zbekiston-2030" strategiyasida ta’limni tubdan isloh qilish, raqamli texnologiyalarni barcha sohalarga joriy etish orqali inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilgan. [1].

Tasviriy san’at ham bu jarayondan chetda qolgani yo‘q. An’anaviy usullar bilan bir qatorda, raqamli vositalar va texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ochish, ularning qiziqishlarini oshirish va zamonaviy talablarga javob beradigan malakalarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu, o‘z navbatida, davlatimiz tomonidan belgilangan islohotlar yo‘nalishiga to‘liq mos keladi.

Bu mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Xususan, ilmiy rahbarimiz A.Sh. Abdumajitov o‘zining ilmiy ishlarida tasviriy san’at darslarida grafik dasturlardan foydalanishning dolzarbligini alohida ta’kidlaydi [2, 4]. Uning tadqiqotlarida CorelDraw, Krita, MediBang, InfinitePainter kabi dasturlar orqali rasm chizishni o‘rgatish usullari bayon etilgan. Bu usullar an’anaviy texnikalarga nisbatan o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar ham bu tendensiyani tasdiqlaydi. "Influence of Modern Digital Technologies on Fine Arts" (2023) [7] maqolasida raqamli texnologiyalarning rassomlar ijodiy jarayonlariga ta’siri, yangi texnikalar va uslublarning paydo bo‘lishi ko‘rib chiqilgan. "New technologies in arts - paradigms and contexts reflected in the literature and practice related to the visual arts" (2024) [8] maqolasi esa ta’limda texnologik o‘zgarishlarni keng qamrovli tahlil qilib, o‘qituvchilardan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab qilishini ko‘rsatib beradi.

Shu bilan birga, M. K. Akimova va V. T. Kozlova kabi olimlar o‘quvchilarning aqliy rivojlanishini to‘g‘rilashda psixologik yondashuvlar muhimligini ta’kidlagan [3], bu esa darslarga zamonaviy usullarni joriy etish orqali o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.

Tasviriy san’at ta’limida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash quyidagi muhim afzalliklarni beradi:

Raqamli vositalar orqali ijodiy erkinlik: Talabalar turli xil ranglar, cho‘tkalar va effektlarni cheksiz sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ularning ijodiy izlanishlarini rag‘batlantiradi.

Innovatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish: Grafik dasturlarda ishlash ko‘nikmalari bugungi kunda vizual san’at, dizayn, animatsiya va kompyuter grafikasining muhim qismi hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar talabalarga kelajakda raqamli sohaga oid kasblarni egallash uchun mustahkam poydevor yaratadi [2].

O‘qitish samaradorligini oshirish: O‘qituvchilar grafik dasturlar yordamida mashg‘ulotlar uchun vizual materiallar tayyorlashi, jarayonni tahrirlashi va xatolarni tezkorlik bilan tuzatishi mumkin. Bu esa darslarning mazmunini boyitadi.

O‘quvchilar motivatsiyasini oshirish: Zamonaviy texnologiyalar yoshlar uchun qiziqarli va ularga tanish bo‘lgan vositalar bo‘lib, bu ularning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini oshiradi [5].

Zamonaviy texnologiyalarni tasviriy san’at faniga integratsiya qilish bugungi kunning ajralmas talabidir. Bu nafaqat ta’lim jarayonini modernizatsiya qiladi, balki talabalarda zamon talabiga javob beradigan ijodiy va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Grafik dasturlar yordamida olib borilgan mashg‘ulotlar talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, ularga

zamonaviy san’at sohasida muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi strategik maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr, № UP-6079-son qarori “Digital Uzbekistan - 2030” strategiyasi to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/5005022.
2. Abdumajitov, A. Sh. (2023). Grafik dasturlar orqali o‘quvchilarga rasm chizishni o‘rgatish. *Journal of new century innovations*, 27(4), 113-117.
3. O‘g‘li, A. S. A. (2023). TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA GRAFIK DASTURLAR VOSITASIDA TASVIR ISHLASHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 10), 19-23.
4. Akimova, M.K., & Kozlova, V.T. (2000). *Psychological correction of the mental development of schoolchildren*. Textbook. M.: Academy.
5. Abdumajitov, A. Sh., Tasviriy san'at mashg‘ulotlarida talabalarni kompyuter grafikasi asosida tasvirlashga o‘rgatishning pedagogik imkoniyatlari.
6. Madaminov, N., Ma'murov, A., & Soliev, O. (2021). TECHNOLOGIES OF TEACHING FINE ARTS WITH MODERN METHODS. *European Scholar Journal (ESJ)*, 2(9), 160-164.
7. *Raqamli ta’limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari*. (2023). Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Toshkent.
8. Al-Sadiq, A., & Al-Amir, F. (2023). *Influence of Modern Digital Technologies on Fine Arts*.
9. Rybicka, J., & Wyrzykowska, L. (2024). *New technologies in arts - paradigms and contexts reflected in the literature and practice related to the visual arts.*

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: KELIB CHIQISHI, RIVOJLANISHI, ASOSIY TA'RIFLARI VA TURLARI

[1]Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich, [2]Norboboyeva Maftuna Fazliddin qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti "San'atshunoslik" fakulteti "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasi p.f.f.d., v/b dotsent, [2]Talaba.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400060

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy ishda pedagogik texnologiyaning mazmuni, uning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, ta'lim jarayonidagi ahamiyati va qo'llanilish xususiyatlari yoritilgan. Pedagogik texnologiya — bu o'quv jarayonini ilmiy asoslangan holda rejalashtirish, tashkil etish va baholash tizimi sifatida talqin etilgan. Asarda yangi pedagogik texnologiyalarning vujudga kelishi, ularning rivojlanishida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va fan-texnika yutuqlari muhim omil sifatida ko'rsatilgan.*

Annotation*: This scientific work explores the essence of pedagogical technology, its emergence, stages of development, significance in the educational process, and its application features. Pedagogical technology is interpreted as a system for scientifically grounded planning, organization, and evaluation of the teaching process. The study highlights the emergence of new pedagogical technologies and emphasizes the important role of modern information and communication tools, as well as scientific and technical advancements, in their development.*

Аннотация: *В данной научной работе раскрывается сущность педагогической технологии, её происхождение, этапы развития, значение в образовательном процессе и особенности применения. Педагогическая технология интерпретируется как система научно обоснованного планирования, организации и оценки учебного процесса. В исследовании подчеркивается возникновение новых педагогических технологий и указывается на важную роль современных информационно-коммуникационных средств и достижений науки и техники в их развитии.*

Kalit so'zlar; *pedagogik texnologiya, ta'lim jarayoni, o'qitish metodlari, zamonaviy ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (akt), ta'lim sifati, o'quvchi va talaba faoliyati, pedagogik mahorat, yangi pedagogik texnologiyalar, modul tizimi, dasturlashtirilgan ta'lim, o'qituvchi malakasi, kasbiy kompetensiya, diagnostik yondashuv, shaxsiy yondashuv.*

Keywords*: pedagogical technology, educational process, teaching methods, modern education, information and communication technologies (ict), quality of education, student activity / learner engagement, pedagogical skills, new pedagogical technologies, modular system, programmed instruction / programmed learning, teacher qualification, professional competence, diagnostic approach, individual approach / personalized approach*

Ключевые слова: *Педагогическая технология, Образовательный процесс, Методы обучения, Современное образование, Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), Качество образования, Учебная деятельность учащихся и студентов, Педагогическое мастерство, Новые педагогические технологии, Модульная система, Программированное обучение, Квалификация преподавателя / учителя, Профессиональная компетентность, Диагностический подход, Индивидуальный подход.*

Pedagogik texnologiya - o‘qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O‘quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o‘quvchi yoki talabalarning kuchiga, o‘zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o‘zgartirish ham ta’lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya, o‘z navbatida, ta’lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o‘quv jarayonlari, ta’lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya’ni fan va texnika yangiliklarini o‘zida mujassamlashtiradigan o‘quv jarayonidir.

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat-e’tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi yoki talabaning shakllanish jarayonini zo‘r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogikani tushunib yetadi. Pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lgan o‘qituvchi, pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishining qonuniyatlari va omillarini, yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi kerak. Ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko‘pchiligi ta’lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini tobora chuqur anglab bormoqdalar. Shu sababli ular o‘z mahoratlarini uzluksiz oshira borishga. Hozirgi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o‘zlashtirishga, ijodiy mehnat qilishga intilmoqdalar. Ammo shuni ham e’tirof etishimiz kerakki, o‘quv yurtlarida ayrim o‘qituvchilar o‘z pedagogik mahoratlarini oshira borishning ahamiyatini yetarli darajada his qilmaydilar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Yangi pedagogik texnologiyalar”ning talablarini chuqurroq o‘rganishga qiziqmaydilar, o‘quv jarayonining ilmiyligiga, zamon talablariga mosligiga, turmush va amaliyot bilan bog‘lanishiga yuzaki qaraydilar, o‘qitilayotgan o‘quv fanlarining ilmiy va g‘oyaviy tarbiyaviy birligini doimo esda tutmaydilar. Bu esa ular qo‘lida ta’lim olayotgan o‘quvchi va talabalarning bilim darajasi va saviyasining yetarli bo‘lmasligiga, o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishdan orqada qolishlariga sabab bo‘lmoqda.

“Yangi pedagogik texnologiyalar” asosida amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlarning birinchi va ikkinchi bosqichlari vazifalari muvaffaqiyatli hal qilinib, uchinchi bosqichdagi o‘zgarishlar davom etmoqda. Bu bosqichda o‘quv-tarbiya ishlarini butunlay yangi asosda tashkil qilish, yuqori sifat ko‘rsatkichiga erishish talab qilinadi.

“Yangi pedagogik texnologiyalar” yuksak umumiy madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘l topa bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o‘zlashtirgan. jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g‘oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g‘oya ta’lim tizimi oldiga:

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy qilishni hal etish vazifalarini ko‘ndalang qilib qo‘ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlaring shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar (PT)ga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

“Yangi pedagogik texnologiyalar”da zamonaviy pedagogik texnologiyalari joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p marta takrorlanib, ularni o‘quv muassasalariga olib kirish zarurati uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llashga intilmoqdalar. “Pedagogik texnologiya” atamasining mohiyati nimada? “Texnik logiya”- yunoncha so‘z bo‘lib, “techne”-mahorat, san’at, “logos”- tushuncha, o‘rganish. demakdir. Nega bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug‘ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o‘ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo‘ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo‘l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma’lum sabablar mavjud, ya’ni;

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

2. Fan-texnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko‘payib borayotganligi;

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish, ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi (AT) va texnik vositalar (TV)dan foydalanish kerakligi;

4. O‘qituvchi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchi ta’lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta’lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo‘lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltira olishi lozimligi;

5. O‘qituvchi ta’lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta’lim natijasini oldindan qayd etishi, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta’lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi;

6. O‘quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo‘lishligi;

7. Ta’lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va obyektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

8. O‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa majmuyi yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbir hisoblanadi. Bugungi kunda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan biri ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini

qoplash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta’lim oluvchilarni o‘qitishni jadallashtirish sanaladi.

Respublikamizda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga doir keng ko‘lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to‘plandi. Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda.

“Pedagogik texnologiya” so‘zlar birikmasining asosida “texnologiya”, “texnologik jarayon” tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta’limda esa fan bo‘yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo‘l aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak

Bugun har bir sog‘lom fikrlovchi inson yangi asrda o‘zi, yaqinlari, kasbdoshlari, tengdoshlarining jamiyatdagi o‘rni va salohiyati qanday bo‘lishini o‘ylashi tabiiy. O‘tgan asrning ahamiyati, qadr-qimmati, tarixiyligi esa O‘zbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega bo‘lganligi bilan baholanadi.

Pedagogik texnologiyaning umumiy asoslari

Bu tushuncha XX asrda paydo bo‘ldi va 1940-1950 yillarda “ta’lim texnologiyasi” tarzida qo‘llanilib, mazmunan o‘quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni anglatgan. Atama dastlab AQShda qo‘llana boshladi. Keyinchalik “ta’lim texnologiyasi” o‘rniga “dasturlashtirilgan ta’lim” atamasidan foydalanish keng yoyildi. So‘ngra pedagogik texnologiya loyihalashtirilgan ta’lim va aniq maqsadga qaratilgan o‘quv jarayonini ifoda eta boshladi. O‘tgan asrning 80-yillarida pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi.

Keyingi o‘n yilliklarda pedagog olimlar va o‘qituvchilar diqqatini jalb qilgan masalalardan bin pedagogik texnologiya (PT) hisoblanadi. Bu mavzuning ilmiy ishlarda, hisobotlarda, maxsus davriy nashrlarda qizg‘in o‘rganilayotganligi, bahs-munozaraga sababchi bo‘layotganligi ham ta’lim-tarbiyada uning o‘rni naqadar muhimligiga guvohlik beradi. Mavjud materiallarni jamlash, uning nazariy va amaliy jihatlarini O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Yangi pedagogik texnologiyalar” talablari asosida tahlil qilish, pirovard natijada, qator konseptual texnologiyaning empirik asosini yaratishga harakat qilish, shuningdek, uni ilmiy bilimlar doirasiga o‘tkazish kabi ishlar ham jadal davom ettirilmoqda.

Avvalo, nega bugunga kelib pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik kuchaydi, degan savol tug‘iladi. Aytish mumkmki, rivojlanayotgan davlatlarda, birinchi navbatda, pedagogik texnologiyaga ta’lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashish YUNESKO tomonidan ham ma’qullandi va 1972-yilda “Ta’limni rivojlantirish masalalari” bo‘yicha Xalqaro Komissiya tashkil topdi. Bu komissiya zamonaviy texnologiya ta’lim moderniyatsiyalashda harakatlantiruvchi kuchdir, deb baholadi.

Dastlab “Texnologiya” tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z fanga 1872 yilda kirib keldi va grekcha ikki so‘zdan – “texnos” -hunar va “logos”-fan, so‘zlaridan tashkil topib, “hunar fani” ma’nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab bera olmaydi, texnologik jarayon deyilganda mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta’sir etish

natijasida mahsulot yaratish bo‘yicha qilingan mehnat va jarayonlar tushuniladi. Demak, bu ta’rif istalgancha sharhlash mumkin, bunda: pedagogik texnologiya bu o‘qituvchi tomonidan o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, deb ta’riflasak xato bo‘lmaydi.

Bizning fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog‘i sifatida qarash yoki faqat ta’lim amaliyotini maqbullashtirishga yo‘naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyat yo‘nalishlarini aniqlaydi. Bu erda izlanishning mohiyati pedagogik tizimni tashkil etuvchi elementlarni o‘rganish asosida modernizatsiya qilishdan iboratdir. Sababi, har qanday o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish u yoki bu pedagogik tizimni aks ettiradi. Demak, PT - anialiyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada didaktik masalalarning o‘z yechimlarini topishi milliy dasturni ro‘yobga chiqarishning muhim bosqichidir. Agar pedagog qo‘lida bilimga chanqoq talabalar, fan maqsadiga mos mazmundagi dastur, darslik va qo‘llanmalar mavjud bo‘lsa, u didaktik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllaridan samarali foydalanib yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga izchil va ketma-ket joriy etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boburmirzo, Kukiev., Achilov, Nurbek, Norboy o‘g‘li & Bekqulov, Qudrat, Shaydulloyevich. (2019). Technology for creating images in autocad. *European Journal of Research and Reflection in Educational Science.* 7 (12), 49-54-220.
2. Shaydulloyevich, B. K. (2020). Increasing students’ graphic literacy through teaching the sciences of drafting and descriptive geometry. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences,* 8 (4), Part II, 75-78.
3. Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li, Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich, Ko‘kiyev Boburmirzo Baxodir o‘g‘li & Jumayev Isroil Omandovlat o‘g‘li (2020). Methods of developing creative abilities in children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (10), Part II, 151-153.
4. Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich., Kukiyev Boburmirzo Bahodir ugli., Avazova Guzal Rustambek qizi. (2020). The works in the framework of five initiatives at chirchik state pedagogical institute in tashkent region. EPRA International Journal of Research and Development, 5 (3), p. 411-412.
5. Boizaqova, S. A., Bekqulov Q.Sh. (2021). Ko‘rinishlar mavzusni tushuntirishda detal modelini o‘ziga qarab o‘rganishning ahamiyat. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 96-101.
6. Ko‘kiyev, J. S., Bekqulov Q.Sh. (2021). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 34-39.
7. *Boizaqova Sh.A., Bekqulov Q.Sh.* Ko‘rinishlar mavzusni tushuntrishda detal modelini o‘ziga qarab o‘rganishning ahamiyati. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, № 3, 117-120.

TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA DARSDAN TASHQARI TO‘GARAKLAR TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

[1]Berdiyev Doston Abduvoitovich, [2]Inomov Sulaymon Obid o‘g‘li, [3]Homidov O‘tkirbek O‘lmasovich

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17400072

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy ta’lim maktablarining 5–9-sinflarida tasviriy san’at mashg‘ulotlarida darsdan tashqari to‘garaklar tashkil etishning o‘quvchi shaxs rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar (Chiaki Ishiguro, Zhen Gao, Elise Paul, Sa’diev, Lutfullayev) ilmiy ishlari asosida to‘garaklarning ijodiy, kognitiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ta’siri yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, san’at to‘garaklari o‘quvchilarda ijodkorlik, estetik did, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy moslashuv va o‘quv motivatsiyasini mustahkamlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Tasviriy san’at, to‘garak, ijodiy rivojlanish, estetik tarbiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish.*

Аннотация. *В статье рассматривается значение организации внеклассных кружков по изобразительному искусству для учеников 5–9-х классов общеобразовательных школ. На основе исследований зарубежных и отечественных ученых (Чиаки Исигуро, Чжэнь Гао, Элиз Пол, Саъдиев, Лутфуллаев) раскрывается влияние кружков на развитие творческих способностей, когнитивных умений и социально-эмоциональной сферы учащихся. Результаты показывают, что участие в художественных кружках укрепляет креативность, эстетический вкус, духовные ценности и учебную мотивацию.*

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, внеклассный кружок, творческое развитие, эстетическое воспитание, социально-эмоциональное развитие.*

Abstract. *This article examines the significance of organizing extracurricular visual arts clubs for 5th–9th grade students in general education schools. Drawing on the works of international and Uzbek scholars (Chiaki Ishiguro, Zhen Gao, Elise Paul, Sa’diev, Lutfullayev), the study highlights how art clubs foster students’ creative thinking, cognitive skills, and socio-emotional development. Findings demonstrate that participation in art clubs enhances creativity, aesthetic appreciation, moral values, social adaptation, and learning motivation.*

Keywords: *Visual arts, extracurricular club, creative development, aesthetic education, socio-emotional growth.*

Kirish. Tasviriy san’atning ta’lim-tarbiyadagi roli keng qamrovli va muhimdir. Ko‘p sonli manbalarda san’atning maktab yoshidagi bolalar hayotida katta ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi. Xususan, Sa’diev (Navoiy davlat pedagogika institute dotsenti) fikricha, suratkashlik ijtimoiy, etik, ma’naviy va falsafiy g‘oyalarni aks ettirishi bois, tasviriy san’at inson

va jamiyatning ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, Lutfullayev (magistrant, Navoiy DPI) ta’kidlaganidek, tasviriy san’at darslari ijodkor shaxsning rivojlanishi va badiiy salohiyatini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Bunday ilg‘or pedagogik qarashlar asosida, maktab sharoitida darsdan tashqari to‘garaklarni tashkil etish muhim pedagogik masala hisoblanadi. To‘garak formatida bo‘lib o‘tadigan mashg‘ulotlar o‘quvchilarga ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish, ijodiy faoliyat orqali shaxsiy salohiyatini namoyon etish imkonini yaratadi. Shu sababli, san’at to‘garaklarini tashkil etish o‘quv jarayonini boyitib, o‘quvchilarning ma’naviy va intellektual rivojiga mustahkam poydevor yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda xorijiy va o‘zbekcha ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Xorijiy manbalar orasida Shanxay Davlat Universiteti va Shinavatra Universiteti tadqiqotchilari {Chiaki Ishiguro (2023), Zhen Gao (2024) va boshqalar}ning maqolalari asos bo‘ldi. Masalan, Gao va Bhandari (2024, Ph.D) Xitoy shahar maktablarida o‘tkazgan so‘rovlar orqali aniqlashicha, o‘quvchilar darsdan tashqari san’at mashg‘ulotlarida qatnashish natijasida o‘z mahorati va ko‘nikmalarini oshirishga ijobiy munosabat yaqqol sezilgan. Yaponiyalik tadqiqotchilar Ishiguro va boshq. (2023) esa 7-9-sinflar o‘quvchilarini ikki yillik kuzatib, musiqa va tasviriy san’at to‘garaklariga jalb etilish umumiy akademik ko‘rsatkichlarning oshishiga olib kelishini isbotladilar. Amerikaning UCL universitetidan Elise Paul va hamkasblari (2023) davlat darajasida olib borilgan uzoq muddatli tadqiqotda san’atga asoslangan to‘garaklar qatnashchilari orasida tashqariga yo‘naltirilgan xulq-atvor muammolari kamayishini ko‘rsatdi.

O‘zbek olimlari ham tasviriy san’at to‘garaklarining tarbiyaviy ahamiyatiga e’tibor qaratadi. Masalan, Sa’diev (2023, dotsent)ning ta’kidlashicha, tasviriy san’at mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda estetika fikri va ma’naviy qadriyatlar namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, Lutfullayev (2024, magistr) ma’lumotlariga ko‘ra, san’at darslari o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini, ko‘rish xotirasini, ijodiy tasavvur va estetik didni rivojlantiradi.

Muhokama va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tasviriy san’at to‘garaklarining ta’lim jarayoniga qo‘shimcha qo‘shilishi bir qancha ijobiy jihatlarga ega. Birinchi navbatda, bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodkorlik salohiyatini faollashtiradi. Bunday darslar ijodkor shaxsning badiiy qobiliyatlari rivojlanishida asosiy omil sanaladi. Bu esa bolalarning tasavvur va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi. Ekspertlar ta’kidlashicha, ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish bolalar orasida o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirib, yangi yechim izlashga intilishini kuchaytiradi. Shu tarzda o‘quvchilarda original g‘oya va konsepsiyalar ishlab chiqish qobiliyati mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, tasviriy san’at to‘garaklari kognitiv va akademik yutuqlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa va tasviriy san’at mashg‘ulotlarida muntazam qatnashish o‘quvchilarning umumiy o‘quv ko‘rsatkichlarini yaxshilash bilan bog‘liqligini qayd etish mumkin. Masalan, Yaponiyada o‘tkazilgan tekshiruvda, bu to‘garaklar qatnashchilari matematikadan, o‘qishdan va boshqa fanlardan yuqori baholar olish tendensiyasi ko‘rsatilgan. Shuningdek, NEA (AQSh Milliy san’at fondi) ma’lumotlariga ko‘ra, maktabdan tashqari san’atga oid darslar (bog‘chalarda va maktabdan tashqarida) qatnashgan bolalarning matematik va o‘quv ko‘rsatkichlari ham yaxshilanganligini aniqlagan.. Bundan ko‘rinadiki, san’at mashg‘ulotlari o‘qish motivatsiyasini oshiradi, ijodkorlikni kuchaytiradi va murakkab masalalarni ijodiy yondashuv bilan hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchidan, tasviriy san’at to‘garaklarining muhim tomoni – bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga hissa qo‘shishi. Elise Paul va hamkorlari (2023) tadqiqotida darsdan

tashqari mashg‘ulotlar ya’ni to‘garaklar 5-sinf o‘quvchilari orasida 8-sinfda aniqlangan tashqi xulq-atvor muammolari xavfini kamaytirishi ta’kidlandi. Ma’lumotlarga ko‘ra, rassomchilik va musiqa bilan shug‘ullanish bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlar, ijobiy o‘zaro bog‘lanish va stressni boshqarish ko‘nikmalari rivojlanishiga yordam beradi. Tadqiqot mualliflarining fikricha, san’at faoliyati orqali olingan yutuqlar va malakalar bolalarda muvaffaqiyat tuyg‘usini oshiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. Shuningdek, bunday mashg‘ulotlarda o‘qituvchilar va tengdoshlarga o‘rnak bo‘lish, mas’uliyatni his etish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi. NEA hisobotida ham ta’kidlanishicha, maktabdan tashqari san’at mashg‘ulotlari bolalarning ijobiy o‘rganish yondashuvi va keng ko‘lamli shaxslararo ko‘nikmalarini oshiradi, muammoli xulq-atvor namoyon bo‘lishini pasaytiradi.

To‘rtinchidan, san’at to‘garaklari bolalar dunyoqarashini boyitadi. Tasviriy san’at bilan shug‘ullanish orqali o‘quvchilar ma’naviy qadriyatlarni, estetik kechinmalarni o‘rganadilar. Sa’diev (2023) tadqiqotida rassomchilik o‘quvchilarda ma’naviy dunyoqarashni shakllantirish va estetik fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita[33] ekanligi qayd etilgan. Tasviriy san’at asarlarini o‘rganish san’atshunoslik bilimlarini kengaytiradi, tafakkurini boyitadi va tajriba orttirishga yordam beradi. Shu bilan birga, tasviriy san’at to‘garaklari maktabga nisbatan ijobiy munosabatni oshirishi, bepul va qiziqarli mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning maktab ta’limiga sodiqligini mustahkamlaydi.

Yuqorida sanab o‘tgan omillarni umumlashtirib aytganda, tasviriy san’at to‘garaklari o‘quvchilarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- **Ijodkorlik va kreativlikni rivojlantirish:** tasviriy san’at mashg‘ulotlari o‘quvchilarga innovatsion yondashuv va yangi badiiy g‘oyalarni sinovdan o‘tkazish imkonini beradi, ularning ijodiy fikrlash salohiyatini oshiradi.
- **Ijtimoiy-emotsional rivojlanish:** guruh bo‘lib ishlash, xulq-atvorni boshqarish va emotsional barqarorlikni oshirish kabi qobiliyatlar shakllantiradi.
- **Ma’naviy-estetik ongni boyitish:** san’at asarlari orqali o‘quvchilar ma’naviy qadriyatlarni anglaydi, estetik didi va san’atga bo‘lgan muhabbati ortadi.

Tasviriy san’at to‘garaklarining tashkil etilishi bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘lom rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday mashg‘ulotlar ijodkor, bilimdon, va madaniyatli shaxslar tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tasviriy san’at to‘garaklari o‘quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishda kuchli tarbiyaviy va ta’limiy omil hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotchilarning kuzatuvlari hamda o‘zbek olimlari fikrlari asosida, bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini faollashtiradi, estetik didini shakllantiradi, ijtimoiy-emotsional barqarorligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, to‘garaklar maktab muhitiga ijobiy munosabatni kuchaytirib, san’atga qiziqishni hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘taradi. Shunday ekan, umumiy ta’lim maktablarida tasviriy san’at to‘garaklarini muntazam yo‘lga qo‘yish ijodiy tafakkurga ega, ma’naviy boy va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashning muhim pedagogik yo‘nalishidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gao, Z., & Bhandari, P. (2024). Assessment of the Development of Out-of-School Art Education and Training Institutions for Primary School Students in Urban China.

[33] Sa’diev, S. T. (2023). Darsdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni tasviriy savodxonlikka oid ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi (Navoiy).

Evolutionary Studies in Imaginative Culture, 8(2), 1249–1262. https://doi.org/10.70082/esiculture.vi.1374 esiculture.com

2. Ishiguro, C., Ishihara, T., & Morita, N. (2023). Extracurricular music and visual arts activities are related to academic performance improvement in school-aged children. *npj Science of Learning, 8*, Article 7. https://doi.org/10.1038/s41539-023-00155-0.
3. Paul, E., McFerran, K. S., & Taylor, S. M. (2023). Associations between extracurricular arts activities, school-based arts engagement, and subsequent externalising behaviours in the Early Childhood Longitudinal Study. *Scientific Reports, 13*, Article 13840. https://doi.org/10.1038/s41598-023-39925-6.
4. Iyengar, S. (2025, February 11). *Educating ourselves about childhood arts experiences—and why they matter*. National Endowment for the Arts Blog. Retrieved from https://www.arts.gov/stories/blog/2025/educating-ourselves-about-childhood-arts-experiences-and-why-they-matter.
5. Sa'diev, S. T. (2023). Darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni tasviriy savodxonlikka oid ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi* (Navoiy). https://doi.org/10.5281/zenodo.10662987.
6. Lutfullayev, O. Sh. (2024). Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda badiiy ijodkorlikni rivojlantirish. In *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot* (pp. 41–47). Navoiy Davlat Pedagogika Instituti. https://doi.org/10.5281/zenodo.6047647.
7. Abduvoitovich, B. D. (2025). Bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda tasviriy san'atning ahamiyati. *ИКРО журнал*, *14*(02), 96-99.

MAKTAB TA’LIMIDA MILLIY QADRIYATLARNI TASVIRIY SAN’AT ORQALI SINGDIRISH

[1]Berdiyev Doston Abduvoitovich, [2]Anvarova Muslima Avaz qizi, [3]Nishonova Ruxshona Sultonbekovna

[1]San’atshunoslik fakulteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi, [2,3]Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 3 – bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17400086

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy san’at fanining maktab ta’limida milliy qadriyatlarni shakllantirish va o‘quvchilarga singdirishdagi o‘rni yoritilgan. Tasviriy san’at nafaqat estetik didni rivojlantiruvchi, balki milliy meros, urf-odat va an’analarni anglash hamda qadrlashga xizmat qiluvchi muhim fan sifatida tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishda pedagogik metodlar, innovatsion yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, avlod, tasviriy san’at, hunarmandchilik, estetik, metod, ijodiy.*

Аннотация. *В данной статье освещается роль изобразительного искусства в формировании и привитии учащимся национальных ценностей в школьном образовании. Изобразительное искусство анализируется не только как важная наука, развивающая эстетический вкус, но и служащая пониманию и оценке национального наследия, обычаев и традиций. Обоснована эффективность педагогических методов, инновационных подходов и практических занятий по внедрению национальных ценностей в сознание молодого поколения.*

Ключевые слова: *Образование, поколение, изобразительное искусство, ремесленничество, эстетика, метод, творческий.*

Abstract:*.This article highlights the role of fine arts in school education in shaping and instilling national values in students. Fine art is analyzed not only as an important science that develops aesthetic taste, but also serves to understand and appreciate national heritage, customs, and traditions. The effectiveness of pedagogical methods, innovative approaches, and practical exercises in instilling national values in the minds of the younger generation is substantiated.*

Keywords: *Education, generation, fine arts, crafts, aesthetics, method, creative.*

Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Milliy o‘zligimizni namoyon etuvchi qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, milliy san’at va madaniyatni yosh avlod ongiga chuqur singdirishda ta’lim tizimi, xususan, tasviriy san’at fani alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tasviriy san’at orqali milliy naqshlar, amaliy bezak san’ati, xalq badiiy hunarmandchiligi va buyuk ajdodlarimiz merosini o‘quvchilarga ko‘rgazmali va ta’sirchan tarzda yetkazish mumkin.

Shu boisdan yurtboshimiz tomonidan ko‘plab olib borilayotgan islohotlarning zamirida milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni keng ommaga targ‘ib qilish zarur. Jumladan, yurtimizdagi har bir hududlarning o‘ziga xos milliy urf-odatlari va an’analari tarixdan shakllanib kelgan. Har bir viloyatning o‘ziga xos qadriyatlari hamda san’ati o‘ziga xos hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarning tasviriy san’atdagi o‘rni. Tasviriy san’at o‘zining estetik va tarbiyaviy ta’siri bilan o‘quvchilarda nafaqat go‘zallikni his qilish, balki milliy an’analarga sadoqat ruhini ham shakllantirishda ahamiyatga ega. Milliy Me’morchilik yodgorliklari, xalq amaliy san’ati turlaridagi milliy naqsh va elementlarni dars jarayonida o‘rgatish orqali o‘quvchilar milliy o‘zligimizni anglaydi.

O‘quv jarayonida ushbu mavzularni o‘rgatishda ham turli usul va metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, ko‘rgazmali metod – milliy naqshlar, rang-barang liboslar va hunarmandchilik buyumlari namunalari asosida mashg‘ulotlar tashkil etish. Bunda o‘qituvchi milliy naqshlar kompozitsiyalari namunasini o‘quvchilarga ko‘rgazma tarzida tanishtiradi. O‘quvchilar yuqoridagi amaliy ishdan ilhomlanib, vazifa sifatida amaliy topshiriqlar bajarishadi. Bunday vazifalarga milliy naqshlarni chizish, qadimiy me’morchilik obidalarini tasvirlash, gilam naqshlarini chizib ko‘rish topshiriqlar kiradi. Shuning bilan bir qatorda tasviriy san'at fani juda ham keng tarmoqli va ko‘plab fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlik jihati mavjud. Bu bog‘liqlikni biz bolalarga integratsion yondashuv asosida tushuntirsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Integratsion yondashuv – tarix, adabiyot, musiqa kabi fanlar bilan bog‘lab, milliy qadriyatlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirish. Bu yondashuvda har bir o‘quvchi milliy qadriyatlarimizni chuqurroq tarzda o‘rganib borishadi. Integratsion yondashuvni o‘quvchilarga turli xil innovatsion metodlardan foydalanibgina darsni mazmunli o‘tishimiz mumkin.

Innovatsion metodlar raqamli texnologiyalar, interaktiv taqdimotlar va elektron albomlardan foydalanib, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish. Bu metod orqali o‘quvchilarga turli rasmlar, milliy liboslarimiz va hunarmandchilik buyumlari bilan ken foydalangan holda darsni tashkil qilishdan iborat. Bu albatta o‘quvchiga o‘zgacha zavq bag‘ishladi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarda milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan e'tibor ortib boradi.

Milliy qadriyatlarni singdirishda o‘qituvchining roli. O‘qituvchi dars jarayonida nafaqat bilim beruvchi, balki milliy tarbiya beruvchi shaxs sifatida ham namoyon bo‘ladi. U milliy qadriyatlarni tasviriy san’at orqali singdirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi zarur: Milliy urf-odatlar va an’analardan namunalar keltirish, O‘quvchilarda milliy san’atga qiziqish uyg‘otish, Har bir mashg‘ulotda milliylik ruhini saqlash. Ko‘rgazmali qurollar orqali darsni yanada qiziqroq o‘tish bolalarda darsga bo‘lgan qiziqishni yanada oshiradi.

Misol tariqasida, Samarqand viloyatining milliy urf-odatlari bilan tanishishni ko‘rib chiqaylik. Darsni Samarqand viloyatining tarixiy va madaniy merosi bilan tanishtirishdan boshlash zarur, shuningdek, turli ko‘rgazmali vositalar va materiallardan foydalanish darsni samarali o‘tishiga xizmat qiladi. Samarqand shahri, albatta, O‘zbekistonning eng tarixiy, madaniy va ilmiy jihatdan boy shaharlaridan biri hisoblanadi. Samarqand viloyatining mashhurligiga sabab bo‘lgan asosiy omil, uning tarixiy obidalarining ko‘pligi va ulkan madaniy merosidir. Samarqandning buyuk tarixini o‘rganish nafaqat milliy, balki jahon tarixida ham alohida o‘rin egallaydi. Chet ellik sayyohlar Samarqandga tashrif buyurganlarida, bu shaharning boy tarixiy yodgorliklari va me’moriy obidalaridan chuqur taassurot olishadi. Samarqandda joylashgan eng mashhur tarixiy obidalar, jumladan, “Registon maydoni”, “Shohi Zinda” majmuasi, “Go‘ri Amir” maqbarasi, “Bibi Xonim” masjidi, “Ulug‘bek rasadxonasi” kabi yodgorliklar, bu shaharni faqat o‘ziga xos arxitekturasi bilan emas, balki uning tarixiy ahamiyati bilan ham ajratib turadi.

Shu bilan birga, bolalarning dunyoqarashini kengaytirish va bilim doiralarini rivojlantirishda, o‘quvchilarga faqat dars o‘tkazish emas, balki turli viloyatlarga sayohatlar tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Sayohatlar o‘quvchilarga tarixiy obidalarni faqat

tasvirda emas, balki jonli ravishda ko‘rish imkonini beradi, bu esa ularda yangi taassurotlar va bilimlarni shakllantiradi. O‘quvchilar o‘z ko‘zlari bilan tarixni ko‘rishlari, madaniy merosni his qilishlari va zamonaviy dunyo bilan bog‘liq tushunchalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu, shuningdek, bolalarda ilmiy fikrlashni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarni tasviriy san’at orqali singdirish o‘quvchilarda: milliy o‘zlik va g‘urur hissini; san’atga qiziqish va estetik didni; ijodiy tafakkur va tasavvur doirasini yanada shakillantiradi. Vatanga muhabbat va milliy birlikni o‘quvchi ongida singdiradi.

Xulosa

Maktab ta’limida tasviriy san’at fanining o‘rni faqatgina chizishni o‘rgatish bilangina chegaralanmaydi. U yosh avlodga milliy qadriyatlarni singdirishda, ularda vatanparvarlik, estetik did, ijodiy fikrlash va milliy merosga hurmat ruhini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir tasviriy san’at darsi milliylik ruhida, zamonaviy metodlar bilan uyg‘un holda tashkil etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yoshlar ongiga singdirish to‘g‘risida”gi farmonlari va qarorlari.
2. Yo‘ldoshev J. “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Norqulov A. “O‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda san’atning roli”. – Samarqand, 2020.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2017.
5. Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.edu.uz

STEAM TA’LIMIDA TASVIRIY SAN’AT: RANG VA KOMPOZITSIYANING ROLI

[1]Berdiyev D.A, [2]Ergashova A.S, [3]Tog‘ayev E.A
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san’at kafedrasi
o‘qituvchisi, [2,3]“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
yo‘nalishi” 3 –kurs talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400103

Annotatsiya*. Ushbu maqolada tasviriy san’atda rang va kompozitsiyaning inson psixologiyasiga uning ongiga, xarakatlariga ko‘rsatadigan ta’siri yoritilgan. Ranglar inson ruhiy holatiga qanday ta’sir etaolishi, issiq va sovuq ranglarning emotsional qabul qilinishi, hamda kompozitsion yechimlar orqali asarning g‘oyasi va hissiy mazmunini yetkazish usullari tahlil qilingan. Hamda hozirgi kunda STEAM ta’limida qanday bog‘liqligi borligi ko‘rib chiqilladi. Maqolada san’at asarlaridagi rang tanlovi va shakl joylashuvi orqali o‘quvchi yoshlarda qanday kayfiyat, fikr yoki hissiyot uyg‘otilishi mumkinligi misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, psixologiya va san’at o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy va amaliy jihatdan baholanib boriladi.*

Аннотация. *В данной статье освещается влияние цвета и композиции в изобразительном искусстве на психологию человека, а также рассматривается, насколько актуальны сегодня спрос и предложение в этой сфере. “В настоящее время рассматривается взаимосвязь STEAM-образования с различными предметами.” На примерах показано, какие настроения, мысли или эмоции могут вызывать выбор цвета и расположение форм в художественных произведениях у школьников и студентов. Кроме того, анализируется взаимосвязь между психологией и искусством с научной и практической точек зрения*

Annotation. *This article highlights the impact of color and composition in fine arts on human psychology, as well as the current relevance of demand and supply in this field. Currently, the interconnection of STEAM education with various subjects is being examined.Through examples, it is examined what moods, thoughts, or emotions the choice of colors and the arrangement of forms in artworks may evoke among schoolchildren and students. In addition, the interrelation between psychology and art is evaluated from both scientific and practical perspectives.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, rang psixologiyasi, STEAM ta’lim kompozitsiya emotsional ta’sir issiq va sovuq ranglar, san’at asari, kayfiyat, shakl va joylashuv, estetik qabul qilish, vizual kommunikatsiya*

Ключевые слова*: изобразительное искусство, психология цвета, художественное произведение, настроение, тёплые и холодные цвета, эстетическое восприятие, композиция, эмоциональное воздействие*

Keywords: *fine arts, color psychology, artwork, mood, warm and cold colors, aesthetic perception, composition, emotional impac*

Tasviriy san’at insoniyat tarixida nafaqat estetik go‘zallikni ifodalash, balki inson ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Rassomlar chizgan asarlarida rang tanlovi va kompozitsiya nafaqat shakl va mazmunni, balki tomoshabinning kayfiyatini ham belgilab beradi.

Rang psixologiyasi shuni ko‘rsatadiki, turli ranglar inson hissiyotlariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi: masalan, iliq ranglar quvonch va harakat uyg‘otishi mumkin bo‘lsa, sovuq ranglar osoyishtalik va xotirjamlik hissini kuchaytiradi. Shu bilan birga, kompozitsiyaning to‘g‘ri qurilishi asarda ritm, muvozanat va uyg‘unlik hosil qilib, tomoshabinni asar mazmuniga chuqurroq sho‘ng‘ishga undaydi.

Shunday qilib, tasviriy san’atda rang va kompozitsiya oddiy tasvir vositasi emas, balki inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu mavzuni o‘rganish orqali biz san’atning ichki kuchini, ya’ni inson his-tuyg‘ularini shakllantirish va o‘zgartirish qobiliyatini chuqurroq anglab olishimiz mumkin.

San’atning inson ruhiyatidagi o‘rni

1. Rang va kompozitsiyaning san’atdagi ahamiyati
2. Rangning psixologik ta’siri
3. Rang psixologiyasi haqida qisqacha tushuncha
4. Iliq ranglar (qizil, sariq, to‘q sariq)ning ta’sir
5. Sovuq ranglar (ko‘k, yashil, binafsha)ning ta’siri
6. Neytral ranglar (oq, qora, kulrang)ning ta’siri
7. Rang uyg‘unligi va kontrastining hissiyotga ta’siri

2**. Kompozitsiyaning psixologik ta’siri**

1. Kompozitsiya tushunchasi
2. Ritm, muvozanat va simmetriya orqali ruhiy ta’sir
3. Asardagi markaz (asosiy diqqat nuqtasi)ning o‘quvchiga ta’siri
4. Bo‘sh joy (prostranstvo) va kompozitsion harakatning ta’siri

3. **Rang va kompozitsiyaning uyg‘unligi.** Rang va kompozitsiyaning o‘zaro bog‘liqligi va mashhur san’at asarlarida rang va kompozitsiya orqali berilgan psixologik ta’sir misollari

Rang — tasviriy san’atning eng muhim ifoda vositalaridan biridir. U tomoshabinda bevosita hissiy reaksiya uyg‘otadi va asarning umumiy kayfiyat bilan ta’minlashini belgilaydi. Rang psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir rang inson ruhiyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

1. **Iliq ranglar** (qizil, sariq, to‘q sariq) odatda energiya, harakat va iliqlik hissini uyg‘otadi. Qizil rang shijoat va kuchni bildirsa, sariq rang quvonch va hayotiylikni ifodalaydi. Sariq rang hissiyotlarni uyg‘ota oladi va insonlarning emotsiaysini biladiraoladi.

2**.Sovuq ranglar** (ko‘k, yashil, binafsha) esa osoyishtalik, xotirjamlik va ichki sokinlik tuyg‘ularini beradi. Masalan, ko‘k rang ishonch va tinchlik ramzi sifatida, yashil esa tabiat va yangilanish belgisi sifatida talqin qilinadi. Misol uchun asosan tabiat, yer yuzini o‘rab turgan borliqni yashil rangda talqin qilamiz va bu o‘z-o‘zidan unga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otadi.

1.**Neytral ranglar** (oq, qora, kulrang) asosan kontrast va muvozanat hosil qilishda ishlatiladi. Oq rang poklik va beg‘uborlikni, qora rang sirli va jiddiylikni ifodalaydi. Bunda neytral ranglar orqali psixolog huzuriga kelgan insonlarga turli rasmalar yoki narsalar ko‘rsatilganda ularga bo‘lgan hissiyotlarini va emotsiyalarini qanday ekanligini, unga qanday yordam berish kerak ekanligi. Ranglarni tanlashi yoki ularni his qilaolishiga qarab insonning ichki kechinmalarini qanday kechayotganini bilib olishi mumkin desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Rang uyg‘unligi va kontrasti ham katta ahamiyatga ega. Masalan, yorqin ranglarning keskin qarama-qarshiligi dinamik kayfiyat uyg‘otadi, uyg‘un ranglar esa tomoshabinga estetik zavq va ruhiy xotirjamlik beradi.

2**. Kompozitsiyaning psixologik ta’siri.** Kompozitsiya — asardagi barcha elementlarning bir butunlikda joylashishi va tartibi. To‘g‘ri qurilgan kompozitsiya tomoshabinni asarga chuqurroq sho‘ng‘ishga undaydi.

1. Ritm asarda harakat va davomiylik hissini beradi. Masalan, takrorlanayotgan shakllar tomoshabinga musiqadagi ritmga o‘xshash ta’sir ko‘rsatadi.

2.Muvozanat va simmetriya inson ruhiyatida barqarorlik hissini uyg‘otadi, asimmetriya esa hayrat va dinamikani kuchaytiradi.

3.Markaz (asosiy diqqat nuqtasi) — rassomning asosiy g‘oyasi qayerda jamlanganini ko‘rsatadi. Tomoshabin ko‘zi birinchi navbatda shu nuqtaga tushadi, shuning uchun bu joy psixologik jihatdan katta ta’sir kuchiga ega.

4.Bo‘sh joy (prostranstvo) va elementlarning joylashuvi ham muhim. Agar asarda keng bo‘sh joylar bo‘lsa, tomoshabinda erkinlik va yengillik hissi paydo bo‘ladi; zich joylashgan elementlar esa kuchli ta’sir va bosim uyg‘otadi.

3. **Rang va kompozitsiyaning uyg‘unligi.** Tasviriy san’atda rang va kompozitsiya bir-birini to‘ldirib, kuchli psixologik ta’sir hosil qiladi. Masalan, iliq ranglar bilan qurilgan dinamik kompozitsiya kuchli energiya va harakat uyg‘otsa, sovuq ranglar va muvozanatli kompozitsiya osoyishtalik va sokinlik beradi. Mashhur san’at asarlarida ham rassomlar aynan shu uyg‘unlik orqali tomoshabin hissiyotini boshqarib, o‘z g‘oyalarini yetkazganlar.

STEAM ta’limining roli katta: Tasviriy san’at va psixologiya o‘quv jarayonini boyitadi Bugungi kunda ta’lim jarayonida STEAM yondashuvi nafaqat fan va texnologiyani, balki san’at va ijodiy fikrlashni ham o‘z ichiga oladi.

Tasviriy san’at orqali o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini ifodalash, fikrlash doirasini kengaytirish va psixologik barqarorlikni mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. STEAM tamoyillari bilan uyg‘unlashgan san’at, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muammolarni turlicha yondashuv bilan hal etish va o‘z-o‘zini anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita hisoblanadi.

Tasviriy san’atning psixologiyadagi ahamiyati. Tasviriy san’at o‘quvchilarda hissiy intellektni rivojlantirishga xizmat qiladi. Rang, shakl va kompozitsiya bilan ishlash o‘quvchilarda diqqatni jamlash, sabr-toqatni oshirish va stressni kamaytirishga yordam beradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, san’at mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ichki dunyosini boyitadi va ularni ichki his-tuyg‘ularini sog‘lom tarzda ifodalashga undaydi. Shu bilan birga, STEAM ta’limi bilan birlashtirilganda, bu jarayon nafaqat hissiyotlarni rivojlantiradi, balki ijodiy va mantiqiy fikrlashni ham uyg‘unlashtiradi.

Tasviriy san’at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va eng ta’sirchan sohalaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy kuchi shundaki, u bevosita tomoshabin hissiyotlariga ta’sir ko‘ra oladi. San’at asarida qo‘llaniladigan rang va kompozitsiya elementlari aynan shu psixologik ta’sirning bosh omillari hisoblanadi.

Ranglarning ta’siri haqida so‘z yuritganda, biz har bir rangning inson ongida muayyan hissiy assotsiatsiyalar uyg‘otishini ko‘ramiz. Masalan, qizil rang energiya va harakatni, ko‘k rang osoyishtalik va ishonchni, yashil esa yangilanish va tabiiylikni bildiradi. Rassom ana shu xususiyatlardan foydalangan holda asarning kayfiyatini belgilaydi va tomoshabinni o‘z xohlagan ruhiy holatiga olib kiradi.

Kompozitsiya esa san’at asaridagi barcha elementlarning joylashuvi va tartibini ifodalaydi. U ritm, muvozanat, markaz va bo‘shliq orqali tomoshabin e’tiborini kerakli nuqtaga yo‘naltiradi. To‘g‘ri qurilgan kompozitsiya asarga uyg‘unlik bag‘ishlaydi va inson ruhiyatida barqarorlik, osoyishtalik yoki aksincha — dinamiklik va hayrat uyg‘otadi.

Rang va kompozitsiya uyg‘un bo‘lganda, san’at asari yanada kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. U nafaqat ko‘zga yoqimli, balki qalbga singib boradigan, chuqur ma’noga ega bo‘lgan san’at namunasi sifatida qadrlanadi. Shu bois tasviriy san’atni o‘rganishda rang va kompozitsiyaning psixologik ta’sirini anglash, uni san’at nazariyasi va amaliyotida qo‘llash katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, rang va kompozitsiya tasviriy san’atning nafaqat estetik go‘zalligini, balki uning inson ruhiyatini boyitish, fikrlashga undash, his-tuyg‘ularni uyg‘otishdagi beqiyos kuchini ham namoyon etadi.

Tasviriy san’at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va eng ta’sirchan sohalaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy kuchi shundaki, u bevosita tomoshabin hissiyotlariga ta’sir ko‘ra oladi. San’at asarida qo‘llaniladigan rang va kompozitsiya elementlari aynan shu psixologik ta’sirning bosh omillari hisoblanadi.

Ranglarning ta’siri haqida so‘z yuritganda, biz har bir rangning inson ongida muayyan hissiy assotsiatsiyalar uyg‘otishini ko‘ramiz. Masalan, qizil rang energiya va harakatni, ko‘k rang osoyishtalik va ishonchni, yashil esa yangilanish va tabiiylikni bildiradi. Rassom ana shu xususiyatlardan foydalangan holda asarning kayfiyatini belgilaydi va tomoshabinni o‘z xohlagan ruhiy holatiga olib kiradi.

Kompozitsiya esa san’at asaridagi barcha elementlarning joylashuvi va tartibini ifodalaydi. U ritm, muvozanat, markaz va bo‘shliq orqali tomoshabin e’tiborini kerakli nuqtaga yo‘naltiradi. To‘g‘ri qurilgan kompozitsiya asarga uyg‘unlik bag‘ishlaydi va inson ruhiyatida barqarorlik, osoyishtalik yoki aksincha dinamiklik va hayrat uyg‘otadi.

Rang va kompozitsiya uyg‘un bo‘lganda, san’at asari yanada kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. U nafaqat ko‘zga yoqimli, balki qalbga singib boradigan, chuqur ma’noga ega bo‘lgan san’at namunasi sifatida qadrlanadi. Shu bois tasviriy san’atni o‘rganishda rang va kompozitsiyaning psixologik ta’sirini anglash, uni san’at nazariyasi va amaliyotida qo‘llash katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, rang va kompozitsiya tasviriy san’atning nafaqat estetik go‘zalligini, balki uning inson ruhiyatini boyitish, fikrlashga undash, his-tuyg‘ularni uyg‘otishdagi beqiyos kuchini ham namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=2234630872724556750&btnI=1&hl=ru BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHISINI KASBIY TAYYORLASHDA INDIVIDUAL TA’LIMNING AHAMIYATI
2. **Авторы :** Berdiyev Doston Abduvoitovich/Tasviriy san’at orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish
3. Авторы: Berdiyev Doston Abduvoitovich https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=_AW3s-EAAAAJ&citation_for_view=_AW3s-EAAAAJ:YFjsv_pBGBYC
4. Tasviriy san’at orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish/ Авторы: Berdiyev Doston Abduvoitovich ,

RANGSHUNOSLIK DARSLARIDA STEAM YONDASHUVI VA O‘YIN TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI

Berkinova Go‘zal Abduvahob qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san’at yo‘nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400122

Annotatsiya. *Maqolada rangshunoslik darslarida STEAM yondashuvi va o‘yin texnologiyalarini integratsiya qilishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Ilmiy manbalar sharhi va mavjud tajribalar asosida rangshunoslik ta’limida motivatsiyani oshirish, fanlararo integratsiya, ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *rangshunoslik, STEAM, o‘yin texnologiyalari, geimifikatsiya, san’at ta’limi, integratsiya, ijodiy tafakkur, motivatsiya, fanlararo yondashuv, metodika.*

Аннотация. *В статье рассмотрены теоретические основы и практическое значение интеграции STEAM-подхода и игровых технологий в преподавание цветоведения. На основе анализа научных источников и существующего опыта раскрываются возможности повышения мотивации, междисциплинарной интеграции и развития творческого мышления учащихся. Также даны рекомендации по преодолению существующих проблем.*

Ключевые слова: *цветоведение, STEAM, игровые технологии, геймификация, художественное образование, интеграция, творческое мышление, мотивация, междисциплинарный подход, методика.*

Abstract. *The article analyzes the theoretical foundations and practical significance of integrating the STEAM approach and game technologies into color science education. Based on the review of academic sources and existing practices, the study highlights opportunities for increasing student motivation, interdisciplinary integration, and the development of creative thinking. Recommendations are also provided for addressing current challenges.*

Keywords: *color science, STEAM, game technologies, gamification, art education, integration, creative thinking, motivation, interdisciplinary approach, methodology.*

Jahon ta’lim tizimida an’anaviy bilim berish modelidan o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash, muammolarni nostandart hal etish kabi XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarga o‘tilmoqda. Finlandiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya va o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni chuqur tatbiq etish bu borada yuksak samaradorlikka erishishning asosiy omili hisoblanadi. Ayniqsa, san’atni texnologiya va aniq fanlar bilan uyg‘unlashtiruvchi STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi bugungi kun ta’limining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida barcha sohalarga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa etib belgilangan [9]. Bu jarayonda san’at ta’limi, xususan rangshunoslik fanini o‘qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi, bugungi

“raqamli avlod” vakillari uchun ma’lumotni quruq nazariya shaklida qabul qilish motivatsiyani pasaytiradi. Ularni o‘quv jarayoniga faol jalb etish uchun interaktiv, qiziqarli va amaliyotga yo‘naltirilgan metodlar zarur.

Shu nuqtayi nazardan, rangshunoslik darslariga STEAM yondashuvi va o‘yin texnologiyalarini integratsiya qilish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida kun tartibiga chiqadi. Jon Dyui o‘zining “San’at tajriba sifatida” (Art as Experience) asarida san’at ta’limini insoniy tajribani boyituvchi, idrokni kengaytiruvchi jarayon sifatida ta’riflagan [1]. STEAM yondashuvi esa bu g‘oyani yanada kengaytirib, rangshunoslikni o‘quvchining hayotiy tajribasi bilan bog‘lash, uni fizika (yorug‘lik spektri), geometriya (shakllar mutanosibligi) va texnologiyalar (raqamli dizayn) bilan uyg‘unlikda o‘rganish imkonini beradi. Yakmanning ta’kidlashicha, STEAM modeli fanlarni birlashtirib, o‘quvchilarni murakkab muammolarni hal etishga tayyorlaydi [4].

Bunga qo‘shimcha ravishda, o‘yin texnologiyalari va geimifikatsiya metodlarini qo‘llash ta’lim samaradorligini keskin oshirishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Deterding geimifikatsiyani “o‘yin elementlarini no-o‘yin sohalarida qo‘llash orqali motivatsiya va ishtirokni oshirish jarayoni” deb ta’riflaydi [5]. Bu jarayon ranglarni o‘rganishda ayniqsa dolzarb, chunki bolalar qiziqarli va rag‘batlantiruvchi shaklda berilgan bilimni tezroq va mustahkamroq o‘zlashtiradilar. Shu bois, ushbu maqola rangshunoslik darslarida STEAM yondashuvi va o‘yin texnologiyalarini integratsiya qilishning nazariy asoslari va amaliy tatbiq imkoniyatlarini yoritishga qaratiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion metod va yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, san’at ta’limida o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, estetik did va rang idrokini shakllantirish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriy ehtiyoj sifatida qaralmoqda. Dewey o‘zining “Art as Experience” asarida san’at ta’limini insoniy tajribani boyituvchi, idrokni kengaytiruvchi jarayon sifatida ta’riflagan [1]. Bu fikrdan kelib chiqib, rangshunoslik darslarini o‘quvchi hayotiy tajribasi bilan bog‘lab o‘qitish, ularning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta’limda keng qo‘llanilayotgan STEAM yondashuvi rangshunoslikni boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Yakman ta’kidlaganidek, STEAM modeli fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtirib, o‘quvchilarni murakkab muammolarni hal etishga tayyorlaydi [4]. Bu yondashuv nafaqat bilim berish, balki ijodiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda ham katta imkoniyat yaratadi.

Rangshunoslik darslarida o‘yin texnologiyalari va geimifikatsiya metodlarini qo‘llash ham samarali natijalar beradi. Deterding geimifikatsiyani “o‘yin elementlarini no-o‘yin sohalarida qo‘llash orqali motivatsiya va ishtirokni oshirish jarayoni” deb ta’riflaydi [5]. Bu jarayon ranglarni o‘rganishda ayniqsa dolzarb, chunki bolalar qiziqarli va rag‘batlantiruvchi shaklda berilgan bilimni tezroq o‘zlashtiradilar.

Shu bois, ushbu maqola rangshunoslik darslarida STEAM yondashuvi va o‘yin texnologiyalarini integratsiya qilishning nazariy asoslari va amaliy tatbiq imkoniyatlarini yoritishga qaratiladi.

San’at ta’limida innovatsion yondashuvlar haqida ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Prensky o‘z asarida raqamli o‘yinlar o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishda muhim vosita ekanini qayd etadi[2]. Bu fikrni Gee ham qo‘llab-quvvatlab, o‘yinlarning murakkab tushunchalarni osonroq o‘zlashtirishdagi rolini ko‘rsatadi[3]. Mazkur qarashlardan kelib chiqib, rangshunoslikni o‘yin elementlari orqali o‘qitish bolalarning qiziqishini oshirish va bilimlarni barqarorlashtirish imkoniyatini beradi.

Yakman ishlab chiqqan STEAM modeli rangshunoslikni fanlararo integratsiyada o‘qitish zaruratini asoslab beradi[4]. Bu model orqali rang tushunchalari fizikadagi yorug‘lik spektri, matematikadagi nisbatlar va san’atdagi kompozitsion yechimlar bilan bog‘liq holda tushuntiriladi. Natijada, o‘quvchilar ranglarni nafaqat estetik hodisa sifatida, balki ilmiy va amaliy kontekstda ham anglay boshlaydilar.

Aliyevning “Rangshunoslik asoslari” asari esa ranglar nazariyasi, kolorit va uyg‘unlik masalalarini ilmiy-metodik asosda yoritadi[6]. Bu manbadan foydalanib, rangshunoslikni o‘qitishda o‘yin elementlarini tatbiq etish nazariy poydevor topadi. Xo‘jayev esa ranglar nazariyasini bolalar san’at maktablarida o‘qitish metodikasini ishlab chiqqan[7]. Bu tadqiqotlar rangshunoslik ta’limi jarayonini modernizatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Metodologik jihatdan maqola ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, mavjud tajribalarni tahlil qilish va nazariy umumlashtirish usullariga asoslanadi. Bu yondashuv san’at ta’limi sohasidagi dolzarb muammolarni nazariy jihatdan ochib berish imkonini beradi.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rangshunoslik darslarida STEAM yondashuvi va o‘yin texnologiyalarini qo‘llash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Motivatsiyani oshiradi. Prensky ta’kidlaganidek, raqamli o‘yinlar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning diqqatini jalb etadi va ularni faol ishtirok etishga undaydi[2]. Bu jihat rangshunoslik fanida ayniqsa muhim, chunki ranglarni quruq nazariy shaklda emas, balki interaktiv tarzda o‘rganish jarayoni yanada qiziqarli bo‘ladi.

2. Ranglarni idrok etishni yengillashtiradi. Gee fikricha, o‘yinlar murakkab tushunchalarni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi[3]. Demak, rang uyg‘unliklari, kontrast va kolorit tushunchalarini o‘yin shaklida berish bolalar ongida mustahkamroq o‘rnashadi.

3. Fanlararo integratsiyani ta’minlaydi. Yakman ishlab chiqqan STEAM modeli rangshunoslikni fizika, matematika va texnologiya bilan bog‘lash imkonini beradi[4]. Bu yondashuv o‘quvchilarda kompleks tafakkurni shakllantiradi.

4. Ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Aliyev va Xo‘jayev asarlarida ranglarni estetik va amaliy jihatdan o‘rgatish o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishi qayd etiladi[6; 7]. Geimifikatsiya bu jarayonga qo‘shimcha rag‘bat beradi.

5. Pedagogik jarayonni samarali qiladi. Deterdingning geimifikatsiya ta’rifi shuni ko‘rsatadiki, o‘yin elementlari o‘qituvchiga ta’lim jarayonini boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratadi[5]. Bu esa darsni yanada samarali va interaktiv o‘tkazish imkonini beradi.

Nazariy tahlillar asosida rangshunoslik darslarida STEAM va o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning bir qator afzalliklar aniqlanadi.

- O‘quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytirish[2; 3].
- Ranglarni fanlararo bog‘liqlikda tushuntirish[4].
- Estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirish[6; 7].
- Ta’lim jarayonida o‘qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytirish[5].

Rangshunoslik darslarida STEAM yondashuvi va o‘yin texnologiyalarini qo‘llash san’at ta’limining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda ranglarni idrok etish, estetik didni shakllantirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va fanlararo integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan xulosa qilib quyidagi amaliy tavsiyalarni ko‘rsatib o‘tamiz.

1. Rangshunoslik fanini STEAM modeli asosida tashkil etish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.

2. O‘qituvchilar uchun o‘yin texnologiyalari va geimifikatsiya bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

3. Rangshunoslik mashg‘ulotlarida milliy o‘yin elementlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish.

4. San’at maktablarida texnik vositalarni modernizatsiya qilish va interaktiv resurslardan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dewey J. Art as Experience. – New York: Penguin, 2005. – 350 p.
2. Prensky M. Digital Game-Based Learning. – New York: McGraw-Hill, 2007. – 284 p.
3. Gee J. P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. – New York: Palgrave Macmillan, 2003. – 256 p.
4. Yakman G. STEM Education Framework and the Integration of the Arts (STEAM). – International Technology Education Association Conference, 2008. – 15 p.
5. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining “Gamification”. – Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. – Tampere: ACM, 2011. – P. 9–15.
6. Алиев Б. Rangshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston badiiy akademiyasi nashriyoti, 2019. – 212 b.
7. Xo‘jayev N. Bolalar san’at maktablarida ranglar nazariyasini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 180 b.
8. Беркинов Q. San’at ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 196 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020. – 48 b.
10. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 62 p.

TASVIRIY SAN’ATDA METOD VA VOSITALAR UYG‘UNLIGI

[1]Bozorov Farxod Toyir o‘g‘li, [2]Daminova Gulsanam Jamoliddin qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400135

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizmida maktablarda o‘quvchilarga oliy o‘quv yurtlarida talabalarga tasviriy san’at inson tafakkuri, qalbi va estetik didini shakllantirishda muhim o‘rin tutishini. San’at asarlari nafaqat voqelikni aks ettirishini, balki uni badiiy talqin qilib, tomoshabinning dunyoqarashini kengaytirishi haqida ma’lumotlar olishadi. Bunda o‘qituvchi yoki rassomning metodlari hamda qo‘llagan vositalari uyg‘unligi alohida ahamiyat kasb etadi.*

Аннотация. *Цель данной статьи – донести до учащихся школ и вузов современной системы образования важную роль изобразительного искусства в формировании мышления, души и эстетического вкуса человека. Произведения искусства не только отражают действительность, но и художественно интерпретируют её, расширяя мировоззрение зрителя. В связи с этим особое значение приобретает гармоничность методов и средств, используемых учителем или художником.*

Abstract. *This article aims to teach students in schools and universities in the modern educational system that fine arts play an important role in shaping human thinking, soul, and aesthetic taste. They learn that works of art not only reflect reality, but also interpret it artistically and expand the viewer's worldview. In this regard, the harmony of the methods and tools used by the teacher or artist is of particular importance.*

Kalit so‘zlar: *Metod, vosita, san’at asarlari, ranglarni uyg‘unlashtirish, mòyqalam, palitra.*

Ключевые слова: *Метод, среда, художественное произведение, подбор цвета, кисть, палитра.*

Keywords: *Method, medium, artwork, color matching, brush, palette.*

Metod **—** bu tasviriy san’atni o‘qitishda yoki ijodiy asar yaratishda qo‘llaniladigan usul, yo‘l va yondashuvlardir. Masalan, kuzatish, taqqoslash, ranglarni uyg‘unlashtirish, bosqichma-bosqich ishlash kabi metodlar.

Vosita **—** bu metodlarni amalda qo‘llashga xizmat qiluvchi moddiy hamda texnik qurollardir. Masalan, qalam, bo‘yoq, mo‘yqalam, palitra, qog‘oz, mato yoki zam kabilar.

Tasviriy san’at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va boy qatlamlaridan biridir. U jamiyat hayotida estetik tarbiya berish, badiiy tafakkurni shakllantirish va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. San’atni samarali o‘qitish yoki badiiy ijod jarayonida metod va vositalar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki metod — ijodiy yo‘nalishni, vosita esa uni amalga oshirishning moddiy-mexanik tomonini belgilaydi. Metodlarning o‘rni esa to‘g‘ri tanlangan vosita rassomning tasviriy maqsadlarini mukammal ifodalash imkonini beradi. Masalan, akvarel bo‘yoq yengillik va noziklikni, moybo‘yoq esa chuqur rang-baranglikni ifodalashga mos keladi. Metod va vositalarning uyg‘unligi, san’atda yuqori natijaga erishish uchun metod va vositalar bir-birini to‘ldirishi kerak. Agar metod mavjud

bo‘lib, lekin vositalar noto‘g‘ri tanlansa, ijodiy natija yetarli darajada chiqmaydi. Xuddi shuningdek, boy vositalar bo‘lsa-da, metodika puxta bo‘lmasa, ijodiy jarayon samarali bo‘lmaydi.Masalan, perspektiva o‘rganishda kuzatish va taqqoslash metodlari qo‘llanilib, qalam va chizg‘ich vositasi bilan ishlanadi. Yoki rangtasvirda akvarel texnikasidan foydalanganda, bosqichma-bosqich ishlash metodi yordamida chuqur badiiy natija hosil qilish mumkin. Metod — bu tasviriy san’atni o‘qitish yoki ijodda qo‘llaniladigan usul va yondashuvdir. Vosita esa — metodni amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi moddiy quroldir. Masalan, kuzatish va taqqoslash metodlari qalam, bo‘yoq, chizg‘ich kabi vositalar orqali amalga oshiriladi. San’atda yuqori natijaga erishish metod va vositalarning uyg‘unligiga bog‘liq. Moybo‘yoq bo‘yoqlari XV asrdan boshlab san’at tarixida keng qo‘llanila boshlagan. Mashhur san’atshunoslar yozishicha, Niderlandiyalik rassom Yan van Eyk moybo‘yoqlarni mukammal shaklga keltirgan. Moybo‘yoqlarning afzalliklari quyidagilardan iborat: Sekin qurishi tufayli rassomga ijodiy imkoniyat berishi. Mashhur asarlar, jumladan Leonardo da Vinchining “Mona Liza”si, Rembrandtning portretlari, Rafaelning asarlari aynan moybo‘yoqlarda ishlangan. Badiiy adabiyotlarda ham moybo‘yoqlar “ranglarning abadiyligi”, “ruh pardasi” sifatida tilga olinadi. Oybek san’at haqidagi maqolalarida moybo‘yoqlarni “ranglar tilida kuylangan she’r” deb atagan. Erkin Vohidov esa ranglarni inson tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashtirib, ularni hayotiylik va jo‘shqinlik timsoli sifatida tasvirlagan. O‘zbekiston san’atida ham moybo‘yoqlar yetakchi vositalardan biridir. Mashhur rassom O‘ral Tansiqboyev asarlarida tabiat manzaralari masla bo‘yoqlar orqali yorqin va hayotiy ifodalangan. Unga bag‘ishlangan adabiyotlarda rassomning palitrasi “ona tabiatning so‘nmas nafosatini ifodalash quroli” sifatida ta’riflanadi.

Xulosa. Tasviriy san’atda metod va vositalarning uyg‘unligi ijodiy jarayonning asosiy sharti hisoblanadi. Moybo‘yoqlar esa bu uyg‘unlikni mukammal ifodalovchi eng muhim vositalardan biri bo‘lib, u san’atni abadiylikka eltuvchi kuchga ega. San’atshunoslar va adiblar ta’kidlaganidek, moybo‘yoqlar rassomning qalbini, tuyg‘usini va estetik qarashini ranglarda abadiylashtiruvchi san’at qurolidir.

QO‘LLANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). LOYIHALAR METODI ORQALI TASVIRIY SAN'AT YO 'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. *ХАЛКАРО ИЛЬМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯЛАР*, *1*(1), 136-138.
2. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДИК ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ. *Международный междисциплинарный журнал по исследованиям и разработкам*, *11*(06).
3. Toyir ogli, B. F. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Journal of new century innovations*, *27*(5), 58-60.
4. Шодизода, М. А., Хасанович, К. К., и Тойир оглы, Б. Ф. (2019). Интерпретация произведений узбекских художников в пейзажных жанрах. *Think India Journal*, *22* (14), 10799-10803.
5. Toyir o‘g‘li, F. B. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (TASVIRIY SAN'AT). *Журнал инноваций нового века*, *27* (4), 113-117.

6. Bozorov, F. (2022). Ijodiy to‘garaklarda yoshlarni tasviriy san’atdan tavirlash malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi. *Science and Education*, *3*(8), 130-137.
7. Bozorov, F. (2023, December). Talabalarda ijodiy qobilyatni rivojlantirish va tadbirkorlikka yo ‘naltirishda to ‘garaklarning ahamiyati. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
8. Бозоров, Ф., и Байметов, Б. Б. (2023). Использование жанра натюрморт изобразительного искусства при организации групповых занятий для студентов высшего педагогического образования. *Европейский международный журнал педагогики*, *3*(04), 5-12.

TASVIRIY SAN'AT VA UNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI

[1]Bozorov Farxod Toyir o'g'li, [2]Musulmonova Madina Bunyod qizi, [3]Karimova Madinabonu Mirodiljon qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi o'qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi,[3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17400146

Annotatsiya*. Ushbu maqolada tasviriy san'atning inson hayotidagi o'rni,psixologik ta'siri,unung his-tuyg'ulari keltirib o'tilgan.Tasviriy san'at janrlari,janr bo'yicha ishlagan rassomlar va ularning ijodlari haqida yoritib berilgan. Rang san'atida shuningdek atrofimizda turli xil ranglar bo'yicha ma'lumotlar mavjud.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль изобразительного искусства в жизни человека, его психологическое воздействие и эмоции. В ней рассматриваются жанры изобразительного искусства, художники, работавшие в этом жанре, и их работы. В разделе «Цветовое искусство» также содержится информация о различных цветах вокруг нас.*

Abstract. *This article discusses the role of fine arts in human life, its psychological impact, and its emotions. It covers the genres of fine arts, artists who worked in the genre, and their works. Color art also contains information about the different colors around us.*

Kalit so'zlar*: Tasviriy san'at, axromatik, xromatik, haykaltaroshlik, janr, portret, manzara, rangtasvir.*

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, ахроматический, хроматический, скульптура, жанр, портрет, пейзаж, живопись.*

Keywords: *Fine arts, achromatic, chromatic, sculpture, genre, portrait, landscape, painting.*

Tasviriy san'at – *rangtasvir*, *haykaltaroshlik*, *grafikani* birlashtirgan nafis san'at turi; voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borliqni obyektiv mavjud sifatlari – hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nur va havo muhiti, harakat va o'zgarishlari hissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretliligidan *illyuzionizm*ga o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy qiyofasini, uning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Tasviriy san'at – insoniyatning eng qadimiy va eng boy madaniy meroslaridan biri. U ko'zga ko'rinadigan shakllar orqali fikrlar, his-tuyg'ular va g'oyalarni ifodalashga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning mohiyati shundaki, u haqiqatni

tasvirlash, go‘zallikni ko‘rsatish va inson ruhiyatini yoritish orqali jamiyatga ta’sir etadi. Qadimgi davrlardan boshlab, g‘or rasmlari va haykallardan tortib, zamonaviy raqamli san’atgacha, tasviriy san’at insoniyatning rivojlanishini aks ettirib kelmoqda. Tasviriy san’atning mohiyati – bu estetika, ifoda va texnika birlashmasi. U nafaqat go‘zallikni yaratadi, balki ijtimoiy, siyosiy va falsafiy masalalarni ko‘taradi. Masalan, Renessans davridagi Leonardo da Vinchi yoki Mikelanjelo kabi san’atkorlarning asarlari insoniyatning intellektual yuksalishini ko‘rsatadi. Zamonaviy san’atda esa, abstraksionizm yoki pop-art kabi yo‘nalishlar jamiyatning o‘zgarishlarini tasvirlaydi. Tasviriy san’atning janrlaridan, *tarixiy, portret, manzara, natyurmort, botal, maishiy, animalistik janrlari mavjud.*

Tasviriy san’atning asosiy qismlaridan biri rangtasvir turi hisoblanadi. Rangtasvir qadimgi yillarda (millodan avvalgi XI-XIII ming yillar) da paydo bo‘lgan. Rangtasvir asosan suv bo‘yoqlar yordamida ishlanadi. Asosiy ranglar asosan 3 turga bo‘linadi. Biz bu ranglardan asosan tasviriy san’atda foydalanamiz. Ranglar asosan inson organizimiga, ruhiyatiga, kayfiyatiga ta’sir qiladi. Qadimgi paytlarda ranglar asosan iliq va sovuq ranglarga bo‘lingan. Ranglar ham ko‘p vazifalarni bajaradi. Masalan, och qizil rang insonlarning ruhan ezilganlarga ta’sir qiladi va boshqa ranglar ham o‘ziga xos xususiyatlari bor. Ranglar asosan axromatik va xromatik ranglarga bo‘linadi. Axromatik-ranglar deb ma’lum bir tusga kirmagan faqatgina oq-qora va kulrang ranglardan foydalaniladi. Xromatik-ranglar deb barcha ranglar bir tusga kirgan ranglarga aytiladi. Ranglar asosan iliq yoki sovuq ranglarga bo‘linadi.

Tasviriy san’atda ranglar muhim rol o‘ynaydi. Ularning xususiyatlari rang tus, och-to‘q muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san’atda ishlatadigan materiallar: akvarel, qalam, o‘chirg‘ich, qog‘oz, palitra va planshet kabi materiallardan foydalanamiz. Tasviriy san’atda asosan jismlarning hajmini hayoliy tasvirlashlarini, uning ranglarini, buyumlarning nisbatini, perspektivasini ya’ni (qisqarish, uzoqlashish) qonunlariga aytiladi.

Xulosa: Ushbu maqola tasviriy san’atning mohiyati, tur va janrlarini batafsil yoritib, uning inson hayoti va ruhiyatiga ta’sirini ta’kidlaydi. Tasviriy san’at rangtasvir, haykaltaroshlik va grafikani birlashtirib, voqelikni hajm, rang, fazo va harakat orqali aks ettiradi, shuningdek, emotsional va falsafiy masalalarni ko‘taradi. Janrlar (tarixiy, portret, manzara, natyurmort, botal, maishiy, animalistik, avtoportret) va ular bo‘yicha mashhur rassomlar (masalan, J.Reynolde, Rahim Ahmedov, O‘ral Tansiqboyev) misollarida keltirilgan. Ranglarning axromatik va xromatik turlari, iliq-sovuq bo‘linishi, materiallar (akvarel, qalam va b.) hamda perspektiva qonunlari muhimligi ko‘rsatilgan. Umuman, tasviriy san’at insoniyat madaniyatining qadimiy merosi sifatida estetika va ijtimoiy ta’sir qudratini namoyon etadi.

QO‘LLANILGAN ADABIYOTLAR

9. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). LOYIHALAR METODI ORQALI TASVIRIY SAN'AT YO 'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. *ХАЛКАРО ИЛЬМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯЛАР*, *1*(1), 136-138.
10. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДИК ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ. *Международный междисциплинарный журнал по исследованиям и разработкам*, *11*(06).

11. Toyir ogli, B. F. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Journal of new century innovations*, *27*(5), 58-60.
12. Шодизода, М. А., Хасанович, К. К., и Тойир оглы, Б. Ф. (2019). Интерпретация произведений узбекских художников в пейзажных жанрах. *Think India Journal*, *22* (14), 10799-10803.
13. Toyir o‘g‘li, F. B. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (TASVIRIY SAN'AT). *Журнал инноваций нового века*, *27* (4), 113-117.
14. Bozorov, F. (2022). Ijodiy to‘garaklarda yoshlarni tasviriy san’atdan tavirlash malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi. *Science and Education*, *3*(8), 130-137.
15. Bozorov, F. (2023, December). Talabalarda ijodiy qobilyatni rivojlantirish va tadbirkorlikka yo ‘naltirishda to ‘garaklarning ahamiyati. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
16. Бозоров, Ф., и Байметов, Б. Б. (2023). Использование жанра натюрморт изобразительного искусства при организации групповых занятий для студентов высшего педагогического образования. *Европейский международный журнал педагогики*, *3*(04), 5-12.

TASVIRIY SAN’AT FANLARINI O‘QITISHDA LOYIHALASH METODIKASIDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Bozorov Farxod Toyir o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400158

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda loyihalash metodikasidan foydalanishning ahamiyati, mazmuni va didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida loyihaviy yondashuvning samarali omillari, ularning ijodiy faoliyatga jalb etilishi, mustaqil qaror qabul qilish, estetik tafakkurni rivojlantirishdagi roli tahlil etilgan. Shuningdek, loyihalash metodining ta’lim samaradorligini oshirishdagi pedagogik va psixologik xususiyatlari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyasi ilmiy-nazariy asosda ko‘rib chiqiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются значение, содержание и дидактические возможности использования проектной методики в обучении изобразительному искусству. Анализируются факторы эффективности проектного подхода в процессе формирования профессиональных компетенций студентов, их роль в вовлечении их в творческую деятельность, самостоятельное принятие решений, развитие эстетического мышления. Также на научно-теоретической основе рассматриваются педагогические и психологические особенности проектной методики в повышении эффективности образования, её интеграция с современными образовательными технологиями.*

Abstract. *This article discusses the importance, content and didactic possibilities of using the design methodology in teaching fine arts. The effective factors of the design approach in the process of forming professional competencies in students, their role in involving them in creative activities, independent decision-making, and the development of aesthetic thinking are analyzed. Also, the pedagogical and psychological characteristics of the design method in increasing educational effectiveness, its integration with modern educational technologies are considered on a scientific and theoretical basis.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, loyihalash metodikasi, kompetensiya, kasbiy kompetensiyalar, ijodkorlik, pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta’lim.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, методика проектирования, компетентность, профессиональные компетенции, творчество, педагогические технологии, самостоятельное обучение.*

Keywords: *fine arts, design methodology, competence, professional competencies, creativity, pedagogical technologies, independent learning.*

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Tasviriy san’at fanlari bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning bo‘lajak pedagogik faoliyati, ularning ijodkorlik salohiyati hamda zamonaviy metodlardan samarali foydalanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, loyihalash

metodikasi o‘qitish jarayonida nafaqat bilim berish, balki talabalarda mustaqil izlanish, tashabbuskorlik va ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Tasviriy san’at ta’limida loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda **“men bilaman – men yarataman – men qo‘llayman”** tamoyili asosida faoliyat yuritishga yordam beradi. Mazkur metod orqali nafaqat bilim va ko‘nikmalar shakllanadi, balki talabaning o‘z kasbiy faoliyatini samarali loyihalash qobiliyati ham rivojlanadi.

1. Kasbiy kompetensiya tushunchasi va uning ahamiyati

Kasbiy kompetensiya — bu nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikma, tajriba va shaxsiy sifatlarning uyg‘unlashuvi natijasida namoyon bo‘ladigan sifatdir. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi uchun kompetensiya quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

A. **Bilim kompetensiyasi** – tasviriy san’at nazariyasi, pedagogik psixologiya va metodikani mukammal o‘zlashtirish;

B. **Amaliy kompetensiya** – san’at asarlarini yaratish, tahlil qilish va talabalarga o‘rgatish malakasi;

C. **Ijodiy kompetensiya** – yangicha g‘oyalarni ilgari surish, loyihalash va innovatsion yondashuvni qo‘llash;

D. **Kommunikativ kompetensiya** – talabalar bilan samarali muloqot o‘rnatish va ularni mustaqil faoliyatga yo‘naltirish.

Demak, tasviriy san’atni o‘qitishda loyihalash metodikasi ushbu kompetensiyalarning har birini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Tasviriy san’at fanlarida loyihalash metodikasining mazmuni

Loyihalash metodi — bu o‘quvchilarning yoki talabalarning aniq bir natijaga qaratilgan, muammoni hal etishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyatini tashkil etish jarayonidir. Tasviriy san’at ta’limida bu metodning qo‘llanilishi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. **Muammoni qo‘yish** – talabalarga ijodiy topshiriq yoki loyiha vazifasi beriladi (masalan, “Milliy an’analarga asoslangan interyer loyihasi”).
2. **Rejalashtirish** – loyiha mazmuni, yo‘nalishi va ishlash metodlari belgilanadi.
3. **Ijro jarayoni** – talabalarning mustaqil izlanishi, chizmalar, maketlar yoki san’at asarlari yaratishi.
4. **Natijani taqdim etish** – bajarilgan ishni guruh oldida himoya qilish va muhokama qilish.
5. **Tahlil va baholash** – loyiha samaradorligini, ijodiy yondashuvni hamda kasbiy qobiliyatlarni baholash.

Mazkur metodning eng katta ustunligi shundaki, u talabaning mustaqil faoliyatini rag‘batlantiradi, ularni ta’lim jarayonining faol sub’ekti sifatida shakllantiradi.

3. Talabalarda ijodkorlik va kompetensiyalarni rivojlantirish omillari

Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda loyihaviy yondashuvdan foydalanish orqali quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

a) **Ijodiy tafakkur** – yangi g‘oya va yechimlarni topish, vizual obrazlar orqali fikrni ifodalash.

b) **Estetik did** – san’at asarlarida badiiylik va uyg‘unlikni anglash.

c) **Texnik ko‘nikmalar** – turli grafika dasturlaridan (masalan, AutoCAD, Photoshop) foydalanish malakalari.

d) **Tahliliy fikrlash** – ijodiy ishni tanqidiy baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.

Loyihaviy faoliyat talabaning shaxsiy yondashuvini namoyon etishga, pedagogik faoliyatda o‘z yo‘nalishini topishga yordam beradi.

4. Pedagogik va psixologik jihatlar

Loyihalash metodikasining samaradorligi quyidagi pedagogik-psixologik omillar bilan belgilanadi:

- Talabaning qiziqishlarini inobatga olish;
- Mustaqil qaror qabul qilishga imkon berish;
- Guruhiy hamkorlik orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish;
- Motivatsiyani oshirish va ijodiy tashabbusni rag‘batlantirish.

Shuningdek, bu metod talabalarda irodaviy sifatlarni, mas’uliyatni va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Xulosa: Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda loyihalash metodikasidan foydalanish talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali yo‘lidir. Ushbu metod nafaqat ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi, balki mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini erkin ifoda etish, badiiy-estetik didni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, loyihalash metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini malakali, kompetent va ijodkor mutaxassis sifatida tayyorlash mumkin.

QO‘LLANILGAN ADABIYOTLAR

17. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). LOYIHALAR METODI ORQALI TASVIRIY SAN'AT YO 'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. *ХАЛКАРО ИЛЬМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯЛАР*, *1*(1), 136-138.
18. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДИК ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ. *Международный междисциплинарный журнал по исследованиям и разработкам*, *11*(06).
19. Toyir ogli, B. F. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Journal of new century innovations*, *27*(5), 58-60.
20. Шодизода, М. А., Хасанович, К. К., и Тойир оглы, Б. Ф. (2019). Интерпретация произведений узбекских художников в пейзажных жанрах. *Think India Journal*, *22* (14), 10799-10803.
21. Toyir o‘g‘li, F. B. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (TASVIRIY SAN'AT). *Журнал инноваций нового века*, *27* (4), 113-117.
22. Bozorov, F. (2022). Ijodiy to‘garaklarda yoshlarni tasviriy san’atdan tavirlash malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi. *Science and Education*, *3*(8), 130-137.
23. Bozorov, F. (2023, December). Talabalarda ijodiy qobilyatni rivojlantirish va tadbirkorlikka yo ‘naltirishda to ‘garaklarning ahamiyati. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).

“TASVIRIY SAN’AT ORQALI MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA ESTETIK QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH”

[1]Bozorov Farxod Toyir o‘g‘li, [2]Ochilboyeva Gulshoda Shunxor qizi, [3]Eshpo‘latova Ruxshona Jamshid qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17400170

Annotatsiya. *Bugungi globallashuv davrida milliy o‘zlikni anglash, xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va estetik qadriyatlarini asrab-avaylash muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy san’atimizning qadri va nufuzi yanada oshdi. Tasviriy san’at sohasida milliylik, ma’naviylik, estetik tarbiya masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Shu bois, tasviriy san’atni milliy o‘zlikni shakllantirishda, yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalashda muhim omil sifatida o‘rganish dolzarbdir. Tasviriy san’at — bu nafaqat inson tafakkurining mahsuli, balki millatning ruhiy olamini, an’analarini, orzu-umidlarini aks ettiruvchi vositadir. San’at orqali inson o‘zligini, millatini, tarixini anglaydi, go‘zallikni his etadi va estetik dunyoqarashini shakllantiradi.*

Аннотация. *В современную эпоху глобализации осознание национальной идентичности, сохранение исторической памяти, культурного наследия и эстетических ценностей народа являются одной из важных социальных задач. После обретения Узбекистаном независимости ценность и престиж нашего национального искусства еще больше возросли. В области изобразительного искусства вопросы национальности, духовности и эстетического воспитания стали важными направлениями государственной политики. Поэтому актуально изучение изобразительного искусства как важного фактора формирования национальной идентичности и воспитания подрастающего поколения в эстетическом духе. Изобразительное искусство - это не только продукт человеческой мысли, но и средство отражения духовного мира, традиций, мечтаний и надежд нации. Через искусство человек постигает свою идентичность, национальность, историю, чувствует красоту, формирует эстетическое мировоззрение.*

Abstract. *In today's era of globalization, the awareness of national identity, the preservation of the historical memory, cultural heritage and aesthetic values of the people are one of the important social tasks. After Uzbekistan gained independence, the value and prestige of our national art increased even more. In the field of fine arts, issues of nationality, spirituality, and aesthetic education have become important directions of state policy. Therefore, it is urgent to study fine arts as an important factor in the formation of national identity and the upbringing of the younger generation in an aesthetic spirit. Fine arts are not only a product of human thought, but also a means of reflecting the spiritual world, traditions, dreams and hopes of the nation. Through art, a person understands his identity, nationality, history, feels beauty, and forms an aesthetic worldview.*

Kalit so‘zlar: *Globallashuv, milliy o‘zlikni anglash, estitik qadriyatlar.*

Ключевые слова: *Глобализация, национальная идентичность, эстетические ценности.*

Keywords: *Globalization, national identity, aesthetic values.*

Tasviriy san’at — bu borliqdagi voqelikni, inson, tabiat va jamiyatdagi hodisalarni ko‘rish, tasavvur qilish va estetik his qilish orqali tasvir shaklida ifodalovchi san’at turi. Ya’ni, bu san’at orqali rassom o‘z fikrini, tuyg‘usini rang, shakl, chiziq va kompozitsiya yordamida ifodalaydi. Tasviriy san’atning asosiy maqsadi — insonning estetik didini, go‘zallikni his etish qobiliyatini, tafakkurini va dunyoqarashini rivojlantirish. Tasviriy san’at bir necha turlarga bo‘linadi: Rassomlik (rangtasvir) — bo‘yoqlar orqali tasvir yaratish san’ati. Grafika — chiziq, dog‘ va qora-oq kontrastlar orqali ifoda. Haykaltaroshlik (skulptura) — uch o‘lchamli shakllar orqali obraz yaratish. Amaliy bezak san’ati — kundalik hayot buyumlarini badiiy bezash. Arxitektura — inshootlarni estetik jihatdan chiroyli loyihalash san’ati. U insonni go‘zallikka oshno qiladi, tafakkurini boyitadi, ma’naviy olamini yuksaltiradi. Tasviriy san’at insonning borliqni badiiy idrok etish qobiliyatini ifoda etadi. U orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini, ruhiy kechinmalarini, millatining tarixiy o‘tmishini tasvirlaydi. Milliy o‘zlik deganda esa, xalqning o‘z tarixiy ildizlariga, tili, madaniyati, urf-odatlari, san’ati va qadriyatlariga bo‘lgan chuqur hurmat va g‘urur hissi tushuniladi. San’at falsafasida aytilishicha, har bir xalqning san’ati uning milliy ruhini ifoda etadi. Shu ma’noda, tasviriy san’at milliy o‘zlikning “ko‘zgusi”dir. U o‘zlikni faqat eslatmaydi, balki uni qayta yaratadi, yangi mazmun bilan boyitadi. Tasviriy san’atda bu o‘zlik rang, shakl, ramz va obrazlar orqali ifodalanadi. Masalan, o‘zbek miniatura san’ati, ganch o‘ymakorligi, naqshlar, milliy liboslar yoki manzaralar orqali xalqimizning dunyoqarashi, estetik ideallari namoyon bo‘ladi. Estetika — bu go‘zallik va san’at haqidagi fan.Tasviriy san’at insonning ichki dunyosini, milliy ruhini va estetik didini ifoda etuvchi kuchli vositadir. Har bir xalqning san’atida uning tarixi, an’analari, qadriyatlari va dunyoqarashi mujassam bo‘ladi. Shu sababli, tasviriy san’at nafaqat go‘zallikni ifodalaydi, balki milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida ham beqiyos ahamiyatga ega. O‘zbekiston misolida olaylik: xalqimizning boy madaniy merosi, naqshlar, miniatyuralar, amaliy san’at turlari — bularning barchasi milliy o‘zlikni ifodalaydi. Tasviriy san’at orqali yosh avlod ana shu qadriyatlarni anglab, o‘z millatiga, tarixiga va madaniyatiga nisbatan faxr tuyg‘usini shakllantiradi. Bundan tashqari, san’at insonda estetik zavq, did, go‘zallikni his etish qobiliyatini rivojlantiradi. Estetik qadriyatlar deganda biz nafaqat san’at asaridagi go‘zallikni, balki hayotda, tabiatda, insoniy munosabatlarda ham go‘zallikni ko‘ra olishni tushunamiz. Bu esa jamiyatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda san’at ta’limining vazifasi faqat chizishni o‘rgatish emas, balki milliy o‘zlikni anglash, estetik qadriyatlarni his qilish va ularni hayotga tatbiq etishdir. Bu yo‘nalishda maktab va oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at darslarining o‘rni beqiyos. Tasviriy san’at esa estetik qadriyatlarni yaratishning asosiy vositasidir. Inson chizilgan tasvir, ranglar uyg‘unligi, kompozitsiya, obraz orqali nafaqat go‘zallikni ko‘radi, balki uni his qiladi, baholaydi va undan zavqlanadi. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixiga nazar tashlasak, qadimdan estetik tarbiya xalq hayotida muhim o‘rin tutganini ko‘ramiz. Misol uchun, Samarqand va Buxorodagi me’moriy yodgorliklar, Registon majmuasi, Xivadagi Ichan qal’a, naqqoshlik va zargarlik san’atida aks etgan nozik did — xalqimizning estetik qarashlarining yuksakligidan dalolat beradi. Bugungi kunda ham tasviriy san’at orqali yoshlar qalbida go‘zallikni qadrlash, tabiatga, inson mehnatiga, tarixiy merosga hurmat ruhini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon ta’lim tizimida, xususan, san’at maktablarida, tasviriy san’at darslarida amalga oshiriladi. O‘quvchilar

rassomlik faoliyati orqali nafaqat rasm chizishni, balki badiiy tafakkurni, milliy ramzlarni, an’anaviy naqshlarni o‘rganadilar. Shu orqali ularning estetik didi, milliy g‘ururi shakllanadi. Tasviriy san’at yosh avlodni faqat estetik tarbiyalabgina qolmay, balki ularning ma’naviy olamini boyitadi. Milliy san’at asarlarini tomosha qilish yoki yaratish jarayonida inson o‘z millatiga, Vataniga, tarixiga bo‘lgan faxr tuyg‘usini his etadi. San’at darslari jarayonida o‘quvchilarga milliy naqshlar, xalq amaliy san’ati, tarixiy me’moriy obidalar haqida ma’lumot berish orqali ularning milliy o‘zlikni anglashiga zamin yaratiladi. Shu bilan birga, tasviriy san’at yoshlarni tinchliksevarlik, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, tabiatga mehr kabi universal insoniy qadriyatlarga yo‘naltiradi. San’at — bu tarbiya vositasi. U orqali jamiyatda madaniyatli, estetik tafakkurli, milliy g‘ururga ega avlod shakllanadi. Milliy o‘zlikni ifodalash san’atda turli uslublar orqali amalga oshiriladi: realizm, modernizm, abstraksionizm, dekorativ yo‘nalishlar va boshqalar. Ammo ularning barchasida milliy ruh va obrazlar saqlanib qoladi. Masalan, rassom Raxim Ahmedov, Chingiz Ahmarov, Roza Akramova, Jaloliddin Mirtojiyev kabi san’atkorlar o‘z asarlarida o‘zbek xalqining tarixiy, ma’naviy va estetik qadriyatlarini chuqur aks ettirgan. Ularning ijodida xalqona obrazlar, milliy liboslar, urf-odatlar, ona zamin manzaralari asosiy o‘rinda turadi. Zamonaviy tasviriy san’atda esa yangi texnologiyalar, raqamli grafika, multimedia imkoniyatlari orqali milliy g‘oyalarni ifodalash tendensiyasi kuchaymoqda. Bu esa milliy san’atni global madaniyat bilan uyg‘unlashtirish, lekin o‘zlikni yo‘qotmaslik imkonini beradi. Bugungi yosh rassomlar asarlarida ham o‘zbeklik, milliy qadriyatlar, ona yurt manzaralari, tarixiy qahramonlar obrazlari, xalqona naqshlar keng o‘rin olmoqda. Bu esa milliy o‘zlikning san’at orqali yangi avlod ongida mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. San’at asarlari xalqning tarixiy xotirasini, milliy qadriyatlarini, ma’naviy-ma’rifiy merosini o‘zida mujassamlashtiradi. Aynan shu jihat tasviriy san’atni yosh avlodni milliy g‘urur, vatanparvarlik, madaniy o‘zlik va estetik did ruhida tarbiyalashning samarali vositasiga aylantiradi. Inson san’at orqali nafaqat tashqi go‘zallikni, balki ichki ma’naviy uyg‘unlikni, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi estetik muvozanatni ham anglay boshlaydi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlab qolish, estetik qadriyatlarni rivojlantirish va ularni yoshlar ongiga singdirish dolzarb pedagogik hamda madaniy vazifa sifatida qaralmoqda. Shu ma’noda tasviriy san’atning ta’lim tizimidagi o‘rni beqiyosdir. Chunki u orqali shaxsning badiiy-estetik tafakkuri, ma’naviy ongi va milliy identifikatsiyasi chuqurlashadi.

Xulosa: Tasviriy san’at milliy o‘zlikni anglashning eng samarali vositalaridan biridir. U xalqning tarixini, urf-odatlarini, ruhiyatini, estetik qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazadi. Bugungi globallashuv jarayonida milliy san’atga tayanish, uni asrash va rivojlantirish milliy mustaqillikni mustahkamlashning muhim omilidir. Yosh avlodni milliy san’at ruhida tarbiyalash, ularning badiiy didini shakllantirish orqali jamiyatda ma’naviy barkamollikka erishish mumkin. Shu bois, tasviriy san’at faqat ijodiy yo‘nalish emas, balki millatning o‘zligini anglash va estetik qadriyatlarini mustahkamlovchi ijtimoiy-madaniy kuch sifatida qadrlanishi zarur.Tasviriy san’at insonning ichki olamini, tuyg‘ularini, milliy ruhini va dunyoqarashini ifoda etuvchi eng go‘zal vositalardan biridir. U orqali inson o‘z xalqining tarixini, urf-odatlarini, madaniyatini chuqur anglaydi va milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni o‘rganadi. San’at har bir millatning o‘ziga xosligini, madaniy darajasini, estetik tafakkurini aks ettiradi. Shu bois tasviriy san’at milliy o‘zlikni anglashda muhim ma’naviy omil hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar ongida milliy g‘urur, vatanparvarlik va estetik didni shakllantirishda san’atning o‘rni beqiyosdir. Tasviriy san’at asarlari insonni go‘zallikka oshno etadi, uni yomonlikdan yiroq, ezgulikka yaqin bo‘lishga undaydi. Bu jarayon orqali insonda estetik qadriyatlar, go‘zallikni his etish, nafislikni qadrlash

tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Milliy o‘zlikni anglash va estetik qadriyatlarni rivojlantirishda ta’lim muassasalarida tasviriy san’at fanini chuqur o‘qitish, milliy san’at namunalarini o‘rganish, yosh ijodkorlarni qo‘llab quvvatlash nihoyatda muhim. Chunki san’at orqali inson o‘zligini tanib, millatining ruhiy merosiga hurmat bilan qaraydi. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at — xalqning yuragi, millatning ruhi, jamiyatning ma’naviy ko‘zgusidir. U inson qalbida go‘zallikka muhabbat, milliy iftixor va barkamol shaxs bo‘lish istagini uyg‘otadi. Shu sababli, tasviriy san’atni rivojlantirish, uni ta’lim tizimiga keng joriy etish va yoshlar qalbida san’atga mehr uyg‘otish — milliy o‘zligimizni mustahkamlash va estetik qadriyatlarni yuksaltirishning eng muhim omillaridan biridir.

QO‘LLANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). LOYIHALAR METODI ORQALI TASVIRIY SAN'AT YO 'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. *ХАЛКАРО ИЛЬМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯЛАР*, *1*(1), 136-138.
2. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДИК ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ. *Международный междисциплинарный журнал по исследованиям и разработкам*, *11*(06).
3. Toyir ogli, B. F. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Journal of new century innovations*, *27*(5), 58-60.
4. Шодизода, М. А., Хасанович, К. К., и Тойир оглы, Б. Ф. (2019). Интерпретация произведений узбекских художников в пейзажных жанрах. *Think India Journal*, *22* (14), 10799-10803.
5. Toyir o‘g‘li, F. B. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (TASVIRIY SAN'AT). *Журнал инноваций нового века*, *27* (4), 113-117.
6. Bozorov, F. (2022). Ijodiy to‘garaklarda yoshlarni tasviriy san’atdan tavirlash malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi. *Science and Education*, *3*(8), 130-137.
7. Bozorov, F. (2023, December). Talabalarda ijodiy qobilyatni rivojlantirish va tadbirkorlikka yo ‘naltirishda to ‘garaklarning ahamiyati. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
8. Бозоров, Ф., и Байметов, Б. Б. (2023). Использование жанра натюрморт изобразительного искусства при организации групповых занятий для студентов высшего педагогического образования. *Европейский международный журнал педагогики*, *3*(04), 5-12.

TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNI MANZARA CHIZISHGA O‘RGATISH METODIKASI

[1]Bozorov Farxod Toyir o‘g‘li, [2]Qadamboyeva Shohida Qurbonnazar qizi, [3]Salomova Zahro Botir qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17400208

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni manzara chizishga o‘rgatishning metodik asoslari va amaliy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Manzara chizish orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, tabiatni kuzatish va tasvirlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Maqolada kuzatuv, bosqichma-bosqichlik, individual yondashuv kabi metodik tamoyillar va ularni amalda qo‘llash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, tayyorgarlik, eskiz chizish, rang berish va tafsilotlarni qo‘shish kabi bosqichlar batafsil yoritilgan. O‘quv jarayonidagi qiyinchiliklar va ularning yechimlari, shu jumladan motivatsiyani oshirish va turli materiallardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Ushbu metodika boshlang‘ich sinflardan yuqori sinflargacha qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, o‘quvchilarda estetik did, sabr-toqat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются методические основы и практические подходы к обучению рисованию пейзажей на уроках изобразительного искусства. В процессе рисования пейзажей развиваются творческие способности учащихся, навыки наблюдения и описания природы. Анализируются такие методические принципы, как наблюдение, постепенность, индивидуальный подход, а также методы их практического применения. Подробно рассматриваются этапы подготовки, выполнения эскиза, раскрашивания и детализации. Приводятся трудности, возникающие в процессе обучения, и пути их решения, включая рекомендации по повышению мотивации и использованию различных материалов. Данная методика может применяться с начальных до старших классов и способствует формированию эстетического вкуса, терпения и творческого мышления у учащихся.*

Abstract. *This article examines the methodological foundations and practical approaches to teaching students to draw landscapes in fine arts classes. Through landscape drawing, students' creative abilities, skills in observing and describing nature are developed. The article analyzes methodological principles such as observation, gradualism, individual approach and methods for their practical application. It also covers in detail stages such as preparation, sketching, coloring and adding details. Difficulties in the learning process and their solutions, including recommendations for increasing motivation and using various materials, are given. This methodology can be used from primary to higher grades and serves to form aesthetic taste, patience and creative thinking in students.*

Kalit so‘zlar: *manzara chizish, tasviriy san’at, ijodiy qobiliyat, estetik did, perspektiva, kompozitsiya, ranglar nazariyasi, kuzatuv, bosqichma-bosqich o‘qitish, individual yondashuv,*

akvarel texnikasi, eskiz chizish, tabiatni tasvirlash, o‘quvchilar motivatsiyasi, integratsiya, rassomlar ilhomi, portfolio yaratish, muvaffaqiyatli ta’lim.

Ключевые слова: *пейзажная живопись, изобразительное искусство, творческие способности, эстетический вкус, перспектива, композиция, теория цвета, наблюдение, поэтапное обучение, индивидуальный подход, акварельная техника, зарисовка, изображение природы, мотивация учащихся, интеграция, вдохновение художников, создание портфолио, успешное образование.*

Keywords: *landscape painting, fine arts, creative ability, aesthetic taste, perspective, composition, color theory, observation, step-by-step teaching, individual approach, watercolor technique, sketching, depicting nature, student motivation, integration, artists' inspiration, portfolio creation, successful education.*

Tasviriy san’at ta’limida manzara chizish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tabiatni kuzatish va tasvirlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Manzara (landshaft) chizish orqali bolalar ranglar, shakllar, kompozitsiya va perspektiva qonuniyatlarini o‘rganadilar. Ushbu maqolada tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni manzara chizishga o‘rgatishning metodik asoslari, bosqichma-bosqich yondashuvlar va amaliy maslahatlar ko‘rib chiqiladi. Metodika yosh guruhlariga qarab moslashtirilishi mumkin bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan tortib yuqori sinflargacha qo‘llaniladi. Manzara chizish o‘quvchilarda estetik didni, sabr-toqatni va tafakkurni rivojlantiradi. O‘qituvchi bu jarayonda nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki ijodiy fikrlashni ham rag‘batlantirishi kerak. Metodika asosida progressiv yondashuv yotadi: oddiy elementlardan murakkab kompozitsiyalargacha.

Asosiy metodik tamoyillar

Manzara chizishni o‘rgatishda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

1. **Kuzatuv va tahlil**: O‘quvchilarni tabiatni diqqat bilan kuzatishga o‘rgatish. Dars boshida real manzaralarni (masalan, bog‘, dala yoki shahar ko‘chalari) ko‘rish yoki fotosuratlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu orqali ular ranglarning o‘zgarishini, yorug‘lik va soyaning ta’sirini tushunadilar.
2. **Bosqichma-bosqichlik**: Chizish jarayonini oddiy bosqichlarga bo‘lish. Boshlang‘ich bosqichda eskiz chizish, keyin rang berish va nihoyat tafsilotlarni qo‘shish.
3. **Individual yondashuv**: Har bir o‘quvchining qobiliyatini hisobga olish. Ba’zilar uchun abstrakt manzaralar, boshqalar uchun realistik tasvirlar mos keladi.
4. **Materiallar va vositalar**: Qog‘oz, qalam, akvarel, guash yoki raqamli vositalar (planshetlar)dan foydalanish. Boshlang‘ich sinflarda oddiy qalam va rangli qalamlardan boshlash yaxshi.
5. **Integratsiya**: Manzara chizishni boshqa fanlar bilan bog‘lash, masalan, geografiya (turli iqlim zonalarini chizish) yoki adabiyot (she’riy tasvirlarni tasvirlash).

Bosqichma-bosqich o‘rgatish metodikasi

1. Tayyorgarlik bosqichi

- **Maqsad**: O‘quvchilarni mavzuga kirish va motivatsiya qilish.
- **Usullar**: Darsni suhbat bilan boshlash: "Manzara deganda nima tushunasiz? Qanday manzaralarni yoqtirasiz?" Fotosuratlar, video yoki virtual ekskursiyalarni ko‘rsatish.
- **Amaliy maslahat**: O‘quvchilarga oddiy savollar berib, ularni faol ishtirok etishga undash. Misol uchun, "Bu manzarada qanday ranglar ko‘p?" deb so‘rash.

2. Eskiz chizish bosqichi

- **Maqsad**: Kompozitsiya va perspektivani o‘rganish.
- **Usullar**: Perspektiva qonuniyatlarini tushuntirish: ufq chizig‘i, yaqin va uzoq ob’ektlarning o‘lchamlari. O‘quvchilarga oddiy eskiz chizdirish: tog‘lar, daraxtlar, daryo.
- **Texnikalar**: Qalam bilan chizish, chiziqlarning qalinligini o‘zgartirish orqali chuqurlik yaratish. Boshlang‘ich sinflarda shablonlardan foydalanish mumkin.
- **Xatolarni tuzatish**: O‘qituvchi har bir o‘quvchining ishini ko‘rib chiqib, maslahat beradi, masalan, "Ufq chizig‘ini yuqoriroq qo‘ying, shunda osmon kengroq ko‘rinadi."

3. Rang berish bosqichi

- **Maqsad**: Ranglar nazariyasini qo‘llash.
- **Usullar**: Issiq va sovuq ranglarni tushuntirish, masalan, quyosh botishi uchun qizil-sariq tonlar. Akvarel texnikasi: nam ustiga nam chizish yoki quruq cho‘tka usuli.
- **Amaliy maslahat**: O‘quvchilarga ranglarni aralashtirishni o‘rgatish. Misol: ko‘k va sariqdan yashil hosil qilish. Yorug‘lik va soya effekti uchun oq va qora ranglardan foydalanish.

4. Tafsilotlarni qo‘shish va yakunlash bosqichi

- **Maqsad**: Ishni to‘liq va ijodiy qilish.
- **Usullar**: Kichik elementlarni qo‘shish: qushlar, odamlar, bulutlar. O‘quvchilarga o‘z tasavvurlarini qo‘shishga ruxsat berish, masalan, fantastik manzara chizish.
- **Baholash**: Ishlarni guruhda muhokama qilish, ijobiy va konstruktiv fikrlar bildirish.

5. Baholash va takomillashtirish

- Dars oxirida o‘quvchilarning ishlarini ko‘rgazma qilish yoki portfolio yaratish.
- Keyingi darslarda xatolarni tuzatish va murakkabroq mavzular (masalan, mavsumiy manzaralar)ga o‘tish.

Qiyinchiliklar va yechimlar

- **Qiyinchilik**: O‘quvchilarning e’tibori tarqoq bo‘lishi mumkin. **Yechim**: Qisqa vaqtli topshiriqlar berish, masalan, 10 daqiqada eskiz chizish.
- **Qiyinchilik**: Materiallar yetishmasligi. **Yechim**: Tabiiy materiallardan (yaproq, tosh) foydalanish yoki raqamli dasturlardan (Paint yoki GIMP) foydalanish.
- **Qiyinchilik**: Motivatsiya pastligi. **Yechim**: Musobaqalar o‘tkazish yoki mashhur rassomlarning (masalan, Klod Mone yoki Ivan Shishkin) ishlarini ko‘rsatish.

Xulosa. Tasviriy san’at darslarida manzara chizishni o‘rgatish metodikasi o‘quvchilarning nafaqat texnik ko‘nikmalarini oshirishga, balki ularning ijodiy va emotsional salohiyatini ham yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi rahbar va ijodiy ilhom manbai sifatida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metodika tabiatning go‘zalligini, uning ranglari, shakllari va atmosferasini chuqurroq anglashga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarda estetik idrok va individual ijodiy uslubning shakllanishiga zamin yaratadi. Muntazam ravishda qo‘llaniladigan ushbu usullar o‘quvchilarning tasviriy san’at orqali o‘zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirib, ularning ijodiy dunyoqarashini kengaytiradi va tabiat bilan muhabbat aloqasini mustahkamlaydi. Amaliyotda ushbu metodlarni sinab ko‘rish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning nafaqat texnik jihatdan, balki hissiy va ijodiy jihatdan ham sezilarli yutuqlarga erishishini kuzatishlari mumkin. Ushbu yondashuvni sinchkovlik bilan joriy etish va ijodiy erkinlik bilan boyitish orqali har bir o‘quvchining o‘ziga xos ijodiy ovozi ochiladi va ularning san’atdagi muvaffaqiyatlari yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi.

QO‘LLANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). LOYIHALAR METODI ORQALI TASVIRIY SAN'AT YO 'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. *ХАЛКАРО ИЛЬМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯЛАР*, *1*(1), 136-138.
2. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДИК ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ. *Международный междисциплинарный журнал по исследованиям и разработкам*, *11*(06).
3. Toyir ogli, B. F. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Journal of new century innovations*, *27*(5), 58-60.
4. Шодизода, М. А., Хасанович, К. К., и Тойир оглы, Б. Ф. (2019). Интерпретация произведений узбекских художников в пейзажных жанрах. *Think India Journal*, *22* (14), 10799-10803.
5. Toyir o‘g‘li, F. B. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (TASVIRIY SAN'AT). *Журнал инноваций нового века*, *27* (4), 113-117.
6. Bozorov, F. (2022). Ijodiy to‘garaklarda yoshlarni tasviriy san’atdan tavirlash malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi. *Science and Education*, *3*(8), 130-137.
7. Bozorov, F. (2023, December). Talabalarda ijodiy qobilyatni rivojlantirish va tadbirkorlikka yo ‘naltirishda to ‘garaklarning ahamiyati. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
8. Бозоров, Ф., и Байметов, Б. Б. (2023). Использование жанра натюрморт изобразительного искусства при организации групповых занятий для студентов высшего педагогического образования. *Европейский международный журнал педагогики*, *3*(04), 5-12.

TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA RANG-TERAPIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISHNING INKLYUZIV TA’LIMDAGI SAMARASI

[1]Bozorov Farxod Toyir o‘g‘li, [2]Alimova Sevinch Abdurashid qizi, [3]Odiljonova Durdona Baxodir qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17400227

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim tizimida tasviriy san’at mashg‘ulotlarida rang terapiya elementlaridan foydalanish yoritib beriladi. Ranglarning bolalar psixologiyasi va hisiy holatiga ta’siri ilmiy jihatdan yondoshuvi aks ettirib beriladi, hamda maxsus ehtiyoji bor o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda tasviriy san’atning o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotlar davomida rang terapiya vositalaridan fodalanish o‘quvchilarda ijdkorlik, estetik did va hissiy muozanatni shakllantirishda xizmat qilishi aniqlanadi. Shuningdek tasviriy san’at darslarida inklyuziv yondashuvni amalga oshirishning samarali usullari hamda amaliy tavsiyalar keltiriladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается использование элементов цветотерапии в занятиях изобразительным искусством в инклюзивной системе образования. Уделяется внимание научному подходу к влиянию цветов на психологию детей и их эмоциональное состояние, а также показывается роль изобразительного искусства в поддержке творческой деятельности учеников с особыми потребностями. В ходе исследования выявлено, что использование средств цветотерапии способствует формированию у учеников инициативности, эстетического вкуса и эмоционального баланса. Кроме того, приводятся эффективные методы реализации инклюзивного подхода на уроках изобразительного искусства, а также практические рекомендации.*

Annotation. *This article discusses the use of elements of color therapy in visual arts activities within the inclusive education system. It reflects a scientific approach to the impact of colors on children's psychology and emotional state, as well as highlighting the role of visual arts in supporting the creative activities of students with special needs. The research identifies that the use of color therapy tools can serve to develop creativity, aesthetic taste, and emotional balance in students. Additionally, effective methods for implementing an inclusive approach in visual arts classes and practical recommendations are provided.*

Kalit so‘zlar: *Tasviriy san’at, psixologik, inkilyuziv, rang-terapiya, qo‘llab-quvvatlash, ijodiy rivojlanish, maxsus ehtiyojli bolalar.*

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, психологический, инклюзивный, цветотерапия, поддержка, творческое развитие, дети с особыми потребностями.*

Keywords: *Visual art, psychological, inclusive, color therapy, support, creative development, children with special needs.*

Insoniyat qadimdan san’at orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashga intilgan. Xususan, taviriy san’at inson ruhiyatini yengillashtirish, ichki kechinmalarni ifoda etish va jamiyat bilan

muloqot qilishning muhim vositasi bo‘lib kelgan. Ranglarning inson psixologiyasi ta’siri haqida ilk qarashlarni Sharq va G‘arb mutaffakkirlaridan Abu Ali ibn Sino ranglarning inson salomatligi va ruhiyatiga ta’siri haqida yozgan. Al-Farobiy esa san’atning tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyati haqida fikr bildirgan. Abu Rayhon Beruniy ranglarning tabiatdagi o‘rni va ularning inson ongiga ta’siri haqida izohlar bergan. G‘arb mutaffakkirlaridan Aristotel ranglarni tabiiy hodisa sifatida tahlil qilgan va ularni sezgi organlari orqali ruhiyatga ta’siri haqida yozgan. Platon san’at go‘zallik va estetik tarbiya inson ruhini poklaydi, degan qarashlarni ilgari surgan. Leonardo da Vinchi ranglarning uyg‘unligi va inson hissiyotiga ta’siri haqida amaliy va nazariy qarashlarni rivojlantirgan. J.V Gyote “Ranglar nazariyasi” asarida ranglarning ruhiy holat va inson kayfiyatiga ta’sirini ilmiy asoslab bergan.

XX asrda esa rang-terapiya alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi va psixologiya hamda pedagogika sohalarida qo‘llanila boshlandi. Bugungi kunda rang-terapiya elementlari inklyuziv ta’lim jarayonida, xususan, tasviriy san’at mashg‘ulotlarida keng qo‘llanilmoqda. Chunki maxsus ehtiyojli bolalarning ichki dunyosini ifoda etishda ranglardan foydalanish ularning ijodiy rivojlanishi, estetik didi va psixologik qo‘llab-quvvatlanishida samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Rang-terapiya (xromoterapiya) – bu ranglarning psixologik va fiziologik ta’siridan foydalanib, inson ruhiy holatini muvozanatlash, stressni kamaytirish va ijobiy kayfiyatni shakllantirish usuli hisoblanadi. Psixologlar fikriga ko‘ra, ranglar odamning nafaqat kayfiyatiga, balki xulq-atvoriga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan: 1. *Qizil rang* - faollik va energiya manbai, biroq ortiqcha bo‘lsa asabiylikni kuchaytirishi mumkin. 2. *Yashil rang* - tinchlantiruvchi va muvozanatlashtiruvchi ta’sirga ega. 3. Ko‘k rang - ishonch, osoyishtalik va qat’iyat hissini beradi. 4. *Sariq rang* - quvonch, ijodiy ilhom va optimizm uyg‘otadi. 5. *Oq rang* - tozalik va beg‘uborlik timsoli, bolalarda ishonch hissini mustahkamlaydi. Inklyuziv ta’lim – bu maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim jarayoniga qo‘shish, ularni teng huquqli sharoitida o‘qitish va tarbiyalash tizimidir. Bunday jarayonda tasviriy san’at mashg‘ulotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki tasviriy san’at: 1. O‘quvchilarga o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash imkonini beradi; 2. Ijtimoiy moslashuvga yordam beradi; 3. Noverbal muloqatni rivojlantiradi; 4. Estetik did va ijodiy salohiyatni shakllantiradi. Maxsus ehtiyojli bolalar ko‘pincha so‘z orqali o‘z his-tuyg‘ularini yetarli darajada ifodalay olmaydi. Shunday vaziyatda rangtasvir vositasida ular ichki dunyosini namoyon eta oladi.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida rang-terapiya elementlarini qo‘llash pedagogdan ijodkorlik va metodik yondashuvni talab qiladi. Quyida samarali usullar keltiriladi.

1. Erkin ijod mashqlari – o‘quvchilarga rangli bo‘yoqlar, qalam va markerlar berilib, erkin mavzuda rasm chizishga sharoit yaratiladi. Bu usul bolaning ichki dunyosini ochib berishga yordam beradi.
2. Ranglar orqali kayfiyat ifodalash – bolalarga “Bugun kayfiyatingni qaysi rang bilan tasvirlaysan?” kabi topshiriqlar beriladi. Bu metod psixologik holatni aniqlash va u bilan ishlash imkonini beradi.
3. Jamoaviy ijodiy ishlar – butun sinf birgalikda umumiy kompozitsiya yaratadi. Bu usul bolalarda hamkorlik, bag‘rikenglik va inklyuziv muhitda ijtimoiylashuvni rivojlantiradi.
4. Rang-terapiya mashg‘ulotlarini art-terapiya bilan uyg‘unlashtirish – haykaltaroshlik, kollaj yoki qo‘lda ishlash kabi faoliyat turlari ranglardan foydalanish bilan birgalikda yanada samarali natija beradi.

Rang-terapiyaning inklyuziv ta’limdagi samarasi: Rang-terapiya elementlarini tasviriy san’at mashg‘ulotlariga kiritish quyidagi natijalarni beradi.

1. Bolalarda hissiy muvozanatni tiklaydi va stressni kamaytiradi.
2. Ijodiy qobilyat va estetik didni rivojlantiradi.
3. Maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni ijtimoiy muhitga moslashtiradi.
4. O‘zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytiradi.
5. O‘quvchilar orasida bag‘rikenglik, hamkorlik va o‘zaro hurmatni shakllantiradi.

Xulosa: Rang-terapiya elementlarini tasviriy san’at mashg‘ulotlariga qo‘shish inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilar bilan ishlashning samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Ranglarning inson ruhiyati va hissiy olamiga ta’siri qadimdan olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, zamonaviy pedagogikada bu qarashlar amaliy metodlarga aylangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at darslarida rang-terapiyadan foydalanish maxsus ehtiyojli bolalarda o‘zini ifoda etish, ijodiy tafakkur, estetik zavq olish va jamiyatga moslashuv jarayonlarini tezlashtiradi. Shu bilan birga, bunday mashg‘ulotlar umumiy sinf muhitida o‘quvchilar o‘rtasida bag‘rikenglik, hamkorlik va o‘zaro hurmat tuyg‘ularini shakillantirishga xizmat qiladi. Demak rang-terapiya nafaqat inklyuziv ta’lim ehtiyojlarini qondirishga, balki barcha o‘quvchilarning estetik va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan metodlardan biridir.

QO‘LLANILGAN ADABIYOTLAR

6. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). LOYIHALAR METODI ORQALI TASVIRIY SAN'AT YO 'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. *ХАЛКАРО ИЛЬМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯЛАР*, *1*(1), 136-138.
E. Karimova Psixologiya ranglarning ta’siri.-Toshkent: O‘zbekison Milliy universiteti nashriyoti, 2021.
7. Toyir o‘g‘li, B. F. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДИК ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ. *Международный междисциплинарный журнал по исследованиям и разработкам*, *11*(06).
8. Toyir ogli, B. F. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Journal of new century innovations*, *27*(5), 58-60.
9. Шодизода, М. А., Хасанович, К. К., и Тойир оглы, Б. Ф. (2019). Интерпретация произведений узбекских художников в пейзажных жанрах. *Think India Journal*, *22* (14), 10799-10803.
10. Toyir o‘g‘li, F. B. (2023). IJODIY TOGARAKLAR ORQALI TALABA-YOSHLARDAGI TADBIRKORLIK KONIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (TASVIRIY SAN'AT). *Журнал инноваций нового века*, *27* (4), 113-117.
11. Bozorov, F. (2022). Ijodiy to‘garaklarda yoshlarni tasviriy san’atdan tavirlash malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi. *Science and Education*, *3*(8), 130-137.
12. Bozorov, F. (2023, December). Talabalarda ijodiy qobilyatni rivojlantirish va tadbirkorlikka yo ‘naltirishda to ‘garaklarning ahamiyati. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).

UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN’AT VA CHIZMACHILIK FANLARI O‘QITILISHINING MUHIM O‘RNI

Djabborov Dilshod Turdiqulovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta oqituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400253

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida tasviriy san’at va chizmachilik fanlarini dars soatlarini ko‘paytirish zarurati va o‘qitishga innovatsion yondashuv yo‘llari, rivojlangan davlatlarning tajribalarini nazarda tutgan holda tasviriy san’at va chizmachilik fani tizimini takomillashtirishning ijtimoiy pedagogik tarixi va zamonaviy asoslari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

Kalit so‘zlar*. o‘quv qo‘llanma, tasviriy san’at, jarayon, amaliy ko‘nikma, san’at xonasi.*

Аннотация. *В статье представлены взгляды на необходимость увеличения часов занятий изобразительным искусством и черчением в общеобразовательных школах, пути внедрения инновационных подходов в преподавание, социально-педагогическая история и современные основы совершенствования системы изобразительного искусства и черчения с учетом опыта развитых стран.*

Ключевые слова: *учебник, изобразительное искусство, процесс, практические навыки, изостудия.*

Abstract*. This article presents views on the need to increase the number of hours spent on fine arts and drawing in comprehensive schools, ways to implement innovative approaches to teaching, and the socio-pedagogical history and current foundations for improving the fine arts and drawing system, taking into account the experience of developed countries.*

Keywords: *textbook, fine arts, process, practical skills, art studio.*

Umumiy ta'lim sifatini oshirish. XXI asr, sun`iy idrok hayotimizga kirib kelayotgan davrda, rivojlanayotgan mamlakatlarda mutaxassislarni tayyorlash va ularga ta’lim berish jarayoniga o‘qitishning yangi, zamonaviy uslub va vositalaridan samarali foydalanilmoqda. O‘qituvchi bilim olishning yagona manbai bo‘lib qolishi kerak emas, balki o‘quvchilar uchun mustaqil ta’limning tashkilotchisi, maslahatchisi, o‘quv jarayonining boshqaruvchisi bo‘lishi lozim. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi darslari umumiy ta'lim sifatini oshirishda yordam beradi. Tasviriy san'at asarlari orqali turli madaniyatlar, tarixiy davrlar va jamiyatning ijtimoiy masalalari haqidagi bilimlarni oshirish mumkin. Bu esa, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ko‘proq dars soatlari, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifoda etish, umumiy ta'lim sifatini oshirish va estetik ta'limni qo‘llab-quvvatlashda yordam beradi. O‘z fikrlarini ifoda etish, - o‘z ijodiy uslubini shakllantirish va estetik qadriyatlarni tushunishda va tushintirishida muhim ahamiyatga egadir. San'at asarlari orqali turli madaniyatlar, tarixiy davrlar, jamiyatlar, ijtimoiy masalalari haqidagi bilimlarni oshiradi. Bu esa, bolalarning dunyoqarashini kengaytirib, yod g‘oyalarga ko‘r-ko‘rona qo‘shilmasdan, oldin o‘ylab ko‘rishga va tahlil qilishiga yordan beradi.

Stressni yo‘qotish va ruhiy yaratuvchanlik. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi dars soatlari ko‘paytirilsa, - bu hozirgi paytda o‘quvchilar o‘rtasida ko‘p uchraydigan stress

holatlarini oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu ularda mustaqil fikrlash, ijod qilish, o‘z qobiliyatini anglash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Tasviriy san'at bolalar uchun muhim bir chiqish yo‘li bo‘lib, ularga o‘z ruhiy his-tuyg‘ularini ifoda etish imkonini beradi. O‘qish jarayonidagi bolalarda uchraydigan stressni kamaytirish uchun tasviriy san'at darslarini ko‘paytirish samarali natija beradi. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi darslari nafaqat individual rivojlanish, balki jamoaviy ish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Darslarni zamonaviy raqamli tizimlarda birgalikda olib borish, - bu loyihalar asosida jamoaviy ishlash, o‘quvchilar hamjihatligini o‘rgatadi. Yana tasviriy san'at va muhandislik grafikasi darslari o‘quvchilarga nafaqat turli texnikalarni nafaqat o‘rganish, balki kelajakdagi buyuk yaratuvchiga ham asos solsa ajab emas. Chunki, hammaga ma`lum, barcha yaratiladigan har qanday “yangilik”ni, - albatta avvalo tasviri yaratiladi.

Metodik uslublardan foydalanish. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi darslari o‘quvchilarga o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini so‘zsiz, ya`ni tasvirda ifoda etish imkoniyatini beradi. Muhandislik grafikasi (chizmachilik) darslari amaliy jarayonlar va albatta zamonaviy raqamli uslubda olib borilsa, ertangi kunda yoshlarni hayotda o‘z o‘rnilarini topishda katta yordam beradi. Turli usullarlar, umumiy ta'lim sifatini oshirish va estetik ta'limni qo‘llabquvvatlashda muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Agar biz tasviriy san’at va muhandislik grafikasi dars mashg‘uloti, ya’ni 45 minutli vaqt ichida barcha imkoniyat, shart-sharoit, vosita, didaktika, metodik uslublardan foydalanib, kafolatlangan natija uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning barchasi tasviriy san’at darslarining pedagogik texnologiyasi bo‘ladi.

Madaniy va milliy identitetni mustahkamlash. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlari nafaqat chizish ko‘nikmasini beradi, balki o‘quvchilarni o‘z milliy qadriyatlari, milliy san’atimiz an’analari va tarixiy merosi bilan yaqindan tanishtiradi. Ayniqsa, o‘zbek xalqining boy madaniy merosi — naqshlar, miniatyura san’ati, hunarmandchilik, xalq amaliy san’ati va tarixiy obidalarni o‘rganish orqali o‘quvchilar o‘zini millatning ajralmas bir qismi sifatida his qilishni boshlaydi. Bu quyidagi jihatlar orqali amalga oshadi:

-Milliy naqshlar va ramzlar – darslarda o‘quvchilar doira, islimiy, girih naqshlar, xalq amaliy san’ati turlarini o‘rganib, ularni chizish orqali milliy o‘ziga xoslikni chuqur anglaydilar va asraydilar.

-Tarixiy obrazlar – Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy va albatta yaqin asrimizdagi kabi tarixiy siymolar obrazlarini tasvirlash orqali yoshlar o‘z tarixiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

-Tarixiy obidalarimiz orqali yurt go‘zalligini tasvirlash (masalan, Registon maydoni, Ichan qal’a, Chorvoq tabiati) yosh avlodda vatanparvarlik, faxr va iftixor

tuyg‘ularini shakllantiradi. Bu jarayonlar ta’limning faqat bilim emas, balki tarbiya

berishdagi rolini kuchaytiradi. Tasviriy san’at va muhanslik fanlari orqali yoshlar nafaqat tasvirlaydi yoki chizadi, balkim milliy o‘zligini anglaydilar va qadrlaydilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maktablarimizda tasviriy san’at va muhandislik grafikasi darslarining ajratilgan soatlarni qaytadan o‘ylab ko‘rish va qaytadan ko‘rib chiqish, - bu hozirgi globallashuv davrida eng muhimi bo‘lgan inson omiliga, ya`ni bilimli, vatanparvar, yaratuvchanlik qobiliyati yuqori boladigan yoshlarimizga bo‘lgan e`tiborlarimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Karimov, I.A. "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch", Toshkent: Ma’naviyat, 2008. (Milliy qadriyatlar va ma’naviy tarbiya haqida asosiy manba)

2. 2.Hasanov, N. "San’atshunoslik asoslari", Toshkent: Fan, 2017. (O‘zbekiston san’at tarixi va nazariyasi haqida umumiy tushuncha)
3. 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-sonli qarori, 2018-yil 14-iyul "O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi".
4. 4.G‘ulomov, A., Raximov, Z. "Tasviriy san’at metodikasi", Toshkent: O‘qituvchi, 2019. (Maktabda rasm darslarini tashkil qilish bo‘yicha amaliy qo‘llanma)
5. 5.O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. "Tasviriy san’at fani o‘quv dasturi (1–9-sinflar uchun)", Toshkent, 2021.

TASVIRIY SAN’AT VOSITASIDA TALABALARNING FALSAFIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Doniyorova Maftuna Saitmurot qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti, “Tasviriy san’at” yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400261

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning falsafiy tafakkurini shakllantirishda tasviriy san’at vositalaridan foydalanish masalasi yoritilgan. Maqolada san’atning ta’lim jarayonidagi o‘rni, obrazli idrok va falsafiy fikrlash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, san’at asarlari orqali talabalarni chuqurroq mulohaza yuritishga undash, estetik zavq uyg‘otish va dunyoqarashni kengaytirishga qaratilgan metodlar ko‘rib chiqiladi.Tadqiqotda tahlil, taqqoslash, suhbat-munozara hamda kreativ yondashuv kabi metodlarning samaradorligi asoslab beriladi. Natijada tasviriy san’at vositasida talabalarning falsafiy tafakkurini rivojlantirish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali ekanligi ta’kidlanadi. Maqola pedagoglar va san’at sohasi mutaxassislari uchun foydali ilmiy-uslubiy material sifatida xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Tasviriy san’at, falsafiy tafakkur, estetik idrok, ijodiy fikrlash, amaliy mashg‘ulot metodlar, interfaol metodlar, ta’lim jarayoni, san’at vositalari.*

Abstract: *This article examines the issue of using visual art tools in the development of students’ philosophical thinking. It analyzes the role of art in the educational process and the interrelation between figurative perception and philosophical reasoning. In addition, the article discusses methods aimed at encouraging students to think more deeply, evoking aesthetic enjoyment, and broadening their worldview through works of art. The study substantiates the effectiveness of such methods as analysis, comparison, dialogue-discussion, and creative approaches. As a result, it is emphasized that the development of students’ philosophical thinking through visual arts is effective not only from a theoretical perspective but also from a practical one. The article may serve as a valuable scientific and methodological resource for educators and specialists in the field of art.*

Keywords: *Visual arts, philosophical thinking, aesthetic perception, creative thinking, , interactive methods, practical training methods, student worldview, educational process, art tools.*

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – shaxsni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashli qilib tarbiyalashdir. Talabalarda ilmiy dunyoqarash bilan bir qatorda falsafiy tafakkurni shakllantirish ham zaruriy jarayon sifatida qaralmoqda. Chunki falsafiy tafakkur insonning nafaqat bilim darajasini, balki hayotga bo‘lgan qarashini, dunyoni idrok etish qobiliyatini, ijtimoiy munosabatlarda o‘zini tutish madaniyatini ham belgilab beradi.

Falsafiy tafakkur insonni mavjud voqelikni teran anglashga, hayotiy muammolarga kengroq nuqtai nazardan qarashga undaydi. Bu tafakkur turi talabalarni turli qarashlarni solishtirishga, chuqur mulohaza yuritishga, asosli xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Shu sababli

falsafiy tafakkurni shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda san’atning, ayniqsa, tasviriy san’atning o‘rni beqiyosdir. San’at inson tafakkuriga estetik zavq bag‘ishlaydi, obrazli idrokni rivojlantiradi, voqelikni boshqacha ko‘rishga undaydi. Tasviriy san’at asarlarida insoniyat tarixiy tajribasi, qadriyatlari, ma’naviy izlanishlari mujassam bo‘ladi. Talaba ushbu asarlarni kuzatar ekan, nafaqat chiroyli obrazlarni ko‘radi, balki ularning ichki mazmuni, ramziy ma’nosi haqida o‘ylaydi. Shu orqali unda falsafiy savollar paydo bo‘ladi, javob izlash ehtiyoji yuzaga keladi.

Tasviriy san’at va ta’lim jarayoni

Ta’lim jarayonida tasviriy san’at vositalaridan foydalanish talabalarning bilim olish jarayonini qiziqarli, samarali va chuqurroq qiladi. Rasm, haykal, rangtasvir yoki grafik asarlarni tahlil qilish ularni nafaqat badiiy estetik jihatdan baholash, balki falsafiy mazmunda izohlash imkonini beradi. Masalan, tarixiy mavzudagi kartinani ko‘rib, talabalar o‘sha davr voqealari, ijtimoiy muammolar va ularning bugungi kundagi o‘xshashliklari haqida o‘ylashga majbur bo‘ladilar. Shuningdek, san’at asarlarini talqin qilish jarayonida talabalar o‘z fikrlarini asoslab berishga, boshqalar bilan munozara qilishga o‘rganadilar. Bu esa ularda mantiqiy fikrlashni, tahlil qilish ko‘nikmalarini, turli qarashlarga nisbatan bag‘rikenglikni rivojlantiradi.

Tasviriy san’at vositasida falsafiy tafakkurni shakllantirish bir qancha metodlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Amaliy mashg‘ulot metodlarining turlari va ularning ta’siri[34]

Amaliy mashg‘ulot turi	Jarayon mazmuni	Talabaga ta’siri
Chizish va modellashtirish	Obraz va ramzlar orqali falsafiy g‘oyani ifodalash	Ijodiy fikrlash, estetik didni rivojlantirish
Ramziy topshiriqlar	Talabaning ichki qarashlarini ramz orqali aks ettirish	Mustaqil dunyoqarash va falsafiy mushohada
Muzey va ko‘rgazmalar	Asarni joyida idrok qilish va tahlil qilish	Falsafiy tushunchalarni real san’at namunalari bilan bog‘lash

Tahlil va taqqoslash – talabalar san’at asarini ko‘rib, uning badiiy shakli va mazmunini tahlil qiladilar, boshqa asarlar bilan solishtiradilar. Bu jarayonda ular o‘xshashlik va farqlarni aniqlash orqali umumiy xulosalarga keladilar.

Suhbat va munozara – san’at asari asosida o‘tkazilgan suhbat talabalarni fikr almashishga, turli nuqtai nazarlarni himoya qilishga undaydi. Bu esa falsafiy tafakkur uchun zarur bo‘lgan mantiqiy asoslash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ijodiy yondashuv – talabalarning o‘zlari san’at asarlari yaratishi (rasm chizish, eskiz tayyorlash) ularni ijodiy fikrlashga, o‘z g‘oyalarini ifoda etishga rag‘batlantiradi. Bu jarayon falsafiy savollarga shaxsiy yondashuvni shakllantiradi.

Interfaol metodlar – multimedia vositalaridan foydalanish, virtual ko‘rgazmalar tashkil etish, san’at va falsafa bog‘liqligini zamonaviy texnologiyalar orqali namoyish etish talabalarning qiziqishini oshiradi.

[34] Sattar G., Rustemova S., Nebessayeva J. Socially Interactive Methods and Digital Technologies in Art Education: Developing Creative Thinking in Students During Art Classes [Elektron manba]. — Open Education Studies, 2025. — DOI: 10.1515/edu-2025-0096

Mustaqil ijod va refleksiya usullari talabalarni san’atni shaxsiy kechinmalar hamda o‘z tajribasi orqali idrok etishga yo‘naltiradi. Talabalarga san’at asaridan ilhom olib falsafiy esse, referat yoki ijodiy matn yozish topshirig‘i berilishi, ularning dunyoqarashini yanada boyitadi. Bu jarayonda ular san’atni faqat tahlil qilish bilangina cheklanmay, balki uni o‘z his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashtiradi. Hissiyotlarni falsafiy nutq orqali ifodalash esa talabani chuqurroq fikrlashga, tafakkur doirasini kengaytirishga undaydi. Mazkur jarayonning asosiy ko‘rinishlari ham ana shunda namoyon bo‘ladi.

Mustaqil ijod va refleksiyaning asosiy ko‘rinishlari[35]

Mustaqil ish turi	Jarayon mazmuni	Talabaga ta’siri
Falsafiy esse	San’at asaridan ilhomlanib esse yozish	Falsafiy mushohada, yozma fikrlash ko‘nikmasi
Referat va ijodiy yozuvlar	San’at va falsafani bog‘lab yozish	Mustaqil ilmiy-ijodiy yondashuv
Shaxsiy refleksiya	O‘z hissiyotlarini falsafiy tilda ifodalash	O‘zini anglash, ichki dunyo bilan muloqot

Xulosa qilib aytganda, amaliy mashg‘ulotlar, innovatsion va interfaol yondashuvlar hamda mustaqil ijodiy topshiriqlar talabalarda san’atni chuqurroq idrok etish, uni falsafiy nuqtai nazardan tushuntirish va eng asosiysi, mushohada yuritish malakasini shakllantiradi. Bu usullarning uyg‘un ravishda qo‘llanishi natijasida talabalar nafaqat estetik didni, balki falsafiy tafakkurni ham yuqori darajada rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Yuqoridagi metodlar orqali talabalarda nafaqat estetik idrok, balki mustaqil va falsafiy fikrlash ham rivojlanadi. Ular voqelikni biryoqlama emas, balki turli qirralardan baholashni o‘rganadilar. San’at asarlari ularga insoniyat tarixi, madaniyati, qadriyatlari haqida chuqurroq tasavvur beradi.Bundan tashqari, san’at vositalari yordamida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar ham mustahkamlanadi. Chunki har bir san’at asari o‘zida insoniylik g‘oyalarini, ezgulik va go‘zallik timsollarini mujassam etadi. Demak, tasviriy san’at vositasida talabalarning falsafiy tafakkurini shakllantirish – zamonaviy ta’limda muhim o‘rin egallaydigan masala hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham samarali natija beradi. San’at asarlarini o‘rganish va tahlil qilish talabalarni mustaqil, keng dunyoqarashli, ijodkor va teran fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo‘nalishda o‘qituvchilar tomonidan turli metodlardan foydalanish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Sattar G., Rustemova S., Nebessayeva J. Socially Interactive Methods and Digital Technologies in Art Education: Developing Creative Thinking in Students During Art Classes [Elektron manba]. — Open Education Studies, 2025. — DOI: 10.1515/edu-2025-0096
2. Mahgoub Y. M., Ahmed M. K. Enhancing Students’ Education and Learning Via the Teaching of Art Education [Elektron manba]. — Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2022. — DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S08

[35] Mahgoub Y. M., Ahmed M. K. Enhancing Students’ Education and Learning Via the Teaching of Art Education [Elektron manba]. — Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2022. — DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S08

KULOLCHILIK MASHG‘ULOTLARIDA BADIIY LOYIHALASH VOSITASIDA TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH

[1]Komiljon Gulyamov, [2]Azizbek Rahimov
[1]Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc), [2]Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400272

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy loyihalash usuli kulolchilik san’atini o‘rgatishda talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishning eng samarali usuli sifatida e’tirof etiladi. Muallif tomonidan etuk mahalliy va chet el olimlarining ilmiy tadqiqotlari o‘rganilib, taxlil qilingan. Shuningdek, badiiy loyihalash innovatsion, ijodiy faoliyat ekanligi ta’kidlangan.*

Аннотация. *В статье рассматривается метод художественного проектирования как наиболее эффективный способ развития пространственного воображения учащихся при обучении искусству керамики. Автором изучены и проанализированы научные исследования ведущих отечественных и зарубежных учёных. Подчеркивается, что художественное проектирование – это инновационная, творческая деятельность.*

Abstract. *This article recognizes the artistic design method as the most effective way to develop students' spatial imagination in teaching the art of ceramics. The author has studied and analyzed the scientific research of mature domestic and foreign scientists. It is also emphasized that artistic design is an innovative, creative activity.*

Kalit so‘zlar: *badiiy loyihalash, badiiy kulolchilik, fazoviy fikrlash, loyihalash usuli.*

Ключевые слова: *художественное проектирование, художественная керамика, пространственное мышление, метод проектирования.*

Keywords: *artistic design, artistic pottery, spatial thinking, design method.*

Badiiy loyihalash madaniyati bugungi kunda uzluksiz ta’lim amaliyotining ko‘plab yo‘nalishlariga kiritilgan bo‘lib, bu birinchi navbatda mutaxassislarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirishga qaratilgan ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish bilan bog‘liq. Yangi davlat ta’lim standartlari sharoitida badiiy loyihalash yetakchi o‘rinni egallaydi. Xususan, bu amaliyot o‘quv jarayonida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida mashg‘ulotlarning faol va interaktiv shakllaridan o‘quv jarayonida samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv insonparvarlik shaxsiga yo‘naltirilgan yo‘nalishga o‘tish, insonning muhim kuch, qobiliyat va iste’dodlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini anglash bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy ta’lim tizimining maqsadlarini o‘zgartirish bilan belgilanadi.

O‘quv rejasi doirasida talabalarga integratsiyalashgan ta’lim berish va fanlararo aloqa ta’lim jarayonini o‘zgartiradi, uni maqsadli hamda yanada samarali qiladi. Fanlarning uzluksizligi va ular orasidagi uzviy aloqalar ijodiy fikrlash hamda o‘tmish an’analar asosida mukammal shakllarni loyihalash va badiiy bezash ko‘nikmalarini rivojlanishini ta’minlaydi [2, 111-b.].

Bo‘lajak mutaxassislarning nazariy va amaliy tayyorgarligi talabalar faoliyatining turli shakllarida amalga oshirilib, mazmunli va kasbiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Oliy ta’lim

muassasasi bitiruvchilarining malakaviy tavsiflarida amaliy bezak san’atida badiiy loyihalash jarayonida inson faoliyatining turli sohalari – san’at, loyihalash, texnologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya yutuqlarini birlashtirgan va badiiy-estetik jihatdan mukammal, sifatli, noyob mahsulotlarni yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda badiiy kulolchilikda loyihalashning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning materiali moddiy emas, ramziy shaklga ega. Bu loyihalash obyektini modellashtirish nuqtai nazaridan badiiy loyihalashni aqliy faoliyat jarayoni sifatida ko‘rib chiqishga asos bo‘ladi. Loyihalash faoliyati innovatsion, ijodiy faoliyatlar sirasiga kiradi, chunki u haqiqatni o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u birlashtirilishi, o‘zlashtirilishi va takomillashtirilishi mumkin bo‘lgan texnologiya asosida quriladi. Badiiy kulolchilik amaliy bezak san’ati, shuningdek, dizayn va mahobatli bezak san’ati turlaridan biri ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Badiiy kulolchilik» tushunchasi jamoaviy atamaning ma’nosiga ega bo‘ldi, chunki ishlab chiqarish texnologiyasining umumiyligi va chinni, fayans, mayolika, terakota va boshqa kulolchilik buyumlaridagi mahsulotlar massasining tarkibi ularni bir guruhga birlashtiradi. Ularning barchasi loydan yasaladi, pishirish jarayonidan o‘tadi va aksariyat hollarda bezatish jarayoni ham o‘xshash texnikaga ega. Shuni ta’kidlash joizki, loy navlarining har biri o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, buyumning tashqi ko‘rinishidan ham ajratib turadi [7].

Badiiy kulolchilik san’atining o‘ziga xos xususiyatlarini va uni qanday loyihalashtirishni tushunish uchun turli manbalar tahlil qiindi. Turli xil san’at turlari bilan bog‘liq bo‘lgan mahsulot va asarlar tabiati, loyihalash uslubi, funksiyalari bilan ular badiiy kulolchilikdan prinsipial jihatdan farq qiladi.

Mualliflar A.A.Xakimov, D.V.Tashxodjayeva, M.K.Raximov, S.SH.Aliyeva, Sh.S.Toshxodjayev, X.T.Umarov, A.I.Avgustinik, L.F.Akunova, A.I.Zaxarov, V.A.Krapivin, G.YE.Lukich, I.I.Moroz, D.Bubiko, X.Kruz, R.Doloros, X.Chavarra tomonidan kulolchilik ishlab chiqarish bo‘yicha materialshunoslik va texnologiya bo‘yicha ixtisoslashgan adabiyotlarda kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish, badiiy kulolchilikning rivojlanish tarixi, kulolchilik xom ashyosining har xil turlari va uni boyitish usullari, buyumlarni loyihalash asosida ta’mirlash jarayonlari, mahsulotlarni bezash usul va yo‘llari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar mavjud.

Xususan, S.SH.Aliyeva tomonidan fanlararo yondashuv asosida tarixiy, texnologik, badiiy, madaniy-diniy, madaniyatshunoslik omillarini hisobga olgan holda, IX–XXI asr boshidagi O‘zbekiston sirlangan kulolchiligining asosiy rivojlanish bosqichlari va badiiy xususiyatlarini, hunarmandchilikning ushbu turidagi usul va uslublarini aniqlash borasida ilmiy-tadqiqot olib borilgan [1, 12-b.].

Badiiy kulolchilikda loyihalash uslubi o‘quv jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik va ishlab chiqarish amaliyotlari davomida talabalar kulolchilik mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish sharoitida barcha talablar va badiiy loyihalash bosqichlari bilan batafsil tanishadilar, zero bu talablarning o‘quv va ijodiy faoliyat jarayonida muhim hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasida badiiy kulolchilikni o‘rgatishda badiiy loyihalashni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

badiiy loyihalashning an’anaviy va yangi usullaridan samarali foydalanish, loyihalash vaziyatlarini o‘rganish strategiyasi va usullarini tanlash, yangi g‘oyalarni izlash, muammoning tuzilishini o‘rganish, baholash uslublari;

badiiy loyiha, dastur maqsadlarini shakllantirish, muammolarni hal qilish;

maqsadlarga erishish mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, ularning o‘zaro munosabatlarining tuzilishini yaratish;

faoliyatning estetik va axloqiy tomonlarini hisobga olgan holda muammolarni hal qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

badiiy loyihalarni stilistik yechimining umumlashtirilgan variantlarini ishlab chiqish, ularni tahlil qilish, badiiy loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirish;

konstruktiv, texnologik, badiiy-uslubiy, iqtisodiy va boshqa parametrlarni hisobga olgan holda mahsulotlarning badiiy loyihalarini ishlab chiqish;

yangi mahsulotlar va badiiy loyihalarni ishlab chiqishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Amaliy bezak san’ati rassomini tayyorlash tizimida «Badiiy kulolchilikda loyihalash» fani umumta’lim va umumbadiiy sikl fanlari tomonidan shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalarni birlashtiradi. Loyihalash faoliyatining o‘ziga xosligi, o‘zlashtirish jarayonida talabaning fikrlashiga alohida talablarni qo‘yadi.

Aynan ushbu san’at turining o‘ziga xosligi kulol-rassom kasbiy tafakkurining rivojlanishi va shakllanishidagi xususiyatini belgilaydi. Kulol-rassomning innovatsiya qobiliyatiga ta’sir etuvchi muhim fazilatlaridan biri uning fazoviy tafakkurining yuqori darajada rivojlanganligida.

Buyumning shakli ustida ishlayotgan kulol-rassom o‘zining oldida turgan badiiy loyihalash vazifalarini hal qilishi uchun mahsulot shakli mazmunli, qulay bo‘lishi zarur. Shuningdek, buyum ishlab chiqarish texnologiyasi talablariga javob berishi, go‘zallik va qulaylik g‘oyalariga mos kelishi alohida ahamiyat kasb etadi. G‘oyani izlash bosqichlari modelning eskiz, qoralama va sxemalarida qayd etiladi, ulardan eng yaxshilari tanlanadi so‘ng batafsil ishlab chiqiladi. Izlash ikki jihatdan – funksional va shakl jihatidan amalga oshiriladi. Funksional tahlilning maqsadi – mahsulot maqsadining uning funksiyasiga muvofiqligini aniqlash. Shaklni tahlil qilish esa uning tuzilish xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi; hajmli-fazoviy tuzilish, nisbat, mahsulot shkalasi tahlil qilinadi. Kompozitsion shakllantirish usullari loyihalash obyektiga obrazli yaxlitlikni yetkazish uchun mo‘ljallangan. Ammo bu sifat nafaqat kompozitsion vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish orqali erishiladi – masalan, mutanosiblik, uning elementlarining ifodali ritmi, dinamikasi yoki statik shakli, simmetriya-assimetriya, kontrast-nuans va boshqalar. Biror narsaning obrazini yaxlitlik, to‘liqlik shakliga moslashishini ta’minlaydi [5].

Badiiy ta’lim nuqtai nazaridan badiiy loyihalash sizga shaklni hajmli-fazoviy tashkil etish qonuniyatlarini, emotsional-aqliy tarkibni cheklangan vositalar bilan o‘tkazish tamoyillarini o‘zlashtirish, obrazli va fazoviy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

Ma’lumki, bir xil o‘quv sharoitida bo‘lgan turli talabalar uchun fazoviy tafakkurni rivojlantirish bir xil bo‘lmaydi. Bu fazoviy tafakkur tarkibida o‘rganish ta’sirida notekis rivojlanayotgan komponentlar mavjudligidan dalolat beradi. Ayniqsa, ushbu komponentlarni o‘rganish qiziqish uyg‘otadi. Ularni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar aqliy rivojlanishning haqiqiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ular aqliy rivojlanishning individual shart-sharoitlarini hisobga olgan holda bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonida shakllanadigan tafakkur tarkibidagi o‘sha yangi shakllanishlarni aks ettiradi.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, talabalarda fazoviy tafakkurning muvaffaqiyatli rivojlantirishining muhim omillaridan biri bu professor-o‘qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyatidir. Shuningdek, bu jarayonda talaba shaxsiyatining shakllanishi quyidagi

tamoyillar tufayli amalga oshirilishi maqsada muvofiq: faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, talabaning o‘zini o‘zi boshqarishga qodirligi, ya’ni ta’lim trayektoriyasini tanlashi.

Hozirga kelib loyihalash uslubiga murojaat qilish, avvalambor, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, uni rivojlanish muammolarini ko‘rib chiqishga imkon berganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihalash uslubi talaba manfaatlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish tadqiqot faoliyatini rag‘batlantiruvchi vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi va aniq natijalarda o‘z aksini topadi. D.Dyui bunga quyidagicha ta’rif bergan: «muammo fikrning maqsadini belgilaydi, maqsad esa fikrlash jarayonini boshqaradi» [6, 221 -b.].

Loyihalash usuli asosida o‘qitishni tashkil etish masalalari rus olimlari P.P.Blonskiy, M.Y.Buxarkina, V.V.Guzeyev, Ye.S.Polat, N.Y.Selevko va chet el olimlari D.Dyui, V.Kilpatrik, M.Noll, R.Simson va boshqalar tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish loyiha ustida ishlashning ajralmas qismi bo‘lib, turli o‘qitish strategiya va uslublari bilan samarali ta’lim muhitini yaratish va yuqori fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga turtki bo‘ladi. Loyihalash usuli murakkabligi, muammoga yo‘naltirilganligi tufayli murakkab va zarur didaktik muammolarni hal qilishning eng maqbul usuli hisoblanadi. Binobarin, talaba juda murakkab aqliy vazifalarni mustaqil ravishda yakka o‘zi yoki sheriklari bilan birgalikda hal qilishga tayyor bo‘lishi lozim.

Loyihalashni o‘qitish metodikasi har bir loyihalash bosqichining pedagogik maqsadlari va xususiyatlariga mos ravishda talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini jonlantirish uchun didaktik shart-sharoitlarni aniqlashni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun biz kulolchilik san’atini o‘rgatishda talabalarning fazoviy fikrlash imkoniyatlarini ko‘rib chiqish maqsadida «Badiiy kulolchilikda loyihalash» fani doirasida loyihalash usulini tanlaymiz. Ushbu yondashuv kulolchilik mahsulotlarini zamonaviy sharoitlarda yaratish uchun loyihalash jarayonini maqbullashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ma’naviy-moddiy madaniyatning yuksak badiiy namunalarini yaratish, atrof-muhit obyektlari hamda turli buyumlarni badiiy loyihalash uchun an’anaviy va zamonaviy vositalar, metod va texnologiyalarni o‘zlashtirishga qodir bo‘lgan raqobatbardosh, talab darajasidagi mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алиева С. Ш. IX – XXI аср боши Ўзбекистон сирланган кулолчилиги ривожланишининг асосий босқичлари ва бадиий хусусиятлари. Санъатшунослик фанлари бўйича фан доктори (DSc) автореферати. – Т.: 2018, – 71 б.
2. Гулямов К.М. Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак амалий санъат ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Монография. – Т.: TO‘YTEPA PRINT, 2020. – 156 б.
3. Муслимов Н.А., Уразова М.Б. Проективная деятельность будущего учителя. Учеб.пособие. – Т.: GrandPaper, 2011. – 92 с.
4. Полат, Е. С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования : учеб. пособие для студ. вузов / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина. – 2-е изд., стер. – М. : Академия, 2008. – 368 с.
5. Розенсон, И. А. Основы теории дизайна: учеб. для вузов / И. А. Розенсон. – СПб. : Питер, 2008. – 219 с.

OLIY TA’LIMDA TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA RANGTASVIR VA PERSPEKTIVA INTEGRATSIYASINING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Haqnazarov Sardor Lutfulla o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17400284

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at darslarida rangtasvir va perspektiva fanlari integratsiyasining nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Rangtasvir bo‘yicha bilimlar o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, ranglar uyg‘unligi va kompozitsion yechimlarni izlash jarayonida muhim o‘rin tutadi. Perspektiva nazariyasi esa tasviriy san’atda fazoviy tafakkurni rivojlantirish, obyektlarning o‘lcham va nisbatlarini to‘g‘ri aks ettirish hamda realistik tasvir yaratishda asosiy omil hisoblanadi. O‘quv jarayonida mazkur ikki yo‘nalishni uzviy bog‘lab o‘qitish talabalarda nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlashga, badiiy tafakkur va kuzatuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, tasviriy san’at, rangtasvir, perspektiva, integratsiya, nazariy-metodik asos, estetik tafakkur, ijodiy qobiliyat.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретико-методические основы интеграции живописи и перспективы на занятиях по изобразительному искусству в системе высшего образования. Знания в области живописи играют ключевую роль в формировании эстетического вкуса студентов, изучении цветовой гармонии и поиске композиционных решений. Теория перспективы, в свою очередь, является важным фактором для развития пространственного мышления, точного отображения пропорций объектов и создания реалистичных изображений в изобразительном искусстве. Интеграция этих двух направлений в учебном процессе способствует закреплению у студентов навыков применения теоретических знаний на практике, а также развитию художественного мышления и наблюдательности.*

Ключевые слова: *высшее образование, изобразительное искусство, живопись, перспектива, интеграция, теоретико-методическая основа, эстетическое мышление, творческие способности.*

Annotation. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of integrating painting and perspective in fine arts classes within higher education. Knowledge of painting plays a key role in shaping students’ aesthetic taste, exploring color harmony, and developing compositional solutions. The theory of perspective, on the other hand, is essential for the development of spatial thinking, accurate representation of proportions, and the creation of realistic depictions in visual arts. The integration of these two directions in the learning process contributes to strengthening students’ ability to apply theoretical knowledge in practical activities, while also fostering artistic thinking and observation skills.*

Keywords: *higher education, fine arts, painting, perspective, integration, theoretical-methodological basis, aesthetic thinking, creative ability.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ijodiy tafakkur va estetik didga ega kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Tasviriy san’at ta’limining asosiy yo‘nalishlari bo‘lmish rangtasvir va perspektiva fanlari talabalarning badiiy tafakkuri va estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rangtasvir inson ruhiyatini boyitib, ranglarning uyg‘unligi va kompozitsion yechimlarni topishga yordam bersa, perspektiva fazoviy tafakkurni rivojlantirish, obyektlarning o‘lcham va nisbatlarini ilmiy asosda aks ettirish orqali realizmni ta’minlaydi.

Oliy ta’lim jarayonida rangtasvir va perspektivani integratsiyalashgan holda o‘qitish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir. Integratsiyalashgan yondashuv talabalarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil ijodiy izlanish va kuzatuvchanlikni rivojlantirish imkonini beradi. Shu boisdan, rangtasvir va perspektiva integratsiyasining nazariy-metodik asoslarini o‘rganish, ularni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish va ilg‘or pedagogik tajribalar asosida boyitish oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at fanining samaradorligini oshirishga qaratilgan dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Oliy pedagogik ta’lim tizimida tasviriy san’at fanlari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalishda fanlararo integratsiyaga alohida e’tibor qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik metodlarda integratsion yondashuvni qo‘llash orqali talabalarda ilmiy-nazariy dunyoqarash, badiiy-estetik tafakkur, ijodiy izlanish qobiliyati va vizual idrokni rivojlantirish mumkin.

Tarixiy manbalarda perspektiva fani san’atning nazariy asosi sifatida qadimiy davrlardan boshlab shakllanganligi ta’kidlanadi. Uyg‘onish davrida Alberti, Brunelleskiy va Leonardo da Vinchi kabi olimlar tomonidan perspektivaning nazariy qonuniyatlari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. O‘zbekistonlik pedagog olimlarning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, tasviriy san’at mashg‘ulotlarida perspektivani integratsion yondashuv asosida o‘rgatish talabalarda fazoviy idrokni shakllantirish va ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy adabiyotlarda san’at ta’limida integratsion yondashuvning nazariy asoslari keng tahlil qilingan bo‘lib, AQSh va Yevropa mamlakatlarida san’at fanlari raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘qitilishi samarali natijalar berayotgani ta’kidlanadi. Ko‘plab pedagog olimlar tomonidan perspektiva qonuniyatlarini virtual reallik, 3D modellashtirish, kompyuter grafikasi yordamida o‘rgatish metodlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik adabiyotlarda fanlararo integratsiya masalasida tizimlilik, izchillik, nazariya va amaliyot birligi kabi tamoyillar alohida qayd etilgan. Perspektiva fanini rangtasvir mashg‘ulotlari bilan integratsiyalash jarayonida aynan shu tamoyillarga amal qilish talab etiladi. Shuningdek, ilmiy manbalarda ta’lim samaradorligini oshirish uchun loyihaviy metod, interaktiv mashg‘ulotlar, muammoli ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarurligi qayd etiladi.

Oliy ta’limda tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda rangtasvir va perspektiva fanlarini integratsiyalash zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Fanlararo integratsiya talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ularni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, ijodiy tafakkur va fazoviy idrokni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim samaradorligini oshirish uchun yangi metodik tavsiyalar ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va milliy san’at qadriyatlarini fanlararo integratsiyaga qo‘shish zarur. Natijada, rangtasvir va perspektiva fanlarini integratsiyalash oliy ta’limda san’at fanlarining

sifatini oshirish, talabalarning mustaqil ijodiy izlanishlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga ega etish bo‘yicha muhim vosita sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va murojaatnomalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2. Akramov A., Toshpulatov B. Tasviriy san’at pedagogikasi: nazariya va metodika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Karimov S. Rangtasvir va perspektiva fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Alberti L. On Painting. – Firenze: 1435.
5. Leonardo da Vinchi L. Treatise on Painting. – Milano: 1515.
6. Brunelleschi F. Perspektiva qonuniyatlari. – Firenze, 1420.
7. Ismoilov N. Tasviriy san’atda fazoviy tafakkur va perspektiva. – Toshkent: Pedagogika, 2021.
8. Smith J. Art Education and Interdisciplinary Approaches. – New York: Routledge, 2019.
9. Brown P. Integrating Digital Technologies in Art Education. – London: Sage, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ta’lim dasturlari va metodik qo‘llanmalar. – Toshkent: Ta’lim, 2022.

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA “INKLYUZIV TA’LIM”NING TASVIRIY SAN’ATDAGI AHAMIYATI

[1]Imomatova Umida Mirpulatovna, [2]Abdumajidova Komila Abrorbek qizi, [3]Abujakinova O‘g‘iljon Risqali qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17400292

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kundan kunga yangilanayotgan O‘zbekistonimizning san’at yo‘nalishidagi axamiyati, o‘rni va imkoniyatlari haqida keng talqinda yoritib berilgan. San’atning turlari va jaxon miqqiyosidagi tutgan o‘rni, yoshlar o‘rtasidagi axamiyati, ta’limdagi foydali jixatlari haqida yoritib berilgan. Shuningdek inklyuziv ta’lim jarayonida tasviriy san’atning qay darajada qo‘l kelayotganligi, art terapiyalar haqida keltirilgan. Yurtimizda ta’lim sohasida yaratib berilayotgan imkoniyatlar va shart sharoitlar haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Inklyuziv ta’lim, psixologik ta’sir, imkoniyatlar, ranglar, san’at, art terapiya, virtual, glaballashuv, forum, modernizatsiyalash.*

Abstract*: This article broadly discusses the significance, role, and opportunities of art in the ever-renewing Uzbekistan. It highlights the types of art and their place on a global scale, the importance of art among young people, and its beneficial aspects in education. Furthermore, the paper elaborates on the role of fine arts in the process of inclusive education, particularly the use of art therapy. Additionally, information is provided about the opportunities and conditions being created in the education sector of our country.*

Keywords*: Inclusive education, psychological impact, opportunities, colors, art therapy, virtual, social, globalization.*

Аннотация*: В данной статье широко освещаются значение, роль и возможности искусства в постоянно обновляющемся Узбекистане. Рассматриваются виды искусства и их место в мировом масштабе, значение искусства среди молодежи, а также его полезные аспекты в сфере образования. Кроме того, раскрывается роль изобразительного искусства в процессе инклюзивного образования, в частности применение арт-терапии. Также приведена информация о создаваемых в нашей стране возможностях и условиях в области образования.*

Ключевые слова*: Инклюзивное образование, психологическое воздействие, возможности, цвета, искусство, арт терапия, виртуалъный, социалъный, глобализация.*

Bugungi glaballashuv davrida O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Przidentimiz qarorlari va forumlarida teatr, muzeylar, galareyalar va madaniy markazlari modernizatsiya qilinishi haqida aytib o‘tilgan. Masalan ta’lim tizimidagi imkoniyatlar, san’atkorlar uchun grandlar, stipendiyalar va mukofotlar, shu bilan bir qatorda tasviriy san’at bo‘yicha iqtidor egalarini O‘zbek milliy rassomchilik insitituti, dizayn- libos, interyer dizayni, konservatoriyalar, teatr saxna va san’at maktablari keng imkoniyatlar bilan birgalikda yetuk mutaxasis etib tayyorlamoqda. Shu bilan cheklanibgina qolmay xalqaro

xamkorlik ya’ni YUNESKO ro‘yxatiga kirgan “lazgi raqs” turi, “maqom” kabi o‘zbek san’at turlari xalqaro miqqiyosida keng tadbiq etilib kelinmoqda. Toshkent Xalqaro kinofestivali, chel el bilan birgalikda xamkorlik qilib tarixiy kinolar suratga olinishi, maqom va baxshichilik anjumanlari, xalqaro san’at ko‘rgazmalari bilan o‘zbek san’ati dunyoga tanilmoqda. Miliy meroslarimizga keladigan bo‘lsak ajdodlarimizdan an’ana va meros bo‘lib qolgan amaliy san’at, xaykaltaroshlik, xunarmandchilik, naqsh san’ati, miniatura va milliy kiyimlar san’atini rivojlantirish uchun davlatimizning yaratayotgan yangidan yangi va qulay dasturlari yo‘lga qo‘yilmoqda. Shu bilan birga yurtimizni yanada duyoga keng tadbiq etish maqsadida online galareyalar virtual korgazmalar, internet orqali san’at asarlarini targ‘ib qilish ommaga taqdim etilmoqda.

Inklyuziv ta’limda tasviriy san’atning tutgan o‘rni : Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarni shuningdek, jismoniy yoki psixologik rivojlanishda cheklovi bor bolalarni ham birgalikda o‘qitishga qaratilgan ta’lim tizimidir. Bu jarayonda tasviriy san’at alohida ahamiyatga ega, chunki bu soha bolalarning ichki dunyosini ifodalash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga va o‘zinianglashga yordam beradi. Odatda inkoniyati chekanga bolalarni imkoniyatlarida kelib chiqgan xolda baholash lozim, lekin san’atda bu yo‘ldan foydalanilmaydi, balki ularning ijodiy yondashuvi qadirlanadi. Bu usul esa barcha bolalarda “men ham bu narsani qila olaman, bajara olaman ” degan ishonchni tug‘duradi. Tasviriy san’at imkoniyati cheklangan bolalarning tasavvurlarini va psixologiyasini yaxshilashga, estetik didini va ijobiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga katta yordam beradi. Misol uchun rangli qalamlar, rangli bo‘yoqlar, loy va boshqa shunga o‘xshash materiallar orqali bolalarda o‘z dunyosini yaratish va chizib berish imkoniyatlari keng bo‘ladi va ular bundan zavq olib qiziqishlari yanada oshadi. Bu usullardan foydalanilganida psixologik reablitatsiya jarayoni rasm chizish, bo‘yash va loydan turli hil narsalar, buyumlar yasash orqali bolalarda stressni kamayishiga, ruhiy xolatini barqarorlanishiga ancha yordam beradi. Shuningdek nutqida, eshitishida yoki ko‘rishida muammosi bor bolalar uchun san’at o‘zini ifodalashni eng qulay vositasidur. Misol uchun: ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun art terapiyalar, eshitishda kamchiligi bor bolalar uchun audio kitoblar, xarakatlanishda imkoniyati cheklanganlar uchun mutaxasislar tomonidan turli hil qiziqarli raqslar vas hart sharoilar yaratilgan. Shu bilan cheklanibgina qolmay bolalarni jamoa bo‘lib ishlashlari uchun turli metodlat masalan, guruh bo‘lib bir mavzu yuzasidan rasm chizish, ijod qilish orqali bir-birlari bilan birgalikda muloqot qilish va jamoa bilan muloqot qilishni shakillantirish yo‘lga qo‘yilib ancha samarali bo‘lmoqda. Inklyuziv ta’limdagi bolalarda ko‘pincha yashirin qobiliyatlari shakillangan bo‘ladi. San’at orqali o‘qituvchilar dars jarayonida bu imkoniyatlarni payqab uni yanada rivojlantirish imkoniyatini beradilar. San’at inklyuziv ta’limda shunchaki fan emas balki terapiya, ijtimoiy moslashuv, ijodiy dam olish, ijodiy o‘sish va tenglikni ta’minlovchi vosita bo‘lib hizmat qilmoqda. U bolalarga o‘zini yanada anglash ichki dunyosini shakillantirish, psixologik rivojlanish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishgava kelajakda ijodiy shaxs bo‘lib yetishishga yordam beradi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yurtimizda yangilanib kelayotgan ta’lim shakillari, inklyuziv ta’limning axamiyati, yurtimizning ta’limning yangilanib yanada qulayliklar oshib borishi, imkoniyati cheklangan bolalarga yaratilgan qulayliklar va ularga san’at sohasida berilayotgan ta’lim va qolaversa yurtimizni jahon miqyosida tutgan o‘rni va o‘zbek milliy san’atlari an’analari haqida aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, ta’lim tizimidagi islohatlar” M. J. Bozorov, Samarqand SamDCHTI nashriyoti, 2024.
2. Andijon davlat universiteti talabasi Z. L. Xodjayevaning “Ta’limni rivojlantirshi – davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida” nomli maqolasi.
3. Imomatova Umida Mirpulatovna Tasviriy san’at vositasida yoshlarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari. (2024). *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar*, *1*(1), 133-135.
4. Umida, I., & Muxtor, N. (2023). Tasviriy san’at darslarida yoshlarga o‘zbek milliy tasviriy san’atni o‘qitishning psixologik asoslari. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 204-207).

BOLALARNING IJODIY RIVOJLANISHIDA TASVIRIY SAN’ATNING AHAMIYATI

[1]Imomatova Umida Mirpulatovna, [2]Karimjonova Nigina Nozimjon qizi, [3]Usmonaliyeva Naima Botirjon qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.[3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17400307

Annotatsiya*. Ushbu maqolada bolalar ijodida tasviriy san’atning o‘rni va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. San’at bolaning estetik didini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tasviriy san’at bolalarda nafaqat badiiy mahoratni, balki muloqot, sabr-toqat va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham tarbiyalaydi. Maqolada shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida san’atning interfaol metodlar asosida qo‘llanilishi, maktabgacha va maktab ta’limida tasviriy san’atning innovatsion ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*; O‘zbekcha: tasviriy san’at, bolalar ijodi, ta’lim, estetik tarbiya, kreativ fikrlash*

Аннотация*: В данной статье освещается роль изобразительного искусства в детском творчестве и его значение в образовательном процессе. Искусство является важным средством формирования эстетического вкуса ребенка, расширения его мировоззрения и развития способности к творческому мышлению.*

Изобразительное искусство воспитывает у детей не только художественное мастерство, но и навыки общения, терпения и самостоятельного принятия решений. В статье также анализируется применение искусства в современной системе образования на основе интерактивных методов, инновационное значение изобразительного искусства в дошкольном и школьном образовании.

Ключевые слова*: изобразительное искусство, детское творчество, образование, эстетическое воспитание, креативное мышление*

Abstract*: This article illuminates the role of fine arts in children's creativity and its significance in the educational process. Art serves as a crucial tool in shaping a child's aesthetic taste, broadening their worldview, and fostering creative thinking abilities.*

Fine arts nurture in children not only artistic skills but also communication abilities, patience, and independent decision-making capabilities. The article also examines the application of art through interactive methods in the modern education system and analyzes the innovative importance of fine arts in preschool and school education.

Keywords*: fine arts, children's creativity, education, aesthetic education, creative thinking*

Bugungi kunda ta’lim jarayonida bolalarning ijodiy rivojlanishi masalasi alohida e’tibor qaratilayotgan yo‘nalishlardan biridir. Bolaning dunyoni anglash jarayoni ko‘proq tasvirlar orqali shakllanadi. Shu sababli tasviriy san’at – bolaning ichki kechinmalarini, orzu-umidlarini,

hissiyotlarini ifodalashda eng muhim vositadir. Bola ilk bora ranglar bilan tanishganda, oddiy chiziqlar tortganda o‘zini erkin his qila boshlaydi. Bu esa uning shaxsiyatini shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

XXI asrda ta’limda faqat bilim emas, balki kreativlik, innovatsion fikrlash va estetik dunyoqarash talab etiladi. Shu nuqtai nazardan tasviriy san’at bolalarning kelajakda har qanday sohada ijodkorlik bilan ishlashiga mustahkam zamin yaratadi. San’atning bolalar ijodiy rivojidagi ahamiyati, ta’limdagi o‘rni va zamonaviy yondashuvlar keng tahlil qilinib kelmoqda.

Tasviriy san’at va bola psixologiyasi rasm chizish bolada sabr-toqat, kuzatuvchanlik va tafakkurni rivojlantiradi. Ranglar orqali bola o‘z hissiyotlarini ifodalaydi .Ta’lim jarayonida tasviriy san’atning ahamiyati maktabgacha ta’limda tasviriy san’at orqali bola nutqini rivojlantirish, qo‘l motorikasini mustahkamlash. boshlang‘ich sinflarda tabiatni, atrof-muhitni anglash va go‘zallikni qadrlashni o‘rgatadi. Interfaol metodlarning qo‘llanilishi Guruhli rasm ishlash, rangli kollaj, interaktiv doska va raqamli grafik dasturlardan foydalanish. Bu usullar bolalarda qiziqishni yanada oshiradi.

Innovatsion yondashuvlar zamonaviy texnologiyalar (3D rasm, raqamli dizayn) orqali bolalarni san’atga jalb etish. tasviriy san’atning STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) tizimidagi o‘rni tasviriy san’at bolalar uchun nafaqat ijodiy mashg‘ulot, balki ularning shaxsiy rivoji uchun muhim tarbiya vositasi ekanligi isbotlanmoqda.

Ta’lim jarayonida san’at fanlarini kuchaytirish, uni interfaol va innovatsion metodlar bilan boyitish bolalarda nafaqat estetik did, balki mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va ijtimoiy faollikni ham oshiradi. Shunday qilib, tasviriy san’at bolalar tarbiyasida beqiyos o‘rin tutadi va kelajak avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazishda asosiy omillardan biridir.

Fikrimcha tasviriy san’at fani ko‘plab darslar ichida eng qiziqarli va ijodiy imkoniyatlarga boy fanlardan biridir. Bolaligimda rasm chizish orqali o‘zimni erkin his qilardim, xuddi shu holat bugun ham menga ilhom bag‘ishlaydi. Hozirgi kunda esa o‘ylaymanki, har bir bola uchun san’at darsi shunchaki mashg‘ulot emas, balki kelajakda ijodiy fikrlash, innovatsion qarash va estetik didni shakllantiradigan muhim jarayon hisoblanadi.

Bolalar uchun tasviriy san’at darslari shunchaki mashg‘ulot emas, balki hayotni o‘zgacha ko‘rishga o‘rgatuvchi oynadir. Bola rasm chizayotganda o‘z orzularini qog‘ozga tushiradi, ularni ko‘rgan odam esa bolaning ichki dunyosini his qiladi. Hozirgi kunda ko‘plab ota-onalar matematika yoki til fanlariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Ammo san’at orqali bola hayotga rang bag‘ishlashni, oddiy narsalardan go‘zallik topishni o‘rganadi. Menimcha, tasviriy san’at kelajakda bolalarning ijodkorlik qobiliyatini oshiribgina qolmay, balki ularni baxtliroq insonlar qilib tarbiyalaydi.

Shaxsiy kuzatuvimga ko‘ra, rasm chizishga qiziqqan bolalar ko‘proq ijtimoiy faol, mustaqil qaror qabul qiladigan va hayotga ijodiy yondashadigan shaxs sifatida shakllanadi.Ularni o‘zlari qiziqqan san’at turi bo‘yicha rivojlanishiga yordam berish san’at ahlining muhum vazifalaridan biridir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tasviriy san’at bolalar ta’limida faqat estetik zavq beruvchi fan emas. U bolaning tafakkuri, hissiy olami va ijtimoiy moslashuviga ta’sir etuvchi kuchli vosita hisoblanadi. Ta’lim jarayonida san’atning o‘rnini to‘g‘ri belgilash va uni innovatsion metodlar bilan boyitish kelajak avlodni ijodkor, mustaqil va estetik didga ega shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, M. (2021). Bolalar ijodida tasviriy san’atning ahamiyati. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi (2022). Tasviriy san’at ta’limi metodik qo‘llanma. Mavjud hujjatlar portali
3. Arnheim, R. (2004). Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. University of California Press. Archive.org
4. Lowenfeld, V. & Brittain, W. (2015). Creative and Mental Growth in Children. Macmillan Publishing.
5. Имоматова , У. (2023). Ўқувчиларнинг таълим ва тарбиясида тасвирий санъат ўқитувчисининг аҳамияти. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”*, *1*(01).

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN’ATNING O‘RNI VA AHAMIYATI

[1]Imomatova Umida Mirpulatovna, [2]Abdurasulova Mohlaroyim Sbirjon qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403098

Annotatsiya. *Maqola tasviriy san’atning o‘quvchilar rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyatini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qiladi. O‘quvchilarning badiiy ijodi orqali kognitiv, emotsional, motor va ijtimoiy ko‘nikmalar qanday rivojlanuvchi jarayonlarga ta’sir etishi misollar bilan ko‘rsatiladi. Muallif yangi pedagogik yondashuv — SUTAR (Sensorika, Uyg‘unlik, Tasavvur, Amaliyot, Refleksiya) modelini taklif etadi va sinfda, maktabgacha hamda oilaviy muhitda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan konkret metod va mashg‘ulotlarni bayon etadi. Maqola ta’lim jarayonida tasviriy san’atning baholash usullari, ota-ona hamda jamiyatning roli, shuningdek ijodiy muhitni tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar*: tasviriy san’at, ijodiy rivojlanish, SUTAR modeli, ta’lim metodikasi, emotsional rivojlanish, multidisipliner integratsiya.*

Аннотация*. В статье анализируется роль и значение изобразительного искусства в развитии учащихся как в теоретическом, так и в практическом плане. На примерах показано, как когнитивные, эмоциональные, моторные и социальные навыки влияют на развивающие процессы через художественное творчество учащихся. Автор предлагает модель нового педагогического подхода-Сутар (сенсорика, гармония, воображение, практика, рефлексия) и излагает конкретные методы и занятия, которые могут быть реализованы в классе, дошкольном учреждении и в семейной среде. В статье содержатся практические рекомендации по методам оценки изобразительного искусства в образовательном процессе, роли родителей и общества, а также организации творческой среды.*

Ключевые слова*: изобразительное искусство, творческое развитие, модель Сутара, методика обучения, эмоциональное развитие, мультидисциплинарная интеграция.*

Abstract*. The article analyzes the role and importance of visual arts in the development of students both theoretically and practically. The examples show how cognitive, emotional, motor, and social skills influence developmental processes through students' artistic creativity. The author offers a model of a new pedagogical approach-Soutar (sensory perception, harmony, imagination, practice, reflection) and outlines specific methods and activities that can be implemented in the classroom, preschool and family environment. The article contains practical recommendations on methods of evaluating fine art in the educational process, the role of parents and society, as well as the organization of the creative environment.*

Keywords: *visual arts, creative development, Soutar's model, teaching methodology, emotional development, multidisciplinary integration.*

Kirish

O‘quvchilarning ijodi — ularga xos o‘ziga xos ishontirish, dunyoni qabul qilish va ifoda etish yo‘li. Tasviriy san’at esa rang, shakl va kompozitsiya orqali bolalarga o‘z his-tuyg‘ulari va fikrlarini badiiy vositalar yordamida yetkazish imkonini beradi. So‘nggi o‘n yilliklarda ta’limda ijodiy yondashuvlarga e’tibor ortgani sababli, tasviriy san’at maktabgacha va maktab bosqichlarida ham muhim komponentga aylangan. Ushbu maqola tasviriy san’atning bolalar shaxsiyati va kognitiv jarayonlariga qanday hissa qo‘shishini tizimli tarzda yoritadi hamda amaliy metodlar taklif etadi.

O‘quvchilar ijodini tushunishda klassik rivojlanish nazariyalari (Piaget, Vygotsky) va badiiy ta’lim tadqiqotlari (Lowenfeld, Eisner, Efland) asosiy ro‘l o‘ynaydi. Piagetning bosqichli yondashuvi bolalarning tasavvur va simvolik faoliyat darajalarini tushunishga yordam beradi; Vygotsky esa ijtimoiy kontekst va muloqotning ijodiy rivojlanishdagi o‘rnini ta’kidlaydi. Efland va Eisner san’at orqali tafakkur va muammolarni hal qilish qobiliyatlari shakllanadi, Lowenfeld esa o‘quvchilar chizmalari bosqichlarini aniqlab, pedagoglarga yordam beradi. Shu nazariy zamin ustida maqolada SUTAR modeli ishlab chiqildi — u pedagogik amaliyotni tizimli qilib beradi.

SUTAR modeli

Maqolada taklif etilgan yangi yondashuv — SUTAR — beshta bosqichdan iborat:

1. Sensorika — turli materiallar va hissiy tajribalar orqali sezgi faoliyatini rag‘batlantirish (mat, suv, chang, bo‘yoq, xomashyo bilan tanishtirish).

2. Uyg‘unlik — rang va kompozitsiyani boshqarish, texnik usullar (qalam, bo‘yoq, kolaj) bilan tanishtirish; ta’lim jarayonida estetik uyg‘unlik asoslari o‘rgatiladi.

3. Tasavvur — erkin hikoya, rol o‘ynash va improvizatsiya orqali fantaziyani kengaytirish; bu bosqichda “nima bo‘lishi mumkin?” savoli ustuvor.

4. Amaliyot — rejalashtirilgan loyihalar, seriyalar, va doimiy mashg‘ulotlar orqali ko‘nikmalarni mustahkamlash.

5. Refleksiya — o‘quvchilar bilan natija, jarayon va his-tuyg‘ular haqida suhbat o‘tkazish; portfoliolar va o‘z-o‘zini baholash.

SUTAR modeli sinfda modulli tarzda qo‘llanilishi mumkin va har bir bosqich yoshga mos ravishda soddalashtiriladi yoki murakkablashtiriladi.

Tasviriy san’atning bolalar rivojlanishidagi asosiy funktsiyalari

1. Kognitiv rivojlanish

Tasviriy san’at orqali bolalar muammoni vizual tarzda hal qilish, sabab-oqibat xulosalari chiqarish va abstrak fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rang va kompozitsiya bilan ishlash diqqat va e’tibor, detalni kuzatish qobiliyatini oshiradi.

2. Emotsional va psixologik rivojlanish

Ijodiy faoliyat bolalarga hissiyotlarni xavfsiz ifoda etish maydonini beradi; stressni kamaytirish va ichki dunyo bilan ishlashga yordam beradi.

Refleksiya bosqichi orqali o‘z holatini tahlil qilish, empatiya va o‘zini tutishni boshqarish o‘rganiladi.

3. Motor va sensorik rivojlanish

Qo‘l barmoqlari va yuqori nazorat uchun chizish, qirqish, yopishtirish kabi amaliy mashqlar motorikani rivojlantiradi.

Sensorika bosqichi turli teksturalar bilan ishlash orqali ta’sirchan sezgi tajribasini oshiradi.

4. Ijtimoiy va madaniy identifikatsiya

Guruhda ishlash hamkorlik, navbat kutish va fikr almashish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Milliy naqshlar, an’anaviy motivlarni oʻrganish orqali madaniy ong va fasllarni anglash kuchayadi.

Pedagogik yondashuvlar va metodlar (amaliy tavsiyalar)

1. Loyihalarga asoslangan oʻqitish (Project-Based Learning) — mavzuga doir uzun muddatli ijodiy loyihalar oʻquvchilarda majburiyat, rejalashtirish va ijodkorlikni uygʻunlashtiradi.

2. Multimediya va aralash materiallar — matn, rasm, audio va oddiy raqamli vositalarni uygʻunlashtirish (oddiy animatsiyalar, fotosuratlar) bolalar qiziqishini oshiradi.

3. Portfolio va jarayonni baholash — yakuniy mahsulotdan koʻra jarayonga e’tibor; oʻquvchilarning portfoliolarini yigʻish va oʻsish dinamikasini koʻrsatish.

4. Ota-ona va jamiyatni jalb etish — ota-onalar uchun mini-master-klasslar, oilaviy ijod kechalarini tashkil etish.

5. Interfaol muhit yaratish — ochiq ish stansiyalari, doimiy materiallar ombori, va koʻrgazmalar — motivatsiyani oshiradi.

Bevosita mashgʻulot misollari (original, amaliy)

1. Rang-his mashqi (“Rang darsligi”): oʻquvchilarga har bir rang bilan bir hissni bogʻlash topshirigʻi (masalan, koʻk — tinchlik, sariq — quvonch). Har bir oʻquvchi oʻz his rangini tasvirlaydi va guruhda tahlil qiladi. Maqsad: emotsional lugʻatni kengaytirish.

2. Ob’ektdan hikoya: oddiy predmet — chiroq, stakan yoki gulli idish tanlanadi; oʻquvchilar undan boshlanib 3 ta sahifali rasmli hikoya yarataydi. Maqsad: simvolik tafakkur va ketma-ketlikni oʻrgatish.

3. Materiallar safari: oʻquvchilar turli tabiiy va sun’iy materiallardan kolaj yaratadi (yaproq, jun, qogʻoz, plastik). Maqsad: sensorik tajriba va texturalarni farqlash.

4. Madaniy naqsh atelyesi: oilaviy yoki mahalla tarixi asosida bitta naqsh yaratish (milliy ornament elementlarini qoʻshish). Maqsad: madaniy identifikatsiya va tarixni anglash.

5. “Oʻz portreti — ichki dunyo”: oddiy portretga oʻquvchilar oʻz hislarini simvolik elementlar orqali qoʻshadi (rang, shakl orqali). Maqsad: emosional ifoda va metafora ishlatishni oʻrgatish.

Baholash jarayoni protsessga asoslangan boʻlishi kerak ya’ni kuzatuv jurnali, foto-video hujjatlar, portfoliolar, bolalarning oʻz-oʻzini baholashi. Ijtimoiy va emosional koʻrsatkichlarni baholash uchun reflektiv suhbatlar va qisqa narrativ yozuvlar ishlatiladi. Pedagoglar uchun indikatorlar: mustaqil qaror qabul qilish, materiallarga muomalasi, guruh ichidagi hamkorligi, ijodiy yechimlar soni va xilma-xilligi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Tasviriy san’at maktab yoshidagi bolalar ijodida markaziy oʻringa ega boʻlib, u kognitiv, emotsional, motor va ijtimoiy rivojlanishni bir vaqtning oʻzida qoʻllab-quvvatlaydi. SUTAR modeli kabi tizimli pedagogik yondashuvlar orqali maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy san’at samaradorligini oshirish mumkin. Muhimi — jarayonni ragʻbatlantirish, ijobiy refleksiya va jamiyat hamda oilaning faol ishtirokidir. Ta’lim siyosati va maktab amaliyotida san’atni yanada integratsiyalash orqali kelajak avlodning yaratuvchan, hissiyotli va muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllanishiga hissa qoʻshish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova D. Bolalar ijodini rivojlantirish metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Qo‘ziyev O. Tasviriy san’at asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
3. Jo‘rayev Sh. San’atshunoslikka kirish. – Toshkent: Sharq, 2016.
4. Yusupov H. Tasviriy san’at darslarini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2019.
5. Imomatova Umida Mirpulatovna Tasviriy san’at vositasida yoshlarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari. (2024). Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, 1(1), 133-135.
6. Имоматова , У. (2023). Ўқувчиларнинг таълим ва тарбиясида тасвирий санъат ўқитувчисининг аҳамияти. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”, 1(01).
7. Umida, I., & Muxtor, N. (2023). Tasviriy san’at darslarida yoshlarga o‘zbek milliy tasviriy san’atni o‘qitishning psixologik asoslari. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 2, pp. 204-207).

TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARNING IJODIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ismatov Ulfat Shuhratovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403114

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida ijodiy kompetensiyalarning o‘rni va ahamiyati nazariy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda ijodiy kompetensiyaning mohiyati, tarkibiy tuzilmasi, shakllantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari, shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvning tasviriy san’at ta’limidagi o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi doirasida ijodiy faoliyatning uzluksiz rivojlanishini ta’minlashning zarurati ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ijodiy kompetensiya, kasbiy kompetentlik, tasviriy san’at o‘qituvchisi, badiiy-ijodiy tayyorgarlik, pedagogik yondashuv, ta’lim nazariyasi, kreativlik.*

Аннотация. *В данной статье теоретически обосновывается роль и значение творческих компетенций в профессиональной подготовке будущих учителей изобразительного искусства. В исследовании анализируются сущность, структурная организация, психолого-педагогические условия формирования творческой компетенции, а также специфические аспекты компетентностного подхода в образовании изобразительного искусства. В рамках личностно-ориентированной образовательной парадигмы показана необходимость обеспечения непрерывного развития творческой деятельности.*

Ключевые слова: *Творческая компетентность, профессиональная компетентность, учитель изобразительного искусства, художественно-творческая подготовка, педагогический подход, теория обучения, креативность.*

Annotation. *In this article, the role and significance of creative competencies in the professional training of future fine arts teachers are theoretically substantiated. The study analyzes the essence, structure, psychological and pedagogical conditions for the formation of creative competence, as well as the specifics of the competency-based approach in fine arts education. Within the framework of the personality-oriented educational paradigm, the necessity of ensuring the continuous development of creative activity is shown.*

Keywords: *Creative competence, professional competence, art teacher, artistic and creative training, pedagogical approach, theory of education, creativity.*

Kirish

Bugungi kunda jahon ta’lim maydonida ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlari va uzluksiz innovatsion taraqqiyot sharoitida, O‘zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Ta’lim tizimining bevosita vazifasi – bu mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Bu strategik yo‘nalish, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli[36] farmonida qat’iy belgilangan. Konsepsiyada kadrlarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni chuqurlashtirish, xususan, talabalarning kreativ salohiyatini oshirish va ularda innovatsion g‘oyalarni shakllantirish muhim ustuvorlik sifatida ko‘rsatilgan.

Bu talablar tasviriy san’at o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, yanada kuchliroq ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at fani o‘qituvchisi endilikda nafaqat akademik bilimlar (rangtasvir, kompozitsiya, qalamtasvir)ni uzatuvchi, balki o‘quvchilarda badiiy idrok, estetik did va shaxsiy ifoda erkinligini rivojlantiruvchi yetakchi bo‘lishi shart. Shu bois, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisida ta’lim-tarbiya jarayonini ijodiy faoliyatga yo‘naltira oladigan yuksak darajadagi ijodiy kompetensiya talab etiladi. Bu kompetensiya pedagogning o‘zi yangi uslublarni ishlab chiqish, nostandart muammolarni badiiy yechish va o‘quvchilarni kreativ izlanishga undash qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu ijodiy kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy asoslarini tahlil qilish va uning pedagogik-didaktik mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash, zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor talablarini amaliyotga joriy etishning muhim sharti hisoblanadi.

Ijodiy kompetensiya – bu shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, nostandart yechimlar topish, badiiy asarlar yaratish va pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga qaratilgan salohiyatidir. Ushbu kompetensiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish va uni takomillashtirish mexanizmlarini aniqlash, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishning muhim ilmiy-pedagogik muammosi hisoblanadi.

Kompetensiya (lotincha: *competo* — erishyapman, munosibman, loyiqman) keng ma’noda muayyan masalalarni hal qilishda mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy tajribada qo‘llay olish layoqati, ya’ni faoliyatga yo‘naltirilgan natijani anglatadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida joriy etilgan kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarni mustaqillik, tashabbuskorlik va ijtimoiy hayotda samarali harakat qilishga yo‘naltirishni ko‘zda tutadi.

Ijodiy kompetensiya esa umumiy kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, tasviriy san’at o‘qituvchisi uchun maxsus kompetensiyalar guruhiga kiradi. U G‘arb olimlari tomonidan ilgari surilgan kalit kompetensiyalar (tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish) bilan uzviy bog‘liq.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining ijodiy kompetensiyasi, asosan, quyidagi uchta asosiy komponentdan tashkil topadi:

1. **Kognitiv-Nazariy (Bilimiy) Komponent:**
   - Tasviriy san’at nazariyasi va tarixi bo‘yicha chuqur bilim.
   - Kompozitsiya, rangshunoslik, perspektiva kabi fundamental tushunchalarning nazariy asoslarini bilish.
   - Kreativlik nazariyasi, ijodiy fikrlash metodlari (masalan, aqliy hujum) bo‘yicha bilimlar.
2. **Amaliy-Ijodiy (Faoliyatga doir) Komponent:**
   - Qalamtasvir, rangtasvir fanlaridan turli texnika va materiallarda tasvirlashga oid yuqori darajadagi amaliy ko‘nikma va malakalarga egalik.
   - Noyob badiiy g‘oyalarni amaliy qo‘llash, san’at asariga aylantira olish (tasavvur va badiiy ifodalanish) qobiliyati.

[36] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887–son. https://lex.uz/docs/4545884.

- Mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish va yangi yechimlarni sinab ko‘rishga tayyorlik.

3. **Metodik-Pedagogik Komponent:**

- O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning ilg‘or usul va shakllarini (interfaol, eksperimental metodlar) bilish va qo‘llay olish.
- O‘quvchining ijodiy salohiyatini baholash va rag‘batlantirish qobiliyati.
- Badiiy-pedagogik yo‘nalishga egalik – o‘quvchining shaxsini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida ijodiy kompetensiyani takomillashtirish – bu shaxsning ijodiy salohiyatidan to‘liq foydalanishga qaratilgan, uzluksiz va bosqichma-bosqich jarayondir.

Ijodkorlik har bir shaxsning o‘ziga xos iste’dodi va tajribasiga asoslanganligi sababli, ta’lim jarayonida individual yondashuv muhimdir. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Kasbiy-ijodiy ehtiyojlarni aniqlash:** Har bir talabaning ijodiy moyilligi, qiziqishi va rivojlanish darajasini inobatga olish.
- **“Ustoz-shogird” tizimi:** An’anaviy usullarni saqlagan holda, shaxsiy namuna, maslahatlar va tajriba almashish orqali ijodiy salohiyatni mustahkamlash.
- **O‘z-o‘zini rivojlantirishni boshqarish:** Talabada mustaqil ish, izlanish va o‘z hayot rejalarini mustaqil ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish.

Ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asosi faoliyatga asoslangan va tadqiqotchilik yondashuvini talab qiladi. Buning uchun quyidagi usul va shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

- **Interfaol va loyihaviy metodlar:** Oddiy ma’ruzalar o‘rniga guruhdagi loyihalar, tasviriy ijodiy tanlovlar, master-klasslar va eksperimental metodlarni qo‘llash. Bu talabalarni muammolarni yechishga va tanqidiy fikrlashga undaydi.
- **Integratsion ta’lim modeli:** Tasviriy san’at fanidan olgan bilimlarini boshqa fanlar bilan bog‘lash orqali talabada keng dunyoqarash va samarali ijodiy yechim topish qobiliyatini shakllantirish.
- **Qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhiti:** O‘quvchilarni tavakkal qilishga va o‘z fikrlarini erkin ifodalashga undaydigan ochiq va rag‘batlantiruvchi muhitni yaratish.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining ijodiy kompetensiyasi badiiy-estetik kompetentlik bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayon:

- O‘quvchilarda estetik idrokni va badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.
- Milliy san’at an’analari va madaniyatlararo kontekstni o‘rganish, ularni ijodiy faoliyatga tatbiq etish orqali shaxsning madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish.

Ushbu jihatlarning barchasi birgalikda tasviriy san’at o‘qituvchisining nafaqat o‘z sohasining bilimdoni, balki o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqaruvchi samarali pedagog va ustoz (mentor) ekanligini ta’minlaydi.

Xulosa

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida ijodiy kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy asoslari kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga tayanadi. Ijodiy kompetensiya kognitiv-nazariy, amaliy-ijodiy va metodik-pedagogik komponentlarni o‘z ichiga olgan murakkab tuzilma bo‘lib, u bo‘lajak pedagogning ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda kreativ salohiyatni to‘liq ochish va ularni erkin fikrlovchi ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijodiy kompetensiyani takomillashtirishda asosiy e’tibor an’anaviy akademik tayyorgarlikni individual yondashuv, ustoz-shogird tizimi, interfaol metodlar va fanlararo integratsiya bilan uyg‘unlashtirishga qaratilishi lozim. Bu nazariy asoslar bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim talablari darajasida tayyorlashning asosiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of Working on Graphic Materials in Fine Arts Classes. Journal of Asian Multicultural Research for Educational Study, 1(2), 1-4.
2. Ismatov, U. Sh. *Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida grafik materiallarda tasvirlar bajarishga o‘rgatish texnologiyalarini takomillashtirish.* // МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ. Ilmiy-metodik jurnal. – 2023. – № 2/3.
3. Hasanova, Munisa Ziyodillo qizi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetentsiyani shakllantirish. // Journal of Integrated Education and Research. 2023.-2(3)
4. Ismatov, U. S. Rangtasvir. O ‘quv qo ‘llanma.,“Nazokathon ziyo print”., Chirchiq-2023.
5. Ismatov, U. (2023). Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining grafik materiallarda tasvirlash ijodiy kompetensiyalarini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida. international scientific and practical conference on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”, 1(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/259
6. U.Sh. Ismatov. Bo‘lajak tasviriy san'at o‘qtuvchilarini grafik materiallarda ishlashga o‘rgatish orqali ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish. Maktab va hayot, Ilmiy-metodik jurnal. 2020-yil. Tom-2.
7. Ismatov, U. S. (2023). Methodology Of Teaching Students To Describe Still Life Composition. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 60-65.

OLIY PEDAGOIGIK TA'LIMDA PERSPEKTIVA VA RANGTASVIR FANLARINI INTEGRATSIYALASHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

[1]Ismatov Ulfat Shuhratovich, [2]Haqnazarov Sardor Lutfulla o'g'li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti,
"Tasviriy san'at va dizayn " kafedrasi dotsenti
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti,
"Tasviriy san'at va dizayn " kafedrasi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403131

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy pedagogik ta'lim jarayonida Perspektiva va Rangtasvir fanlarini integratsiyalashning zamonaviy pedagogik texnologiyalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Integratsion yondashuv san'at ta'limi mazmunini boyitish, o'quvchilarning badiiy idrokini, fazoviy tafakkurini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada innovatsion o'qitish texnologiyalari modulli o'qitish, interfaol metodlar, raqamli vizualizatsiya va muammoli ta'lim usullarining amaliy ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *oliy pedagogik ta'lim, tasviriy san'at, perspektiva, rangtasvir, integratsiya, pedagogik texnologiyalar, fanlararo bog'liqlik, kasbiy kompetensiya, ijodiy tafakkur, estetik did, modulli o'qitish, innovatsion metodlar, raqamli vizualizatsiya.*

Annotation. *In this article, the modern pedagogical technologies for integrating the subjects of Perspective and Painting in higher pedagogical education are analyzed on a scientific basis. It is emphasized that the integrative approach plays an important role in enriching the content of art education, as well as in developing students' artistic perception, spatial thinking, and creative abilities. Furthermore, the article highlights the practical significance of innovative teaching technologies such as modular instruction, interactive methods, digital visualization, and problem-based learning.*

Keywords: *higher pedagogical education, fine arts, perspective, painting, integration, pedagogical technologies, interdisciplinary connection, professional competence, creative thinking, aesthetic taste, modular teaching, innovative methods, digital visualization.*

KIRISH

Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim tizimida ta'lim jarayonini integratsiyalash va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Perspektiva va Rangtasvir fanlarini o'zaro uyg'un holda o'qitish tasviriy san'at yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlashda nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilarning badiiy tafakkurini, fazoviy idrokini hamda ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Integratsion yondashuv san'at ta'limida fanlararo bog'liqlikni kuchaytirib, o'qitish jarayonining mazmunini boyitadi va o'quvchilarda kompleks badiiy fikrlashni shakllantiradi. Shu bilan birga, modulli o'qitish, raqamli texnologiyalar, muammoli ta'lim va interfaol metodlardan foydalanish Perspektiva va Rangtasvir fanlarini o'zaro uyg'unlashtirishning samarali yo'li sifatida e'tirof etiladi.

Perspektiva fanining fazoviy nisbatlar va chiziqli konstruksiyalarni, Rangtasvirning rang uyg‘unligi, tonal o‘tishlar va emotsional ifoda vositalari bilan birlashtirilgan holda o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, modulli o‘qitish usuli orqali talabalar birinchi modulda perspektiva qonunlarini nazariy o‘rganib, ikkinchi modulda rangtasvir orqali ularni amalda qo‘llashni mashq qilishlari mumkin, bu esa ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va estetik didini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy pedagogik ta’lim tizimida Perspektiva va Rangtasvir fanlarini integratsiyalash masalasi so‘nggi yillarda san’at ta’limi metodikasining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya ta’lim jarayonining mazmunini boyitish, o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish hamda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik integratsiya nazariyasi bo‘yicha Y. Babanskiy, V. Davıdov, L. Vıgotskiy, A. Leontyev, N. Talizina[37] kabi olimlarning ilmiy ishlari o‘qitish jarayonining tizimliligi, izchilligi va fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash zarurligini asoslab bergan. Ularning fikriga ko‘ra, integratsion o‘qitish o‘quvchining fikrlash faoliyatini rivojlantiradi, bilimlarni uzviy bog‘liq holda o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

Tasviriy san’at pedagogikasi sohasida O‘zbekistonlik olimlar M. Ochilov, A. Ro‘ziyev, Z. Rasulov, Sh. Tojiboyeva[38] va boshqalar san’at ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni shakllantirish hamda tasviriy tafakkurni rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berishgan. Ayniqsa, ular ta’limda modulli o‘qitish, muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlardan foydalanish va vizual materiallar asosida o‘qitish samaradorligini oshirishni taklif etganlar.

Chet el adabiyotlarida ham san’at ta’limida integratsion yondashuv keng o‘rganilgan. Masalan, D. Kolbning “Tajriba asosida o‘qitish nazariyasi”, J. Deweyning “Tajriba orqali o‘rganish” konsepsiyasi hamda G. Gardnerning “Ko‘p qirrali intellekt nazariyasi” integratsion ta’limning psixologik va metodik asoslarini belgilab beradi. Ushbu nazariyalar o‘quvchini markazga qo‘ygan ta’lim modelining samarali bo‘lishini ta’kidlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Perspektiva va Rangtasvir fanlarini integratsiyalash nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Integratsion o‘qitish orqali o‘quvchilar real fazoviy ifoda, rang uyg‘unligi, shakl va nisbatni chuqurroq idrok etadi. Bu esa o‘z navbatida badiiy tafakkur, estetik did va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, mavjud ilmiy manbalar tahlili Perspektiva va Rangtasvir fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida integratsiyalash ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchining metodik salohiyatini rivojlantirish va san’at ta’limining mazmunini modernizatsiyalashda muhim ilmiy-metodik yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

[37] Babanskiy, Y. K. (1982). *Pedagogika: o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish yo‘llari*. Moskva: Pedagogika nashriyoti. Davıdov, V. V. (1996). *O‘quv faoliyatining nazariy asoslari*. Moskva: Intellekt. Vıgotskiy, L. S. (1984). *Psixologiya va ta’lim nazariyasi*. Moskva: Pedagogika. Leontyev, A. N. (1975). *Faoliyat, ong va shaxs*. Moskva: Nauka. Talizina, N. F. (1988). *O‘qitish nazariyasining psixologik asoslari*. Moskva: Pedagogika.

[38] Ochilov, M. (2015). *Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi*. Toshkent: Fan nashriyoti. Ro‘ziyev, A. (2018). *San’at ta’limida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti nashriyoti. Rasulov, Z. (2019). *Tasviriy san’at fanini o‘qitishda integratsion yondashuvning ahamiyati*. Toshkent: Ilm ziyo. Tojiboyeva, Sh. (2020). *San’at ta’limida ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari*. Toshkent: Fan va texnologiya.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Perspektiva va Rangtasvir fanlarini integratsiyalash zamonaviy oliy pedagogik ta’lim tizimida tasviriy san’at yo‘nalishidagi mutaxassislarni tayyorlash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Integratsion yondashuv ta’lim jarayonining tizimliligi, izchilligi va fanlararo bog‘liqligini ta’minlab, o‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkur, fazoviy idrok va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini faollashtiradi, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi hamda san’at ta’limining mazmunini boyitadi. Shu bilan birga, modulli o‘qitish, raqamli texnologiyalar, muammoli ta’lim va interfaol metodlardan foydalanish integratsion jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Perspektiva va Rangtasvir fanlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, o‘quvchilarda estetik did va badiiy tafakkurni shakllantirish hamda san’at ta’limining sifatini oshirishning muhim ilmiy-metodik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Babanskiy, Y.K. (1982). *Pedagogika: Umumiy o‘qitish nazariyasi*. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
2. Davıdov, V.V. (1996). *Teoriya razvivayushchego obucheniya*. Moskva: Intor.
3. Vıgotskiy, L.S. (1984). *Myshleniye i rech'*. Moskva: Pedagogika.
4. Leontyev, A.N. (1975). *Déyatel'nost'. Soznaniye. Lichnost'*. Moskva: Politizdat.
5. Talizina, N.F. (1988). *Upravleniye protsessom usvoyeniya znaniy*. Moskva: Pedagogika.
6. Ochilov, M. (2019). *Tasviriy san’at ta’limida innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Ro‘ziyev, A. (2020). *San’at ta’limida ijodiy yondashuv va o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
8. Rasulov, Z. (2021). *Tasviriy san’atni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish asoslari*. Toshkent: Istiqlol nashriyoti.
9. Tojiboyeva, Sh. (2022). *Tasviriy san’at pedagogikasida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi*. Toshkent: Innovatsion ta’lim markazi nashriyoti.
10. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
11. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
12. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books.
13. Karimov, A. (2023). “Oliy pedagogik ta’limda fanlararo integratsiyaning nazariy-metodik asoslari.” *Pedagogik ta’lim va innovatsiyalar jurnali*, №2, 45–52-betlar.
14. Tursunov, N. (2022). “Tasviriy san’at ta’limida modulli o‘qitish texnologiyasining samaradorligi.” *San’atshunoslik va metodika*, №4, 33–39-betlar.

TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA RANGLI QALAMLARNING AHAMIYATI

[1]Ismatov Ulfat Shuhratovich, [2]Baxromova Dilfuza Akramjonovna
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi dotsenti.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403148

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda rangli qalamlar bilan ishlash usulining samaradorligi tahlil qilinadi. Rangli qalamlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi, rassomlar ijodida ushbu materialdan foydalanganligi, shuningdek, bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning fikrlari tahlil etiladi. Maqolada rangli qalamlarning ta’lim jarayonidagi roli va ular orqali ijodiy fikrlashni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *rangli qalamlar, ijodiy qobiliyat, ta’lim, rassomlik, san’at, o‘zbek rassomlari, xorijiy rassomlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется эффективность метода работы с цветными карандашами в развитии творческих способностей студентов. Анализируется история возникновения и развития цветных карандашей, использование этого материала в творчестве художников, а также мнения ученых, проводивших научные исследования в этой области. В статье рассматривается роль цветных карандашей в образовательном процессе и вопросы формирования творческого мышления через них.*

Ключевые слова: *цветные карандаши, творческие способности, образование, живопись, искусство, узбекские художники, зарубежные художники.*

Abstract. *This article analyzes the effectiveness of the method of working with colored pencils in the development of students' creative abilities. The history of the emergence and development of colored pencils, the use of this material in the work of artists, as well as the opinions of scientists who conducted scientific research in this area are analyzed. The article examines the role of colored pencils in the educational process and the formation of creative thinking through them.*

Keywords: *colored pencils, creative abilities, education, painting, art, Uzbek artists, foreign artists.*


Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish talabalarning shaxsiy va kasbiy o‘sishida muhim o‘rin tutadi, Ijodkorlik nafaqat an’anaviy bilimlarni o‘zlashtirishga, balki muammolarni yangicha yondashuvlar bilan hal qilishga, innovatsiyalar yaratishga va jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashishga yordam beradi. San’at va dizayn sohasida rangli qalamlar bilan ishlash usuli nafaqat texnik ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki tasavvur, emotsional ifoda va muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyatlarini ham kuchaytiradi. Bu usul talabalarga ranglar orqali his-tuyg‘ularini ifodalash, fazoviy fikrlashni rivojlantirish va estetik sezgilarini oshirish imkonini berib, ularning kognitiv jarayonlarini boyitadi. Bundan tashqari,

rangli qalamlarning soddaligi va ko‘chma (portativ)ligi sababli, talabalar har qanday muhitda ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin, bu esa ta’limni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, pedagogika va san’at yo‘nalishlarida o‘qiyotgan talabalarga foydali bo‘lib, ularning kasbiy hayotida ijodiy yechimlar topishga asos yaratadi. Shu bois, rangli qalamlar nafaqat san’at vositasi, balki ta’limning keng doiradagi rivojlanish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism

Rangli qalamlarning tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi, ammo bu materialning rivojlanishi zamonaviy ta’lim va san’atga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Qadimgi Misr va Yunon davrida rangli bo‘yoqlar va kraxmallar bilan chizish usullari qo‘llanilgan bo‘lsa-da, zamonaviy ko‘rinishdagi rangli qalamlar XIX asr boshlarida shakllangan. 1834-yilda nemis kompaniyasi Staedtler tomonidan birinchi rangli qalamlar ishlab chiqarilgan, bu esa chizishni yanada aniq va rang-barang qilish imkonini bergan. (1-rasm)



1-rasm. XIX-asrning o‘rtalaridan boshlab Nyurnbergda joylashgan JS Shtedtler "Creta Polycolor" nomi ostida keng rangdagi qalamlarni taklif qildi. 1909 yildagi mahsulot illyustratsiyasi ularni boy bezatilgan paketlarda tasvirlaydi.

Ushbu innovatsiya san’atni ommalashtirishga yordam bergan va keyingi rivojlanishlarga asos bo‘lgan. 1924-yilda Faber-Castell va Caran d’Ache kompaniyalari rassomlar uchun mo‘ljallangan, mum yoki neft asosidagi pigmentlar bilan qoplangan maxsus rangli qalamlar chiqarganlar. Bu davrda rangli qalamlarning tarkibi pigmentlar, qo‘shimchalar va bog‘lovchilardan iborat bo‘lib, grafit va ko‘mir qalamlaridan farqli o‘laroq, ularning yadrosi mum yoki neftga asoslangan, bu esa yumshoq va bosqichma-bosqich ishlashga qulaylik yaratadi.

XX asrda rangli qalamlarning rivojlanishi Renessans davridagi rangli kraxmallardan zamonaviy sintetik bo‘yoqlargacha cho‘zilgan, bu jarayon san’at va ta’limdagi o‘rnini mustahkamladi. 1900-yillarning boshida Faber-Castell rassomlar uchun birinchi professional rangli qalamlar to‘plamini taqdim etgan, bu ranglar palitrasini kengaytirgan va rassomlarning ijodiy imkoniyatlarini oshirgan. Bugungi kunda rangli qalamlar ta’lim va terapiya sohasida keng

qo‘llanilmoqda, chunki ular toza, qulay va ko‘p qirrali vositalardir. Ushbu rivojlanish nafaqat texnik jihatdan, balki psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan ham rangli qalamlarning san’at ta’limidagi o‘rnini mustahkamladi, bu esa talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Rangli qalamlar xorijiy rassomlar orasida mashhur vosita bo‘lib, ularni realistik va abstrakt asarlarda qo‘llashadi, bu esa materialning ko‘p qirraliligini ko‘rsatadi. Masalan, amerikalik rassom Jesse Lane “Abyss” (2-rasm) asarida rangli qalamlar yordamida chuqur soyalar va teksturalarni yaratgan, bu emotsional chuqurlikni ta’minlagan. Tanja Gant “A Different Point of View” ishida optik illuziyalarni, John Smolko esa “Thompson (Father of Us All)”da hayvonlarni tasvirlagan, ularning asarlarida rangli qalamlarning aniq va nozik chizgilar yaratish qobiliyati namoyon bo‘lgan. Gretchen Parker va Lui Ferreyra rangli qalamlar orqali vibratsion ranglarni va texnologik effektlarni qo‘llagan, bu zamonaviy san’atda innovatsiyalarga misol. David Xokni 1970-yillarda portretlarida rangli qalamdan foydalangan, bu uning asarlariga noyob ifoda bergan. Kanadalik inuit rassomi Annie Pootoogook qalam bo‘yoqlar bilan chizgan rasmlari bilan mashhur bo‘lib, uning ijodi madaniy merosni aks ettiradi. Ushbu xorijiy misollar rangli qalamlarning ijodiy jarayonda qanchalik samarali ekanligini tasdiqlaydi va talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Rangli qalamlarning ijodiy qobiliyatlarga ta’siri bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar mavjud bo‘lib, ular materialning psixologik va pedagogik samarasini tasdiqlaydi. Xorij olimlaridan Pratiwi va Budisetyani tadqiqotida chizish va bo‘yash mashqlari bolalarning fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash qobiliyatini oshirishi ko‘rsatilgan, bu rangli qalamlarning emotsional rivojlanishdagi rolini ta’kidlaydi. Koreyalik olim Kim va boshqalar grafik materiallarining terapevtik ta’sirini o‘rganib, rangli qalamlar stressni kamaytirishda va kayfiyatni yaxshilashda samarali ekanligini aniqlaganlar. Wright bolalikdagi san’at va ijodkorlik haqidagi ishida chizishdan bo‘yoqda ishlashgacha o‘tish jarayonini tasvirlab, rangli qalamlarning bolalarda tasavvurni shakllantirishdagi rolini belgilagan, bu kognitiv rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



2-rasm. Jesse Lane, “Abyss,” colored pencil on Strathmore bristol board, 39 x 28 in.

Olimlar fikriga ko‘ra, rangli qalamlar bolalarning motorik ko‘nikmalarini, fazoviy fikrlashini va emotsional farovonligini rivojlantiradi. Shuningdek, ranglarning inson kayfiyati, xotirasi va diqqatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan tasdiqlangan bo‘lib, bu talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, rangli qalamlarning ranglari kayfiyat, xotira va diqqatga ijobiy ta’sir qilishi ilmiy jihatdan tasdiqlangan, bu esa talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda asosiy omil bo‘ladi.

Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda rangli qalamlar bilan ishlash quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin, bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishni ta’minlaydi:

1. asosiy texnikalarni o‘rgatish (chizish, bo‘yash, qatlamlash), bu motorik ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi;

2. mavzuli mashg‘ulotlar (portret, manzara), ular emotsional ifodani oshiradi;

3. ijodiy loyihalar (abstrakt kompozitsiyalar), bu ijodiy fikrlashni shakllantiradi.

Bu usul talabalarning his – tuyg‘ularini kuchaytiradi va muammolarni ijodiy hal qilishga undaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rangli qalamlar grafikalar orqali realistik chizmalarning global xususiyatlarini shakllantiradi, bu esa egallanadigan ko‘nikmalarni (kuzatuvchanlik) rivojlantiradi.

Bosqich Mashg‘ulot turi Kutilyotgan natija

1. Asosiy chizish - Motorik ko‘nikmalar
2. Mavzuli bo‘yash - Emotsional ifoda
3. Loyiha - Ijodiy fikrlash

Ushbu yondashuv o‘zbek ta’lim tizimiga moslashtirilganda, mashxur rassomlarning asarlaridan ilhomlanish talabalarning madaniy o‘ziga xosligini kuchaytiradi va ijodiy jarayonni milliy kontekstga bog‘laydi.

Xulosa

Rangli qalamlarning tarixiy rivoji va rassomlarning ijodidan ko‘rinib turibdiki, ular san’at ta’limining muhim vositasi bo‘lib, xorijiy va o‘zbek ijodkorlar tomonidan samarali qo‘llanilgan. Ilmiy tadqiqotlar esa ularning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi rolini tasdiqlaydi. Talabalarda ushbu usulni qo‘llash orqali nafaqat texnik, balki kognitiv va emotsional o‘sishni ta’minlash mumkin. Kelgusida bu borada eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi, bu ta’lim jarayonini yanada takomillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. History of Colored Pencils - Types and Facts. URL: https://www.historyofpencils.com/writing-instruments-history/history-of-colored-pencils/
2. Ismatov, U. S. Rangtasvir. O ‘quv qo ‘llanma.,“Nazokathon ziyo print”., Chirchiq-2023.
3. Colored pencil - Wikipedia. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Colored_pencil
4. The History of Colored Pencils: A Journey Through Time. URL: https://luukminkman.com/en/blog/the-history-of-colored-pencils/
5. Ismatov, U. S. (2020). TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA GRAFIK MATERIALLARDA ISHLASHGA O‘RGATISH (GUASH BO ‘YOG ‘I MISOLIDA). Academic research in educational sciences, (2), 355-360.
6. How children’s thoughts were put into colour | STAEDTLER. URL: https://www.staedtler.com/intl/en/discover/how-childrens-thoughts-were-put-into-colour/

7. Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of working on graphic materials in fine arts classes (on the example of working still life in the pen). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(4), 41-45.
8. 7. Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of Working on Graphic Materials in Fine Arts Classes. Journal of Asian Multicultural Research for Educational Study, 1(2), 1-4.
9. 7 Winning Colored Pencil Works - Fine Art Connoisseur. URL: https://fineartconnoisseur.com/2019/09/colored-pencil-art/
10. 6 Colored Pencil Artists Who Masterfully Create Lifelike Drawings. URL: https://mymodernmet.com/color-pencil-art/
11. Enhancing Children's Creativity Through Drawing and Coloring. URL: https://www.ijmcer.com/wp-content/uploads/2024/11/IJMCER_G06604551.pdf
12. The unique therapeutic effect of different art materials on... URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0197455614000501
13. Art and Creativity in Early Childhood - ResearchGate. URL: https://www.researchgate.net/publication/332428007_Art_and_Creativity_in_Early_Childhood
14. The Impact of Colored Pencils on Children's Artistic Growth and... URL: https://eternalportraits.ca/the-impact-of-colored-pencils-on-childrens-artistic-growth-and-creativity/
15. How Color Pencils Spark Creativity and Enhance Learning. URL: https://cpencils.com/tips/how-color-pencils-spark-creativity-and-enhance-learning/

TASVIRIY SAN’ATDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI VA QONUNIYATLARI

[1]Karaxanova Tumaris Oljas qizi, [2]Xaydarova Charos Xamza qizi
[1,2]San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi 2- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403160

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy san’atda kompozitsiyaning ahamiyati, nazariy asoslari, qonuniyatlari va amaliy ahamiyati yoritiladi. Kompozitsiya san’at asarining g‘oyaviy mazmunini ochib beruvchi, badiiy ta’sirchanligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri sifatida tahlil qilinadi. Unda markaz, ritm, muvozanat, proporsiya, kontrast va rang uyg‘unligi kabi qonuniyatlarning o‘rni ko‘rsatiladi.*

Shuningdek, statik va dinamik, simmetrik va assimmetrik, dekorativ va konstruktiv kompozitsiya turlarining xususiyatlari yoritiladi. Kompozitsiyaning ta’lim jarayonida o‘qitilishi, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va estetik didni shakllantirishdagi o‘rni alohida e’tibor bilan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Kompozitsiya, muvozanat, tafakkur, ritm, peysaj, proporsiya, kontrast, dekorativ, assimetrik, dinamik, simmetrik.*

Abstract: *This article highlights the importance, theoretical foundations, principles, and practical significance of composition in fine arts. Composition is analyzed as one of the most important factors that reveal the ideological content of a work of art and increase its artistic impact. It shows the role of such laws as center, rhythm, balance, proportion, contrast, and color harmony.*

The features of static and dynamic, symmetrical and asymmetrical, decorative and constructive types of compositions are also highlighted. Special attention is paid to the teaching of composition in the educational process, its role in the formation of creative thinking and aesthetic taste in students.

Keywords: Composition, balance, thinking, rhythm, landscape, proportion, contrast, decorative, asymmetric, dynamic, symmetric.

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение, теоретические основы, закономерности и практическое значение композиции в изобразительном искусстве. Композиция анализируется как один из важнейших факторов, раскрывающих идейное содержание произведения искусства и повышающих его художественную выразительность. В нем показана роль таких закономерностей, как центр, ритм, равновесие, пропорция, контраст и цветовая гармония. Также освещаются особенности статических и динамических, симметричных и асимметричных, декоративных и конструктивных видов композиций. Особое внимание уделяется преподаванию композиции в образовательном процессе, ее роли в формировании творческого мышления и эстетического вкуса у учащихся.*

Ключевые слова: *Композиция, равновесие, мышление, ритм, пейзаж, пропорция, контраст, декоративный, асимметричный, динамичный, симметричный.*

Tasviriy san’at qadimdan insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. U nafaqat estetik zavq manbai, balki inson tafakkurini, dunyoqarashini, ijodiy qobiliyatlarini

shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida qadrlanadi. Har qanday san’at asarining badiiy darajasi, avvalo, uning kompozitsion qurilishiga bog‘liq.

Kompozitsiya orqali rassom o‘z fikrini ifoda etadi, tasvir elementlarini bir butunga uyg‘unlashtiradi va tomoshabinga kerakli hissiy ta’sirni yetkazadi.

Bugungi kunda tasviriy san’atni o‘qitishda kompozitsiya masalalarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kompozitsiya qonuniyatlarini bilmagan o‘quvchi yoki talaba san’at asarini yaratishda muvozanat, ritm, rang uyg‘unligi kabi tushunchalarni to‘g‘ri qo‘llay olmaydi.

Shu bois maqolada kompozitsiyaning mohiyati, asosiy qonuniyatlari va uni ta’lim jarayonida o‘qitish metodlari tahlil qilinadi.

Kompozitsiyaning nazariy mohiyati: “Kompozitsiya” atamasi lotincha compositio – “tuzish”, “joylashtirish” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, san’atda tasvir elementlarini yagona g‘oya asosida tartibga solish jarayonini anglatadi.

Rassom asar yaratishda tasvir elementlarini bevosita kompozitsiya qonuniyatlariga tayangan holda joylashtiradi. Bu jarayon o‘z ichiga chiziqlar, shakllar, ranglar, yorug‘lik-soya va bo‘shliqning bir butunlikda uyg‘unlashuvini oladi.

Kompozitsiya asarning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki ichki mazmunini ham belgilaydi. U tomoshabinning e’tiborini kerakli nuqtaga yo‘naltiradi, asar kayfiyatini shakllantiradi va badiiy ta’sirchanlikni oshiradi.

Kompozitsiya qonuniyatlari: Kompozitsiya nazariyasida quyidagi asosiy qonuniyatlar alohida o‘rin tutadi: Markaz – har bir asarda diqqatni jalb qiluvchi asosiy nuqta bo‘lishi kerak. Masalan, portret asarlarida bu insonning yuzi yoki ko‘zlari bo‘lishi mumkin. Ritm – tasvir elementlarining ma’lum tartibda takrorlanishi. Bu ko‘proq bezak san’atida yoki peyzajlarda kuzatiladi.

Tasviriy san‟atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatni ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlagan. Lekin ibtidoiy davr odamlari hayotni zehn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo„sh rivojlangan. Bunday holatni odam gavdasi va hayvon podalarini tartibsiz alohida tasvirida ko„rishimiz mumkin. Qadimgi sharq san‟atidagi kompozitsiya ibtidoiy davridan farq qiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat’iy ma’lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatining (marosimlari) qonunlariga bo‘ysundirilgan.

Muvozanat – kompozitsiyada elementlarning og‘irlik markazi bir tomonga og‘ib ketmasligi lozim. Aks holda siz chizayotgan kompozitsiyaning muvozanati buziladi va yaxshi natija bermaydi. Muvozanat simmetriya va assimetriya orqali ta’minlanadi.

Proporsiya – qismlarning butunga nisbatan mutanosibligi. Bu qonuniyat inson qiyofasini yoki predmetlarni to‘g‘ri tasvirlashda muhimdir. Yani yaratilayotgan kompozitsiyangizning tuzilish jihatdan predmetlarning bir-biriga nisbatan mutannosibligi tushuniladi.

Kontrast – qarama-qarshi elementlarni qo‘llash orqali ta’sirchanlikni kuchaytirish. Masalan, qora va oq, katta va kichik shakllar bir-birini kuchaytiradi, shu bilan bir qatorda asaringizning yanada mazmunli chiqishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Rang uyg‘unligi – asarda ranglarning hissiy ta’sirini to‘g‘ri tanlash va uyg‘unlashtirish. Bu qonuniyatlarga rioya qilinmasa, asar tartibsiz, mazmunsiz yoki hissiy kuchsiz ko‘rinadi.

Bunday hatoliklarga yo‘l qo‘yishdan oldin, kompozitsiyaning asosiy mazmun, mohiyatini bilib olish kifoya.

Kompozitsiya turlari: Kompozitsiya turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Statik kompozitsiya – tinchlik, barqarorlikni ifodalaydi. Odatda simmetrik joylashuvga asoslanadi.

Dinamik kompozitsiya – harakat, kuch va rivojlanishni aks ettiradi. Sport, jang yoki hayotiy voqealarni tasvirlashda qo‘llanadi.

Simmetrik kompozitsiya – tartib va uyg‘unlik hissini uyg‘otadi. Chizilgan asaringizda predmetlarning tartib va qonun qoidalar bilan joylashganini bevosita anglaysiz.

Assimmetrik kompozitsiya – erkinlik va harakatni kuchaytiradi. Yanada aniqroq qilib aytganda assimmetrik kompozitsiyada siz yanada ko‘proq fikralaysiz va dunyo qarashingizning qanchalik kengligi namoyon bo‘ladi.

Dekorativ kompozitsiya – bezak maqsadida ishlatiladi, ko‘proq naqsh va ornamentlarda qo‘llaniladi. Bunday kompozitsiyalar insonga zavq va quvonchni targ‘ib qiladi.

Konstruktiv kompozitsiya – muhandislik va texnik chizmalar bilan bog‘liq bo‘lib, buyumlarning tuzilishini aniq ifodalaydi. Aniqroq qilib aytganda konstruktiv kompozitsiya asosan muhandislik chizmalarini o‘z ichiga oladi. Masalan: uy, korxona, maktab va biznes binolarini va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Kompozitsiyaning ta’lim jarayonidagi ahamiyati: Ta’lim jarayonida kompozitsiyani o‘rgatish o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantiradi. Ta’lim jarayonida kompozitsiyaning ahamiyati juda katta bo‘lib, bolalarning dunyoqarashini shakillantirishda va hayotni yanada yorqin ranglar bilan ko‘rishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- Eskiz ishlash – oddiy chiziqlar asosida kompozitsiya qurishni mashq qilish.
- Rangli topshiriqlar – rang uyg‘unligini his qilish va tanlash.
- Ijodiy loyihalar – mavzu asosida mustaqil san’at asarini yaratish.
- Tahlil va baholash – mashhur rassomlarning asarlaridagi kompozitsion yechimlarni muhokama qilish.

Ushbu jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularda san’atga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Xulosa

Kompozitsiya tasviriy san’atning nazariy va amaliy jihatdan eng muhim bo‘g‘inidir. U asarning badiiy mazmunini ochadi, tomoshabinda hissiy ta’sir uyg‘otadi va asarning estetik qiymatini belgilaydi. Kompozitsiya qonuniyatlarini bilish rassom uchun zarur bo‘lishi bilan birga, san’at ta’limida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida kompozitsiya mavzusiga e’tibor qaratish orqali o‘quvchilar ijodiy tafakkurini kengaytirish, estetik didini shakllantirish va san’atga mehr uyg‘otish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdirasilov N. Tasviriy san’at asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Mirali Jabborovich Maxmudov (2022). KOMPOZITSIYANING TARIXI VA RIVOJLANISHI. Academic research in educational sciences, 3 (12), 403-408.
3. Jalilov A. Kompozitsiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Xusanov Sh. San’atshunoslik asoslari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
5. Arnheim R. Art and Visual Perception. – Berkeley: University of California Press, 2004.
6. Kandinskiy V. O duchovnom v iskusstve. – Moskva: Iskusstvo, 1992.
7. Gombrich E. H. The Story of Art. – London: Phaidon Press, 2006.

BOSHLANG‘ICH TA`LIMGA QO‘YILAYOTGAN ZAMONAVIY TALABLAR

[1]Mahkamova Shohida Rahmatullayevna, [2]Usmonova Fatima Ibragimovna
[1]Chirchiq davlat pedagogika universitetiMusiqa ta’limi kafedarsi dotsenti
[2]Chirchiq davlat pedagogika universitetiMusiqa ta’limi yo‘nalishi 4-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403175

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Boshlang‘ich ta`lim konsepsiyasining” ahamiyati va ta’lim mazmuniga qo‘yilayotgan zamonaviy yondashuvlar hamda o‘quvchilarning o‘qish va tushunish darajasini oshirish yuzasidan fikrlar yuritilgan.*
Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ta’lim konsepsiyasi, o‘quv dasturi*
Аннотация. *В статье обсуждается важность «Концепции начального образования» и современные подходы к содержанию образования, а также идеи по улучшению чтения и понимания учащимися.*
Ключевые слова: *начальное образование, образовательная концепция, учебная программа.*
Annotation. *The article discusses the importance of the "Concept of Primary Education" and modern approaches to the content of education, as well as ideas for improving the reading and understanding of students.*
Keywords: *primary education, educational concept, curriculum*

O‘qish savodxonligini oshirish o‘qish darslarini tashkil etilishi bilan bo‘gliq. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o‘qish ta'limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikmamalakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta'limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda «O‘qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. Respublikamizda “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi” hamda boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualarda o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonlikni rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, o‘qituvchilarni o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni tarkib toptirishga tayyorlashning pedagogic mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “yosh avlodning ijodiy va intellectual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ro‘yobga chiqarish” kabi muhim vazifalar belgilab berildi[1]. Bu esa, o‘qish darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida

tayanch va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirishning ijtimoiypedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. O‘qish savodxonligi – shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir[2]. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma’naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan[3]. Asar tahlili jarayonida o‘qituvchi savollariga o‘quvchilarning o‘z so‘zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo‘lmasdan, qat’iy maqsad asosida izchil berilishi o‘quvchilarning o‘qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi. Ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning o‘zlarini ham savol tuzishga o‘rgatishlozim. K.D.Ushinskiy qayd etganidek, to‘g‘ri qo‘yilgan masalaning o‘zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o‘quvchining dars mavzusi bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo‘l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o‘quvchini ongli va tushunib o‘qishga yo‘llaydi. Uning o‘ziga xos xususiyatini o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish orqali dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi [4]. O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha ham bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi. Bular Ichida istiqlol, vatan, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan maqsad o‘zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularini uyg‘otishdir. Ta`lim mazmuni va sifatiga qo‘yilayotgan xalqaro baholash talablari bo‘yicha o‘quvchilarning quyidagi bilish darajalari baholanadi: Erkin va ravon o„qish; Matn ichidagi ma’lumotlarni olish va foydalanish; Tegishli matnni qidirish va saralash; So‘zma-so‘z ma’nosini tasvirlash; Shakl va mazmun ustida mulohaza yuritish; Sifat va ishonchlilikni baholash; Qarama-qarshiliklarni aniqlash va qayta ishlash; Xulosalarni umumlashtirish va hosil qilish. Ushbu bilish darajalari asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlay olish, xulosalar chiqarish, taqqoslash, bir yoki bir nechta matnni to‘liq va batafsil tushunish, bir nechta matnlardan ma'lumotlarni birlashtirish kabi fikrlash operatsiyalari shakllanadi.

ADABIYORLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 6-son, 70-modda.
2. Sh.R.Mahkamova.Imkoniyati cheklangan bolalar va har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalashda musiqaning o‘rni. Maxsus son № 1 http//libruary.cspi.uz/book/69. Mahkamova SH.R., Таълим жараёнида ўқувчи ва талабалар билимини баҳолаш усуллари ва методикаси // Экономика и Социум //№11(90) 2021 Mahkamova Sh.R., Asadullayeva M.A., Бошланғич синф ўқувчиларининг мусиқий идрокини шакллantirish // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES 2021, 1334-1338-бет

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA TASVIRIY SAN’ATNING O‘RNI

I.Mamatov, [1]X. In’omova
[1]Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi 1-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403186

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy san’at va ko‘rgazmali qurollarning tadbiq qilinishi yosh avlodni bilimli va barkamol qilib tarbiyalashda tutgan o‘rni haqida ma`lumot berilgan.*

Annotation. *This article provides information about the role of the application of visual arts and visual aids in aducating the young generation to be educated and mature.*

KIRISH

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishda salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlarni yaratish orqali O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratish g‘oyasini ilgari surmoqdalar. Binobarin, respublikamiz aholising 64 % ini yoshlar tashkil qiladi. Shuningdek, yoshlarning ma`nan va axloqiy jihatdan yetuk, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashda san’at va madaniyatning roli ayniqsa muhimligini ta`kidash lozim.

Hozirgi zamon psixologiyasining erishgan natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolaning tafakkurini ko‘rgazmali obrazli yo‘ li bilan shakillantirish kerak. Shu jumladan, o‘zlashtirilgan bilimlarning taxminan 90% ini ko‘z orqali qa`bul qilingan ma`lumotlar tashkil qiladi.

O‘quvchi bolalarni kitob mutolaasiga qiziqtirishda, kitoblarga ishlangan rasmlar va illustratsiyalar ham muhim rol o‘ynaydi. Kitob grafikalari bolalarni, umuman, o‘quvchi yoshlarni kitob mutolaasiga qiziqtirish bilan birga, ularni fantaziya va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga va kitob mazmunini umumlashgan holda aks ettirishga ham xizmat qiladi.

Kitob illustratsiyalari chizish bizning Sharqda qog‘oz ishlab chiqarish sanoati xitoydan o‘zlashtirilganidan buyon mavjud bo‘lib, bu san’at ``Kitobot san’ati`` darajasiga ko‘tarilgan. Mazkur sohada Juna-id Bag‘dodiy, Xoja Abdulxay, Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib va boshqa ko‘plab rassomlar ijod qilishga bo‘lsa, XX asrning 30-yillarida Iskandar Ikromov, 40-50-yillarida Usto Mo‘min, Vladimir Kaydalov, Chingiz Ahmarovlar o‘zbek kitob grafikasiga rivojiga katta hissa qo‘shdilar.

Har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashda tasviriy san’atning o‘rni katta hisoblanadi.

Manzara janridagi asarlarni kuzatish orqali yoshlarda tabiatga muhabbatni kuchaytirishda, go‘zal tabiatni asrab-avaylash va undan zavqlanish kabi etik va estetik madaniyatni shaklantirishda muhin rol o‘ynaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yosh avlodga o‘z ona tarixini bilishga qiziqtirishda, tarixiy voqealarni tahlil qilishda, tarixiy bilim berishda va ularning ongida milli o‘zlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda tarixiy janrga mansub asarlarni o‘rganish ham muhim.

So‘nggi 20 yil ichida san’atning zamonaviy grafik dizayn turi ham o‘z o‘rnini topdi. San’atning bu zamonaviy turini ta`lim sohasiga jalb qilish orqalibiz yaxshigina yutuqlarga erishishimiz mumkin. Maktab fanlaridan misol uchun, Kimyo, Fizika fanlarini oladigan bo‘lsak,

ushbu fanlarni o‘rganishda ko‘zga ko‘rnmas zarralarni va hodisalarni tasvvur etishga to‘g‘ri keladi. Bunda agar biz, darslarni grafik va moushn

(“motion” -- ing. “harakatli”) grafik dizaynli ko‘rgazmali qurollar yordamida o‘tsak, bugungi XXI asr - axborot asrida yoshlarga ma`lumotlarni nisbatan tushunarliroq va shu bilan birgalikda, qiziqarli va ko‘p miqdorda berishga erishamiz. Buning uchun, albatta ta`lim sohasiga yetarlicha zamonaviy axborot tehnologiyalarini joriy qilinishi zamonaviy bilimlarga ega kadrlar zarur hisoblanadi.

XULOSA

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan, ma`lumotlarning ulkan oqimi o‘rab turgan davrda yuksak bilimli va salohiyatli, badiiy va estetik jihatdan barkamol, yuqori intellekt darajasiga ega yoshlarni tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu vazifani bajarishda pedagoglar, madaniyat va san’at xodimlarining, xususan, rassomlarning mas’uliyati kattadir. Buning vazifani yoshlar qalbida tasviriy san`tga mehr uyg‘otish, ularni san’at galereyalariga jalb qilish va shu bilan birgalikda, zamonaviy psixologik va pedogogik bilimlardan maksimal darajada foydalangan holda amalga oshirish lozimdir. Zero bu borada o‘rta asrning buyuk olimi Abu Ali Ibn Sino shunda degan edi:

“Ustoz yuksak qalbli, mard, pok, ta’lim-tarbiyaning barcha usulini mukammal biladigan va e`tiqodli bo‘lishi shart.”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Botir Boymetov. “Qalamtasvir”- 2007
2. S. Tolibovich. “Sciene and Innovation” journal -2022
3. “Academic research in Educational Scienses” S.T.Sobirov. Vol. ISSN 2181-1385.

LIBOS DIZAYNIDA KIGIZ KASHTALARINING AHAMIYATI, TURLARI VA UNDAGI TUTGAN O‘RNI

Marasulova Izzat Muxamatsultanovna[1], Zarifova Nigina O‘tkir qizi[2]
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403194

Annotatsiya. *Mazkur maqolada libos dizayni san’atida kigiz kashtalarining estetik, ramziy va amaliy ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Kigiz kashtachilik san’ati o‘zining tarixiy ildizlari, naqsh kompozitsiyalari hamda ramziy belgilar tizimi orqali xalqning madaniy merosi va badiiy didini aks ettiradi. Tadqiqot davomida kigiz kashtalarining turlari, libos dizaynida qo‘llanilish xususiyatlari hamda ularning zamonaviy modadagi transformatsiyasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda kigiz kashtalarining roli tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *kigiz, kashta, libos dizayni, naqsh, estetik meros, milliy qadriyat, an’anaviy san’at.*

Аннотация: *В данной статье представлен научный анализ эстетического, символического и практического значения войлочной вышивки в искусстве дизайна одежды. Искусство войлочной вышивки через свои исторические корни, орнаментальные композиции и систему символических знаков отражает культурное наследие и художественный вкус народа. В ходе исследования рассматриваются виды войлочной вышивки, особенности её применения в дизайне одежды, а также её трансформация в современной моде. Также анализируется роль войлочной вышивки в сохранении и развитии национальных ценностей.*

Ключевые слова: *войлок, вышивка, дизайн одежды, орнамент, эстетическое наследие, национальная ценность, традиционное искусство.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the aesthetic, symbolic, and practical significance of felt embroidery in the art of clothing design. The art of felt embroidery, through its historical roots, ornamental compositions, and system of symbolic signs, reflects the nation's cultural heritage and artistic taste. The research examines the types of felt embroidery, the specifics of its application in clothing design, and its transformation in modern fashion. Additionally, the role of felt embroidery in the preservation and development of national values is analyzed.*

Keywords: *felt, embroidery, clothing design, ornament, aesthetic heritage, national value, traditional art.*

O‘zbekiston xalq amaliy san’ati, xususan kashtachilik san’ati, milliy madaniyatimizning eng qadimiy va rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Kashtachilik san’ati nafaqat bezak vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, ramziy qarashlari va ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarining ifodachisi sifatida ham muhimdir. Ayniqsa, Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlarida bu hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Bu hududlarda yaratilgan kigiz buyumlari o‘zining naqshlari, ranglari va texnikasi bilan ajralib turadi.

Shu jumladan, kigiz asosidagi kashtachilik san’ati qadimdan turkiy xalqlar madaniyatida keng tarqalib, amaliy hayotda, liboslarda, uy-ro‘zg‘or buyumlarida va marosimiy an’analarida qo‘llanib kelgan. Bugungi globallashuv jarayonida milliy libos dizaynida kigiz kashtalaridan foydalanish nafaqat estetik talablarga javob beradi, balki milliy o‘zlikni asrash, madaniy merosni davom ettirish hamda uni zamonaviy san’at bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi.

Kigiz kashtalarining tarixiy genezisi va madaniy ahamiyati: Kigiz qadimiy turkiy xalqlarning ijtimoiy-maishiy turmushida keng qo‘llanilgan material bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari — chidamliligi, issiqlikni ushlashi va ekologik tozaligi bilan ajralib turadi. Kigiz asosida yaratilgan kashtalar turli naqsh va ramzlar orqali xalqning dunyoqarashi, kosmogonik qarashlari, diniy e’tiqodlari va badiiy didini ifodalagan. Shu sababli kigiz kashtalari nafaqat amaliy san’at mahsuli, balki xalqning ma’naviy boyligining ko‘zgusi sifatida qaraladi.

Kigiz kashtalari bu - kigiz (qo‘y yoki boshqa hayvonlarning junidan tayyorlangan zich mato) ustiga turli xil usullar bilan naqshlar tikish orqali yaratiladigan dekorativ - amaliy san’at turi. Bu hunarmandchilik turi o‘zbeklar orasida ham qadimdan keng tarqalgan.

Kigiz kashtalarining xususiyatlari:

Material: Asosiy material - bu tabbiy jun tolalaridan presslash yo‘li bilan tayyorlangan kigizdir. Kigizning zichligi va sifati kashtaning mustahkamligi va chidamliligini ta’minlaydi.

Tikish usullari: Kigizga naqsh tikish uchun turli xil usullar qo‘llaniladi. Bularga zanjirli chok, tamg‘a chok, bosma chok va boshqa dekorativ choklar kiradi. Ba’zan, kashtalar kigizning o‘zidan applikatsiya usulida ham yaratilishi mumkin.

Ranglar: Kashtalarda ishlatiladigan iplar, odatda, tabiiy bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan. Shuning uchun ranglar yorqin va jozibali bo‘ladi. Hozirgi kunda sintetik bo‘yoqlar ham ishlatilishi mumkin.

Funksiyalari: Kigiz kashtalari nafaqat uy-ro‘zg‘or buyumlarini (devorga osiladigan panolar, joynamozlar, sandiq qopqoqlari, o‘tov jihozlari) bezash uchun, balki amaliy maqsadlarda ham (kiyim-kechak, poyabzal elementlari) ishlatilgan.

Kigiz kashtalarining turlari va ularning semantik talqini: Kigiz kashtalari naqsh kompozitsiyasiga ko‘ra quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

Geometrik naqshlar – chiziq, romb, doira va yulduz shaklidagi naqshlar bo‘lib, ular tartib, barqarorlik va kosmos timsoli sifatida talqin etilgan.

O‘simliksimon naqshlar – gul, barg, novda tasvirlari hayotiylik, serhosillik va tabiat uyg‘unligini bildirgan.

Zoomorf naqshlar – ot, qo‘y, qush kabi hayvon obrazlari kuch, himoya va baraka timsoli bo‘lib xizmat qilgan.

Kosmogonik va ramziy naqshlar – quyosh, oy, yulduz belgilarida ifodalangan bo‘lib, ular diniy-falsafiy qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Libos dizaynida kigiz kashtalarining tutgan o‘rni. Kigiz kashtalari libos dizaynida bir nechta funksional va estetik vazifalarni bajaradi:

Dekorativ vazifa – libosning umumiy ko‘rinishini boyitib, milliylik ruhini ta’minlaydi.

Identifikatsion vazifa – naqshlar orqali ma’lum hudud, ijtimoiy mavqe yoki oilaviy qadriyatlarni ifodalash imkonini beradi.

Ramziy-falsafiy vazifa – libos kiyuvchining dunyoqarashi va an’anaviy qarashlarini badiiy shaklda namoyon etadi.

Amaliy vazifa – kigiz materiali issiqlikni saqlash, uzoq muddat xizmat qilish va ekologik xavfsizlik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Zamonaviy dizaynda qo‘llanilish yo‘nalishlari

Zamonaviy modada kigiz kashtalari yangi talqinlarda qo‘llanilib, xalqaro moda maydonlarida milliylik ramzi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Dizaynerlar ularni: milliy liboslar kolleksiyalarida, sahna kostyumlarida, zamonaviy aksessuarlar (sumka, kamar, poyabzal)da, interyer dizaynida muvaffaqiyatli qo‘llamoqdalar.

Bunday yondashuv milliy san’atni modernizatsiya qilish, uni jahon madaniyatiga integratsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko‘rinadiki, kigiz kashtalari libos dizaynida nafaqat estetik-bezak vazifasini, balki xalqning tarixiy-madaniy merosini, ramziy qarashlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Ularning turlari, naqsh kompozitsiyasi va semantik mazmuni libos dizaynini milliy ruhda boyitibgina qolmay, balki zamonaviy moda san’atida o‘ziga xos milliy brend sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois kigiz kashtalarini chuqur tadqiq etish, ularni amaliy dizayn jarayonlariga keng tatbiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, M. (2020). O‘zbek amaliy san’ati va dizayn asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy nashriyoti.
2. Yo‘ldosheva, Z. (2019). Kashtachilik san’ati tarixi va rivoji. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Rashidova, D. (2021). “Kigiz buyumlar va ularning xalq madaniyatidagi o‘rni.” Madaniyat va san’at jurnali, №3.
4. Nurmatova, L. (2022). Milliy libos dizaynida an’anaviy bezaklarning qo‘llanilishi. Toshkent: TDPU ilmiy nashri.
5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2023). Xalq amaliy san’ati materiallari to‘plami. Toshkent.

KULOLCHILIK: MEROSDAN ZAMONAVIY RIVOJLANISHGA

[1]Marasulova Izzat Muxamatsultanovna, [2]Inomov Sulaymon Obid o'g'li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi dotsenti.[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403250

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekiston badiiy kulolchilik an'analarining tarixiy ildizlari, milliy qadriyat sifatidagi ahamiyati, davlat siyosati va hujjatlar orqali berilayotgan imtiyozlar, oliy va kasb-hunar ta'lim muassasalari hamda yoshlarni hunarga jalb etish borasidagi amaliy tashabbuslar haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada shuningdek, xalqaro maydondagi hamkorliklar va Chirchiq davlat pedagogika universiteti misolida erishilgan yutuqlar ko'rib chiqiladi.*
Kalit so'zlar: *kulolchilik, hunarmandchilik, milliy qadriyatlar, TurkSIB, xalqaro festival, ustoz-shogird.*
Аннотация. *В статье подробно рассматриваются исторические корни узбекской художественной гончарной традиции, её значение как национальной ценности, преимущества, предоставляемые государственной политикой и документами, высшими и средними профессиональными учебными заведениями, а также практические инициативы по привлечению молодёжи к этому ремеслу. В статье также рассматриваются международное сотрудничество и достижения Чирчикского государственного педагогического университета.*
Ключевые слова: *гончарное дело, ремесло, национальные ценности, TurkSIB, международный фестиваль, учитель-ученик.*
Abstract. *This article provides detailed information about the historical roots of the Uzbek artistic pottery tradition, its importance as a national value, the benefits provided through state policies and documents, higher and vocational educational institutions, and practical initiatives to attract young people to the craft. The article also examines international cooperation and achievements in the case of Chirchik state pedagogical university.*
Keywords: *pottery, handicraft, national values, TurkSIB, international festival, teacher-student.*

Kirish. Kulolchilikning paydo bo'lishi va tarixiy ildizlari.

Kulolchilik - odamzodning eng qadimiy hunarlaridan biri. O'zbekiston hududidagi arxeologik qazishmalar Movarounnahr, Farg'ona vodiysi va Xorazm hududlarida miloddan avvalgi davrlarga oid sopol buyumlarni (idishlar, bezakli sopol parchalar, badiiy elementlar) aniqlab bergan. Ushbu topilmalar shuni ko'rsatadiki, kulolchilik turli mintaqalarda mustaqil maktablar va an'analarni shakllantirgan — Rishton, G'ijduvon, Xiva, Shahrisabz va boshqa markazlar o'ziga xos texnika va naqshlarni asab etgan.

Har bir maktabning o'z xususiyati bor: Rishton chinni bo'yashi va rang-barang naqshli idishlari bilan mashhur; G'ijduvon geometrik va floral naqshlar, Xiva esa tarixiy shaharlik bezak elementlari bilan ajralib turadi. Ushbu an'analar asrlar davomida ustadan shogirdga o'tib kelgan va bugungi kunda ham san'atkorlar tomonidan saqlanmoqda.

Kulolchilik va milliy qadriyatlar.

Kulolchilik buyumlari - milliy xotiraning moddiy tashuvchilari. Ular bayram, oilaviy marosimlar, yozma va og‘zaki dasturlar orqali ham jamiyatning madaniy kodlarini ifodalaydi. Naqshlar, ranglar va texnik usullar madaniy identitetni shakllantirishda mukammal vositadir.

Bugungi kunda kulolchilik nafaqat madaniy merosni saqlash vositasi, balki turizm, mahalliy ishlab chiqarish va eksport orqali iqtisodiy imkoniyat ham yaratmoqda. Shu bois uni rivojlantirish davlat siyosatida muhim o‘rin olmoqda.

O‘zbekiston hukumati siyosati, farmon va qarorlar.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston rahbariyati milliy hunarmandchilik, jumladan kulolchilikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator hujjatlarni qabul qildi. Ushbu hujjatlar amaliy yordam, ijtimoiy kafolatlar, moliyaviy imtiyozlar va xalqaro maydonda tanitish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Eng asosiy hujjatlardan biri - Prezidentning 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-sonli farmoni “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Ushbu farmon orqali hunarmandlarga pensiya va ijtimoiy imtiyozlar, mikrokreditlar va ‘Hunarmand’ uyushmasi faoliyatini tartibga solish choralari belgilandi. (Manba: Prezidentning rasmiy hujjatlari, Lex.uz).

2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-sonli Qaror - hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilashga qaratilgan. Bu qaror milliy reyestr yaratish, eksportni rag‘batlantirish va hududiy hunarmand markazlarini tashkil etish kabi choralarga urg‘u berdi. (Manba: Lex.uz).

2023-yil 12-iyundagi PF-91-sonli Farmon - “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” - hunarmandchilikni keng qamrovli yo‘l xaritasi (2023–2024 yillar) va hududlarda yo‘nalishlar bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgiladi; mahalliy usta-shogird an’analarini qayta tiklash va yoshlarni jalb qilishga qo‘shimcha e’tibor qaratdi. (Manba: PF-91, Lex.uz).

Ushbu hujjatlar to‘plami hunarmandchilik sektori uchun moliyaviy rag‘batdan tortib, bozor va ko‘rgazmalarni tashkil etishgacha bo‘lgan keng qamrovli mexanizmlarni yaratadi.

Ta’lim, kasb-hunar maktablari va oliy o‘quv yurtlari.

O‘zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishda ta’lim muassasalari markaziy rol o‘ynaydi. Kasb-hunar maktablari, markazlar va universitetlar san’atshunoslik fakultetlari orqali an’anaviy texnikalarni o‘rgatadi. Bu yo‘nalishda Chirchiq davlat pedagogika universiteti (ChDPU) faolligi alohida qayd etiladi — universitet san’atshunoslik fakulteti talabalari amaliy san’at va badiiy kulolchilik to‘garaklari orqali mahalliy va xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etib kelmoqda.

Mintaqaviy kulolchilik maktablari (Rishton, G‘ijduvon, Xiva, Shahrisabz).

Rishton maktabi - chinni va noyob bo‘yash texnikasi bilan ajralib turadi. Rishton bezagi tabiiy floral va geometrik ornamentlar bilan mashhur.

G‘ijduvon - muqarrar kompleks naqsh va rang kombinatsiyalari, ko‘proq qizil, qora va kul ranglar ishlatiladi. Xiva va Shahrisabz esa arxitektura elementlari va tarixiy kompozitsiyalarni keramika yuzasida aks ettirish borasida o‘z uslubini shakllantirgan. Ushbu markazlarda ishchi ustalar hamda oilaviy ishlab chiqarish an’analari saqlanib qolgan.

Xalqaro maydon: festival, forum va tanlovlar.

O‘zbek kulollari xalqaro ko‘rgazma va festivalarda faol ishtirok etmoqda. Rossiyada o‘tkaziladigan «Битва гончаров» kabi festivallar hamda mintaqaviy va xalqaro keramika simpoziumlari hunarmandlarga o‘z ishlarini tanitish va tajriba almashish imkonini beradi.

Shuningdek, TurkSIB madaniyati va yoshlarga yo‘naltirilgan xalqaro tadbirlar (masalan, TurkSIB hamkorligidagi festivalar) o‘zbek hunarmandlarini qo‘llab-quvvatlaydi va yangi auditoriyalarga chiqish imkonini yaratadi.

ChDPU va mintaqaviy to‘garaklarda tayyorlangan bir qator iqtidorli talabalar xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozonmoqdalar. Masalan, Inomov Sulaymon (ChDPU talabasi) 2023-yilda bir qator xalqaro ko‘rgazma va festivalarda (jumladan, Rossiyada o‘tkazilgan «Битва Гончаров» tadbirlari va Turkic hamkorlik tadbirlari) faxrli o‘rinlarni olgani haqida universitet yangiliklarida xabar berilgan. U va uning hamkasblari universitetni va mamlakatimizni xalqaro maydonda munosib taqdim etmoqda. (Manba: ChDPU yangiliklari va ilmiy maqolalar).

Burhoniddinov Oybek ham xalqaro ko‘rgazma va festivallarda ishtirok etib, hududiy va xalqaro jihatdan e’tirof etiladigan natijalarni qo‘lga kiritdi.

Iqtisodiy ta’sir, bandlik va eksport.

Kulolchilik tarmog‘i - xomashyo (loy, mineral boyliklar), ishlab chiqarish, dizayn va savdo zanjiri orqali mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shadi. Davlat dasturlari hunarmandlarga kreditlar, markazlar va sertifikatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini bermoqda.

Hunarmandchilik mahsulotlarini milliy brend va eksport yo‘nalishida rivojlantirish orqali qo‘shimcha valyuta tushumlari va turizmni rag‘batlantirish mumkin.

Muammolar va takliflar.

Muammolar:

- Xomashyo narxi va yetkazib berishdagi barqarorlik;
- Raqamli savdo va marketing bo‘yicha bilim yetishmasligi;
- Eksport logistika va sertifikatlash masalalaridagi murakkabliklar;
- Ustalar avlodining kamayishi va shogird tizimining zaiflashuvi.

Takliflar:

- Ustalar va yoshlar o‘rtasida mentorlik (usta-shogird) tizimini kuchaytirish;
- Raqamli savdo, brend va dizayn bo‘yicha treninglar tashkil etish;
- Eksportga yo‘naltirilgan logistik va sertifikatlashtirish yordam paketlarini yaratish;
- Hududiy hunarmand markazlarini modernizatsiya qilish va ko‘rgazma infratuzilmasini kengaytirish.

Xulosa. Kulolchilik O‘zbekistonning madaniy va iqtisodiy merosidir. Prezident farmonlari va hukumat qarorlari hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu hujjatlar asosida hududiy markazlar, uyushmalar va ta’lim muassasalari birgalikda ishlash orqali kulolchilikni asrab-avaylash va yosh avlodga etkazish vazifasini amalga oshirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti va hujjatlari (PF-5242, PF-91).
2. Lex.uz — huquqiy hujjatlar bazasi (PQ-4539, PF-5242, PF-91).
3. Марасулова, И. М., & Павлов, Д. С. (2020). Декоративно прикладное искусство узбекистана. *Academic research in educational sciences*, (2), 378-384.
4. Марасулова, И. М. (2024). Значение метода школы «Устоз-шогирд» в развитии ремесла. *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar*, *1*(1), 130-133.
5. Марасулова, И. (2023, December). Секреты традиционной керамики узбекистана. In *International scientific and practical conference on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).

TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISHNING TURLARI, METOD VA USULLARI

[1]O.A.Maxmudova, [2]S.A.Maxmudova
[1]Profi Universitety "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi v.b. professori, p.f.b.f.d (PhD)
[2]Qo'qon Universiteti "Ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403280

Annotasiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'qitish usullarining maqsadlari, mazmuni, usullari, badiiy ifoda tili qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek ijodkorlik, san'at va yaratilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maqsadli ta'sir qilish jarayoni to'g'risida so'z yuritiladi.*

Kalit sozlar: *ta'rif, yordamchi vosita, tahlil, naturadan foydalanish, imo-ishora, algoritm, konkret, real olam, tavsif, sentezlash, mexanik, analitik-sintetik, proporsiya, epizod, illyustratsiya, reproduksiya.*

Tasviriy faoliyatni o'qitish metodikasi – maktabgacha yoshdagi bolalar uchun badiiy ta'limning uslubiy tizimining faoliyati va rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, u bir tomondan tasviriy faoliyatni o'qitish usullarining maqsadlari, mazmuni, usullari, vositalari va shakllarini qamrab oladi.

N.A.Vershinina XX asr davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish usullarini ishlab chiqish jarayonini xarakterlovchi olimlar jamoasining shakllanish bosqichlarini, fan sifatida rivojlanishining sotsiologik modelini ilmiy ishida tadqiq qilgan olim hisoblanadi.

Ilmiy ishda tadqiqotchi maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasining fan sifatida rivojlanish bosqichlarini ta'riflaydi:

1–bosqich – XIX oxiri – 1917 yillar. Bolaning rivojlanishiga gumanistik yo'naltirilgan tasviriy faoliyatni tashkil etishda tajriba to'plash bosqichi. Tasviriy faoliyatni tashkil etish muammolarini belgilash, metodologiyani ishlab chiqishda tadqiqot izlanishlar olib borish bosqichi hisoblanadi[39] .

2–bosqich – 1917–1936 yillar. Bolalarning tasiriy faoliyatiga rahbarlik qilishning pedogogik asoslangan paradigmasining ustunlik bosqichi. Shu vaqtdan boshlab maktabgacha pedagogika doirasida uslubiy nazariya shakllana boshladi va uning asosida yangi ilmiy yo'nalish paydo bo'ldi. Unda umumiy tadqiqot usullari, yagona tadqiqot predmeti, tushuntirish va tahlil qilishning raqobatdosh usullari shakllandi.

3–bosqich – 1936–1990- yillar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatiga bilimga yo'naltirilgan yondashuvning ustunlik bosqichi.

4–bosqich – 1990-yillar. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan variativ ta'limni amalga oshirish bosqichi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi maqomini maktabgacha pedagogika doirasida ilmiy mutaxassislik sifatida rasman tan olish.

[39] Вершинина.Н.А. Методика обучения дошкольников изобразительной деятельности как научная дисциплина: Социологическая модель развития. Монография. – СПб.: ООО Изд- во «ЛЕМА», 2008. – 141с

Darhaqiqat, bugungi iqtisodiyot, fan va texnikaning jadal ravishda rivojlanish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘rgatishning takomillashgan metodikalariga yondashmoqlik zamon talabi hisoblanadi.

1-jadval

Metodika atamasining ta’riflari

T/r	Manba va mualliflar	Metodika so‘zining mazmuni
1.	O‘zbekiston Milliy enseklopediyasi – M harfi	**“Metod”** (yun. Metodos – bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. M.ning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish M.sini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. M.ni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko‘p vaqt va kuch sarflaydi **“Metodologiya”** (metod va ...logiya so‘zlaridan) — tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot[40].
2.	Ojegovning lug‘ati	O‘qitish to‘g‘risidagi fan. Biror narsani o‘rgatish, biror narsani amaliy amalga oshirish usullar majmui.
3.	A. P. Yevgeneva Rus tilining izohli lug‘ati	**“Metodika”** – ma’lum tayyor «retsept», algoritm, maqsadli harakatlarni amalga oshirish tartibi. Metodika metoddan farqli o‘laroq, usul va vazifalarning konkretligi bilan farqlanadi[41].
	Bolshaya sovetskaya ensiklopediya	**“Metod”** (yunoncha méthodos – tadqiqot yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot) muayyan muammoni hal qilishga bo‘ysunadigan voqelikni amaliy yoki nazariy jihatdan o‘zlashtirish usullari yoki operatsiyalari majmui[42].

Ilmiy-nazariy qarashlar va maktabgacha tasviriy faoliyatga o‘rgatish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari natijasida biz:

1. **Maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyat** tushunchasiga quyidagi ta’riflarni taklif qildik: **tarbiyachi faoliyatiga ko‘ra** maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish – bu tarbiyachining pedagogik faoliyatida qo‘llaydigan uslublar majmuasi va vositalar yordamida tarbiyalanuvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi hamda faoliyat mahsuli sifatida ularda shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir.

2. Bevosita **faoliyat natijasiga ko‘ra** maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyat – bu mehnat qurollari (qaychi, qog‘oz, stek, chizg‘ich va h.k.) bilan mehnat obyektlari (plastilin, chinni xamir, qalamlar, bo‘yoqlar, moyqalamlar)ga bosqichma-bosqich ta’sir etishi natijasida mahsulot

[40] O‘zbekiston Milliy enseklopediyasi - T harfi 349 бет.www.ziyouz.com kutubxonasi.
[41] Казакова Р.Г. Формирование первоначалных основ способностей рисоват с натуры у детей 6-7 лет: Автореф.дисс. .канд. пед.наук. М., 1968. - 16 с.
[42] Болшая советская энциклопедия https://www.booksite.ru/ fulltext/1/001/008/120/033.htm

yaratish (rasm, applikatsiya, loy ishi, qo‘l mehnati namunalari) borasidagi tarbiyalanuvchi hamda tarbiyachining mehnat mahsulidir.

3. **Metodik yondashuvga ko‘ra** maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyat – bu turli xil metodlar majmuasi bo‘lib, u biror-bir konkret mahsulotni yasashga, chizishga yo‘naltirilgan jarayondir[43].

O‘qitish usullari - didaktikada bolalarning dasturiy materialni o‘zlashtirishga qaratilgan kognitiv va amaliy faoliyatini tashkil etish bo‘yicha pedagog harakatlari tizimini tushuniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatini o‘rgatishda yetakchi, eng muhimi ko‘rgazmali usulidir. Ko‘rgazmali usullar orasida quyidagilar ajralib turadi: kuzatish, obyektni tekshirish, namuna, rasmni ko‘rsatish, tasvir usullari va harakat usullarini ko‘rsatish.

Kuzatish tasviriy faoliyatini yetakchi usullaridan biridir. Uning rivojlanishiga E.A. Flyorina , N.P. Sakulina , L.A. Raevalar katta hissa qo‘shgan.

Sensor asosga ega bo‘lgan tasviriy faoliyatda **kuzatish** asosiy yo‘naltiruvchi harakatlardan biridir. Maktabgacha yoshdagi muayyan vazifa tasvirlangan obyekt, boshqa barcha o‘qitish usullari va usullarini qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hodisa haqida g‘oyani shakllantirishdir.

Kuzatish - bu atrofdagi dunyo hodisalariga qarash, ulardagi muhim, asosiy narsani ajratib ko‘rsatish, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni sezish, ularning sabablarini aniqlash va xulosalar chiqarish qobiliyati tushuniladi. Kuzatish jarayonida bolaning turli xil: berilgan savollarga javob izlash, taqqoslash, sentezlash kabi aqliy faoliyati amalga oshiradi.

Kuzatishlar ekskursiyalar va kundalik hayotda amalga oshiriladi. Kuzatuv tirik obyektlar va tabiiy obyektlar, shuningdek, ijtimoiy hayot uchun tashkil etilishi mumkin.

Bolalar bilan kuzatishni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi kuzatish vazifalariga muvofiq joy va vaqtni tanlash zarurligini, bolalarning bilim faolligini faollashtiradigan hikoya qilish, tushuntirish, badiiy so‘z, o‘yin daqiqalari, so‘rov elementlari turli xil savollarni boshqa usullar bilan boyitishni nazarda tutadi.

Bolalarning yoshi, ma'lum bir hodisani kuzatishning yangiligi yoki takrorlanishi, bo‘lajak tasviriy faoliyatning vazifalari kuzatuvdagi bolalarning aqliy faoliyatining tabiatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Pedagog tomonidan mashg‘ulotni tayyorlash va o‘tkazishda aniq hisobga olinishi kerak.

Tekshiruv - bu obyektni taktil-motor va tasviriy vositalar yordamida maqsadli analitik-sintetik idrok etishdir. Predmetni tekshirish tufayli bolalar tasvirning asosini tashkil etuvchi bu haqda tasavvur hosil qiladi.

1. Naturadan foydalanish (obyektni idrok etish jarayonida qo‘llaniladi).

Talablar: Naturadan og‘zaki usullarsiz foydalanish mumkin;

ko‘z darajasida; 3-4 natura obyektlari ma'lum bir burchak ostida;

Naturadan foydalanish mashg‘ulotning barcha tarkibiy qismlarida qo‘llaniladi.

2.Namunadan foydalanish: frontal va individual ish jarayonida yaxlit va qisman bo‘lishi mumkin; Mavzuning o‘ziga xos tasvirlarini uning sxematik tasviri bilan almashtirib bo‘lmaydi.

3.Rasmlardan foydalanish: (tasvirlash usullarini tushuntirishda bolalarning atrofdagi voqelik haqidagi g‘oyalarini aniqlashtirish;).

[43] Maxmudova O. A. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan.bo‘yicha falsafa doctor.(PhD). ...diss.avt. – T., 2022. – 209 b.

Tasviriy san’atda naturadan foydalanish deganda, kuzatish asosida predmet yoki ko‘rinishni tasvirlash tushuniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda naturadan foydalanishning ayrim xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.Natura xotira ishini yengillashtiradi, negaki tasvirlash jarayoni idrok bilan birlashadi, predmetning shaklini, tuzilishini, rangini to‘g‘ri tushunib, yetkazib bera olishga yordam beradi.

4-5 yoshdagi maktabgacha ta’lim bolalarining qobiliyatlaridan qat’iy nazar, maktab ta’lim oluvchisi yoki rassomning natura bilan ishlashiga nisbatan qaraganda, bolalarning tasvirlangan obyektni tahlil qilishlari, shu natura bilan ishlashlarining o‘ziga xos farqi bor. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar uchun sodda shaklli, aniq chizmali bo‘lishi kerak. Masalan: bolalar mashinani yon tomonidan, qo‘g‘irchoqni oldidan chizadilar va bunda hajmini yetkazib berolmaydilar.

Agar guruhda bolalar soni ko‘p bo‘lsa, barchasiga teng ko‘rinishi uchun 2-3 ta bir xil predmet qo‘yiladi. Tarbiyachi naturani bolalar bilan birgalikda qismlarga ajratib ko‘rib chiqadi, bunda u tahlil jarayonini osonlashtirib, o‘z so‘zlari, harakatlari bilan yo‘naltiradi. Bu jarayoni ma’lum bir idrok madaniyatini, rivojlangan analitik fikr yuritishni talab qiladi. Bunday ko‘nikmalar bolalarda 5-6 yoshda rivojlana boshlaydi.

Bu yoshda bolalar tasvirlayotgan ishlarini naturaga nisbatan taqqoslashga urinadilar. Masalan: katta guruhda naturadagi archa shoxlarini tasvirlayotganda, bolalar shoxni fazoda joylashtiradilar (vertikal yoki qiya holatda) va shoxdagi shoxchalarning sonini, o‘lchamlarini chap va o‘ng tomondan, to‘q yoki och rang bilan chizadilar. Natura sifatida tirik qushlar, hayvonlardan foydalanish mumkin emas. Ularning harakatlari, tovushlari bolalarni rasm chizishdan chalg‘itadi, bolalarning predmetni kerakli holatda idrok qilishlariga, diqqatlarini bir nuqtaga qaratishga halaqit beradi.

Mashg‘ulotda predmetlarni ko‘rib chiqish. Kichik va o‘rta guruhlarda ko‘pincha mashg‘ulot boshida alohida predmetlar ko‘rsatiladi. Bolalar diqqatini topshiriqqa qaratish va tasavvurlarini jonlantirish maqsadida bolalarga koptok, lenta (tasma), belkurak va shu kabilar ko‘rsatiladi. Mashg‘ulotning qolgan vaqti mobaynida esa, bolalar o‘z tasavvurlari asosida chizadilar. Ular rasmlarini ko‘rgan predmetlariga nisbatan taqqoslay olmaydilar va predmetlarni idrok qilishlariga qaytib murojat qilmaydilar. Katta guruhda ham predmetlarni ko‘rib chiqish uchun imkon bo‘ladi. Masalan: “Uch ayiq” ertagi mavzusi bo‘yicha rasm chizishdan yoki buyum yasashdan avval, tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq ayiqni ko‘rib chiqishni, predmet shaklining asosiy xususiyatlarini va ayrim qismlarning proporsiya nisbatlarini aniqlashni, so‘ng predmetning burilishiga nisbatan shu ayrim qismlarning o‘zgarishini kuzatishni taklif qiladi. Bolalar rasm chizishda ertakning qaysi epizodini tanlasalar, ayiqni ham shu epizodga nisbatan mos holatda tasvirlaydilar.

Agar zarur bo‘lsa, pedagog tomondan ma'lum chizish usullarini qisman tushuntiradi va ko‘rsatadi. Misol uchun, profildagi odamni tasvirlashda pedagog uning butun shaklini emas, balki faqat yuz profilini chizadi, shaklning barcha chiziqlarini so‘zlar bilan tushuntiradi. Bolalarni birinchi navbatda faqat alohida varaqlarga profil chizish bilan shug‘ullanishga taklif qilish yaxshi, keyin esa butun shaklni tasvirlashni boshlasa bo‘ladi. Pedagog bolalar uchun u yoki bu tasvir eng aniq taqdim etilgan ertak va she'rlarni tanlashi kerak. Bu yoshdagi bolalar hayotiy tajribaga ega bo‘lib, tasviriy san'atda ma'lum ko‘nikmalarga ega bo‘lishni boshlayadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qaroriga "O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami", 2019 yil 13 may, 19-son, 364-modda.
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining takomillashtirilgan davlat o’quv dasturi. Toshkent – 2022 yil.
3. Махмудова О.А. Концепции создания развивающей среды для развития творческих способностей детей дошкольного возраста international scientific-practical conference “preschool education: quality and efficiency, development perspectives”, december 4-5, 2024 *https://doi.org/10.5281/zenodo.14266099*.
4. Maxmudova, O. (2024). Psychological and pedagogical aspects of the development of visual activities of preschool children. qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 8 (8), 101–105
5. Maxmudova, O. (2024). Theoretical views of fine arts as a factor of influence on the development of a preschool child. University Research Base, 515–518
6. S.A.Maxmudova, & Qambarova, Y. (2024). Neyrogimnastikaning maktabgacha yohdagi bolalar rivojlanishiga ta’siri, o‘rni va ahamiyati. University Research Base,112–115.

MUSTAQIL TA’LIMNING PEDAGOGIK MOHIYATI VA UNING RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TUTGAN O‘RNI

Muratov Xusan Xolmuratovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi p.f.f.d., (PhD), dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403289

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’limning pedagogik mohiyati va uning zamonaviy raqamli muhitdagi transformatsiyasi tahlil qilingan. An’anaviy yondashuvlarning cheklanganligi hamda raqamli texnologiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlar asosida mustaqil ta’limning roli qayta ko‘rib chiqilgan. Maqolada konstruktivizm va konnektivizm kabi zamonaviy ta’lim nazariyalari mustaqil o‘rganishning yangi paradigmasini shakllantiruvchi asos sifatida o‘rganilgan. “Teskari sinf”, loyihaga asoslangan ta’lim, geymifikatsiya kabi ilg‘or metodikalar va ularni raqamli vositalar bilan integratsiya qilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, tasviriy san’at (“Rangtasvir”) fani misolida ishlab chiqilgan va pedagogik tajriba-sinovdan o‘tkazilgan didaktik model, uning samaradorligi statistik ma’lumotlar asosida isbotlangan. Xulosada raqamli integratsiya mustaqil ta’limning mohiyatini tubdan o‘zgartirib, uni XXI asr mutaxassisining tayanch kompetensiyalarini shakllantiruvchi markaziy jarayonga aylantirayotgani ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, pedagogik mohiyat, konnektivizm, tasviriy san’at, didaktik model, interaktiv metodlar, “teskari sinf”, elektron portfolio.*

Аннотация. *В данной статье анализируется педагогическая сущность самостоятельного образования в системе высшего образования и его трансформация в современной цифровой среде. Пересматривается роль самостоятельного обучения на основе ограниченности традиционных подходов и возможностей, предоставляемых цифровыми технологиями. В статье современные образовательные теории, такие как конструктивизм и коннективизм, рассматриваются как основа для формирования новой парадигмы самостоятельного обучения. Освещаются передовые методики, такие как «перевернутый класс», проектное обучение, геймификация, и механизмы их интеграции с цифровыми инструментами. Также на примере дисциплины изобразительного искусства («Живопись») представлена разработанная и апробированная в ходе педагогического эксперимента дидактическая модель, эффективность которой доказана на основе статистических данных. В заключении подчеркивается, что цифровая интеграция коренным образом меняет сущность самостоятельного обучения, превращая его в центральный процесс формирования ключевых компетенций специалиста XXI века.*

Ключевые слова: *самостоятельное образование, цифровая образовательная среда, педагогическая сущность, коннективизм, изобразительное искусство, дидактическая модель, интерактивные методы, «перевернутый класс», электронное портфолио.*

Abstract. *This article analyzes the pedagogical essence of independent learning in the higher education system and its transformation in the modern digital environment. The role of independent learning is reconsidered based on the limitations of traditional approaches and the opportunities offered by digital technologies. The article examines modern educational theories*

such as constructivism and connectivism as the foundation for a new paradigm of independent learning. Advanced methodologies like the "flipped classroom," project-based learning, gamification, and their integration mechanisms with digital tools are highlighted. Furthermore, a didactic model developed and tested through a pedagogical experiment in the field of fine arts ("Painting") is presented, with its effectiveness substantiated by statistical data. The conclusion emphasizes that digital integration fundamentally changes the essence of independent learning, transforming it into a central process for developing the core competencies of a 21st-century specialist.

Keywords: *independent learning, digital educational environment, pedagogical essence, connectivism, fine arts, didactic model, interactive methods, flipped classroom, e-portfolio.*

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bu shunchaki ma’lumotlarni uzatish emas, balki talabalarda butun hayoti davomida mustaqil o‘rganish (life-long learning) ko‘nikmasini shakllantirishdir. “Mustaqil ta’lim” tushunchasi endilikda an’anaviy o‘quv jarayonining qo‘shimcha elementi sifatidagi maqomidan chiqib, zamonaviy mutaxassisning fundamental kompetensiyasiga aylandi. Biroq, an’anaviy pedagogik yondashuvlar doirasida mustaqil ta’lim ko‘pincha referat yozish, uy vazifasini bajarish kabi passiv va nazoratsiz faoliyat bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa bugungi kun mehnat bozorining talablariga – tanqidiy fikrlaydigan, ijodiy yondasha oladigan va o‘zgarishlarga tez moslashuvchan kadrlarni tayyorlashga javob bera olmaydi.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi mustaqil ta’limning mohiyatini qayta anglash uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratdi. Bu jarayonning strategik ahamiyati O‘zbekistonning milliy rivojlanish dasturlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi[44] hamda PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida[45] ta’limni modernizatsiya va raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu hujjatlar mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishni nafaqat pedagogik, balki milliy raqobatbardoshlikni ta’minlovchi iqtisodiy zarurat sifatida kun tartibiga qo‘yadi.

An’anaviy modelning asosiy cheklovlari – teskari aloqaning sustligi, resurslarning cheklanganligi va o‘quv jarayonining izolyatsiyalanganligi kabi jismoniy va logistik to‘siqlar edi. Raqamli ta’lim muhiti esa aynan shu to‘siqlarni bartaraf etadi. U o‘quv jarayonini doimiy monitoring qilish, bir zumda fikr bildirish, global axborot manbalaridan foydalanish va hamkorlikda ishlash uchun virtual maydon yaratish orqali mustaqil ta’limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bois, raqamli texnologiyalar shunchaki texnik vosita emas, balki ilgari faqat nazariy bo‘lgan pedagogik g‘oyalarni amaliyotga keng tatbiq etish imkonini beruvchi asosiy omil (enabler) hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – mustaqil ta’limning pedagogik mohiyatini raqamli davr nuqtai nazaridan tahlil qilish, uni tashkil etishning ilg‘or metodikalarini ko‘rib chiqish hamda tasviriy san’at ta’limi misolida amalda sinovdan o‘tgan samarali didaktik modelni taqdim etishdan iborat.

[44] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063.

[45] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887–son. https://lex.uz/docs/4545884.

Raqamli muhitda mustaqil ta’limning pedagogik mohiyatini anglash uchun ta’lim nazariyalarining evolyutsiyasini kuzatish lozim. Bu jarayon an’anaviy yondashuvlardan tarmoqlashgan va ijtimoiy o‘rganish modellariga o‘tishni yaqqol namoyon etadi.

An’anaviy bixevioristik yondashuvda mustaqil ta’lim aniq ko‘rsatmalar asosida takrorlanuvchi mashqlarni bajarish orqali ko‘nikma hosil qilish sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, kognitivizm uni axborotni idrok etish, qayta ishlash va muammolarni hal qilish kabi aqliy jarayonlar majmui sifatida tahlil qiladi. Raqamli texnologiyalar bu yondashuvlarni interaktiv simulyatsiyalar, onlayn testlar va moslashuvchan o‘quv dasturlari orqali kuchaytiradi.

Biroq, raqamli davr uchun eng muhim nazariy poydevorni konstruktivizm va konnektivizm tashkil etadi. Konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, ta’lim oluvchi bilimni passiv qabul qilmaydi, balki yangi ma’lumotni o‘zining oldingi tajribasi bilan bog‘lash orqali uni faol ravishda “quradi”. Raqamli muhit bu jarayon uchun ideal sharoit yaratadi: onlayn forumlar, virtual laboratoriyalar, hamkorlikdagi loyihalar talabaga o‘z bilimini boshqalar bilan muloqotda va amaliy faoliyatda shakllantirish imkonini beradi.

O‘z navbatida, G. Siemens[46] va S. Downes[47] tomonidan ishlab chiqilgan konnektivizm nazariyasi raqamli asr uchun eng mos paradigma sifatida e’tirof etilmoqda. Unga ko‘ra, bilim endi shaxsning ichida saqlanadigan narsa emas, balki tarmoqlarda mavjud bo‘lgan resursdir. O‘rganish esa – bu ana shu tarmoqlarni yaratish, ularda harakatlanish va kerakli axborot tugunlarini o‘zaro bog‘lash qobiliyatidir. Bu yondashuv mustaqil ta’limning maqsadini tubdan o‘zgartiradi. Endilikda asosiy maqsad ma’lum bir hajmdagi bilimlarni yod olish emas, balki tarmoqlar ichida mavjud bo‘lgan ulkan va doimiy o‘zgaruvchan axborot oqimidan kerakli ma’lumotni topa olish, uni tanqidiy baholash va amaliyotda qo‘llay bilish ko‘nikmasini – ya’ni, tarmoq savodxonligini rivojlantirishga aylanadi. MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari, ijtimoiy tarmoqlardagi professional hamjamiyatlar, ochiq ta’lim resurslari – bularning barchasi konnektivistik o‘rganish muhitining amaldagi ko‘rinishlaridir.

Raqamli muhit shunchaki mavjud nazariyalarni qo‘llab-quvvatlovchi vosita emas, balki ularning amaliyotga tatbiqini tezlashtiruvchi va keng miqyosda joriy etish imkonini beruvchi “nazariy akselerator” vazifasini o‘taydi. U pedagogik paradigmaning bilimni egallashdan bilim tarmog‘ini boshqarishga o‘tishini ta’minlaydi va bu mustaqil ta’limning yangi pedagogik mohiyatini belgilab beradi.

Nazariy paradigmalardagi o‘zgarishlar amaliyotda mustaqil ta’limni tashkil etishning yangi, ilg‘or metodikalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu metodikalar o‘quv jarayonini an’anaviy “ma’ruza-seminar” zanjiridan xalos qilib, uni interaktiv, talabaga yo‘naltirilgan va hamkorlikka asoslangan faoliyatga aylantiradi.

“Teskari sinf” (Flipped Classroom) metodikasi an’anaviy ta’lim modelini tubdan o‘zgartiradi. Unda axborotni birlamchi o‘zlashtirish (ma’ruza tinglash, nazariy materialni o‘qish) sinfxonadan tashqarida, talabaning mustaqil faoliyati doirasiga o‘tkaziladi. Buning uchun video ma’ruzalar, interaktiv modullar kabi raqamli resurslardan foydalaniladi. Auditoriyadagi qimmatli vaqt esa yuqori darajadagi kognitiv faoliyatga – muammolarni hal qilish, loyihalar ustida ishlash, munozaralar o‘tkazish kabi amaliy va hamkorlikdagi ishlarga sarflanadi. Bu yondashuv mustaqil

[46] Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, *2*(1). http://www.itdl.org/Journal/Jan_05/article01.htm.

[47] Downes, S. (2005). An introduction to connective knowledge. In T. Hug (Ed.), *Media, Knowledge & Education - Exploring new Spaces, Relations and Dynamics in Digital Media and Education*. Innsbruck University Press. https://www.downes.ca/post/33034.

ta’limni o‘quv jarayonining chekkasidagi qo‘shimcha vazifadan uning markaziy poydevoriga aylantiradi.

Loyihaga asoslangan ta’lim metodikasida talabalar real hayotiy muammolarni hal qilishga qaratilgan uzoq muddatli loyihalar ustida ishlaydi. Raqamli vositalar (masalan, Google Docs, Trello, Slack) jamoaviy ishlashni, masofadan turib muloqot qilishni va loyiha bosqichlarini boshqarishni osonlashtiradi. Bu jarayonda talabalar nafaqat fanga oid bilimlarni, balki tanqidiy fikrlash, hamkorlik, kommunikatsiya va kreativlik kabi XXI asr ko‘nikmalarini ham egallaydilar.

O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini (ballar, reytinglar, sovrinlar, darajalar) kiritish talabalarning mustaqil ishga bo‘lgan motivatsiyasini keskin oshiradi. Topshiriqlarni bajarish qiziqarli va raqobatga boy jarayonga aylanadi. Raqamli platformalar geymifikatsiya mexanizmlarini joriy etish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi, bu esa mustaqil o‘rganishni zerikarli majburiyatdan qiziqarli sarguzashtga aylantiradi.

Bu metodikalarning samaradorligi alohida olingan raqamli vositalarda emas, balki ularni yagona pedagogik tizimga ongli ravishda integratsiya qilishda namoyon bo‘ladi. Masalan, Moodle kabi O‘quv jarayonini boshqarish tizimi (LMS) orqali “teskari sinf” uchun materiallar tarqatiladi, Google Classroom yordamida loyiha guruhlari shakllantiriladi va Zoom orqali loyiha himoyasi o‘tkaziladi. Bu yerda har bir texnologiya muayyan didaktik maqsadga xizmat qiladi va birgalikda yaxlit, samarali o‘quv muhitini yaratadi. Tadqiqotlar jarayonida an’anaviy referat o‘rniga talabalarning raqamli savodxonligi va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan Link (havolalarni tahlil qilish), Chart (diagrammalarni izohlash), SWOT-tahlil, Dayjest (mavzu bo‘yicha raqamli manbalar to‘plami) kabi yangi mustaqil ish turlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Bu esa o‘qituvchining rolini ham o‘zgartiradi: u endi bilimning yagona manbai emas, balki talabaning o‘quv trayektoriyasini loyihalashtiruvchi, uni yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi fasilitatorga aylanadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy va metodik tamoyillarni hatto tasviriy san’at kabi an’anaviy ravishda amaliy va “analog” hisoblangan sohada ham muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin. Tadqiqot doirasida rangtasvir (“Rangtasvir”) fanidan talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishga qaratilgan maxsus didaktik model ishlab chiqildi va uning samaradorligi pedagogik tajriba-sinov orqali tasdiqlandi.

Model quyidagi asosiy tamoyillarga qurilgan: individuallashtirish, interaktivlik, vizuallashtirish, moslashuvchanlik, hamkorlik hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash. Uning markaziy g‘oyasi – an’anaviy ijodiy jarayonni raqamli texnologiyalar bilan boyitish orqali mustaqil o‘rganish samaradorligini oshirishdir.

Modelning asosiy innovatsion jihatlaridan biri – bu amaliy ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishda “raqamli qumloq” tamoyilidan foydalanishdir. Tasviriy san’atda eksperiment qilish va xatoga yo‘l qo‘yish ko‘p vaqt va material talab qiladi. Modelga ko‘ra, talabalar ijodiy ishning dastlabki bosqichlarida (kompozitsiya qurish, ranglar uyg‘unligini izlash) Photoshop, Procreate kabi grafik muharrirlardan foydalanadilar. Bu ularga hech qanday moddiy xarajatsiz va cheklanmagan miqdorda turli variantlarni sinab ko‘rish, xatolarni “bekor qilish” (undo) funksiyasi yordamida bir zumda tuzatish imkonini beradi. Bu jarayon talabaning ijodiy konsepsiyasini va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Shundan so‘nggina u o‘z g‘oyasini an’anaviy materiallar – bo‘yoq va mato (xolst) yordamida amalga oshirishga kirishadi. Demak, raqamli vositalar an’anaviy mahoratning o‘rnini bosmaydi, balki ijodiy jarayonning kognitiv va rejalashtirish bosqichlarini tezlashtiruvchi va kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Modelning ikkinchi muhim elementi – baholash tizimining transformatsiyasidir. An’anaviy yondashuvda asosan yakuniy ish baholansa, ushbu modelda dinamik elektron portfolio markaziy o‘rin tutadi. Talabalar semestr davomida o‘zlarining barcha ijodiy ishlarini – dastlabki eskizlar, raqamli eksperimentlar, asosiy ishning bosqichma-bosqich fotosuratlari va yozma mulohazalarini o‘z ichiga olgan elektron portfolioga joylab boradilar. Bu o‘qituvchiga nafaqat natijani, balki butun ijodiy jarayonni kuzatish va formativ (shakllantiruvchi) baholash imkonini beradi. Baholash yakuniy hukmdan talabaning o‘sishini aks ettiruvchi narrativga, dialogga aylanadi.

Ushbu modelning samaradorligini tekshirish maqsadida nazorat va tajriba guruhlari ishtirokida pedagogik tajriba-sinov o‘tkazildi. Tajriba guruhida yangi model va uni qo‘llab-quvvatlovchi, muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi (Mustaqil ta’lim uchun)” elektron qo‘llanmasi qo‘llanildi[48]. Olingan natijalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan 13% ga yuqori bo‘ldi.

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (Boshlang‘ich / Yakuniy)	Tajriba guruhi (Boshlang‘ich / Yakuniy)	O‘sish dinamikasi (Tajriba guruhida)
Ijodiy qo‘llash darajasi	2.8 / 3.1	2.9 / 4.1	+41.4%
Texnik mahorat	3.0 / 3.3	3.1 / 4.3	+38.7%
Nazariy bilimlar	3.2 / 3.5	3.2 / 4.5	+40.6%
Umumiy o‘rtacha ko‘rsatkich	3.0 / 3.3	3.07 / 4.3	+39.9%

Bu natijalar taklif etilgan modelning nafaqat nazariy jihatdan asosli, balki amaliyotda ham yuqori samaradorlikka ega ekanligini isbotlaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, hatto eng amaliy va ijodiy sohalarda ham raqamli texnologiyalarni pedagogik jihatdan puxta integratsiya qilish orqali mustaqil ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Raqamli ta’lim muhitining integratsiyasi mustaqil ta’limning shunchaki vositalarini o‘zgartiribgina qolmay, uning pedagogik mohiyatini tubdan qayta belgilaydi. U mustaqil o‘rganishni yakka, passiv faoliyatdan faol, tarmoqlashgan va hamkorlikka asoslangan jarayonga aylantiradi. Konnektivizm nazariyasi ko‘rsatganidek, bugungi kunda o‘rganishning asosiy maqsadi – bu doimiy o‘zgaruvchan axborot tarmoqlarida samarali harakat qila olish qobiliyatini shakllantirishdir va raqamli muhit bu vazifani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlarni yaratadi.

“Teskari sinf”, loyihaga asoslangan ta’lim va geymifikatsiya kabi ilg‘or metodikalar ushbu yangi mohiyatning amaliy ifodasidir. Ular o‘quv jarayonini talabaga yo‘naltiradi, uning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va XXI asr uchun zarur bo‘lgan kompleks kompetensiyalarni rivojlantiradi. Tasviriy san’at ta’limi uchun ishlab chiqilgan didaktik modelning amaliy samaradorligi esa bu tamoyillarning universalligini, ularni hatto eng an’anaviy va amaliyotga yo‘naltirilgan sohalarda ham muvaffaqiyatli qo‘llash mumkinligini isbotlaydi.

[48] https://fineart.cspu.uz/2024/15/.

Yakuniy xulosa shuki, raqamli muhitda samarali tashkil etilgan mustaqil ta’lim zamonaviy oliy ta’limning pirovard maqsadiga – o‘zgaruvchan dunyoda o‘z o‘rnini topa oladigan, butun hayoti davomida o‘rganishga qodir bo‘lgan, raqamli savodxonlikka ega, ijodkor va mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchining roli ham transformatsiyaga uchrab, u endi o‘quv ekotizimlarini loyihalashtiruvchi va boshqaruvchi fasilitatorga aylanadi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik ta’lim sifatini oshirish va milliy ta’lim tizimining xalqaro standartlarga integratsiyalashuvi uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son. https://lex.uz/docs/5841063.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son. https://lex.uz/docs/4545884.
3. Azizxo‘jayeva N.N. (2006). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU.
4. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.U. (2004). Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Muratov X.X. (2024). Talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Chirchiq. https://library.ziyonet.uz/book/134520.
6. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3-10. http://www.itdl.org/Journal/Jan_05/article01.htm.
7. Bates, A. W. (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd.
8. Dewey, J. (1986). Experience and Education. The Educational Forum, 50(3), 241–252.
9. Downes, S. (2005). An introduction to connective knowledge. In T. Hug (Ed.), Media, Knowledge & Education - Exploring new Spaces, Relations and Dynamics in Digital Media and Education. Innsbruck University Press. https://www.downes.ca/post/33034
10. Пидкасистый П.И. (1998). Педагогика: учебное пособие для студентов пед. вузов и пед. колледжей. Москва: Педагогическое общество России.
11. Dabbagh, N., & Bannan-Ritland, B. (2005). Online learning: Concepts, strategies, and application. Upper Saddle River, NJ: Pearson/Merrill Prentice Hall.
12. X.X.Muratov. “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi (Mustaqil ta’lim uchun)” elektron qo‘llanma. 2024-yil. https://fineart.cspu.uz/2024/15/.

TASVIRIY SAN’AT FANLARI BO‘YICHA TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINING MAZMUNINI MODIFIKATSIYALASHTIRISH

Muratov Xusan Xolmuratovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi p.f.f.d., (PhD), dotsent

https://doi.org/10.5281/zenodo.17403303

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining kredit-modul tizimiga o‘tishi sharoitida tasviriy san’at fanlari bo‘yicha talabalar mustaqil ta’limining mazmunini modifikatsiyalash masalalari tahlil qilingan. An’anaviy mustaqil ish topshiriqlarining zamonaviy ta’lim talablariga javob bermayotgan jihatlari ko‘rsatib berilgan. Mustaqil ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning ijodiy va kognitiv faolligini oshirish vositasi sifatida raqamli texnologiyalar va maxsus ishlab chiqilgan elektron qo‘llanmalarning roli asoslab berilgan. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasida yaratilgan “Tasviriy san’at fanidan mustaqil ta’lim uchun elektron qo‘llanma” misolida mustaqil ta’lim mazmunini boyitish, uni tizimli, interaktiv va natijaga yo‘naltirilgan shaklga o‘tkazish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, tasviriy san’at, kredit-modul tizimi, modifikatsiyalash, raqamli ta’lim, elektron qo‘llanma, kompetensiyaviy yondashuv, ijodiy faoliyat, pedagogik texnologiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы модификации содержания самостоятельной работы студентов по изобразительному искусству в условиях перехода системы высшего образования Узбекистана на кредитно-модульный формат. Выявлены аспекты традиционных заданий для самостоятельной работы, не отвечающие современным образовательным требованиям. Обоснована роль цифровых технологий и специально разработанных электронных пособий как средства эффективной организации процесса самостоятельного обучения, повышения творческой и познавательной активности студентов. На примере электронного пособия «Электронное руководство по самостоятельному обучению изобразительному искусству», созданного на опыте Чирчикского государственного педагогического университета, рассмотрены механизмы обогащения содержания самостоятельного образования, его трансформации в системную, интерактивную и ориентированную на результат форму.*

Ключевые слова: *самостоятельное образование, изобразительное искусство, кредитно-модульная система, модификация, цифровое образование, электронное пособие, компетентностный подход, творческая деятельность, педагогическая технология.*

Abstract. *This article analyzes the issues of modifying the content of students' independent study in fine arts within the context of the transition of Uzbekistan's higher education system to a credit-module format. The aspects of traditional independent work assignments that do not meet modern educational requirements are identified. The role of digital technologies and specially developed electronic guides is substantiated as a means of effectively organizing the independent learning process and increasing students' creative and cognitive activity. Using the example of the "Electronic Guide for Independent Study in Fine Arts", created*

based on the experience of Chirchik State Pedagogical University, the mechanisms for enriching the content of independent education and transforming it into a systematic, interactive, and result-oriented form are examined.

Keywords: *independent study, fine arts, credit-module system, modification, digital education, electronic guide, competence-based approach, creative activity, pedagogical technology.*

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni[49] va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta’minlash va o‘quv jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatini kuchaytirishni markaziy masalalar sifatida belgilaydi[50]. Bu jarayonning amaliy ifodasi sifatida oliy ta’lim muassasalarining kredit-modul tizimiga to‘liq o‘tishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qaroriga muvofiq, talabalar mustaqil ta’limi (TMT) ulushining umumiy o‘quv yuklamasida 50-60 foizgacha oshirilishiga olib keldi. Ushbu transformatsiyaning asosiy maqsadi – talabani tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi obyektdan o‘zining ta’limiy va kasbiy rivojlanish trayektoriyasini ongli ravishda loyihalashtiruvchi faol subyektga aylantirishdir.

Biroq, bu ilg‘or g‘oyaning amaliyotga tatbiqi, ayniqsa, tasviriy san’at kabi amaliy-ijodiy ko‘nikmalar ustuvor bo‘lgan sohalarda jiddiy metodologik ziddiyatlarni yuzaga keltirdi. An’anaviy “usta-shogird” paradigmasiga asoslangan, bevosita muloqot va jonli namoyishga tayanadigan o‘qitish usullari auditoriya soatlarining qisqarishi sharoitida o‘z imkoniyatlarini yo‘qotmoqda. Shu bilan birga, TMT uchun ajratilgan vaqtni mazmunli to‘ldirishga qaratilgan an’anaviy topshiriqlar (“boshlangan etyudni tugatish”, “erkin mavzuda kompozitsiya chizish”) talabani zarur nazariy-uslubiy yo‘l-yo‘riqlar, ijodiy jarayonni rag‘batlantiruvchi vositalar va eng muhimi, o‘z vaqtida beriladigan konstruktiv qayta aloqa bilan ta’minlay olmayapti. Natijada, TMT uchun ajratilgan vaqtning katta qismi talabaning o‘z holiga tashlab qo‘yilishi, tizimsiz izlanishlar, motivatsiyaning yo‘qolishi va ijodiy turg‘unlikka yuz tutish xavfini tug‘dirmoqda. Shu bois, tasviriy san’at fanlarida TMTning mavjud mazmunini shunchaki isloh qilish emas, balki uni zamonaviy didaktik tamoyillar va raqamli texnologiyalar yordamida sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, ya’ni modifikatsiyalashtirish – bugungi kun ta’limining eng dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biridir.

Mustaqil ta’lim mazmunini modifikatsiyalashtirish – bu uning tarkibiy qismlari, shakli, vositalari va baholash mezonlarini zamonaviy ta’lim paradigmasi talablariga mos ravishda sifat jihatdan o‘zgartirishni nazarda tutuvchi kompleks jarayondir. An’anaviy modelda TMT mazmuni asosan reproduktiv (takrorlovchi) va ijrochilikka yo‘naltirilgan bo‘lsa, modifikatsiyalashgan modelda u produktiv (yaratuvchi), tadqiqotga asoslangan va refleksiv faoliyatga qurilishi lozim. Ushbu transformatsiyaning nazariy poydevorini bir qator fundamental pedagogik-psixologik konsepsiyalar tashkil etadi.

Rus psixologi L.S. Vigotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” (YRZ) nazariyasiga ko‘ra, ta’lim jarayoni o‘quvchi mustaqil bajara olmaydigan, ammo “bilimdonroq boshqa shaxs” (o‘qituvchi) yordamida uddalay oladigan vazifalar doirasida eng samarali kechadi[51]. Auditoriya

[49] 2020 yil 23-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni
[50] “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.
[51] Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.

soatlari qisqargan sharoitda o‘qituvchining doimiy ishtiroki imkonsiz bo‘lib qoladi. Aynan shu nuqtada zamonaviy raqamli vositalar o‘qituvchining o‘rnini qisman bosuvchi, talabaga zarur “havoza” (scaffolding) vazifasini o‘tovchi virtual yordamchiga aylanishi mumkin. To‘g‘ri loyihalashtirilgan elektron resurs talabaga kerakli vaqtda nazariy ma’lumot, vizual namuna yoki amaliy yo‘l-yo‘riqni taqdim etib, uning YRZda mustaqil harakatlanishiga imkon yaratadi.

Bunga qo‘shimcha ravishda, Donald Schönning “Refleksiv amaliyotchi” (The Reflective Practitioner) konsepsiyasi professional mahorat, ayniqsa ijodiy sohalarda, shunchaki nazariy bilimlarni qo‘llash orqali emas, balki “harakatdagi refleksiya” (reflection-in-action) – ya’ni, ijodiy jarayon davomida o‘z harakatlarini doimiy tahlil qilish, kutilmagan natijalarga munosabat bildirish va o‘z yondashuvini o‘zgartirish orqali shakllanishini ta’kidlaydi[52]. An’anaviy TMTda bu refleksiv jarayon deyarli e’tiborsiz qoladi. Samarali modifikatsiya esa talabani o‘z faoliyatini tahlil qilishga undovchi maxsus mexanizmlarni (o‘z-o‘zini baholash rubrikalari, reflektiv kundaliklar, jarayonni hujjatlashtirish topshiriqlari) o‘z ichiga olishi shart.

Aynan shu nazariy tamoyillarga asoslangan holda, Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan “Tasviriy san’at fanidan mustaqil ta’lim uchun elektron qo‘llanma” (https://fineart.cspu.uz/2024/15/) ishlab chiqildi va o‘quv jarayoniga tatbiq etildi. Mazkur qo‘llanma TMT mazmunini an’anaviy shakldan modifikatsiyalashgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan shaklga o‘tkazishning amaliy modeli sifatida quyidagi tizimli afzalliklarni namoyon etdi:

1. Tizimlilik va tarkibiy to‘liqlik orqali ta’limiy tartibsizlikni bartaraf etish. An’anaviy tarqoq va epizodik topshiriqlardan farqli o‘laroq, elektron qo‘llanma tasviriy san’atning barcha asosiy fanlarini (“Rangtasvir”, “Qalamtasvir”, “Kompozitsiya”, “Haykaltaroshlik”, “San’at tarixi”) modulli tizimda birlashtirgan yagona platforma hisoblanadi. Har bir modul mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan bo‘lib, nazariy materiallar, amaliy topshiriqlar, yuqori sifatli ko‘rgazmali materiallar (reproduksiyalar, sxemalar, 3D modellar, video-darslar) va o‘z-o‘zini tekshirish vositalari bilan boyitilgan. Bu talabaga mustaqil ish uchun zarur bo‘lgan barcha resurslarni bir joydan olish, fanlararo aloqadorlikni anglash va o‘z faoliyatini tizimli rejalashtirish imkonini beradi.

2. Nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi. Klassik ta’limda ko‘pincha nazariya ma’ruzalarda, amaliyot esa ustaxonada bir-biridan ajratilgan holda o‘rganiladi, bu esa bilimlarning amaliyotda qo‘llanilmay qolishiga olib keladi. Elektron qo‘llanma bu uzilishni bartaraf etadi. Masalan, “Qalamtasvir” modulida “Chiziqli-konstruktiv qurish” mavzusi o‘rganilayotganda, talaba nafaqat geometrik jismlarni qurish qonuniyatlari haqidagi nazariy ma’lumotni o‘qiydi, balki shu zahotiyoq interaktiv 3D modellarni aylanitirib ko‘rishi, qurilish bosqichlari aks etgan video-darsni tomosha qilishi va shu bilimlar asosida aniq bir amaliy topshiriqni (“geometrik jismlardan tuzilgan postanovkaning chiziqli-konstruktiv tasvirini ishlash”) bajarish bo‘yicha bosqichma-bosqich yo‘riqnomani olishi mumkin. Bu yondashuv nazariy bilimlarning shunchaki yod olingan ma’lumotdan amaliy faoliyatning ongli vositasiga aylanishini ta’minlaydi.

3. Jarayonni vizuallashtirish va individual ta’lim trayektoriyasini ta’minlash. Tasviriy san’atda ijodiy jarayon yakuniy natijadan kam ahamiyatga ega emas. Qo‘llanmadagi mikro-dars formatidagi videolar va bosqichma-bosqich fotoyo‘riqnomalar talabaga murakkab texnik jarayonlarni (masalan, akvarelda “lezginka” usulida ishlash, moybo‘yoqda ko‘p qatlamli

[52] Schön, D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 384 p.

bo‘yash yoki portretning anatomik qurilishi) o‘zlashtirishga yordam beradi. Eng muhimi, talaba ushbu materiallarni o‘zi uchun qulay vaqtda, o‘zining individual o‘zlashtirish sur’atiga mos ravishda istalgancha qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Bu an’anaviy dars jarayonida guruhning umumiy sur’atiga moslasha olmaydigan talabalar uchun ham, ilg‘or talabalar uchun ham teng imkoniyatlar yaratadi.

4. O‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiv madaniyatni shakllantirish. TMTning eng zaif nuqtasi – bu o‘z vaqtida va xolis qayta aloqaning yo‘qligidir. Elektron qo‘llanma bu muammoni ikki yo‘nalishda hal qiladi. Birinchidan, har bir mavzu yakunidagi interaktiv testlar, krossvordlar talabaning nazariy bilimlarini bir zumda tekshirib, unga oniy qayta aloqa beradi. Ikkinchidan, amaliy topshiriqlar uchun batafsil ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini baholash mezonlari (rubrikalar) keltirilgan. Masalan, “Manzara kompozitsiyasi” topshirig‘i uchun “kompozitsion markazning aniqligi”, “planlarning fazoviy farqlanishi”, “koloritning yaxlitligi”, “perspektivaning to‘g‘ri qurilishi” kabi aniq mezonlar beriladi. Bu talabani o‘z ishiga subyektiv (“chiroyli-xunuk”) baho berishdan tiyib, uni obyektiv mezonlar asosida tanqidiy tahlil qilishga, o‘z yutuq va kamchiliklarini aniq anglashga va keyingi faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirishga – ya’ni, “refleksiv amaliyotchi” kompetensiyasini rivojlantirishga o‘rgatadi.

5. Ijodiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish. Modifikatsiyalashgan TMT shunchaki ijro mahoratini emas, balki ijodiy kompetensiyaning kognitiv-evristik, tadqiqotchilik va shaxsiy-motivatsion kabi barcha komponentlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Elektron qo‘llanmadagi “Glossariy” bo‘limi talabaning kasbiy terminologik bazasini kengaytirsa, “San’at tarixi” bo‘limi uning badiiy-estetik dunyoqarashini boyitadi. Amaliy topshiriqlar shunchaki texnik ijrodan tadqiqotga yo‘naltirilgan loyihalarga o‘tadi. Masalan, “O‘zbekiston zamonaviy rangtasvir maktabi vakillari ijodini o‘rganish, ularning uslubiy o‘ziga xosliklarini tahlil qilish va shu tahlil asosida “Mening O‘zbekistonim” mavzusida ijodiy kompozitsiya yaratish” kabi topshiriqlar talabani shunchaki nusxa ko‘chiruvchidan mustaqil izlanuvchi, tahlilchi va o‘z g‘oyasini asoslay oladigan interpretator (talqin qiluvchi) darajasiga ko‘taradi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limning kredit-modul tizimiga o‘tishi sharoitida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limning rolini keskin oshirish – bu shunchaki TMT soatlarini ko‘paytirishni anglatmaydigan, balki uning mazmuni, metodik ta’minoti va tashkiliy shakllarini tubdan modifikatsiyalashtirishni talab etadigan murakkab pedagogik vazifadir. An’anaviy yondashuvlar yangi sharoitlarda o‘z samarasini yo‘qotgan bir paytda, raqamli texnologiyalar va maxsus ishlab chiqilgan elektron o‘quv platformalari ushbu modifikatsiyaning eng samarali vositasi va metodologik poydevori bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasida yaratilgan “Tasviriy san’at fanidan mustaqil ta’lim uchun elektron qo‘llanma” kabi resurslar TMTni tarqoq, nazoratsiz va shunchaki reproduktiv faoliyatdan tizimli, resurslar bilan ta’minlangan, interaktiv, diagnostik va eng muhimi, talabaning mustaqil ijodiy izlanishini rag‘batlantiruvchi, uning refleksiv madaniyatini shakllantiruvchi jarayonga aylantirish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim o‘rtasidagi metodologik uzilishni bartaraf etib, bo‘lajak pedagog-rassomlarning zamon talablariga mos, raqobatbardosh, raqamli savodxonlikka ega va o‘z kasbiy rivojlanishi uchun mas’uliyatni his qila oladigan mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2020 yil 23-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1691-son.
4. Botirbekova G.A. Elektron darsliklar innovatsion texnologiyalarning turi sifatida. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 2021-y. 798-802. https://cyberleninka.ru/article/n/elektron-darsliklar-innovatsion-texnologiyalarning-turi-sifatida.
5. Muratov X.X. Tasviriy san’at fanidan mustaqil ta’lim uchun elektron qo‘llanma. // Chirchiq davlat pedagogika universiteti. 2024. URL: https://fineart.cspu.uz/2024/15/
6. Usmonov M.S. Multimediyaviy texnologiyalar asosida interaktiv elektron o‘quv kurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.: diss. ... Avtoref. ped. fan. fal. dok (PhD). -Jizzax.-2023.-23-b.
7. Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar: muammolar va yechimlar. – Toshkent: Fan, 2006. – 184 b.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KOMPOZITSION QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

[1]Muratov Xusan Xolmuratovich, [2]Tursunov Mannon O‘tkir o‘g‘li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d., dotsent
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403315

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy pedagogik ta’lim tizimida talabalarning kompozitsion qobiliyatlarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va metodologiyasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda kreativlik tushunchasi, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, kompozitsion qobiliyatlarni shakllantirishning tarixiy rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodikalar, interaktiv usullar taklif etilgan va ularning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali asoslab berilgan.*
Kalit so‘zlar: *kreativlik, kreativ yondashuv, kompozitsiya, kompozitsion qobiliyatlar, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, didaktik ta’minot.*
Аннотация: *В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы и методология развития композиционных способностей студентов в системе высшего педагогического образования на основе креативного подхода. В исследовании анализируется понятие креативности, его значение в образовательном процессе, историческое развитие и современные тенденции формирования композиционных способностей. Также предложены эффективные методики и интерактивные методы, направленные на развитие композиционных способностей студентов, и их результативность обоснована посредством опытно-экспериментальной работы.*
Ключевые слова: *креативность, креативный подход, композиция, композиционные способности, педагогическая технология, интерактивные методы, дидактическое обеспечение.*
Abstract: *This article discusses the scientific-theoretical foundations and methodology for developing students' compositional abilities in the system of higher pedagogical education based on a creative approach. The study analyzes the concept of creativity, its importance in the educational process, the historical development and modern trends in the formation of compositional skills. Furthermore, effective methodologies and interactive methods aimed at developing students' compositional abilities are proposed, and their effectiveness is substantiated through experimental work.*
Keywords: *creativity, creative approach, composition, compositional abilities, pedagogical technology, interactive methods, didactic support.*

Jahon globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi oldiga mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasi qo‘yilgan. Bu jarayonda bo‘lajak mutaxassislarning, xususan, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini, ijodiy salohiyatini va kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim

to‘g‘risida”gi Qonuni va Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor vazifalar ham ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, talabalarning kreativ fikrlashini shakllantirish zaruratini ta’kidlaydi.

Kreativlik shaxsning yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyat bo‘lib, u tafakkurda, muloqotda va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Pedagogikada kreativ yondashuv an'anaviy ta’limdan farqli o‘laroq, bir qolipda fikrlamaslik, tashabbuskorlik va yangi g‘oyalarni yaratishni nazarda tutadi. Kompozitsion qobiliyat esa tasviriy san’atda asarning mazmuni, xarakteri va maqsadiga ko‘ra uning idrokini belgilab beradigan qurilishni yaratish mahoratidir. Ushbu ikki muhim sifatning integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi.

Tasviriy san’at ta’limida kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirish an’anaviy tarzda asosan amaliy mashg‘ulotlar, naturadan nusxa ko‘chirish va klassik asarlarni tahlil qilishga asoslangan. Biroq, zamonaviy ta’lim paradigmasi ushbu jarayonga shaxsga yo‘naltirilgan va kreativ yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Buning uchun an’anaviy metodlarni talabalarning individual xususiyatlarini, ijodiy tafakkurini va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rag‘batlantiruvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitish lozim.

Biz takomillashtirgan metodika talabalarda kreativ yondashuv orqali kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirishning uch bosqichli modelini o‘z ichiga oladi:

1. Diagnostik-motivatsion bosqich: Bu bosqichda talabalarning kompozitsiya borasidagi dastlabki bilim va ko‘nikmalari, kreativ salohiyati turli testlar, ijodiy topshiriqlar va suhbatlar orqali aniqlanadi. Talabalarda ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishni oshirish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash va motivatsiyani shakllantirish maqsadida mashhur rassomlarning hayoti va ijodiy izlanishlari haqida ma’ruzalar, mahorat darslari (master-klass) va ijodiy uchrashuvlar tashkil etiladi.

2. Rivojlantiruvchi-amaliy bosqich: Bu bosqichda asosiy e’tibor interaktiv metodlarni qo‘llashga qaratiladi. Jumladan:

–“Keys-stadi” metodi: Talabalarga muayyan bir asar yoki ijodiy vaziyat tahlil uchun taqdim etiladi. Ular asarning kompozitsion yechimi, ranglar gammasi, ritmi va g‘oyaviy mazmunini tahlil qilib, o‘zlarining muqobil yechimlarini taklif etadilar.

–“Aqliy hujum” va “Sinkveyn” metodlari: Ma’lum bir mavzu (masalan, “Bahor nafasi”, “Shahar ritmi”) doirasida kompozitsiya yaratish uchun g‘oyalarni erkin generatsiya qilish, assotsiativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

–Loyiha ishi: Talabalar bir necha mashg‘ulot davomida muayyan mavzuda individual yoki kichik guruhlarda ijodiy loyihani amalga oshiradilar. Bu jarayon ularda mustaqil izlanish, material tanlash, eskizlar yaratishdan tortib, asarni yakunlashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi.

–Raqamli texnologiyalardan foydalanish: Adobe Photoshop, CorelDRAW, 3ds Max kabi dasturiy vositalar yordamida kompozitsiya yaratish talabalarga rang, shakl va faktura bilan ishlashning yangi imkoniyatlarini ochib beradi, ularning raqamli savodxonligini oshiradi.

3. Natijaviy-baholash bosqich: Bu bosqichda talabalarning o‘zlashtirish darajasi va ijodiy o‘sishi kuzatiladi. Baholash nafaqat yakuniy ijodiy ishga, balki butun o‘quv jarayonidagi faolligi, izlanuvchanligi, g‘oyalarining originalligi kabi mezonlarga asoslanadi. Ta’lim yakunida ijodiy ishlar ko‘rgazmasi tashkil etilib, o‘zaro tahlil va munozaralar o‘tkaziladi.

Mazkur metodikani sinovdan o‘tkazish maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakultetining 2-kurs talabalari orasida pedagogik tajriba o‘tkazildi.

Tajribada 60 nafar talaba ishtirok etib, ular tajriba (30 nafar) va nazorat (30 nafar) guruhlariga bo‘lindi. Nazorat guruhida mashg‘ulotlar an’anaviy metodika asosida, tajriba guruhida esa yuqorida keltirilgan takomillashtirilgan metodika asosida olib borildi.

Tajriba yakunida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi talabalarining ijodiy ishlarida kompozitsion yaxlitlik, g‘oyaning originalligi, ranglar uyg‘unligi va obrazlilik darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Tajriba guruhidagi talabalarning 85%i kompozitsion qobiliyatlarni rivojlantirishda yuqori natijalarni qayd etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich nazorat guruhida 55%ni tashkil etdi. Bu esa taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini isbotlaydi.

Oliy pedagogik ta’limda tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning kompozitsion qobiliyatlarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy mahoratini oshiradi, balki kelajakda o‘quvchilarga ham ijodiy ruhni singdira oladigan, innovatsiyalarga ochiq pedagog bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi. Taklif etilgan metodika o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish, talabalarning ijodiy salohiyatini to‘laqonli namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu yondashuvni oliy ta’limning tegishli yo‘nalishlari o‘quv dasturlariga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T., TDPU, 2003. – 174 b.
3. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 128 b.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
5. Sultanov X.E. Tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuvi asosida takomillashtirilgan o‘qitish texnologiyalari.: diss... Avtoref. ped. fan. fal. dok (PhD). –T.: 2023. -28 b.
6. Xasanova M.Z. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kompozitsiyaga oid kompetensiyalarini rivojlanirish.: diss... Avtoref. ped. fan. fal. dok (PhD). –T.: 2023. -22 b.

OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TASVIRIY SAN’AT NAZARIYASINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH ORQALI TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Muratov Xusan Xolmuratovich[1] Maxamadova Gavxar Sharip qizi[2]
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d, (PhD), dotsent. [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403325

Annotatsiya*. Mazkur maqolada oliy pedagogik ta’limda tasviriy san’atning nazariy fanlarini o‘qitishda an’anaviy, ma’ruzaga asoslangan yondashuvlarning cheklanganligi tahlil qilinadi. Ushbu muammoning yechimi sifatida talabaga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish metodlari, xususan, “Keys-stadi” va “Loyiha asosida o‘qitish” metodlari taklif etiladi. Shuningdek, interfaol metodlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar va STEAM yondashuvi bilan integratsiya qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *interfaol metodlar, ijodkorlik, keys-stadi, loyiha asosida o‘qitish, pedagogik texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, STEAM.*
Аннотация. *В данной статье анализируются ограничения традиционных, лекционных подходов в преподавании теоретических дисциплин изобразительного искусства в высшем педагогическом образовании. В качестве решения этой проблемы предлагаются студенто-ориентированные интерактивные методы обучения, в частности, методы «Кейс-стади» и «Проектное обучение». Также рассматриваются возможности интеграции интерактивных методов с современными цифровыми технологиями и подходом STEAM.*
Ключевые слова: *интерактивные методы, креативность, кейс-стади, проектное обучение, педагогические технологии, критическое мышление, STEAM*
Abstract*. This article analyzes the limitations of traditional, lecture-based approaches in teaching the theoretical subjects of fine arts in higher pedagogical education. As a solution to this problem, student-centered interactive teaching methods, particularly the "Case Study" and "Project-Based Learning" methods, are proposed. The article also explores the possibilities of integrating interactive methods with modern digital technologies and the STEAM approach.*
Keywords: *interactive methods, creativity, case study, project-based learning, pedagogical technologies, critical thinking, STEAM.*

O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bugungi kunda nafaqat chuqur bilimga, balki innovatsion fikrlaydigan, ijodiy va tanqidiy yondashuvga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashni strategik vazifa sifatida belgilaydi. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan tashkil etilgan ushbu xalqaro anjuman ham aynan pedagogik ta’limdagi zamonaviy tendensiyalarni muhokama qilish orqali ushbu vazifalar ijrosiga hissa qo‘shishni maqsad qilgan. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini tubdan qayta ko‘rib chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Asosiy muammo shundaki, san’at tarixi, rangshunoslik, kompozitsiya nazariyasi kabi fundamental nazariy fanlarni o‘qitishda haligacha an’anaviy, o‘qituvchi markazida bo‘lgan ma’ruza-seminar shakli ustunlik qilmoqda. Bunday yondashuv talabani asosan passiv tinglovchi va ma’lumotni yod oluvchi obyektga aylantirib, uning ijodiy va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirish o‘rniga, cheklab qo‘yadi. Bu holatda o‘ziga xos pedagogik nomutanosiblik yuzaga keladi: mohiyatan ijod, izlanish va individual talqinga asoslangan san’at fani, aksincha, statik va qolipga solingan usullar bilan o‘qitiladi. Natijada nazariya amaliyotdan uzilib qoladi – talaba nazariy bilimlarni yod oladi, lekin ularni ijodiy jarayonda mustaqil qo‘llashda qiynaladi.

Mazkur maqolaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, tasviriy san’at nazariyasini o‘qitishda talabaga yo‘naltirilgan interfaol metodlarni tizimli joriy etish orqali nazariy bilimlar va ijodiy amaliyot o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldirish mumkin. Xususan, “Keys-stadi” (Case-Study) va “Loyiha asosida o‘qitish” (Project-Based Learning – PBL) metodlari talabalarni passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi, muammolarni tahlil qiluvchi va ijodiy yechimlar yaratuvchi sub’ektga aylantirishning eng samarali vositalari hisoblanadi. Ushbu metodlar o‘quv jarayonini shunchaki ma’lumot uzatishdan iborat emas, balki bilimni birgalikda yaratish va amaliyotda sinab ko‘rish maydoniga aylantiradi.

Interfaol ta’lim an’anaviy “sahna minbaridagi donishmand” modelidan voz kechib, “yonma-yon turgan yo‘riqchi” paradigmasiga o‘tishni nazarda tutadi. Bu jarayonda o‘qituvchining roli tubdan o‘zgaradi: u bilimning yagona manbayi bo‘lishdan to‘xtab, o‘quv jarayonini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi, talabalarning mustaqil izlanishlari uchun sharoit yaratuvchi fasilitatorga aylanadi. Interfaol ta’lim – bu o‘qituvchi va talaba, shuningdek, talabalarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan dialogik jarayondir.

Ushbu yondashuvning metodologik asosi konstruktivistik ta’lim nazariyasiga borib taqaladi. Unga ko‘ra, bilim tashqaridan tayyor holda olinmaydi, balki talaba tomonidan mavjud tajriba va yangi ma’lumotlar o‘rtasidagi faol o‘zaro ta’sir natijasida shaxsan “quriladi” (yaratiladi). Bilimni faol yaratish jarayoni – savollar berish, muammolarni yechish, guruhda muhokama qilish, turli g‘oyalarni sintez qilish – o‘z-o‘zidan ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini (aqliy hujum, divergent fikrlash, vizualizatsiya, assotsiatsiya) shakllantirish uchun zamin yaratadi. Interfaol metodlar aynan shu kognitiv jarayonlarning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan rag‘batlantiruvchi muhitni vujudga keltiradi.

“Keys-stadi” (aniq vaziyatni tahlil qilish) metodi – bu real yoki to‘qima muammoli vaziyatni (“keys”) chuqur o‘rganish orqali muammoning ildizlarini aniqlash, sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilish va asoslangan yechimlar taklif etishga qaratilgan o‘qitish usulidir. Tasviriy san’at nazariyasi kontekstida “keys” sifatida murakkab bir san’at asari, rassomning ijodiy yo‘li, ziddiyatli san’at oqimi yoki kuratorlik dilemmasi kabi holatlar olinishi mumkin.

Ushbu metod san’atshunos yoki tanqidchining “ko‘rinmas” aqliy faoliyatini talabalar uchun ochiq va o‘rganiladigan jarayonga aylantiradi. An’anaviy ma’ruzada o‘qituvchi tahlilning tayyor natijalarini aytib bersa, keys-stadi talabani tahlil jarayonining o‘ziga bevosita jalb qiladi. Bu jarayonda talaba ekspertning fikrlash bosqichlarini amalda o‘taydi: diqqat bilan kuzatish, gipotezalar ilgari surish, vizual dalillar to‘plash va o‘z talqinini boshqa qarashlardan himoya qilish. O‘qituvchi esa tayyor javob beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi savollar orqali talabalarning tahliliy fikrlashini modellashtiruvchi ustoz vazifasini bajaradi.

Pablo Pikassoning “Gernika” asarini o‘rganish bo‘yicha ma’ruza o‘rniga talabalarga asarning yuqori sifatli reproduksiyalari, Gernika shahrining bombardimon qilinishi haqidagi tarixiy ma’lumotlar, bir-biriga zid bo‘lgan tanqidiy maqolalar va Pikassoning o‘sha davrdagi

hayotiga oid biografik lavhalardan iborat “keys fayli” taqdim etiladi. Talabalar kichik guruhlarda ishlagan holda, quyidagi yo‘naltiruvchi savollarga javob topishadi: Asardagi asosiy ramziy elementlar nimalardan iborat? Monoxrom (oq-qora) ranglar palitrasi asarning hissiy ta’siriga qanday hissa qo‘shadi? Kompozitsiya tomoshabinning nigohini tartibsizlik hikoyasi bo‘ylab qanday yo‘naltiradi? Bu asarning siyosiy va ijtimoiy vazifasi nima bo‘lgan?

Natijada talabalar shunchaki faktlarni eslab qolishdan yuqori darajadagi tahlil, talqin, dalillarga asoslangan argumentatsiya va turli manbalarni sintez qilish bosqichiga o‘tadilar. Ular san’at nazariyasini yodlanadigan qoidalar majmuyi sifatida emas, balki murakkab vizual “matn”larni tushunish uchun qo‘llaniladigan tahliliy vositalar to‘plami sifatida o‘zlashtiradilar. Bu metod noaniqlik bilan ishlash va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ayniqsa samarali ekanligi isbotlangan.

“Loyiha asosida o‘qitish” (PBL) – bu talabalar real hayotiy muammo yoki savol atrofida uzoq muddatli tadqiqot olib borib, yakunda aniq bir mahsulot yoki taqdimot yaratadigan dinamik yondashuvdir. Bu metod talabaga yo‘naltirilganligi, fanlararo xarakteri va hamkorlikda ishlash, vaqtni boshqarish, ijodiy muammolarni yechish kabi amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

PBL nazariya va amaliyot o‘rtasidagi sun’iy devorni butunlay olib tashlaydi. Nazariy bilimlar endi o‘z-o‘zidan maqsad bo‘lmay, balki mazmunli va ijodiy loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vositaga aylanadi. Bu esa bilimlarning chuqur va kontekstli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi hamda murakkab muammoga innovatsion yechim topishni talab qilib, ijodkorlikni kuchaytiradi.

“Impressionistik rang nazariyasi va yorug‘lik tamoyillaridan foydalanib, zamonaviy Chirchiq shahar manzarasining o‘ziga xosligini qanday aks ettirish mumkin?” degan savol qo‘yiladi. Talabalar impressionizmning ilmiy va badiiy asoslarini (optik aralashuv, alohida rang surtmalari, yorug‘lik effektlari) o‘rganadilar. Bu loyihaning nazariy poydevori hisoblanadi. Talabalar Chirchiq shahrida dala amaliyotini o‘tkazib (eskizlar, fotosuratlar), so‘ngra impressionizm nazariyasini zamonaviy kontekstda qo‘llagan holda bir qator (raqamli yoki an’anaviy) asarlar yaratadilar. Talabalar o‘zaro tanqid sessiyalarida qatnashib, nazariy tushunchalarni bir-birlarining ishlarini tahlil qilish va konstruktiv fikr bildirish uchun qo‘llaydilar. Talabalar o‘z yakuniy ishlarini virtual yoki real ko‘rgazmada namoyish etib, o‘z ijodiy jarayonlari va nazariyani amaliyot bilan qanday uyg‘unlashtirganliklarini tushuntirib beradilar. Ushbu loyiha orqali talabalar nazariyani shunchaki o‘qib o‘rganmay, balki uni amalda sinab ko‘radilar, moslashtiradilar va yangicha talqin qiladilar. Bu jarayon ularning nafaqat badiiy, balki tadqiqotchilik va taqdimot qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Zamonaviy raqamli vositalar interfaol metodlarning samaradorligini yanada oshiruvchi kuchli katalizator hisoblanadi. Ular shunchaki qo‘shimcha vosita emas, balki o‘quv jarayonining mohiyatini o‘zgartirish qudratiga ega. Masalan, jahon muzeylariga virtual reallik sayohatlari orqali keys-stadilarni yanada jonli va ta’sirchan qilish, loyiha asosidagi ishlarda Photoshop, Procreate kabi raqamli dasturlar yoki 3D modellashtirish vositalaridan foydalanib, innovatsion ijodiy mahsulotlar yaratish mumkin.

Bu amaliyotlar o‘z navbatida ta’limdagi eng zamonaviy tendensiyalardan biri bo‘lgan STEAM (Science – fan, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Arts – san’at, Mathematics – matematika) yondashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. STEAM san’at ta’limiga boshqa fanlarning tahliliy va texnologik yondashuvlarini integratsiya qilish orqali ijodiy jarayonni boyitadi va talabalarni texnologiyalashgan dunyo talablariga tayyorlaydi. Masalan,

PBL loyihasi doirasida talabalar perspektivaning matematik (M) qonuniyatlarini tahlil qilib, muhandislik dasturlari (E/T) yordamida murakkab me’moriy makonni (A) yorug‘likning ilmiy (S) tamoyillari asosida loyihalashlari mumkin. Bunday fanlararo yondashuv anjuman mavzusida ko‘rsatilgan “zamonaviy tendensiyalar”ga to‘liq mos keladi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Keys-stadi” va “Loyiha asosida o‘qitish” kabi interfaol metodlar shunchaki muqobil texnikalar emas, balki oliy pedagogik ta’limda tasviriy san’at nazariyasini o‘qitish uchun zarur bo‘lgan pedagogik evolyutsiyadir. Ular o‘quv jarayonini passiv yodlashdan faol, qiziqarli va mohiyatan ijodiy jarayonga aylantiradi. Ushbu metodlarning asosiy afzalliklari – talabalar motivatsiyasining ortishi, murakkab nazariy tushunchalarning chuqur va mustahkam o‘zlashtirilishi hamda tanqidiy, tahliliy va ijodiy kompetensiyalarning yaxlit rivojlanishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Berdiyev D. A. (2023). Tasviriy san’atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 6(4), 54-58.
2. Бердиев Д. А., Султанов Х. Э. (2022). Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш. Научный журнал Интернаука, 15(238), 13-14.
3. Duh, M., Zupančič, T., & Čagran, B. (2015). An Interactive Approach to Learning and Teaching in Visual Arts Education. CEPS Journal, 5(3), 69-87.
4. Jalilov, A. (2020). Muammoli o‘qitish va uning afzalliklari. Toshkent: Fan.
5. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. (2020). The importance of using the keys-stadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes. Scientific reports of Bukhara State University, 4(4).
6. Qodirova, F., & Xolmatova, N. (2021). Interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi o‘rni. Pedagogik mahorat, (2), 45-50.
7. Sultanov X. E., Sobirov S. T. (2021). Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi (1-sinf uchun). O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Ishonchli hamkor”.
8. Thomas, J. W. (2000). A review of research on project-based learning. The Autodesk Foundation.
9. Yalcin, S. A. (2021). Project-based learning in visual arts lesson. International Journal of Education in Mathematics, Science, and Technology, 9(2), 280-297.

TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNING O‘RNI

Muzropova Guljamol Mardonovna
Navoiy Davlat Universiteti
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403333

Anotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy shakllanishida ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari, ahamiyati va uni shakllantirish yo‘llariga bag‘ishlangan. Ma’lumotlarda ijtimoiy-madaniy kompetentlik atamasining mohiyati ochib berilib, uning madaniy xabardorlik, madaniy sezgirlik, madaniyatlararo muloqot qobiliyati, tolerantlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi asosiy komponentlari tahqir qilinadi. Xususan, mulohazalar O‘zbekistonning ko‘p millatli va boy madaniy kontekstida, tasviriy san’at o‘qituvchisining multikultural sinf muhitida samarali ishlashi, san’at asarlarini chuqurroq tahlil qilishi va milliy qadriyatlarni targ‘ib etishidagi ahamiyati qayta ta’kidlanadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ushbu kompetentlikni rivojlantirishning amaliy usullari – o‘quv dasturlarini integratsiyalash, loyiha-usullaridan foydalanish, amaliyotni diversifikatsiya qilish va refleksiyani rag‘batlantirish kabi masalalar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tasviriy san’at, o‘qituvchi tayyorlash, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, madaniy xabardorlik, madaniy sezgirlik, madaniyatlararo muloqot, tolerantlik, inklyuziv ta’lim, multikultural muhit, milliy qadriyatlar, pedagogik texnologiya, O‘zbekiston konteksti.*

Annotation. *This article is dedicated to the key components, significance, and methods of developing socio-cultural competence in the professional formation of a modern visual arts teacher. The article explores the essence of the term* socio-cultural competence, *highlighting its core components such as cultural awareness, cultural sensitivity, intercultural communication skills, tolerance, and social responsibility. In particular, the discussion emphasizes the importance of these competencies in the context of Uzbekistan's multiethnic and rich cultural environment, where visual arts teachers play a crucial role in effectively engaging in multicultural classroom settings, analyzing artworks more deeply, and promoting national values. The article also covers practical approaches to fostering this competence in higher education institutions, including curriculum integration, use of project-based methods, diversification of internships, and encouraging reflection.*

Keywords: *Visual arts, teacher training, socio-cultural competence, cultural awareness, cultural sensitivity, intercultural communication, tolerance, inclusive education, multicultural environment, national values, pedagogical technology, Uzbekistan context.*

Аннотация. *Данная статья посвящена ключевым компонентам, значению и методам формирования социокультурной компетентности в процессе профессионального становления современного преподавателя изобразительного искусства. В статье раскрывается сущность термина* социокультурная компетентность, *подчеркиваются её основные компоненты, такие как культурная осведомлённость, культурная чувствительность, навыки межкультурной коммуникации, толерантность и социальная ответственность. Особое внимание уделяется важности этих компетенций в многонациональном и богатом культурном контексте Узбекистана, где преподаватели*

изобразительного искусства играют важную роль в эффективной работе в мультикультурной учебной среде, более глубоком анализе произведений искусства и продвижении национальных ценностей. Также рассматриваются практические подходы к развитию данной компетентности в учреждениях высшего образования, включая интеграцию в учебные программы, использование проектных методов, диверсификацию практики и стимулирование рефлексии.

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, подготовка преподавателей, социокультурная компетентность, культурная осведомлённость, культурная чувствительность, межкультурная коммуникация, толерантность, инклюзивное образование, мультикультурная среда, национальные ценности, педагогические технологии, контекст Узбекистана.*

XXI asrda globallashuv jarayonlarining kuchayishi, madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, madaniy savodxonlik, tolerantlik, estetik did, tarixiy va madaniy merosga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishda o‘qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetentligi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. **Tasviriy san’at fani** o‘quvchilarning nafaqat estetik didini rivojlantirish, balki ularning ijtimoiy-madaniy ongini shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan orqali o‘quvchilar milliy va jahon madaniy merosi, tarixiy san’at obidalari, milliy hunarmandchilik an’analari bilan yaqindan tanishadilar. Shu bois tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘z sohasining bilimdoni bo‘lish bilan birga, ijtimoiy-madaniy muhitga ongli munosabat bildira oladigan, yuksak madaniyatli pedagog bo‘lishi zarur.

Bugungi kunda pedagogik ta’limda kompetentlik yondashuvi asosida o‘qituvchilarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish, ularning kasbiy va shaxsiy rivojiga, madaniy merosni saqlash va uni yosh avlodga yetkazish borasidagi salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. **Zamonaviy globallashuv sharoitida ta’lim sohasi yangi pedagogik yondashuvlar va zamonaviy kompetentliklarni talab qilmoqda.** Tasviriy san’at bu – faqat texnik ko‘nikmalar majmui emas, balki turli xalqlarning madaniyati, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarining badiiy ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san’at o‘qituvchisi nafaqat rassom, balki madaniyatlararo muloqotni ta’minlovchi, tolerantlik va ijtimoiy mas’uliyatni targ‘ib qiluvchi tarbiyachi sifatida faoliyat yuritadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatning yetuk va ongli a’zolarini tarbiyalovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi shaxs sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, tasviriy san’at o‘qituvchilari san’at, estetika, tarixiy meros va milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishda muhim o‘rin egallaydi. Shu bois, tasviriy san’at o‘qituvchisining **ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish** – bu uning shaxsiy fazilatlari, kasbiy salohiyati va ijtimoiy ongini yuksaltirishga xizmat qiluvchi jarayondir.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik tushunchasi va tasviriy san’at o‘qituvchisi faoliyatidagi ahamiyati. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik — bu shaxsning jamiyatda samarali muloqot qilish, turli madaniyatlarni anglash va ularni qadrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ongli ishtirok etish qobiliyatidir. Bu kompetentlik insonning ijtimoiy ongini, madaniy sezgirligini va axloqiy mas’uliyatini shakllantiradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari qo‘yidagilarda namoyon bo‘ladi. Madaniy savodxonlik – milliy va jahon madaniyatlari, san’at va urf-odatlar haqida bilimga ega bo‘lish. Estetik did – go‘zallikni anglash, san’at asarlarini badiiy tahlil qilish qobiliyati. Ijodiy fikrlash – san’at orqali erkin, noan’anaviy va mustaqil fikr yuritish. O‘zlikni anglash va milliy g‘urur – o‘z xalqining tarixi, qadriyatlari va madaniy merosiga hurmat bilan qarash. Tolerantlik va madaniyatlararo muloqotga tayyorlik – boshqa madaniyatlar vakillariga hurmat bilan yondashish va muloqot o‘rnatish.

Tasviriy san’at o‘qituvchisi uchun ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ahamiyati. Tasviriy san’at fani faqat chizmachilik ko‘nikmalarini emas, balki estetik tarbiya, madaniy ong, shaxsiy o‘sish va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, tasviriy san’at o‘qituvchisi quyidagi yo‘nalishlarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikka ega bo‘lishi zarur. Madaniyat va san’atni targ‘ib qilish – san’at asarlari orqali o‘quvchilarning madaniy ongini va qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Milliy o‘zlikni rivojlantirish – milliy tarix, urf-odatlar va qadriyatlarni tasviriy vositalar orqali yosh avlod ongiga singdiradi. Estetik tarbiya berish – o‘quvchilarning go‘zallikni anglash, san’atni his etish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Global madaniyat bilan tanishtirish – turli xalqlarning san’ati va madaniy oqimlari bilan tanishtirib, bag‘rikenglikni mustahkamlaydi. Ijodiy yondashuvni shakllantirish – o‘quvchilarning individual ijodiy imkoniyatlarini ochishga, erkin fikrlashga yo‘naltiradi.

1. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy komponentlari

№	Komponent nomi	Tavsifi
1	**Madaniy xabardorlik**	O‘z va boshqa xalqlarning madaniy qadriyatlari, san’ati, urf-odatlari va tarixini anglash, o‘rganishga qiziqish bildirishi
2	**Madaniy sezgirlik (sensitivilik)**	Turli madaniy qatlamlarning his-tuyg‘ulari va dunyoqarashlariga nisbatan hurmat va hamdardlik bilan yondashish
3	**Madaniyatlararo muloqot qobiliyati**	Turli madaniyat vakillari bilan erkin, to‘siqsiz va mazmunli muloqot olib borish qobiliyati
4	**Tolerantlik va inklyuzivlik**	Xilma-xillikni qadrlash, har xil ijtimoiy, milliy va diniy guruh vakillarini qabul qilish
5	**Ijtimoiy mas’uliyat**	San’at orqali jamiyatdagi dolzarb muammolarga (adolat, tinchlik, bag‘rikenglik) nisbatan ongli yondashuv

2. O‘qituvchilik faoliyatida ijtimoiy-madaniy kompetentlikning amaliy ko‘rinishlari

№	Ko‘rinish turi	Mazmuni
1	**Multikultural sinfda ishlash**	Etnik va ijtimoiy jihatdan xilma-xil sinf muhitida har bir o‘quvchining madaniy shaxsiyatini hurmat qilish
2	**San’at asarlarini tahlil qilish**	San’at asarlarini faqat estetik emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda chuqur tahlil qilish
3	**Qadriyatlarni targ‘ib qilish**	Darslar orqali vatanparvarlik, insonparvarlik, estetik did va milliy o‘zlikni shakllantirish

№	Ko‘rinish turi	Mazmuni
4	**Inklyuziv ta’limni amalga oshirish**	Nogironligi bo‘lgan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan san’at terapiyasi asosida ishlash

3. Oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish yo‘llari

№	Yo‘nalish	Tavsifi
1	**O‘quv dasturlarini integratsiyalash**	San’at, madaniyatshunoslik, estetika, pedagogika va psixologiya fanlarini uyg‘un o‘rgatish
2	**Amaliy va interaktiv metodlar**	Muzeylarga ekskursiyalar, madaniyatlararo seminarlar, san’at terapiyasi orqali madaniy ongni rivojlantirish
3	**Ijodiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash**	Milliy va jahon madaniyatini yorituvchi ko‘rgazma, tanlov va tashabbuslar orqali ijtimoiy mas’uliyatni oshirish

O‘zbekiston – ko‘p millatli, boy tarixiy-madaniy merosga ega davlatdir. Mamlakatimiz hududida yashovchi turli millat va elat vakillarining farzandlari umumta’lim maktablarida yagona ta’lim tizimi asosida ta’lim-tarbiya olmoqda. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida milliy o‘zlikni tiklash, tarixiy-madaniy merosni asrash va targ‘ib etish, shuningdek, jahon madaniyati bilan samarali muloqot o‘rnatish zarurati yanada dolzarb masalaga aylangan. Mazkur jarayonda tasviriy san’at o‘qituvchisi muhim o‘rin egallaydi. U o‘quvchilarga nafaqat san’at asarlarini yaratish ko‘nikmalarini, balki o‘z milliy madaniyatining noyob jihatlarini anglash, u bilan faxrlanish va uni jahon madaniy kontekstida tushunish ko‘nikmalarini ham singdirishi lozim. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kompetentlik o‘qituvchining nafaqat kasbiy salohiyatini, balki insoniy fazilatlarini, madaniyatlararo muloqotga tayyorlik, tolerantlik, bag‘rikenglik, estetik va ma’naviy ongini namoyon etadi.

Zamonaviy tasviriy san’at o‘qituvchisi – bu faqat chizish yoki rangtasvirni o‘rgatadigan mutaxassis emas, balki o‘quvchilarda dunyoni estetik idrok etish, go‘zallikni anglash, boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan hurmat va hamdardlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi ma’naviy yetakchi hisoblanadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan, tizimli va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tolibovich, S. S., & Mardonovna, M. G. (2023). EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART. Science and Innovation, 2 (2), 16-19.
2. Mardonovna, M.G. (2023). ZAMONAVIY MODADA USLUBLARNING O‘RNI. Journal of Integrated Education and Research, 2(11), 18-22.
3. Guljamol, M. (2023). SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2 (3), 191-197.

4. Mardonovna, M. G. (2023). The importance of the traditions of the teacher and disciple in the study of the traditional applied art of Bukhara. Intent Research Scientific Journal, 2 (2), 22-26.
5. Mardonovna, M. G. (2021). Artistic aspects of Bukhara applied art of the XIX century “On the example of Bukhara art ceramics”. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2 (2), 61-62.
6. Bobomurodova S. A. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELI //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – С. 73-82.
7. Xamidovna X. G., To‘xtaqulovna V. A. TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, HOZIRGI TA’LIM TIZIMIDAGI O ‘ZGARISHLAR VA XORIJIY DAVLATLARNING NUFUZLI OTMLARIGA QISQA MUDDATLI MALAKA OSHIRISH //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 3. – №. 29. – С. 87-91.
8. Shovdirov S. Analyzing the sources and consequences of atmospheric pollution: A case study of the Navoi region //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 587. – С. 02016.
9. Шавдиров С. А. Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 109-110.
10. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.
11. Шавдиров С. А. Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 6. – С. 15-21.
12. SAN’AT S. A. S. T., TA’LIMIDA O. Q. O. Q. U. V., TALABLARI K. S. T. T. P. SAI. 2023.№ Special Issue 13 //URL: https://cyberleninka. ru/article/n/tasviriy-san’at-ta’limida-o‘quvchilarning-o‘quv-kompetensiyalarini-shakllantirish-tizimini-takomillashtirishning-pedagogik (дата обращения: 03.12. 2023)

TALABALARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

[1]Ozodboyev Ismoil Odilboyevich, [2]Psurmanova Malika Ashurovna
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasi o'qituvchisi, [2]talaba
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403339

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning dolzarb jihatlari yoritiladi. Innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, ularning pedagogik va tarbiyaviy samaradorligi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish usullari tahlil qilinadi. Maqolada ijodiy tafakkurni shakllantirishda interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiyalar, ijodiy tafakkur, ta'lim, tarbiya, pedagogik jarayon, raqamli texnologiya, interfaol metod, talaba, motivatsiya.*

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishdir. Chunki jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ijodkor, tashabbuskor va yangilikka intiluvchi mutaxassislarni talab etadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatida ham ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, talabalarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ijodiy tafakkur – bu yangilik yaratish, mavjud muammoni noodatiy usullar bilan hal qilish, o'z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatidir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabi hisoblanadi.

Ijodiy tafakkur talabaning nafaqat bilim olish darajasini, balki uning dunyoqarashini, shaxsiy fazilatlarini ham shakllantiradi. Shaxsning barkamolligi va kasbiy kompetentligida ijodkorlik muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, muhandislik sohasida o'qiyotgan talabalar yangi g'oyalarni ilgari surishi, chizmalar yaratishda original yondashuv qo'llashi yoki loyihalash jarayonida yangicha qarashlarni tatbiq qilishi uning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini belgilaydi.

Tarbiyaviy nuqtayi nazardan, ijodiy tafakkur talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi: mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati; yangilikka intilish va tashabbuskorlik; o'z fikrini asoslash va himoya qilish ko'nikmasi; muammoli vaziyatlarda noodatiy yechimlar topa olish; jamoa bilan ishlash va yetakchilik fazilatlari.

Innovatsion texnologiyalar – bu ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv, zamonaviy pedagogik metodlar va raqamli vositalarni qo'llash orqali samaradorlikka erishishni ta'minlovchi tizimdir. Bugungi kunda quyidagi innovatsion texnologiyalar ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Debat”, “Rol o‘ynash” kabi usullar talabalarning erkin fikrlashini, muammoga yangicha yondashuvini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar – AutoCAD, SolidWorks, 3D Max kabi grafik dasturlardan foydalanish talabalarning fazoviy tafakkurini oshiradi.

Virtual va qo‘shimcha reallik – talabalarning murakkab jarayonlarni vizual ko‘rish, 3D muhitda ishlash orqali ijodiy g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini beradi.

Gamifikatsiya – o‘quv jarayonini o‘yin elementlari orqali tashkil etish talabalarning motivatsiyasini kuchaytiradi.

Sun’iy intellekt (AI) vositalari – ijodiy topshiriqlarni yaratish, avtomatik baholash va shaxsiy yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi.

Ijodiy tafakkurni shakllantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Muammoli o‘qitish – talabalarga muammoli vaziyat yaratish va uni mustaqil hal qilish imkonini berish;

Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning) – talabalar real hayotiy loyihalarni ishlab chiqib, ijodiy yondashuvni qo‘llashga o‘rganadi;

Kollaborativ ta’lim – talabalarni guruhlarda ishlashga jalb qilish orqali bir-birining g‘oyasini baholash va rivojlantirish;

Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi asosida o‘quvchilarni keng qamrovli tafakkurga tayyorlash;

Raqamli simulyatsiyalar – virtual tajribalar orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish.

Innovatsion texnologiyalar nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim o‘rin tutadi. Ular: talabalarda mas’uliyat, tashabbuskorlik va mehnatsevarlikni shakllantiradi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni oshiradi; axborot madaniyatini rivojlantiradi; talabaning shaxsiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan motivini kuchaytiradi.

Masalan, chizmachilik darslarida AutoCAD dasturidan foydalanish nafaqat grafik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki talabani sabr-toqatli, diqqatli, aniqlikka intiluvchi shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish bugungi ta’lim tizimida eng dolzarb vazifalardan biridir. Innovatsion texnologiyalar bu jarayonni samarali tashkil etishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular talabaning shaxsiy rivojlanishi, kasbiy kompetentligini oshirish va tarbiyaviy fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim jarayonida talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan maxsus metodik qo‘llanmalar yaratish.

Loyiha asosida o‘qitish metodini barcha fanlarda, ayniqsa, muhandislik grafikasi va chizmachilik fanlarida keng qo‘llash.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda milliy qadriyatlar va tarbiyaviy maqsadlarni uyg‘unlashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Improving the Pedagogical Conditions of Using Innovative Technologies to Improve the Quality of Education in New Uzbekistan” — pedagogik sharoitlar, sifatni oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli haqida.
2. “Methods of Using Innovative Technologies in the Education Process” — o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari.

3. “Tarbiya fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar va ularning mazmun mohiyati” — tarbiya fani bo‘yicha axborot-kommunikatsion texnologiyalar, virtual realiti, interaktiv vositalar orqali tarbiyaviy jihatlar.
4. “Innovative Educational Technologies and Intellectual Development of Youth in the New Uzbekistan” — yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda innovatsiyaning ahamiyati. “The Impact of Innovative Technologies on Student Learning and Engagement: A Review of the Literature” — ta’limda talabalarning ishtiroki va o‘rganish jarayoniga texnologiyalarning ta’siri.
5. Achilov, N.N., (2020). O‘yinli texnologiyalardan foydalanib chizmachilik darslarida o‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirish metodikasi. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 49-60.
6. Xalimov Moxir, Achilov Nurbek, Bekqulov Qudrat, Xo‘jaqulov Elbek, Ko‘kiyev Boburmirzo., (2020). Chizmachilik va chizmageometriya fanlarida burchak topishning bazi usullari. *ФИЗИКА МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ журнали, 4 (1), 47-52.*
7. Odilboyevich, O. I. (2025). CHIZMACHILIK FANINI O ‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *ИКРО журнал*, *15*(02), 587-588.

TASVIRIY SAN’ATDA RANG PSIXOLOGIYASI VA UNING INSON RUHIYATIGA TA’SIRI

[1]Qaxarova Xadichabonu Rustamjon qizi, [2]Shuhratbekova Jamila Xurshidbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universitedining San’atshunoslik fakultedi Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi 2-bosqich talabalari.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403362

Annotatsiya*. Ushbu maqolada tasviriy san’atda ranglarning psixologik ahamiyati va ularning inson ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy asosda yoritiladi. Ranglar nafaqat estetik ko‘rinish yaratadi, balki insonning ichki holatini, kayfiyatini va hissiyotlarini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir rangning o‘ziga xos ramziy ma’nosi, ruhiy ta’sir kuchi va madaniy kontekstdagi o‘rni alohida tahlil qilinadi. Maqolada issiq va sovuq ranglarning psixologik xususiyatlari, ularning shaxs ruhiy barqarorligi, ijodiy faoliyat hamda estetik did shakllanishidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ranglarning san’at asarlarida qo‘llanishi orqali inson ruhiyatida uyg‘otadigan turli xil kechinmalar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: rang, tasviriy san’at, psixologiya, ranglar nazariyasi, akvarel, ruhiyat, ijod, rang-tasvir.*

Аннотация: *В данной статье на научной основе освещается психологическое значение цветов в изобразительном искусстве и их влияние на психику человека. Цвета не только создают эстетический облик, но и играют важную роль в управлении внутренним состоянием, настроением и эмоциями человека. Каждый цвет анализируется отдельно по своему символическому значению, силе психологического воздействия и месту в культурном контексте. В статье рассматриваются психологические особенности теплых и холодных цветов, их роль в формировании психической устойчивости личности, творческой деятельности и эстетического вкуса. Также анализируются различные переживания, которые пробуждаются в психике человека через использование цветов в произведениях искусства.*

Ключевые слова: *цвет, изобразительное искусство, психология, теория цвета, акварель, настроение, творчество, живопись.*

Abstract: *This article scientifically illuminates the psychological significance of colors in visual arts and their impact on the human psyche. Colors not only create aesthetic appearance, but also play an important role in controlling a person's inner state, mood, and emotions. The specific symbolic meaning, psychological impact, and place of each color in the cultural context are analyzed separately. The article examines the psychological characteristics of warm and cool colors, their role in the formation of a person's mental stability, creative activity, and aesthetic taste. Also, through the use of colors in works of art, various experiences that arise in the human psyche are analyzed.*

Keywords: *color, visual arts, psychology, color theory, watercolor, psyche, creativity, painting.*

Tasviriy san’at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim sohalaridan biridir. U nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki inson qalbiga, tafakkuriga va ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. San’atda eng muhim ifoda vositalaridan biri bu — rangdir. Ranglarning psixologik

ta’siri qadimdan olimlar, san’atkorlar va faylasuflar tomonidan o‘rganilgan. Har bir rang inson ruhiyatiga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatib, turli kayfiyat, tuyg‘u va assotsiatsiyalar uyg‘otadi. Rang psixologiyasi tushunchasi bu ranglarning inson hissiyotlari, xatti-harakati va ruhiy holatiga ta’sirini o‘rganadigan yo‘nalishdir. XX asr boshlarida G. Itten, V. Kandinskiy kabi rassom va olimlar ranglarning estetik va psixologik ahamiyatini ilmiy asosda tadqiq etganlar.

"Ranglarning ruhiyatga ta’siri qadimdan Sharq va G‘arb olimlari tomonidan o‘rganilgan. Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida ranglarning inson salomatligiga va ruhiy holatiga ta’sirini ta’kidlagan. Keyinchalik nemis olimi G. Goethe ‘Ranglar nazariyasi’ (1810) asarida ranglarning psixologik ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilgan. Shuningdek, XX asrda shveysariyalik olim M. Luscher o‘zining mashhur ‘Luscher testi’ orqali rang tanlashning inson shaxsiyati va ruhiy holatini aniqlashdagi ahamiyatini isbotlab berdi. Zamonaviy psixologiyada esa ranglar neyrofiziologik jarayonlar bilan bog‘lab o‘rganilib, ranglarning stressni kamaytirish, ishchanlikni oshirish va ijodiy tafakkurni faollashtirishdagi roli ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanmoqda.

Rang inson ongiga ikki yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi:

1. Biologik ta’sir – yorug‘lik to‘lqinlari ko‘z va asab tizimiga ta’sir qilib, organizmda fiziologik o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

2. Psixologik ta’sir – ranglar kayfiyatni shakllantiradi, hissiyotlarni uyg‘otadi, ijodiy ilhomni kuchaytiradi yoki susaytiradi

Bunda asosan ranglar katta ahamiyat kasb etadi.

Qizil rang:Kuch, ehtiros, g‘ayrat, jasorat ramzi. Yurak urishini tezlashtiradi, qon bosimini oshiradi motivatsiya, energiya beradi.

3. Sariq rang: Quvonch, baxt, iliqlik timsoli. Diqqatni oshiradi, ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Ba’zan haddan tashqari yorqin sariq kishida charchoq yoki xavotir uyg‘otishi mumkin.

4. Yashil rang. Tabiat, barqarorlik, osoyishtalik ramzi. Stressni kamaytiradi, dam olish hissini beradi. Muvozanat va uyg‘unlikni ifodalaydi.

5. Moviy rang: Sokinlik, ishonch, sadoqat timsoli. Asab tizimini tinchlantiradi, uyquni yaxshilaydi. Haddan tashqari ko‘p bo‘lsa, sovuqlik va begonalik hissini uyg‘otadi.

6. Oq rang: Poklik, tinchlik, samimiyat ramzi. Ruhiy yangilanish va tozalik hissini beradi. Ba’zan bo‘shliq va yolg‘izlik kayfiyatini berishi mumkin.

7. Qora rang: Sirli, kuchli, jiddiylik ramzi. Kuch va salobatni bildiradi, lekin ortiqcha bo‘lsa, tushkunlik uyg‘otadi.

8. Binafsha rang: Fantaziya, ilhom, ijodkorlik bilan bog‘liq. Ruhiy jarayonlarni faollashtiradi. Ba’zan noaniqlik va tushunarsizlik kayfiyatini berishi mumkin.

Tasviriy san’atda rassom o‘z g‘oyasini va ichki dunyosini ranglar orqali ifodalaydi. Tomoshabin esa ushbu ranglardan ruhiy ta’sirlanadi. Masalan: Manzara san’atida ko‘k va yashil ranglar sokinlik beradi. Portret san’atida qizil va to‘q ranglar xarakterning kuchli tomonlarini ko‘rsatadi. Abstrakt san’atda ranglarning uyg‘unligi tomoshabinda turli hissiyotlarni uyg‘otadi. Psixologiyada ranglar terapiya sifatida qo‘llaniladi (xromoterapiya). Dizayn va reklama sohasida ranglar iste’molchi psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Tasviriy san’at ta’limida rangshunoslik asoslari orqali talabalarda estetik did shakllantiriladi. Tasviriy san’atda rang — bu faqatgina bezak emas, balki inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi kuchli psixologik quroldir. Rassom ranglarni ongli ravishda tanlash orqali tomoshabin kayfiyatini boshqaradi, unga ilhom, quvonch yoki tinchlik bag‘ishlaydi. Rang psixologiyasini chuqur o‘rganish san’atkor uchun ham, san’at ixlosmandi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’atda rang psixologiyasi

faqatgina estetik go‘zallik vositasi emas, balki inson ruhiyatiga bevosita ta’sir qiluvchi kuchli omil sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir rang ma’lum bir hissiy kayfiyatni uyg‘otadi, ruhiy holatni boshqaradi va ong osti bilan aloqaga kirishadi. Shu bois, rassomlar asar yaratishda rangni tanlashda chuqur ma’naviy va psixologik mas’uliyatni his etadilar.

Qizil, sariq, yashil, ko‘k kabi asosiy ranglar qadimdan inson ongida turli ramziy ma’nolar bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Qizil – hayotiy kuch va ehtirosni, sariq – quvonch va quyoshning barqini, yashil – tabiat va hayotning davomiyligini, ko‘k esa – osmon va ruhiy xotirjamlikni anglatgan. Bunday ramziy tushunchalar xalq ijodiyoti, milliy amaliy san’at, kiyim-kechak va me’morchilikda ham o‘z ifodasini topgan. Demak, rangning psixologik ta’siri insoniyatning madaniy merosida chuqur ildiz otgan.

XX asrda rangshunos olimlar – Itten, Kandinskiy, Luscher va boshqalar ranglarning ilmiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganganlari natijasida bu soha yanada chuqur tahlil etildi. Masalan, Luscher testi orqali insonning ruhiy holatini aniqlash mumkinligi amalda isbotlandi. Bugungi kunda esa neyropsixologiya va zamonaviy texnologiyalar yordamida ranglarning miya faoliyatiga ta’siri, stressni kamaytirish, e’tibor va xotirani yaxshilashdagi roli bo‘yicha yangi natijalar olinmoqda. Bu esa tasviriy san’atni nafaqat estetik, balki terapevtik vosita sifatida ham ko‘rishga zamin yaratmoqda.

Ranglar bilan davolash (xromoterapiya) qadimiy davrlardan mavjud bo‘lsa-da, hozirda psixologiya va tibbiyotda samarali metod sifatida qo‘llanmoqda. Moviy rang insonni tinchlantirsa, yashil rang ruhiy muvozanatni tiklaydi, qizil esa hayotiy faollikni kuchaytiradi. Tasviriy san’atda bunday psixologik ta’sir ayniqsa akvarel va rangtasvir texnikalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Akvarelda issiq va sovuq ranglar o‘tishi orqali inson qalbida turli kayfiyatlarni uyg‘otish mumkin.

Mashhur rassomlar ijodida ham rang psixologiyasi markaziy o‘rin tutadi. Van Gogh o‘z asarlarida kuchli sariq va to‘q ranglardan foydalanib, ichki kechinmalarini ifodalagan; Monet esa ko‘k-yashil uyg‘unligi orqali tabiat go‘zalligini tasvirlab, tomoshabinni osoyishtalik olamiga chorlagan. O‘zbek tasviriy san’ati namoyandalari, jumladan, O‘rol Tansiqboev milliy kolorit va yorqin ranglar orqali xalq ruhiyatini tasvirlashga erishgan. Demak, rang san’atkorning ichki dunyosi bilan tomoshabinning hissiy qabulini bog‘lovchi kuchli vosita sifatida maydonga chiqadi.

Zamonaviy davrda ranglar nafaqat san’at, balki dizayn, reklama, marketing va raqamli san’atda ham psixologik ta’sir ko‘rsatish quroliga aylangan. Brend yaratishda ranglar orqali iste’molchi ongida ma’lum assotsiatsiyalar uyg‘otiladi. Masalan, ko‘k rang ishonchlilikni, yashil ekologik tozalikka intilishni, qizil esa tezkorlik va dinamikani bildiradi. Shunday qilib, rang psixologiyasi hozirgi kunda san’atdan tashqari iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, rang inson hayotining ajralmas qismidir. U kayfiyatimiz, xulq-atvorimiz, ruhiy barqarorligimiz va ijodiy salohiyatimizni shakllantiradi. Tasviriy san’atda rang psixologiyasi o‘quvchi va tomoshabinni san’at asari bilan ruhiy muloqotga olib kiradi, uni faqat tashqi go‘zallikni emas, balki ichki mazmunni ham his qilishga undaydi. Shu bois, rang psixologiyasini chuqur o‘rganish nafaqat san’atkorlar, balki psixologlar, pedagoglar va dizaynerlar uchun ham dolzarbdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, rang psixologiyasi tasviriy san’atni inson qalbi bilan bog‘lovchi ko‘prikdir. Bu ko‘prik orqali inson o‘zini anglaydi, ichki dunyosini ifodalaydi va ruhiy yengillikka erishadi. Demak, rang – san’atning tili, inson ruhiyatining esa ovozidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibn Sino. Tib qonunlari. Toshkent: Fan nashriyoti, turli nashrlar.
2. Gyote I.V. Ranglar nazariyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
3. Itten I. Rang san’ati. Toshkent: San’at, 2002.
4. Kandinskiy V. San’atdagi ruhiylik haqida. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1998.
5. Lüscher M. Rang testi. Toshkent: Psixologiya markazi, 2005.
6. Karimov Sh. Tasviriy san’atda rang va kompozitsiya. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

TASVIRIY SAN’ATNING FANLARARO AHAMIYATI

[1]Rajabova Laylo O‘tkir qizi, [2]Umarova Ozoda Bozor qizi, [3]Shoimqulova Marjona Hamidulla qizi

[1]San’atshunoslik fakulteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi

[2,3]Dizayn:Libos va gazlamalar yo‘nalishi 1 – bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17403371

Annotasiya. *Mazkur maqolada tasviriy san’atning turli fanlar bilan o‘zaro aloqasi va bu aloqaning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan. Xususan, san’atning pedagogika, psixologiya, tarix, madaniyatshunoslik, arxitektura, adabiyot, texnologiya kabi fanlar bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Tasviriy san’at nafaqat estetik tarbiyaning vositasi sifatida, balki shaxs kamolotida, ijodiy tafakkurni shakllantirishda va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Ishda zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo yondashuvning dolzarbligi va tasviriy san’at orqali bu yondashuvni samarali amalga oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari, tasviriy san’atning fanlararo platformada innovatsion yondashuvlarni shakllantirishdagi o‘rni va imkoniyatlarini ochib beradi.*

Kalit so‘z: *tasviriy san’at , tarixiy, ibtidoiy jamoa, ilk sinfiy jamiyat, aqliy mehnat, ong, tafakkur, tasavvur, erkinlik, yangi g‘oyalar, zamonaviy ta’limda .*

Аннотация. *В данной статье рассматривается взаимосвязь изобразительного искусства с различными дисциплинами и её научное и практическое значение. В частности, анализируется интеграция искусства с такими дисциплинами, как педагогика, психология, история, культурология, архитектура, литература, технология. Изобразительное искусство рассматривается не только как средство эстетического воспитания, но и как важный фактор развития личности, формирования творческого мышления и повышения эффективности образовательного процесса. В работе показана актуальность междисциплинарного подхода в современной системе образования и возможности его эффективной реализации посредством изобразительного искусства. Результаты исследования раскрывают роль и возможности изобразительного искусства в формировании инновационных подходов на междисциплинарной платформе.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, исторический, первобытная община, раннеклассовое общество, интеллектуальный труд, сознание, мышление, воображение, свобода, новые идеи, в современном образовании.*

Abstract. *This article discusses the relationship of fine arts with various disciplines and the scientific and practical significance of this relationship. In particular, the integration of art with such disciplines as pedagogy, psychology, history, cultural studies, architecture, literature, technology is analyzed. Fine arts are considered not only as a means of aesthetic education, but also as an important factor in personal development, the formation of creative thinking, and increasing the effectiveness of the educational process. The work shows the relevance of an interdisciplinary approach in the modern education system and the possibilities of effectively implementing this approach through fine arts. The results of the study reveal the role and possibilities of fine arts in the formation of innovative approaches on an interdisciplinary platform.*

Keywords: *fine arts, historical, primitive community, early class society, intellectual labor, consciousness, thinking, imagination, freedom, new ideas, in modern education.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida fanlararo yondashuvning dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish va turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash imkoniyatlari yaratiladi. Xususan, tasviriy san’at fani boshqa ko‘plab fanlar bilan uzviy aloqador bo‘lib, ularning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada tasviriy san’atning pedagogika, psixologiya, tarix, adabiyot, texnologiya va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi.

Tasviriy san’at bolalarda estetik didni shakllantirishda, tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, bu fan o‘quvchilarning individualligini yoritib beruvchi vosita hisoblanadi. Rang, shakl, kompozitsiya kabi tushunchalarni o‘rganish orqali o‘quvchilar tanqidiy fikrlash, mushohada yuritish va o‘z g‘oyasini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Psixologiya fanida tasviriy san’atdan shaxsning ruhiy holatini aniqlash, emotsional rivojlanishini kuzatish vositasi sifatida keng foydalaniladi. Art-terapiya usullari orqali insonlar o‘z ichki kechinmalarini ifoda etishadi. Tasviriy faoliyat orqali bolalarning psixologik holatini baholash ham mumkin.

Tarix fanida tasviriy san’at muhim manba sifatida xizmat qiladi. Rassomchilik asarlari orqali o‘tmishdagi davrlarning turmush tarzi, urf-odatlari, siyosiy voqealari va tarixiy shaxslari aks ettirilgan. Masalan, qadimiy devoriy rasmlar, miniatyuralar yoki tarixiy portretlar orqali muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Adabiyot va san’at bir-birini boyitadi. Tasviriy san’at asarlari ko‘pincha adabiy obrazlarga asoslanadi, aksincha, ko‘plab adabiy asarlar rassomlarga ilhom manbai bo‘ladi. Adabiyot darslarida tasviriy san’atdan foydalanish obrazlarni vizual tarzda tasavvur qilishni osonlashtiradi.

Zamonaviy texnologiyalar tasviriy san’atning rivojlanishiga katta turtki bermoqda. Raqamli grafika, 3D dizayn, animatsiya va boshqa ko‘rinishlar orqali san’at yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Shuningdek, tasviriy san’at orqali texnikaviy fanlarga oid loyihalarni vizual ko‘rinishda ifodalash mumkin, bu esa fanlararo integratsiyani yanada kuchaytiradi.

Insoniyatning asrlar davomida shakllangan badiiy ijodiy namunalarini yaratilishiga asos bu tasviriy san’at hisoblanadi. Tasviriy san’at ong va tafakkurning eng ko‘hna mahsuli bo‘lib insoniyat uzoq yillik tarixiy voqelik va tabiatga nisbatan o‘z munosabatini sodda shakllarda bildirishga intilishgan . Shu alfozda tasviriy san’atning dastlabki ilk sodda namunalari yuzaga kela boshlagan . Ilk tasviriy san’atdan foydalanish ibtidoiy jamoa davridan boshlangan, keyin yer yuzasida ilk sinfiy jamiyatning shakllanishi va undan keyingi davrning ijtimoiy - madaniy va tarixiy - tadrijiy jarayonlari pirovardida takomillashadi. Eng uzoq davom etgan tarixiy bosqich ibtidoiy jamoa davri bo‘lib, odamlarning ilk hayoti, dastlabki tushunchalari shakllana boshlagan va bu jarayonga o‘z munosabatlarini bildira boshlagan davrdir . Mazkur bosqich yer yuzining qariyb , barcha joylarida bosib o‘tilgan . Bu davrda odamlarning dastlabki tasavvuri , badiiy - estetik his tuyg‘ulari shakllana boshlagan . Ular o‘z hayot tarzlarini ifodalash uchun devorga sur ' atlar chizishgan va dekorativ uslubdagi shartli xarakterli haykaltaroshlik namunalarini yasashgan. Sinfiy jamiyat shakllanishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan alohida bo‘lib ajralib chiqa boshladi . Bu esa fan va san’at rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Fanlarning rivojlanishi va tushunarli bo‘lishi uchun ham tasviriy san’at kerak. Masalan tasviriy san’at tarix fanida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Miniatyuralar , freskalar, portretlar orqali o‘tgan davr voqealari va shaxslari bizgacha

yetib keldi. Adabiyotdagi qahramon va sahnalarni illyustratsiya qilish ham tasviriy san’at yordamisiz amalga oshmaydi. Madaniyatshunoslikda esa xalq urf-odatlari, kiyim-kechaklari , milliy bezaklari va me’moriy yodgorliklari tasviriy san’at asarlarida aks ettiriladi. Faqatgina gumanitar fanlar uchun emas ,balki tabiiy fanlar, texnik va amaliy fanlar, pedagogika va psixologiya bilan ham bog‘liq. Tabiiy fanlar qatoridan biologiyani misol qilib oladigan bo‘lsak, unda o‘simlik va hayvonot dunyosining ilmiy rasmlari va illyustratsiyalari tayyorlanadi. Geografiyada esa landshaft va tabiiy zonalarni chizish, xaritalarni bezashda tasviriy san’at uslublari qo‘llanadi. Shuningdek, pedagogika bo‘yicha ham asosiy ro’l o‘ynaydigan fan tasviriy san’at chunki pedagogika sohasida o‘quvchilarning estetik tarbiyasini rivojlantirish, ijodkorlikni kuchaytirish uchun qo‘llaniladi.

Tasviriy san’at zamonaviy ta’limda juda zarur fan hisoblanadi. U orqali turli xil fanlarni rasmlar va grafik tasvirlar yordamida chuqurroq o‘rganish mumkin. San’at bilan shug‘ullanish insonning ichki dunyosini ochib berib, hayotga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshiradi hamda estetik did, tafakkur va ijodkorlikni rivojlantiradi. Xullas san’at sohasida ijod qiladiganlar qancha ko‘paysa, shuncha erkinlik va yangi g‘oyalarni targ‘ib qilish ko‘nikmasi ham kuchayadi . Jamiyatda ijodkorlik muhiti yanada rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirsoatova, L. (2023, December). PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERI HAMKORLIGI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
2. Мирсоатова, Л. Ў. (2023). Интеграция Средств Компьютерной Графики В Образовательные Стандарты И Курсы Развития Навыков Самостоятельного Обучения. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, *1*(8), 72-76.
3. Султанов ХЭ, Бойназарова НХ, Бердиев ДА, Мирсоатова ЛЎ, Маматкаримова МТ. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишнинг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти. Yangi o ‘zbekistonda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari/may. 2022 May 20:613-20.
4. Mirsoatova, L. (2022). USE OF INNOVATIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’CREATIVE ABILITIES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *3*(01), 45-49.
5. Султанов, Х. Э., & Мирсоатова, Л. У. (2021). МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, *2*(5), 1240-1247.
6. 6.Baymetov, B. B., & Misoatova, L. (2021). DEVELOPMENT OF CREATIVITY AND IMAGINATION OF SCHOOLCHILDREN IN FINE ARTS CLASSES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, *2*(05), 55-61.
7. Baymetov, L. M. B. B. (2020). Theory and methods of depicting the human body in higher pedagogical education. 2020/11" Science and Education. *Scientific Journal*, *1*(8), 467-475.
8. Baymetov, B., & Sharipjonov, M. (2021). OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA INSON QIYOFASINI AMALIY TASVIRLASH JARAYONIDA IJODIY KOMPYETYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*(3), 1066-1070.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN’AT VA KOMPYUTER GRAFIKASI O‘QUV DASTURLARI TAHLILI

Rajabova Laylo O‘tkir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san’at va dizayn”kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403381

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at va kompyuter grafikasi bo‘yicha o‘quv dasturlarining tahlili o‘rganiladi. Maqolada o‘quv dasturlarining mazmuni, tuzilishi, amaliy va nazariy yo‘nalishlari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi. Mualliflar oliy ta’limdagi o‘quv dasturlarining kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatib, amaliyotga yo‘naltirilgan yangi ta’lim usullarini joriy etish zarurligini ta’kidlaydilar. Natijada, maqola tasviriy san’at va kompyuter grafikasi sohalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni beradi.*

Kalit so‘zlar: *Tasviriy san’at,Kompyuter grafikasi,O‘quv dasturi,Ta’lim tahlili,Innovatsion texnologiyalar,Amaliy mashg‘ulotlar,Raqamli dizayn,Kreativlik,Kasbiy tayyorgarlik.*

Аннотация. *В статье анализируются учебные программы по изобразительному искусству и компьютерной графике в высших учебных заведениях. Анализируются содержание, структура, практическая и теоретическая направленность учебных программ, а также их соответствие современным технологиям и инновациям. Авторы указывают на сильные и слабые стороны учебных программ в высших учебных заведениях и подчеркивают необходимость внедрения новых, практико-ориентированных методов обучения. В результате в статье даются рекомендации, направленные на совершенствование процесса подготовки квалифицированных специалистов в области изобразительного искусства и компьютерной графики.*

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, Компьютерная графика, Учебная программа, Анализ педагогической деятельности, Инновационные технологии, Практическая подготовка, Цифровой дизайн, Креативность, Профессиональная подготовка.*

Abstract. *This article studies the analysis of curricula in fine arts and computer graphics in higher education institutions. The article analyzes the content, structure, practical and theoretical directions of curricula, as well as their compatibility with modern technologies and innovations. The authors indicate the strengths and weaknesses of curricula in higher education and emphasize the need to introduce new, practice-oriented educational methods. As a result, the article provides recommendations aimed at improving the process of training qualified specialists in the fields of fine arts and computer graphics.*

Keywords: *Fine arts, Computer graphics, Curriculum, Educational analysis, Innovative technologies, Practical training, Digital design, Creativity, Professional training.*

Bugungi kunda ta’lim jarayonida tasviriy san’at va kompyuter grafikasi sohalarining roli tobora oshib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar va raqamli asrning rivojlanishi ushbu

yo‘nalishlarni yanada dolzarb qilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ushbu sohalar bo‘yicha tayyorlovning sifatli va zamonaviy bo‘lishi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va bozor talablariga javob berishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at va kompyuter grafikasi o‘quv dasturlari talabalarga nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Bu dasturlar o‘quv jarayonini tizimli va samarali tashkil etishga yordam beradi. O‘quv dasturlari mazmuni, tuzilishi, metodikasi, sohadagi innovatsiyalarni qamrab olishi talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Tasviriy san’at bo‘yicha o‘quv dasturlari asosan san’atshunoslik, rassomchilik texnikasi, kompozitsiya, rang nazariyasi va estetikani o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayonida an’anaviy va zamonaviy san’at shakllarining o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, talabalar ijodiy fikrlash va o‘zaro tanqidiy baholash ko‘nikmalarini egallaydilar. Biroq, ayrim oliy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlari yetarlicha interfaol va amaliy yo‘naltirilmaganligi kuzatilmoqda, bu esa talabalar tayyorligini zaiflashtirishi mumkin.

Kompyuter grafikasi o‘quv dasturlari raqamli dizayn, 3D modellash, animatsiya, vizual effektlar, interaktiv media va boshqa ko‘plab sohalarni qamrab oladi. Ushbu dasturlar zamonaviy dasturiy ta’minot va texnologiyalar bilan tanishtiradi, bu esa talabalarni bozor talablariga mos mutaxassislar qilib tayyorlashga yordam beradi. Kompyuter grafikasi sohasidagi o‘quv dasturlari amaliy mashg‘ulotlarga katta e’tibor qaratishi lozim, chunki bu sohada tajriba va texnologik bilimlar asosiy omil hisoblanadi.

- Muammolar: Ba’zi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlari eskirgan bo‘lishi, zamonaviy texnologiyalar yetarlicha o‘rganilmasligi va amaliyotga kam e’tibor berilishi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning malaka darajasi va ta’lim usullari yangilanishi zarur.
- Takliflar: O‘quv dasturlarini doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq o‘rin ajratish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va joriy etish. Shuningdek, talabalarning ijodiy va texnik salohiyatini rivojlantirish uchun loyiha asosida ishlash shakllarini kuchaytirish tavsiya etiladi.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, tasviriy san’at va kompyuter grafikasi sohalari oliy ta’lim tizimida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda san’at yo‘nalishidagi ta’lim nafaqat an’anaviy usullar, balki zamonaviy raqamli vositalarni ham qamrab olishi zarur. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at va kompyuter grafikasi bo‘yicha o‘quv dasturlarini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Tasviriy san’at — ijodiy fikrlash, estetik tarbiya va madaniy merosni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Kompyuter grafikasi esa bu sohani yangi bosqichga olib chiquvchi vosita bo‘lib, dizaynerlar, illustratorlar, animatorlar va boshqa ijodkorlar uchun asosiy ish quroli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ko‘pgina oliy ta’lim muassasalarida bu ikki yo‘nalish integratsiyalashgan holda o‘qitilayotgan bo‘lsa-da, o‘quv dasturlarining mazmuni, zamonaviy talablarga javob berishi va bozor ehtiyojlariga mosligi muhim masaladir.

O‘quv dasturlari tahlili 1. Tasviriy san’at fanlari:

Odatda tasviriy san’at bo‘yicha o‘quv dasturlarida quyidagi fanlar o‘rgatiladi:

* Rangtasvir (jivopis)
* Kompozitsiya
* Rasm (chizma)
* San’at tarixi
* Skulptura asoslari

Bu fanlar talabalarda badiiy tafakkur, kompozitsion ko‘nikma va estetik didni shakllantiradi. Ammo, ko‘p hollarda raqamli vositalardan foydalanish yetarli darajada emas.

2. Kompyuter grafikasi fanlari:

Kompyuter grafikasi bo‘yicha fanlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

* Kompyuterda dizayn (Photoshop, Illustrator)
* 3D modellash (3ds Max, Blender)
* Animatsiya asoslari (After Effects)
* Veb-dizayn
* Grafik interfeyslar (UI/UX)

Ayrim o‘quv dasturlar zamonaviy dasturiy ta’minotlarni qamrab olgan bo‘lsa-da, ularning amaliyotga yo‘naltirilganligi, individual loyihalar va bozor bilan integratsiya darajasi hali ham pastligi kuzatiladi.

* O‘quv dasturlari ko‘p hollarda zamonaviy IT va dizayn bozori talablariga mos emas.
* Dasturiy ta’minotlar bilan ishlash amaliyoti yetarlicha qamrab olinmagan.
* Oqituvchilarning ayrimlari yangi texnologiyalardan to‘liq xabardor emas.
* Talabalarning ijodiy loyihalarini tijorat yo‘nalishida rivojlantirish imkoniyatlari cheklangan.

1. O‘quv dasturlarini yangilash – tasviriy san’at va kompyuter grafikasini integratsiya qilgan holda, zamonaviy talablarga mos yangi o‘quv rejalari ishlab chiqilishi zarur.

2. Ilg‘or dasturiy ta’minotlarni joriy etish – Adobe Creative Cloud, Blender, Figma, Unity kabi dasturlardan samarali foydalanish o‘rgatilishi lozim.

3. Amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e’tibor qaratish – talabalarni individual yoki guruh loyihalariga jalb etish, ijodiy portfolio yaratishlariga yordam berish.

4. Mutaxassislarni qayta tayyorlash – o‘qituvchilarni yangi texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslariga jalb etish.

5. Sanoat hamkorligini rivojlantirish – dizayn studiyalari, IT kompaniyalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali talabalarni real loyihalarga jalb qilish.

Xulosa

Oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at va kompyuter grafikasi sohalari birgalikda rivojlanishi, talabalarda nafaqat ijodiy, balki texnik ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. O‘quv dasturlarini tahlil qilish orqali ularni yanada samarali va zamonaviy qilish imkoniyati mavjud. Bu esa kelajakda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Mirsoatova, L. (2023, December). PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERI HAMKORLIGI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
2. Мирсоатова, Л. Ў. (2023). Интеграция Средств Компьютерной Графики В Образовательные Стандарты И Курсы Развития Навыков Самостоятельного Обучения. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, *1*(8), 72-76.
3. Султанов ХЭ, Бойназарова НХ, Бердиев ДА, Мирсоатова ЛЎ, Маматкаримова МТ. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишнинг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти. Yangi o ‘zbekistonda pedagogik ta’lim innovatsion

klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari/may. 2022 May 20:613-20.

4. Mirsoatova, L. (2022). USE OF INNOVATIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’CREATIVE ABILITIES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *3*(01), 45-49.
5. Султанов, Х. Э., & Мирсоатова, Л. У. (2021). МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, *2*(5), 1240-1247.
6. 6.Baymetov, B. B., & Misoatova, L. (2021). DEVELOPMENT OF CREATIVITY AND IMAGINATION OF SCHOOLCHILDREN IN FINE ARTS CLASSES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, *2*(05), 55-61.
7. Baymetov, L. M. B. B. (2020). Theory and methods of depicting the human body in higher pedagogical education. 2020/11" Science and Education. *Scientific Journal*, *1*(8), 467-475.
8. Baymetov, B., & Sharipjonov, M. (2021). OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA INSON QIYOFASINI AMALIY TASVIRLASH JARAYONIDA IJODIY KOMPYETYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*(3), 1066-1070.

TASVIRIY SAN’ATDA SUNIY INTELEKTNING O‘RNI

[1]Rajabova Laylo O‘tkir qizi, [2]Kenjayeva Marjona Sardorbek qizi, [3]Qalandarova Marjona Inomjon qizi

[1]San’atshunoslik fakulteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi

[2,3]Dizayn:Libos va gazlamalar yo‘nalishi 1 – bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17403395

Annotatsiya. *Ushbu maqola sun’iy intellektning tasviriy san’atdagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida san’at asarlarini yaratish, ijodiy jarayonga ta’siri hamda mualliflik va estetik masalalar tahlil etiladi. Sun’iy intellekt san’atda yangi yo‘nalishlar ochayotganiga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar:*sun’iy intellekt, tasviriy san’at, raqamli san’at, ijodiy jarayon, mualliflik huquqi, estetik tahlil*

Аннотация. *В статье рассматриваются роль и значение искусственного интеллекта в изобразительном искусстве. Анализируется создание произведений искусства с использованием цифровых технологий, их влияние на творческий процесс, а также вопросы авторства и эстетики. Особое внимание уделяется тому, что искусственный интеллект открывает новые направления в искусстве.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, изобразительное искусство, цифровое искусство, творческий процесс, авторское право, эстетический анализ*

Abstract. *This article examines the role and significance of artificial intelligence in the visual arts. The creation of works of art using digital technologies, their impact on the creative process, and issues of authorship and aesthetics are analyzed. Attention is paid to the fact that artificial intelligence is opening up new directions in art.*

Keywords: *artificial intelligence, visual arts, digital art, creative process, copyright, aesthetic analysis*

Bugungi kunda san’at va dizayn sohasi jadal rivojlanmoqda. Raqamli texnalogiyalar xususan , suniy intellekt bu jarayonda muhim o‘rin egallamoqda . An’anaviy tasviriy san’at asarlari inson ijodkorligi va mahorati asosida yaratilgan bo‘lsa zamonaviy davirda suniy intelekt sanatkor va dizaynerlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda . Avvalo suniy intelekt yordamida san’at asrlarini yaratish ularni tahlil qilish va yangi yangi g‘oyalar ishlab chiqish osonlashmoqda. Masalan neyron tarmoqlar yordamida mashhur rassomlar uslublarining avtomati ko‘rganib yangi ijodiy asarlar yaratish mumkin . Bu esa rassomlar va dizaynerlarga tajriba qilish o‘z g‘oyalarini keng aytish imkoniyatini beradi.

Mazkur maqola sun’iy intellekt texnologiyalarining tasviriy san’at sohasiga kirib kelishi, uning ijodiy jarayonlarga ta’siri va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bugungi kunda raqamli san’at, generativ algoritmlar va neyrotarmoqlar orqali Sun’iy intellekt rassomlarga nafaqat yangi g‘oyalarni yaratishda, balki ularni vizual ifodalashda ham yordam bermoqda. Tadqiqotda sun’iy intellekt yordamida yaratilgan san’at asarlarining estetik qiymati, mualliflik huquqi, etik muammolar, shuningdek, an’anaviy va raqamli san’at o‘rtasidagi chegaralar yoritiladi. Ishda, shuningdek, dunyo va O‘zbekiston tajribasida Sun’iy intellekt asosida yaratilgan san’at loyihalari tahlil qilinib, kelajakda bu texnologiyaning san’atda tutadigan o‘rni haqida xulosalar berilgan.

Dizayn sohasida esa suniy intelekt grafika dizayn, brending, interyer va modaga oid loyihalarda samarali vosita bo‘lib xizmat qilomoqda. Maxsus dasturlar orqali logotip yaratish , ranglar uyg‘unligni tanlash ,3D modellar ishlab chiqish ancha tez va sifatli bajarilmoqda. Shuningdek suniy intelekt san’at asarlarini saqlash va restavaratsiya qilish jarayonlarida ham qo‘llanmoqda.Masalan qadimiy rasimlarning yo‘qolib ketgan qisimlarini tiklash, eskirgan rasmlarni asl holatiga keltirishda suniy intelekt texnalogiyasi katta yordam beradi. Suniy intelekt odatiy dizayn yechimlaridan tashqariga chiqib kutilmagan rang uyg‘unliklari, shakl kompazitsiyalari yoki uslublarni taklif qiladi. Bu dizaynerga yangi ilhom beradi va ijodiy doirasini kengaytiradi. Dizayn faqat chiroyli ko‘ri- nish emas balki qulaylik va tasirchanlikdir. Suniy intelekt yordamida ranglar psixalogiyasi foydalanuvchi reaksiyasi va vizual samaradorlik avtomatik tahlil qilindi. Bu esa dizayn sifatini oshiradi. Talabalar grafik dastularni o‘rganishda suniy intelekt yordamchi vosita sifatida ishlatilmoqda. Masalan oddiy chizma berilsa suniy intelekt uni profesional ko‘rishda yuklab beradi. Bu orqali talaba xatolarini tezroq anglab o‘z mahoratini oshiradi.

Fikrlarni umumlashtirsak suniy intelekt ong yaratiqlari san’at asarlari bilan bir yo‘nalishda harakat qiladi, shu bilan birga ular badiiy ijod mahsuli emas takroriy ishlamaydi.[Ong yaratiqlari] bu inson tafakuri xayoli tushunchalari ichki tasavvurlari orqali paydo bo‘ladigan ma’noviy mahsulotlardir. Masalan orzular,g‘oyalar, tushunchalar, nazariy fikrlardir.

Xulosa qilib aytganda, Ong yaratiqlari san’atga yaqin, ammo san’at emas; ular ijod mahsuli emas, balki ongda tug‘ilib o‘tib ketadigan, qayta ishlab bo‘lmaydigan hodisalardir. Xulosa sifatida shuni ayta olamanki, rassomchilik va dizayn - insoniyat madaniyatining ajralmas qismi.U nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki jamiyat taraqiyotini ,odamlarning fikirlash tarzini ham shakillantiradi. Bugunki kunda san’at texnalogiya bilan uyg‘unlashib ,yangi imkoniyatlar ochmoqda. Har bir yosh ijodkor o‘z asarlari orqali jamiyatga tasir ko‘rsatishi go‘zallik va ma’no ulashishi mumkin . Shu bois rassomchilik va dizayn sohasini o‘rganish , unga mehr qo‘yish - bu kelajakni chiroyli qilishga qo‘yilgan ulkan hissa demakdir. Zamonaviy rassomchilik va dizayn sohasida O‘zbekiston ijodkorlari uchun imkoniyatlar kengaymoqda.Milliy meros, matolar, hunarmadchillik texnikalari, ramzlar bular dizaynerlarning ishida nafaqat modaning dekoratif elementi balki ma’no , identitet ,tarixiy ildiz bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirsoatova, L. (2023, December). PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERI HAMKORLIGI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
2. Мирсоатова, Л. Ў. (2023). Интеграция Средств Компьютерной Графики В Образовательные Стандарты И Курсы Развития Навыков Самостоятельного Обучения. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, *1*(8), 72-76.
3. Султанов ХЭ, Бойназарова НХ, Бердиев ДА, Мирсоатова ЛЎ, Маматкаримова МТ. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишнинг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти. Yangi o ‘zbekistonda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari/may. 2022 May 20:613-20.

4. Mirsoatova, L. (2022). USE OF INNOVATIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’CREATIVE ABILITIES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *3*(01), 45-49.
5. Султанов, Х. Э., & Мирсоатова, Л. У. (2021). МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, *2*(5), 1240-1247.
6. 6.Baymetov, B. B., & Misoatova, L. (2021). DEVELOPMENT OF CREATIVITY AND IMAGINATION OF SCHOOLCHILDREN IN FINE ARTS CLASSES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, *2*(05), 55-61.
7. Baymetov, L. M. B. B. (2020). Theory and methods of depicting the human body in higher pedagogical education. 2020/11" Science and Education. *Scientific Journal*, *1*(8), 467-475.
8. Baymetov, B., & Sharipjonov, M. (2021). OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA INSON QIYOFASINI AMALIY TASVIRLASH JARAYONIDA IJODIY KOMPYETYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*(3), 1066-1070.

OLIY BADIIY PEDAGOGIK TA’LIM MUASSASASIDA BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI MAKTAB O‘QUVCHILARIDA ILLYUSTRATIV RASM ISHLASHGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHNING METODLARI

Sobirov Sarvar Tursunmurotovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403415

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida illyustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash masalasi nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda pedagog kadrlarni tayyorlash dasturlari, amaliy mashg‘ulotlar, integratsion yondashuv va innovatsion metodlar hamda ularning samaradorligi o‘rganiladi. So‘nggi ta’lim standartlari va Bo‘lgariya jarayoni doirasida mavjud vaziyat tahlil qilinib, malaka va talablar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, illyustrativ rasm, o‘qituvchi tayyorlash, kasbiy kompetensiya, pedagogik texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы подготовки будущих учителей изобразительного искусства к формированию компетенций в области иллюстративного рисования у школьников с позиций педагогической теории и практики. Анализируются учебные программы подготовки учителей, практические занятия, интеграционные подходы, инновационные методы и их эффективность. Текущая ситуация рассматривается в соответствии с современными требованиями образования, разрабатываются предложения и рекомендации.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, иллюстративное рисование, подготовка учителей, компетенции, педагогические технологии.*

Abstract. *This article examines the issue of preparing future fine arts teachers for forming illustrative drawing competencies in schoolchildren from the perspectives of pedagogical theory and practice. Teacher training curricula, practical classes, integrated approaches, and innovative methods and their effectiveness are analyzed. The current situation is reviewed in line with modern educational requirements, and proposals and recommendations are developed.*

Keywords: *fine arts education, illustrative drawing, teacher training, competencies, pedagogical methods.*

XXI asr ta’limida kompetensiya yondashuvi muhim ahamiyat kasb etib, o‘quv dasturlari yangi pedagogik texnologiyalar asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Xususan, badiiy ta’lim sohasida ham talabalar va maktab o‘quvchilarining ijodkorlik va amaliy malakalarini o‘z ichiga olgan kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lmoqda. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining tayyorgarligi nafaqat san’atshunoslik bilimlarini o‘zlashtirish, balki pedagogik ko‘nikma va metodikani mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Xalqaro tajribada

ham integratsion yondashuv va hamkorlik asosida o‘qituvchilarni tayyorlash ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilgan, ya’ni nafaqat umumiy bilim, balki kasbiy kompetensiyalarni ham birlashtirish muhimdir. Shu bois, ta’lim mazmunini san’at asosida tizimlashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash talab etiladi[53]. Mazkur maqolada illyustrativ rasm tushunchasi va pedagogik ahamiyati, shuningdek, yuqori ta’lim muassasalarida bo‘lajak san’at o‘qituvchilarini tayyorlashdagi metod va yondashuvlar tahlil qilinadi.

Illyustrativ rasm – bu asosan badiiy matn (ertak, hikoya, she’r va h.k.) mazmunini tasviriy ifodalashga qaratilgan chizmadir. Bunday rasm orqali o‘quvchi yoki o‘qitiluvchi matnning asosiy ideyasini ko‘zga ko‘ringan holatda tushuntiradi. Illyustrativ rasm bolalarda obrazli tafakkurni rivojlantirish, fantasiyasini kengaytirish va ijodiy tasavvurlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega[54]. U, shuningdek, kompozitsiya bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki har bir rasm hikoya yoki matnning dramatik momentini o‘zida aks ettirishi zarur.

Illyustrativ rasm darslarida o‘qituvchi avvalo bolalarga asar mazmunini tushunishga yordam berib, uning asosiy syujetini ajratib ko‘rsatadi. Masalan, V.N.Kojuxov ta’limotida bunday darslar literaturani o‘qib chiqqan bolalarda muayyan dramatik yoki ahamiyatli lahzani aniqlash va uni tasvirga etkazish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi[55]. Dars davomida o‘qituvchi murabbiylik tavsiyalari bilan talabalarni kompozitsiya tuzishga, qahramonlar pozalarini chizishga, sahna tafsilotlarini joylashtirishga yo‘naltiradi. Mazkur bosqichlarda yosh rassomlarning ijodiy tasvirlarni yuzaga chiqarishiga e’tibor beriladi: qahramonlarni obrazli hamda xos xarakterda ifodalash, orqa fon va detal aloqadorligini saqlab chizish lozim. Eng muhimi, bu jarayonda ularga fantaziyasini erkin o‘stirish imkoniyati beriladi – masalan, ertak qahramonlarini inson qiyofasida chizishga ruxsat qilish orqali bolalarning ijodiy fikrlashlarini rag‘batlantirish usuli qo‘llanadi[56].

Illyustrativ rasm kompetensiyasi deganda, maktab o‘quvchisida so‘z va tasvirni uyg‘unlikda ishlatish, kompozitsiyaviy bo‘lajak tasavvurlarni yaratish, rang va shakl vositalaridan maqsadli foydalanish kabi ko‘nikmalar tushuniladi. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda turli pedagogik usullar qo‘llaniladi:

- **Muammoli va boshqariluvchi mashg‘ulotlar:** O‘qituvchi darsda muayyan maqsadli savol yoki muammoni qo‘yib, bolalarni muhokama va ijod orqali uni hal qilishga undaydi. Masalan, “nasibda eng asosiy sahnani qanday chizamiz?” kabi savollar bolalarda tahliliy fikrlashni rag‘batlantiradi. Shu tarzda savolga asoslanib, talabalar o‘z kompozitsiya yechimini topishga harakat qiladi.
- **Integratsion yondashuv:** Illyustrativ rasm darslari ko‘pincha adabiyot, tarix yoki milliy madaniyat darslari bilan birlashtiriladi. Masalan, ertaklarni o‘rganib chiqish paytida san’at darsida shu ertakning sahnalarini chizish muhimroq bo‘ladi. Bu o‘quvchi fikrida xabar va ko‘rgazmaga doir tasavvur uyg‘unligini mustahkamlaydi.
- **Diqqatni kuchaytiruvchi metodlar:** Bunga rejali ko‘rgazma qo‘yish, me’yoriy namuna rasm ko‘rsatish, yoki kompozitsiya sxemasini taqdim etish kiradi. Masalan, o‘qituvchi

[53] https://interscience.uz/index.php/home/article/download/3647/3313/8616
[54] Методики обучения школьников иллюстрированию литературных произведений в отечественной педагогике https://studfile.net/preview/4200793/page:5/
[55] Рисование в школе - В. Н. Кожухов | Уроки иллюстративного рисования. https://hudozhnikam.ru/risovanie_v_shkole/12.html
[56] https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/04/Tasviriy-sanat-va-uni-oqitish-metodikasi.2006.pdf

doskada yoki vizual materiallarda namunaviy kompozitsiyani ko‘rsatib, uning bosqichlarini tahlil qiladi. Bolalar o‘z ishlarida mustaqil ijodkorlik qilish uchun ochiq imkoniyat beriladi, biroq ular kompozitsiya, proportsiya va rang uyg‘unligi tamoyillariga rioya etish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq oladi.

- **Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish:** Illyustrativ rasm murakkab qahramon, hayvon yoki ob’ektlarni o‘z ichiga olgan holda yaratiladi. Shuning uchun darslarda haqiqiy hayotni aks ettiruvchi rasmlar, suratlar, tabiatdan olib kelingan narsalar yoki interaktiv fotomateriallar namoyish etiladi. Bu usul bolalarga to‘g‘ri ko‘rinish va proporsiyalarni tushunishga yordam beradi[57].
- **Qiziqarli vazifalarni berish:** Illyustrativ mavzular yosh bolalarga xos bo‘lishi va ularni qiziqtirishi zarur. Masalan, erta bosqich maktablarida hayvonlar yoki oila hayotidan hikoyalar tanlab, ularning asosida rasm chizish topshirig‘i qo‘yiladi. O‘quvchilarning shaxsiy tajribasi va qiziqishlariga mos masalalar tanlanishi dars samaradorligini oshiradi.
- **Guruhda ijodiy ishlash:** O‘quvchilarga mavzuga doir qisqa matn bo‘lagini yoki dialogni berib, buni kompozitsiya asosida guruhlarda rasmiylashtirish topshiriladi. Bu muloqotda ishlash, fikr almashish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yuqoridagi metodlarni amalga oshirishda o‘qituvchi pedagogik nazariya, badiiy tasavvur va didaktik tamoyillarni uyg‘un tarzda qo‘llashi lozim. Darsdan tashqari san’at to‘garaklari va ijodiy mashg‘ulotlar ham bolalarda illyustrativ ko‘nikmalarni chuqurlashtiradi.

Oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun bir qator metod va texnologiyalar qo‘llaniladi. Avvalo, dastur mazmuniga san’atshunoslik va texnika asoslari chuqur kiritilishi kerak. Masalan, Bobekmatov va Tursunovga ko‘ra, tasviriy san’at o‘qituvchisida plastika anatomiyasi va perspektiva qonunlarini mukammal egallash pedagogik faoliyatining kafolati hisoblanadi. Ta’lim-mashg‘ulotlar rejasida quyidagi asosiy komponentlar e’tiborda bo‘lishi lozim:

- **Nazariy bilimlarni berish:** Universitetlarda “Rangtasvir”, “Grafika”, “San’at tarixi” singari fanlar bo‘yicha chuqur nazariy asoslar o‘tish talablari mustahkamlanadi. Belgilangan o‘quv dasturlariga muvofiq, kelajak o‘qituvchilarga badiiy janrlar, uslublar, kompozitsiya va rang to‘g‘risidagi tushunchalarni chuqurlashtirish zarur[58]. Bu esa ularning ijodiy potentsiali va metodik malakasini oshiradi.
- **Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish:** Professional tayyorgarlik tarkibida amaliy mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Kelajak o‘qituvchilar chizmachilik, haykaltaroshlik, dizayn kabi laboratoriyalar va studiyalarda mustaqil ishlash orqali texnik mahoratini oshiradi. Misol uchun, grafik san’at sohasida chuqur bilimga ega bo‘lish natijasida talabalar mustaqil kompozitsiya yaratish va uni darsda izohlab berish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ushbu kompetensiya – grafik san’at uslublarini o‘zlashtirish bilan birga o‘quvchilarga mashg‘ulot o‘tkazish uchun zarur.
- **Pedagogik amaliyot:** Oliy ta’lim jarayonida talabalar maktablarda amaliyot o‘tashadi. Bu davrda ular haqiqiy darslarni kuzatadi, o‘zlari kichik guruhlarda dars mashg‘ulotlarini olib boradi. Innovatsion metodika va o‘quv materiallarini sinovdan o‘tkazish imkoniyatlari yaratilib, tajribali o‘qituvchilardan fikr-mulohazalar olinadi. Shu bilan birga, soha bo‘yicha seminar va master-klasslar tashkil etiladi.

[57] https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/04/Tasviriy-sanat-va-uni-oqitish-metodikasi.2006.pdf
[58] https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/download/4758/4178/8429

- **Integratsion va ijodiy yondashuvlar:** Yangi pedagogik texnologiyalar (masalan, STEAM — fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani uyg‘un o‘rganish) san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda qo‘llanilishi mumkin. Shu tarzda talabalar o‘quv materiallari mazmunini turli fanlar orqali boyitishga o‘rgatiladi. Ta’limning interfaol va masofaviy usullari (simulyatorlar, onlayn platformalar) ham joriy etiladi.
- **Tadqiqot va tahlil:** Mustaqil va guruhda ilmiy tadqiqot ishlari, referatlar yozish, dars metodikasiga oid takliflar ishlab chiqish orqali kelajak o‘qituvchilar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, tasviriy san’at mavzulari bo‘yicha dars va pedagogik materiallarni tahlil qilish ularning metodologik salohiyatini kuchaytiradi.
- **Nazorat va baholash:** Ta’lim sifati talab darajasida ekanligini ta’minlash uchun uzluksiz baholash tizimi joriy etiladi. Bu doimiy ravishda o‘quvchilar ijodiy ishlari va pedagogik ko‘rsatkichlarni nazorat qilish, o‘qituvchilar superviziyasi bilan amalga oshiriladi.

Mazkur metodlar yordamida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari san’atshunoslik asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi, o‘quvchilarga sifatli o‘qitish metodologiyasini egallaydi.

Umuman olganda, illyustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirish uchun bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini ta’lim jarayonida chuqur san’atshunoslik bilimlari va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlash lozim. Dasturiy integratsiya, amaliy mashg‘ulotlar va keng qamrovli o‘quv amaliyotlari orqali talabalar ijodiy malakalar, kompozitsion fikrlash va metodik ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Xalqaro tajriba va milliy strategiyalar talablari doirasida bu yo‘nalishda davom etuvchi ishlar bo‘lishi zarur. Kelgusi tadqiqotlar pedagogika va san’atni uyg‘unlashtiruvchi yangi metodlar ishlab chiqishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://interscience.uz/index.php/home/article/download/3647/3313/8616
2. https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/download/4758/4178/8429
3. Методики обучения школьников иллюстрированию литературных произведений в отечественной педагогике https://studfile.net/preview/4200793/page:5/
4. https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/04/Tasviriy-sanat-va-uni-oqitish-metodikasi.2006.pdf
5. Рисование в школе - В. Н. Кожухов | Уроки иллюстративного рисования https://hudozhnikam.ru/risovanie_v_shkole/12.html
6. Sobirov, S.T., Sultanov, X.E., Ismatov, U.Sh. Illustration and the Influence of Illustrator on Children's Understanding of Fairy Tales and Works of Art in Books. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192. 02 Apr 2020.
7. Qosimov J.A. a; Sultanov, Kh. b; Sobirov S. b; Otakhonova N. c; Boltayeva H. c; Khudoynazarova O. d. Increasing professional competence of students based on modern graphics programs.https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2s2.0-86000730760&origin=recordpage
8. Sultanov, Khaytboy Eraliyevich; Sobirov, Sarvar Tursunmurotovich; Marasulova, Izzat Mukhamatsultonovna. Theoretical basis of cluster approach in fine arts education. https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2s2.0-85086321517&origin=recordpage

9. Sobirov S.T. "IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 20565852. P 98-101.
10. Sultanov X.E, Sobirov S.T, Marasulova I. M. "THEORETICAL BASIS OF CLUSTER APPROACH IN FINE ARTS EDUCATION". Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 9, 2020. 15.05.2020. p 108-111
11. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. Developing Students' Imagination Through Illustration and Illustrations in Fine Arts Classes. International Journal of Social Science Research and Review. http://ijssrr.com editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 6 June, 2022.

OLIY BADIY PEDAGOGIK TA’LIM MUASSASASIDA BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI MAKTAB O‘QUVCHILARIDA ILLUSTRATIV RASM ISHLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHNING MAZMUNI

Sobirov Sarvar Tursunmurotovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403434

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarni shakllantirish mazmuni ilmiy jihatdan keng yoritiladi. Kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xalqaro va milliy tajribalar asosida bo‘lajak san’at o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy pedagogika, tasviriy san’at, kompetensiya, illustrativ rasm, pedagogik texnologiya, kreativlik, o‘quvchi, san’at ta’limi.*

Аннотация. *В данной статье научно освещается содержание формирования компетенций по иллюстративному рисунку у школьников в процессе подготовки будущих учителей изобразительного искусства в высших художественно-педагогических учебных заведениях. На основе компетентностного подхода, современных педагогических технологий, а также международного и национального опыта анализируются пути повышения эффективности профессиональной подготовки будущих учителей искусства.*

Ключевые слова: *художественная педагогика, изобразительное искусство, компетенция, иллюстративный рисунок, педагогическая технология, креативность, ученик, художественное образование.*

Annotation*. This article scientifically highlights the content of forming competencies in illustrative drawing among school students during the training of future visual arts teachers at higher artistic-pedagogical institutions. Based on the competence-based approach, modern pedagogical technologies, as well as international and national experiences, the ways of increasing the effectiveness of professional training of future art teachers are analyzed.*

Keywords: *art pedagogy, visual arts, competence, illustrative drawing, pedagogical technology, creativity, student, art education.*

Hozirgi davrda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, ijodiy yondashuvni kuchaytirish va kompetensiyaga asoslangan ta’lim tizimini shakllantirish masalasi global miqyosda dolzarb hisoblanadi. Xususan, tasviriy san’at sohasida badiiy ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda ular orqali milliy va jahon san’at an’analarini chuqur o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat hujjatlari, jumladan, **“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun**, “Milliy o‘quv dasturi”, shuningdek, Prezident qaror va farmonlarida

badiiy ta’limni rivojlantirish, yoshlarni ijodiy faoliyatga keng jalb etish vazifasi alohida belgilab qo‘yilgan.

Shu sababli, oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyasini zamon talablari asosida shakllantirish masalasi alohida o‘rin tutadi. Bu nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki shaxsiy kreativlikni, badiiy didni, ijodiy tafakkurni ham rivojlantirishni talab etadi.

Oliy badiiy pedagogik ta’limning asosiy vazifasi – maktab ta’limida san’at fanlarini yuqori saviyada o‘qita oladigan, o‘quvchilarning estetik didini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantira oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir[7]. Bu jarayonda talabalarning:

- badiiy tafakkuri;
- metodik tayyorgarligi;
- pedagogik kommunikatsiya ko‘nikmalari;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasi;
- kreativ yondashuvlari shakllanadi.

Illustrativ rasm ishlash kompetensiyasi esa san’at o‘qituvchisining asosiy professional tayyorgarlik komponentlaridan biri bo‘lib, maktab o‘quvchilariga tasviriy san’at orqali mavzu mazmunini badiiy talqinda ifodalashni o‘rgatishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Illustrativ rasm – bu matn, voqea, asar mazmunini badiiy tasvir orqali ifodalashdir. Mazkur faoliyat o‘quvchilarda nafaqat tasviriy mahorat, balki fikrni obrazli ifodalash, ijodiy yondashuv, kompozitsiya, rang uyg‘unligi, tafakkur va tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kompetensiya sifatida qaralganda, illustrativ rasm ishlash quyidagilarni qamrab oladi:

- nazariy bilimlar (san’atshunoslik, rangshunoslik, kompozitsiya asoslari);
- amaliy ko‘nikmalar (qalam, bo‘yoq, grafik va raqamli texnologiyalar bilan ishlash);
- metodik yondashuvlar (maktab darsida bolalarning yosh xususiyatlariga mos mashqlar tanlash);
- kreativ qobiliyat (ijodiy izlanish, mualliflik g‘oyasini ilgari surish).

Dunyo tajribasida san’at ta’limi tizimida innovatsion metodlardan keng foydalanilmoqda. Masalan, Yevropa mamlakatlarida **“Arts integration”** – san’atni boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish yondashuvi qo‘llanadi. AQSH maktablarida esa bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan **“Creative teaching”** metodlari asosiy o‘rin tutadi.

Rossiya Federatsiyasida pedagogika oliygohlarida illustrativ rasm mashg‘ulotlari maxsus kurs sifatida o‘qitiladi. Qozog‘istonda esa tasviriy san’at darslariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali bolalarda zamonaviy grafik ko‘nikmalar shakllantirilmoqda.

O‘zbekistonda esa milliy an’analar, xalq amaliy san’ati namunalaridan foydalanish, buyuk ajdodlarimiz merosi asosida yoshlarning estetik tarbiyasini kuchaytirish dolzarbdir. Maktab darsliklarida illustrativ rasm ishlashga oid mashg‘ulotlar mavjud bo‘lsa-da, bo‘lajak o‘qituvchilarni chuqur tayyorlash, ularda metodik kompetensiyalarni rivojlantirish zarur.

Illustrativ rasm ishlashni o‘rgatishda quyidagi pedagogik texnologiyalar samarali hisoblanadi:

- **Loyiha asosida o‘qitish** – bolalar kitob, ertak, tarixiy voqea asosida rasm chizib, uni himoya qilishadi.
- **Kreativ mashqlar** – “Matndan obraz yaratish”, “So‘zdan tasvirga” kabi mashqlar.
- **AKT integratsiyasi** – raqamli grafik dasturlar yordamida rasm ishlash.

- **Interfaol metodlar** – “Aqliy hujum”, “Rolli o‘yin” asosida obraz yaratish.

Metodik yondashuvlarda esa:

- darslarni yosh xususiyatiga mos tashkil etish;
- milliy san’at an’analarini joriy etish;
- dars jarayonida o‘quvchilarni ijodiy erkinlikka rag‘batlantirish muhimdir.

Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, taqqoslama usul, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, amaliy kuzatuv va intervyu metodlaridan foydalanildi. Asosiy e’tibor O‘zbekiston ta’lim tizimidagi mavjud amaliyot va xalqaro tajriba o‘rtasida qiyosiy tahlilga qaratildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda bir qator muammolar mavjud:

- illustrativ rasm ishlash bo‘yicha metodik materiallar yetarli emas;
- xalqaro tajriba bilan integratsiya sust;
- raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari kam;
- amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar ijodiy mustaqilligi yetarli darajada rag‘batlantirilmaydi.

Shu bois, oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida quyidagi yo‘nalishlarni kuchaytirish lozim:

- Maxsus “Illustrativ rasm ishlash metodikasi” fanini joriy etish.
- Talabalarning raqamli grafik dasturlarda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Xalqaro tajribalarni o‘quv dasturlariga tatbiq etish.
- Milliy meros asosida innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini illustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish – ularning kasbiy mahoratini oshirish, maktab o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Takliflar:

1. Oliy ta’lim dasturlariga innovatsion metodikalar asosida yaratilgan maxsus kurslarni qo‘shish.
2. San’at ta’limi bo‘yicha xalqaro loyihalarda talabalar ishtirokini kengaytirish.
3. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda illustrativ rasm ishlash bo‘yicha modullarni ishlab chiqish.
4. Maktab darsliklarini zamonaviy metodik yondashuvlar bilan boyitish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси. Таълим тўғрисидаги Қонун. – Тошкент: 2020.
2. Dewey, J. Art as Experience. – New York: Penguin, 2005.
3. Gardner, H. Art Education and Human Development. – Los Angeles: Getty Publications, 1990.
4. Эльконин, Д.Б. Психология обучения младшего школьника. – Москва: Просвещение, 1989.
5. Зимняя, И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевой компонент образования. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
6. Read, H. Education Through Art. – London: Faber & Faber, 1970.
7. Сластенин, В.А. Педагогика. – Москва: Академия, 2003.

8. Arnheim, R. Visual Thinking. – Berkeley: University of California Press, 1969.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Tasviriy san’at” umumiy o‘rta ta’lim maktablari dasturi. – Toshkent: 2020.
10. Qosimov J.A. a; Sultanov, Kh. b; Sobirov S. b; Otakhonova N. c; Boltayeva H. c; Khudoynazarova O. d. Increasing professional competence of students based on modern graphics programs.https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2s2.0-86000730760&origin=recordpage

OLIY BADIYI PEDAGOGIK TA’LIM MUASSASASIDA BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI MAKTAB O‘QUVCHILARIDA ILLUSTRATIV RASM ISHLASHGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING SHAKLLARI

[1]Sobirov Sarvar Tursunmurotovich, [2]Soliddinov Shuxriddin G‘ayrat o‘g‘li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi dotsenti
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at” yo‘nalishi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403454

Annotatsiya. *Maqolada oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning shakllari nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Illustrativ rasmning badiiy-pedagogik ahamiyati, uning o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va estetik didni rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosidagi ta’lim, ustoz-shogird an’analari, to‘garak ishlari, interaktiv metodlar, STEAM yondashuvi hamda raqamli texnologiyalar asosida kompetensiyalarni shakllantirish shakllari ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy ta’lim, illustrativ rasm, kompetensiya, ta’lim shakllari, pedagogik texnologiya, raqamli vositalar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты форм подготовки будущих учителей изобразительного искусства в высших художественно-педагогических учебных заведениях к формированию у школьников компетенций, связанных с иллюстративным рисунком. Раскрывается художественно-педагогическое значение иллюстративного рисунка, его роль в развитии творческого мышления и эстетического вкуса учащихся. Научно обоснованы формы формирования компетенций: практические занятия, проектное обучение, наставничество, кружковая работа, интерактивные методы, подход STEAM и цифровые технологии.*

Ключевые слова: *художественное образование, иллюстративный рисунок, компетенция, формы обучения, педагогическая технология, цифровые средства.*

Abstract. *The article analyzes the theoretical and practical aspects of the forms of developing competencies in illustrative drawing among school students by preparing future fine arts teachers in higher pedagogical institutions. It highlights the artistic and pedagogical significance of illustrative drawing and its role in fostering students’ creative thinking and aesthetic taste. The article also substantiates the forms of competency formation, such as practical lessons, project-based learning, mentorship, art clubs, interactive methods, STEAM approaches, and digital technologies.*

Keywords: *art education, illustrative drawing, competence, educational forms, pedagogical technology, digital tools.*

San’at ta’limi jarayonida maktab o‘quvchilarining ijodiy tafakkuri va estetik dunyoqarashini shakllantirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda illustrativ rasm

ishlash alohida o‘rin tutadi, chunki u nafaqat chizmachilik ko‘nikmalarini, balki badiiy obraz yaratish, estetik idrok va mustaqil ijodiy faoliyatni ham rivojlantiradi.

Oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini ushbu jarayonga tayyorlashda kompetensiyalarni shakllantirishning turli shakllaridan foydalanish zarur. Zero, kompetensiya nafaqat bilim va ko‘nikma, balki ularni amalda qo‘llash, yangi sharoitga moslashish va ijodiy natija yaratishni ham o‘z ichiga oladi.

Mazkur maqolada illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning samarali shakllari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Pedagogika fanida ta’lim shakllari tushunchasi o‘quv jarayonini tashkil etishning tashkiliy yo‘llarini anglatadi. Illustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishda quyidagi nazariy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- **Kompetensiyaviy yondashuv** – bilim, ko‘nikma va malakani integratsiyalashgan holda qo‘llashni nazarda tutadi.
- **Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv** – har bir talaba va o‘quvchining individual ijodiy imkoniyatlarini hisobga olish.
- **STEAM yondashuvi** – san’atni fan, texnologiya, muhandislik va matematika bilan integratsiya qilish orqali kompleks tafakkurni rivojlantirish.
- **Konstruktivistik yondashuv** – bilimlarni tayyor shaklda emas, balki izlanish, ijodiy faoliyat orqali shakllantirish.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida **illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirish** murakkab, ammo samarali ta’lim jarayonini talab qiladi. Bu jarayonda shakllar ta’limning tashkiliy-uslubiy asosini belgilaydi va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Illustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarni shakllantirishning shakllari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

- Amaliy mashg‘ulotlar. Illustrativ rasmni o‘rgatishda eng samarali shakllardan biri amaliy mashg‘ulotlardir. Talaba ham, o‘quvchi ham bevosita chizish jarayonida ishtirok etib, ijodiy faoliyat orqali o‘rganadi. Amaliy mashg‘ulotlar laboratoriya ishlari, ko‘rgazmali topshiriqlar, ijodiy loyiha asosida tashkil etilishi mumkin.

- Loyiha asosida ta’lim. Loyiha asosida ta’lim shakli o‘quvchilarda mustaqil izlanish, ijodiy yechim topish va vizual material yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, adabiy asarga illustratsiya yaratish loyihasi o‘quvchilarni nafaqat tasviriy faoliyatga, balki matnni tahlil qilishga ham jalb etadi.

- Ustoz-shogird an’analari. Milliy pedagogik tajribada ustoz-shogird an’analari alohida ahamiyatga ega. Illustrativ rasm o‘qitishda tajribali rassom va pedagoglarning amaliy ko‘rsatmalari, ijodiy tajribalarini o‘rtoqlashishi o‘quvchilar uchun samarali o‘quv shaklidir.

- To‘garak va qo‘shimcha mashg‘ulotlar. Maktablarda tasviriy san’at to‘garaklari va fakultativ mashg‘ulotlar illustrativ rasm kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bunday shakllar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, ularni ijodiy izlanishga undaydi.

- Interaktiv metodlar. Guruhli ishlar, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, “aqliy hujum” metodlari illustrativ rasm kompetensiyalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilar kichik guruhlarda ertak yoki hikoya asosida turli xil illustratsiyalar yaratib, ularni taqqoslaydilar.

- STEAM yondashuvi asosidagi shakllar. Illustrativ rasmni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish (matematika, tarix, adabiyot) orqali o‘quvchilarda kompleks tafakkur

shakllanadi. Masalan, tarixiy voqealarni illustratsiya qilish orqali nafaqat tasviriy san’at, balki tarixiy bilimlar ham mustahkamlanadi.

- Raqamli texnologiyalar asosidagi shakllar. Zamonaviy grafik dasturlar, planshet va smartboardlardan foydalanish illustrativ rasm kompetensiyalarini shakllantirishda yangi shakllarni yuzaga keltirmoqda. Onlayn darslar, virtual ko‘rgazmalar ham samarali shakllardan hisoblanadi.

Illustrativ rasm ishlashni o‘rgatish shakllarini takomillashtirish quyidagi sabablar bilan dolzarb hisoblanadi:

- O‘quvchilarning vizual tafakkurini rivojlantirish ehtiyoji kuchaymoqda.
- San’at ta’limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda.
- Milliy va xalqaro tajribalar integratsiyasi yangi shakllarni talab qilmoqda.
- Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Illustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarni shakllantirishda shakllarni tizimli qo‘llash quyidagi natijalarga olib keladi:

1. O‘quvchilarda illustrativ rasm ishlash kompetensiyasi shakllanadi.
2. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy mahoratini oshiradi.
3. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ijodkorlik faoliyati kuchayadi.
4. Milliy san’at an’analari va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unlashadi.
5. O‘quvchilarda estetik did, ijodiy tafakkur va vizual idrok rivojlanadi.

Oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda turli shakllardan foydalanish zarur. Amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosida ta’lim, ustoz-shogird an’analari, to‘garaklar, interaktiv metodlar, STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalar bu borada samarali shakllar hisoblanadi. Mazkur shakllar uyg‘un qo‘llanganda o‘quvchilarda badiiy idrok, ijodiy tafakkur, estetik dunyoqarash rivojlanadi, bo‘lajak o‘qituvchilarda esa kasbiy kompetensiyalar mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalq ta’limi vazirligi. *“Kelajak o‘qituvchisi” konsepsiyasi*. Toshkent, 2021.
2. Dewey J. *Art as Experience*. New York: Minton, Balch & Company, 1934.
3. Eisner E. *The Arts and the Creation of Mind*. Yale University Press, 2002.
4. UNESCO. *Road Map for Arts Education*. Lisbon, 2006.
5. Hamidov M., To‘xtasinov A. *Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
6. European Network of Art Teachers. *Innovative Approaches to Art Education*. Berlin, 2020.
7. Vygotsky L.S. *Imagination and Creativity in Childhood*. Cambridge, MA: MIT Press, 2004.
8. Sharipova M. *Illustrativ rasm va bolalar ijodiy tafakkuri*. Samarqand, 2021.
9. Abdurahmonova D. *San’at ta’limida innovatsion metodlar*. Toshkent, 2023.
10. Sultanov X.E, Sobirov S.T, Marasulova I. M. “THEORETICAL BASIS OF CLUSTER APPROACH IN FINE ARTS EDUCATION”. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 9, 2020. 15.05.2020. p 108-111

OLIY BADIYI PEDAGOGIK TA’LIM MUASSASASIDA BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI MAKTAB O‘QUVCHILARIDA ILLUSTRATIV RASM ISHLASHGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARINI BELGILASHNING PEDAGOGIK TALABLARI

[1]Sobirov Sarvar Tursunmurotovich, [2]Mirxosilov Mirsaid Ravshan o‘g‘li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi dotsenti
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at”
yo‘nalishi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403468

Annotatsiya. *Maqolada oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar hamda ularni belgilashning pedagogik talablari tahlil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, STEAM integratsiyasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirish asosida samarali shart-sharoitlarni yaratish mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan. Pedagogik talablar tizimi o‘qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirish, o‘quvchilar estetik didini yuksaltirish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy ta’lim, pedagogik shart-sharoit, pedagogik talab, kompetensiya, illustrativ rasm, STEAM, raqamli texnologiya.*

Аннотация*. В статье рассматриваются педагогические условия подготовки будущих учителей изобразительного искусства в высших художественно-педагогических учебных заведениях к формированию у школьников компетенций по иллюстративному рисунку, а также педагогические требования к определению этих условий. Научно обоснованы механизмы создания эффективных условий на основе компетентностного подхода, личностно-ориентированного образования, интеграции STEAM, использования цифровых технологий и синтеза национального и международного опыта. Подчеркивается, что система педагогических требований направлена на развитие профессионального мастерства учителей, формирование эстетического вкуса учащихся и эффективную организацию образовательного процесса.*

Ключевые слова: *художественное образование, педагогические условия, педагогические требования, компетенция, иллюстративный рисунок, STEAM, цифровые технологии.*

Abstract. *The article analyzes the pedagogical conditions required for preparing future fine arts teachers at higher pedagogical institutions to develop school students’ competencies in illustrative drawing, as well as the pedagogical requirements for determining these conditions. It substantiates mechanisms for creating effective conditions based on competency-based approaches, learner-centered education, STEAM integration, digital technologies, and the synthesis of national and international experiences. The system of pedagogical requirements is*

highlighted as essential for developing teachers' professional skills, enhancing students' aesthetic taste, and organizing the educational process effectively.

Keywords: *art education, pedagogical conditions, pedagogical requirements, competence, illustrative drawing, STEAM, digital technology.*

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida san’at fanlari, xususan tasviriy san’at ta’limi sifatini oshirish, o‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. “Kelajak o‘qituvchisi” konsepsiyasi hamda 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida pedagog kadrlar tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish asosiy vazifa sifatida belgilangan [59].

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash jarayonida samarali pedagogik shart-sharoitlarni belgilash zarur. Chunki har qanday kompetensiyani rivojlantirish uchun ta’lim muhitida o‘ziga xos tashkiliy, metodik va ijtimoiy omillar uyg‘unlashgan bo‘lishi talab etiladi.

Mazkur maqolada pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, ularni belgilashning pedagogik talablari tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari ilmiy asoslab beriladi.

Pedagogik shart-sharoit tushunchasi pedagogika fanida o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlovchi tashkiliy, metodik, psixologik va ijtimoiy omillarning majmui sifatida qaraladi[60]. Bu tushuncha shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va konstruktivizm nazariyasi bilan uzviy bog‘liq.

L.S.Vygotskiy ta’kidlaganidek, ta’lim jarayonida shaxs rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq, shu boisdan pedagogik shart-sharoitlar o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishi lozim[61]. J.Dewey esa ta’limning asosiy vazifasini shaxsning hayotiy tajriba asosida o‘zini namoyon etishida ko‘radi [62].

Mazkur nazariy qarashlar asosida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida pedagogik shart-sharoitlarni belgilashning aniq talablari ishlab chiqilishi zarur.

Pedagogik shart-sharoitlarni belgilashning asosiy talablari. Kompetensiyaviy yondashuvga moslik Shart-sharoitlar bo‘lajak o‘qituvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma va ijodiy tafakkurni ham shakllantirishi kerak.

Pedagogik shart-sharoitlarni belgilashning asosiy talablari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- *Shaxsga yo‘naltirilganlik.* Talabalar va o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, psixologik xususiyatlarini hisobga olish.
- *Innovatsion texnologiyalardan foydalanish.* Raqamli platformalar, grafik dasturlar, virtual ko‘rgazmalar ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi zarur.
- *STEAM integratsiyasi.* San’atni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda kompleks tafakkurni rivojlantirish.
- *Ijodiy muhit yaratish.* To‘garaklar, ustoz-shogird an’analari, ijodiy laboratoriyalar orqali san’at ta’limida kreativ muhitni shakllantirish.

[59] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
[60] Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. – М.: Народное образование, 2003. – 112 с.
[61] Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Педагогика, 1991. – 94 с.
[62] Dewey J. Art as Experience. – New York: Minton, Balch & Company, 1934. – 353 p.

- *Xalqaro tajriba uyg‘unligi.* UNESCO, Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribalarini mahalliy amaliyot bilan uyg‘unlashtirish.
- *Milliy qadriyatlarga asoslanish.* O‘zbek amaliy san’ati, milliy naqsh va bezaklarni illustrativ rasm ta’limida qo‘llash.

Mazkur mavzuning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi:

- O‘zbekiston ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning kuchaytirilishi.
- Globallashuv jarayonida yoshlarning ijodiy tafakkuri va vizual idrokini rivojlantirish ehtiyoji [63].
- San’at ta’limida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi.
- Milliy san’at merosini asrab-avaylash va uni zamonaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish zarurati [64].

Pedagogik shart-sharoitlarni belgilashda yuqoridagi talablarni inobatga olish quyidagi natijalarga olib keladi:

- Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahorati yuksaladi.
- O‘quvchilarda illustrativ rasm ishlash kompetensiyalari samarali shakllanadi.
- Ta’lim jarayonining innovatsionlik darajasi oshadi.
- Milliy va xalqaro tajriba uyg‘unlashadi.
- Estetik tarbiya va ijodiy tafakkur rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash samarali pedagogik shart-sharoitlarni belgilashni taqozo etadi. Bu shart-sharoitlarni belgilashda kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilganlik, innovatsion texnologiyalar, STEAM integratsiyasi, ijodiy muhit va milliy hamda xalqaro tajriba uyg‘unligi asosiy talablar sifatida qaraladi.

Mazkur talablarni amalga oshirish san’at ta’limida sifatni oshirish, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va estetik didni rivojlantirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
2. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. – М.: Народное образование, 2003. – 112 с.
3. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Педагогика, 1991. – 94 с.
4. Dewey J. Art as Experience. – New York: Minton, Balch & Company, 1934. – 353 p.
5. Eisner E. The Arts and the Creation of Mind. – Yale University Press, 2002. – 264 p.
6. UNESCO. Road Map for Arts Education. – Lisbon: UNESCO, 2006. – 37 p.
7. Хамидов М., Тўхтасинов А. Тасвирий санъат ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 214 б.
8. Шарипова М. Иллюстратив расм ва болалар ижодий тафаккури. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2021. – 176 б.
9.

[63] Eisner E. The Arts and the Creation of Mind. – Yale University Press, 2002. – 264 p.
[64] Хамидов М., Тўхтасинов А. Тасвирий санъат ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 214 б.

OLIY BADIYI PEDAGOGIK TA’LIM MUASSASASIDA BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI MAKTAB O‘QUVCHILARIDA ILLUSTRATIV RASM ISHLASHGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHNING VOSITALARI

[1]Sobirov Sarvar Tursunmurotovich, [2]Miraxmatova Maftuna Mirabbos qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi dotsenti
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at”
yo‘nalishi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403484

Annotatsiya. *Maqolada oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash jarayonining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Illustrativ rasm tushunchasi, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni, badiiy-pedagogik ahamiyati, shuningdek, mazkur kompetensiyani shakllantirishda qo‘llaniladigan didaktik vositalar, innovatsion texnologiyalar, metodik yondashuvlar va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. O‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ta’limning zamonaviy tendensiyalari, STEAM yondashuvi, raqamli vositalardan foydalanish, milliy va jahon tajribasi asosida samarali metodlarni ishlab chiqish muhimligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy ta’lim, illustrativ rasm, pedagogik texnologiya, kompetensiya, didaktik vosita, STEAM, raqamli ta’lim.*

Аннотация. *В статье раскрываются теоретические и практические аспекты подготовки будущих учителей изобразительного искусства в высших художественно-педагогических учебных заведениях к формированию у школьников компетенций, связанных с иллюстративным рисунком. Рассматриваются понятие иллюстративного рисунка, его роль в учебном процессе, художественно-педагогическое значение, а также дидактические средства, инновационные технологии, методические подходы и международный опыт. Подчеркивается важность внедрения современных образовательных тенденций, подхода STEAM, цифровых средств, а также использования национального и мирового опыта в процессе подготовки учителей.*

Ключевые слова: *художественное образование, иллюстративный рисунок, педагогическая технология, компетенция, дидактическое средство, STEAM, цифровое образование.*

Abstract*. The article examines the theoretical and practical aspects of preparing future fine arts teachers at higher pedagogical institutions to develop competencies in illustrative drawing among school students. It discusses the concept of illustrative drawing, its role in the educational process, and its artistic-pedagogical significance. Furthermore, the article analyzes didactic tools, innovative technologies, methodological approaches, and international experiences used in the formation of this competence. The importance of integrating modern educational trends, STEAM approaches, digital tools, and both national and global experiences in teacher training is substantiated.*

Keywords: *art education, illustrative drawing, pedagogical technology, competence, didactic tool, STEAM, digital education.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida san’at ta’limining mazmuni va metodlariga bo‘lgan talab keskin o‘zgarib bormoqda. Tasviriy san’at fani nafaqat badiiy idrokni rivojlantirish, balki o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va estetik dunyoqarashni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida illustrativ rasmga oid kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat ularning kasbiy mahoratini oshiradi, balki maktab ta’limida san’at fanlarining sifatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

Mazkur maqolada aynan bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini illustrativ rasm ishlash kompetensiyalariga tayyorlashning vositalari, nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari atroflicha tahlil qilinadi.

Illyustrativ rasm tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u o‘quv materiallarini ko‘rgazmali qilish, badiiy obrazlarni yaratish, adabiyot, tarix va boshqa fanlarda tasviriy ifodaning samarali vositasi sifatida qaraladi. Bu jihatdan olganda, illustrativ rasm nafaqat chizmachilik ko‘nikmasi, balki kompleks ijodiy kompetensiya sifatida ham ahamiyatlidir.

Pedagogik nazariyada kompetensiyaviy yondashuv muhim o‘rin tutadi. Kompetensiya – bu nafaqat bilim va ko‘nikmalar majmui, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatidir. Shu boisdan bo‘lajak o‘qituvchini illustrativ rasm ishlash kompetensiyasiga tayyorlash jarayonida bilim, amaliy ko‘nikma va ijodiy tafakkurni uyg‘unlashtirish zarur.

Nazariy asos sifatida J. Dyui, E. Eisner, L.S. Vygotskiylarning san’at ta’limiga oid qarashlari, UNESCOning “Arts Education Road Map” hujjati, shuningdek, Yevropa mamlakatlarining art education sohasidagi tajribalari alohida ahamiyatga ega.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini illustrativ rasm ishlash kompetensiyalariga tayyorlashda bir nechta vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. **Didaktik vositalar.** O‘quv qo‘llanmalari, albomlar, ko‘rgazmali materiallar, rassomlik uslublarini o‘rgatuvchi qo‘shimcha adabiyotlar.
2. **Raqamli texnologiyalar.** Grafik dasturlar (Adobe Illustrator, CorelDRAW, Procreate), 3D-modellashtirish va virtual ko‘rgazmalar.
3. **Amaliy mashg‘ulotlar.** Talabalarni maktab o‘quvchilari bilan birgalikda loyihalar yaratishga jalb qilish, illustratsiya tanlovlari va ijodiy ko‘rgazmalarda qatnashish.
4. **Metodik qo‘llanmalar.** O‘zbek va jahon pedagogik tajribasini o‘zida mujassam etgan uslubiy tavsiyalar.
5. **Ijodiy muhit.** To‘garaklar, ustoz-shogird an’analari, ijodiy laboratoriyalar tashkil etish.
6. **STEAM yondashuvi.** San’atni fan, texnologiya, muhandislik va matematika bilan integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda kompleks tafakkurni rivojlantirish.

Mazkur mavzuning dolzarbligi bir nechta omillar bilan belgilanadi:

- Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish belgilab berilgan.

- Globallashuv davrida yoshlarning vizual tafakkuri va ijodiy salohiyatini oshirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.
- Maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlash kompetensiyasini shakllantirish san’at ta’limining samaradorligini oshiradi, badiiy-estetik tarbiya jarayonini mustahkamlaydi.
- Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, san’at ta’limida illustrativ yondashuv bolalarning ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda oliy badiiy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda quyidagi muammolar mavjud:

1. Amaliy mashg‘ulotlarda illustrativ rasmni o‘rgatishga yetarlicha vaqt ajratilmasligi.
2. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi.
3. Milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirish mexanizmlarining zaifligi.
4. O‘quv-metodik qo‘llanmalar va darsliklarning zamonaviy talablarga mos emasligi.

Yuqorida sanab o‘tgan muammolarni hal qilish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- Illustrativ rasm bo‘yicha maxsus metodik komplekslarni yaratish.
- Pedagogik ta’limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.
- Xalqaro almashinuv dasturlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni faol ishtirok ettirish.
- STEAM yondashuvini san’at ta’limiga keng integratsiya qilish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, illustrativ rasm ishlash kompetensiyalarini shakllantirish natijasida:

- O‘quvchilarning **estetik didi** rivojlanadi;
- **Ijodiy tafakkuri** faollashadi;
- **Badiiy idroki** mustahkamlanadi;
- **Pedagogik samaradorlik** ortadi;
- Bo‘lajak o‘qituvchilarda **kasbiy mahorat** shakllanadi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini maktab o‘quvchilarida illustrativ rasm ishlash kompetensiyalariga tayyorlash jarayoni zamonaviy ta’lim talablariga mos holda tashkil etilishi zarur. Bunda didaktik vositalar, innovatsion texnologiyalar, amaliy mashg‘ulotlar va ijodiy muhit uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilishi kerak. Mazkur jarayon o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, o‘quvchilarda esa estetik did, ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalq ta’limi vazirligi. *“Kelajak o‘qituvchisi” konsepsiyasi*. Toshkent, 2021.
2. Dewey J. *Art as Experience*. New York: Minton, Balch & Company, 1934.
3. Eisner E. *The Arts and the Creation of Mind*. Yale University Press, 2002.
4. UNESCO. *Road Map for Arts Education*. Lisbon, 2006.
5. Hamidov M., To‘xtasinov A. *Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
6. European Network of Art Teachers. *Innovative Approaches to Art Education*. Berlin, 2020.
7. Vygotsky L.S. *Imagination and Creativity in Childhood*. Cambridge, MA: MIT Press, 2004.
8. Abdurahmonova D. *O‘zbek maktablarida tasviriy san’at o‘qitishning zamonaviy metodlari*. Toshkent, 2020.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2022.
10. Sharipova M. *Illustrativ rasm va bolalar ijodiy tafakkuri*. Samarqand, 2021.
11. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. Developing Students’ Imagination Through Illustration and Illustrations in Fine Arts Classes. International Journal of Social Science Research and Review. http://ijssrr.com editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 6 June, 2022.

KITOB MAZMUNINI IDROK QILISHIDA UNGA ISHLANGAN ILLYUSTRATSIYALARNING AHAMIYATI

Sobirov Sarvar Tursunmurotovich
Chirchiq davlat pedagogika univesiteti “Tasviriy san’at va dizayn”
kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403500

Annotatsiya. *Maqolada bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda bolalar kitobiga ishlangan illyustratsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsadi, yo‘nalishi va obrazni ifodalashdagi axamiyati haqida gap boradi. Bundan tashqari bolalar kitoblariga illyustratsiya ishlashda bolalardagi yosh farqlanishini, adabiy manba bilan bog‘liqligini va kitob mazmunini idrok qilishda illyustratsiyalarning vazifalari yoritib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *shaxs kamoloti, badiiy ta’lim, tasviriy savodxonlik, estetik did, kompetentsiya, axloqiy ideal, illyustratsiya, axloqiy qadriyatlar, adabiy matn, badiiy asar, obraz, dekorativ, voqeylik, grafik tasvir, idrok, ko‘rgazmalilik, syujet.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности иллюстраций к детским книгам, их цель, направление и значение в передаче художественного образа в воспитании детей как гармонично развитых личностей. Кроме того, освещены задачи иллюстрирования детских книг с учетом возрастных особенностей детей, связи с литературным источником и роли иллюстраций в восприятии содержания книги.*

Ключевые слова: *гармоничное развитие личности, художественное образование, изобразительная грамотность, эстетический вкус, компетенция, нравственный идеал, иллюстрация, нравственные ценности, литературный текст, художественное произведение, образ, декоративность, реальность, графическое изображение, восприятие, наглядность, сюжет.*

Annotation. *The article discusses the specific features of illustrations in children's books, their purpose, direction, and importance in conveying artistic images for educating children as well-rounded individuals. In addition, the paper highlights the functions of illustrating children's books in relation to age differences, the connection with literary sources, and the role of illustrations in comprehending the content of the book.*

Keywords: *personal development, art education, visual literacy, aesthetic taste, competence, moral ideal, illustration, moral values, literary text, artistic work, image, decorativeness, reality, graphic representation, perception, visualization, plot.*

Bolalarni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk vakillari jalb etiladi. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Badiiy ta’lim tarixida o‘quvchilarning tasviriy savodxonligi, estetik didini shakllantirishda tasviriy san’at tarkibidagi illyustrativ rasm ishlash darslari alohida ahamiyat kasb etishi bilan ham nafaqat badiiy-estetik ta’limda, balki umuman ta’limda, ayniqsa, tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Zero, bu jarayon o‘quvchilarda tasviriy savodxonlik kompetentsiyalari bilan hamohang tarzda o‘quvchilar

ma’naviyatini boyitish, ularda axloqiy ideallarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.[65]

Bolalar kitoblariga illyustratsiya (lot. illustratio - yoritish, ko‘rgazmali tasvir) ishlash haqida gapirganda, uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida aytib o‘tish kerak. Bolalar kitoblariga illyustratsiyalar chizishda ularning hali ham o‘yinlar, qiziqarli sarguzasht, yorqin dunyoda yashayotganligini xisobga olish kerak.

Bola uchun illyustratsiya eng muhim bilim va axborot elementi bo‘lib, u shubhasiz ta'lim qiymatiga ega. Bu orqali bola atrofdagi voqelikni, tabiatni va hayvonot dunyosi, insonlarning turmush tarzi haqida juda ko‘p narsalarni o‘rganadi. Shuning uchun rassomning bolalar kitoblarini tasvirlashga bo‘lgan munosabati alohida, o‘ta mas'uliyatli, samimiy va bevosita bo‘lishi kerak.

Kitob bilan muloqot bolaning ichki dunyosi shakllanishiga ta'sir ko‘rsatadi. Badiiy adabiyotni o‘qish orqali bola dunyoning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi haqida tahlil qilishni o‘rganadi, axloqiy qadriyatlarni o‘zida shakllantirib boradi.

Illyustratsiya bolalar uchun kitobning eng muhim elementi bo‘lib, u asosan kitobning badiiy qiymatini va hissiy ta'sirining xususiyatini belgilaydi.

Illyustratsiyalar-matnni obrazli ochib beruvchi, adabiy asar mazmuni va uslubiga bo‘ysunuvchi, shu bilan birga kitobni bezovchi va uning dekorativ tuzilishini boyituvchi tasvirlardir.

“Bola kitoblardagi illyustratsiyalarning yorqin ranglarda bo‘lganini yoqtiradi. Bolalarga ko‘rish bilan bir qatorda ushlab ko‘rish juda muhimdir. Bolalardagi bu istak bolalar kitoblarining nafaqat mazmun jixatdan balki material jihatidan ham mustaxkam va sifatli bo‘lishini talab etadi.

Bolalar kitoblaridagi narsalarni jonlantirish va insonlardagi xati-xarakatlar, fel – atvorlarini hayvonlar obrazida tasvirlash muhim axamiyat kasb etadi. Bola ko‘pincha o‘zini ertakdagi biror qaxramon yoki narsaning o‘rniga qo‘yib ko‘radi. Shu sababli voqeylikni illyustratsiyalarda xuddi hayotdagi kabi tasvirlash bolalar uchun qiziqarli bo‘lmaydi”.[66]

Bolalar kitobiga ishlangan-illyustratsiya o‘qituvchiga matnni bolaga to‘liqroq taqdim etishga yordam beradi, lekin noto‘g‘ri vaqtda ko‘rsatilsa, idrok qilishga ham xalaqit berishi mumkin.

Kitob illustratsiyasi tasviriy san'atning maxsus turi sifatida idrokning shakllanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi u bolaning estetik ta'sirchanligini rivojlantiradi, bu esa bolaning go‘zallikka bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ladi. Kitobdagi illyustratsiya bolalarning tasviriy san'at olami bilan birinchi uchrashuvidir. Kitob mazmunini ochib berishda, bolarda his-tuyg‘ularni uyg‘otish va nihoyat uning ko‘rgazmaliligini boyitish va rivojlantirishda kitob illyustratsiyasi estetik vazifani bajaradi.

Kitobat san’atida illyustratsiyaning vazifalari - Birinchidan, kitobdagi tasvirlar bola uchratgan ilk tasviriy san'at asarlaridan biri bo‘lib, mashg‘ulotlar bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi, unga san'at asari sifatida ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi.

Ikkinchidan, illyustratsiyalar bolalarda badiiy didni shakllantirishga yordam beradi, bolaga kartinalarda har doim ham ko‘rmaydigan va ularni tushunish qiyinroq bo‘lgan badiiy vositalarni ko‘rishga, idrok etishga va baholashga yordam beradi. Rasmlardagi rang, ritm, kompozitsiya va boshqa tushunchalar bolalar uchun tushunarli bo‘ladi.

[65] Sulaymanov A. , Abdullayev N. “Tasviriy san’at”. 7-sinf uchun darslik-2006y.

[66] К .В. Макарова. Особенности детской книжной иллюстрции и ее отличия от взрослой. Культура и образование. https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-detskoy-knizhnoy-illyustratsii-i-ee-otlichiya-ot-vzrosloy

Uchinchidan, bu mavzu bolalar nutqini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi: hikoyalar tuzish, turli emotsional holatlarni tasvirlash orqali so‘z boyligini boyitadi.

To‘rtinchidan, kitobga ishlangan illyustratsiyalar bilan ishlash va barcha aqliy bilish jarayonlarini faollashtirishga yordam beruvchi maxsus mashqlar, o‘yinlardan foydalanish: xotira, fikrlash, diqqat, tasavvur va ularning rivojlanishiga yordam beradi.

Beshinchidan, kitobga illyustratsiya ishlovchi rassomlarning ijodiy uslubi bilan tanishish bolalarni chizishga undaydi va ularning tasviriy malakalarini oshirish imkoniyatini beradi.

Illyustratsiya bolalar uchun kitobning eng muhim elementi bo‘lib, asosan uning badiiy qimmatini, hissiy ta'sirining xususiyatini va o‘quvchilarni estetik tarbiyalash jarayonida undan foydalanish imkoniyatini belgilaydi. Kitob illustratsiyasi bolani dunyoni o‘rganishda, axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishda, estetikada yordam beradi.

Illyustratsiya bolaning o‘qishi uchun kitob tanlash jarayonini boshlaydi. Illyustratsiya bolaning adabiy matnni tushunishiga yordam beradi, uning mavzusi, g‘oyasi, xarakterlari haqida tasavvur hosil qiladi va adabiy harakatning voqea va belgilariga baho beradi. Illyustratsiya - bolalarni adabiy dunyoga kirib, uni his qilish, do‘stlashish, sevishga yordam beradi. Bolaning hayotiy tajribasi kam bo‘lgani uchun yozuvchining aytganlarini xayolida qayta yaratish qiyinroq. U tasavvur qilishi uchun ko‘rishi, ishonishi kerak. Bu yerda illyustratsiyachi rassom kitob mazmuniga kirishi va bolalarcha dunyoqarash bilan tasvirlashi kerak bo‘ladi.

Kitob illustratsiyasi yosh bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bola uchun kitob illyustratsiyadan boshlanadi va bu bolaning o‘zlashtirishi uchun rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi. 5-6 yoshdagi bolalarda o‘qish ko‘nikmalari hammasida ham unchalik rivojlanmagan bo‘ladi, shuning uchun bolalar idrokining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlangan illyustratsiyalar bolalarning kitobga va o‘qishga qiziqishini oshiradi.

Bolalarni kitob grafikasi bilan badiiy asar sifatida tanishtirish uchun o‘qituvchi pedagogik ishlarni to‘g‘ri olib borish maqsadida illyustratsiya va bolalar kitobining badiiy matni haqidagi, kitob grafikasining turli yosh guruhlarini idrok etish xususiyatlarining qanday ta'sir ko‘rsatishi haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

Adabiy asarning g‘oyaviy mazmunini ochib berish bilan chambarchas bog‘liq holda qahramonlar obrazlarini tasvirlash kitobga illyustratsiya ishlovchi rassom tomonidan hal etiladigan vazifa. Obrazni xarakterli tasvirlash vositalariga quyidagilar kiradi: qahramonning grafik tasviri, qahramonning psixologik holatini ochib beruvchi yuz ifodalari, qaddi-qomati, imo-ishorasi hattoki ranglar orqali xarakterini ochib berish. “G‘oyani rangda ifodalash ham eng muhimlardan biridir. Inson bajargan har bir ijodiy ish bu qandaydir darajadagi bir asar. Badiiy asarning o‘zi qanday muammo ifodalanganligidan qat’iy nazar “alohida asar” sifatida e’tiborga molik bo‘lishi kerak”.[67]

Matn va illyustratsiya birligi bolalar tomonidan ko‘rgazmalilik va nutq idrokining o‘zaro aloqasida butun kitobning mazmunini tushunish mumkin. Badiiy illyustratsiya bolalarning matnni tushunishlariga katta ta'sir ko‘rsatadi. Bu ta'sir erta maktabgacha yoshdagi bolalarda muhim hisoblanadi. Kelajakda illyustratsiyalarning ta’siri kamayadi va matnning roli ortadi.

Kichik bola uchun chizilgan illyustratsiya yordamchi vazifani bajarmaydi, balki asosiy material rolini o‘ynaydi. Rivojlanishning bu bosqichida illyustratsiya bola uchun voqelikning o‘zini ifodalaydi, uni og‘zaki tavsif bilan almashtirib bo‘lmaydi.

[67] X. Sultonov. “Rangtasvir” (Akvarelda natyurmort ishlash).Ўқув қўлланма T.:“VNESHINVESTROM” МЧЖ, 2019

Katta yoshdagi bolalar illyustratsiyalar yordamisiz ertak yoki oddiy hikoya syujetini tushuna boshlaydilar. Biroq, murakkabroq badiiy asarning ichki mazmunini - xatti-harakatlarining axloqiy mazmunini tushunish bola uchun katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etishda illyustratsiya yana muhim rol o‘ynay boshlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, matn va illyustratsiyalar kitob mazmunini taqdim etishning asosiy shakli bo‘lgani uchun bolaning kitobni tushunishi og‘zaki taqdimot va ko‘rgazmali tasvirning to‘g‘ri nisbati bilan ta'minlanadi. Bolaning shakllanishida kitobning o‘rni beqiyos. Kitob bolaning tabiiy qiziquvchanligini boshqaradi, uni rivojlantiradi va chuqurlashtiradi, tasavvurida paydo bo‘lgan minglab savollarga javob beradi. Bolalar uchun kitobdagi illyustratsiyalarga bo‘lgan ehtiyoji kattadir. Illyustratsiya bolalarni matnni yanada chuqurroq va yaxshiroq idrok etishiga va atrofidagi dunyo haqida bilimlarini boyitishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sulaymanov A. , Abdullayev N. “Tasviriy san’at”. 7-sinf uchun darslik-2006y.
2. Gurovich L. M. “Bola va kitob”. Moskva: Prosveshchenie, 2002.
3. X. Sultonov. “Rangtasvir” (Akvarelda natyurmort ishlash).Ўқув қўлланма T.:“VNESHINVESTROM” МЧЖ, 2019
4. К .В. Макарова. Особенности детской книжной иллюстрции и ее отличия от взрослой. Культура и образование. https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-detskoy-knizhnoy-illyustratsii-i-ee-otlichiya-ot-vzrosloy
5. Qosimov J.A., Sultanov Kh.E., Sobirov S.T. va boshq. *Increasing professional competence of students based on modern graphics programs*. – Scopus maqolasi.
6. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. Developing Students’ Imagination Through Illustration and Illustrations in Fine Arts Classes. International Journal of Social Science Research and Review. http://ijssrr.com editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 6 June, 2022.
7. Sultanov X.E, Sobirov S.T, Marasulova I. M. “THEORETICAL BASIS OF CLUSTER APPROACH IN FINE ARTS EDUCATION”. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 9, 2020. 15.05.2020. p 108-111 https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2s2.0-85086321517&origin=recordpage

BADIIY TA'LIMDA USTOZ-SHOGIRD TIZIMI VA INNOVATSION INTEGRATSIYA ORQALI IJODIY MUHIT YARATISH TAJRIBASI

[1]Sultanov Xaytboy Eralievich, [2]Soliddinov Shuxriddin G'ayrat o'g'li, [3]Qudratova Nozliya Ilhom qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi professori, [2]1 kurs magistranti, [3]bakalavriat 3 kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17403515

Annotatsiya. *Mazkur tezisda ustoz-shogird tizimi va zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish orqali badiiy ta'limda ijodiy muhit yaratish masalalari yoritilgan. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasi asosida nazariya, amaliyot va ishlab chiqarish integratsiyasi tahlil etilgan hamda talabalarda ijodiy mustaqillik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *ustoz-shogird tizimi, integratsiya, klaster yondashuvi, innovatsion ta'lim, ijodiy muhit.*

Аннотация. *В тезисе рассмотрены вопросы создания творческой среды в художественном образовании путем интеграции системы «устоз–шогирд» и современных педагогических инноваций. На основе опыта Чирчикского государственного педагогического университета проанализирована интеграция теории, практики и производства, а также обоснованы возможности развития творческой самостоятельности и профессиональных компетенций студентов.*

Ключевые слова: *система «устоз-шогирд», интеграция, кластерный подход, инновационное обучение, творческая среда.*

Annotation. *This thesis explores the creation of a creative environment in art education through the integration of the ustoz-shogird (master–apprentice) system with modern pedagogical innovations. Based on the experience of Chirchik State Pedagogical University, the integration of theory, practice, and production is analyzed, and the opportunities for developing students' creative independence and professional competencies are substantiated.*

Keywords: *ustoz-shogird system, integration, cluster approach, innovative education, creative environment.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida badiiy-pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi dolzarbdir. Davlatimiz rahbari tomonidan bu haqda "…yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish zarur[68]" deb ta'kidlaydilar. 2019 yil ishlab chiqilgan ta'lim konsepsiyasida esa ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, talabalarda mustaqil izlanish va ijodiy faollikni rag'batlantirish vazifasi belgilangan[69]. Bu jarayonda an'anaviy ustoz-shogird an'analari zamonaviy pedagogik innovatsiyalar bilan uyg'unlashib, ijodiy muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, fanlararo integratsiya va klaster yondashuvi asosida nazariya, amaliyot va ishlab chiqarish jarayonlari uyg'unligi ta'lim sifatini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Asosiy qism

Yevropa, Sharq va Markaziy Osiyoda tasviriy va amaliy san'at asrlar davomida ustoz-shogird an'analari asosida rivojlanib kelgan. Bu jarayonda talabalar mashhur ustalar asarlarini ko'chirish va ulardan ilhomlanish orqali o'zlarining mahoratini rivojlantirib borishgan.

[68] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ–4947-сон Фармони
[69] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ–5712-сон Фармони

O‘zbekiston hududida ham asrlar davomida tasviriy va amaliy san’at sohasidagi miniatyura san’ati, kulolchilik, zargarlik, hattotlik kabi an’anaviy badiiy ko‘nikmalar ustozdan shogirdga o‘tishi orqali rivojlanib kelgan. Asrlar mobaynida Hirot, Buxoro, Samarqand, Sheroz va Tabriz kabi an’anaviy miniatyura maktablarida ustozlar shogirdlariga ijodiy mahoratdan tashqari milliy qadriyatlar ham singdirib kelingan. Ustoz-shogird tizimi muhitida olingan tajribalar keyinchalik milliy rangtasvir asarlari yaratilishida muhim o‘rin tutgan.

Yevropa va Sharq an’analari uyg‘unligidagi ustoz-shogird tajribasi yurtimizda B. Jalolov, J. Umarbekov, A. Ikromjonov, Ya. Salpinkidi kabi boshqa ko‘plab o‘zbek rassomlari tomonidan davom ettirib kelinmoqda. Bugungi kun sharoitida esa individual ijodiy yondashuv va milliy uslublarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ya’ni, zamonaviy O‘zbekiston badiiy ta’limida an’anaviy ustoz-shogird metodi va akademik ta’limni uyg‘unlashtirish orqali integratsion muhit yaratish dolzarb masalaga aylandi. Bugungi kunda ilmiy izlanishlar ustoz-shogird va kognitiv ustozlik modellarini o‘qitishda samarali ekanligini tasdiqlaydi. Masalan, kognitiv psixologiya olamidagi olamshumul olim Govard Garner ta’kidlaganidek, ustoz-shogird usulini maktab sharoitiga oqilona kiritish talabalarning tushunish qobiliyatini faollashtirish va kengaytirishga olib keladi[70] Uning fikriga ko‘ra, an’anaviy ustozlikka ta’lim tizimi omilini kiritish talabalarni to‘laqonli rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagoglarning ta’kidlashicha, an’anaviy ustoz-shogird va kognitiv ustozlik usullari har ikkisi ham mutaxassislik jarayonlari hamda o‘rganishning kontekstli jihatlariga katta e’tibor qaratadi O‘zbekistonda taniqli olim J. O‘sarov individual ta’lim traektoriyasi mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytirishini ta’kidlayadi[71]. Insonning kognitiv qobiliyatlari – ta’lim jarayonining asosiy poydevori. Ular talabalarning bilim olishga tayyorligi, ijodiy faolligi va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish - zamonaviy ta’limning strategik vazifasi hisoblanadi. Demak, ta’lim jarayonida har ikki usulning kuchli tomonlarini uyg‘unlashtirish pedagogik negizlarni mustahkamlaydi. Bundan tashqari xalqaro tajribalarda ijodkorlik umrbod ta'lim uchun kerakli qobiliyat hisoblanadi va talabalarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun zarur ekanligi ta’kidlanadi[72].

XX–XXI asrlarda akademik ta’lim tizimi shakllanishi bilan birga raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va STEAM yondashuvlari ta’limga keng joriy etildi. Bu jarayonda nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlanib, talabalarning ijodiy mustaqilligi kuchaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida akademik bilimlarning amaliy ko‘nikmalar bilan integratsiyasi, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish asosiy strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chirchiq davlat pedagogika universitetida ustoz-shogird tizimi asosida 'O‘rgatib-o‘rganamiz' loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu loyiha doirasida talabalar o‘zaro tajriba almashish, ijodiy ustaxonalarda birgalikda ishlash va pedagogik amaliyotni boyitish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Shuningdek, klaster yondashuvi asosida maktab-universitet-ishlab chiqarish hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. San’atshunoslik fakulteti o‘z faoliyatida klaster yondashuviga tayangan holda, umumta’lim muassasalari, mahalliy hamjamiyatlar, ishlab chiqarish korxonalari va xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamkorlikni faol yo‘lga qo‘ygan. Ushbu strategik yondashuv ta’lim jarayonini real hayot ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lash, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy kontekstda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ularning ijtimoiy faolligini oshirishni nazarda tutadi. Chirchiq shahar tarixi muzeyi bilan o‘rnatilgan integratsion hamkorlik muzey madaniy merosni saqlash, o‘rganish va keng jamoatchilikka targ‘ib qilishda muhim o‘rin tutadi. San’atshunoslik fakulteti bilan hamkorlik doirasida muzey talabalar uchun amaliy bilim va ko‘nikmalarni

[70] Cariño K. The Convergence of Traditional and Cognitive Apprenticeship as a Signature Pedagogy: A Case Study of Dance Choreographer, Lim Fei Shen // Signature Pedagogies for Professions in Arts and Design. – Singapore: Springer, 2025. – P. 55–73. link.springer.comlink.springer.com.

[71] Осаров Ж. Individual ta’lim traektoriyasi mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi // Янги Ўзбекистон газетаси. – 23.12.2023. – https://yuz.uz

[72] Lucas B., Venckutė M. Creativity – a transversal skill for lifelong learning. – European Commission JRC Publications, 2020.

egallash, tarixiy va badiiy eksponatlar bilan bevosita tanishish imkoniyatini yaratuvchi platforma sifatida xizmat qilmoqda. Bakalavr hamda magistrlik ijodiy ishlarini (BMI) muzey faoliyatiga integratsiya qilish, ijodkor o‘qituvchilari va talabalarning ijodiy salohiyatidan foydalangan holda muzey eksponatlarini ta’mirlash va yangi asarlar bilan boyitishga yordam berish hamkorlikning muhim mexanizmi hisoblanadi. "Tasviriy san’at" kafedrasida ming yillik tarixga ega bo‘lgan Rishton kulolchilik an’analari tajribalarini o‘rganish, talabalarni amaliy san’atga qiziqtirish, xalq ustalari bilan hamkorlikda “Ustoz-shogird”tizimini yanada takomillashtirib kelinmoqda. bu bilan talabalarning nazariy bilimlari mustahkam amaliyot bilan to‘yingan holda ishlab chiqarishga yo‘naltirilmoqda.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan nazariya–amaliyot–ishlab chiqarish integratsiya modeli quyidagilarni qamrab oladi:

Blok	Mazmun	Samara
Nazariya	Pedagogika, uslubiят, san’at tarixi	Ilmiy asoslangan bilim
Amaliyot	Ijodiy ustaxonalar, kompozitsiya, rangtasvir, amaliy san’at	Kasbiy mahorat va ko‘nikmalar
Ishlab chiqarish	Muzey, galareya, hunarmandchilik va dizayn korxonalari bilan hamkorlik	Ijtimoiy-iqtisodiy samara

Ushbu model talabalarda kasbiy kompetensiyalar shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va pedagogik amaliyotda innovasion yondashuvlarni tatbiq etish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari

- Talabalarning ijodiy faolligi va mustaqil fikrlashi kuchaydi.
- Fanlararo integrasiya asosida ijodiy muhit shakllandi.
- Ustoz-shogird tizimi zamonaviy talablarga uyg‘unlashtirildi.
- Klaster yondashuvi orqali ta’lim–amaliyot–ishlab chiqarish uyg‘unligi ta’minlandi.

Xulosa

Ustoz-shogird tizimi va zamonaviy innovasion ta’lim modellari uyg‘unligi talabalarda ijodiy muhitni rivojlantirishda, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda hamda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu tajribani klaster yondashuvi doirasida yanada rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Наракатлар стратегияси тўғрисида: ПФ–4947-сон Фармон. 2017 йил 7 феврал. // Ўзбекистон Республикаси қонун hужжатлари тўплами. – Т., 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида: ПФ–5712-сон Фармон. 2019 йил 29 апрел. // Ўзбекистон Республикаси қонун hужжатлари тўплами. – Т., 2019.
3. Cariño K. The Convergence of Traditional and Cognitive Apprenticeship as a Signature Pedagogy: A Case Study of Dance Choreographer, Lim Fei Shen // Signature Pedagogies for Professions in Arts and Design. – Singapore: Springer, 2025. – P. 55–73. link.springer.comlink.springer.com.
4. Султанов Х.Э. Кластер усули орқали тасвирий санъат таълимини интеграциялаш. – 2024. – Itm.uz.
5. Осаров Ж. Individual ta’lim traektoriyasi mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi // Янги Ўзбекистон газетаси. – 23.12.2023. – https://yuz.uz
6. Lucas B., Venckutė M. Creativity – a transversal skill for lifelong learning. – European Commission JRC Publications, 2020.

INDIVIDUAL TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHDA AN’ANAVIY USTOZ-SHOGIRD USULI VA INNOVATSION O‘QITISH MODELLARINING INTEGRATSIYASI

[1]Sultanov Xaytboy Eralievich, [2]Mustafoqulova Farida Fozilovna, [3]Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori,
[2]magistr, [3]bakalavriat 3 kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403539

Annotatsiya. *Maqolada an’anaviy ustoz-shogird usuli va zamonaviy innovatsion ta’lim modellarini integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Xususan, tasviriy san’at ta’limida shaxsiylashtirilgan yondoshuv, raqamli texnologiyalar va hamkorlikka asoslangan pedagogik modellar uyg‘unligi talaba shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berishi ko‘rsatilgan. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribalari orqali ustoz-shogird tizimi, “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi va raqamli kurslar samaradorligi tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ustoz-shogird, innovatsion ta’lim, integratsiya, individual ta’lim, tasviriy san’at.*

Аннотация. *В статье рассмотрены вопросы интеграции традиционной системы «устоз–шогирд» и современных инновационных моделей обучения. В частности, показано, что в художественном образовании синтез персонализированного подхода, цифровых технологий и педагогических моделей, основанных на сотрудничестве, открывает возможности для всестороннего развития личности студента. На основе опыта Чирчикского государственного педагогического университета проанализирована эффективность системы «устоз–шогирд», проекта «Учимся, обучая» и цифровых курсов.*

Ключевые слова: *устоз-шогирд, инновационное обучение, интеграция, индивидуальное обучение, изобразительное искусство.*

Annotation. *The article discusses the integration of the traditional ustoz-shogird (master–apprentice) system with modern innovative teaching models. It demonstrates that in art education, the combination of personalized approaches, digital technologies, and collaboration-based pedagogical models provides opportunities for the comprehensive development of students’ personalities. Based on the experience of Chirchik State Pedagogical University, the effectiveness of the ustoz-shogird system, the “Teaching by Learning” project, and digital courses has been analyzed.*

Keywords: *ustoz-shogird, innovative education, integration, individual learning, fine arts.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi rivojining hozirgi bosqichida ta’lim ishtirokchilarining o‘zaro faol muloqotiga asoslangan shaklda ustoz-shogird an’anasi hamda innovatsion ta’lim metodlarini integratsiyalash muhim hususiyatga aylanib bormoqda. Xususan, badiiy ta’limda ustozning shaxsiy boshqaruvi va turli loyihalar bilan ta’lim-tarbiya jarayonidagi talabalarning faolligini uyg‘unlashtirish zaruriyati sezilyapti. Chunki, ta’lim jarayonida har bir shaxsning potensialini to‘liq ochib berish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va mustaqil o‘rganishni

rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, individual ta’limni samarali tashkil etishda an’anaviy ustoz-shogird an’analari va innovatsion pedagogik modellarning integratsiyasi ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu ikki yondashuvni uyg‘unlashtirish orqali insonparvar, shaxsiylashtirilgan muhit yaratilmoqda. Bunda raqamli texnologiyalar, hamkorlikka asoslangan o‘qitish usullari va refleksiv ta’lim imkoniyatlari kengaymoqda.

An’anaviy ustoz-shogird usuli xususiyati shundaki, ustoz bitta yoki bir nechta shogirdga individual yondashuv bilan chuqur bilim beradi, shaxsiy tajribasini o‘rgatadi. Bu jarayonda shogird ustozning ish uslubini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatadi, ijodiy mahoratini rivojlantiradi. Ustoz-shogird tizimi o‘zbek xalqining ma’naviy merosi va pedagogik an’analarining ajralmas qismi bo‘lib, bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni avloddan avlodga o‘tkazishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiyaga asoslangan ustoz-shogird munosabatida hissiy bog‘lanish va hurmat muhiti shaklanadi. Biroq, qat’iy ierarxiyali tarzidagi bu tizim shogirdning mustaqil fikrlashini va yangilikqa intilishini cheklashi mumkin. Zamonaviy pedagogikada murabbiy faqat buyuruq beruvchi emas, balki ta’lim jarayonida talaba bilan hamroh, yo‘l-o‘rgatuvchi ekanligi ta’kidlanmoqda. Ustoz endi birdamlikda faoliyat olib borishiga sharoit yaratadi - talaba-ijrochi, ijodkor va yo‘naltiruvchi sifatida rivojlanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, asrlar davomida sinovdan o‘tgan ustoz-shogird modeli hozirgacha ham AQSh, Rossiya[73], Turkiya[74] va Yaponiya[75] kabi ko‘pgina mamlakatlarda asosiy qimmatini saqlab qoladi, lekin uni talaba markazli yondashuvlar bilan boyitish talab etiladi. Misol uchun, estetik ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ham ijodiy sheriklikka asoslangan yangi munosabatlar modelini taklif etadi. Bunda ustoz faol boshqaruv orqali emas, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, o‘rgatuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi murabbiy sifatida ishtirok etadi.

Bu usul talaba shaxsiyatini har tomonlama anglash, uning qobiliyatlarini aniqlash va shaxsiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Praktikaga asoslangan vazifalar, bevosita kuzatish va reproduktiv faoliyat orqali amaliy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Hozirgi zamonda faol va hamkorlikka asoslangan o‘qitish, peer-to-peer, STEAM, dizayn-tafakkur, raqamli ta’lim texnologiyalari kabi innovatsion modellar keng qo‘llanilmoqda. Qayd etish kerakki, murabbiyning o‘rni pedagogik jarayonda o‘zgara boshladi. U endi faqat bilim manbai emas, balki jarayonni boshqaruvchi fasilitatorga aylanadi. H**amkorlikda o‘qitish** uslubiga xos interaktiv mashg‘ulotlarda pedagog va talabalar o‘rtasida bevosita muloqot, teng ishtirok hamda erkin fikr almashinuvi jarayoni kechadi. Natijada, o‘quv muhitida har bir talaba shaxsiy fikrini bildirishi, o‘zini qiziqtirgan savollarni berib, jamoa bilan tahlil qilgan holda kerakli javoblarni topishi mumkin. Bu usul o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta’minlab, muammoli vaziyatlarda ijodiy qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash hamda raqamli savodxonlikni rivojlantiradi.

An’anaviy va innovatsion modellarni integratsiyalash xolis pedagogik yondashuvga tayanadi. Bu gibrid model shaxsiylashtirilgan ta’lim, refleksiv tahlil, ijtimoiy hamkorlik va raqamli ta’lim muhitini birlashtiradi. O‘qituvchining ustoz sifatida individual ta’limni tashkil

[73] Шайгозова, Ж. Н. (2005). Художественная педагогика и поликультурное образование. Вестник Нижневартовского государственного университета.

[74] Kabaçam, B. (2024). El sanatı geleneğinde usta-çırak ilişkisi: Yaşayan insan hazineleri örneği [The master-apprentice relationship in the handicraft tradition: The case of living human treasures]. Milli Folklor. 100-111 б. 110 б., 2. https://doi.org/10.58242/millifolklor.1372122.

[75] Kogei Japan – Living National Treasure. – en.kogei-japonica.com (япон аний анъанавий ҳунармандчилик бўйича веб-сайт, мурожаат санаси: 05.05.2025).

etishi, talabalarda esa kasbiy-ijodiy bilim olish uchun faollashishini rag‘batlantiradi. Integratsiya jarayonida ustoz tajribasi va raqamli platforma orqali masofaviy muloqot, onlayn-portfolio, adaptiv resurslar muvaffaqiyatli tatbiq etiladi. Individual ta’limni amalga oshirishda an’anaviy ustoz-shogird usuli va innovatsion o‘qitish modellarini integratsiyalash kasbiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ijodiy, tashkiliy-yetakchilik faoliyati yo‘nalishlarida talabalarga kelajakdagi faoliyatlari uchun ko‘plab qiziqarli imkoniyatlarni ochib beradi.

Aamaliy natijalar. Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasidagi “Ustoz-shogird” tizimiga asoslangan individual ta’lim muhiti orqali erishilgan amaliy natijalarni misol keltirish mumkin. Ilmiy-ijodiy to‘garaklar, talabalar rahbarlik qiladigan mini-to‘garaklar, “Talaba-talabaga ustoz, talaba-talabaga shogird” tamoyiliga asoslangan “O‘rgatib-o‘rganamiz” tengdoshlar ta’limi loyihasi tajribalari, raqamli multimedia kurslari yuqori samara bermoqda.

Talabalarning shaxsiy portfoliolari orqali rivojlanish dinamikasi monitoring qilindi va ta’lim natijalari 15–20 % ga oshgani kuzatildi.

Xulosa. An’anaviy ustoz-shogird usulining insonparvar-tarbiyaviy qimmati va innovatsion o‘qitish modellarining samaradorligi o‘zaro uyg‘unlashgan holda individual ta’lim sifati va o‘quvchining ijodiy faolligini oshirishi mumkin. Integratsiyalashgan yondashuv har bir shaxs potensialini ochishga va ta’lim natijalarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Хусанова М. Ж. Традиционная система «устоз–шогирд» в художественном образовании. – Ташкент: Фан, 2020. – 214 с.
2. Султанов Х.Э. Кластер усули орқали тасвирий санъат таълимини интеграциялаш // Ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – №3. – Б. 50–60.
3. Султанов Х. Э. Педагогические основы кластерного подхода в индивидуальном обучении. – Ташкент: Университет, 2024. – 178 с.
4. Байназарова Н. Х. Technologies for Preparing Future Teachers for Creative Activity // Journal of Pedagogical Innovations. – 2023. – Т. 5, № 2. – С. 45–59.
5. Попов Е. А. Методология исследования искусства: социология, культурология, искусствоведение. – Москва: Наука, 2022. – 320 с.
6. Прокопьев С. Н. Инновационные педагогические модели в художественном образовании // Педагогика и психология искусства. – 2024. – Т. 11, № 1. – С. 78–88.
7. Brown P.; Roediger H. L.; McDaniel M. A. Make It Stick: The Science of Successful Learning. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014. – 336 p.
8. Ates B.; Mamedov R. Digital Technologies Integration in Fine Arts Education // International Journal of Art & Design Education. – 2021. – Vol. 40, No. 3. – P. 526–541.

O‘RGATIB-O‘RGANAMIZ LOYIHASI: USTOZ-SHOGIRD TIZIMI VA TENGDOSHLARARO TA’LIM ASOSIDAGI INNOVATSION YONDASHUV

Sultanov Xaytboy Eralievich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori, p.f.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403549

Annotatsiya. *Mazkur tezisda Chirchiq davlat pedagogika universitetida amalga oshirilgan “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi tajribasi asosida ustoz-shogird an’anasi, tengdoshlar ta’limi (peer teaching) va integratsion ta’lim modellari yoritilgan.*

Shuningdek, milliy va xorijiy tadqiqotlar tahlili asosida ustoz-shogird tizimini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etishning dolzarbligi va samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. *ustoz-shogird tizimi, tengdoshlar ta’limi, integratsiya, innovatsion yondashuv, ijodiy muhit.*

Аннотация. *В данном тезисе на основе опыта реализации проекта «Учимся, обучая» в Чирчикском государственном педагогическом университете раскрыты традиция «устоз-шогирд», обучение сверстников (peer teaching) и модели интеграционного обучения.*

Кроме того, на основе анализа отечественных и зарубежных исследований обоснована актуалност и эффективност внедрения системы «устоз-шогирд» в современный образовательный процесс.

Ключевые слова. *система «мастер-ученик», обучение сверстников, интеграция, инновационный подход, творческая среда.*

Annotation. *This thesis, based on the experience of implementing the “Teaching by Learning” project at Chirchik State Pedagogical University, highlights the ustoz-shogird (master-apprentice) tradition, peer teaching, and integrative learning models.*

Furthermore, the analysis of national and international research substantiates the relevance and effectiveness of introducing the ustoz-shogird system into the modern educational process.

Keywords. *Master–apprentice system, peer teaching, integration, innovative approach, creative environment.*

Kirish

Ta’lim tizimida ustoz-shogird an’anasi hamisha muhim o‘rin tutgan. Tarixan shakllangan ustoz-shogird modeli asrlar davomida o‘z samaradorligini isbotlab kelgan va hanuzgacha AQSh, Rossiya, Turkiya, Yaponiya kabi ko‘plab mamlakatlarda qadrli an’ana sifatida saqlanib qolgan. Biroq bugungi kunda mazkur an’anaviy modelni talaba markazda bo‘lgan yangicha yondashuvlar bilan boyitish zaruriyati tug‘ilmoqda. Zamonaviy pedagogikada ushbu tizim tengdoshlar ta’limi bilan uyg‘unlashtirilib, talabalarda mustaqil izlanish, rahbarlik va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo‘layapti. Masalan, estetik ta’lim borasida olib borilayotgan tadqiqotlarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ijodiy sheriklikka

asoslangan yangi munosabatlar modeli taklif etilmoqda. Xususan, T. Rothlein[76] (2014) o‘z blogida zamonaviy estetik ta’lim konsepsiyasini an’anaviy ustoz-shogird modelidan farqli uslubda ko‘rib, ularni uyg‘unlashtirish imkonini ko‘rsatadi. Prezident farmonlari va ta’limni isloh qilish dasturlarida (PF–4947, PF–5712, PF–6108) belgilanganidek, talabalarni mustaqil fikrlaydigan, ijodiy va raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash jarayonida ustoz-shogird va tengdoshlar ta’limi modellarini joriy etish dolzarb hisoblanadi[77].

Асосий қисм

Chirchiq davlat pedagogika universitetida amalga oshirib kelinayotgan “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi doirasida talabalar orasida ustoz-shogird munosabatlari va tengdoshlar ta’limi (peer teaching) modeli tatbiq etilgan. Bir necha yillar davomida amalga oshirib kelinayotgan ushbu loyiha tamoyili “talaba–talabaga shogird, talaba–talabaga ustoz ” g‘oyasiga asoslangan. Bu loyiha San’atshunoslik fakultetida amaliyotga tatbiq etilib, o‘z natijadorligini ko‘rsatdi. «talabalar ijodiyoti klubi» va uning sektorlari, talabalar rahbarlik qiladigan mini to‘garaklar loyihani amalga oshirishning mexanizmi sifatida ishladi. Talabalar bilganlarini boshqalarga o‘rgatish jarayonida o‘zlaridagi mavjud bilim va ko‘nikmalarini yanada mustahkamladilar, shu bilan birga pedagogik kompetensiyalarni amaliyotda sinovdan o‘tkazdilar. Peer teaching modeli jahon amaliyotida ham keng o‘rganilgan: Nestojko va boshqa mualliflar[78] talabalarning o‘z tengdoshlariga bilim berish jarayoni ularning o‘z bilimlarini ham mustahkamlashini isbotlagan. Koch va boshqalar [79]esa peer teaching talabalarning muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishini ta’kidlaydilar.

O‘zbekiston tajribasida esa ustoz-shogird tizimi milliy pedagogik merosning ajralmas qismi hisoblanadi. Mirzaeva[80] ning ilmiy tadqiqotlarida bu tizim talabalarda kasbga qiziqishni shakllantirish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatilgan. Shu bois ustoz-shogird tizimi va tengdoshlar ta’limi bo‘yicha ChDPU tajribasi milliy an’ana va zamonaviy pedagogik modellarni uyg‘unlashtirgan holda talabalarning ta’lim va ijodiy muhitini boyitishga xizmat qildi.

Muhokama va tahlil

Loyihani amalga oshirishda San’atshunoslik fakultetida tashkil etilgan universitet talabalar akademiyasi qoshidagi talabalar ijodiyoti klubi faoliyati katta rol o‘ynadi. Ushbu klubning «Yosh tadqiqotchilar», «Zakovat ntellektual faoliyat», “Yosh akvarelchilar maktabi”, «Ijodiy to‘garaklar», «Innovatsion tashabbuslar», «Sport», «Matbuot va blogerlik» sektori faoliyati doirasida kasbiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ijodiy hamda tashkiliy yo‘nalishlarda talabalar faollashtirildi. Undan tashqari «Art studio» va «Art taaym» ijodiy o‘quv markazlari, mini to‘garaklar faoliyati ushbu loyiha samaradorligini ta’minladi. Ushbu markazlarda talabalarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirish bilan birga hududdagi umumta’lim maktablaridan 30 nafar o‘quvchilar va 10 ga yaqin mahalla yoshlari ham qamrab olindi. Bu jarayonda talabalar faqatgina nazariy bilimgina emas, balki amaliy ijodiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ldilar. Masalan:

---

[76] Rothlein, T. (2014). Contemplating the Master and Apprentice Model [Blog post]. Retrieved from http://tobinrothlein.com.

[77] Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017; 2029; 2020.

[78] Nestojko, J. F., Bui, D. C., Kornell, N., & Bjork, E. L. (2014). Expecting to teach enhances learning and organization of knowledge in free recall of text passages. Memory & Cognition, 42(7), 1038–1048. https://doi.org/10.3758/s13421-014-0416-z

[79] Koch, A. V. L., Li, S. C., & Lim, S. W. H. (2018). The learning benefits of teaching: A retrieval practice hypothesis. Applied Cognitive Psychology, 32(3), 401–410. https://doi.org/10.1002/acp.3410

[80] Mirzaeva, N. A. (2022). Табиий фанларни ўқитишда педагогик таълим инновацион кластери (Чирчиқ модели) “Эшитдим–кўрдим–бажардим” тамойили методологияси. Research Focus, 1(1), 15–22.

- talabalardagi pedagogika kasbiga qiziqishi yanada oshdi;
- ulardagi mustaqil izlanish va tadqiqot olib borish ko‘nikmalari rivojlandi;
- rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyatlari shakllandi;
- ijodiy muhitda samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalari mustahkamlandi.

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa milliy ta’lim tizimida ustoz-shogird va tengdoshlar ta’limi (peer teaching) modellarini yanada kengroq joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa

ChDPU tajribasi shuni ko‘rsatdiki, ustoz-shogird tizimi va tengdoshlar ta’limi modellarini uyg‘unlashtirish talabalarning kasbiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Bunday modellar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion yondashuv sifatida xizmat qiladi. Kelgusida ushbu tajribani respublika ta’lim muassasalarida kengroq joriy etish, ilmiy tadqiqotlar va grant loyihalarida amaliyotga tatbiq qilish maqsadga muvofiq.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017; 2029; 2020.
2. Koch, A. V. L., Li, S. C., & Lim, S. W. H. (2018). The learning benefits of teaching: A retrieval practice hypothesis. Applied Cognitive Psychology, 32(3), 401–410. https://doi.org/10.1002/acp.3410
3. Mirzaeva, N. A. (2022). Табиий фанларни ўқитишда педагогик таълим инновацион кластери (Чирчиқ модели) “Эшитдим–кўрдим–бажардим” тамойили методологияси. *Research Focus*, *1*(1), 15–22.
4. Nestojko, J. F., Bui, D. C., Kornell, N., & Bjork, E. L. (2014). Expecting to teach enhances learning and organization of knowledge in free recall of text passages. *Memory & Cognition*, *42*(7), 1038–1048. https://doi.org/10.3758/s13421-014-0416-z
5. Rothlein, T. (2014). Contemplating the Master and Apprentice Model [Blog post]. Retrieved from http://tobinrothlein.com.
6. Trowbridge, C. (2009). Master-apprentice traditions in art education.
6. Wikipedia (2025). Peer teaching – umumiy назарий асослар.

TASVIRIY SAN’ATDA KOMPOZITSIYA: NAZARIY ASOSLAR VA IJODIY AHAMIYATI

[1]Maxmudov Mirali Jabbarovich, [2]Tojiboyeva SHoxruza Ulug‘bek qizi
[1]San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi katta o‘qituvchisi,
[2]San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403564

Annotatsiya. *Maqolada tasviriy san’atda kompozitsiyaning o‘rni, uning nazariy asoslari va badiiy ijodda tutgan o‘rni yoritiladi. Kompozitsiyaning estetik ta’sirchanlikni oshirishdagi roli, uning turlari va qonuniyatlari san’at asarlari misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, rassomlik ijodida kompozitsiyaning ijodiy jarayonga ta’siri ham ko‘rsatib beriladi.*
Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, kompozitsiya, mutanosiblik, muvozanat, estetik ta’sir.*

Tasviriy san’at insonning dunyoni obrazli idrok etishi va ifoda etishining eng qadimiy shakllaridan biridir. Har qanday san’at asarining mazmuni va shaklini bir butun qilib bog‘lovchi asosiy tamoyil bu — kompozitsiyadir. “Kompozitsiya” (lotincha compositio — birlashtirish, joylashtirish) tushunchasi san’atshunoslikda asar qismlarining yagona g‘oyaga bo‘ysungan holda uyg‘unlashuvi jarayonini bildiradi.

Kompozitsiyaning mohiyati. Kompozitsiya san’at asarida qismlarning mazmuniy va shakliy uyg‘unligini ta’minlaydi. U asarning g‘oyaviy mazmunini ifodalaydi, obrazlarning o‘zaro aloqasini belgilaydi, tomoshabin e’tiborini zarur markazga qaratadi, badiiy yaxlitlikni yaratadi.Tasviriy san’atda kompozitsiya turlari. Statik kompozitsiya sokinlik, osoyishtalik va barqarorlikni ifodalaydi. Masalan, portret va me’moriy manzaralarda.

Dinamik kompozitsiya harakat, dramatizm va kuchlanishni ifodalaydi. Masalan, jang sahnalari yoki sport obrazlarida. Markaziy kompozitsiya asosiy obraz markazda joylashgan bo‘ladi. Diagonal kompozitsiya keskinlik va harakatni kuchaytiradi. Simmetrik kompozitsiya uyg‘unlik va barqarorlikni aks ettiradi. Assimetrik kompozitsiya kontrast va kuchli ta’sirchanlik yaratadi.

Kompozitsiya qonuniyatlari: Tasviriy san’atda kompozitsiya quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi:

1. Yaxlitlik — asarning barcha qismlari yagona mazmunga xizmat qiladi.
2. Mutanosiblik — shakl va figuralarning o‘zaro nisbatliligi saqlanadi.
3. Markaziy nuqta — tomoshabin nigohini jalb qiluvchi asosiy obraz mavjud bo‘ladi.
4. Muvozanat — asarda bo‘sh va to‘la joylar, yorug‘ va soya, ranglar uyg‘unlashadi.
5. Ritm va takror — obraz elementlarining tartibli takrorlanishi orqali badiiy uyg‘unlik hosil qilinadi.

Kompozitsiyaning estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Kompozitsiya nafaqat san’at asarining ta’sirchanligini oshiradi, balki inson estetik didini tarbiyalaydi. Rassomlikda to‘g‘ri qurilgan kompozitsiya esa obrazning mazmunini ochib beradi. Tomoshabinda chuqur estetik taassurot uyg‘otadi shuningdek yosh avlodni badiiy tafakkur va estetik idrokka o‘rgatadi. Milliy va jahon san’ati boyliklarini chuqur anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda tasviriy san’atda kompozitsiya badiiy ifodaning poydevori hisoblanadi. U asarning mazmunini aniq yetkazish, estetik ta’sirchanlikni kuchaytirish va obrazlarni bir butun yaxlitlikda uyg‘unlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir rassomning

ijodiy yutug‘i, avvalo, kompozitsiya qonunlarini puxta o‘zlashtirish va ularni ijodiy qo‘llashiga bog‘liqdir. Shu bois tasviriy san’atni o‘qitishda kompozitsiya nazariyasi va amaliyotiga alohida e’tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarov S. Tasviriy san’at nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
2. Ashrafiy T. San’atshunoslik asoslari. Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2019.
3. Xalikov A. Kompozitsiya qonunlari va ularni qo‘llash. Toshkent: Fan, 2021.
4. Mirali Jabborovich Maxmudov (2022). KOMPOZITSIYANING TARIXI VA RIVOJLANISHI. Academic research in educational sciences, 3 (12), 403-408.

TASVIRIY SAN’ATDA KOMPOZITSIYA FANINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK –PSIXOLOGIK ASOSLARI

[1]Tursunov Mannon O‘tkir o‘g‘li, [2]Ulashov Shamshodbek Hasan o‘g‘li
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San’atshunoslik fakulteti, Tasviriy san’at yo‘nalishi 2-kurs magistranti , [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San’atshunoslik fakulteti, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403583

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at yo‘nalishida “Kompozitsiya” fanini o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda kompozitsiya o‘qitishning didaktik prinsiplari, psixologik mexanizmlari va ularning talabalarning ijodiy kompetensiyalariga ta’siri o‘rganiladi. Maqola bo‘lajak san’at pedagoglarini tayyorlashda samarali yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.*
Kalit so‘zlar: *kompozitsiya, pedagogik metodlar, psixologik yondashuv, ijodiy tafakkur, o‘zbek san’ati.*

Аннотация. *Настоящая статья посвящена анализу педагогических и психологических основ преподавания дисциплины «Композиция» по направлению изобразительного искусства в высших учебных заведениях Узбекистана. В исследовании рассматриваются дидактические принципы преподавания композиции, психологические механизмы и их влияние на творческие компетенции студентов. Статья способствует внедрению эффективных подходов в подготовке будущих педагогов искусства.*
Ключевые слова: *Композиция, педагогические методы, психологический подход, творческое мышление, узбекское искусство.*

Annotation. *This article is devoted to the analysis of pedagogical and psychological foundations of teaching the "Composition" course in the visual arts direction at higher education institutions in Uzbekistan. The study examines the didactic principles of teaching composition, psychological mechanisms, and their impact on students' creative competencies. The article contributes to the implementation of effective approaches in preparing future art educators.*
Keywords: *Composition, pedagogical methods, psychological approach, creative thinking, Uzbek art.*

Tasviriy san’at ta’limi O‘zbekistonning oliy pedagogik ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. “Kompozitsiya” fani bu jarayonda markaziy rol o‘ynaydi, chunki u talabalarga nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki ijodiy tafakkur, estetik idrok va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu fan orqali talabalar asarning tuzilishini, elementlar munosabatini va g‘oyaviy ma’noni o‘rganib, o‘z ijodlarida milliy va zamonaviy elementlarni uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar. Biroq, O‘zbekistonda kompozitsiya o‘qitishda an’anaviy metodlar ustunlik qiladi, bu esa innovatsion va psixologik yondashuvlarning yetishmasligiga olib keladi. Natijada, talabalarning ijodiy salohiyati to‘liq rivojlanmaydi, bu esa ta’lim sifatiga ta’sir qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ta’limiy islohatlar ham ayni muammolarni bartaraf etishga qaratilmoqda. Jumladan, 2019-yil 8 - oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 5847 - sonli prezident farmoni[81]da ta’lim jarayonini zamonaviy metodlar va innovatsion texnologiyalar bilan boyitishni, shuningdek, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi yangi dasturni joriy etishni ko‘zda tutadi Ushbu maqoladan ko‘zlangan maqsad kompozitsiya fanini o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslarini tahlil qilib, samarali metodlarni taklif etish, mashhur o‘zbek rassomlari asarlariga asoslangan milliy san’at an’analari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar (raqamli dasturlar) integratsiyasi orqali oliy ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llarini ko‘rib chiqishdan iborat. Natijada, mazkur ishning ahamiyati ortmoqda, chunki u ta’limdagi ijodiy jarayonni psixologik va pedagogik jihatdan bog‘lab, talabalarning g‘oyaviy o‘sishini ta’minlaydi.

Kompozitsiya fanini o‘qitishning pedagogik asoslari didaktika va zamonaviy ta’lim nazariyalariga tayanadi, xususan, oliy ta’limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida talabalarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga qaratilgan. Asosiy printsiplar, bosqichma-bosqich rivojlantirish, nazariy bilimlardan amaliy ko‘nikmalarga o‘tish, bu jarayon talabalarning ijodiy tafakkurini mantiqiy ravishda rivojlantiradi. O‘qitish jarayoni talabalarning yosh va tajriba xususiyatlariga moslashtirilishi kerak. Masalan, bakalavriatda oddiy shakllar (geometrik shakillar) dan boshlab ishlash va asosiy qonunlarni o‘rganish, keyingi bosqichlarda esa murakkab kompozitsiyalar yaratish talab etiladi. Bu yondashuv talabalarning mustaqil tadqiqot qilish qobiliyatini rivojlantirib, g‘oyaviy chuqurlikni oshiradi.

Didaktik vazifalar uch guruhga bo‘linadi, ular talabalarning ijodiy jarayonini mantiqiy bog‘laydi.

Bilim berish, kompozitsiya qonunlari (oltin kesim, muvozanat, retim, markazlashuv)ni o‘rgatish, shu bilan talabalarga nazariy asos berish va ularning fikrlashini tizimli qilishdan iborat.

Malaka shakllantirish, eskiz chizish, natyurmort, manzara va boshqa janirlarda kompozitsiyalar yaratish orqali amaliy ko‘nikmalar va talabalar tadqiqot loyihalari orqali g‘oyaviy integratsiyalarni amalga oshirish.

Tarbiya, Estetik qadriyatlar va milliy san’at an’analarini singdirish, bu orqali talabalarning kasbiy etikasi va ijodiy motivatsiyasi shakllanadi.

O‘qituvchilik sifati oliy ta’limda hal qiluvchi omil hisoblanadi. U pedagogik mahoratga ega bo‘lib, talabalarni rag‘batlantirishi va shaffof baholash mezonlarini qo‘llashi kerak. Masalan, baholash rubrikasi ijodkorlik (40%), texnika (30%), g‘oya va tadqiqiy chuqurlik (30%) bo‘lishi mumkin. Bu talabalarning o‘sishini rag‘batlantiradi va adolatli baholashni ta’minlaydi.

Pedagogik yondashuvda integratsiya muhim ahamiyatga ega, chunki u pedagogik va psixologik asoslarni uzviy bog‘lab, talabalarning yaxlit ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kompozitsiyani nafaqat tasviriy san’at sohasi bilan cheklanmay, balki tarix, psixologiya, musiqa, arxitektura, adabiyot, geografiya, sotsiologiya va boshqa ko‘plab fanlar bilan bog‘lash orqali talabalar milliy va xalqaro rassomlar asarlarini chuqur tahlil qilib, o‘zlarining yangi ijodiy namunalari va loyihalarini yaratadilar. Bu jarayon talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, ularni turli fanlar orasidagi bog‘lanishlarni anglashga o‘rgatadi, natijada ularning dunyoqarashi kengayadi va amaliy qo‘llash qobiliyati ortadi. Masalan, mashhur o‘zbek va markaziy osiyolik rassomlaridan O‘rol Tansiqboyev manzaralari, Bahodir Jalolov tarixiy asarlari, A. Abdullayiv, M. Saidov, P. Benkov, A. Mamajonov, N. Qo‘ziboviv, A. Aliqulov ijod namunalari va qolaversa mahobatli rangtasvir ustasi Mirali Maxmudovning tarixiy kompozitsiya asarlarini tahlil qilish orqali talabalar O‘rta Osiyo voqealari tasviri, ijtimoiy

[81] https://lex.uz/docs/-4545884.

o‘zgarishlar, milliy identifikatsiya, sotsiologik nuqtai nazardan jamiyatning madaniy taraqqiyoti, arxitekturadagi muvozanat va proporsiya tamoyillari, o‘rganadilar. Portretlarda shaxsiy his-tuyg‘ular va ruhiy holatlar chuqur ifodalangan bo‘lib, talabalar psixologik ta’sirni, masalan, ranglar va yuz ifodalari orqali his etishni o‘rganadilar. Manzara asarlari orqali geografik xususiyatlar, tabiiy muhit va ekologik muvozanatni ko‘rish mumkin. Talabalar bu asarlar orqali iqlim, landshaft va inson-tabiat munosabatlarini o‘rganadilar, bu esa ekologik ongni rivojlantiradi. Ushbu integratsiya nafaqat talabalarning ijodiy qobiliyatini oshiradi, balki san’atni ko‘p qirrali fanlar orqali o‘rganishga yordam beradi, bu esa zamonaviy ta’limda muhimdir.

Kompozitsiya, o‘qitishning psixologik asoslari talabalarning idrok, xayol va emotsional jarayonlarini faollashtirishga qaratilgan. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra ta’lim, ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali sodir bo‘ladi. Guruhli mashqlar talabalarni bir-biridan o‘rganishga undaydi, bu esa ijodiy jarayonni kuchaytiradi. Masalan, talabalar bir-birining eskizlarini tahlil qilib, o‘z g‘oyalarini rivojlantiradilar.

Psixologik xususiyatlar yoshga qarab farqlanib, bolalarda oddiy shakllar (doira, kvadrat) bilan ishlash osonroq bo‘lsa, o‘smirlarda murakkab g‘oyalar rivojlantiriladi. Dars mobaynida o‘qituvchi talabalarning psixologik holatini hisobga olshi va stressni kamaytirishi kerak bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy faoliyat qo‘rquvni keltirib chiqarishi mumkin, ammo o‘qituvchi tomonidan berilgan ijobiy fikr, mulohazalar va qo‘llab-quvvatlash bu muammoni hal qiladi.

Idrok jarayoni kompozitsiya o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi. Idrok ob’ektni butun holda aks ettirish bo‘lib, unda emotsional ta’sir va ma’nolilik xususiyatlari mavjud. Kompozitsiya darslarida talabalar shakl, rang va chiziqlarni tahlil qilib, estetik idrokni rivojlantiradilar. Masalan, o‘zbek suzani naqshlaridagi simmetriya o‘quvchida muvozanat hissi yaratadi, bu ularning emotsional holatini barqarorlashtiradi. H. Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasiga ko‘ra, ijodkorlik o‘yin orqali rivojlanadi. O‘qitish jarayonida o‘yinli mashqlar integrativ yondashuv asosida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, “Raqamli kompozitsiya o‘yini” deb nomlangan mashqni joriy etish mumkin. talabalar mobil ilovalar yordamida mashhur rassomlar asarlari elementlarini real vaqt rejimida o‘z fotosuratlari yoki video sahnasiga joylashtiradilar va guruh oldida bu “virtual galereya”ni taqdim etib, tarixiy, psixologik, ekologik va boshqa jihatlarni muhokama qiladilar. Masalan, Tansiqboyevning tog‘li manzaralarini zamonaviy shahar muhitiga bilan bog‘lash orqali yangi manzara kompozitsiya yaratish mumkin.

O‘zbek kontekstida milliy san’at psixologik idrokni boyitadi ya’ni milliy san’at kompozitsiya namunalarimiz talabalarda tinchlik va o‘zligini anglash hissi uyg‘otadi. Art-terapiya elementlari, masalan, erkin chizish sessiyalari, talabalarning stressini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi va guruhli loyihalarda ham talabalar o‘zaro maslahatlashib, ijodiy g‘oyalarni rivojlantiradilar, bu oliy ta’limning ilmiy muhokamalariga mos kelib, psixologik va pedagogik asoslarni g‘oyaviy jihatdan birlashtiradi.

Pedagogik va psixologik asoslarning integratsiyasi kompozitsiya o‘qitishni yanada samarali qiladi. Masalan, loyihaviy ishlar talabalarning idrokini faollashtiradi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mashhur rassomlar asarlariga asoslangan psixologik metodlar talabalarning motivatsiyasini yanada kuchaytirib, g‘oyaviy yituklikni ta’minlaydi.

Maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at yo‘nalishida “Kompozitsiya” fanini o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompozitsiya fani talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi, chunki u nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki estetik idrok va g‘oyaviy

chuqurlikni shakllantiradi. Pedagogik metodlar bosqichma-bosqich rivojlantirish va integratsiya printsipiga asoslanib, didaktik vazifalarni (bilim berish, malaka shakllantirish va tarbiya) mantiqiy bog‘laydi. Masalan, oltin kesim, muvozanat va ritm kabi qonunlarni o‘rgatish orqali talabalar o‘zbek san’ati an’analariga asoslangan loyihalarni yaratishni o‘rganadilar. Bu jarayon o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi roli va shaffof baholash orqali talabalarning o‘sishini ta’minlaydi.

Psixologik yondashuv esa talabalarning idrok va emotsional jarayonlarini faollashtirishga qaratilgan bo‘lib, Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, guruhli mashqlar va o‘yinli usullar (masalan, raqamli kompozitsiya o‘yini) orqali ijtimoiy o‘zaro ta’sirni kuchaytiradi. O‘zbek san’ati namunalari, xususan, O‘rol Tansiqboyevning manzaralari va Bahodir Jalolovning tarixiy asarlari tahlili talabalarda muvozanat va o‘zlik hissi uyg‘otib, stressni kamaytiradi va art-terapiya elementlarini integratsiya qiladi. Ushbu integratsiya talabalarning ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshiradi, chunki pedagogik metodlar psixologik mexanizmlarni (idrok, xayol) g‘oyaviy jihatdan birlashtiradi.

Natijada, mazkur tadqiqot kompozitsiya o‘qitishni zamonaviy pedagogik metodlar va psixologik yondashuvlar orqali takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatdi, bu O‘zbekiston ta’lim islohotlariga mos keladi. Kelajakda raqamli texnologiyalarning psixologik ta’sirini eksperimental o‘rganish va ko‘proq milliy rassomlar ijodini integratsiya qilish orqali bo‘lajak san’at pedagoglarining tayyorgarligini yanada yaxshilash mumkin. Ushbu yondashuv o‘zbek san’ati an’analarini saqlab, ijodiy tafakkurni global darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sultanov X.E. Tasviriy san’at kompozitsiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Yangi chirchiq book, 2023. – 124 b.
2. X.E. Sultanov, S.T. Sobirov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.:ZEBO PRINT, 2021. – 166 b.
3. M.J. Maxmudov. Kompozitsiya . O‘quv qo‘llanma. T.: Yangi chirchiq book, 2023. – 136 b.
4. Sh, I. U. Rajabov Sh. Z, Tursunov M. U, Tasviriy san‟ at darslarida grafik materiallarda ishlash texnologiyalari. “Tasviriy san‟ at va muhandislik grafikasi fanlarini boshqa fanlar bilan integratsiyalashning muammolari va yechimlari” mavzusida Xalqaro miqyosida ilmiy-texnik anjumanining Ma’ruzalar to‘plami, Andijon–2020 y, 287.
5. Nasritdinova, U., Sultonov, X., Muratov, H., Ankabaev, R., Ismatov, U., & Abdumajitov, A. (2024). Application of geoinformation systems in the agricultural complex. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 105, p. 03005). EDP Sciences.
6. U.Sh.Ismatov, M.O‘.Tursunov., Rassom hayoti va ijodi. O‘zbekiston tasviriy san’ati rivojida Ro‘zi Choriyev ijodining o‘rni va ahamiyati Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Termiz-2021.
7. Muratov, X. X. (2021). Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o‘qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi. *Academic research in educational sciences*, *2*(1), 1130-1136.
8. Muratov, X. X. (2020). Qalamtasvir. *Toshkent Ijod-print*.
9. Sobirov S.T. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Darslik. T.:ZEBO PRINT, 2025. – 332 b.

TAPPLYING DESIGN THINKING AS AN INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACH IN HIGHER PEDAGOGICAL VISUAL ARTS EDUCATION

Wan Jiayi
Master student, Belarusian State University of Culture and Arts
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403602

Abstract. *In the context of modernizing higher pedagogical education, innovative teaching methodologies are essential to prepare future art teachers for the complexities of the 21st-century creative landscape. This paper proposes the integration of Design Thinking—a human-centered, iterative problem-solving methodology—into the visual arts curriculum of pedagogical universities. Drawing on the author's research on creative project management, this paper argues that Design Thinking transcends its origins in management and offers a powerful pedagogical framework that fosters empathy, collaboration, and creative confidence among student-teachers. By structuring art projects around the five stages of Design Thinking (Empathize, Define, Ideate, Prototype, Test), educators can shift from a product-oriented to a process-oriented learning model. This approach not only enhances students' artistic skills but also cultivates critical soft skills such as user-centered design, adaptability, and reflective practice—competencies vital for future educators in a rapidly evolving cultural environment.*

Keywords: *design thinking, higher pedagogical education, visual arts education, innovative teaching methods, creative project management, empathy in art.*

Хулоса: *Oliy pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida bo'lajak san'at o'qituvchilarini 21-asr ijodiy landshaftining murakkabliklariga tayyorlash uchun innovatsion o'qitish metodikalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola dizayn tafakkurini—insonga yo'naltirilgan, takrorlanadigan muammolarni hal qilish metodologiyasini pedagogika universitetlarining tasviriy san'at o'quv dasturiga kiritishni taklif qiladi. Muallifning ijodiy loyihalarni boshqarish bo'yicha tadqiqotlariga asoslanib, ushbu maqolada dizayn tafakkuri menejmentdan kelib chiqadi va talaba-o'qituvchilar o'rtasida hamdardlik, hamkorlik va ijodiy ishonchni kuchaytiradigan kuchli pedagogik asosni taklif etadi. Dizayn fikrlashning besh bosqichi (empatiya, aniqlash, g'oya, prototip, sinov) atrofida badiiy loyihalarni tuzish orqali o'qituvchilar mahsulotga yo'n altirilgan ta'lim modeliga o'tishlari mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat talabalarning badiiy mahoratini oshiradi, balki tez rivojlanayotgan madaniy muhitda bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim bo'lgan foydalanuvchiga yo'naltirilgan dizayn, moslashuvchanlik va aks ettiruvchi amaliyot kabi tanqidiy yumshoq ko'nikmalarni rivojlantiradi.*

Калит сўзлар: *Dizayn tafakkuri, oliy pedagogik ta'lim, tasviriy san'at ta'limi, o'qitishning innovatsion usullari, ijodiy loyihalarni boshqarish, san'atdagi empatiya.*

Аннотация: *В контексте модернизации высшего педагогического образования инновационные методики преподавания необходимы для подготовки будущих учителей изобразительного искусства к сложностям творческого ландшафта 21 века. В этой статье предлагается интегрировать дизайн—мышление - ориентированную на человека методологию итеративного решения проблем - в учебные программы по изобразительному искусству в педагогических университетах. Основываясь на исследованиях автора по управлению творческими проектами, в этой статье*

утверждается, что дизайн-мышление выходит за рамки менеджмента и предлагает мощную педагогическую основу, способствующую развитию эмпатии, сотрудничества и творческой уверенности между студентами и преподавателями. Структурируя художественные проекты вокруг пяти этапов дизайн-мышления (сопереживание, Определение, Идея, прототип, тестирование), преподаватели могут перейти от модели обучения, ориентированной на продукт, к модели обучения, ориентированной на процесс. Такой подход не только развивает художественные навыки студентов, но и развивает такие важные навыки, как ориентированный на пользователя дизайн, адаптивность и рефлексивная практика - компетенции, жизненно важные для будущих педагогов в быстро меняющейся культурной среде.

Ключевые слова: *Дизайн-мышление, высшее педагогическое образование, изобразительное искусство, инновационные методы обучения, управление творческими проектами, эмпатия в искусстве.*

Traditional visual arts education in pedagogical institutions often emphasizes technical skill acquisition and aesthetic theory, sometimes at the expense of developing students' capacity for creative problem-solving, audience engagement, and social responsiveness. However, as the author's dissertation highlights, "Design Thinking is a creative, human-centered problem-solving process" that can fundamentally reshape how creative work is conceived and executed [1, p. 40]. In the context of teacher training, this methodology offers more than a project management tool—it provides a pedagogical philosophy that prepares future art educators to design meaningful, inclusive, and innovative learning experiences for their future students.

This paper contends that integrating Design Thinking into the core curriculum of visual arts pedagogy programs aligns directly with the conference's focus on "zamonaviy yondashuv" (modern approaches) and "STAEM" integration in art education. It bridges the gap between artistic creation and real-world educational practice.

Design Thinking is characterized by five iterative stages: Empathy, Defining the problem, Ideation, Prototyping, and Testing [1, p. 49]. While rooted in design and business, its principles resonate deeply with established educational theories.

First, it aligns with constructivist learning theory (Piaget, Vygotsky), which posits that learners construct knowledge through active experience and social interaction. Design Thinking's emphasis on user research, collaboration, and iterative feedback creates a dynamic learning environment where students co-construct understanding through doing.

Second, it embodies experiential learning (Kolb), where knowledge is created through the transformation of experience. Each stage of Design Thinking—from empathetic interviews to prototype testing—provides concrete experiences that students reflect upon, conceptualize, and apply in new contexts.

As Brown (2009) asserts, Design Thinking in education "encourages students to tackle ambiguous problems through experimentation and collaboration," making it ideal for preparing adaptive, socially engaged educators [2, p. 45]. Similarly, Cross (2001) emphasizes that "designers think differently—they frame problems, generate alternatives, and test solutions in cycles of reflection," a mindset equally valuable in teaching and artistic practice [3, p. 88].

A practical implementation could be a semester-long course titled "Designing Community-Centered Art Lessons." The course would guide student-teachers through the following phases:

Empathize: Students conduct fieldwork—interviewing schoolchildren, observing art classes, or engaging with local community members—to understand their cultural backgrounds, emotional needs, and artistic interests.

Define: Synthesizing insights, students formulate a human-centered problem statement (e.g., "How might we use collage art to help 5th graders express their identity in a multicultural classroom?").

Ideate: In collaborative workshops, students brainstorm diverse lesson plans, materials, and assessment strategies, deferring judgment to encourage creative risk-taking.

Prototype: Students develop low-fidelity lesson plans or sample student artworks, which they present to peers or mentor teachers for feedback.

Test: Selected lessons are piloted in local schools or simulated classrooms, with student-teachers collecting feedback from pupils and reflecting on pedagogical effectiveness.

As noted in the original research, prototyping "allows you to test key features and get user feedback" early and often [1, p. 50]. In this context, the "user" is the K–12 student, and the "product" is the art lesson—turning future teachers into empathetic, responsive educators.

Integrating Design Thinking into pedagogical art education yields multiple benefits:

Enhanced Empathy: Student-teachers learn to design lessons that respond to real student needs, not just curriculum standards.

Creative Confidence: The iterative process normalizes failure as part of learning, reducing fear of experimentation.

Interdisciplinary Alignment: Projects can integrate history, literature, or environmental science, supporting the conference's "STAEM" direction.

Professional Readiness: Graduates enter the workforce equipped with modern, student-centered methodologies that align with global educational trends.

Moreover, this approach fosters reflective practice—a cornerstone of professional teaching. By continuously testing and refining their ideas, student-teachers develop the metacognitive skills needed to adapt to diverse classroom contexts.

Conclusion

Design Thinking is not merely a managerial innovation but a transformative pedagogical strategy for 21st-century art teacher education. By placing empathy and iteration at the heart of the creative process, it prepares future educators to be not just skilled artists, but also innovative, socially conscious, and adaptive professionals. As the dissertation concludes, Design Thinking is "not only a tool but also a philosophy that puts people at the center of the innovation process" [1, p. 40]—a philosophy that is as vital in the school art room as it is in the professional studio. Its adoption in higher pedagogical institutions represents a significant step toward modernizing visual arts education in line with both national reform goals and global best practices.

LIST OF SOURCES USED

1. Sodiqov, K. I. (2025). *Innovations in Management of Visual Art Projects*. Dissertation manuscript, pp. 40–50..
2. Brown, T. (2009). *Change by Design: How Design Thinking Transforms Organizations and Inspires Innovation*. Harper Business.
3. Cross, N. (2001). Design Thinking: Understanding How Designers Think and Work. Berg Publishers.

PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI MAKTAB AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING DOLZARB MASALALARI

Xatamjonov Islombek Xusnidin o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403610

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik texnologiyaning ahamiyati, uni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish zarurati va ilmiy asosda qo‘llash masalalari yoritilgan. An’anaviy usullarning takomillashuvi, zamonaviy texnologik yondashuvlar va o‘quvchilarning faolligini oshirishdagi roli tahlil etiladi. Muallif pedagogik texnologiyalarni maktab ta’limi sifatini oshirishdagi vosita sifatida baholaydi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiya, zamonaviy ta’lim, innovatsion metod, ta’lim sifati, o‘quv jarayoni, o‘qitish metodikasi, fan o‘qituvchisi, raqobatbardosh kadrlar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значимость педагогических технологий, необходимость их эффективного внедрения в образовательный процесс и вопросы научно обоснованного применения. Анализируются совершенствование традиционных методов, современные технологические подходы и их роль в повышении активности учащихся. Автор оценивает педагогические технологии как средство повышения качества школьного образования.*

Ключевые слова: *педагогическая технология, современное образование, инновационный метод, качество образования, учебный процесс, методика преподавания, учитель предметник, конкурентоспособные кадры.*

Abstract. *This article highlights the importance of pedagogical technologies, the necessity of their effective implementation in the educational process, and issues related to their scientific application. It analyzes the improvement of traditional methods, modern technological approaches, and their role in increasing students’ engagement. The author evaluates pedagogical technologies as a means to enhance the quality of school education.*

Keywords: *pedagogical technology, modern education, innovative method, quality of education, learning process, teaching methodology, subject teacher, competitive personnel.*

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar kirib bormagan sohani topish qiyin. Ular insoniyat faoliyatining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Shu jihatdan, "texnologiya" tushunchasining mazmun-mohiyati, tarixiy shakllanishi va zamonaviy qo‘llanilish doirasi haqida ilmiy asoslangan tahlil zaruriyatga aylandi.

"Texnologiya" atamasi ilk bor qadimgi yunon tilida vujudga kelgan bo‘lib, u ikki asosiy so‘zdan: "techne" (μαστος – mahorat, hunar, san’at) va "logos" (λόγος – ta’limot, fan, qonuniyat) iborat. Bu atama dastlab “hunar fani” yoki “texnika fani” ma’nolarida ishlatilgan. Vaqt o‘tishi bilan bu tushuncha yanada keng ma’noda qo‘llanila boshladi – inson faoliyatining har qanday sohasida bilim va ko‘nikmalarga asoslangan harakatlar majmuasini anglatadigan fanga aylanishi kuzatildi.

XIX asrga kelib, sanoat inqilobi va ishlab chiqarish tizimlarining jadal rivojlanishi natijasida texnologiya maxsus amaliyot sohasi sifatida ajralib chiqdi. Jumladan, 1872-yildan boshlab “texnologiya” tushunchasi ishlab chiqarishdagi samarali jarayonlarni tashkil etishga oid

fan sifatida rasmiy ravishda qo‘llanila boshlandi. Bu jarayon, ayniqsa, XIX–XX asrlar mobaynida ancha keng tus oldi. Jamiyatda texnika va texnologiyalarning takomillashuvi, hayot tarzi, turmush madaniyatining tubdan o‘zgarishi, yangicha estetik qarashlarning shakllanishi bu tushunchaning amaliy va nazariy doirasini yanada boyitdi.

Zamonaviy dizayn san’ati, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar – barchasi texnologik yondashuvga asoslanadi. Endilikda “texnologiya” nafaqat ishlab chiqarish tizimlariga, balki ta’lim, san’at, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar kabi gumanitar sohalarga ham faol kirib bormoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishda beqiyos imkoniyatlar yaratmoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda “texnologiya” fani – bu faqat mexanik yoki texnik vositalarning yig‘indisi emas, balki faoliyatni ilmiy asoslangan, samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodik va tizimli yondashuvlar majmuasidir. Innovatsion texnologiyalar esa ushbu yondashuvlarning zamonaviy shakli bo‘lib, ularni inson intellektual salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish vositasi sifatida talqin qilish mumkin.

Texnologiya – bu ishlab chiqarish, boshqaruv, ijodiy yoki ilmiy faoliyat jarayonlarini samarali tashkil etish, ularni modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlar bilan boyitish tizimidir. U insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan aniq uslub va metodlarning amaliy majmuasi sifatida faoliyat yuritadi. Zamonaviy ilmiy-nazariy manbalarda texnologiyaga quyidagi tarkibiy unsurlar kiradi: loyihaviy yechimlar, konstruktiv modellar, texnik va dizaynerlik chizmalar, grafik tasvirlar, standartlashtirilgan metodlar, me’yorlar, texnik-texnologik talablar va dasturiy ta’minot elementlari.

Texnologiyaning mohiyati shundaki, u faqatgina ishlab chiqarish vositalarini emas, balki ularni amalga oshirishga oid metodologiyani ham o‘z ichiga oladi. Har bir texnologik tizim ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, samaradorlik, tejamkorlik va funksionallik mezonlariga tayangan holda shakllantiriladi. Shuning uchun texnologiyaning asosiy vazifasi – mavjud resurslardan oqilona foydalangan holda qisqa vaqt ichida yuqori sifatli mahsulot yoki xizmat yaratish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Texnologiya o‘zining qo‘llanish sohasi va amaliy yo‘nalishiga ko‘ra turli sohalarga ajraladi. U quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi:

- Materialshunoslik texnologiyasi – materiallarning fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilish va ularga ishlov berish;
- Mashinasozlik va qurilish texnologiyasi – texnik konstruksiyalar, mexanizmlar va inshootlar ishlab chiqish;
- Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi – ekinlar, hayvonot va resurslarni unumli boshqarish usullari;
- Fan, san’at, maorif va madaniyat texnologiyalari – ilmiy, estetik va didaktik faoliyatni yuqori samaradorlikda tashkil qilish usullari.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, texnologiyaning har bir sohaga kirib borishi mazkur sohaning ichki tuzilishini yangilaydi, ishlab chiqarish yoki ta’lim jarayonini optimallashtiradi va uning mahsuldorligini oshiradi. Natijada zamonaviy talablarga javob beradigan, funksional va raqobatbardosh mahsulotlar yoki xizmatlar vujudga keladi.

Texnologiyaning ilmiy asosi – bu uning jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq holda doimiy o‘zgarishi, takomillashuvi va zamon talablariga mos ravishda yangilanib borishidir. Innovatsion g‘oyalar asosida shakllangan texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish tizimini, balki xalq

xo‘jaligi, ilm-fan, san’at, ta’lim, ma’naviyat va madaniyat kabi ijtimoiy hayotning barcha yo‘nalishlarini tubdan o‘zgartirish imkonini beradi. Texnologiyaning bunday universal xususiyati uni XXI asrning eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biriga aylantirgan.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni, raqamli transformatsiya va ilm-fanning tez sur’atlarda rivojlanishi tufayli jamiyatning barcha tarmoqlari, jumladan, ishlab chiqarish, fan, san’at va madaniyat sohalari tubdan yangilanmoqda. Bu jarayon o‘z navbatida har bir soha uchun yangicha texnologik yondashuvlarni, zamonaviy boshqaruv tizimlarini va innovatsion metodlarni joriy etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, mamlakatning barqaror taraqqiyoti, raqobatbardosh iqtisodiyot va ma’naviy yetuk jamiyat qurilishi uchun ta’lim tizimini zamon talablari asosida isloh qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham mustaqillikning ilk yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya, ilm-fan va ma’naviyat sohalarini tubdan yangilash, xalq ta’limi tizimini ilg‘or pedagogik tizim asosida qayta tashkil etish bo‘yicha keng qamrovli davlat dasturlari va huquqiy-hujjatlar qabul qilindi. Bu islohotlar doirasida ta’lim jarayoniga yangi avlod pedagogik texnologiyalarini tatbiq etish – o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, ijodiy fikrlovchi mutaxassislar tayyorlash kabi strategik maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Ta’lim tizimining hozirgi holati esa ayrim jihatlarda xalq ta’limi oldida turgan zamonaviy vazifalarni to‘laqonli bajarishga qodir emasligi bilan izohlanadi. Shu boisdan, ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ularni amaliyotga samarali tadbiq etish dolzarb ehtiyojga aylangan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi, aslida, XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo‘lib, bu masalada turli mamlakatlar – AQSh, Angliya, Yaponiya, Italiya, Polsha, Vengriya va Rossiya kabi ilg‘or davlatlarda yetakchi pedagog olimlar tomonidan chuqur tadqiqotlar olib borilgan. Ular pedagogik texnologiyaning mohiyati, tamoyillari, amaliy qo‘llanilishi va ta’limga ta’sir mexanizmlarini har tomonlama o‘rgangan holda, uning ilmiy asoslarini shakllantirishga katta hissa qo‘shganlar.

Pedagogik texnologiya – bu ta’lim jarayonining aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan, puxta loyihalashtirilgan, ilmiy asoslangan, nazorat qilinadigan va baholanishi mumkin bo‘lgan metodik tizimidir. U o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini samarali tashkil qilish, natijadorlikka erishish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy ustunliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlaydi;
- Mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan uyg‘unlashtirilgan integratsiyalashgan yondashuvlar orqali o‘qitish sifatini oshiradi;
- Nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, ta’lim sohasida texnologik yondashuvni takomillashtirish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki umuman olganda, jamiyatning intellektual salohiyati, ilmiy-innovatsion imkoniyatlari va ma’naviy kamoloti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Hozirgi kunga kelib, dunyo bo‘yicha pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Aksariyat mamlakatlar o‘z ta’lim tizimidagi fanlarni o‘qitishda mavjud an’anaviy metodik yondashuvlarni yangilash va takomillashtirish yo‘lida

izchil harakat qilmoqda. Bu esa jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida ta’limga qo‘yilayotgan yangi talablar bilan bevosita bog‘liqdir.

Shu sababli pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘rganish, ilmiy jihatdan asoslangan ta’rifini ishlab chiqish, ularni takomillashtirib, maktab ta’limi amaliyotiga tatbiq etish – zamonaviy ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog olimlar va amaliyotchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, ilg‘or va jadal rivojlanayotgan davlatlar maktablarida o‘qitilayotgan har bir fan uchun zamonaviy, samarali va innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta’lim tizimini zamonaviylashtirish, uni ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish, o‘qitishning samarali va innovatsion shakllarini joriy etish dolzarb masalaga aylangan. Xususan, ilg‘or mamlakatlar pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘rganish, ularni amaliyotga joriy etish va mavjud an’anaviy metodikalarni yangilash orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga intilmoqda. Bu holat zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ta’lim oldiga qo‘ygan asosiy talablaridan biri bo‘lib, har bir o‘qituvchi, pedagog olim va metodist mutaxassisdan yangicha yondashuv, doimiy izlanish va yuqori mas’uliyatni talab qiladi.

Pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘rganish, tahlil qilish, ularning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash hamda o‘quv jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda mustahkam bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish mumkin bo‘ladi. Shu bois, har bir o‘quv fani uchun mos keladigan o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni takomillashtirish va ta’lim muassasalarida qo‘llash zamonaviy o‘qituvchining ustuvor vazifasiga aylangan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, pedagogik texnologiyani amaliyotga keng joriy etish orqali nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasi oshadi, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va hal etish ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Natijada ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlar yuz beradi, zamonaviy jamiyat talablariga mos bilimli, ijtimoiy faol va barkamol avlod tarbiyalanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004.
2. B.N.Oripov. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi ya metodikasi. Toshkent, “ILM ZIYO”, 2013.
3. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. T., 2004.
4. Хайров Р. З., Султанов А. А. ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД К УЧЕНИКАМ НА УРОКАХ ИСКУССТВА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА // Символ науки. 2020. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/individualnyy-podhod-k-uchenikam-na-urokah-iskusstva-v-shkolah-uzbekistana.
5. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677.
6. Ibadullaeva , Z. ., & Jumaboev , N. . (2025). UZBEK NATIONAL ART AND ITS SCHOOLS. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 2(2), 127–130. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/yoitj/article/view/68532.
7. Pardaboyevich J.N. O‘QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING O ‘RNI //WORLD OF SCIENCE. – 2023. – T. 6. – C. 87-90.
8. Jumaboev Nabi Pardaboevich. (2025). BEAUTY AND MORAL EDUCATION IN

EASTERN PEDAGOGY: OPPORTUNITIES FOR APPLICATION IN THE PROCESS OF ARTISTIC EDUCATION. IQRO INDEXING, 16(01), 170-172. https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/12671.

9. Pardaboevich J. N. THE APPLICATION OF EASTERN PHILOSOPHICAL AESTHETIC CONCEPTS IN ARTISTIC EDUCATION AND THEIR INTERPRETATION IN PEDAGOGICAL RESEARCH //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2025. – Т. 14. – №. 01. – С. 218-222.
10. Курбанов, Э. (2022). Размеры демократии в современное время. Общество и инновации, 3(3/S), 286-291.
11. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – Т. 5. – №. 02. – С. 48-58.
12. Inoyatov O.S. Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish masalalarini ifodalashga metodik yondashuv// Inter education & global study. 2025. №6. B.256-269.
13. Имомов F. . (2025). CHIZMACHILIK FANINING O‘QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJIGA TA’SIRI. Свет науки, (10(45). извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/102914.
14. Khojamkulov, R. (2024). THE IMPORTANCE OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCES OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(5). https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N57.

TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITISHDA KOMPETENSIYA VA KOMPITENTLIKNING AHAMIYATI

Xo‘jaqulov Ro‘zibek Ilxomjon o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti, San’atshunoslik kafedrasi magistranti,
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403618

Annotatsiya. *Maqolada kompitensiya va kompitentlik tushunchalari haqida so‘z boradi. T’alim tizimida kompetensiyaning ahamiyati, ayniqsa tasviriy san’atni o‘qitishda kompitentlikning juda katta ahamiyatga ega ekani to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. O‘qtuvchilarning yangi innavatsion metodlarni joriy etib, darslarni samarali va qiziqarli olib borishi to‘g‘risida bir qancha fikrlar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Kompitensiya, kompitentlik, kreativ, tarixiy , milliy , qadriyatlar, bilimdonlik.*

Аннотация. *В статье рассматриваются понятия «компетенция» и «компетентность». Освещается значение компетентностного подхода в системе образования, в частности, его важность в преподавании изобразительного искусства. Подчёркивается необходимость внедрения инновационных методов преподавания, способствующих проведению уроков более эффективно и увлекательно. Приведены мнения о роли преподавателя в развитии творческого потенциала учащихся.*

Ключевые слова: *компетенция, компетентность, креативность, исторические и национальные ценности, эрудиция.*

Abstract. *This article discusses the concepts of competence and competency. It highlights the importance of a competency-based approach in the education system, particularly emphasizing its significant role in teaching fine arts. The paper underscores the necessity of implementing innovative teaching methods that make lessons more effective and engaging. Several views on the role of teachers in fostering students’ creative activity are also presented.*

Keywords: *competence, competency, creativity, historical and national values, erudition.*

Bugungi kunda mamlakatimizning ta’lim sohasi mutahasislari rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o‘rganish, iqtisodiy va intellectual resurslarni, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda jamiyat hayotida yangi islohatlarni amalga oshirishga intilmoqdalar. Turli sohalarda amalga oshiriliyayotgan hamkorlik natijasida yaxshi marralarga erishilayotgan bo‘lsada, erishilgan yutuqlarni boyitish, ta’lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish ta’lim sohasi fidoyilaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat’iyat ko‘rsatishni talab etmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda fan, ta’lim, madaniyat va san’at sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, prezidentimiz Mirziyoev Shavkat Miromonovich tomonidan 2017 yil 7-fevraldagi F-4947-sonli Farmoniga binoan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nali- lu bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjatning 4-qismi “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” bo‘lib mazkur hujjatning ramziy belgisida qizil rang bilan ya’ni hayot va aholining munosib turmush tarzini ta’minlash ma’nosini bildirilganligi hamda 2019 yilning 19 martida voshlarga e’tiborni kuchaytirish, ulani madaniyat, san’at, jisoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ulami axborot texnologiyalaridan ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish,

xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etishi ulaming bo‘sh vaqtlarini mazmunli va foydali o‘tkazish maqsadida “Besh muhim tashabbus”ni ilgari surdi. Besh tashabbusning birinchisi yoshlaming musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi haqida so‘z yuritishi ham bejiz emas.

Ayniqsa tasviriy san’at yurtimiz tarixida, bugunida va kelajag hayotida muhim ahamiyatga ega hisoblanib, yurtimiz ravnaqi va farovonligini taminlashda muhim ro‘l o‘ynaydi. Buning uchun avvalo tasviriy san’at o‘qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirish va o‘z kasbiga loyiq kadr bo‘la olishini ta’minlash lozim. Buning uchun kompetensiya tushunchasi va kompitentlik g‘oyalarini ilgari surib, o‘qituvchilarning ijodiy tafakkuri, amaliy ko‘nikmalarini hamda estetik tarbiyani shakillantirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”. Hozirgi kunda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislaming kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlami innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish. ilg‘or xorijiy tajribalami o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta’lim tizimini modemizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida qaraladi. Bugungi jadal ravishda rivojlanib borayotgan mamlakatimizda kompetensiya tushunchasi dolzarbligi, ta’lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini oshirish uchun zarurligi kerakli ekanini etirof etish to‘g‘ri. Harakatchan va faol, o‘zining tashabbuskorligi bilan ajralib turadogan, kreativ va tahliliy, tanqidiy fikirlaydigan, zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega, faoliyati davomida yangiliklarni amalga tadbiq etadigan mutahassis kompetensiyasini shakillantirish masalasi ta’lim sohasining eng muhim unsurlaridan hisoblanadi.

O‘z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va boshqalar o‘z asarlarida o„qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o‘zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Samarali ishlash uchun har bir pedagog kasbiy kompitentlikka ega bo‘lishi kerak. Kreativlik hamisha hamkori bo‘lgan, ko‘p mehnat sarf qilib katta natijaga erishgan pedagog kasbiy kompitentlik egasi hisoblanadi.

Kompetensiya- so‘zi lotincha “competero” so‘zidan olingan bo‘lib “mos kelmoq”, “qodir bo‘lmoq”, “loyiq bo‘lmoq” degan ma’nolarni anglatadi. Ya’ni kompetensiya- bu shaxsning ma’lum bir sohada zarur **bilim, ko‘nikma, malaka va tajribaga ega bo‘lishi hamda ularni samarali qo‘llay olish qobiliyati** demakdir.

Tasviriy san’at darslarida ham kompetensiya o‘z o‘rni va vazifasiga ega. Masalan, ranglarni uyg‘unlashtirish va tasviriy ifodaviylikni anglash, badiy tafakkur va estetik didni rivojlantirish, ijodiy yechimlarni topa olish, san’at asarlariga tanqidiy va tahliliy yondasha olish qobiliyati bunga namuna bo‘la oladi. O‘quvchilar bilan ishlash jarayonida tasviriy san’at fanidan yetarli darajada bilim, ko‘nokma va malakalarga ega bo‘lish, shuning bilan ranglar bilan ishlash qoidalari, qalamtasvir, haykaltaroshlik kabi tasviriy san’at turlarini oson va samarali o‘rgata olish, dars davomida yangi metodlardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lish tasviriy san’at fani o‘qituvchisi uchun muhim hisoblanadi.

Kompetentlik (bilimdonlik) – u yoki bu savolning javobidan xabardorlik, ishda kerakli natijalarni qo‘lga kiritish yuzasidan zarur qarorlami qabul qila olish, egallangan bilim va ko‘nikmalarni amalda samarali qo‘llash, bilimlarni **real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati**dir. Masalan, o‘qituvchi tasviriy san’at, rangshunoslik, haykaltarioshlik, qalamtasvir qoidalarini nazariy jihatdan bilishi kompetensiya hisoblanadi, biroq ularni rasm chizishda qo‘llab, amaliy ishida ifodalay olsa – bu uning kompetentligidan dalolat beradi. Kompitentlik, bilimni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash, ijodiy rasm ishlash, haykal yasash jarayonida mustaqilva mahurat bilan ishlash, jarayon davomida yuzaga kelgan muammoli variyatlarni uddaburonlik bilan to‘g‘ri yechimini topa olish, nazariy tayyorgarlikni amaliy natijaga aylantirish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. Kompitensiya- bilim va tajriba yig‘indisi, kompitentlik esa shu bilib va tajribalarni amaliy ijodiy faoliyatda qo‘llay olishdir. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning tasviriy san’atga qiziqishi ortishi bu sohani qiziqarli tarzda tushunarli jarayon bilan ozon va tez o‘zlashtirib olishlari uchun zarur omil hisoblanadi.

Tasviriy san’atda o‘qituvchi qay darajada o‘z kasbiga loyiq ekanini uning o‘quvchilarinig erishgan natijalarini ko‘rish orqali bilib olish mumkin. Ustoz shogirtiga o‘z bilim va salihiyatidan kelib chiqib yetarlicha bilim va ko‘nikmalarni shakillantira olishi, uning kelgusi hayotida olgan bilim va ko‘nikmalarini real hayotda qollab kattadan katta yutuqlarga erisha olishi ustozning kompitentlik darjasini belgilab beradi. Tasviriy san’atga qiziquvchilarga malumki rasm chizishda yoki sana’at asarlari yaratishda albatta insonning tug‘ma qobiliyatlari muhim ro‘l o‘ynaydi, kompetensiya tushunchasi va kompitentlik ham ana shunday qobiliyatli shahslarni yanada rivojlanishi juda katta tasir ko‘rsatadi. O‘z ustida muntazam ishlamagan, faqatgina qobiliyatiga ishinib qo‘shimcha bilim va tajribalarni egallamagan kishining qobiliyatlari ham rivojlanmasdan bir joyda qotib qolishi turgan gap. Tasviriy san’atda kompitent shaxs bo‘lish uchun ham muntazam ravishda izlanib, amaliy va nazariy bilimlarini mustahkamlab boorish, ayniqsa amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantish muhimdir.

Tasviriy san’atni o‘qitish chuqir bilim va uzoq yillik amaliy ko‘nikma talab qiladi. Bu jarayon bir biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, nazariy bilimlar amaliy bilimlar bilan birgalikda yani rasm chizish yoki haykal yasash davomida o‘qitilib ham amalda ko‘rsatib berish orqali tushuntiriladi. Tasviriy san’at o‘quvchilari ko‘rish, eshitish, o‘qish va eng asosiysi amalda qo‘llash usuli yordamida bilimlarini oshirishadi, shaxsiy ko‘nikmalar hosil qilishadi, qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Rasm chizish amaliy jarayon bo‘lib, bu jarayon davomida tasviriy san’at o‘qituvchisi ranglar hosil qilishni nazariy biladi va amaliy ko‘rsatib tushuntirishi lozim bo‘ladi, bu jarayon o‘z-o‘zidan o‘qituvchidan yetarlicha mahurat talab qiladi, yani mo‘yqalamni to‘g‘ri ushlash, kerakli rangni hosil qilish uchun ranglarni yetarli miqdorda aralashtirish kabi mahoratni talab qiladi.Qo‘shimcha qilib aytganda bu jarayon qo‘g‘ozni to‘g‘ri tanlay olishdan tortib ranglar haqida malumotlarga ega bo‘lish va ularni tanlash, anjomlardan to‘g‘ri foydalanishgacha bo‘lgan murakkab va qiziqarli hamda ko‘nikma hosil qilinishi kerak bo‘lgan amaliy jarayondir.

Kompitensya deganda faqatgini o‘z vanining mutahasisi degani emas, yani o‘z mutahsisligini chuqur egallash bilan birga sohaga yondosh bo‘lgan boshqa fanlardan ham yetarli darajada xabardor bo‘lib borishi lozim. Shuningdaek , falsafa fanining umumiy qonuniyatlarini va ilmga aloqador tarmog‘ini o‘zlashtirib olishi, xorijiy tillardan bittasini egallagan bo‘lishi maqsadag muvofiqdir. Ayniqsa tasviriy san’atni o‘qitishda xorijiy tillarni bilish chet el rassomlari asarlarini o‘rganish va xorijiy o‘qituvchilarda yangi metodlarni o‘zlashtirib amaliyotda qo‘llab kompitentlikni oshirishda yanada keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Bugungi kunda milliy qadriyatlarimiz, urf odatlarimizxalqimiz merosining hunarmandchilik, amaliy bezak va milliy an’ana, afsona va rivoyatlarni qayta tiklash va asrab qolib kelejak avlod qalbida ularga bo‘lgan hurmatni uyg‘otishda tasviriy san’atning ro‘li beqiyosdir. Tasviriy san’at darslarida yoshlarga milliy urf odat va an’analarimizni, tarixiy voqea va hodisalarni suratlar orqali o‘rgatib ularni talqin qilish imkoniyati beriladi. Tasviriy sana’t orqali o‘qitish, yangi avlodga millatimizning tarixiy bardavomligini va ma’naviy tajribasini yetkazish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, qadriyatlarimizni yuksaltirish va kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun milliy rassomlarimizning ishlaridan foydalanish, ularning ranglardan foydalanish uslublarni va yarata olish ko‘nikmalarini ozlashtirish o‘qitish metodikasini bir qismi hisoblanadi. Milliy rassomlarimizning asarlarida halqimiz hayoti, ma’naviyati va turmush tarsi aks ettirilishi bilan birga ijtimoiy va siyosiy hayoti ham yoritib berilgan. Ushbu asarlarda ranglarning ramziy ma’nolari ham chuqur ahamiyatga ega va bizga tariximiz haqida so‘zlab beruvchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib o‘qitish jarayoni ilmiy va estetik tarixiy, milliy jihatlarni uyg‘unlashtirib jamiyatimizda yetuk mutahasislar yetishtirishga asoslangan.

Ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati yangi zamon talabiga mos o‘qitish texnologiyalari va metodlari vositasida tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni san’at olamiga olib kirishga e’tibor qaratilgan. Darhaqiqat, tasviriy san’atda go‘zalliklarni his qilish va o‘quvchilarning dunyoni o‘zgacha ko‘z bilan ko‘rish qobiliyatini shakllantirish uchun ilmiy tadqiqotlar o‘ta muhimdir.Ilmiy munozaralar va tahlillar yordamida metodologik yondashuvlar takomillashib boradi va o‘qituvchining kompitentligii mustahkamlanib dars jarayonlarining samaradorligi tobora ortib boradi. O‘qituvchilar yangi nazariyalarni va tajribalarini qo‘llab-quvvatlash orqali darslarida innovatsion usullarni kiritishlari mumkin. Bunday ilmiy asoslangan yondashuv, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi va ularni san’atga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompitentligi – bu subyektning pedogogik va estetik faoliyatini sifatli amalga oshirishga, tahsil oluvchilarning ta’lim olishlarini samarali tashkil qilishga tayyorligini ta’minlaydigan integral-shaxsiy ma’lumoti (ta’limi, savodi) hisoblanadi. Tasviriy san’at darslarida o‘qituvchining kompitentligining yuqori darajada bo‘lishi o‘quvchilarni san’at olami orqali borliqni anglash va his qildirish, fanga qiziqtira olish kabi qobiliyatlarning rivojlantirilishi orqali o‘quvchilarni yaxshi mutahasis bo‘lib yetishishiga hizmat qiladi. Ayniqsa tasviriy san’at o‘qituvchisining kompetentligisiz o‘quvchida borliq, fazo, shakl va hajm, rang haqidagi tasavvurni shakllantirish juda mushkul ish.

Tasviriy san’atni o‘qitishda kompetensiya va kompitentlikning ahamiyatli ekani o‘rinli qilib yoritib berildi. Demak, tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish pedogogik, tasviriy, ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekani tushunildi. Bolalarni tasviriy san’atga o‘qitish, ularga chuqur ta’lim bera olish qobiliyatida, muammolarni ko‘ra olish va ularni gipotezalarni ilgari surish asosida hal qilishda, ma’lumotlarni qayta ishlash, amaliy tajriba o‘tkazish, olingan xulosalarni asoslay olish o‘quvchilarning ushbu bilimlarni qay darajada egallaganligida namoyon bo‘ladi. Kompitentlikka erishish nafaqat tasviriy san’at fani balki ta’lim tizimidagi barcha sohalarda eng muhim va ahamiyatli jarayondir. Chunki qaysi sohada yoki yo‘nalishda bo‘lmasin o‘z sohasining mutahasisi, bilimdonigina yaxshi va sifatli, samarali ta’lim bera oladi, kreativ g‘oyalar asosida yangilik yarata oladi, eng asosiysi ilmga ishtiyoqmand yoshlarni o‘ziga ergashtirib ulkan ijobiy natijalarga erisha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.M.Abduxamidov. “Tasviriy va amaliy san’at”, T.: “Malik print co”, 2021.
2. G.O.Ochilova, S.Sh.Akbarova, “Kasbiy kompitentlik”, T.: 2022.
3. D.X.Aslanova, F.F.Salamov, Y.M.Xalikov, “Kasbiy kompitentlik”. Samarqand, 2020.
4. S.Abdirasilov, N.Tolipov, Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. T.: 2007.
5. A.A.Berikbayev. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompitentligini rivojlantirish (Monografiya). T.: “Grand kondor print”, 2024.
6. Shakarbek o‘g‘li I. F. CHIZMACHILIK DARSLARIDA INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA USUL VA VOSITALAR //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2025. – Т. 14. – №. 01. – С. 266-269.
7. Khojamkulov, R. (2024). THE IMPORTANCE OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCES OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(5). https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N57.
8. Baxtiyarova , F. (2023). MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS. Ilm-Fan Va ta’lim, 1(1). извлечено от https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/120.
9. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677.
10. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.
11. Xo‘jaqulov, Ro‘zibek. "BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 5.2 (2025): 622-625.
12. Izzatullayev, Sardor. "TASVIRIY SAN’AT DARSI JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI, ULARNI QO ‘LLASH USUL VA VOSITALARI: https://doi. org/10.5281/zenodo. 14219837." Journal of Contemporary World Studies 2.9 (2024): 5-8.
13. Shoxista, Yusupova, and Yodgorova Anora. "OLIY TA’LIM MUASSASALARIDAGI TASVIRIY SAN’ATNI O ‘QITILISH MUAMMOLARI." Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal 2.1 (2024): 341-343.
14. Abduraximov, Abror, and Islom Tolipov. "HUMAN DIGNITY AND SOCIAL POLICY ISSUES IN DEVELOPMENT STRATEGY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 90-93.
15. Rayimjonovna, Raxmonberdiyeva Oygul. "TASVIRIY SAN’AT FANIDA RANGTASVIR MASHG ‘ULOTLARIDA O ‘QUVCHILARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI." ИКРО журнал 16.01 (2025): 72-74.

O‘QUVCHILARNING RANGLAR BILAN ISHLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METODLAR

Xolmirzayeva Marjona Sherali qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi,
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403628

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarning ranglar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda innovatsion metodlarning o‘rni yoritilgan. Raqamli texnologiyalar, kross-kurrikulyar yondashuv va ijodiy laboratoriya mashg‘ulotlari orqali rang idroki va badiiy ifoda qobiliyatini rivojlantirishning samarali usullari ilmiy asosda tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, rangshunoslik, innovatsion metodlar, o‘quvchi ijodi, raqamli texnologiyalar, didaktika, rang idroki.*

Аннотация: *в данной статье освещается роль инновационных методов в формировании у учащихся навыков работы с цветами. На научной основе проанализированы эффективные способы развития цветового восприятия и художественной выразительности посредством цифровых технологий, междисциплинарного подхода и творческих лабораторных занятий.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, цветоведение, инновационные методы, творчество учащихся, цифровые технологии, дидактика, цветовое восприятие.*

Abstract: *this article highlights the role of innovative methods in developing students' skills in working with colors. It provides a scientifically grounded analysis of effective approaches to enhancing color perception and artistic expression through digital technologies, cross-curricular integration, and creative laboratory activities.*

Keywords: *visual arts, color theory, innovative methods, student creativity, digital technologies, didactics, color perception.*

Zamonaviy ta’lim jarayonida tasviriy san’at darslari o‘quvchilarda estetik didni shakllantirish, badiiy tafakkurni rivojlantirish va ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ranglar bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish bugungi kunda o‘quvchilarning idrokini, tasavvurini va badiiy ifoda vositalaridan foydalanish malakasini kengaytirishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ranglar orqali tasvir yaratish nafaqat san’at asarining estetik qimmati, balki mazmuniy aniqligi va obrazning hissiy ta’sirchanligini ham belgilaydi.

Rang fenomeni – bu nafaqat estetik, balki psixologik va pedagogik jihatdan ham chuqur o‘rganilishi zarur bo‘lgan hodisadir. Chunki ranglar inson ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lib, ular vositasida ko‘ngil kechinmalari, kayfiyat va obrazli fikrlar ifoda topadi. Shu bois, o‘quvchilarda rangni idrok etish, uni tahlil qilish va san’at asarlarida ongli ravishda qo‘llash qobiliyatini shakllantirish, tasviriy san’at ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Bugungi ta’lim tizimida innovatsion metodlar orqali o‘quvchilarning rang bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha samarali yondashuvlar shakllanmoqda. Bunday metodlar interaktiv o‘qitish, multimediya vositalaridan foydalanish, virtual dizayn dasturlari, amaliy

laboratoriya mashg‘ulotlari va loyiha asosida o‘qitish kabi shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tajriba asosida ranglar uyg‘unligini anglash, estetik qaror qabul qilish va kreativ yondashuvlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Ilmiy-amaliy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ranglar bilan ishlashda innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning individual va guruhiy faoliyatini faollashtiradi, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar orqali o‘quvchi o‘z badiiy dunyoqarashini mustahkamlash barobarida, zamonaviy san’at tilini egallaydi va o‘z ijodiy ishlanmalarini erkin ifoda eta oladi.

Zamonaviy ta’limda individual yondashuv va o‘quvchining ichki dunyosini inobatga olgan holda ranglar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish eng samarali pedagogik tamoyillardan biri hisoblanadi. Har bir o‘quvchining psixotipi, emotsional holati, ranglarga bo‘lgan shaxsiy estetik munosabati turlicha bo‘lganligi sababli, dars jarayonida rang tanlashdagi erkinlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, rang – bu nafaqat ifoda vositasi, balki o‘quvchining individual holatini aks ettiruvchi muhim kommunikativ element sifatida ham maydonga chiqadi.

Shuningdek, bolalar psixologiyasi va vizual idrok sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ranglar orqali obraz yaratish jarayoni bolaning nafaqat badiiy-estetik salohiyatini, balki ijtimoiy va emotsional moslashuvchanligini ham kuchaytiradi. Masalan, iliq ranglar bolada faol, tashabbuskorlik hissini uyg‘otsa, sovuq ranglar diqqatni jamlash, konsentratsiya holatini kuchaytirishi mumkin. Bu psixologik xususiyatlar ranglar bilan ishlash mashg‘ulotlarida nazarda tutilsa, ta’lim samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Innovatsion metodlarni qo‘llash, shuningdek, tasviriy san’at fanini boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda murakkab tahliliy tafakkur va fanlararo kompetensiyalar shakllantiriladi. Bu esa ularning nafaqat tasviriy san’atga, balki umumiy dunyoqarash va ijodiy yondashuvga nisbatan barqaror qiziqishini rivojlantiradi. Ayniqsa, STEAM konsepsiyasi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchining bilim olish jarayoniga faol jalb etilishiga zamin yaratadi.

Natijada, ranglar bilan ishlash ko‘nikmasini innovatsion metodlar orqali rivojlantirish nafaqat ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi, balki shaxsning har tomonlama kamol topishida muhim omilga aylanadi. Ta’lim tizimida ushbu yo‘nalishni izchil va ilmiy asoslangan tarzda amalga oshirish esa kelajakda estetik ongli, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan ijodiy avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning ranglar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonida muhim metodik va pedagogik vazifa hisoblanadi. Ranglar orqali o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalashga o‘rgangan o‘quvchi nafaqat tasviriy san’atga, balki hayotga estetik nigoh bilan qarashni o‘zlashtiradi. Innovatsion metodlarning bu boradagi o‘rni ayniqsa muhim bo‘lib, ular o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ijodiy faolligini rag‘batlantiradi hamda ta’lim jarayonini interaktiv, zamonaviy va samarali tusga keltiradi. Vizual o‘yinlar, raqamli texnologiyalar, didaktik materiallar va guruhiy loyihalar kabi uslublar ranglar bilan ishlash malakasini chuqurlashtiradi. Shuningdek, bu metodlar orqali o‘quvchining individual qobiliyatlari aniqlanadi va maqsadli rivojlantiriladi. Shunday qilib, ranglar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishda innovatsion metodlar zamonaviy san’at ta’limining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at darslarida ranglar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat o‘quvchilarning estetik tafakkurini boyitadi, balki ularning shaxsiy dunyoqarashi, emotsional intellekti va ijodiy salohiyatini shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Innovatsion metodlar vositasida bu ko‘nikmalarni takomillashtirish esa ta’lim jarayonining zamonaviy talablarga mosligini ta’minlaydi.

O‘quvchilarda ranglar bilan ishlash bo‘yicha amaliy bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun quyidagi pedagogik tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Raqamli vositalarni tizimli joriy etish – dizayn va grafik dasturlar orqali o‘quvchilarni ranglar uyg‘unligi, kontrasti, yorqinligi kabi murakkab badiiy tushunchalar bilan amaliy tanishtirish samaradorlikni oshiradi.

Fanlararo integratsiyani kuchaytirish – rang fenomenini fizika (yorug‘lik spektri), biologiya (ko‘z tuzilishi), psixologiya (ranglar hissiyotga ta’siri) bilan bog‘lab o‘rganish orqali o‘quvchining chuqur va tizimli fikrlashi rag‘batlantiriladi.

Kreativ loyiha asosidagi yondashuvni kengaytirish – rang mavzusida mustaqil loyiha va san’at ishlanmalarini tayyorlash orqali o‘quvchilar o‘z g‘oya va his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishga o‘rganadilar.

Individual yondashuvni qo‘llash – har bir o‘quvchining rang idroki va estetik talqinini e’tiborga olib, ularga mos metod va topshiriqlarni tanlash, shaxsiy qiziqishlar va qobiliyatlar asosida ranglar bilan ishlashni yo‘lga qo‘yish zarur.

Tashqi muhit bilan bog‘liqlikni kuchaytirish – maktabdan tashqari muhitda (musey, ko‘rgazmalar, ochiq havoda chizish mashg‘ulotlari) ranglarni o‘rganish, o‘quvchilarni real san’at asarlari bilan tanishtirish orqali ularning estetik didi yanada sayqallanadi.

Innovatsion yondashuvlar orqali shakllangan rang bilan ishlash ko‘nikmalari nafaqat o‘quvchilarning san’atga bo‘lgan munosabatini mustahkamlaydi, balki ularni zamonaviy jamiyatga mos, ijodiy fikrlovchi, estetik qarashlarga ega bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy-metodik izlanishlarni chuqurlashtirish, tajriba almashinuvi va ilg‘or amaliyotlarni ta’lim tizimiga joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, tasviriy san’at ta’limida ranglar bilan ishlashni faqat texnik ko‘nikma sifatida emas, balki o‘quvchining shaxsiy-estetik rivoji, emotsional idroki va kommunikativ salohiyatini oshirish vositasi sifatida ko‘rish lozim. Rang orqali fikrni ifodalash, hissiy holatlarni yetkazish, voqelikni o‘ziga xos talqinda aks ettirish, bularning barchasi o‘quvchini san’at vositasida ijodiy o‘ylaydigan, mustaqil qaror qabul qiluvchi, o‘zini erkin ifoda eta oladigan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim strategiyalarida rang bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish faqat san’at darslari doirasida cheklanib qolmasligi kerak. Bu faoliyat umumta’lim fanlari bilan uyg‘unlashgan holda, o‘quvchilarda keng qamrovli vizual madaniyatni shakllantirishi, dunyoni badiiy-estetik idrok etish darajasini oshirishi lozim. Xususan, STEAM yondashuvi orqali san’at, texnologiya, muhandislik, matematika va boshqa yo‘nalishlar o‘rtasida bog‘liqlik yaratilsa, o‘quvchilar uchun rang: bu nafaqat bo‘yoq, balki tushuncha, hissiyot, g‘oya va tahlil vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat bu o‘qituvchining roli. Innovatsion metodlardan samarali foydalanish o‘qituvchidan nafaqat texnik bilim, balki yuqori darajadagi pedagogik mahorat, didaktik yondashuv va o‘quvchi psixologiyasini chuqur tushunishni talab etadi. Shuning uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy metodikalar, vizual texnologiyalar va kreativ yondashuvlar bilan tanishtirish ta’lim sifati uchun hal qiluvchi omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Nurtoyev. “Rangshunoslik asoslari”, T.: O‘qituvchi, 2020.
2. Pardaboyevich, Jumaboyev Nabi. "O‘QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING O‘RNI." WORLD OF SCIENCE 6.11 (2023): 87-90.
3. Khudayberdievich, B. A. . (2024). The Role of Physiognomics in Teaching Students to Draw Portraits. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.38
4. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677
5. Юсупова Ш. А., Жумабоев Н. П. ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 460-464.
6. Baxtiyarova , F. (2023). MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS. *Ilm-Fan Va ta’lim*, *1*(1). извлечено от https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/120.
7. Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli. “THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS” Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. № 11 (4)-2024.
8. Имомов F. . (2025). CHIZMACHILIK FANINING O‘QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJIGA TA’SIRI. Свет науки, (10(45). извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/102914.
9. Хожакулов R. . (2025). O‘QUVCHILARNING RANGLAR BILAN ISHLASH QOBILYATINI SHAKILLANTIRISHNING AHAMIYATI. Свет науки, (10(45). извлечено от https://www.inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/101493.
10. Inoyatov O.S. Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish masalalarini ifodalashga metodik yondashuv// Inter education & global study. 2025. №6. B.256-269.
11. Р.З.Хайров, Г.О.Азамкулов - Инновационные проекты и программы в психологии …, 2022. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗО. https://ami.im/sbornik/MNPK-PP-105.pdf#page=92

TALABALARNING KOMPOZITSION BADIIY-ESTETIK DIDINI TARBIYALASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINING TAHLILI

Xudayberdiyev Mirolim Iskandar o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi TPMI, Tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403640

Annotatsiya. *Jaxonda talabalarning badiiy-estetik didini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning samarasini yanada yuqori natijaga olib chiqish uchun zamon talabidan kelib chiqqan holda san’at sohasiga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish jarayonlari olib borilmoqda. Shu jihatdan kelib chiqib yurtimiz soxa tadqiqotchilari tomonidan ta’lim sifatini zamon talablari darajasiga ko‘tarish va talabalarning badiiy-estetik didini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Quyida raqamli texnologiyalarning tasviriy san’at soxasida qo‘llanilishi bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlili haqida so‘z boradi.*
Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiya, badiiy-estetik did, estetik tarbiya, electron darsliklar.*
Abstract. *A lot of research is being conducted in the world to develop the artistic and aesthetic taste of students. In order to bring the results of this research to a higher level, the processes of integrating digital technologies into the field of art are being carried out based on the needs of the time. In this regard, in our country, researchers in the field are also conducting scientific research aimed at raising the quality of education to the level of modern requirements and developing the artistic and aesthetic taste of students. The following is an analysis of the experience of foreign countries in the application of digital technologies in the field of fine arts.*
Keywords: *digital technology, artistic and aesthetic taste, aesthetic education, electronic textbooks.*
Аннотация. *В мире проводится множество исследований, направленных на развитие художественно-эстетического вкуса учащихся. Для того чтобы вывести результаты этих исследований на более высокий уровень, осуществляются процессы интеграции цифровых технологий в сферу искусства, исходя из потребностей времени. В связи с этим в нашей стране исследователи в этой области также ведут научные исследования, направленные на повышение качества образования до уровня современных требований и развитие художественно-эстетического вкуса учащихся. Ниже представлен анализ опыта зарубежных стран по применению цифровых технологий в сфере изобразительного искусства.*
Ключевые слова: *цифровые технологии, художественно-эстетический вкус, эстетическое воспитание, электронные учебники.*

Xorijda talabalarning badiiy-estetik didini shakllantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar xilma-xil yondashuvlarni qamrab oladi. An’anaviy g‘arbiy san’at ta’limi nazariyasida badiiy-estetik did asosan san’at asarlarini qadrlash va kompozitsion yechimlarni tushuna olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Masalan, amerikalik pedagog olim Elliot V. Eisner san’at ta’limida hissiy

tajriba va estetik idrokning o‘rni muhimligini ta’kidlagan edi[82]. Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda esa raqamli texnologiyalarning kirib kelishi bilan mazkur sohada yangi izlanishlar paydo bo‘ldi. Xususan, Xitoy olimi Y. Zhao o‘z tadqiqotida an’anaviy tasviriy san’at ta’limining asosiy maqsadi talabalarni “badiiy did, ijodiy fikrlash va hunarmandchilik ko‘nikmalariga ega bo‘lishga yo‘naltirilganini qayd etadi[83]. Biroq raqamli axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt asrida san’at ta’limi modelini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligi ko‘rsatilgan: endilikda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va innovatsion tafakkurni integratsiya qilish, talabalarda raqamli ko‘nikmalar va fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish talab etiladi. Bu shuni anglatadiki, xorijiy tajribada kompozitsion estetik didni shakllantirish masalasi bugun integrativ yondashuv – ya’ni an’anaviy estetik tarbiya tamoyillarini zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish orqali hal etilmoqda.

So‘nggi yillarda virtual haqiqat (VR) va qo‘shilgan haqiqat (AR) texnologiyalarining estetik tarbiyadagi samaradorligi ham xorijiy tadqiqotlarda o‘rganilmoqda. Masalan, Zhou va Li tomonidan 2024-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda talabalar muzey eksponatlarini VR/AR yordamida tomosha qilganda estetik tajribani sezilarli darajada chuqurroq his etishgani aniqlangan. Ushbu tadqiqotda Pekin Saroy muzeyiga an’anaviy tarzda tashrif buyurgan nazorat guruhi bilan VR/AR orqali raqamli ekskursiya qilgan eksperimental guruh solishtirilib, raqamli muhitdagi estetik tajriba an’anaviy muhitdagidan yuqori ekani ko‘rsatildi. Bu kabi xorijiy ishlar raqamli vositalar estetik didni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ilmiy asoslamoqda. VR/AR texnologiyalari o‘quvchilarga san’at asarlarini interfaol va immersiv o‘rganish imkonini beradi, natijada ularning san’atni idrok etish va baholash ko‘nikmalari boyiydi.

Yevropa va AQSh ta’lim tizimida san’at va estetik tarbiyani raqamli davrga moslashtirishga intilishlar kuzatilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniya va AQShda “Media Arts Education” (mediata’lim) konsepsiyasi rivojlanib, unda o‘quvchilarning raqamli media orqali vizual savodxonligini va estetik didini oshirish maqsad qilingan. Shuningdek, fransuz olimlari san’at estetikasi va raqamli madaniyat bog‘liqligini o‘rganib, raqamli san’at turlari (digital art) orqali talabalar didini shakllantirish metodikasi ustida ishlashgan. Xususan, yangi mediadan foydalangan holda estetik ta’lim berishning afzalliklari ham ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanadi. Frontiers in Education jurnalida chop etilgan Xiaorong Zhao (2025) tadqiqotida interaktiv va immersiv yangi media san’ati estetik tarbiyada innovatsiyalar olib kirayotgani, bunday yondashuv talabalar tasavvurini, ijodkorligini rivojlantirishda katta ustunlik berishi aytiladi[84]. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot xorijda duch kelinayotgan ba’zi muammolarni ham ko‘rsatadi: masalan, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi va estetik tarbiya mazmunining tor talqini kabi omillar yangi media vositalarini keng joriy etishga to‘sqinlik qilmoqda. Demak, xorijiy tajribada raqamli texnologiyalar yordamida estetik didni tarbiyalash bo‘yicha yutuqlar (interfaol platformalar, VR ekskursiyalar, raqamli san’at mashg‘ulotlari) bilan birga, qiyinchiliklar (pedagog kadrlar malakasi, dasturiy resurslar) ham mavjud ekani tanqidiy tahlilda qayd etilishi lozim.

Umuman olganda, xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar talabalarning badiiy-estetik didini shakllantirishning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

[82] Eisner, E. W. (1970). Stanford’s Kettering project. *Art Education, 23*(8), 4–7.
[83] Weiru Zhang1,a, Wanjun Li1,b, Yunmengru Wu1,c,*, Yi Liu1,d, Xiaorui Zhang2,e, Anping Cheng1,f. Innovative Research on Highly Interactive Chinese Contemporary Design Education Spaces. Proceedings of 3rd International Conference on Interdisciplinary Humanities and Communication Studies DOI: 10.54254/2753-7064/52/2024.18500.
[84] Zhao X (2025) Breakthroughs, lags, and contradictions: an analysis of the practices and effects of new media art aesthetic education in China. Front. Educ. 10:1483559. doi: 10.3389/feduc.2025.1483559.

An’anaviy estetik ta’lim tamoyillari (Kompozitsiyani o‘rgatish, muzeylarga olib borish, asar tahlili va badiiy ijod) endi raqamli vositalar bilan boyitilmoqda. Masalan, onlayn platformalarda san’at galereyalari yaratilmoqda, virtual muzey darslari o‘tilmoqda, talabalar grafik dasturlar yordamida kompozitsiya va rang uyg‘unligini mashq qilishmoqda. Jahon tajribasida yetakchi tadqiqotchilar (masalan, K.Freedman, P.Duncum va boshqalar) ta’kidlaydilar: raqamli davrda san’at ta’limi nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki vizual madaniyat va estetik didni ham shakllantirishi zarur. Demak, xorijda shakllangan ilmiy-amaliy baza bizning mavzuni yoritish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

MDH davlatlari, xususan Rossiya ilmiy maktabida, badiiy-estetik did tushunchasiga doimo katta e’tibor qaratib kelingan. Sovet davridan boshlab estetik tarbiya davlat ta’lim tizimining muhim yo‘nalishi bo‘lib, bu borada A.V.Bakushinskiy[85], B.M.Nemenskiy[86] kabi san’atshunos-pedagoglar nazariy asarlar yaratgan. Ular badiiy didni tarbiyalashni shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omillaridan biri deb bilishgan. Masalan, Sovet pedagogikasida “художественный вкус” (badiiy did) atamasi bilan san’at asarlarining go‘zalligini farqlash, ulardan estetik zavq ola bilish qobiliyati tushuntirilgan va bu qobiliyat faqat yaxshi namunalarga takror-takror murojaat qilish va ularni tahlil qilish orqali shakllanishi qayd etilgan. Bu ilmiy an’ana mustaqil MDH davlatlarida ham davom etib, o‘quvchilarda estetik didni shakllantirish metodikasi rivojlantirildi.

So‘nggi yillarda Rossiya va qo‘shni davlatlarda raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kirib kelishi bilan badiiy tarbiya jarayonini takomillashtirish yuzasidan qator izlanishlar qilindi. Xususan, rossiyalik pedagoglar maktab va maktabgacha ta’limda AKT vositalari yordamida estetik tarbiya berish tajribasini to‘pladilar. Masalan, Rossiyadagi ayrim maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilar virtual ekskursiyalar, multimedia taqdimotlar va grafik dasturlardan foydalanib, bolalarning estetik qobiliyatlarini rivojlantirmoqdalar. Tajribada bolalarni san’at asarlari bilan tanishtirish uchun interaktiv taqdimotlar, video roliklar va virtual galereyalar yo‘lga qo‘yilgani ma’lum. Bu orqali bolalarda go‘zallikni his qilish, san’atga qiziqish uyg‘otish va estetik munosabatni shakllantirishga erishilmoqda. Misol uchun, virtual muzey ekskursiyalari orqali tarbiyalanuvchilar dunyoning mashhur muzeylariga “sayohat” qilib, asarlarni kompyuter ekrani orqali tomosha qila oladilar – bu ular uchun o‘ziga xos estetik tajriba bo‘lib, real sharoitda qiyin kechadigan ko‘plab san’at namunalarini ko‘rish imkonini beradi.

MDHdagi ilmiy tadqiqotlarda xalq amaliy san’ati, milliy meros orqali estetik tarbiya berishga alohida urg‘u beriladi. Masalan, Qozog‘iston, Ozarbayjon kabi davlatlarda milliy naqsh, hunarmandchilik buyumlari dizayni o‘quvchilarga elektron darsliklar va videodarslar orqali o‘rgatilib, bunda nafaqat hunar ko‘nikmasi, balki milliy estetik did ham shakllantirilishi ko‘zda tutilgan. Rossiyada esa “madaniyat shakllantiruvchi texnologiyalar” atamasi ostida san’at va madaniyatni AKT yordamida o‘quvchilarga yetkazish metodlari ishlab chiqilmoqda (masalan, virtual teatrlar, raqamli kutubxonalar).

Ba’zi tadqiqotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqamli texnologiyalar talabalarning badiiy didiga ta’sirini o‘rgangan. Jumladan, Podyanova E.V. nomzodlik dissertatsiyasida pedagogika universiteti talabalari orasida badiiy did rivojlanishini tekshirish va unga san’atshunoslik

[85] https://www.researchgate.net/profile/A-Bakushinskiy.
[86] *Неменский, Б.М.* Познание искусством. — М.: Изд-во УРАО, 2000.

axborotlarini raqamli tarzda yetkazish usullari tahlil qilingan[87]. Ushbu ishlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli resurslar orqali ko‘rgazmali materiallar hajmining ortishi talabalarning badiiy idrokini boyitadi, ammo shu bilan birga ularning diqqatini jamlash, tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga e’tibor berish lozim.

Tanqidiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, MDH hududida ilgari surilgan yutuqlar – masalan, virtual muzey darslari, multimediali elektron darsliklar va grafik treninglar – talabalarning kompozitsion didini tarbiyalashda samarali deb topilmoqda. Bir vaqtning o‘zida muammoli jihatlar ham bor: ba’zi maktablarda texnik jihozlanish pastligi, o‘qituvchilarning AKT kompetensiyasi yetarli emasligi, elektron kontentning sifat va mazmun jihatidan to‘liq mukammal emasligi kuzatiladi. Ammo umumiy tendensiya ijobiy – raqamli pedagogika estetik tarbiyada ham muhim o‘rin egallay boshladi. Masalan, Rossiyada qabul qilingan Federal o‘quv dasturlari standartlarida (FO‘DS) AXT vositalaridan foydalangan holda o‘quvchilarda san’atga qiziqish va estetik hissiyotlar uyg‘otish vazifasi belgilangan. Shuningdek, “Estetik didni shakllantirish – shaxs tarbiyasining ajralmas qismi” degan g‘oya postsovet hududida hamon dolzarb bo‘lib, u zamonaviy texnologik vositalar bilan boyitilib kelinmoqda.

O‘zbekistonda ham raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilish jarayoni kuchayib, bu tendensiya tasviriy san’atni o‘qitishda ham namoyon bo‘lmoqda. Respublikamiz olimlari xorijiy yutuqlarni o‘rganib, milliy ta’lim tizimi sharoitida ularni joriy etish ustida tadqiqotlar olib bormoqda. Masalan, A. Isaqov (2023) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda 2000–2021 yillar oralig‘ida dunyoda san’at ta’limida raqamli yondashuvlar bo‘yicha yetakchi ilmiy ishlanmalar tahlil qilingan[88]. Muallif O‘zbekiston ta’lim tizimida tasviriy san’atni o‘qitish jarayonini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish zarurligini, xususan, o‘quv dasturlarini zamonaviy yondashuvlar asosida yangilash va raqamli texnologiyalardagi yutuqlarni o‘quv rejasiga tatbiq etish lozimligini ta’kidlaydi. Tadqiqotda so‘nggi yigirma yillikda dunyoda ilgari surilgan vizual san’at ta’limi yo‘nalishlari, tendensiyalari sarhisob qilinib, O‘zbekiston kontekstida qaysi raqamli ilovalar va vositalar samara berishi tahlil etilgan. Xususan, muallif O‘zbekiston ta’lim tizimida foydalanish mumkin bo‘lgan raqamli grafik dasturlar, virtual galereyalar, elektron o‘yin elementlari haqida xulosa bergan va ularning ta’limiy jarayonga ta’sirini ko‘rsatgan.

O‘zbekistonda tasviriy san’at bo‘yicha elektron resurslar yaratilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tomonidan “Tasviriy san’at” fanidan elektron darsliklar yaratilmoqda, ularga milliy musavvirlarimiz (K.Behzod, Usto Momin, Chingiz Ahmarov va b.q.) asarlari, fotosuratlar, virtual 3D modellar kiritilmoqda. Bu elektron darsliklar an’anaviy matnli material bilan birga interaktiv topshiriqlar, testlar, video darslarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, milliy san’atga oid virtual ko‘rgazmalar tashkil etilayotgani kuzatiladi. 2020–2023 yillarda O‘zbekiston muzeylarining onlayn platformalari yaratilib, virtual turlar yo‘lga qo‘yildi. Xususan, Abdulla Qodiriy uy-muzeyi, Amaliy san’at muzeyi, Temuriylar tarixi muzeyi kabi ko‘plab maskanlarga 360° virtual ekskursiyalarni elektron qurilmalar orqali amalga oshirish mumkin bo‘ldi. Bu esa o‘quvchilarning milliy boyliklardan

[87] Подъянова, Светлана Михайловна. Развитие художественного вкуса студентов педагогического вуза. диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.08, кандидат педагогических наук. 2004. Ст-185

[88] Isakov, Abduvokhid. (2021). Tasviriy san’at fanini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliyotdagi holati. Общество и инновации. 2. 706-711. 10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp706-711. https://www.researchgate.net/publication/352188052_Tasviriy_san'at_fanini_o‘qitish_jarayonida_raqamli_texnologiyalardan_foydalanishning_amaliyotdagi_holati

bahramand bo‘lishini osonlashtirib, ularda madaniy merosga hurmat va estetik didni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Ilg‘or o‘zbek tadqiqotchilari qatorida X.X.Muratov (2024)ni ham qayd etish lozim. U o‘z maqolasida O‘zbekistonda san’at ta’limiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning afzallik va cheklovlarini tahlil qilgan[89]. Muratovning xulosalariga ko‘ra, raqamli vositalar ta’lim jarayonini boyitib, talabalarning ijodiy izlanish imkoniyatlarini kengaytiradi, ammo ayni paytda ayrim texnik va metodik muammolar hal etilmasa, bu jarayon samarasi past bo‘lishi mumkin. Masalan, muallif texnik infratuzilma (kompyuterlar, internet tezligi) bilan bog‘liq cheklovlar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi kabi omillarni qayd etadi. Shunday bo‘lsa-da, umumiy tendensiya ijobiy: “Raqamli O‘zbekiston – 2030”[90] strategiyasi doirasida maktab va oliy ta’limda raqamli pedagogika rivojlanmoqda. Bugungi kunda ba’zi maktablarda “Raqamli tasviriy san’at” to‘garaklari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularda bolalar planshet va kompyuterlarda rasm chizishni, dizayn asoslarini o‘rganishmoqda.

Milliy tadqiqotlarda xalq rassomchilik maktabi an’analarini raqamli texnologiyalar orqali yetkazish masalasi alohida o‘rin oladi. Jumladan, dostonlar, milliy qahramonlar obrazini tasvirlash bo‘yicha raqamli ilovalar, o‘yinlar yaratilayotgani haqida ma’lumotlar mavjud. Bular orqali talabalar bir vaqtning o‘zida milliy tasviriy san’atimiz namunalari bilan tanishib, ularning kompozitsion va estetik xususiyatlarini o‘rganadilar. Masalan, Alisher Navoiy g‘azallariga chizilgan miniatyuralar asosida yaratilgan interaktiv elektron albom talabalar uchun qiziqarli manba bo‘lib, milliy miniatyura san’ati estetikasini anglashga yordam beradi. Shuningdek, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi qoshida raqamli san’at laboratoriyalari tashkil etilib, ularda yosh rassomlar grafik planshetlar yordamida milliy mavzularda ijod qilishni o‘rganishmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar endigina yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy mentallitet va qadriyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirishga intilish seziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Eisner, E. W. (1970). Stanford’s Kettering project. *Art Education, 23*(8), 4–7.
2. Weiru Zhang1,a, Wanjun Li1,b, Yunmengru Wu1,c,*, Yi Liu1,d, Xiaorui Zhang2,e, Anping Cheng1,f. Innovative Research on Highly Interactive Chinese Contemporary Design Education Spaces. Proceedings of 3rd International Conference on Interdisciplinary Humanities and Communication Studies DOI: 10.54254/2753-7064/52/2024.18500.
3. Zhao X (2025) Breakthroughs, lags, and contradictions: an analysis of the practices and effects of new media art aesthetic education in China. Front. Educ. 10:1483559. doi: 10.3389/feduc.2025.1483559.
4. *Неменский, Б.М.* Познание искусством. — М.: Изд-во УРАО, 2000.
5. Подъянова, Светлана Михайловна. Развитие художественного вкуса студентов педагогического вуза. диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.08, кандидат педагогических наук. 2004. Ст-185
6. Muratov, Xusan Xolmuratovich. “Elektron ta’lim resurslari va multimediali elektron o ‘qitish vositalari orqali ta’lim muhitining rivojlanishi”. Academic research in educational sciences 2.1 (2021): 1130-1136.

[89] Muratov, Xusan Xolmuratovich. “Elektron ta’lim resurslari va multimediali elektron o ‘qitish vositalari orqali ta’lim muhitining rivojlanishi”. Academic research in educational sciences 2.1 (2021): 1130-1136.
[90] https://lex.uz/acts/-5297046.

FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TALABALARDA IJODIY VA PEDAGOGIK SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH

[1]Xudaynazarova Ug'iloy Sharifovna, [2]Samandarova Zuxra Odil qizi, [3]Qalandarova Marjona Inomjon qizi

[1]CHDPU "Tasviriy san'at va dizayn"kafedrasi o'qituvchisi

[2]ChDPU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1- bosqich talabasi

[3]ChDPU Dizayn: Libos va gazlamalar yo'nalishi 1- bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17403646

Annotatsiya. *Maqolada fanlararo integratsiya asosida ta'limni tashkil etishning nazariy-metodik asoslari, Chirchiq davlat pedagogika universiteti misolida amalga oshirilgan integratsion bitiruv malakaviy ishlar (BMI) tajribalari, ularning talabalarda ijodiy, ilmiy-tadqiqot va pedagogik salohiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Fanlararo integratsiya, pedagogik salohiyat, ijodiy fikrlash, klaster, ustoz-shogird tizimi, integratsion BMI*

Abstract. *The article discusses the theoretical and methodological foundations of organizing education based on interdisciplinary integration, the experiences of integrated final qualification works (BMI) implemented on the example of Chirchik State Pedagogical University, and their importance in developing creative, research and pedagogical potential in students.*

Keywords: *Interdisciplinary integration, pedagogical potential, creative thinking, cluster, teacher-student system, integrated BMI*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретико-методологические основы организации образования на основе междисциплинарной интеграции, опыт реализации интегрированных выпускных квалификационных работ (ИВК) на примере Чирчикского государственного педагогического университета и их значение в развитии творческого, исследовательского и педагогического потенциала студентов.*

Ключевые слова: *Междисциплинарная интеграция, педагогический потенциал, творческое мышление, кластер, система «учитель-ученик», интегрированная ИВК*

Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya bilimlarning uzviyligini ta'minlab, o'quvchi va talabalarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish va raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Prezidentning 2019 yil 29 apreldagi PF–5712-son va 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmonlarida ta'lim sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda iqtidorli yoshlarni pedagogik kasbga yo'naltirish masalalari aniq ko'rsatib o'tilgan. Shu bois, fanlararo integratsiya asosidagi o'quv-tarbiya jarayoni talabalarning ijodiy, ilmiy va pedagogik salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi globallashuv jarayonlarida ta'lim sohasida yuzaga kelayotgan yangi talablar — talabalarning multidissiplinar bilimlarga ega bo'lishini taqozo etmoqda. Bu esa ulardan faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki ilmiy-tadqiqot, ijodiy, kommunikativ, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, etakchilik va innovatsion faoliyat ko'nikmalarini ham talab etmoqda. Shu nuqtai

nazardan, fanlararo integratsiya ta’lim mazmunini boyitish, o‘quv jarayonini hayotiylashtirish va talabalarda yuqori motivatsiya uyg‘otishda muhim vazifa bajaradi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda fanlararo integratsiya bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sangirova Z.B. umumta’lim maktablarida STEAM yondashuvini joriy etish orqali tabiiy fanlarni san’at bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘qitish modelini ishlab chiqqan. Qarshieva B.F. texnika yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilini CLIL texnologiyasi asosida kasbiy fanlar bilan integratsiya qilgan holda o‘qitish metodikasini taklif etgan. Ramazonova F.X. pedagogik fanlarni integratsiyalash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga sadoqatni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqqan. Qurbonov J.A. integrativ yondashuv yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini rivojlantirish metodikasini asoslab bergan. Sultanov X.E. esa tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuvini joriy etish orqali fanlararo integratsiya va ta’lim muassasalari hamkorligini ta’minlash modelini ishlab chiqqan. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilardan J.Dyui, J.Bruner, G.Gardnerlar ham ta’limda integrativ yondashuvlarning insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi rolini asoslab bergan. Ular ta’lim jarayonida fanlar chegarasini yo‘q qilish, bilimlarni hayotiy masalalarni echishga qaratilgan holda birlashtirish zarurligini ta’kidlaydilar. Bu esa talabalarda funksional savodxonlik, tizimli fikrlash, ilmiy va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida 2023–2025 yillarda tarix va tasviriy san’at yo‘nalishlari talabalari ishtirokida integratsion bitiruv malakaviy ishlar (BMI) amalga oshirildi. Ularda Amir Temur mavzusida byust, mahobatli va dastgohli rangtasvir asarlari, Bibixonim libosi, kulolchilik mahsulotlari, 3D-suvenirlar, grafik plakatlar va ilmiy loyiha hisobotlari yaratildi. Bu jarayonda tarixiy ma’lumotlar va tasviriy artefaktlar uyg‘un holda o‘rganilib, talabalar yozma-tahliliy va amaliy ijodiy vazifalarni birgalikda bajardilar. BMI jarayonida ustoz-shogird tizimi asosida professor-o‘qituvchilar ilmiy rahbarlik qildi, magistrlar tashkilotchilik va uslubiy rahbarlikni amalga oshirdi, bakalavr talabalar esa ijodiy vazifalarni bajarishda ishtirok etdi. «O‘rgatib-o‘rganamiz» loyihasi doirasida talabalar maktab o‘quvchilariga rahbar sifatida to‘garak mashg‘ulotlari o‘tkazdi, ularda pedagogik kasbga qiziqish uyg‘otdi. «Kamalak-ART» festivalida maktab o‘quvchilari va talabalar hamkorlikda rangtasvir, grafika, haykal va amaliy san’at turlari bo‘yicha ijodiy ishlar namoyish etishdi. Bu tajribalar talabalarda ilmiy-tadqiqot, ijodiy va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirdi.

Ta’limda fanlararo integratsiyani joriy etish talabalarda quyidagi natijalarni berdi:

Ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati oshdi;

Jamoada ishlash, muloqot, etakchilik va tashkilotchilik ko‘nikmalari rivojlandi;

Loyihalash va hujjatlashtirish, tadqiqot rejalashtirish va amalga oshirish kompetensiyalari shakllandi;

Talabalarda pedagogik kasbga qiziqish va motivatsiya kuchaydi.

BMI ishlarini tahlil qilish natijasida talabalar real tarixiy-san’atiy ob’ektlar asosida tadqiqot olib borish, konsepsiya ishlab chiqish, kompozitsiya yaratish, loyiha hujjatlashtirish va himoya qilish ko‘nikmalarini egalladi. Bu jarayon ta’lim jarayonida ustoz-shogird tizimi, klaster hamkorlik va individual ta’lim imkoniyatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qildi.

CHDPU tajribasi shuni ko‘rsatdiki, fanlararo integratsiya talabalarning kasbiy tayyorgarligini, ilmiy-tadqiqot va ijodiy salohiyatini oshiradi. Universitet va maktab o‘rtasida integratsion klaster hamkorlik tizimini yanada rivojlantirish, BMIlarni ko‘paytirish, o‘qituvchilar uchun fanlararo integratsiya bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish tavsiya etiladi. Shuningdek, talabalarni pedagogik kasbga yo‘naltirish va ijodkorlikka rag‘batlantirish

maqsadida amaliy ko‘rgazmalar, festivallar, mahorat darslari muntazam o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Sangirova Z.B. Umumta’lim maktablarida STEAM yondashuv asosida o‘quv-loyiha ishlarni tashkil etish metodikasi. PhD diss.
2. Qarshieva B.F. Texnika yo‘nalishi talabalariga ingliz tili fanini integral bilingval o‘qitish metodikasini takomillashtirish. PhD diss.
3. Ramazonova F.X. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik yo‘nalishdagi fanlar integratsiyasi asosida kasbga e’tiqodni rivojlantirish texnologiyalari. PhD diss.
4. Qurbonov J.A. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini falsafiy rivojlantirish metodikasi. DSc diss.
5. Sultanov X.E. Tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuviga asoslangan o‘qitish texnologiyalari. PhD diss.
6. Boymetov B.B. “Qalamtasvir.” Darslik. 1-qism. – Toshkent, 2006.
7. Ростовцев Н.Н. “Учебный рисунок.” – Москва: Просвещение, 1979.
8. Boymetov B.B., Tolipov M. “Plastik anatomiya.” – Toshkent: “Ilm-Ziyo”, 2005.
9. Khudoynazarova, O. Oliy pedagogik ta’limda talabalarga inson portretini tasvirlashda plastik anatomiyaning nazariy asoslari.
10. Султанов, Х. (2023). Мустақил таълимни ташкил этиш орқали талабалардаги касбий ва ижодий қобилиятларини фаоллаштириш. International scientific and practical conference on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”, *1*(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/125
11. Sultanov Xaytboy Eralievich. (2023). A cluster approach as a tool for supporting the integration of indisciplinary research and educational networks. current research journal of pedagogics, 4(11), 91–98. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-16
12. The role of integrative education in student activation. (2024). *Web of Teachers: Inderscience Research* , *2*(11), 151-155. https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/2188

TABIAT MANZARASINI CHIZISHDA KOMPOZITSIYANING O‘RNI

[1]Xudoynazarova Ug‘iloy Sharifovna, [2]Ergashova Asila Sirojiddin qizi, [3]Mustafayeva Sevinch Dilshod qizi

[1]CHDPU “Tasviriy san’at va dizayn”kafedrasi o‘qituvchisi,
[2]ChDPU Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 3- bosqich talabasi
[3]ChDPU Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 1- bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17403661

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy san’at ta’limida tabiat manzarasini o‘rgatish jarayonida kompozitsiya qonun-qoidalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Manzara janrida chizishning asosiy bosqichlari, ob’ektlarni joylashtirish, mutanosiblik, rang uyg‘unligi hamda perspektiva qonuniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarda badiiy did, estetik qarash va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*:Manzara, maishiy, kompozitsiya, perspektiva, chiziqlar, oltin kesim, natyurmort, uyg‘onish davri, muvozanat.*

Аннотация: *В статье рассматриваются роль и значение законов композиции в процессе обучения изобразительному искусству, изображающему природные пейзажи. Анализируются основные этапы рисования в жанре пейзажа, законы расположения объектов, пропорций, цветовой гармонии и перспективы. Также рассматриваются методические подходы, способствующие формированию художественного вкуса, эстетического видения и образного мышления учащихся..*

Ключевые слова: *пейзаж, быт, композиция, перспектива, линии, золотое сечение, натюрморт, ренессанс, равновесие.*

Annotation: *This article discusses the role and importance of the laws of composition in the process of teaching natural landscapes in fine arts education. The main stages of drawing in the landscape genre, the laws of object placement, proportion, color harmony, and perspective are analyzed. Methodological approaches that serve to form artistic taste, aesthetic vision, and creative thinking in students are also considered.*

Key words: *landscape, household, composition, perspective, lines, golden section, still life, Renaissance, balance.*

Tabiat manzarasi — tasviriy san’atning eng qadimiy va eng ko‘p o‘rganiladigan janrlaridan biridir. Inson qadimdan atrof-muhitni kuzatib, uni qog‘oz yoki toshga tushirishga intilgan. Bugungi kunda manzara janri nafaqat san’at asari sifatida, balki ta’lim-tarbiyaning muhim vositasi hamdir. Uni o‘rgatishda eng asosiy masalalardan biri — kompozitsiya qonun-qoidalarini to‘g‘ri qo‘llashdir.

Manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko‘rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqyealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari xam ifodalanadi. Rangtasvir san’ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o‘zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham muayan tayyorgarlikni talab qiladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma’naviy oziqa beradi, uni ruhlantiradi, shodlik va quvonch bag‘ishlaydi. Manzara asarida

inson shaxsi, aql-zakovati, ichki tuyg‘ularini tasvir orqali qo‘shiq qilib kuylaydi va tabait obrazini yaratadi.

Manzara – tasviriy san’atning qadimiy janrlaridan bo‘lib, tarixiy, maishiy asarlarda ham vosita-fon sifatida muhim rol o‘ynaydi. Manzara san’ati tashqi dunyoning go‘zalligini aks etirish bilan insonga ijobiy ta’sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamining eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabaitga nisbatan bo‘lgan estetik munosabatini bildiradi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog‘u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo‘lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda moxirdirlar. Tasviriy san’atda tabiatni tasvirlash manzara janri deyiladi. Manzarachi musavvirlar o ‘z asarlarida ifodalagan obrazlar orqali tabiatni sevishga, e’zozlashga va bu go‘zalliklardan zavqlanishga chorlaydilar. Manzara ustida ishlash, avvalo, rassom ko‘ngliga yoqib qolgan va uning ruhi, kayfiyati, maqsadiga mos tushadigan ko‘rinish, lavha, holatlarni tanlashdan boshlanadi. Bu jarayonda rassomning o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadini aniqlab olish va shunga binoan etyudlar ishlab, bular orasida yaratilajak manzara - kartina ustida ijod qilish birinchi o‘ringa chiqadi. Manzarachi rassomning shakllanishida ham o‘ziga xos sirlar bor. Buning uchun tabiatni sevish , uni kuzata bilish ayniqsa , rang – lavhalar ustida ishlay bilish talab qilinadi. Chunki tabiatning har bir kichik bo‘lgida butun bir olamga xos mazmun yotadi.

Endi kompozitsiyaga izoh beradigan bo‘lsak, kompozitsiya (lotinchadan olingan composition-tuzish, joylashtirish) ma’nolarida qo‘llaniladi. Kompozitsiya bo‘laklarining bir-biriga va asosiy ko‘rinishga nisbatan birligi va yaxlitligini tashkil etadigan tasviriy san’atning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kompozitsiya — bu asarda tasvirlanadigan predmet va hodisalarning joylashuvi, ular orasidagi nisbatlar, mutanosiblik va ritmiy uyg‘unlikni tashkil etuvchi badiiy tuzilishdir. Manzara chizishda kompozitsiya nafaqat ob’ektlarning qog‘ozdagi joylashuvini, balki butun asarning badiiy kuchini belgilaydi.

Kompozitsiya quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

-Asarning mazmunini ochib berish;

- Diqqat markazini aniqlash;

- Ob’ektlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash;

- Estetik yaxlitlikni ta’minlash.

Kompozitsiyada “simmetrik” joylashuv asarga sokinlik va tartib bag‘ishlasa, “asimmetrik” joylashuv dinamiklik va harakat uyg‘otadi. O‘quvchi manzara yaratishda shu ikki holatni maqsadga muvofiq qo‘llashni o‘rganishi kerak.

Har bir ob’ektning kattaligi umumiy ko‘rinishga mutanosib bo‘lishi zarur. Masalan, odam siymosi yoki uy daraxtdan ancha kichik bo‘lsa, bu nisbat tabiatdagi real ko‘rinishlarga mos kelmaydi. Shu sababli, manzara chizishda proporsiya asosiy mezonlardan biridir.

Chizishni o‘rganiyotganda tasvirni iloji boricha qog‘oz sathiga to‘ldirib ishlash kerak deyiladi. Lekin buni qonun qilib olish ham noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki kompozitsiyada variantlar cheksiz bo‘lishi mumkin. Agar oddiy A4 formatdagi albomga nimadir chizishni boshladik-mi, shuning o‘zi A4 o‘lchamdagi formatga nisbatan kompozitsiya tuzish hisoblanadi. Manzara chizishda albatta kompozitsiya qonun-qoidalariga amal qilishimiz lozim. Shuni nazarda tutish kerakki nafaqat kompozitsiya markazi, balki tasvirning ko‘rinishini diqqat e’tibordan chetda qolishi kerak emas. Manzara chizishni o‘rganayotgan talabalar kompozitsiya masalalarida bir qancha bir xil xatolarga, muammolarga uchraydilar. Talabalarni plener amaliyotiga olib chiqib tabiat manzarasini chizdirayotganimizda ular kompozitsion muvozanatni, kompozitsion

markazni to‘g‘ri topa ololmasligi hamda umumiylik va bir-biriga bo‘ysunishlilikka amal qilishda qiyinchilikka uchrayotganligining guvohi bo‘lamiz.

Ma’lumki har bir tasviriy san’at asarida–naryurmortda yoki murakkab kompozitsiyada ham doimo asosiy–markaziy buyum bo‘lishi shart. Muayyan mavzu mazmunini belgilovchi asosiy narsalar kompozitsiyaning markazi hisoblanadi. Chiziqlar, perspektiva, rang tus, yorug‘lik kabi shunga o‘xshash elementlar mujassamlashtirilgan tasvirlar sizning fikr va his tuyg‘ularingizni tomoshabinga yetkazadigan kompozitsiyaga kiradi. Shuning uchun talaba tabiat manzarasini chizishdan oldin auditoriyada natyurmort kompozitsiyasini qonun-qoidalari asosida chizib o‘rgangan bo‘lishlari kerak. Uyg‘onish davridayoq har bir asarda bizning diqqat e’tiborimizni jalb qiladigan ma’lum bir nuqta, fazoviy tekislikda jismlarning o‘zaro uyg‘unlikda joylashish, kompozitsiya asoslari, “oltin kesim” va boshqa tushunchalar Leonardo da Vinchi kabi rassomlar tomonidan asoslangan.

Demak, manzara chizishda kompozitsion yechimga, kompozitsion markazini topishga, “oltin kesim” qoidasiga amal qilgan holda ishni bajarishga harakat qilsa, o‘zi istagan natijaga erisha oladi.

ADABIYOTLAR

1. Tojiyev B. T, Sultonov Hayitboy Eraliyevich “Qalamtasvir” (manzara ishlash) o‘quv qo‘llanma Toshkent. 2014y - 22b
2. D.A.Nazilov, I,V, Dmitriyeva, N.X..Xajibayeva “Kompozitsiya asoslari” darslik Toshkent:. 2009-9b
3. R. Rajabov, H.Sultonov, “Tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma)Toshkent -2008
4. Khudoynazarova, O. Oliy pedagogik ta’limda talabalarga inson portretini tasvirlashda plastik anatomiyaning nazariy asoslari.
5. Султанов, Х. (2023). Мустақил таълимни ташкил этиш орқали талабалардаги касбий ва ижодий қобилиятларини фаоллаштириш. International scientific and practical conference on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”, *1*(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/125
6. Sultanov Xaytboy Eralievich. (2023). A cluster approach as a tool for supporting the integration of indisciplinary research and educational networks. current research journal of pedagogics, 4(11), 91–98. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-16
7. The role of integrative education in student activation. (2024). *Web of Teachers: Inderscience Research* , *2*(11), 151-155. https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/2188

TASVIRIY SAN’ATDA PORTRET JANRINI O‘RGATISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

[1]Xudaynazarova Ug‘iloy Sharifovna, [2]Tog‘ayev Elyor Alimardon o‘g‘li, [3]Xasanova Sevinch Xusan qizi

[1]CHDPU “Tasviriy san’at va dizayn”kafedrasi o‘qituvchisi,
[2]ChDPU Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 3- bosqich talabasi
[3]ChDPU Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 1- bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17403675

Annotatsiya*. Ushbu maqolada tasviriy san’atda portret janrini o‘qitishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Portret janrining o‘ziga xos xususiyatlari, uning badiiy va pedagogik vazifalari tahlil etilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda estetik zavq, texnik mahorat va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda portret janrining ahamiyati ko‘rsatilgan.*
Kalit so‘zlar*: tasviriy san’at, portret janri, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, pedagogik asoslar.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены теоретические и практические основы обучения жанру портрета в изобразительном искусстве. Раскрыты особенности портретного жанра, его художественные и педагогические функции. Подчёркивается значение жанра портрета в формировании эстетического вкуса, технического мастерства и творческого мышления учащихся.*
Ключевые слова*: изобразительное искусство, портретный жанр, эстетическое воспитание, творческое мышление, педагогические основы.*

Abstract *. This article explores the theoretical and practical foundations of teaching the portrait genre in fine arts. The specific features of the portrait genre and its artistic and pedagogical functions are analyzed. The paper highlights the importance of portrait studies in developing students’ aesthetic taste, technical skills, and creative thinking.*
Key words: *fine art, portrait genre, aesthetic education, creative thinking, pedagogical foundations.*

Tasviriy san’at inson ma’naviyatini yuksaltirishda, dunyoqarashini boyitishda va estetik ehtiyojlarini qondirishda muhim o‘rin tutadi. Unda ayniqsa portret janri alohida ahamiyatga ega, chunki portret orqali inson qiyofasi, ichki dunyosi, xarakter xususiyatlari va ruhiy holati ifodalanadi. Shu boisdan, ta’lim jarayonida portret janrini o‘qitish nafaqat texnik mahoratini shakllantirish, balki yoshlarda badiiy tafakkur va insoniy qadriyatlarni anglash hissini kuchaytiradi.

Portret janri – bu inson yuzi va qiyofasini tasvirlashga qaratilgan san’at turi bo‘lib, unda nafaqat tashqi o‘xshashlik, balki shaxsning ma’naviy-ruhiy qiyofasi ham aks ettiriladi. Portretda: individuallik (shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari),xarakter va ichki dunyosi, zamonaviylik va tarixiy voqelik bilan bog‘liqlik ifodalanishi lozim.

Portret janrini ta’lim jarayonida o‘rgatish bosqichma-bosqich olib boriladi:

1. Nazariy tayyorgarlik – o‘quvchilar portret janri tarixi, turlari (avtoportret, jamoaviy portret, rasmiy portret va h.k.) bilan tanishadilar. Shu orqali ular tasviriy san’atning umumiy qonunlarini chuqurroq anglaydilar.

2. Amaliy mashg‘ulotlar – inson boshi va yuzining proporsiyalari, anatomik tuzilishi, qiyofadagi ifodalarni o‘rganish. Bu bosqichda ko‘plab etyudlar va naturadan chizish mashqlari olib boriladi.

3. Badiiy ifodaviylikka e’tibor – portret nafaqat texnik jihatdan to‘g‘ri chizilishi, balki inson xarakteri va ichki dunyosi ifoda etilgani bilan qimmatlidir. Shu sababli talabalarga kompozitsiya, yorug‘lik-soya, kolorit, psixologik holatni tasvirlash kabi elementlar o‘rgatiladi.

4. Ijodiy ishlar – o‘quvchilar o‘z do‘stlari, oila a’zolari yoki mashhur shaxslarning portretlarini mustaqil chizish orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Portret janrini o‘qitish jarayonida quyidagi pedagogik asoslar muhim ahamiyatga ega:

Estetik tarbiya – inson qiyofasi orqali yoshlarda nafosatni anglash va qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish.

Ijodkorlikni rivojlantirish – har bir o‘quvchining individual tasavvuri va badiiy ifodasini qo‘llab-quvvatlash.

Psixologik yondashuv – inson qiyofasi orqali shaxs xarakteri va ruhiy holatini his etish qobiliyatini oshirish.

Tarixiy-ma’naviy merosga tayanish – o‘zbek va jahon san’atining mashhur portretchilari ijodini o‘rganish orqali madaniy merosga hurmat tuyg‘usini shakllantirish.

Portret janrini o‘qitish jarayonida o‘quvchilar nafaqat texnik malakalarni, balki insonni anglash, uning ma’naviy qiyofasini ifoda etish kabi muhim jarayonlarni ham o‘zlashtiradilar. SHu boisdan, portret janri ta’limning badiiy-pedagogik asoslaridan biri sifatida juda katta ahamiyatga egadir.

Portret janrini o‘qitish tasviriy san’at ta’limining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, u nafaqat texnik ko‘nikmalarni shakllantirish, balki shaxsning ichki dunyosini idrok etish va badiiy ifodalash imkonini beradi. Portret san’atining o‘ziga xosligi shundaki, unda insonning tashqi qiyofasi bilan bir qatorda uning ruhiy holati, xarakter xususiyatlari va ichki dunyosi ham tasvirlanadi. Bu jarayon o‘quvchilardan nafaqat texnik aniqlik, balki psixologik sezgirlik, ijodiy tafakkur va estetik didni ham talab etadi.

Portret janrini o‘qitishda nazariy bilimlar, amaliy mashqlar, badiiy ifodaviylik va ijodiy mustaqillik bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirilganda, o‘quvchilarda san’atning asl mohiyatini anglash imkoniyati kengayadi. Ayniqsa, inson qiyofasini tasvirlash jarayonida yuz ifodalari, proporsiyalar, yorug‘lik va soya munosabati, kompozitsion yechimlar orqali nafaqat badiiy mahorat, balki psixologik idrok va obrazli fikrlash ham shakllanadi.

Pedagogik jihatdan qaralganda, portret janrini o‘qitish o‘quvchilarda estetik tarbiya, madaniy merosga hurmat, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash va insoniy qadriyatlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali yoshlar nafaqat san’at sir-asrorlarini o‘zlashtiradilar, balki o‘z shaxsiy dunyoqarashlarini boyitadilar, jamiyatning ma’naviy taraqqiyotida faol ishtirok eta oladigan ijodkor insonlar sifatida shakllanadilar.

Shunday qilib, portret janrini o‘qitish san’at ta’limida shaxsni estetik, intellektual va ma’naviy jihatdan tarbiyalashning samarali vositasi hisoblanadi. U o‘quvchilarda nafosatni his etish, insoniy fazilatlarni anglash va ularni badiiy ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Portret janrining o‘ziga xos badiiy va psixologik ahamiyati uni tasviriy san’at ta’limining ajralmas va ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kayumov B. “Tasviriy san’at nazariyasi va metodikasi.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

2. Xoliqov A. “San’atshunoslik asoslari.” – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
3. Muxammadiev U. “Yoshlarga tasviriy san’atdan bilim berish metodikasi.” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Arnheim R. “Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye.” – Berkeley: University of California Press, 2004.
5. Read H. “Education through Art.” – London: Faber & Faber, 1970.
6. R. Rajabov, H.Sultonov, “Tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma)Toshkent -2008
7. Khudoynazarova, O. Oliy pedagogik ta’limda talabalarga inson portretini tasvirlashda plastik anatomiyaning nazariy asoslari.
8. Султанов, Х. (2023). Мустақил таълимни ташкил этиш орқали талабалардаги касбий ва ижодий қобилиятларини фаоллаштириш. International scientific and practical conference on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”, *1*(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/125
9. Sultanov Xaytboy Eralievich. (2023). A cluster approach as a tool for supporting the integration of indisciplinary research and educational networks. current research journal of pedagogics, 4(11), 91–98. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-16
10. The role of integrative education in student activation. (2024). *Web of Teachers: Inderscience Research* , *2*(11), 151-155. https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/2188

XOMAKI RASMLAR CHIZISHNING PORTRET CHIZISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

[1]Xudaynazarova Ug'iloy Sharifovna, [2]Turdiyeva Sevinch Zulqaynar qizi, [3]Perneyeva Aliya Anvarqizi

[1]CHDPU "Tasviriy san'atva dizayn"kafedrasi o'qituvchisi,
[2]ChDPU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 3- bosqich talabasi
[3]ChDPU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1- bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17403693

Annotatsiya. *Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash va rangtasvirda portret ishlash jarayonida qalamtasvir, qalamchizgi, xomaki rasmlarning ahamiyati xaqida so'z boradi. Talabalarga naturaga qarab tasvirlash bo'yicha amaliy mashqlar bajarish texnologiyalari borasida amaliy maslahatlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *rangtasvir, kompozitsiya, shakl, hajm, nisbat, qalamchizgi va qalamtasvir, chiziqli konstruktiv qurilish.*

Аннотация. *В статье рассказывается роль методики работы над портретом в профессиональной подготовке будущих учителей изобразительного искусства. Дается практические советы и технология выполнения учебных набросков с натуры.*

Ключевые слова: *Живопись, композиция, форма, объем, пропорция, набросок и рисунок, линейно конструктивное построение.*

Abstract. *The article discusses the importance of pencil drawings, pencil sketches, and sketches in the professional training of future teachers of fine arts and the process of working on portraits in painting. Students are given practical advice on the technologies for performing practical exercises in drawing from nature.*

Key words: *Painting, composition, shape, size, proportion, pencil drawing and pencil drawing, linear construction.*

Tasviriy san'at ta'limida xomaki rasmlar chizish mashqlari o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Mashhur rassom va nazariyotchilar (L. Da Vinchi, P. Picasso, Repin va boshqalar) o'z asarlarida tezkor chizgilarni rassomlik maktabining "alfaviti" deb baholaganlar. Xomaki rasm portret janrida inson boshining umumiy shakli, proporsiyalari, xarakterli xususiyatlarini tez va aniq tasvirlash imkonini beradi.

Talabalarga jismlarni naturaga qarab to'g'ri tasvirlash mashqlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bo'lajak rassom-pedagogning tasviriy san'at sohasidagi mahoratini shakllantirish auditoriyada naturani hayotiy tasvirlash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Bu to'g'rida buyuk rassom va nazariyotchilar o'zlarining fikrlarini ko'plab ilmiy maqolalarida bayon etganlar.

Naturadan rasm chizish mashg'ulotlarda talaba birinchi galda turli shakllarning o'ziga xos tomonlarini to'g'ri ko'rishni o'rganadi. Shakllarni o'ziga qarab rasmini chizish talabaning naturaga qo'yilgan shakllarni qanday qabul qilishiga bog'liq. Ma'lumki, insonlar jismlar va ularning tasvirini turlicha tasavvur etadilar. Bu esa birinchi navbatida har bir insonning ko'z tuzilishiga va ayniqsa tasviriy san'at borasida ko'rish qobiliyatiga bog'liq. Rasm chizishni o'rgatishda asosiy vazifa, bu rassomda jism shaklini masofadan ko'rish va tasvirlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Jism shaklini masofadan (kenglikda) ko'rish va tasvirlash – jismni

«to‘la hajmda», uch o‘lchamli shaklda (balandligi, eni va qalinligini) ko‘rish demakdir. Xaqqoniy rasm chizish ko‘z bilan o‘lchash, masofa va jism o‘lchamlarini ko‘zda chamalash, va naturani to‘g‘ri anglash orqali erishiladi. Bunday hollarda jism o‘lchami va masofani aniqlash uchun ko‘z bilan chamalash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. CHamalash qobilyatlari bo‘lajak pedagogni o‘z ishlariga nisbatan e’tiborli, mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatadi, ularda atrofdagi buyum va shakllarni sinchkovlik bilan tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi va bir vaqtning o‘zida ko‘rgan qiyofani eslab qolish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Chamalash qobiliyatini shakllantirish uchun ish jarayonida doimiy ravishda ko‘z bilan nisbatni aniqlab turish yaxshi natija beradi. Ko‘rish orqali eslab qolish rassomning eng qimmatli va e’tiborli hislati bo‘lib, u orqali jism shakli, nisbati va tuzilishi haqidagi aniq va umumiy tasavvurni xotirada saqlaydi. Bu esa shaklni xotiradan, tasavvur va anglash asosida chizish imkonini beradi va rassomning kelgusida mustaqil kompozitsiyalar va eskizlar yaratish borasidagi ishlarini birmuncha engillashadi.

Portret chizishda xomaki rasmlarning o‘rni kata.Portret – inson shaxsiyatining tashqi qiyofasi va ichki dunyosini ifodalovchi murakkab janrdir. Talabalar dastlabki bosqichlarda inson boshining oval shakli, suyak tuzilishi, simmetrik qonuniyatlari bilan tanishadilar. Shu jarayonda qisqa muddatli etyudlar ularning kuzatuvchanligini oshiradi, yuz ifodalaridagi o‘zgarishlarni aniqlashga yordam beradi.

Amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi vazifalar muhim:

1. Inson boshining asosiy proporsiyalarini o‘rganish;
2. Kalla suyagi va yuz qismlarining tuzilishini chizgilar orqali anglash;
3. Yorug‘lik va soya munosabatini oddiy chiziqlar yordamida ifodalash;
4. Xarakterni berishda tezkor va ishonchli chizgilar qo‘llash.

Amaliy mashg‘ulotlar metodikasi

Xomaki rasmlar qisqa muddatli bo‘lib (2–5 daqiqa), asosiy shakl va umumiy harakatni ifodalashga qaratiladi. Masalan:

- birinchi mashqlarda bosh suyaklari va oval shaklni chizish;
- ikkinchi bosqichda yuz qismlarining joylashuvi va proporsiyalarini aniqlash;
- uchinchi bosqichda esa jonli model asosida turli burilish va holatlardan chizgilar bajarish.

Mazkur mashqlar orqali talaba “ko‘rish madaniyati”ni egallaydi – ya’ni, predmetni yaxlit ko‘ra olish, asosiy belgilarni ajratish va ularni tez tasvirlash mahoratini shakllantiradi.

Xomaki rasmlar talabalarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi:

“diqqat va kuzatuvchanlik” – asosiy shaklni tez topish va ko‘ra olish;

“chamalash va nisbatni aniqlash” – masofani ko‘z bilan o‘lchash;

“eslab qolish qobiliyati” – ko‘rilgan shaklni ongda saqlash va qayta tiklash;

“ijodiy tafakkur” – portretni individual va obrazli talqin etish.

Bular bo‘lajak san’at o‘qituvchisining nafaqat badiiy, balki metodik tayyorgarligi uchun ham muhimdir.

Xomaki rasmlar portret o‘rgatishda dastlabki tayanch mashqlar sifatida katta ahamiyatga ega. U talabalarni kuzatuvchanlikka, nisbatlarni to‘g‘ri ko‘ra olishga, tezkor ifodaga o‘rgatadi. Natijada ular portret san’atida nafaqat tashqi o‘xshashlikni, balki insonning ruhiy qiyofasini ham tasvirlash mahoratini egallaydilar. Shuningdek, bunday mashqlar talabalarda estetik did, badiiy tafakkur va pedagogik sezgirlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, tasviriy san’at ta’limida xomaki rasmlar portret chizish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini boyituvchi muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boymetov B.B. “Qalamtasvir.” Darslik. 1-qism. – Toshkent, 2006.
2. Ростовцев Н.Н. “Учебный рисунок.” – Москва: Просвещение, 1979.
3. Boymetov B.B., Tolipov M. “Plastik anatomiya.” – Toshkent: “Ilm-Ziyo”, 2005.
4. Khudoynazarova, O. Oliy pedagogik ta’limda talabalarga inson portretini tasvirlashda plastik anatomiyaning nazariy asoslari.
5. Султанов, Х. (2023). Мустақил таълимни ташкил этиш орқали талабалардаги касбий ва ижодий қобилиятларини фаоллаштириш. International scientific and practical conference on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”, *1*(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/125
6. Sultanov Xaytboy Eralievich. (2023). A cluster approach as a tool for supporting the integration of indisciplinary research and educational networks. current research journal of pedagogics, 4(11), 91–98. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-16
7. The role of integrative education in student activation. (2024). *Web of Teachers: Inderscience Research* , *2*(11), 151-155. https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/2188

TASVIRIY SAN'ATDA NATYURMORT CHIZISH QONUN-QOIDALARI

[1]Xudaynazarova Ug'iloy Sharifovna, [2]Dehqonboyeva Dilafruz Davron qizi, [3]Raxmatov Axmadbek Ilhom o'g'li

[1]CHDPU "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi o'qituvchisi,
[2]CHDPU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 3- bosqich talabasi
[3]CHDPU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1- bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17407725

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasviriy san'atning muhim janrlaridan biri bo'lgan "natyurmort" ning mazmun-mohiyati, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda uni chizishning asosiy qonun-qoidalari tahlil qilinadi. Natyurmortda predmetlarning joylashuvi, yorug'lik va soya uyg'unligi, ranglarning muvozanati, kompozitsion tuzilish kabi elementlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, natyurmort chizish jarayonining o'quvchilar estetik didini shakllantirish, kuzatuvchanligini oshirish va badiiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Natyurmort, tasviriy san'at, kompozitsiya, yorug'lik va soya, rang uyg'unligi, perspektiva, estetik did.*

Аннотация. *В статье рассматривается одно из важных направлений изобразительного искусства — "натюрморт". Анализируются его сущность, исторические этапы развития и основные законы построения композиции. Особое внимание уделено расположению предметов, роли света и тени, цветовой гармонии, а также законам перспективы. Также показано значение рисования натюрморта в формировании эстетического вкуса, наблюдательности и художественного мышления учащихся.*

Ключевые слова. *Натюрморт, изобразительное искусство, композиция, свет и тень, цветовая гармония, перспектива, эстетический вкус.*

Annotation. *This article examines "still life" as one of the essential genres of fine art. It analyzes its essence, historical stages of development, and the main principles of still life drawing. Particular attention is given to composition, object arrangement, light and shadow balance, color harmony, and perspective rules. The article also highlights the importance of still life drawing in developing students' aesthetic taste, observation skills, and artistic thinking.*

Keywords. *Still life, fine art, composition, light and shadow, color harmony, perspective, aesthetic taste.*

Natyurmort (frans. nature morte — jonsiz tabiat) — tasviriy san'at janri. Insonning atrofini o'rab turgan real maishiy muxitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi; shuningdek, shu janrda yaratilgan rassomlik asari ham Natyurmort deb ataladi. Asosan, dastgohli rassomlik (rangtasvir va grafika), qisman haykaltaroshlik (asosan, relyef) ishlanadi. Natyurmortda «jonsiz buyumlar» (Mas, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-aslahalar va b.)dan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari (stoldagi baliq, vazadagi gul va b.) ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to'ldirish uchun ba'zan Natyurmortga odamlar, hayvonlar, kushlarni ham kiritish

mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan Natyurmortda namoyon bo‘ladi.

Natyurmortda tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to‘ldiradigan) buyumlar o‘z egasining fe’l-atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko‘rsatishga qaratilgan.

Natyurmort qadimgi Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm davri mozaikalarida, Xitoyda («qush va gullar») kompozitsiya bo‘lagi sifatida ma’lum bo‘lgan; Yevropada oxiri boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo‘ldi, keng tarqala boshladi, eng taraqqiy etgan davriga to‘g‘ri keladi, XVIII asrdan «Natyurmort» atamasi qo‘llanila boshlandi. Italyan rassomi M. Karaeajo va uning izdoshlari (karavajizm) Natyurmortning keng tarqalishida muhim rol o‘ynadi: gul va mevalar, dengiz in’omi — baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiya (V. K. Xeda, P. Klas va b.), Flandriya (F. Sneyders, Ya. Feyt), Ispaniya (F. Surbaran Fransiya) (J. B. Sharden) va boshqalarda yuksak taraqqiyotga erishdi. P. Sezann, A. Matiss, J. Brak va boshqalar natyurmortga ko‘proq e’tiborni qaratganlar. XX asrda natyurmort realistik an’analarini Meksikada D. Rivera, D. Sikeyros, Italiyada R. Guttuzolar davom ettirdi. Rossiyada Natyurmort XVIII asrda paydo bo‘ldi, ko‘zni aldaydigan «xuddi o‘ziga o‘xshash» (aldamchi) rasmlar ishlashdan (G. N. Teplov, P. G. Bogomolov va b.) shakllanib bordi, XIX asrning 1-yarmida haqqoniylikka, borliqni o‘zidan go‘zallik topishga harakat qilindi (M. A. Vrubel, K. Korovin, I. E. Grabar va boshqalar), shakl, faktura va bezakdorlik borasidagi yutuqlarga erishildi (P. Kuznetsov, P. P. Konchalovskiy, A. Kuprin va b.).

O‘zbekiston tasviriy san’atida natyurmort unsurlari qadimgi davr san’atida (Masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida — vazadagi mevalar), miniatyura san’atida (Masalan, Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar — siyohdon, qamchi) uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX asr ning 30—50-yillariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo‘ldi: L. Nasriddinov («Nonli Natyurmort»), Sh. Hasanova («Xitoy chinnisi bilan ishlangan Natyurmort»); M. Kurzin, V. Rojdestvenskiy, V. Ufimsev, N. Kashina, 3. Kovalevskaya, O. Tatevosyan, S. Abdullayev, V. Fadeyev, Yu. Yelizarovlar yaratdilar. 60—80yillarda L. Salimjonova, Yu. Taldikin, R. Choriyev, V. Burmakin, Ye. Melnikovlar ijodida natyurmort keng o‘rin tutadi. Rassomlar R. Ahmedov, A. Ikrom-jonov, M. Nuriddinov va boshqalar natyurmort janrida samarali ijod qilib, natyurmortning taraqqiyotini ta’minladilar.

- Natyurmort chizishda eng muhim jihatlardan biri – bu **kompozitsiya**.
- Predmetlar tartibida muvozanat, uyg‘unlik bo‘lishi kerak.
- Juda ko‘p predmet qo‘yishdan ko‘ra, kamroq predmet bilan asosiy g‘oyani ifodalash maqsadga muvofiq.
- Predmetlarning joylashuvi ko‘rish nuqtasi va sahnaning markaziy diqqat markaziga mos bo‘lishi lozim.

Yorug‘lik manbai bitta bo‘lishi kerak (tabiiy yoki sun’iy).

- Yorug‘lik va soyaning to‘g‘ri joylashtirilishi predmetlarning hajmini, chuqurligini ko‘rsatadi.
- Yorug‘lik predmetlarning shaklini bo‘rttirib, ularning o‘zaro nisbatini yanada ravshanlashtiradi.
- Ranglar o‘zaro mos bo‘lishi zarur.

- Juda keskin kontrastlardan saqlanish tavsiya etiladi, lekin asosiy detalni ajratish uchun kontrast rangdan foydalanish mumkin.
- Ranglar kompozitsiyaning umumiy kayfiyatini belgilaydi. Masalan, iliq ranglar natyurmortga samimiylik, sovuq ranglar esa jiddiylik baxsh etadi.
- Predmetlarning kattaligi chizilayotgan joyga qarab to‘g‘ri joylashtiriladi.
- Oldingi predmetlar yirikroq, orqa fondagilar esa kichikroq tasvirlanishi kerak.
- Perspektiva qoidalariga rioya qilish natyurmortning realistik chiqishini ta’minlaydi.
- Har bir predmetning o‘ziga xos **faktura**si (ya’ni yuzasining tuzilishi: shisha silliqligi, mato yumshoqligi, meva sershiraligi) to‘g‘ri berilishi lozim.
- Kichik detallarga e’tibor qaratish chizmaga jon bag‘ishlaydi.

Natyurmort chizish o‘quvchilarga quyidagi ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradi

- O‘quvchilarni predmetlarni to‘g‘ri ko‘rish va tasvirlashga o‘rgatadi.
- San’atning asosiy qonun-qoidalarini amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.
- Estetik didni tarbiyalaydi, sabr-toqat va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi.

Natyurmort chizish – tasviriy san’atning muhim janrlaridan biri bo‘lib, u rassomni kuzatishga, detallarni his etishga, rang va shakllarni uyg‘unlashtirishga o‘rgatadi. To‘g‘ri tanlangan kompozitsiya, yorug‘lik va rang muvozanati, perspektiva qoidalariga amal qilish natijasida natyurmort asari san’atkorning badiiy mahoratini namoyon etadi.

Natyurmort tasviriy san’atning eng qadimiy va muhim janrlaridan biri sifatida san’atkor ijodida ham, ta’lim jarayonida ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Unda kundalik hayot buyumlari, jonli va jonsiz predmetlarning uyg‘unlikda tasvirlanishi nafaqat estetik go‘zallikni yoritadi, balki rassomning kuzatuvchanligi, badiiy tafakkuri va texnik mahoratini ham namoyon etadi.

Shuningdek, natyurmort o‘quvchilarda sabr-toqat, diqqat-e’tibor, puxtalik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. O‘zbekiston rassomchiligi tarixida bu janrning rivojlanishi milliy an’analar bilan uyg‘unlashgan holda boy tajriba yaratdi. Bugungi kunda natyurmortni o‘rgatish metodikasini zamonaviy texnologiyalar, fanlararo integratsiya va individual yondashuv asosida takomillashtirish tasviriy san’at ta’limining dolzarb vazifalaridan biridir.

Demak, natyurmort chizish qonun-qoidalarini o‘rgatish jarayonida kompozitsiya, rang uyg‘unligi, yorug‘lik va soya, perspektiva hamda faktura kabi elementlarga qat’iy amal qilish nafaqat badiiy sifatni ta’minlaydi, balki yosh avlodning estetik didini shakllantirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliakbarova Sh. “Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
2. Juraev A. “Kompozitsiya asoslari”. – Toshkent: San’at, 2010.
3. Гомбрих Е. “История искусства”. – Moskva: Искусство, 1998.
4. Xudoyberdiyev S., Ahmedov R. “Tasviriy san’at asoslari” – Toshkent: O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2012.
5. Internet manbalari: www.fineartamerica.com, www.artcyclopedia.com
6. Sultanov Xaytboy Eralievich. (2023). A cluster approach as a tool for supporting the integration of indisciplinary research and educational networks. current research journal of pedagogics, 4(11), 91–98. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-16

IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPOZITSIYANING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Yusupova Shoxista Alimjanovna
Guliston davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik” kafedra katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17407745

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda kompozitsiya san’atining pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Kompozitsiya talabalarda ijodiy ishni yaratish tizimli, mantiqiy va estetik asosda shakllantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni faollashtirishda muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada kompozitsiyaning ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unligi va talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, kompozitsiyani o‘rgatishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari, innovatsion metodlar qo‘llash zarurligi haqida fikrlar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompozitsiya, printsip, estetik, pedagogik, interaktiv, kreativ, statistika, maksimal, tasavvur, multimedia, janr, mahorat, ijod, standart, innovatsion.*

Аннотация: *В статье анализируется педагогическое значение искусства композиции в развитии творческих способностей. Композиция рассматривается как важный инструмент формирования творческой деятельности учащихся на системной, логической и эстетической основе, активизации самостоятельного мышления и творческого мышления. В статье освещается роль композиции в образовательном процессе, её совместимость с современными педагогическими технологиями и роль в повышении творческого потенциала учащихся. Выдвигаются идеи о проблемах, возникающих при обучении композиции, и путях их преодоления, а также о необходимости использования инновационных методов.*

Ключевые слова: *композиция, принцип, эстетический, педагогический, интерактивный, творческий, статистика, максимум, воображение, мультимедиа, жанр, мастерство, креативность, стандарт, инновационный.*

Abstract: *This article analyzes the pedagogical significance of the art of composition in the development of creative abilities. Composition is considered an important tool for forming students' creative work on a systematic, logical and aesthetic basis, activating independent thinking and creative thinking. The article highlights the role of composition in the educational process, its compatibility with modern pedagogical technologies, and its role in increasing students' creative potential. Also, ideas were put forward about the problems that arise in teaching composition, ways to overcome them, and the need to use innovative methods.*

Keywords: *composition, principle, aesthetic, pedagogical, interactive, creative, statistics, maximum, imagination, multimedia, genre, skill, creativity, standard, innovative.*

Ijodiy qobiliyat insonning yangi va noyob g‘oyalar yaratish, muammolarni hal qilish va o‘z fikrini ifoda etishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi zamon ta’lim tizimida ijodiy yondashuvlarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida kompozitsiya asoslarini chuqur o‘rganish va qo‘llash katta ahamiyatga ega.

[96] МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ ДЛЯ ОБЩЕСТВА Марасулова И. М. старший преподаватель кафедры «Изобразительное искусство» ЧГПИ

3. Педагогический эффект

Интеграция прикладного искусства в уроки ИЗО позволяет:

- активизировать междисциплинарные связи (история, литература, технология);
- повысить интерес к изобразительному искусству;
- укрепить национальное самосознание учащихся;
- обеспечить передачу культурных традиций через систему образования.

Эстетическое воспитание - это целенаправленный процесс формирования творчески активной личности, способной воспринимать и оценивать прекрасное, совершенное, гар- моничное явления в жизни, природе искусстве, жить и творить» по законам красоты.» Большой вклад в воспитании человека будущего т.е. гармонично - развитого поколения зависит от нас - педагогов. Чем раньше мы увидим и посеем красоту в душе маленьких людей тем раньше мы получим гармонично развитое общество. Таким образом, обучение прикладному искусству на уроках изобразительного искусства является важным направлением художественного образования. Оно обеспечивает сохранение нематериального наследия, способствует развитию творческого потенциала учащихся и формированию национальной идентичности.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Абдураимов А. История декоративно-прикладного искусства Узбекистана. – Ташкент: Фан, 2018.
2. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ ДЛЯ ОБЩЕСТВА Марасулова И. М. старший преподаватель кафедры «Изобразительное искусство» ЧГПИ
3. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI I.M.Marasulova, R.R.Jabbarov *Amaliy bezak san’ati* fanidan darslik 60111200-Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi Toshkent-2023 «Zebo prints»
4. Бекназарова Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – Ташкент: Учитель, 2019.
5. Марасулова И.М. ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОФОРМЛЕНИЕ И ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОЕ ИСКУССТВО учебное руководств 5110800 - Изобразительное искусство и инженерная графика ЧИРЧИК - 2023
6. UNESCO. Traditional crafts of Central Asia as intangible cultural heritage. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
7. Lex.UzПостановление П Р Е З И Д Е Н Т А РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 09.12.2021 г. N ПП-36

РАЗВИТИЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ И ДИЗАЙНЕРСКИХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ: ИНКЛЮЗИВНЫЕ И ИГРОВЫЕ МЕТОДЫ

Мырзабекова Аружан Қожабекқызы[1], Тәліпбек Ақерке Сарханқызы[2], Жұбанова Сәуле Айтхожақызы[2]
[1]Магистр, преподаватель, [2]студент, [2]студент университета «Мирас»
https://doi.org/10.5281/zenodo.17407962

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности использования цифровых инструментов в развитии изобразительных и дизайнерских навыков у детей дошкольного возраста. Анализируются психолого-педагогические основы творческого развития и этапы формирования художественных способностей в раннем возрасте. Особое внимание уделяется инклюзивному образованию и игровым методам, позволяющим эффективно раскрывать индивидуальный потенциал каждого ребёнка. Приводятся примеры отечественного и зарубежного опыта (Reggio Emilia, Montessori, STEM/STEAM, UNESCO), описаны практические формы применения графических планшетов, интерактивных досок, мобильных приложений и технологий дополненной и виртуальной реальности. Выявлены преимущества и трудности цифровизации дошкольного образования, предложены рекомендации для педагогов.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, цифровые технологии, изобразительное искусство, дизайн, инклюзия, игровые методы, креативность, творческое развитие.*

Творчество является важнейшим компонентом личностного развития ребёнка. Для детей дошкольного возраста изобразительное искусство выступает основным средством выражения воображения, эмоций и мировосприятия. Через рисунок ребёнок формирует собственный «язык» и передаёт отношение к окружающему миру. Традиционные материалы — бумага, краски, кисти — по-прежнему сохраняют ценность, однако цифровые технологии значительно расширяют возможности художественной деятельности. Современные исследования показывают, что цифровая среда способствует развитию креативности, делая образовательный опыт ребёнка интерактивным, гибким и увлекательным [1].

С психологической точки зрения дошкольный возраст является периодом активного развития воображения. Л. С. Выготский рассматривал воображение как способность ребёнка преобразовывать реальность и подчёркивал его ключевую роль в творчестве [2]. Цифровые инструменты позволяют ребёнку свободно экспериментировать с цветами, формами и сюжетами, что значительно активизирует воображение. Так, работа на графическом планшете даёт возможность многократно изменять рисунок, дополнять его эффектами и легко исправлять ошибки, что усиливает смелость и инициативность в художественной деятельности.

Казахстанские исследователи также отмечают важность развития творческого потенциала. По мнению С. А. Жолдасбековой, одной из ключевых задач дошкольной педагогики является раскрытие индивидуальных способностей ребёнка [3]. Цифровые технологии в данном процессе не заменяют традиционные методы, а органично их дополняют, предоставляя новые инструменты для воспитателя.

Широкий спектр цифровых средств включает графические планшеты, интерактивные доски, мультимедийные приложения, технологии дополненной (AR) и виртуальной (VR) реальности. Графический планшет позволяет ребёнку свободно выбирать цвета и линии; интерактивная доска создаёт условия для групповой работы; VR-среда способствует развитию пространственного воображения и дизайнерского мышления.

Особое значение цифровые инструменты приобретают в инклюзивном образовании. Дети с ограниченными возможностями здоровья получают доступ к творчеству благодаря адаптированным цифровым программам. Например, использование стилуса облегчает процесс рисования для детей с нарушениями моторики; приложения со звуковым сопровождением помогают детям с нарушением слуха; программы с усиленной контрастностью создают условия для детей с ослабленным зрением [4]. Это позволяет каждому ребёнку реализовать собственный творческий потенциал.

Игровая деятельность остаётся ведущим видом активности дошкольников. Поэтому интеграция цифровых технологий в игру повышает эффективность художественного воспитания. Так, приложение «Цифровая мозаика» формирует у детей умение составлять изображения из геометрических форм, а «Волшебная кисть» сопровождает каждое действие яркими визуальными эффектами, создавая атмосферу творчества и радости.

Международные педагогические практики подтверждают значимость свободы самовыражения ребёнка. Подход Reggio Emilia основывается на концепции «ста языков», где ребёнок выражает себя через рисунок, музыку, театр, движение и цифровые медиа [5]. В методике Монтессори также подчёркивается свобода выбора, а цифровые инструменты усиливают её возможности.

Современные интегративные подходы STEM и STEAM способствуют объединению искусства с наукой и технологиями уже в дошкольном возрасте. Компонент «Arts» в STEAM обеспечивает освоение научных понятий через художественную деятельность. Например, конструирование виртуальной модели дома позволяет ребёнку учитывать как инженерные, так и эстетические закономерности [6].

В Казахстане программа «Цифровой Казахстан» стимулировала внедрение современных технологий в детские сады. Устанавливаются интерактивные доски, создаются мультимедийные центры, внедряются образовательные приложения. В ряде организаций проводятся онлайн-выставки детских цифровых рисунков, что обеспечивает доступ родителей к результатам творчества детей и повышает социальную значимость художественной деятельности.

При этом важным условием является IT-компетентность педагогов. Недостаточное владение цифровыми технологиями ограничивает их применение в образовательном процессе. Поэтому необходимо организовывать курсы повышения квалификации и методическую поддержку для воспитателей.

Однако цифровизация несёт и определённые риски. Длительное время за экраном может негативно влиять на зрение детей, а свободный доступ к интернет-ресурсам связан с проблемами кибербезопасности. Это требует постоянного контроля со стороны педагогов и родителей, а также соблюдения временных норм [7].

Перспективы развития цифрового искусства в дошкольном образовании связаны с несколькими направлениями: создание отечественных приложений для детей, расширение инклюзивных цифровых программ, повышение цифровой грамотности педагогов, активное вовлечение родителей в процесс цифрового творчества. Реализация этих задач обеспечит полноценное раскрытие творческого потенциала ребёнка в дошкольной системе.

Таким образом, использование цифровых инструментов представляет собой эффективное средство развития изобразительных и дизайнерских навыков у дошкольников. Цифровая среда расширяет возможности воображения, способствует инклюзии, поддерживает интерес к художественной деятельности через игру и выводит дошкольное образование Казахстана на новый качественный уровень.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Plowman, L., & Stephen, C. Children, Play, and Computers in Pre-School Education // British Journal of Educational Technology. – 2005. – Т. 36. – №2. – С. 145–157.
2. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Педагогика, 1991. – 120 с.
3. Жолдасбекова С. А. Дошкольная педагогика. – Алматы: Қазақ университеті, 2018. – 250 с.
4. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO, 2021. – 197 с.
5. Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Approach to Early Childhood Education. – Praeger, 2012. – 320 с.
6. Papert, S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books, 1980. – 230 с.
7. Министерство образования и науки Республики Казахстан. Государственная программа развития образования Республики Казахстан на 2020–2025 годы. – Нур-Султан, 2020. – 100 с.

2-SHO‘BA

“ZAMONAVIY SAN’ATDA MILLIYLIK: TASVIRIY VA AMALIY BEZAK SAN’ATIDA AN’ANA VA INNOVATSIYANING UYG‘UNLIGI”

MILLIY VA ZAMONAVIY USLUBLAR SINTEZI “O‘ZBEK AN’ANAVIY NAQSHLARI” INTERYERDA

Abdulazizov Bunyodbek Islomjon o‘g‘li
CHDPU San’atshunoslik fakulteti o‘qituvchisi
Xusanova Shahzoda Alisher qizi Dizayn interyer dizayn yo‘nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17418950

Annotatsiya. *Hozirgi kunda zamonaviy interyer dizayni va milliylik o‘rtasidagi uyg‘unlik bir-biriga judda yaqin. Naqshlarning tarixiy ildizlari, ularning falsafiy ma’nosi va estetik qimmati tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy arxitektura va interyer dizayni jarayonida milliy naqshlardan foydalanishning innovatsion yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Milliy va zamonaviy uslublarning sintezi nafaqat estetik jihatdan, balki madaniy merosni asrab-avaylash hamda uni yangi avlodlarga etkazishda muhim vosita ekanligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *milliy naqsh, interyer dizayn, zamonaviy uslub, milliy madaniyat, uyg‘unlik, innovatsiya.*

So‘nggi yillarda madaniyat va san’at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san’at muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. O‘zbek xalqi asrlar davomida o‘zining boy madaniy merosi, san’at va me’morchilik an’analari bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan. Ayniqsa, naqsh san’ati o‘zbek xalqining estetik dunyoqarashi, ramziy tafakkuri va milliy qadriyatlarining yorqin ifodasi sifatida shakllangan. Bugungi kunda globalizatsiya va modernizatsiya jarayonlari interyer dizaynida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Shu jarayonda milliy naqshlarning zamonaviy interyer uslublari bilan uyg‘unlashtirilishi nafaqat badiiy-estetik, balki ijtimoiy-ma’naviy jihatdan ham dolzarb masaladir.

Milliy naqshlarning tarixiy va falsafiy asoslari

O‘zbek milliy naqshlari - bu nafaqat san’at turi, ba’lki u O‘zbekiston boy tarixini va uning madaniyatini aks etturuvchi ko‘zgudir. U tarixda nafaqat bezak vazifasida, hamda, chuqur falsafiy va madaniy ma’no beruvchi sifatida qaraladi. U o‘zi bilan xalqning tabiat bilan bo‘lgan munosabatlarini aks etadi. Naqshlar asosan geometrik, hayvon-jonzotlar va o‘simlik-gul shaklida bo‘ladi. Naqshlar nafaqat bezak sifatida, ba’lki , biron-bir tarixiy voqea , asar , ertagdagi sahnalar tushirilgan rasm yoki buyumlarda ko‘rsak bo‘ladi.

O‘zbek milliy naqshlari qadimiy davrlardan buyon xalq hayotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi tarixiy shaharlarning me’moriy yodgorliklari naqshlar bilan bezalgan bo‘lib, ular insoniyat tafakkuri, tabiat manzaralari va kosmik tasavvurlarning ramziy aksidir.

Naqshlarda ko‘pincha quyidagi ramziy ma’nolar mujassam:

- ✓ Islimiy naqshlar – hayotiylik, tabiatning abadiy yangilanishi;
- ✓ Girih naqshlari – tartib, uyg‘unlik, matematik mukammallik;
- ✓ Hendese naqshlari – intellektual tafakkur va kosmosga bo‘lgan qiziqish;
- ✓ Hayvonot va qush tasvirlari – kuch, iroda, erkinlik ramzi.

Naqshlardan nafaqat kundalik buyumlarini bezashda hatto arxitektura va me’morchilikda juda ko‘p qo‘llangan. Naqshning kulolchilik, to‘qimachilik, me’morchilik, kashtado‘zlik kabi turli xil san’at sohasida foydalanilishi uning madaniyatga katta ta’siri bo‘lganini bilsak bo‘ladi.

Hatto uning ta’siri hozirdgi kunda yo‘q bo‘lib ketmagan. Aksincha, hozirgi kunda ham u keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Zamonaviy interyer dizaynida milliy naqshlar

Hozirgi kunda interyer dizayni minimalizm, loft, hi-tech, skandinaviya va boshqa ko‘plab uslublarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, milliy naqshlarning zamonaviy interyerga moslashtirilishi yangi dizayn tendensiyasi sifatida alohida o‘rin egallamoqda.

- Milliy naqshlar interyerda quyidagi yo‘llar orqali qo‘llaniladi: Devor bezaklari – naqshli ganchkorlik, 3D panel va innavatsion texnologiyalar yordamida bajariladi.
- Pol qoplamalari – gilam naqshlari yoki keramika plitalardagi milliy ornamentlar.
- Mebel dizayni – zamonaviy shakllar bilan uyg‘unlashtirilgan milliy naqshli dekorativ elementlar.
- Yorug‘lik dizayni – naqshli panjarali chiroqlar va lampalar orqali milliy ruhni yoritish.
- Aksessuarlar – yostiq jildlari, pardalar, idish-tovoqlar va boshqa mayda bezaklarda milliy naqshlardan foydalanish.



Xulosa qilib aytganda milliy naqshlar – o‘zbek xalqining ma’naviy merosi, estetik tafakkuri va madaniy o‘zligini ifodalovchi bebaho boylikdir. Ularni zamonaviy interyer dizayni bilan uyg‘unlashtirish orqali biz milliy an’analarni asrab-avaylabgina qolmay, balki ularni yangi bosqichga olib chiqamiz. Shu bilan birga, bunday uyg‘unlik nafaqat badiiy-estetik, balki ijtimoiy-ma’naviy va innovatsion ahamiyat kasb etadi.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR

1. A.R.Jo‘raev, A.M.Shoimov, J.E.Pardaboev, B.R.Axtamov, S.X.Qahorov, N.M.Hamdar

“Texnologiya va dizayn” o‘quv qo‘llanma. Buxoro. “Durdona” nashriyoti, 2021. - 276 b.
2. E.U.Kasimov, “Arxitektura ashyoshunosligi” darslik. Toshkent. “Cho‘lpon” NMIU, 2018. - b.
3. M.I.Roziqberdiyev, “Arxitektura va dizayn grafikasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Faylasu nashriyoti, 2019. - 140 b.
4. Abdullayev Sh. “Arxitektura tarixi” I-qism, o‘quv qo‘llanma, Toshkent. “Cho‘lpon” nomi NMIU, 2018. - 276 b.
5. X.Po‘latov, P.Zohidov, D.Nosirova va boshqalar. “Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari” dar Toshkent. “Talqin”nashriyoti, 2005. - 96 b.
6. A.O‘ralov, X. Po‘latov, M.Miryusupova, M.Zoirova, O.Salimov, Sh.Nurmuhammed D.Alimova, A.Turdiyev, Sh.Reyimbayev, “Arxitekturaviy loyihalash asoslari” darslik. Toshk “Noshir”, 2010. - 201 b.
7. T.A.Maxarov, “Axborot texnologiyalari” I-qism Microsoft Windows muhitida ishlash bo‘y qo‘llanma. Toshkent. 2005. - 70 b.
8. N.J.To‘ychiyev, “Bino va inshootlar konstruksiyasi” darslik. Toshkent. “Voris nashriyot” M(2010. - 243 b.
9. N.V.Makarova, “Informatika” darslik. Toshkent. “Talqin” nashriyoti, 2005. - 340 b.
10. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. “Инноватsion таъ технологиялари” ўқув-методик қўлланма, Тошкент. 2015. - 208 б.

MADANIYAT VA TARIXNING TASVIRIY SAN'ATDA IFODALANISHI

[1]Imomatova Umida Mirpulatovna, [2]Abdurasulova Mohlaroyim Sobirjon qizi, [3]Mamaradjabova Lobar Abdulla qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi o'qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17418969

Annotatsiya*. Ushbu maqolada madaniyat va tarixning tasviriy san'atdagi ifodalanishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Insoniyat tarixida san'at nafaqat go'zallikni yaratish vositasi, balki xalqning ma'naviy merosi, tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi kuchli omil sifatida maydonga chiqadi. Ayniqsa, tasviriy san'at asarlarida tarixiy voqealar, milliy urf-odatlar, diniy tasavvurlar va ma'naviy qadriyatlar mujassam bo'lgan. Maqolada turli davrlarda yaratilgan tasviriy san'at asarlari orqali jamiyatning madaniy va tarixiy taraqqiyotini kuzatish mumkinligi ilmiy dalillar asosida yoritilgan. Bundan tashqari, zamonaviy san'at namunalari va raqamli texnologiyalar ta'sirida madaniyat hamda tarixiy merosning qanday aks etayotgani ham tahlil qilinadi. Muallif o'zining yangi fikrlarini ilgari surib, tasviriy san'atni insoniyat ma'naviyatini mustahkamlashdagi muhim omil sifatida baholaydi.*

Kalit so'zlar*: O'zbekcha: madaniyat, tarix, tasviriy san'at, meros, qadriyat*

Аннотация: *В данной статье научно и теоретически анализируется выражение культуры и истории в изобразительном искусстве. В истории человечества искусство выступает не только средством создания красоты, но и мощным фактором, выражающим духовное наследие, историческую память и культурные ценности народа. В произведениях изобразительного искусства воплощены исторические события, национальные обычаи, религиозные представления и духовные ценности. В статье на основе научных данных освещается возможность наблюдения за культурным и историческим развитием общества через произведения изобразительного искусства, созданные в разные периоды. Кроме того, анализируется, как отражается культура и историческое наследие под влиянием современного искусства и цифровых технологий. Автор выдвигает свои новые идеи и оценивает изобразительное искусство как важный фактор в укреплении духовности человечества.*

Ключевые слова*: Узбекский: культура, история, изобразительное искусство, наследие, ценность*

Abstract: *This article analyzes the representation of culture and history in visual arts from a scientific and theoretical perspective. In the history of mankind, art has emerged not only as a means of creating beauty, but also as a powerful factor expressing the spiritual heritage, historical memory, and cultural values of the people. In particular, works of fine art embody historical events, national customs, religious beliefs, and spiritual values. The article, based on scientific evidence, highlights the possibility of observing the cultural and historical development of society through works of fine art created in different periods. In addition, it analyzes how culture and historical heritage are reflected under the influence of modern art and digital*

technologies. The author puts forward his new ideas and evaluates fine art as an important factor in strengthening the spirituality of humanity.

Keywords: *Uzbek: culture, history, fine arts, heritage, value*

Insoniyat tarixining barcha davrlarida san’at xalqning hayoti, dunyoqarashi va turmush tarzini aks ettiruvchi oynaga o‘xshagan. San’atning eng qadimiy va eng ta’sirchan ko‘rinishlaridan biri bu – tasviriy san’atdir. Qoya toshlariga o‘yib tushirilgan suratlar, ibtidoiy odamlarning ov manzaralarini chizib qoldirishi, dastlabki diniy ramzlarning paydo bo‘lishi – bularning barchasi insoniyat tafakkurining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan. Tasviriy san’at nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki tarixiy voqealarni hujjatlashtiruvchi, xalqning madaniy qadriyatlarini saqlab qoluvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, Sharq miniatyura san’ati, Yevropa Uyg‘onish davri rassomchiligi, Markaziy Osiyodagi madaniy yodgorliklarda uchraydigan devoriy rasmlar insoniyat tarixiy xotirasining boy manbalari sifatida qadrlanadi. Bugungi globallashuv sharoitida tasviriy san’at faqat tarixiy xotirani emas, balki zamonaviy madaniyatni ham ifodalashda davom etmoqda. Raqamli san’at, zamonaviy installyatsiyalar va vizual kommunikatsiya vositalari orqali insoniyat o‘zining tarixiy ildizlari va madaniy merosini yangi shakllarda qayta talqin qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, madaniyat va tarixning tasviriy san’atda ifodalanishini o‘rganish hozirgi kunda ham dolzarb mavzu hisoblanadi. Maqolada ushbu jarayonlarning nazariy asoslari, tarixiy manbalari va zamonaviy ko‘rinishlari tahlil qilinadi hamda muallifning shaxsiy kuzatuvlari asosida yangi xulosalar ilgari suriladi.

Tasviriy san’at va tarixiy xotira Tasviriy san’at insoniyat tarixining eng muhim “hujjatlaridan” biridir. Qadimgi Misr piramidalari devorlariga ishlangan rasmlar, Rim imperiyasining mozaikalari, O‘rta Osiyo hududidagi Afrosiyob devoriy rasmlari xalq hayot tarzi, diniy e’tiqodlari va urf-odatlari haqida qimmatli ma’lumot beradi. Bu jihatdan san’at tarixiy manbalar bilan bir qatorda o‘rganilishi lozimdir.

Madaniyatning tasviriy san’atda mujassamlanishi Tasviriy san’at orqali milliy urf-odatlar, marosimlar, kiyim-kechak va me’moriy an’analar aks etgan. Masalan, Kamoliddin Behzod asarlarida Sharq xalqlarining madaniyati, kiyinish madaniyati, turmush tarzi badiiy ifoda etilgan.

Zamonaviy san’at va madaniyatlararo muloqot Bugungi kunda tasviriy san’at milliy chegaralardan chiqib, global madaniyatning bir bo‘lagi sifatida shakllanmoqda. Raqamli san’at, 3D grafikalar, virtual ko‘rgazmalar orqali tarix va madaniyat yangi vizual shaklda ifodalanmoqda. Bu esa yosh avlodga tarixni osonroq anglash imkonini bermoqda. Bizning fikrimizcha, tasviriy san’at o‘qituvchisi quyidagi kompetentsiyalarni egallashi talab etiladi: «o‘z fanini a’lo darajada bilish, kasbini jon-dildan sevish, talabalarni fanga nisbatan qiziqishini uyg‘ota olish, amaliy ishlarni zamon talablaridan kelib chiqib tashkil etish, chuqur bilimga ega bo‘lish» kabi shaxsiy va kasbiy sifatlar. Ushbu kompetentsiyalar talabaning ijodiy ishiga rahbarlik qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, usta rassom o‘z san’at asarlarini yaratishda birinchi navbatda ijodkorlikni namoyish etadi, shuning uchun uning ijodiy va texnik ko‘nikmalari talabalar uchun taqlid qilinadigan namunaga aylanadi. Tasviriy san’at darslarida malakali o‘qituvchi faqat «san’at vositalari va texnikalari bo‘yicha erkin bo‘lishi — bu uning kasbiy kompetensiyasi asosidir». Agar o‘qituvchi asosiy ijodiy vositalarni mukammal bilmasa, talabalarga ham bu bo‘yicha yetarli ko‘rsatma bera olmaydi.

Mening nazarimda, tasviriy san’at tarix va madaniyatni faqat saqlab qolmay, balki uni qayta talqin qiluvchi, jamiyat tafakkurini shakllantiruvchi omildir. Masalan, bugungi O‘zbekiston rassomlari ijodida tarixiy shaxslar, qadimiy obidalar va milliy qadriyatlarni zamonaviy ruhda aks ettirish kuzatiladi. Bu esa yosh avlodni milliy merosga qiziqtiradi va ularning ma’naviy olamini boyitadi.

Xulosa : Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, tasviriy san’at madaniyat va tarixning eng yorqin ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir davr san’ati o‘ziga xos tarixiy va madaniy xotira bo‘lib, kelajak avlodlarga estetik zavq bilan birga, ilmiy va ma’naviy saboq beradi. Zamonaviy texnologiyalar san’atning ta’sirchanligini kuchaytirsa-da, uning asosiy vazifasi – xalqning tarixiy xotirasini saqlash va madaniyatini asrab-avaylashdir. Shunday ekan, tasviriy san’atni chuqur o‘rganish va uni ma’naviy hayotimizning muhim qismi sifatida qadrlash – har birimizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008. https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar/karimov-yuksak-ma-naviyat
2. Alpatov M.V. Istoriya iskusstva. Moskva: Iskusstvo, 1991. https://archive.org/details/istoriya-iskusstva-alpatov
3. Qodirov A. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 2015. 3.
4. Имоматова , У. (2023). Ўқувчиларнинг таълим ва тарбиясида тасвирий санъат ўқитувчисининг аҳамияти. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”, 1(01).
5. Mirpulatovna I. U. Mustaqillik davrida haykaltaroshlik san’atining rivojlanish tendensiyasi //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 27. – №. 5. – C. 37-42.
6. Umida, I., & Muxtor, N. (2023). Tasviriy san’at darslarida yoshlarga o‘zbek milliy tasviriy san’atni o‘qitishning psixologik asoslari. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 2, pp. 204-207).

CHIZMACHILIK FANIDA PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA VA INDIVIDUAL YONDASHUV

[1]Azimov Davron G‘ayratovich , [2]Tursunaliyev Elyorbek Alisherivich
Axmadov Shaxruz Zokir o‘g‘li
[1]Chirchiq davlat Pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi, [2]Interyer dizayn yo‘nalishi 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17418986

Anottatsiya. *Ushbu maqolada chizmachilik fani kontekstida psixologik diagnostika va individual yondashuvning o‘zaro bog‘liqligi va ahamiyati tahlil qilinadi. Texnik va grafik tafakkurni rivojlantiruvchi fanlardan biri sifatida chizmachilik, shuningdek, talabalarning kognitiv va emotsional xususiyatlarini aniqlash, shaxsiy yondashuv asosida o‘quv metodikasini takomillashtirish imkonini beradi. Maqolada grafik bilimlarni o‘zlashtirishdagi psixologik farqlar va ularga mos yondashuvlar muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Chizmachilik, psixologik diagnostika, individual yondashuv, kognitiv qobiliyatlar, grafik tafakkur, texnik chizma, didaktik moslashuv.*

Аннотация. *Данная статья посвящена роли психологической диагностики и индивидуального подхода в психотерапевтической практике. Психологическая диагностика играет важную роль в определении внутреннего состояния пациента и постановке диагноза, индивидуальный подход позволяет предоставить терапевтическую помощь, соответствующую особенностям каждого пациента. В статье анализируется интеграция этих двух процессов и их значение в практике.*

Ключевые слова: *Психологическая диагностика, индивидуальный подход, личностные особенности, психологический анализ, эмоциональное состояние, когнитивные процессы, диагностика поведения.*

Abstract. *This article discusses the role of psychological diagnosis and individual approach in psychotherapeutic practice. Psychological diagnosis is essential in identifying the patient's internal state and making a diagnosis, while the individual approach allows for providing therapeutic assistance tailored to each patient's characteristics. The article analyzes the integration of these two processes and their significance in practice.*

Keywords: *Psychological diagnosis, individual approach, personal characteristics, psychological analysis, emotional state, cognitive processes, behavioral diagnostics.*

Kirish. Bugungi kunda texnik fanlar qatorida chizmachilik fani nafaqat grafik tasvirlar bilan ishlash, balki mantiqiy fikrlash, fazoviy tafakkur va tafsilotlarga e’tibor berish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim vosita sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, har bir talabaning psixologik o‘ziga xosligi, o‘rganish uslubi va fikrlash darajasi farq qiladi. Ana shu holatda **psixologik diagnostika** va **individual yondashuv** konsepsiyalari chizmachilik fanida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Psixologik diagnostika va individual yondashuv psixologiya sohasida eng muhim va o‘ziga xos mavzulardan biridir. Har bir insonning ichki dunyosi, xulq-atvori va hissiy holati o‘zgacha, shuning uchun psixologik diagnostika jarayonida individga alohida yondashuv muhim ahamiyatga ega. Psixologik diagnostika jarayonida muayyan metod va vositalar yordamida odamning ruhiy holati, xulq-atvori va psixologik holatlari o‘rganiladi. Bu

maqolada psixologik diagnostika va individual yondashuvning ahamiyati, metodlari, asosiy tamoyillari va amaliyotda qo‘llanilishi haqida so‘z yuritiladi. Psixologik diagnostika tushunchasi psixologik diagnostika — bu psixologik holatlarni aniqlash, o‘rganish va baholash jarayonidir. Psixologik diagnostika yordamida insonning shaxsiyati, kognitiv qobiliyatlari, hissiy holati, ruhiy salomatligi va xulq-atvori tahlil qilinadi. Diagnostika jarayoni orqali psixologlar muayyan diagnostik metodlardan foydalanib, individning ruhiy salomatligini, ijtimoiy moslashuvchanligini, motivatsiyalarini va boshqa psixologik xususiyatlarini aniqlaydilar. Psixologik diagnostikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Hissiy holatlarni baholash: Insonning his-tuyg‘ulari va ularning psixologik salomatligiga ta'siri. Xulq-atvorni tahlil qilish: Insonning turmush tarzini, ish faoliyatini va ijtimoiy munosabatlarini o‘rganish.

Kognitiv qobiliyatlarni baholash: Insonning aql-idrok darajasi, mantiqiy fikrlash va qarorlar qabul qilish qobiliyatlari.

Shaxsiy xususiyatlarni aniqlash: Shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari va motivatsiyalari.

Psixologik diagnostikaning metodlari

Psixologik diagnostika jarayonida bir qancha metodlar qo‘llaniladi. Ular asosan ikki turga bo‘linadi: obyektiv va subyektiv metodlar.

1. Obyektiv metodlar: Obyektiv metodlar yordamida individning psixologik holati ob'ektiv, o‘lchanadigan va standartlashtirilgan vositalar orqali baholanadi. Bunga testlar, anketalar va boshqa psixometrik vositalar kiradi. Misol uchun: Intellektual testlar (masalan, Wechsler testlari).Shaxsiy testlar (masalan, MMPI — Minnesota Multiphasic Personality Inventory).Loyihalash testlari (masalan, Rorschach test)

2. Subyektiv metodlar: Subyektiv metodlar psixologning inson bilan bevosita muloqoti va kuzatishlari asosida amalga oshiriladi. Bunga intervyular, suhbatlar, psixoterapevtik seanslar va boshqalar kiradi. Bu metodlarning afzalligi, ular individdagi ichki dunyoni, hissiy holatlarni chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

Individual yondashuv — bu har bir insonning o‘ziga xos xususiyatlarini, ehtiyojlarini va psixologik holatini inobatga olgan holda amalga oshiriladigan psixologik xizmatdir. Psixologik diagnostika jarayonida individual yondashuvning muhimligi shundan iboratki, har bir inson o‘ziga xos bo‘lib, uning muammolari, ehtiyojlari va qobiliyatlari ham boshqacha bo‘lishi mumkin.

Individual yondashuvning asosiy tamoyillari:

Shaxsiy xususiyatlar inobatga olinadi: Har bir insonning o‘ziga xos ehtiyojlari va xususiyatlari psixologik yordamda asosiy omil sifatida hisoblanadi.

Integrativ yondashuv: Psixologik yordamning turli metodlari va yondashuvlari kombinatsiyasi orqali individga yaxlit yondashuv.

Empatiya: Psixolog mijozning his-tuyg‘ularini tushunishi va ularga empatik yondashuvi zarur.

Yordamning maqsadga yo‘naltirilganligi: Psixologik yordam individning maqsadlariga mos ravishda taqdim etilishi lozim. Psixologik diagnostika va individual yondashuvning amaliyotdagi qo‘llanilishi.a

Chizmachilikda psixologik diagnostika — bu insonning rasm chizish orqali ichki dunyosini, psixologik holatini, shaxsiy fazilatlarini va muammolarini aniqlashga qaratilgan psixologik tahlil usulidir. Ushbu yondashuvda odam tomonidan chizilgan rasmlar asosida u haqda psixologik xulosa chiqariladi. Quyida bu soha haqida batafsil tushuncha beriladi:

1. **Bola psixalogiyasi**

Bolalar og‘zaki ifoda orqali o‘z hissiyotlarini aniq ayta olmasligi sababli, chizgan rasmlari orqali ularning:

- hissiy holati,
- oilaviy munosabatlari,
- qo‘rquvlari yoki istaklari aniqlanadi.

2. **Kattalar bilan ishlashda**

Stress, depressiya, ichki nizolar yoki shaxsiy muammolarni tashxislash uchun qo‘llaniladi.

Ijtimoiy xizmatlar va psixoterapiya sohalarida ham individual yondashuv muhim o‘rin tutadi. Psixoterapevtlar mijozning shaxsiy ehtiyojlariga qarab davolash jarayonini moslashtiradilar. Shu bilan birga, biznesda ham psixologik diagnostika yordami bilan jamoa ichidagi munosabatlar, motivatsiya va ish faoliyatini yaxshilash uchun individual yondashuvlar qo‘llaniladi.

Xulosa.

Chizmachilik fanini samarali o‘rgatish uchun faqat texnik bilimlar yetarli emas. Talabalarning psixologik xususiyatlarini aniqlash va ularni inobatga olgan holda individual yondashuv asosida darslar tashkil qilish zarur. Psixologik diagnostika orqali grafik tafakkur, stressga bardoshlilik, kognitiv imkoniyatlar aniqlanadi va bu ma’lumotlar asosida mos o‘quv strategiyasi ishlab chiqiladi. Natijada,o‘quvchilar chizmachilik fanini nafaqat yaxshi o‘zlashtiradilar, balki unda ijodiy yondashishni ham o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shamshin, N. (2019). Psixologik diagnostika: metodlar va yondashuvlar. Tashkent: Science Publishing.
2. Olimov, R. (2020). Psixologik diagnostika va shaxsiy yondashuvning amaliyotdagi o‘rni. Journal of Psychological Studies, 5(2), 56-63.
3. Karyagina, S. (2018). Psixologik diagnostika: nazariy asoslar va amaliy metodlar. Moscow: Higher School of Psychology Press.
4. Berridge, C. (2017). The role of individual approaches in psychological diagnostics. Journal of Clinical Psychology, 74(7), 1234-1248.
5. Feldman, R. (2021). Psychological assessment and the individualized approach in therapeutic practice. Psychological Review, 66(4), 789-802.

ZAMONAVIY TASVIRIYT SAN’AT VA UNING O‘ZGARISHLARI

[1]Berdiyev Doston Abduvoitovich, [2]Baxromova Dilfuza Akramjonovna, [3]Qurbonmurodova Sevara Sa’dullayevna

[1]Chirchiq davlat pedagogika unversiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi.

[2]Chirchiq davlat pedagogika unversiteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

[3]Chirchiq davlat pedagogika unversiteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17421609

Annotasiya. *Ushbu maqolada zamonaviy tasviriy san’atning shakllanishi, asosiy yo‘nalishlari va taraqqiyot bosqichlari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tasviriy san’atda yuz berayotgan texnologik, ijtimoiy va g‘oyaviy o‘zgarishlar tahlil qilinib, zamonaviy rassomlikda paydo bo‘lgan yangi yo‘nalishlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston tasviriy san’at misolida milliy va global san’at o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *3D modellashtirish, sun’iy intellect, animatsiya, konseptual rassomlik, raqamli san’at, virtual san’at, ijtimoiy tafovut.*

Аннотация: *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются формирование, основные направления и этапы развития современного изобразительного искусства. Рассматриваются технологические, социальные и идейные изменения, происходящие в изобразительном искусстве, а также новые направления, появившиеся в современной живописи. Кроме того, на примере изобразительного искусства Узбекистана изучаются процессы интеграции между национальным и глобальным искусством.*

Ключевые слова: *3D-моделирование, искусственный интеллект, анимация, концептуальная живопись, цифровое искусство, виртуальное искусство, социальное различие.*

Abstract: *This article analyzes the formation, main trends, and stages of development of contemporary visual art from a scientific and theoretical perspective. It examines technological, social, and ideological transformations taking place in visual art, as well as new directions emerging in contemporary painting. In addition, using the example of Uzbek visual art, the processes of integration between national and global art are explored.*

Keywords: *3D modeling, artificial intelligence, animation, conceptual painting, digital art, virtual art, social disparity.*

Shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda har bir soha kundan kunga taraqqiy etmoqda, xususan, tasviriy san’at sohasi ham. Tasviriy san’at insoniyat tafakkurining eng qadimiy va chuqur ifoda vositalaridan biri bo‘lib, har bir davrda o‘ziga xos shakl va mazmun kasb etgan. An’anaviy ifoda uslublari bilan bir qatorda, yangi konseptual va texnologik yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Realizm yoki klassitizm kabi an’anaviy yo‘nalishlardan farqli ravishta zamonaviy san’at o‘z shakllarida ko‘proq eksperimental, noananaviy yondashuvlarga asoslanadi.

Zamonaviy tasviriy san’at XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa postmodemizm davrida shakllandi. Bu davr san’atida ananaviy kompozitsiya, realism va akademik maktablardan chekinish, yangi mediya va texnikalarning qo‘llanilishi kuchaydi. Zamonaviy rassomlik- bu nafaqat chizilgan obrazlar, balki rassomning g‘oyasi, pozitsiyasi, falsafasi ifodasi hamdir. Zamonaviy san’at ko‘pincha yangi texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lsada, klassik shakillar, ijodiy asarlar muhim yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Kompyuterlar asrida yashayotgan san’atkorlarga katta imkoniyatlarni yaratdi. Raqamli grafik dasturlar yordamida chizilgan asarlar, 3D modellashtirish, sun’iy intellekt orqali yaratilgan san’at obyektlari rassomlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Raqamli san’atda rasmlar, animatsiyalar, illyustratsiyalar, videolar va boshqa ko‘plab san’at shakllari mavjud. Endilikda san’at nafaqat muzey va galereyalarda, balki raqamli platformalarda ham namoyon bo‘lmoqda. Raqamli san’atning bir nechta shakllari mavjud bolib, ular orasida :

1. Interaktiv san’at: Kompyuter tizimi bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan san’atasarlari.
2. 3D modellash: Kompyuterda 3D obyektlar va loyihalar yaratish.
3. Raqamli rasm: Kompyuterda yoki planshetklarda yaratilgan rasmlar.
4. Animatsiya: Raqamli animatsiyalar, kliplar yoki videolar yaratish.

Virtual san’at - bu san’at va texnologiyaning uyg‘unlashgan shaklidir, unda san’at asarlari kmpyuterlar, dasturlar va boshqa raqamli vositalar yodamida yaratiladi. Virtual san’at raqamli tasvirda 3D, 4D, 5D, 6D, 7D, 8D, 9D, XD, modellashtirish, video san’ati, animatsiya va hatto virtual reallik, kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali yaratilgan san’at asarlarini o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda ushbu yuqori texnologiyaga ega raqamli tasvirlar dunyo kino san’atida ham tobora rivojlanib bormoqda.

3D Cinema videoni uch o‘lchamli ko‘rishni taminlaydi, chuqurlik illuziyasini yaratadi.

4D Cinema 3D tasvirlar va real vaqtda jismoniy effektlarni o‘z ichiga oladi, masalan, shamol, o‘rindiqning harakatlarini, tuman, suvning chayqalishi va boshqalar.

5D Cinema tomoshabinlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zaro ta’sir qiluvchi elementlar masalan pufakchalar, noyob yorug‘lik, hidlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

6D dan 9D texnologiyasigacha ishlar biroz murakkab bo‘ladi. Ushbu texnologiyalar ko‘pincha standart kino tetrlarda emas, balki virtual haqiqat tajribalarida va similyatorlarda qo‘llanadi. Shu jumladan zamonaviy san’at jamiyatdagi dolzarb muammolarga munosabat bildirish vositasiga aylangan. Gendr tengligi, ekologik inqiroz, migratsiya urush, shaxsiy erkinlik, internet madaniyati kabi mavzular san’at asarlarida keng ifodalanmoqda. Bu san’at jamiyatning o‘zgaruvchan muhitiga tezkor munosabat bildirayotganini ko‘rsatadi. Bunday rassom faqat ijodkor emas, balki faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida maydonga chiqmoqda. Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san’at o‘quv jarayonini modernizatsiyalash, tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish, rassom-pedagog bo‘ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘z sohasiga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.[97] Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi pedagogik metodlarni joriy etish, talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda ularning mustaqil ishlash salohiyatini oshirish

[97] Abduvoitovich, B. D. (2023). Steam ta’limini tatbiq etish orqali tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. *O ‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2*(18), 187-193.

dolzarb masalaga aylangan. Shuningdek, tasviriy san’at o‘qituvchisi nafaqat chizish yoki bo‘yash texnikasini o‘rgatuvchi mutaxassis, balki estetik did, badiiy tafakkur va madaniy qadriyatlarni shakllantiruvchi pedagog sifatida ham katta mas’uliyatni zimmasiga oladi.

Shu ma’noda, tasviriy san’at o‘quv jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish, multimedia vositalaridan samarali foydalanish, 3D modellashtirish, grafik dizayn, raqamli san’at elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar bilimini chuqurlashtiradi va ularni zamonaviy mehnat bozoriga moslashishga tayyorlaydi. Buning natijasida rassom-pedagoglar nafaqat milliy an’analarga tayanib ishlaydigan, balki global miqyosdagi san’at yangiliklaridan xabardor va ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq eta oladigan ijodkor mutaxassis sifatida shakllanadi.

O‘zbekiston mustaqillikga erishgach, san’at sohasida milliy tiklanish, an’anaviylikka qaytish va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish jarayoni boshlandi. Yosh rassomlar xalq san’ati unsurlarini zamonaviy ifoda vositalari bilan uyg‘unlashtirishga intilmoqda. Raqamli san’at installyatsiya, video art kabi yangi shakllar asta-sekin milliy san’at makoniga kirib kelmoqda. Shu bilan birga, turli xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etayotgan O‘zbekistonlik rassomlar o‘z asrlari orqali mamlakatimiz madaniy qiyofasini dunyoga namoyish qilmoqda. Shunga qaramay, zamonaviy o‘zbek san’ati ham ba’zi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Masalan, ba’zi hollarda moliyaviy qo‘llab quvvatlashning yetishmasligi, zamonaviy san’atni tushunish va qabul qilishdagi ijtimoiy tafovutlar, xalqaro maydonda faolroq ishtirok etish zarurati kabi masalalar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tasviriy san’at o‘zining ijtimiy, texnologik va estetik xususiyatlari bilan an’anaviy san’atda tubdan farqlanadi. U doimo harakatda, izlanishda va tajribada. Texnologik taraqqiyot, global muammolar va shaxsiy erkinlik masalalari zamonaviy rassomlikda asosiy mavzularga aylangan. O‘zbekiston san’ati ham bu jarayonda chetda qolmayapti, milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi orqali yangi shakllar hamda yo‘nalishlar yaratilmoqda. Kelajakda bu yo‘nalishlar yanada rivojlanib, yangi san’at maktablarining shakllanishiga asos bo‘lishu mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonmurodova, S. S., & Berdiyev, D. A. (2024). Tasviriy san’atni portret janri orqali o‘rganish (ustoz-shogird tizimi). *IQRO Indexing*, *11*(02), 426–429.
2. Abduvoitovich, B. D. (2023). Steam ta’limini tatbiq etish orqali tasviriy san’at fanini o ‘qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. *O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, *2*(18), 187-193.
3. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2025). Tasviriy san’atda steam yondashuvining ijodkorlikni rivojlantirishdagi zamonaviy modellari. *IQRO INDEXING*, *17*(01), 139-142.
4. Султанов Х. Э. Кластер усули орқали тасвирий санъат таълимини интеграциялаш имкониятлари // *Замонавий таълим / Современное образование*. – 2024. – №4 (137). – С. 31–41.
5. Abduvoitovich, B. D., & Akramjonovna, B. D. (2024). O‘quvchilarda kasbiy va hayotiy ko ‘nikmalarni shakllantirish. *BOSH MUHARRIR*. 430-433.
6. Bahromova Dilfuza Akramjonovna Tasviriy san’at darslarida yangi texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. (2024). Yangi O‘zbekiston Taraqqiyotida Tadqiqotlarni o‘rni Va Rivojlanish Omillari, 11(1), 160-164.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TASVIRIY SAN’ATNING YANGICHA KO‘RINISHLARI

[1]Berdiyev Doston Abduvoitovich, [2]Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi, [3]To‘xtayeva Munisa Husniddin qizi

[1]San’atshunoslik fakulteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi

[2,3]“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17421625

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asrida tasviriy san’atning yangi ko‘rinishlari va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Raqamli media vositalari, sun’iy intellekt, grafik dizayn dasturlari va virtual haqiqat imkoniyatlarining san’atga ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy san’atning an’anaviy va innovatsion shakllarini uyg‘unlashtirish yo‘llari, o‘zbek tasviriy san’ati oldida turgan yangi imkoniyatlar va muammolar ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli san’at, digital art, virtual haqiqat, sun’iy intellect, grafik dizayn, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy san’at* .

Аннотация: В данной статье анализируются новые формы и процессы развития изобразительного искусства в век цифровых технологий. Влияние цифровых медиа, искусственного интеллекта, программ графического дизайна и возможностей виртуальной реальности на искусство освещено на научной основе. Также рассмотрены пути гармонизации традиционных и инновационных форм современного искусства, новые возможности и проблемы, стоящие перед узбекским изобразительным искусством.

Ключевые слова: Цифровое искусство, digital art, виртуальная реальность, искусственный интеллект, графический дизайн, инновационные технологии, современное искусство.

Abstract: This article analyzes new forms and development processes of fine arts in the age of digital technologies. The influence of digital media, artificial intelligence, graphic design programs, and the possibilities of virtual reality on art is highlighted on a scientific basis. Also considered are the ways of combining traditional and innovative forms of contemporary art, new opportunities and problems facing Uzbek fine art.

Keywords: Digital art, virtual reality, intelligence, graphic design, innovative technologies, modern art.

XXI asrda insoniyat taraqqiyoti raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda. Bugun nafaqat ilm-fan va ta’lim sohasida, balki san’at olamida ham yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Tasviriy san’at tarixiga nazar tashlaganda, u doimo jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanganini ko‘ramiz. Qadimgi toshyozuvlardan tortib, o‘rta asr miniatyuralari, Uyg‘onish davri rasmlari, modernizm va postmodernizm oqimlarigacha - barchasi zamonasiga mos yangi uslubni ifoda etgan. Bugungi kunda esa raqamli san’at (digital art) tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. Bu yo‘nalish grafik dasturlar, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) hamda sun’iy intellekt asosida yaratilgan asarlarni o‘z ichiga oladi. Shu bois raqamli texnologiyalar davrida tasviriy san’atning yangicha ko‘rinishlarini ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Raqamli texnologiyalar va san’atning integratsiyasi. Bugungi kunda Photoshop, Illustrator, CorelDRAW, Blender, Procreate kabi dasturlar rassomlar ijodida keng qo‘llanmoqda. Bu dasturlar yordamida nafaqat an’anaviy uslubdagi asarlar yaratilmoqda, balki interaktiv, multimedia va animatsion loyihalar ham ommalashmoqda. Shu jihatdan raqamli texnologiyalar san’atda “ko‘p formatlilik” tamoyilini yuzaga chiqarmoqda: rassom endi faqat qog‘oz yoki tuval bilan chegaralanmaydi, balki virtual muhitda cheksiz ijodiy imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Sun’iy intellekt va generativ san’at. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt yordamida san’at asarlari yaratish tendensiyasi kuchaydi. “DALL·E”, “MidJourney”, “Stable Diffusion” kabi dasturlar rassomlarning ijodiy jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa san’atning kelajagi haqida turli bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi mutaxassislar sun’iy intellektni inson ijodiga raqib deb bilsa, boshqalar uni yangi imkoniyat sifatida talqin etmoqda. Masalan, ayrim nazariyalarda AI san’atni “kooperativ ijod” bosqichiga olib chiqishi aytiladi, ya’ni inson va mashina hamkorligida yaratilgan san’at asarlari kelajakda alohida yo‘nalishga aylanadi.

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) san’atda. VR texnologiyalari orqali tomoshabin san’at asarining ichiga kirib, uni bevosita his qilish imkoniga ega bo‘lmoqda. Masalan, Parijdagi Luvr muzeyida Leonardo da Vinchining “Mona Liza” asarini VR orqali ko‘rish loyihasi tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldirdi. AR esa kundalik hayotga yaqinroq: telefon kamerasi orqali ko‘rish, grafik obrazlarni real muhitga “joylashtirish” san’atni keng ommaga olib chiqmoqda. Bu esa san’atning demokratlashuvi — ya’ni har bir inson uchun ochiq va qulay bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston tasviriy san’ati va raqamli imkoniyatlar. O‘zbek rassomlari ham raqamli san’at yo‘nalishiga qiziqmoqda. Yosh rassomlar orasida grafik dizayn, 3D-modellashtirish, raqamli illyustratsiya va animatsiya keng tarqalmoqda. Toshkent va Samarqanddagi san’at ko‘rgazmalarida endilikda nafaqat an’anaviy rangtasvir, balki raqamli media loyihalar ham namoyish etilmoqda. Bunday interaktiv loyihalar muzeylar uchun juda muhim. Imkonsiz hollarda tomoshabin virtual muzey orqali uni kuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda san’at ta’limi jarayonida ham raqamli texnologiyalarni o‘quv dasturlariga kiritish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Bu esa yosh rassomlar uchun global san’at maydonida raqobatbardosh bo‘lish imkonini yaratadi.

Yangi imkoniyatlar va muammolar.

Raqamli texnologiyalar san’atda quyidagi imkoniyatlarni ochib bermoqda:

- **Cheksiz ijodiy erkinlik** — texnik to‘siqlar yo‘qligi sababli rassomning tasavvuri kengayadi;
- **Asarlarni tezkorlik bilan yaratish** — vaqt tejaydi va samaradorlikni oshiradi;
- **Global miqyosda tarqatish** — onlayn ko‘rgazmalar, NFT platformalari orqali asarlarning xalqaro auditoriyaga chiqishi.

Biroq, shu bilan birga ayrim muammolar ham mavjud:

- **Mualliflik huquqi** masalalari — AI yordamida yaratilgan asarning haqiqiy muallifi kim?;
- **An’anaviy san’atning qadrsizlanishi xavfi** — texnologiya san’atning ruhiy-estetik jihatlarini so‘ndirmasligi kerak;
- **Texnik vositalarga qaramlik** — dasturlarsiz ijod jarayonining chegaralanib qolishi.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar tasviriy san’atni yangi bosqichga olib chiqdi. U nafaqat ijodkor uchun, balki tomoshabin uchun ham yangicha estetik tajribalarni taqdim etmoqda. Shu

bois zamonaviy rassom uchun an’anaviy uslublarni chuqur bilish bilan birga, raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish ham muhimdir. Kelajakda tasviriy san’atda an’anaviy va raqamli yo‘nalishlarning uyg‘unlashuvi yanada dolzarb ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

Shuningdek, raqamli san’at bugun san’atshunoslik uchun ham yangi ilmiy yo‘nalishlarni ochmoqda. Masalan, “digital estetikasi”, “media-art nazariyasi”, “virtual muzeyshunoslik” kabi sohalar endilikda mustaqil ilmiy izlanish ob’ektiga aylanmoqda. Demak, XXI asrda san’at faqatgina ijodiy faoliyat emas, balki texnologiya va ilm-fanning kesishma nuqtasida shakllanuvchi ko‘p qirrali hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Арнхейм Р. Искусство и визуальное восприятие. – Москва: Прогресс, 1994.
2. Gombrich E.H. The Story of Art. – London: Phaidon Press, 2006.
3. Manovich L. The Language of New Media. – MIT Press, 2001.
4. To‘xtayev B. San’atshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
5. Karimova D. Zamonaviy san’at va raqamli texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

ELEKTRON MANBALAR

1. Online manba: https://www.tate.org.uk/art/digital (oxirgi murojaat: 2025-yil).
2. Online manba: https://www.moma.org
3. Raqamli ta’lim taraqqiyotida tasviriy san’atni o‘qitish jarayonida innovatsion texnalogiyalarning samaradorligi. Tulyaganova.Sh.E https://share.google/otvfczv458EAZyGr0

BOHODIR JALOLOV IJODIDA MILLİY RUH VA SAN’AT INTEGRATSIYASI

Giyasova Nilufar Barotbayevna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti San’atshunoslik fakulteti,Tasviriy san’at yunalishi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421640

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Bohodir Jalolovning ijodiy faoliyati, uning tasviriy san’at rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Rassomning yoshlik davrida olgan ta’limi, ustozlari, monumental pannolari hamda portret janridagi asarlarida milliylik va badiiylik uyg‘unligi ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek, rassomning “Raqsning tug‘ilishi” kompozitsiyasi misolida milliy raqs san’ati va tasviriy san’at o‘rtasidagi integratsiya tahlil qilinadi. Maqolada rassomning Sharq va G‘arb san’ati an’analarini uyg‘unlashtirishdagi muvaffaqiyati hamda san’atni integratsiyalashgan holda o‘qitish masalalari ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Bohodir Jalolov, tasviriy san’at, monumental pannolar, portret janri, milliy ruh, integratsiya, Sharq va G‘arb an’analari, raqs san’ati, ta’lim.*

Аннотация. *В данной статье анализируется творческая деятельность народного художника Узбекистана, лауреата Государственной премии имени Алишера Навои Баходира Джалолова, его вклад в развитие изобразительного искусства. С научной точки зрения освещаются образование художника в молодости, его наставники, а также гармония национального колорита и художественности в его монументальных панно и портретных произведениях. Кроме того, на примере композиции художника "Рождение танца" анализируется интеграция национального танцевального искусства и изобразительного искусства. В статье также рассматриваются достижения художника в гармоничном сочетании традиций восточного и западного искусства, а также вопросы интегрированного обучения искусству.*

Ключевые слова: *Баходир Джалолов, изобразительное искусство, монументальные панно, жанр портрета, национальный дух, интеграция, восточные и западные традиции, танцевальное искусство, образование.*

Abstract. *This article analyzes the creative activities of Bakhodir Jalolov, People's Artist of Uzbekistan and laureate of the Alisher Navoi State Prize, and his contribution to the development of fine arts. The harmony of national identity and artistic expression in the artist's early education, his mentors, monumental panels, and portrait works is examined from a scientific perspective. Additionally, the integration of national dance art and fine art is analyzed using the example of the artist's composition "The Birth of Dance." The article also highlights Jalolov's success in harmonizing Eastern and Western art traditions, as well as addressing issues of integrated art education.*


Keywords: *Bakhodir Jalolov, fine arts, monumental panels, portrait genre, national spirit, integration, Eastern and Western traditions, dance art, education.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish,

ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.[98] So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.[99]

O‘zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Bohodir Jalolov zamonaviy o‘zbek tasviriy san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan iste’dodli rassomlardan biri sifatida tanilgan. U 1948 yil 27-may kuni Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1968 yilda P. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini tamomlagan va oradan olti yil o‘tib, 1974 yilda I. E. Repin nomidagi Sankt-Peterburg rassomlik, haykaltaroshlik va me’morlik institutining bezatish-monumental fakultetida tahsil olgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Jalolov yoshlik chog‘ida portret san’ati ustasi Abdulhaq Abdullayevdan saboq olgan. Keyinchalik u Chingiz Ahmarov, Ro‘zi Choriyev, Milnikov, Korolyov kabi san’at ustozlaridan ham ilhomlangan. Shu bois rassomning ilk ijodiy namunalaridayoq milliy his-tuyg‘ularning turfa ranglarda badiiy ifodasini ko‘rish mumkin. Bohodir Jalolov ijodida “Raqsning tug‘ilishi” kompozitsiyasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarda u “Bahor” raqs ansambli asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg‘unboyevaning “Munojot” raqsi asosida monumental kompozitsiya yaratadi.“Raqsning tug‘ilishi” kompozitsiyasi tahlili: Bohodir Jalolov ijodining cho‘qqilaridan biri — bu uning mashhur “Raqsning tug‘ilishi” asaridir. Mazkur kompozitsiya nafaqat tasviriy san’at namunasi, balki o‘zbek milliy raqs san’ati, ma’naviy meros va badiiy ramzlarning uyg‘unlashgan timsoli sifatida e’tirof etiladi. Unda rassom nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki milliy ruhiyat va umuminsoniy qadriyatlarni ramziy obrazlar orqali ifodalaydi. Kompozitsiyaning umumiy tuzilishi: Asarning markazida ustoz raqqosa — Mukarrama Turg‘unboyeva obrazini ko‘ramiz. U kompozitsiyaning asosiy ruhiy markazi bo‘lib, badiiy ma’noda “hayotiy manba” sifatida gavdalantirilgan. Uning atrofida esa yosh raqqosalar tasvirlangan bo‘lib, ular ustozdan taralayotgan nur va ritmlarni davom ettiradilar

[98] **“Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”** — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (31 may 2017).
[99] PF-6000 (26.05.2020) — Madaniyat va san’at sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid nizomlar / chora-tadbirlar



Bohodir Jalolov “Raqsning tug‘ilishi” kompozitsiyasi.

Bunday tuzilma ikki asosiy qatlamni anglatadi:

1. An’anaviy qatlam – ustoz shaxsida ifodalangan milliy meros va ildizlar.
2. Yangilanish qatlam – yosh avlod qizlarining timsolida ifodalangan kelajak va davomiylik.

Shu orqali rassom milliy raqs san’atining uzluksiz oqimini ramziy tarzda aks ettiradi.Ranglar uyg‘unligi.Bohodir Jalolovning rang tanlovi asarga chuqur ma’no baxsh etadi: Oq tuslar — ruhiy poklik, ustozning ma’naviy ulug‘ligini bildiradi. Oltin va sariq ranglar — nur, yangilanish, ijodiy ilhom ramzi. Yashil tuslar — hayot, o‘sish va barqarorlikni ifodalaydi. Qizil ranglar — ehtiros, jo‘shqinlik, raqs ritmi va energiyasini ifodalaydi.

Ranglar kompozitsiyada tasodifiy emas, balki ramziy qatlam sifatida milliy ruhni ochishga xizmat qilgan.Harakat va ritmning badiiy talqini Asarda raqs dinamikasi statik emas, balki harakatning davomiyligini his qildirish uchun tasvirlangan. Yosh raqqosalarning qo‘l-oyoqlari, kiyimlarining shamolda hilpirashi va yuzlaridagi ruhiy yuksaklik tasvirlari orqali rassom milliy raqsning tiriklik va jo‘shqinlik manbai ekanini ko‘rsatadi. Bunda rassom ritmni tasviriy vosita sifatida qo‘llagan. Usta raqqosadan taralayotgan harakatlar yosh avlodga uzatilayotgandek tasvirlanadi. Bu tasvir san’atshunoslikda “dinamik kompozitsiya” deb ataladi.Kompozitsiyaning estetik xususiyatlari Asarda kompozitsion markaz ustoz obraziga berilgan bo‘lsa-da, u hamma joyni egallab olmagan. Balki butun kompozitsiya uzviy uyg‘unlikka asoslangan. Har bir obraz boshqasiga ulanib ketadi. Bu esa rassomning milliylikni individual emas, balki jamoaviy ruh orqali ifodalashga intilganini ko‘rsatadi.

Obrazlarning ramziy ma’nosi: Ustoz obrazi — milliy madaniyat ildizlarini, ustoz-shogird an’anasini anglatadi. U qattiq emas, balki nur taratuvchi, ruhiy yo‘lboshchi sifatida tasvirlangan. Yosh raqqosalar — davomiylik, milliy qadriyatlarning kelajakda yashab qolishini

bildiradi. Ularning har biri turlicha harakatda, turlicha hissiyotda tasvirlangan. Bu san’atning turfa qirralarini ifodalaydi. Raqs harakatlari — hayotning o‘zi, harakat va yangilanish manbai sifatida ramziy talqin qilingan. Falsafiy qatlam: “Raqsning tug‘ilishi”ni faqatgina tasviriy asar sifatida emas, balki falsafiy mushohada sifatida ham baholash mumkin. Asar hayotning davomiyligi, avlodlar uzviyligi, san’atning abadiyligi haqidagi falsafiy g‘oyani ifodalaydi. Shu bilan birga, u o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi va milliy merosini ramziy shaklda badiiylashtiradi. Taqqosiy tahlil: Mazkur asarni Chingiz Ahmarovning monumental asarlari yoki Raxim Ahmedovning milliy obrazlari bilan qiyoslaganda, Jalolovning farqli jihati ko‘rinadi. Ahmarov milliylikni monumental ramzlar orqali, Ahmedov esa portret obrazlari orqali ko‘rsatgan bo‘lsa, Jalolov milliylikni dinamik harakat va ritm orqali ifodalaydi. Shu bois uning asari o‘zbek tasviriy san’atida yangicha bosqichni boshlab bergan deyish mumkin. “Raqsning tug‘ilishi” asari Bohodir Jalolov ijodida milliylikning eng yorqin ramziy talqinidir. Ustoz va shogird obrazlari, ranglar uyg‘unligi, raqs harakatlaridagi dinamika orqali rassom milliy qadriyatlarning davomiyligini, san’atning abadiyligini ifodalagan. Asar nafaqat badiiy-estetik namuna, balki falsafiy mushohada sifatida ham qadrli bo‘lib, o‘zbek tasviriy san’atining oltin sahifalaridan biriga aylangan. Rassomning monumental asarlarida milliy ruh, bahoriy kayfiyat, yangilanish, soflik kabi badiiy tushunchalar asosiy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan u asar yaratishda ko‘plab kompozitor va san’atkorlarning ijodidan ham ilhom olgan. Jalolovning ijodiy qarashlarida “milliylik va yangilik uyg‘unligi” tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Bohodir Jalolov o‘zining monumental pannolari bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki jahonning ilg‘or mamlakatlaridagi hashamatli saroy va inshootlarni ham bezab kelmoqda. U san’atni faqat tasviriy ijod bilan chegaralab qo‘ymay, balki uni musiqiy va sahna san’ati bilan integratsiya qilishga muvaffaq bo‘lgan. Ayniqsa, Sharq va G‘arb san’ati an’analarini o‘zlashtirib, ulardagi mushtaraklikni badiiy kompozitsiyalarda ifodalashi uning ijodiy fenomenini yanada boyitgan.

Xulosa: Hozirgi kunda rassom san’atni o‘qitish jarayonida integratsiyalashgan yondashuv muhimligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, milliy musiqalar asosida milliy ruhga ega san’at asarlarini yaratish, talabalarga milliylikni singdirish va san’atni chuqur his etishga o‘rgatish pedagogik jarayonning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Rassomning fikricha, har bir asar – raqs, rasm yoki musiqa bo‘lsin – ijodkor yuragidagi dard va samimiy his bo‘lmasa, komillikka erisha olmaydi. Demak, Bohodir Jalolov ijodida milliylik, tarixiylik, estetik komillik va integratsion yondashuv asosiy o‘rin tutadi. Uning san’ati nafaqat o‘zbek tasviriy san’ati rivojiga, balki yosh avlod tarbiyasida milliy ruh va badiiy didni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A. “O‘zbek portret san’ati tarixi”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1982.
2. Ahmarov Ch. “Monumental san’at falsafasi”. – Toshkent: San’at, 1995.
3. Karimova N. “O‘zbek raqs san’ati tarixi”. – Toshkent: Fan, 2001.
4. Normatov H. “O‘zbekiston tasviriy san’ati”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
5. Jalolov B. “Ijod va milliy ruh haqida”. – Toshkent: San’at, 2018.

DEKORATIV SAN'AT - GO'ZALLIK VA NAFISLIK UYG'UNLIGI

[1]Imomatova Umida Mirpulatovna, [2]Saydazova Lobarxon Burxon qizi, [3]Abayeva Dana Zaydulla

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,"Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi o'qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17421647

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dekorativ san'atning mohiyati, uning asosiy xususiyatlari hamda go'zallik va nafislik uyg'unligi masalalari yoritilgan. Milliy amaliy san'at turlari – kulolchilik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi va zargarlik misolida dekorativ san'atning badiiy va ma'naviy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, dekorativ san'atning zamonaviy dizayn va texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi, yosh avlodni estetik tarbiyalashdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Maqolada dekorativ san'atning milliy qadriyatlarni saqlash, ularni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Dekorativ san'at, go'zallik, nafislik, naqsh, milliy qadriyat, kulolchilik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, estetik tarbiya, milliy va zamonaviy uyg'unlik.*

Аннотация. *В статье рассматривается сущность декоративно-прикладного искусства, его основные черты, вопросы гармонии красоты и практичности. На примере народно-прикладного искусства – керамики, вышивки, резьбы по дереву, ювелирного искусства – анализируется художественное и духовное значение декоративно-прикладного искусства. Показана интеграция декоративно-прикладного искусства с современным дизайном и технологиями, его роль в эстетическом воспитании подрастающего поколения. Подчеркивается роль декоративно-прикладного искусства в сохранении национальных ценностей, их гармонизации с требованиями времени.*

Ключевые слова*: декоративное искусство, красота, практичность, орнамент, национальная ценность, керамика, вышивка, резьба по дереву, ювелирное дело, эстетическое воспитание, гармония национального и современного.*

Abstract. *This article discusses the essence of decorative art, its main features, and the issues of the harmony of beauty and practicality. The artistic and spiritual significance of decorative art is analyzed using the example of national applied arts - ceramics, embroidery, woodcarving, and jewelry. It also shows the integration of decorative art with modern design and technologies, and its role in the aesthetic education of the younger generation. The article emphasizes the role of decorative art in preserving national values, harmonizing them with the requirements of the times.*

Keywords: *decorative art, beauty, practicality, ornament, national value, ceramics, embroidery, wood carving, jewelry, aesthetic education, harmony of national and modern.*

San'at insoniyat tarixida eng qadimiy va boy madaniy qatlamlardan biri sifatida shakllangan. Uning turli yo'nalishlari ichida dekorativ san'at alohida o'rin egallaydi. Chunki bu san'at turi estetik go'zallik va kundalik hayotiy nafislikni birlashtira olgan. Dekorativ san'at

inson yashaydigan muhitni bezash, u bilan birga unga ruhiy zavq ulashish, milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi.

Dekorativ san’atning mohiyati. Dekorativ san’at – bu oddiy hayotiy buyumlarni bezak vositasida nafislik darajasiga ko‘taruvchi ijodiy faoliyatdir. Unda:

- Bezakdorlik – naqsh, rang va shakl uyg‘unligi orqali estetik ta’sir kuchayadi;
- Nafislik – buyum kundalik ehtiyojga xizmat qiladi;
- Ruhiy ta’sir – inson qalbida milliy iftixor va go‘zallikka mehr uyg‘otadi.

Misol uchun, oddiy sopol kosa ichimlik uchun xizmat qilsa, Rishton kulollarining ko‘k va yashil rangdagi naqshlari uni san’at asariga aylantiradi.

Go‘zallik va nafislik uyg‘unligi. Dekorativ san’atning asosiy mohiyati – foydali buyum va estetik zavqni uyg‘unlashtirishdir.

- Kulolchilik – lagan va kosalar dasturxonda ishlatilishi bilan birga, naqshlari orqali uy muhitiga go‘zallik bag‘ishlaydi.
- Kashtachilik – suzani devor bezagi bo‘lishi bilan birga, uy ichiga iliqlik kiritadi.
- Yog‘och o‘ymakorligi – ustun va eshiklar mustahkamlikni saqlash bilan birga, naqshlar orqali ko‘rkamlik beradi.
- Zargarlik – taqinchoqlar ayolning bezagi, lekin ular milliy did va maqom ramzi sifatida ham ahamiyatga ega.

Milliy va zamonaviy talqinlar. O‘zbek xalqining dekorativ san’ati - islimiy naqshlar, girih bezaklar, kashtachilik, kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi kabi turlar bilan mashhur. Bugungi globallashuv davrida esa ular zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashmoqda:

- milliy naqshlar interyer va eksteryer dizaynida qo‘llanmoqda;
- suzani va kashtalar zamonaviy kiyim kolleksiyalariga kirib keldi;
- qadimiy naqshlar grafik dizayn va raqamli san’atda qo‘llanmoqda.

Demak, dekorativ san’at o‘z ildizlaridan oziqlanib, yangi davr talablari bilan uyg‘unlashib bormoqda.

Tarbiyaviy ahamiyati. Dekorativ san’at yosh avlod qalbida:

- go‘zallikka mehr,
- milliy qadriyatlarga hurmat,
- ijodiy tafakkur va didni rivojlantiradi.

Shu bois u tasviriy san’at ta’limida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Xulosa

Dekorativ san’at – bu oddiy bezak emas, balki hayot falsafasi. Unda insonning nafislikka intilishi ham, hayotiy ehtiyoji ham mujassam. U milliy madaniyatni saqlash, uni zamon bilan uyg‘unlashtirish va kelajak avlodga yetkazishda eng qudratli vositalardan biridir. Shuning uchun dekorativ san’at – go‘zallik va nafislik uyg‘unligi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov A. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati tarixi. – Toshkent: Fan, 1997.
2. G‘ulomov S. Naqsh san’ati asoslari. – Toshkent: Sharq, 2005.
3. Shomahmudov H., Xo‘jaev A. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
4. Ochildiyev A. O‘zbek amaliy va bezak san’ati. – Toshkent: San’at, 2019.

5. UNESCO. Traditional Arts and Crafts of Uzbekistan. – Paris, 2020.
6. Imomatova Umida Mirpulatovna Artistic imagination and fantasy of students in visual art lessons. Their role in artistic creation. (2024). Web of Teachers: Inderscience Research , 2(11), 156-161.
7. Имоматова , У. (2023). Ўқувчиларнинг таълим ва тарбиясида тасвирий санъат ўқитувчисининг аҳамияти. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”, 1(01).

TASVIRIY SAN’ATDA MILLIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG‘UNLIGI

[1]Imomatova Umida Mirpulatovna, [2]Karimboyeva Mahliyo Hamro qizi, [3]Mamajonov Sardor Zulfiqor o‘g‘li

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi.
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.[3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17421662

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy san’atda milliylik va zamonaviylik uyg‘unligining mazmun-mohiyati yoritilgan. San’at asarlarida xalqning ma’naviy qadriyatlari, urf-odatlari va milliy an’analari qanday aks etishi, shuningdek, zamonaviy san’at yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashuvi tahlil qilingan. Maqolada milliylikning san’atdagi o‘rni, zamonaviy san’atning innovatsion xususiyatlari hamda ular o‘rtasidagi uyg‘unlikning ijtimoiy ahamiyati ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, milliylik, zamonaviylik, uyg‘unlik, ma’naviyat, innovatsiya, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: В данной статье освещается сущность гармонии национального и современного в изобразительном искусстве. Проанализировано, как в произведениях искусства отражаются духовные ценности, обычаи и национальные традиции народа, а также их гармония с современными художественными направлениями. В статье на научно-теоретической основе анализируется роль национальности в искусстве, инновационные особенности современного искусства и социальная значимость гармонии между ними.

Ключевые слова: изобразительное искусство, национальность, современность, гармония, духовность, инновации, национальные ценности.

Abstract: This article highlights the essence of the harmony of nationality and modernity in fine arts. How the spiritual values, customs, and national traditions of the people are reflected in works of art, as well as their harmony with modern art trends, are analyzed. The article analyzes, on a scientific and theoretical basis, the role of nationality in art, the innovative features of modern art, and the social significance of the harmony between them.

Keywords: fine art, nationality, modernity, harmony, spirituality, innovation, national values.

San’at inson qalbi va tafakkurini tarbiyalovchi, jamiyatning ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi muhim vositadir. Tasviriy san’at esa xalq ruhiyatini, tarixini va madaniy merosini o‘zida mujassamlashtiradi. Har bir xalqning milliy san’ati o‘ziga xos belgilar, ramzlar, ranglar va naqshlar orqali namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, XXI asr global san’at jarayonlarida zamonaviy yondashuvlar, texnologik yangiliklar va yangi estetik qarashlar kuchayib bormoqda. Shu sababli, tasviriy san’atda milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi dolzarb mavzulardan biridir.

Tasviriy san’atda milliylik tushunchasi Milliylik – xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, ramzlari va qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan san’at uslubidir. O‘zbek san’atida milliylik qadimiy naqshlarda (islimiy, girih, handasaviy shakllar), miniatyura san’ati, milliy liboslar va me’moriy obidalar tasvirida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, Kamoliddin Behzod ijodi Sharq san’atining milliy ruhini dunyoga tanitgan. Kamoliddin Behzodning ishlagan asarlarida xalqimizning madaniy hayoti va sharqonna milliyligimiz o‘z aksini topgan.

U o‘zining miniatyuralarida nafaqat tasvirlar, balki mazmun va ma'no jihatidan ham milliylikni ilgari surgan. Behzodning asarlari, ayniqsa, shakl va ranglar muvozanati, kompozitsiya va detallarni tasvirlashdagi nafislikda o‘ziga xos milliy ruhni ko‘rsatadi. U nafaqat an'anaviy o‘zbek san'ati uslublarini davom ettirdi, balki yangi san'atlarga, shu jumladan, Yevropa tasviriy san’ati bilan o‘zaro aloqaga kirishish orqali o‘zining san’atini jahon miqyosida mashhur qildi. Shuningdek, Behzod ijodi nafaqat tasviriy san’atga, balki xalqqa tegishli barcha sohalarda milliylikni saqlash va rivojlantirishga yordam berdi. Uning asarlari, o‘zining tasviriy uslubida xalqimizning ruhini va qadriyatlarini zamonaviy san’atga singdirganligi bilan ahamiyatlidir.

Zamonaviylik orqali tasviriy san’at asarlariga yangicha hayot kiritish har bir o‘quvchi uchun zavq bag‘ishlaydi. San’atkorlar an'anaviy uslublardan chiqib, tasviriy ifodalarini kengaytiradi, yangi ijtimoiy, siyosiy va madaniy mavzularni yoritishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llaydi. Bu, o‘z navbatida, san'atni nafaqat estetik, balki intellektual va ijtimoiy jihatdan ham boyitadi. Zamonaviy san’atda ko‘pincha tajriba va eksperimentlarni qo‘llash, o‘zgacha ko‘rinishlar va shakllar yaratish orqali san’atkorlar o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini erkin ifodalaydi. Bunda, san’at nafaqat go‘zallikni, balki jamiyatdagi o‘zgarishlarni, shaxsiy va ijtimoiy jihatlarni ham aks ettiradi.

Raqamli san’at, video-rasmlar, interaktiv va virtual san’at kabi yangi shakllar paydo bo‘lishi bilan san’at tomoshabin bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kirishadi. Bu o‘zgarishlar san'atni nafaqat estetik zavq bag‘ishlash vositasi, balki jamiyatning o‘zgarishlarida faol ishtirok etuvchi muhim omilga aylantiradi.

Zamonaviy san’atda shuningdek, milliylik va globalizm o‘rtasidagi bog‘lanishlar ham o‘z aksini topadi. San’atkorlar o‘z milliy merosini va urf-odatlarini yangi, zamonaviy uslublarda ifodalash orqali o‘z xalqining madaniyati va an'analarini dunyo miqyosida tanitishadi. Shunday qilib, zamonaviylik nafaqat san'atning yangi ufqlarini ochadi, balki uning ijtimoiy va madaniy rolini yanada mustahkamlaydi.

Milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi Bugungi san’at rivojida milliy an’analarni zamonaviy shakllarda talqin qilish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Rassomlar milliy naqshlardan, folklor motivlaridan, xalqona ranglardan foydalangan holda modern, abstrakt yoki raqamli san’at namunalarini yaratmoqdalar. Bu esa milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga, ularni jahon san’ati maydoniga olib chiqmoqda.

Masalan, o‘zbek amaliy bezak san’ati naqshlarini grafika va dizayn sohalariga qo‘llash, zamonaviy arxitektura loyihalarida milliy ornamentlardan foydalanish yoki raqamli san’atda qadimiy ramzlarni aks ettirish buning yorqin misolidir.

Uyg‘unlikning ijtimoiy ahamiyati Milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shu bilan birga global dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayon san’atning barkamol shaxs tarbiyasidagi o‘rnini mustahkamlaydi, milliy o‘zlikni asrab qolishda va uni zamonaviy talqinda targ‘ib etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Tasviriy san’atda milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi – bu xalqning o‘ziga xos tarixiy-ma’naviy merosini zamon ruhiga mos holda namoyon qilish demakdir. Bunday uyg‘unlik san’atni nafaqat milliy, balki global miqyosda ham taraqqiy ettiradi. Shunday ekan, zamonaviy o‘zbek rassomlari milliy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida ularni yangicha talqinda davom ettirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev nutqlari va ma’ruzalari.
3. Имоматова , У. (2023). Ўқувчиларнинг таълим ва тарбиясида тасвирий санъат ўқитувчисининг аҳамияти. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”*, *1*(01).
4. To‘xtaxo‘jayev B. O‘zbek tasviriy san’ati tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Alimova D., Sodiqova G. San’atshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
6. Qodirov R. Tasviriy san’at nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2020.
7. Imomatova Umida Mirpulatovna Tasviriy san’at vositasida yoshlarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari. (2024). *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar*, *1*(1), 133-135.

“TASVIRIY SAN’ATDA TABIAT VA INSON UYG‘UNLIGI”

[1]Maxmudov Mirali Jabborovich,[2]Abdullayeva Zebo Sayrullayevna, [3]Rahimqulova Mashhura Murodqulovna

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi katta o‘qituvchisi.[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.[3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17421745

Annotatsiya*. Ushbu maqolada tasviriy san’atda tabiat va inson uyg‘unligining badiiy ifodasi, falsafiy mazmuni hamda zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik san’at asarlarida rang, shakl va kompozitsiya orqali namoyon bo‘ladi. Tabiat inson ruhiyatining manbai sifatida tasviriy san’atda ko‘plab ijodkorlar uchun ilhom beruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois maqolada tabiat obrazining tasviriy san’atda o‘ziga xos aks ettirilishi, inson qalbi va tabiat go‘zalligining uyg‘unlikda gavdalanishi ilmiy-nazariy va amaliy misollar bilan yoritilgan. Zamonaviy san’atda ekologik mavzular, landshaft tasvirlari va inson faoliyatining tabiat bilan uyg‘unligi masalalari ham alohida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: Tabiat, inson, uyg‘unlik, tasviriy san’at tstetika, ekosan’at, manzara (peyzaj), miniatyura, kompozitsiya, ruhiyat.*

Аннотация*: В данной статье анализируются художественное выражение, философское содержание и современные подходы к гармонии природы и человека в изобразительном искусстве. Взаимосвязь человека и природы проявляется в произведениях искусства через цвет, форму и композицию. Природа как источник человеческой психики служит вдохновляющей силой для многих художников в изобразительном искусстве. Поэтому в статье на научно-теоретических и практических примерах освещается своеобразное отражение образа природы в изобразительном искусстве, гармоничное воплощение человеческой души и красоты природы. В современном искусстве также отдельно рассматриваются экологические темы, ландшафтные изображения и вопросы гармонии человеческой деятельности с природой.*

Ключевые слова*: Природа, Человек, Гармония, Изобразительное искусство, Эстетика, Экоискусство, Пейзаж, Миниатюра, Композиция, Духовность.*

Abstract*: This article analyzes the artistic expression, philosophical content, and contemporary approaches to the harmony of nature and humanity in fine arts. The interdependence between man and nature is manifested in works of art through color, form, and composition. Nature, as a source of the human psyche, serves as a source of inspiration for many artists in fine arts. Therefore, the article highlights, with scientific-theoretical and practical examples, the unique reflection of the image of nature in visual art, the harmonious embodiment of the human soul and the beauty of nature. In contemporary art, environmental themes, landscape depictions, and the harmony of human activity with nature are also considered separately.*

Keywords*: Nature, Human, Harmony, Fine Arts Aesthetics, Eco-art, Landscape, Miniature, Composition, Spirituality.*

Inson va tabiat o‘rtasidagi aloqadorlik qadimdan san’at va falsafaning markaziy mavzusi bo‘lib kelgan. Tasviriy san’atda esa bu uyg‘unlik rang, chiziq, shakl va badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Insonning borliqni idrok etishi, tabiatni anglash va his qilish qobiliyati san’at asarlarida o‘z aksini topib, ruhiyatimizni uyg‘otadi, estetik didimizni shakllantiradi.

Buyuk faylasuf Aflotun ham tabiat va san’atning uzviy bog‘liqligini ta’kidlab: “San’at tabiatning davomidir, tabiat esa abadiy go‘zallikning manbaidir”, deb yozgan. Bu fikr inson va tabiat uyg‘unligi masalasi san’atda nechog‘lik muhim ekanini ko‘rsatadi. San’at tarixiga nazar tashlasak, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik qadimiy tosh rasmlardan tortib, miniatyura, realizm, impressionizm va zamonaviy ekologik san’atgacha bo‘lgan jarayonda turli shakllarda tasvirlanganini ko‘ramiz. Masalan, o‘zbek miniatyura san’atida tabiat manzaralari inson faoliyatini yorituvchi fon sifatida emas, balki estetik va ramziy obraz sifatida gavdalanadi. Xususan, Kamoliddin Behzod asarlarida daraxt, gul, daryo tasvirlari inson ruhiyatining nozik kechinmalarini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Bu uyg‘unlik san’at asarini yanada mazmunli qiladi.

Zamonaviy davrda tabiat va inson munosabatlari global muammo darajasiga ko‘tarilgan. Ekologik inqiroz, texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya sharoitida tabiatning inson hayotidagi ahamiyatini badiiy jihatdan ko‘rsatish san’atkorlarning dolzarb vazifasiga aylangan. Tasviriy san’atda tabiat obrazlari nafaqat go‘zallikni ifodalash, balki insoniyatni tabiatni asrab-avaylashga chaqiruvchi badiiy til sifatida ham talqin qilinmoqda. Zamonaviy rassomlardan biri Olafur Eliasson shunday deydi: “San’at tabiatni faqat aks ettirmaydi, balki uni qayta his qilish imkonini beradi”. Demak, bugungi kunda tasviriy san’at tabiat va inson uyg‘unligini nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma’naviy masala sifatida ham. asosiy e’tiborni inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy aloqani ochishga, san’at tarixida bu uyg‘unlikning qanday talqin etilganini yoritishga qaratilgan desak adashmaymiz.

Insoniyatning ilk ijodiy faoliyati qadimgi qoyatosh rasmlarida tabiat obrazlari yetakchi o‘rin egallagan. Bu tasvirlarda inson hayoti va tabiat o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik, ovchilik, hosildorlik, fasllar almashinuvi badiiy ifoda topgan. Ayni paytda, bu tasvirlar insonning tabiatga bo‘lgan ehtiromi va minnatdorligini ham ko‘rsatadi. Mashhur san’atshunos E.H. Gombrich ta’kidlaganidek: “Inson san’ati, avvalo, tabiatni anglash va uni his qilishdan boshlanadi”

Tasviriy san’atning dastlabki bosqichidanoq tabiat va inson uyg‘unligi muhim mavzu sifatida shakllangan. Sharq san’atida esa tabiat obrazlari ruhiy kechinmalarni ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Xitoy va yapon an’anaviy manzara rasmlarida inson ko‘pincha keng tabiat tasvirida kichik bir qism sifatida tasvirlanadi. Bu falsafiy yondashuv insonning tabiat oldida kichikligini, ammo shu bilan birga uning bilan uyg‘un holda yashash zarurligini bildiradi.

O‘zbek miniatyura san’atida ham tabiat tasvirlari inson ruhiyatining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Yevropa tasviriy san’atida tabiat va inson uyg‘unligi uyg‘onish davrida inson va tabiat uyg‘unligi realizm asosida yangicha talqin qilindi. Leonardo da Vinchi tabiatni “eng buyuk ustoz” deb atab, rassomlikda kuzatish va tabiatni sinchiklab o‘rganishni ustuvor qo‘ydi. Uning “Mona Liza” asaridagi fon manzarasi ham inson va tabiat uyg‘unligining estetik yechimidir. Impressionistlar – K. Mone, O. Renuar, V. Gogh – tabiat go‘zalligini inson ruhiy holati bilan uyg‘unlashtirib, yorqin ranglar va erkin cho‘tkalar orqali tabiatni his qilishga urg‘u berdilar.

Romantizm davrida tabiat insonning his-tuyg‘ularini kuchliroq ifodalash vositasiga aylandi. Masalan, K. Fridrixning “Tuman ustida sayyoh” asari insonning tabiat qarshisida chuqur

falsafiy holatda turganini ifodalaydi. Bu uyg‘unlikda inson tabiatga qarab o‘zining mavjudligini anglaydi, ruhiy dunyosini boyitadi.

O‘zbek tasviriy san’atida tabiat va inson uyg‘unligi Milliy san’atimizda tabiat obrazlari qadimdan muhim o‘rin tutgan. Behzodning miniatyuralarida bog‘-rog‘, daryo, daraxt va gullar inson hayotining ajralmas qismi sifatida tasvirlangan. XX asr rassomlaridan Chingiz Ahmarov, Raxim Ahmedov, Orol Tansiqboev ijodida tabiat manzaralari inson ruhiyati bilan uyg‘un holda aks etadi. Masalan, Orol Tansiqboevning manzaralarida kenglik va tabiatning sof go‘zalligi inson qalbida orom va osoyishtalik uyg‘otadi. Bugungi kunda o‘zbek rassomlari orasida ekologik mavzularga e’tibor kuchaygan. Tabiatning saqlanishi, atrof-muhit muammolari, suv va daraxtlarning qadri san’at orqali jamiyatga yetkazilmoqda.

Zamonaviy rassomlar asarlarida inson va tabiat uyg‘unligi ekologik xabardorlik bilan boyimoqda. Zamonaviy ekologik san’at va yangi g‘oyalar XXI asrda inson va tabiat uyg‘unligi masalasi faqat estetik emas, balki ijtimoiy, ekologik va falsafiy masalaga aylandi. “Ekosan’at” deb ataluvchi yo‘nalishda rassomlar atrof-muhit muammolariga badiiy yondashmoqda. Masalan, Olafur Eliasson o‘zining “Muz bloklari” loyihasida Grenlandiya muzliklarini shahar maydonlariga olib kelib, ularning erishini ko‘rsatish orqali insoniyatni global isish oqibatlari haqida ogohlantirgan.

O‘zbek san’atida ham yosh rassomlar ekologik mavzularni o‘z asarlarida aks ettirishmoqda. Ularda tabiat nafaqat tasvir obyekti, balki insoniyat kelajagini belgilovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Bu yangi g‘oya – tasviriy san’at orqali tabiatni asrab-avaylashga chaqirish, insonni o‘zining tabiatga mas’ul ekanini his qildirishdir. Inson ruhiyati va tabiat uyg‘unligi Psixologlar ta’kidlashicha, tabiat manzaralarini tomosha qilish inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, stressni kamaytiradi va estetik zavq beradi. Tasviriy san’atda esa bu ta’sir yanada kuchliroqdir. Masalan, akvarel texnikasida ishlangan yumshoq manzaralar yoki yorqin rangli peyzajlar tomoshabinning ichki dunyosiga bevosita ta’sir qiladi.

Shu sababli ham tabiat va inson uyg‘unligi san’atda nafaqat badiiy, balki ruhiy muvozanatni tiklovchi omil sifatida muhimdir.

Tasviriy san’atda tabiat va inson uyg‘unligi masalasi badiiy, falsafiy va ijtimoiy mazmuni jihatidan nihoyatda boydir. Tarixiy manbalardan ko‘rinib turibdiki, inson o‘z hayotini hech qachon tabiatdan ajratmagan.

Qadimgi qoyatosh rasmlaridan tortib, miniatyura san’ati, Uyg‘onish davri, impressionizm, romantizm va zamonaviy ekologik san’atgacha bo‘lgan yo‘nalishlarda tabiat va inson uyg‘unligi markaziy mavzu sifatida shakllanib kelgan. Bir tomondan, tabiat estetik go‘zallik manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan, inson ruhiyatining ko‘zgusi sifatida xizmat qiladi.

Ayni paytda tabiat obrazlari san’atda insoniyatni hayotiy muammolar, ekologik xavflar va ma’naviy qadriyatlar haqida o‘ylashga undaydi. San’atshunos V. Bykov ta’kidlaganidek: “Tasviriy san’at insonni tabiat bilan qaytadi, bog‘laydichunki tabiatni anglamagan qalb go‘zallikni his qila olmaydi”. Bugungi globallashuv davrida inson va tabiat uyg‘unligini tasvirlash yanada dolzarb masalaga aylandi.

Zamonaviy rassomlar tabiatni faqat go‘zallik sifatida emas, balki insoniyat kelajagini ta’minlovchi kuch sifatida ham talqin qilishmoqda. Ekosan’at, landshaft tasvirlari va ekologik muammolarga bag‘ishlangan asarlar insoniyatni atrof-muhitni asrab-avaylashga chaqiruvchi badiiy vositaga aylangan. Shunday qilib, tasviriy san’at orqali inson o‘zini tabiat bilan uyg‘un holda his qiladi. Bu uyg‘unlik ruhiy osoyishtalik, estetik zavq va ma’naviy barkamollikni

ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Inson va tabiat uyg‘unligi san’atda abadiy mavzu bo‘lib qoladi, chunki tabiat hamisha ilhom, go‘zallik va hayot manbaidir.

Xulosa: fikrimcha tasviriy san’atda tabiat va inson uyg‘unligi mavzusi faqat tarixiy yoki falsafiy tushuncha emas, balki bugungi kunda ham eng dolzarb masalalardan biridir. Har bir rassom tabiatni chizarkan, u faqatgina daraxt, tog‘ yoki osmonni emas, balki o‘zining ichki dunyosini ham tasvirlaydi. Shu bois tabiatga qarab yaratilgan har bir asar aslida inson qalbining ko‘zgusidir. Men san’atni tabiat va inson orasidagi ko‘prik deb bilaman..

Chunki tabiatdan uzilgan odam ijoddan ham, hayot mazmunidan ham uzoqlashadi. Rassom tabiat orqali o‘zini anglaydi, o‘zini ifodalaydi va boshqalarga ham estetik zavq bag‘ishlaydi., har bir zamonaviy san’atkor o‘z asarlarida ekologik mas’uliyatni ham namoyon qilishi lozim.. San’at nafaqat go‘zallikni, balki jamiyatga zarur bo‘lgan ogohlantirish va xabardorlikni ham yetkazishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gombrich, E.H. San’at tarixi (The Story of Art). — T.: O‘zbekiston, 2010.
2. Bykov, V. Estetika va tabiat falsafasi. — Moskva: Iskusstvo, 2005.
3. Karimov, H. Tasviriy san’at nazariyasi. — Toshkent: San’at, 2018.
4. Xolmatov, M. O‘zbek miniatyura san’ati. — Toshkent: Fan, 2009.
5. Nuriddinov, A. XX asr o‘zbek tasviriy san’ati tarixi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015. Zamonaviy yangiliklar va maqolalar:
6. Маҳмудов, М. Ж. (2020). Талабаларнинг манзара ишлашжараёнидагибаъзимуаммолар. Academic Research in Educational Sciences, 1 (2), 361-369.
7. Mahmudov M. KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KOMPOZITSIONQOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH JOURNAL OF IQRO – ЖУРНАЛ ИҚРО – IQRO JURNALI – volume 13, issue 01, 2024
8. MakhmudovMiraliJabbarovich,.(2023).Developmentoftheirabilitiesbyteachingthelawsandrulesofcompositiontostudentsinhighereducationinstitutions.Currentresearchjournalofpedagogics,4(11),151
   MaxmudovMiraliJabbarovich,.(2023).Developmentofstudent’scompositionskillsbasedoncreativeapproach.Currentresearchjournalofpedagogics,4(10),41
   Махмудов,М.Ж.(2020).Талабаларнингманзараишлашжараёнидагибаъзимуаммолар.Academicresearchineducationalsciences,(2),361-369

ZAMONAVIY SAN'ATDA PORTRET JANRINING O'ZGARISHI VA FALSAFIY TALQINLAR

Mirsaidova Muxlisa Katomatilla qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421753

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy san'atda portret janrining o'zgarishi, uning falsafiy, estetik va texnologik talqinlari tahlil qilinadi. Portret endi insonning tashqi o'xshashligini emas, balki ruhiy holati, identikligi va raqamli mavjudligini ifodalovchi badiiy shakl sifatida talqin etiladi. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar san'atning mohiyatini yangilab, portretni falsafiy muloqot maydoniga aylantirgani ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *Portret, zamonaviy san'at, falsafiy talqin, estetika, sun'iy intellekt, raqamli texnologiya, postgumanizm, kiberestetika, identiklik, milliy san'at, hermenevtika, tafakkur, inson mohiyati, mavjudlik, raqamli madaniyat, ontologiya, modernizm, postmodernizm, vizual tahlil, san'at falsafasi, virtual estetik.*

Annotation. *The article analyzes the transformation of the portrait genre in contemporary art, focusing on its philosophical, aesthetic, and technological interpretations. The portrait is redefined as a medium reflecting not external resemblance but human spirituality, identity, and digital existence. The role of artificial intelligence and digital technology in reshaping artistic meaning and creating a new philosophical dialogue in art is examined.*

Keywords. *Portrait, contemporary art, philosophical interpretation, aesthetics, artificial intelligence, digital technology, posthumanism, cyber aesthetics, identity, national art, hermeneutics, cognition, human essence, existence, digital culture, ontology, modernism, postmodernism, visual analysis, philosophy of art, virtual aesthetics.*

Аннотация. *В статье анализируется трансформация жанра портрета в современном искусстве, его философские, эстетические и технологические интерпретации. Портрет рассматривается как форма, отражающая не внешнее сходство, а духовность, идентичность и цифровое существование человека. Отмечается роль искусственного интеллекта и цифровых технологий в переосмыслении искусства и формировании нового философского диалога.*

Ключевые слова. *Портрет, современное искусство, философская интерпретация, эстетика, искусственный интеллект, цифровые технологии, постгуманизм, киберэстетика, идентичность, национальное искусство, герменевтика, мышление, человеческая сущность, бытие, цифровая культура, онтология, модернизм, постмодернизм, визуальный анализ, философия искусства, виртуальная эстетика.*

San'at insoniyat tafakkurining eng chuqur ifodasi bo'lib, u orqali inson o'z mohiyatini, ruhiy olamini va jamiyat bilan munosabatini anglaydi. Portret san'ati esa bu jarayonning eng yorqin shaklidir. U inson "men"ining tashqi ko'rinishi orqali ichki dunyosini, ruhiyatini, davr ruhini va mavjudlik falsafasini aks ettiradi. E.Gombrichning ta'biri bilan aytganda, «san'at — insonni tushunishga bo'lgan eng qadimiy urinishdir» [1].

Portret janrining falsafiy ildizlari qadimiy dunyo tafakkuriga borib taqaladi. Antik estetikada portret inson go'zalligini ilohiy mukammallik timsolida ifodalagan. Aristotel

«Poetika» asarida san’atni «tabiatni taqlid qilish emas, balki uni fikr orqali mukammallashtirish» deb ta’riflab, rassom obrazida insonning ruhiy mohiyatini aks ettirish zarurligini ta’kidlagan [2]. Shu sababli, qadimgi portretlarda tashqi o‘xshashlikdan ko‘ra ma’naviy mazmun ustuvor bo‘lgan.

Uyg‘onish davrida portret insonning tafakkuriy, ruhiy va ijtimoiy mohiyatini badiiy idrok etish vositasiga aylandi. Leonardo da Vinchi va Rafael singari rassomlar inson siymosida tafakkur, aql va ruh uyg‘unligini ifodaladilar. J.Burckhardt ta’kidlaganidek, «Uyg‘onish davri insonning o‘zini tarixiy mavjudot sifatida anglagan davrdir» [3]. Shu bosqichda portret shaxsning borliqdagi o‘rnini falsafiy jihatdan anglash shakliga aylandi.

XXI asrga kelib, portret san’ati texnologik taraqqiyot ta’sirida yangi mazmun kasb etdi. Sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar va virtual san’at vositalari portretni interaktiv, ko‘p qatlamli va ontologik talqinga olib kirdi. A. Elgammal fikricha, «sun’iy intellekt nafaqat tasvir yaratadi, balki ijodkorlik va mavjudlik tushunchalarini ham qayta belgilaydi» [4].

O‘zbekiston zamonaviy san’atida ham portret insonni milliy ruh, tarixiy xotira va zamonaviy dunyoqarash uyg‘unligida ifodalash vositasiga aylangan. R.Ahmedov va O.Matjonova asarlarida portret milliy o‘zlik va texnologik davr sintezida talqin etilmoqda. Shunday qilib, portret san’ati har bir davrda insonning borliqqa munosabatini, o‘zini anglash shaklini va madaniyat tafakkurini ifodalovchi falsafiy ko‘zguga aylangan.

Portret san’ati inson va borliq o‘rtasidagi murakkab aloqalarni badiiy tarzda anglash vositasidir. U nafaqat tashqi tasvir, balki shaxsning ichki dunyosini, ruhiy holatini va zamon ruhi bilan munosabatini ochuvchi falsafiy forma sifatida qaraladi. A.Danto bu holatni shunday izohlaydi: «Zamonaviy san’at endi narsa haqida emas, balki g‘oya haqida fikr yuritadi; san’atning ma’nosi endi tasvirdan g‘oyaga ko‘chgan» [5].

Antik davr falsafasida portret insonni go‘zallik va uyg‘unlikning timsoli sifatida tasvirlashga qaratilgan edi. Aristotel «Poetika» asarida san’atning maqsadini «tabiatdagi tartibni fikr orqali qayta yaratish» deb izohlaydi, ya’ni rassom tashqi o‘xshashlik emas, ichki mohiyatni ifodalashi kerak [6]. Shu qarashlar keyinchalik Uyg‘onish davrida rivojlanib, Leon Battista Alberti, Leonardo da Vinchi va Rafael ijodida portretning ruhiy-estetik mohiyati markaziy o‘ringa chiqdi.

XX asrga kelib, portretni talqin qilish falsafiy tafakkur bilan yanada boyidi. M.Xaydegger san’atni insonning borliqni anglash usuli deb ta’riflab, «badiiy asar — mavjudlikning ochilishidir» deya ta’kidlaydi [7]. Bu yondashuvda portret — insonning mavjudligi, ruhiy ichki holati va vaqt o‘rtasidagi falsafiy muloqot shakliga aylandi.

Shuningdek, Mishel Fuko shaxsni ijtimoiy konstrukt sifatida tahlil qilib, «har bir inson o‘z davrining hokimiyat, til va madaniyat tizimi ichida yaratilgan obrazdir» deydi [8]. Shu asosda portret endi mustaqil shaxs ifodasi emas, balki jamiyatdagi ramziy munosabatlarning mahsuli sifatida talqin etila boshladi.

O‘zbekiston san’atshunoslik ilmida ham bu masalaga e’tibor ortib bormoqda. Milliy rassomlikda portret ko‘pincha milliy ruh, tarixiy xotira va ijtimoiy qadriyatlarni ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. S.Qodirova o‘z tadqiqotida zamonaviy o‘zbek portretini «shaxs va millat uyg‘unligining badiiy in’ikosi» deb ta’riflaydi. Bu esa portretni faqat estetik emas, balki ma’naviy-tarbiyaviy kategoriya sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Metodologik jihatdan mazkur tadqiqot falsafiy-estetik, tarixiy-tipologik va hermenevtik tahlil usullariga tayangan. Falsafiy-estetik yondashuv portretni inson ruhining badiiy in’ikosi sifatida anglashga yordam beradi; tarixiy-tipologik yondashuv esa portret janrining bosqichma-

bosqich rivojlanishini ochib beradi; hermenevtik tahlil portret asaridagi ma’nolar qatlamini — ruhiy, ijtimoiy va texnologik kontekstda sharhlash imkonini yaratadi.

Bugungi davrda bu metodlar o‘zaro uyg‘unlashib, san’atni shunchaki tasviriy hodisa emas, balki ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida talqin etish imkonini bermoqda. Shu tariqa, portret janrining falsafiy o‘rganilishi orqali insonning borliqdagi o‘rni, identikligi va mavjudlik haqidagi tasavvurlar chuqurlashadi.

Zamonaviy san’atda portret janri insonning o‘zini anglash shaklidan texnologik va falsafiy tahlil ob’yektiga aylandi. Portret endi tashqi o‘xshashlikni emas, balki inson ruhiyati, ijtimoiy o‘rni va raqamli mavjudligini ifodalaydi. A.Danto yozganidek, «zamonaviy san’atning vazifasi narsa qanday ko‘rinishini emas, balki u nimani anglatishini tushuntirishdir» [9]. Shu bois portret bugungi kunda g‘oyaviy mazmunning estetik shakliga aylanib, inson haqidagi falsafiy qarashlar bilan bevosita bog‘lanmoqda.

Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va virtual vositalar san’atning tabiati va chegaralarini tubdan o‘zgartirdi. Rassom endi faqat ijodkor emas, balki algoritmik tizimlar bilan hamkorlik qiluvchi subyektga aylandi. Raqamli portretlarda inson tasviri ko‘pincha ma’lumotlar, kod va texnologik shovqinlar orqali yaratiladi. R.Anadol bu jarayonni «mashinalar orzusi va inson xotirasi birlashgan vizual tajriba» deb ataydi [10]. Natijada portret ontologik o‘zgarishga uchrab, inson va texnologiya o‘rtasidagi yangi mavjudlik maydonini ifodalay boshladi.

Bu jarayonning eng muhim falsafiy natijasi — identiklikning qayta talqin qilinishidir. Postgumanizm va kiberestetika oqimlarida inson endi biologik mavjudot sifatida emas, balki ma’lumot va ong uyg‘unligidagi kibernetik organizm sifatida qaraladi. N.Ketrin Xeyls ta’kidlaganidek, «biz endi inson sifatida emas, balki axborot tizimining ongli elementi sifatida yashayapmiz» [11]. Shu sababli portret endi shaxsning yuzini emas, balki uning ma’lumotdagi izini, raqamli mavjudlikdagi ko‘rinishini ifodalaydi.

O‘zbekiston zamonaviy san’atida bu holat milliy ruh bilan uyg‘unlashib, yangi falsafiy yo‘nalish yaratmoqda. R.Ahmedov va O.Matjonova asarlarida inson siymosi milliy xotira, tarixiy o‘zlik va texnologik davr uyg‘unligida ifodalangan. Ularning ijodida portret endi “milliy ruh” va “global ong” orasidagi badiiy ko‘prik sifatida talqin etilmoqda.

Zamonaviy san’atda portret endi nafaqat badiiy tasvir, balki falsafiy tahlil vositasiga aylangan. Uning asosiy mohiyati — insonni vizual shaklda emas, balki mavjudlik holatida, vaqt va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirda talqin etishdir. Z.Bauman bu holatni «suyuq zamon» konsepsiyasi orqali izohlaydi: «Zamonaviy inson o‘z identikligini doimiy o‘zgarish, yo‘qotish va qayta topish jarayonida yashaydi» [12]. Shu nuqtai nazardan portret san’ati ham o‘z shaklini doimiy ravishda yangilab, shaxsning o‘zini anglash jarayonini ko‘rsatmoqda.

Texnologik davrda insonning o‘zini tasvirlash usuli tubdan o‘zgardi. Raqamli portretlar, selfilar, sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan tasvirlar shaxs haqidagi qarashlarni kengaytirdi. L.Manovich bu jarayonni «yangi media tilining inqilobi» deb ataydi, chunki «zamonaviy tasvirlar endi haqiqatni aks ettirmaydi, balki uni algoritmik tarzda yaratadi» [13]. Shu bois, bugungi san’atda portret insonni ko‘rsatmaydi, balki uni qayta “yaratadi”. U orqali shaxsning biologik, ijtimoiy va raqamli mavjudligi bir butun falsafiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

San’at falsafasida bunday o‘zgarish “ko‘rish” va “anglash” o‘rtasidagi chegarani buzdi. J.Dyui «San’at — bu inson tajribasining eng chuqur shaklidir» deya yozgan [14]. Demak, portretni tomoshabin endi nafaqat ko‘radi, balki u bilan muloqot qiladi, o‘zini unda aks ettiradi. Bu jarayon hermenevtik yondashuv nuqtai nazaridan “ma’no yaratish” shakliga aylanadi. Har bir

tomoshabin portretni o‘z dunyoqarashi bilan anglaydi, shu bois u doimiy o‘zgaruvchi muloqot maydoni sifatida mavjud.

Milliy san’atda portretning bu yangicha falsafiy talqini o‘ziga xos tarzda ifodalanyapti. O‘zbekiston rassomlari asarlarida inson endi tarixiy yoki ijtimoiy obraz emas, balki milliy va raqamli madaniyatning kesishgan nuqtasida turgan mavjudot sifatida tasvirlanmoqda. Masalan, R.Ahmedov portretni «milliy ruhning yuzdagi aks-sadosi» sifatida talqin etadi, O.Matjonova esa «virtual estetikada portret shaxsning yangi metafizik shakliga aylanmoqda» deya ta’kidlaydi.

Shu tariqa, portret san’ati bugungi kunda inson va texnologiya o‘rtasidagi falsafiy munosabatni anglashning eng sezilarli vositasiga aylandi. U nafaqat shaxsni ko‘rsatadi, balki insonning kimligi, mavjudlikdagi o‘rni va ongning chegaralari haqidagi savollarga ham javob izlaydi. Zamonaviy portret bu jihatdan «borliqning ko‘rinadigan shakli» bo‘lib, inson ruhining, madaniyatining va raqamli o‘zlikning badiiy ko‘zgusidir.

Portret san’ati insonni anglashning eng qadimiy va eng zamonaviy falsafiy shakllaridan biridir. Uning tarixiy rivoji davomida inson haqidagi qarashlar ham o‘zgargan: antik davrda portret go‘zallik va uyg‘unlik timsoli bo‘lsa, Uyg‘onish davrida u inson tafakkuri va ruhiy kuchining ramziga aylandi. XX–XXI asrga kelib, portret nafaqat tasviriy, balki falsafiy va texnologik hodisaga aylangan. A.Danto ta’kidlaganidek, «zamonaviy san’at endi voqelikni ko‘rsatmaydi, balki uni tahlil qiladi» [15]. Shu bois bugungi portret insonning tashqi shaklini emas, balki uning mavjudlikdagi ma’nosini ochishga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va virtual estetika san’atda yangi bosqichni boshlab berdi. Portret endi algoritmik tahlil, raqamli tajriba va axborot oqimi orqali yaratilmoqda. N.Xeyls bu jarayonni «insonning kibernetik ong bilan uyg‘unlashuvi» deb ataydi [16]. Bu sharoitda portret shunchaki badiiy obraz emas, balki insonning texnologik mavjudligini ifodalovchi vositaga aylandi. Raqamli portretlar orqali inson o‘zining biologik, ma’naviy va axborotga asoslangan qirralarini bir vaqtning o‘zida anglaydi.

Milliy san’at nuqtai nazaridan, O‘zbekiston rassomlari ijodida portret janri o‘ziga xos falsafiy va estetik yo‘nalish kasb etmoqda. R.Ahmedovning «portret inson qiyofasida millat ruhining ko‘rinishidir» degan fikri zamonaviy o‘zbek san’atining mohiyatini ifodalaydi [17]. O.Matjonova esa «raqamli estetikada portret shaxs va texnologiya o‘rtasidagi yangi muloqot shakliga aylandi» deb yozadi [18]. Shu tariqa, milliy portret san’ati endilikda global falsafiy tafakkur bilan hamohang tarzda rivojlanmoqda.

Bugungi portret san’ati falsafiy jihatdan uchta muhim xulosa beradi:

1. Portret endi tashqi o‘xshashlik emas, balki mavjudlikni idrok etish shaklidir.
2. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar insonning ijodiy mohiyatini kengaytiruvchi yangi vositaga aylandi.
3. Milliy portret san’ati orqali o‘zlikni global madaniy jarayonlar kontekstida qayta anglash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Shunday qilib, zamonaviy portret insonning borliqdagi o‘rnini, ruhiy holatini va texnologiya bilan uyg‘unlashgan yangi mavjudlik shaklini ifodalaydi. U falsafaning eng muhim savollariga — “inson kim?”, “mavjudlik nimani anglatadi?” — degan so‘rovlarga san’at tili orqali javob beradi. Shu sababli portret san’ati bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, balki yangi davrning falsafiy ko‘zgusiga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Gombrich E. H. *The Story of Art.* – London: Phaidon Press, 1995. – 688 p.

2. Aristotle. *Poetika.* – Oxford: Clarendon Press, 1965. – 148 p.
3. Plotinus. *The Enneads.* – London: Penguin Classics, 1991. – 640 p.
4. Burckhardt J. *The Civilization of the Renaissance in Italy.* – London: Penguin Books, 1990. – 432 p.
5. Danto A. *The Transfiguration of the Commonplace: A Philosophy of Art.* – Cambridge: Harvard University Press, 1981. – 230 p.
6. Alberti L. B. *On Painting.* – London: Penguin Classics, 1991. – 192 p.
7. Heidegger M. *The Origin of the Work of Art.* – New York: Harper & Row Publishers, 1971. – 60 p.
8. Foucault M. *The Order of Things: An Archaeology of the Human Sciences.* – New York: Vintage Books, 1994. – 422 p.
9. Danto A. *After the End of Art: Contemporary Art and the Pale of History.* – Princeton: Princeton University Press, 1997. – 272 p.
10. Anadol R. *Machine Hallucinations: AI and Data in Art.* – Istanbul: Artech Press, 2021. – 140 p.
11. Hayles N. K. *How We Became Posthuman: Virtual Bodies in Cybernetics, Literature, and Informatics.* – Chicago: University of Chicago Press, 1999. – 350 p.
12. Bauman Z. *Liquid Modernity.* – Cambridge: Polity Press, 2000. – 240 p.
13. Manovich L. *The Language of New Media.* – Cambridge: MIT Press, 2001. – 354 p.
14. Dyui J. *Art as Experience.* – New York: Perigee Books, 1980. – 355 p.
15. Danto A. *The Transfiguration of the Commonplace: A Philosophy of Art.* – Cambridge: Harvard University Press, 1981. – 230 p.
16. Hayles N. K. *How We Became Posthuman: Virtual Bodies in Cybernetics, Literature, and Informatics.* – Chicago: University of Chicago Press, 1999. – 350 p.
17. Ahmedov R. *Inson qiyofasi san'atda.* – Toshkent: Kamalak nashriyoti, 2015. – 175 b.
18. Matjonova O. *Virtual estetika va zamonaviy portret.* – Toshkent: San'at nashriyoti, 2022. – 155 b.

O'ZBEKISTON YOSHLARINI MILLIY MADANIYAT VA SAN'AT ORQALI TARBIYALASH ISTIQBOLLARI

Nusharov Bobir Bolbekovich
Guliston davlat universiteti, "Amaliy san'at va dizayn" kafedrasi v.b. dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421764

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida milliy madaniyat va san'atning yoshlarni tarbiyalashdagi o'rni, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida milliy qadriyatlarni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. San'atning yoshlarning ma'naviy-axloqiy va estetik saviyasini oshirishdagi roli, davlat siyosati va Prezidentimiz tashabbuslari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, san'at, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, pedagogika, yoshlar tarbiyasi, zamonaviy texnologiyalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya.*

Аннотация: *в статье рассматривается роль национальной культуры и искусства в воспитании молодежи в годы независимости Республики Узбекистан. Анализируются вопросы развития национальных ценностей на основе современных педагогических технологий. Особое внимание уделено роли искусства в повышении духовно-нравственного и эстетического уровня молодежи, а также мероприятиям, реализуемым в рамках государственной политики и инициатив Президента.*

Ключевые слова: *Узбекистан, искусство, духовность, национальные ценности, педагогика, воспитание молодежи, современные технологии, духовно-нравственное воспитание.*

Abstract: *the article examines the role of national culture and art in educating youth during the years of independence of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the issues of developing national values based on modern pedagogical technologies. Special attention is given to the role of art in enhancing the spiritual, moral, and aesthetic levels of young people, as well as to the activities implemented within the framework of state policy and presidential initiatives.*

Keywords: *Uzbekistan, art, spirituality, national values, pedagogy, youth education, modern technologies, spiritual and moral upbringing.*

Shu maqsadda, Respublikamiz hukumati tomonidan qator hujjatlar ishlab chiqilib, Vatanimizning har tomonlama jahon standartlari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda [1:4]. Xususan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimiz hamda ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan, butun dunyoga mashhur san'at namunalari keng qo'llanilmoqda. Ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning poydevorini tashkil etadi. Shu bois, ushbu merosdan yoshlarning ta'lim va tarbiyasida keng foydalanish juda muhimdir. Zero, "Ajdodlarimizdan qolgan meros nafaqat millatimizning o'tmishi, balki uning istiqboli uchun ham kuch va fidoyilik manbaidir" [2:47].

Yuqoridagilarni inobatga olib, bolalar ijodkorligini rivojlantirish va ularda estetik tarbiyani shakllantirishda san'atning turli tarmoqlari – rassomlik, haykaltaroshlik, arxitektura, musiqa, teatr va kino kabi sohalar alohida o'rin tutadi. Shuningdek, rassomlar, bastakorlar, teatr va kino arboblari haqidagi, jahon muzeylari – Ermitaj, Tretyakov, Drezden galereyalari, Luvr

kabi madaniy yodgorliklarga oid kitoblar ham muhim ahamiyatga ega [3:4]. Bu borada tasviriy san’at o‘quvchilarda ijobiy xislatlarni shakllantirish, ona tabiat va hayvonot olamiga mehr-muhabbat uyg‘otishda katta rol o‘ynaydi.

Inson tabiatdan rassomdir. U hayotida ko‘rgan, bilgan narsalarini va voqealarni boshqalar bilan baham ko‘rishga, o‘z ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lgan tabiat go‘zalligini hamda insonning nafisligini ifodalashga intiladi. Inson faqat ijod qilib, san’at asarlari yaratganda emas, balki san’at asarlarini qabul qilayotganida ham ijodkor ekanligini anglash zarur. Buning uchun fikr va g‘oyalarni tartib bilan ifodalash, ularni tasvirlash qoidalarini o‘rganish muhimdir va aynan shu jihatlarda kompozitsiya fani katta yordam beradi [4:12]. Shu sababli kompozitsiya asoslari, uning vositalari, shuningdek, kompozitsiyaning simmetriya, assimmetriya, format, o‘lchovlar, kontrastlar kabi elementlari haqida batafsil ma’lumot berish muhimdir.

Go‘zallikni his eta olishni rivojlantirish, yuqori estetik didni shakllantirish hamda san’at asarlari, tarixiy va me’moriy yodgorliklar, ona tabiatning go‘zallik va boyliklarini tushunishni rivojlantirish maqsadida har bir o‘quv fani, xususan shaxsning bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan adabiyot, musiqa, tasviriy san’at va estetika kabi fanlardan samarali foydalanish lozim [5:128]. Bu fanlar insonning his-tuyg‘ularini uyg‘otib, uning ruhiga ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, san’at va inson uyg‘unligi hamda hamkorligini ta’minlaydi**.**

San’atning inson hayotidagi o‘rni juda muhimdir. U nafaqat insonning estetik didini rivojlantiradi, balki uning ma’naviy olamini boyitadi, tafakkurini kengaytiradi. San’at orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydi, boshqalar bilan fikr almashadi va jamiyatning umumiy ma’naviy taraqqiyotiga hissa qo‘shadi [6:463]. Shu sababli, ta’lim jarayonida san’atning turli shakllarini – tasviriy san’at, musiqa, teatr, kino va boshqalarni o‘zlashtirish yoshlarning nafaqat ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, balki ularni jamoaviy ishlashga, muammolarni hal qilishga o‘rgatadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda san’atning o‘quvchilarni tarbiyalashdagi roli ortib bormoqda [7:1492]. Bugungi kunda faqat bilim berish emas, balki shaxsning butunlay rivojlanishi, ularning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va ma’naviy-madaniy qadriyatlarni qadrlash qobiliyatini shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir. Shuning uchun ham ta’limda san’at fanlariga alohida e’tibor qaratish, ularni interfaol va innovatsion metodlar bilan o‘rgatish zarur. Bundan tashqari, globalizatsiya sharoitida milliy madaniyat va an’analarni saqlab qolish muhim masalaga aylangan. Yosh avlodning milliy ma’naviyatini yuksaltirishda san’at o‘ziga xos vosita sifatida xizmat qiladi. Milliy san’at namunalarini o‘rganish orqali yoshlar o‘z tarixini, milliy qadr-qimmatini anglaydi, madaniy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Shu yo‘l bilan ular nafaqat milliy, balki xalqaro madaniy maydonda ham o‘z o‘rnini topa oladi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida san’atning integratsiyasi yoshlarning ijodiy fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirishda muhim vositaga aylangan. San’at nafaqat o‘z ifodasini topish vositasi, balki o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini anglash, ijtimoiy muammolarni hal etish uchun yangi yondashuvlarni topishga yordam beradi [8:8]. Masalan, drama va teatr metodlari orqali yoshlar o‘zlarini ifoda etish, boshqalar bilan muloqot qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Musiqa va tasviriy san’at esa stressni kamaytirish, ichki dunyoni boyitish va ruhiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

San’at orqali yoshlar tarixiy voqealarni, milliy urf-odatlarni chuqurroq tushunib, ularni o‘zlashtiradilar. Bu esa ularning o‘zligini anglashlariga, milliy g‘urur va sadoqatni shakllantirishga yordam beradi [9:235]. Ayniqsa, xalqimizning boy madaniy merosini yoshlar orasida targ‘ib qilishda san’at muhim vosita hisoblanadi [10]. Milliy raqslar, musiqalar,

an’anaviy tasviriy san’at namunalarini o‘rganish orqali yoshlar o‘z madaniy ildizlarini yanada chuqurroq anglaydi va qadrlaydi.

Shuningdek, zamonaviy davrda san’at va texnologiyalarni uyg‘unlashtirish – yoshlarni raqamli asrda muvaffaqiyatli bo‘lishiga olib boruvchi yo‘l sifatida ko‘rilmoqda. Virtual haqiqat, animatsiya, grafik dizayn kabi sohalar yoshlarning ijodiy salohiyatini kengaytirish bilan birga, ularni yangi ish o‘rinlari va iqtisodiy imkoniyatlar bilan ta’minlaydi. Shu bois, ta’lim muassasalari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishi, o‘quvchilarni zamonaviy san’at turlariga o‘rgatishi dolzarbdir [11]. Oxir-oqibat, san’at inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, uning rivojlanishi jamiyatning madaniy, ma’naviy taraqqiyotini belgilaydi. Bugungi kunda “O‘zbekiston yoshlarini san’at orqali tarbiyalash, ularning ma’naviy va estetik saviyasini oshirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda” [12:143]. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki millatimizning kelajagi uchun ham muhim omil sanaladi.

Shu bilan birga, san’atning yoshlar hayotidagi ahamiyati faqatgina madaniy merosni saqlab qolish bilan cheklanmaydi. Ular orqali yosh avlod o‘z fikrlarini ifoda etish, dunyoqarashini kengaytirish va yangi g‘oyalarni yaratish imkoniga ega bo‘ladi. San’at – bu nafaqat his-tuyg‘ularni uyg‘otuvchi vosita, balki jamiyatning ijtimoiy muammolariga yechim topishda ham samarali platforma hisoblanadi. Misol uchun, teatr va kino orqali yoshlar o‘zlaridagi adolat, tenglik, inson huquqlari kabi qadriyatlarni anglab, ularga sodiq qolishga o‘rganadi. Shuningdek, san’at orqali yoshlar muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishadi, shu orqali global hamkorlik va tinchlik g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Bu esa ularni keng dunyoqarashli, ochiq fikrli shaxslar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Milliy madaniyat va san’atni zamonaviy pedagogik usullar bilan uyg‘unlashtirish yoshlar tarbiyasining samaradorligini yanada oshiradi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy dasturlar, yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar san’atning ta’lim va tarbiyadagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shunday ekan, kelajak avlodning ma’naviy barkamolligi, milliy ruhda yetuk shaxslar bo‘lib yetishishi uchun san’at va madaniyatni ta’lim tizimida samarali joriy etish har bir ta’lim muassasasining muhim vazifasidir. Bugungi kunda san’at orqali yoshlarning ijodkorligini rivojlantirishda nafaqat an’anaviy usullar, balki interaktiv va innovatsion yondashuvlar ham keng qo‘llanilmoqda. Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan multimedia loyihalar, virtual galereyalar va onlayn san’at darslari yoshlarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularga o‘z ijodlarini yanada kengroq auditoriyaga taqdim etish imkonini beradi. Bu esa yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va ularni kelajakda san’at sohasida professional faoliyat yuritishga undaydi. Shuningdek, san’at ta’limi yoshlar orasida jamoaviy ishlash, hamkorlik va liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Teatr va drama studiyalari, ijodiy klublar orqali o‘quvchilar birgalikda yangi loyihalarni amalga oshirib, o‘zaro tushunish va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Bu jarayon yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ularni jamiyatga samarali integratsiyalashishiga yordam beradi.

Shunday qilib, san’at va madaniyat asosida tarbiya berish nafaqat yoshlarning shaxsiy kamoloti, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar, madaniy an’analar va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali yaratiladigan ta’lim muhiti yoshlarning barkamol, ijodiy va ma’naviy yetuk shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu yo‘l bilan mamlakatimiz kelajagi yanada porloq va istiqbolli bo‘lishiga ishonch hosil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, san’at va ma’naviyat yoshlarni tarbiyalash va ularning shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar va tarixiy merosga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etilishi bu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishish imkonini berdi. Prezidentimiz tashabbuslari va davlat siyosati yoshlarning ma’naviy saviyasini oshirish, ularni milliy madaniyat va san’at bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan. San’at nafaqat insonning ichki dunyosini boyitadi, balki uning tafakkurini kengaytiradi, milliy o‘zlikni mustahkamlaydi va jamiyatning ma’naviy barkamolligiga xizmat qiladi. Shu bois, ta’lim jarayonida san’atning turli shakllarini keng joriy etish, yoshlarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish mamlakatimizning barqaror rivoji va kelajak avlodning muvaffaqiyati uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Bulatov, J.Nasriddinov, B.Abduxonov. Ustoz va shogird an’analari. -T.: 2008.
2. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar. -T.: Muharrir, 2008 y.
3. R.Xudoyberganov. Kompozitsiya. -T.: 2004.
4. P.Qodirxo‘jayev. Badiiy bezak san’ati. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.
5. Ibadullaeva , Z. ., & Jumaboev , N. . (2025). UZBEK NATIONAL ART AND ITS SCHOOLS. New Uzbekistan Journal of Academic Research, 2(2), 127–130. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/yoitj/article/view/68532
6. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.
7. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677
8. Jumaboev Nabi Pardaboevich. (2025). DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.17306753
9. Bolbekovich, Nusharov B. "The Role and Significance of Fine Art in Preparing Future Fine Art Teachers for Independent or Creative Activity." World Bulletin of Social Sciences, vol. 22, 28 May. 2023, pp. 235-239.
10. Имомов F. . (2025). CHIZMACHILIK FANINING O‘QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJIGA TA’SIRI. Свет науки, (10(45). извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/102914
11. Inoyatov, O. (2025). TEKISLIKLARNING O‘ZARO PARALLELLIGI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/1), 495–500. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N76
12. Berikbaev, A. (2021, April). TEACHING PROFESSION AND SKILLS WAYS TO BE A TEACHER. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 142-144).
13. Курбанов Э. Размеры демократии в современное время //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 286-291.

14. Olimjon o‘g‘li K. D. IMPROVING MODERN METHODS OF TEACHING ENGINEERING GRAPHICS //INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. – 2025. – Т. 3. – №. 33. – С. 68-70.
15. Bolbekovich, N. B. . (2024). Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.42
16. Khudayberdievich, B. A. . (2024). The Role of Physiognomics in Teaching Students to Draw Portraits. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.38
17. Usmanov Botir Allaberdiyevich. (2025). TASVIRIY SAN’ATDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY YONDASHUV VA YANGI IMKONIYATLAR. IQRO Journal, 16(01), 374–378. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/122062

SAN'AT – INSON QALBINING OYNASI

[1]Rajabova Laylo O'tkir qizi, [2]Akmalova Madinabonu Akbar qizi, [3]Miraminova Sevara Odiljon qizi

[1]San'atshunoslik fakulteti "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi o'qituvchisi, [2]Dizayn:Libos va gazlamalar yo'nalishi 1 – bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17421794

Annotatsiya. *Mazkur maqolada san'atning inson qalbidagi o'rni, uning ruhiy va ma'naviy hayotdagi ahamiyati yoritilgan. San'at inson tuyg'ularining ifodasi, qalb oynasi sifatida tasvirlanadi. Rassom, bastakor va shoirlar ijodi orqali inson his-tuyg'ulari san'atga ko'chadi. Shuningdek, san'atning yosh avlodni tarbiyalashdagi roli, jamiyatdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Muallif san'atni asrash va rivojlantirish har bir insonning burchi ekanligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *San'at, qalb oynasi, inson tuyg'ulari, ma'naviyat, ruhiy tarbiya,ijod,rassom,bastakor, Shoir, yosh avlod,jamiyat, go'zallik, san'at tarbiyasi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается место искусства в душе человека, его значение в духовной и нравственной жизни. Искусство описывается как выражение человеческих чувств, зеркало души. Через творчество художников, композиторов и поэтов человеческие чувства переносятся в искусство. Также рассматривается роль искусства в воспитании подрастающего поколения и его значение в обществе. Автор подчёркивает, что долг каждого человека – сохранять и развивать искусство.*

Ключевые слова: *искусство, зеркало души, человеческие чувства, духовность, духовное воспитание, творчество, художник, композитор, поэт, молодое поколение, общество, красота, художественное образование.*

Abstract: *This article discusses the place of art in the human soul, its importance in spiritual and moral life. Art is described as an expression of human feelings, a mirror of the soul. Through the work of artists, composers and poets, human feelings are transferred to art. The role of art in educating the younger generation and its importance in society are also discussed. The author emphasizes that it is the duty of every person to preserve and develop art.*

Keywords: *Art, mirror of the soul, human feelings, spirituality, spiritual education, creativity, artist, composer, Poet, young generation, society, beauty, art education.*

Insoniyat yaralganidan beri u o'z his-tuyg'ularini, orzularini, hayrat va iztiroblarini ifoda etishning turli yo'llarini izlab kelgan. Ana shunday izlanishlar natijasida san'at paydo bo'lgan. San'at — bu inson ruhining tili, qalbning eng nozik pardalarini chertuvchi ilohiy kuchdir. U so'zsiz so'zlaydi, jimlikda hayqiradi, ko'rish va his etish orqali qalblarni birlashtiradi.

Har bir davrda san'at o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan: qadimda u diniy e'tiqod ifodasi bo'lgan bo'lsa, bugun u inson ruhiy olamining aks-sadosi sifatida qadrlanadi. Ayniqsa, tasviriy san'at — bu so'zsiz she'riyat, chizilgan his-tuyg'udir. Rassom o'z yuragidan o'tgan tuyg'ularni ranglar orqali jonlantiradi, tomoshabin esa o'sha ranglar ichida o'zini topadi.

Shu ma'noda, bejiz "san'at – inson qalbining oynasi" deyilmaydi. Chunki san'atda inson o'zini ko'radi, o'zini anglaydi, o'zini qaytadan kashf etadi.

San’at inson hayotining ajralmas qismidir. U hayotga mazmun bag‘ishlaydi, qalbni tozalaydi, his-tuyg‘ularni boyitadi. Inson san’atsiz yashay olmaydi, chunki u faqat moddiy mavjudot emas, balki ruhiy borliqdir. Ruh esa go‘zallik, ilhom va tuyg‘ular bilan oziqlanadi.

Tasviriy san’at insonni o‘ylashga, his etishga, ichki olamiga nazar solishga undaydi. Birgina manzara rasmini tomosha qilgan odam o‘zining tinchlik va osoyishtalikka bo‘lgan ehtiyojini his etadi. Rassomning mo‘yqalamidan to‘kilgan chiziqlar, soyalar, ranglar — bularning barchasi insonning ichki ovoziga aylanadi.

Har bir rassom o‘z dunyosiga ega. U yaratgan asar — bu uning yuragining tarjimasi. Shu bois, san’at insonni ruhiy jihatdan boyitadi, unda mehr, sabr, go‘zallikka muhabbat kabi tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Rang — bu shunchaki ko‘rish hissi emas, balki his etishning o‘zidir. Har bir rang o‘z ma’nosiga ega: qizil — ehtiros, yashil — umid, ko‘k — orom, qora — sir, oq esa poklik timsolidir. Rassom bu ranglarni tanlar ekan, u aslida o‘z ruhiy holatini ifoda etadi.

Masalan, Van Gogning “Yulduzli tun” asaridagi ranglar nafaqat osmonni, balki rassomning ruhidagi bo‘ronni ham aks ettiradi. Kamoliddin Behzod miniatyuralaridagi rang uyg‘unligi esa Sharq san’atining nozik didini, inson qalbining sokin go‘zalligini ko‘rsatadi.

Ranglar va chiziqlar bir-biriga qo‘shilganida ular go‘yo so‘zga aylanadi, lekin bu so‘z yurak orqali tinglanadi. Har bir rasm — bu so‘zsiz hikoya, har bir bo‘yoq — bu yashirin tuyg‘u. Shuning uchun ham tasviriy san’atni ko‘rgan inson o‘zida bir holatni, bir titroqni his etadi. Bu titroq — bu san’atning sehridir.

San’at faqat go‘zallik emas, balki hayot haqidagi chuqur o‘ylarning ifodasidir. U inson va jamiyat o‘rtasida ma’naviy aloqa yaratadi. Rassom, bastakor yoki shoir o‘z asarlari orqali jamiyatdagi dardni, quvonchni, o‘zgarishni his qiladi va uni boshqalarga yetkazadi.

Tasviriy san’at orqali inson o‘z davrining ruhini anglaydi. Masalan, urush, tinchlik, sevgi, mehnat yoki tabiat mavzularidagi asarlar nafaqat ko‘rish zavqini beradi, balki o‘ylashga, to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydi. Shu bois san’at jamiyatni tarbiyalaydi, insonni kamolga yetkazadi.

San’at — bu ruhiy ko‘prikdir. U orqali inson o‘zini boshqalar orqali, boshqalarni esa o‘zi orqali anglaydi. Har bir buyuk san’at asari insoniyatni yaxshilikka, mehr va go‘zallikka chorlaydi.

San’at — inson qalbining oynasi, unda biz o‘zimizni ko‘ramiz. U bizga kimligimizni eslatadi, his etishga, o‘ylashga, orzu qilishga o‘rgatadi. Inson san’at orqali o‘zining eng go‘zal qirralarini kashf etadi.

Bugungi texnologik asrda ham san’at o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, aksincha, u inson ruhining eng muhim oziqasiga aylangan. Chunki san’at — bu abadiyat tili. U orqali inson o‘tganini eslaydi, hozirini anglaydi, kelajakka umid bilan boqadi.

Darhaqiqat, san’at – inson qalbining oynasi. Bu oyna har bir yurakda bor, faqat unga diqqat bilan qarash, his etish kerak. Chunki san’atni his etgan inson — hayotni his etgan insonga aylanadi. San’at – bu inson qalbining eng nozik tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, quvonch va iztiroblarini ifoda etuvchi sehrli bir kuchdir. U insoniyat tarixining har bir davrida uning ma’naviy dunyosini boyitgan, yuraklarni titratgan va onglarni yuksaltirgan. San’at — bu faqat chizilgan surat yoki eshitilgan kuy emas, balki qalb va tafakkur uyg‘unligidan tug‘ilgan ruhiy go‘zallikdir.

Inson yuragi nimani his qilsa, san’atda o‘shani ko‘ramiz. Rassom yuragidagi muhabbatni ranglar orqali ifodalaydi, bastakor esa qalbidagi iztirobni kuyga soladi. Shoir satrlar ortida butun bir dunyoni yashiradi. Bu san’atning qudrati — u so‘zsiz ham gapiradi, jim tursa-da, yuraklarga

ta’sir qiladi. San’at odamni tarbiyalaydi, unga yaxshilik va go‘zallikni anglatadi. Yaxshi asarni ko‘rgan, tinglagan yoki o‘qigan odamda mehr, rahm-shafqat, vatanparvarlik kabi tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Shu boisdan ham buyuk mutafakkirlar san’atni “qalb oynasi” deb bejiz atamaganlar. Bugungi kunda san’atning jamiyatdagi o‘rni yanada oshib bormoqda. Teatr, kino, musiqa, adabiyot, tasviriy san’at – bularning barchasi zamonaviy insonning ma’naviy ehtiyojini qondirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda san’atning ta’siri beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, san’at bu – inson qalbining oynasi, tuyg‘ular tarjimoni, ruhiy go‘zallik manbai. Uni asrash, qadrlash va rivojlantirish har birimizning burchimizdir. Chunki qalbini yo‘qotgan inson qanday yashashini tasavvur qilish qiyin bo‘lsa, san’atsiz jamiyat ham shunchalik g‘amgin va rangsiz bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1.Mirsoatova, L. (2023, December). PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERI HAMKORLIGI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
2. Мирсоатова, Л. Ў. (2023). Интеграция Средств Компьютерной Графики В Образовательные Стандарты И Курсы Развития Навыков Самостоятельного Обучения. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, *1*(8), 72-76.
3. Султанов ХЭ, Бойназарова НХ, Бердиев ДА, Мирсоатова ЛЎ, Маматкаримова МТ. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишнинг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти. Yangi o ‘zbekistonda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari/may. 2022 May 20:613-20.
4. Mirsoatova, L. (2022). USE OF INNOVATIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’CREATIVE ABILITIES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *3*(01), 45-49.
5. Султанов, Х. Э., & Мирсоатова, Л. У. (2021). МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, *2*(5), 1240-1247.
6. 6.Baymetov, B. B., & Misoatova, L. (2021). DEVELOPMENT OF CREATIVITY AND IMAGINATION OF SCHOOLCHILDREN IN FINE ARTS CLASSES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, *2*(05), 55-61.
7. Baymetov, L. M. B. B. (2020). Theory and methods of depicting the human body in higher pedagogical education. 2020/11" Science and Education. *Scientific Journal*, *1*(8), 467-475.
8. Baymetov, B., & Sharipjonov, M. (2021). OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA INSON QIYOFASINI AMALIY TASVIRLASH JARAYONIDA IJODIY KOMPYETYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*(3), 1066-1070.

CHIRCHIQ SHAHAR TARIXI MUZEYI TASVIRIY SAN’AT ASARLARINING MADANIY-ESTETIK AHAMIYATI

Rizvanova Dilso‘z Kahhorovna
Chirchiq shahar tarixi muzeyi katta ilmiy xodimi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421814

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot Chirchiq shahar tarixi muzeyidagi Tasviriy san’at (rangtasvir, grafika) namunalarining ilmiy qiymati hamda muzeyshunoslik maqomini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ushbu san’at shakllarining madaniy merosni institutsional saqlashdagi o‘rni va ahamiyatini yoritish, shuningdek ularning ta’lim va estetik kommunikatsion salohiyatini kuchaytirishdir. Ishda xalqaro muzey etika standartlari asosida eksponatlarni saqlash va ilmiy inventarizatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Olingan natijalar Chirchiq shahar tarixi muzeyi va oliy ta’lim muassasalari integratsiyasi doirasida Tasviriy san’at asosida o‘quv-estetik bazani rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilaydi.*

Аннотация. *Данное исследование направлено на изучение научной ценности и музейного статуса произведений изобразительного искусства (живописи, графики) в музее истории города Чирчика. Основная цель исследования – раскрыть роль и значение этих художественных форм в институциональном сохранении культурного наследия, а также укрепить их образовательный и эстетико-коммуникативный потенциал. В работе анализируются процессы сохранения экспонатов и проведения научной инвентаризации на основе международных стандартов музейной этики. Полученные результаты определяют направления развития учебно-эстетической базы на основе изобразительного искусства в рамках интеграции музея истории города Чирчика и высших учебных заведений.*

Annotation. *This research is focused on studying the scientific value and museological status of fine art works (painting, graphics) in the Chirchiq City History Museum. The main aim of the study is to reveal the role and importance of these art forms in the institutional preservation of cultural heritage, as well as to strengthen their educational and aesthetic communicative potential. The paper analyzes the processes of preserving exhibits and conducting scientific inventory in accordance with international museum ethics standards. The obtained results determine directions for the development of an educational and aesthetic base through fine arts within the framework of integration between the Chirchiq City History Museum and higher education institutions.*

Kalit so‘zlar: *Muzeyshunoslik diskursi, Chirchiq muzeyi, Tasviriy san’at, Estetik kommunikatsiya, Konservatsiya protokollari, Mualliflik atributsiyasi.*

Kirish. Muzeylar insoniyat sivilizatsiyasining madaniy-tarixiy diskursini saqlovchi va avlodlarga uzatuvchi eng muhim ijtimoiy-madaniy maskan sifatida tan olinadi. Globallashuv sharoitida milliy identiklikning uzluksizligini ta’minlash va madaniy genofondni asrab-avaylash milliy madaniyat siyosatining ustuvor strategik yo‘nalishlaridan sanaladi. Mintaqaviy zaxiradagi muzeylar, xususan, Chirchiq shahar tarixi muzeyi, mahalliy tarixiy makonning o‘ziga xos badiiy-memorial qatlamini saqlash va tizimli targ‘ib etish bo‘yicha strategik missiyani amalga oshiradi.San’at asarlari, xususan Tasviriy san’at namunalari, ekspozitsiyaning emotsional-estetik

idrokini tubdan kuchaytiradi. Ular muzeyni ob'ektlarning oddiy passiv omboridan faol kommunikatsiya platformasiga transformatsiya qilishda muhim vositadir.Tasviriy san’at asarlari yuqori vizual salohiyatga ega bo‘lib, tarixiy voqeliklarni estetik jihatdan tahlil qilishni amalga oshirishda beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan, Chirchiq shahar tarixi muzeyi fondlaridagi Tasviriy san’at kolleksiyalarining o‘ziga xos sifatlarini chuqur inobatga olgan holda, ularni zamonaviy muzeyshunoslik talablariga muvofiq ilmiy boshqarish, uzoq muddatli saqlanishini ta’minlash va zamonaviy namoyish etish bo‘yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqish o‘ta dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san’atning memorial funksiyasi bevosita tarixiy shaxslar va davrlarni portretlar va manzaralar orqali abadiylashtiradi.Bu funksiya Tasviriy san’atni shunchaki estetik ob’ekt emas, balki mintaqaning o‘tmishi haqida asosiy tarixiy hujjat sifatida qabul qilishni talab qiladi. Shuning uchun mualliflik atributsiyasi va davrlashtirishga oid keyingi talablar ilmiy ahamiyatdan tashqari, tarixiy ishonchlilik (validity) jihatidan ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy negizi Funksiya va Qiymatni taqqoslash usuliga asoslanadi, bunda Tasviriy san’at asarlari ularning badiiy (estetik), ijtimoiy (memorial) va ta’limiy ahamiyatlari bo‘yicha tizimli baholanadi.Ushbu sohadagi fundamental monografik tadqiqotlar xalqaro tashkilotlarning etika standartlari asosida ishonchli nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tasviriy san’at namunalari (rangtasvir, grafika) avvalo yuqori estetik qiymatga ega subyektlardir.Bu asarlar muzey sharoitida quyidagi ikkita asosiy funksiyani ijro etadi

Muayyan davr manzaralari va ijtimoiy muhitini aks ettiruvchi vizual guvohnoma sifatida xizmat qilish. Rangtasvir asarining kompozitsiyasi, rangshunosligi va uslubi orqali o‘z davrining badiiy dunyoqarashi va texnologik madaniyatini aks ettiradi. Bu asarlarning saqlanishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlar materiallarning murakkabligi (pigmentlar, moyli bo‘yoqlar, mato yoki qog‘oz asoslari) tufayli alohida e’tibor talab qiladi.Tasviriy san’at asarlarining ilmiy inventarizatsiyasi sifati va to‘liqligi muzeyning ilmiy obro‘si va kolleksiya haqidagi ma’lumotlarning ishonchliligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ularning ilmiy inventarizatsiyasi yuqori malakali san’atshunoslik ekspertizasi va asarning kelib chiqishini aniqlash hamda muallifini aniqlashni (*mualliflik atributsiyasi*) talab etadi. Bu talab qilingan yuqori malakali ekspertiza Chirchiq muzeyi kadrlar salohiyatini faqat arxiv yoki konservatsiya doirasida emas, balki aynan San’atshunoslik (Art History) sohasida mustahkamlashi shartligini ko‘rsatadi. Muzeyning oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorligi aynan mutaxassislar bilan ta’minlashga yo‘naltirilishi lozim, toki Tasviriy san’at kolleksiyasining ilmiy tahlili va atributsiyasi xalqaro standartlarga mos kelsin.

Muhokama va natijalar

Chirchiq shahar tarixi muzeyining oliy ta’lim muassasalari bilan hududiy yaqinligi muzeyga kuchli ta'lim missiyasini yuklaydi.Bu missiya Tasviriy san’at buyumlari orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy estetik tarbiyalash va ularda chuqur badiiy idrok ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.Tasviriy san’atning o‘zida mavjud bo‘lgan yuqori vizual va emotsional salohiyat ushbu ta’lim jarayonida asosiy baza sifatida xizmat qiladi. Muzey fondlarining ilmiy xujjatlashtirilishi, ayniqsa Tasviriy san’at kolleksiyasi uchun, mualliflik atributsiyasi va davrlashtirishni majburiy talab qiladi.

Hujjatlashtirish tizimi asarning nafaqat kimga tegishli ekanligini, balki uning yaratilgan sanasi, uslubi, texnikasi (moyli, akvarel, grafika turi) va tarixiy ahamiyatini chuqur tahlil etuvchi ma’lumotlarni qamrab olishi lozim. Bu yondashuv buyumning estetik qiymatini uning tarixiy

konteksti bilan mustahkam bog‘lash imkonini beradi. Tasviriy san’at asarlari, ayniqsa rangtasvir va grafika, maxsus materiallarga va atrof-muhit sharoitlariga o‘ta sezgirligi bilan ajralib turadi. Strategik jihatdan zaruriyat aralash fondlarni yagona saqlash tizimida boshqarish amaliyotidan voz kechishni taqozo etadi, chunki bu turli buyumlar uchun xavfni oshiradi.

Rangtasvir va qog‘oz asosli asarlar uchun bir xil harorat va nisbiy namlik rejimi ta’minlanishi zarur, ayniqsa grafika va suvli bo‘yoqlarga ega asarlar uchun yorug‘lik darajasining keskin cheklanishi juda muhim, chunki bu pigmentlarning o‘chishini oldini oladi.

Qog‘oz va mato asoslarni bio-buzilishdan, zamburug‘lar va hasharotlardan himoya qilish choralari doimiy nazorat qilinishi lozim.Tasviriy san’at asarlari konservatsiya talablari tufayli odatda statik va an’anaviy ko‘rgazma formatida qolishi shart. Shuning uchun, ekspozitsiyani ob'ektlarning oddiy omboridan faol kommunikatsiya platformasiga transformatsiya qilish uchun yangicha yondashuv talab qilinadi.Tasviriy san’at asarlarining yuqori vizual va emotsional salohiyatini to‘liq ochib berish uchun, muzey o‘zining estetik kommunikatsiya platformasini raqamli interpretatsiya usullari orqali rivojlantirishi kerak.

Bu usullar tasviriy san’at asarlari bilan bevosita jismoniy jihatni talab qilmagan holda, ularning badiiy qatlamini va estetik qiymatini yoshlarga yetkazish imkonini beradi. Muzey xodimlarining Tasviriy san’at saqlanishini ta’minlash hamda san’atshunoslik ekspertizasi bo‘yicha malakasini muntazam oshirib borish Chirchiq shahar tarixi muzeyining institutsional barqarorligi va obro‘si uchun ustuvor strategik vazifadir. Xalqaro muzeylar kengashining etika kodeksiga qat’iy rioya etish muzey faoliyatini institutsional jihatdan mustahkamlab, kolleksiyalarni to‘plashda qonuniylik va shaffoflik tamoyillarini ta’minlaydi.

Xulosa. Chirchiq shahar tarixi muzeyidagi Tasviriy san’at kolleksiyalarining qiymati (ahamiyati) nafaqat madaniy merosni uzoq muddatli saqlanishini ta’minlash bilan, balki yosh avlodga mahalliy badiiy an’analarni o‘rgatishning yuqori ta'lim salohiyati bilan belgilanadi.Muzeyning kelajakdagi samarali funksiyasi uning oliy ta’lim muassasalari bilan mustahkam institutsional hamkorligiga va zamonaviy muzeyshunoslik metodologiyasi talablarini kompleks implementatsiya qilishiga bevosita bog‘liqdir. Institutsional hamkorlik doirasida, muzey o‘zining ilmiy-estetik bazasini rivojlantirishi lozim. Bu hamkorlik san’atshunoslik, konservatsiya va estetik pedagogika yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlashga, shuningdek, Tasviriy san’atni chuqur o‘rganishga qaratilgan amaliy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi kerak. Tasviriy san’at buyumlarining estetik, memorial va ijtimoiy-madaniy qiymatlarini aniq aks ettiruvchi ko‘p qirrali hujjatlashtirish tizimini joriy etish, bu orqali buyumlar haqidagi ma’lumotlarning ishonchliligi va ilmiy qiymatini oshirish lozim.Ilmiy asoslangan va xatarlarni boshqarishga asoslangan konservatsiya loyihalarini moliyalashtirish strategik zaruriyatdir. Bunda e’tibor rangtasvir va grafika kabi nozik Tasviriy san’at buyumlarining uzoq muddatli saqlanishini ta’minlovchi ilmiy-texnik jihozlarga va maxsus saqlash sharoitlarini yaratishga qaratilishi lozim.Yangi kolleksiyalarni to‘plash jarayonida xalqaro muzeylar kengashining etika kodeksining shaffoflik va legalizm tamoyillariga mutlaq rioya etilishini ta’minlovchi ichki nazorat mexanizmlarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muhamedova M.S. (2021). Muzeyshunoslik sohasida milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyatining ahamiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.
2. Muhamedova M.S. Muzeyshunoslik nazariyasi va amaliyoti
3. Muzeylar assotsiatsiyasi rasmiy sayti.

4. IKOMning muzey etikasi kodeksi.
5. Baxriyev, I. (2023, December). BO ‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O ‘QITUVCHILARINI O ‘QITISHDA IJODIY RIVOJLANISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions” (Vol. 1, No. 01).
6. Saidazimovich, B. I., & Saidazimovich, B. I. (2021). COMPOSITION AND IMPROVEMENT OF METHODOLOGY OF DESCRIPTION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE FINE ART TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal , 9 (7), 60-62.

SHARQ SAN’ATIDA DOSTON VA MINIATYURA UYG‘UNLIGI: G‘OYAVIY VA BADIIY MUSHTARAKLIK

Shakarova Shalola
Jizzax davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421828

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sharq san’atining ikki asosiy ko‘rinishi — dostonchilik va miniatyura san’ati o‘rtasidagi g‘oyaviy va badiiy uyg‘unlik tahlil qilinadi. Muallif nafaqat tarixiy manbalarni, balki ushbu uyg‘unlikning zamonaviy talqinini ham yoritib, san’atlararo sintezning falsafiy mazmunini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Sharq san’ati, dostonchilik, miniatyura, badiiy uyg‘unlik, tasviriy ifoda, ruhiy uyg‘unlik, Hirot maktabi, G‘oyaviy mushtaraklik, san’atlararo sintez.*

Аннотация: *В статье анализируется идейно-художественная гармония двух основных форм восточного искусства — эпоса и миниатюры. Автор освещает не только исторические источники, но и современную интерпретацию этой гармонии, раскрывая философское содержание межхудожественного синтеза.*

Ключевые слова: *восточное искусство, эпос, миниатюра, художественная гармония, изобразителное выражение, духовная гармония, гератская школа, идейная общност, межхудожественный синтез.*

Abstract: *This article analyzes the ideological and artistic harmony between the two main forms of Eastern art - epic and miniature art. The author highlights not only historical sources, but also the modern interpretation of this harmony, revealing the philosophical content of inter-art synthesis.*

Keywords: *Eastern art, epic, miniature, artistic harmony, visual expression, spiritual harmony, Herat school, ideological commonality, inter-art synthesis.*

Sharq san’ati — inson tafakkuri, ma’naviy olami va estetik didining eng yuksak namunasidir. U asrlar davomida shakllanib, badiiy tafakkurning turli ko‘rinishlarini, xususan, adabiyot va tasviriy san’atning o‘zaro uyg‘unligini mujassam etgan. Ayniqsa, dostonchilik va miniatyura san’ati Sharq madaniy merosida beqiyos o‘rin tutadi. Ularning o‘zaro aloqasi faqat shakl jihatidan emas, balki mazmun, g‘oya va badiiy ifoda vositalari jihatidan ham bir-birini boyitgan.

Dostonlar — xalqning tarixiy xotirasi, orzusi, g‘oyasi va ruhiy dunyosining in’ikosi bo‘lsa, miniatyura san’ati shu dostonlarning mazmunini ko‘rinarli qilib, ularni go‘zallik va tasviriy ifoda orqali jonlantirib kelgan. Har bir miniatyura o‘zida nafaqat voqeani, balki doston qahramonlarining ruhiy kechinmalarini, ularning ichki dunyosini ifoda etgan. Shu bois, Sharq dostonchiligida so‘z bilan rang, ma’no bilan shakl, ruh bilan tasvir o‘zaro bir butunlikda namoyon bo‘ladi.

Fikrimcha, bu uyg‘unlik Sharq san’atining eng chuqur falsafiy mohiyatini tashkil etadi. Chunki Sharq san’ati uchun tashqi go‘zallikdan ko‘ra ichki ma’no, ruhiy uyg‘unlik va komillikka intilish muhim hisoblanadi. Miniatyura va doston ana shu komillikka eltuvchi ikki badiiy yo‘nalishdir. Ular orqali insonning nafaqat tashqi hayoti, balki ichki dunyosi, orzulari, muhabbati va iztiroblari ham ifodalanadi.

Sharq san’ati har doim inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ifodalashga qaratilgan. So‘z san’ati bilan tasviriy san’atning uyg‘unligi bu madaniyatda o‘ziga xos “ruhiy uyg‘unlik” konsepsiyasini shakllantirgan. Ayniqsa, Nizomiy, Jomiy, Navoiy, Firdavsiy kabi mutafakkirlar yaratgan dostonlar asosida ishlangan miniatyuralar Sharq badiiy tafakkurining eng yuksak cho‘qqilaridan biri sanaladi[100].

Sharq san’atidagi bu uyg‘unlik oddiy bezak emas, balki inson tafakkurining ikki qirrasi — so‘zdagi ruhiy teranlik va tasvirdagi ramziy ifoda birlashuvidir. Har bir doston o‘zining ma’naviy nuri bilan miniatyuraga jon bag‘ishlagan, har bir miniatyura esa so‘zdagi g‘oyani “rang bilan gapirgan”.

Doston Sharq xalqlari uchun tarixiy voqealar, insoniy orzu, muhabbat, sadoqat, adolat g‘oyalarining badiiy ko‘zgusidir. Dostonning kuchi so‘zda bo‘lsa, miniatyura bu so‘zning ruhini ko‘z bilan ko‘rsatadi. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning toqqa bolta urayotgan sahnasi nafaqat mehnatsevarlik, balki muhabbat yo‘lida inson iroda va kuchining timsolidir. Hirot maktabi miniatyuralarida bu sahna mayda, ammo chuqur ramziy detallar bilan ifodalanadi — har bir tosh parchasida inson g‘ayrati yashiringandek[101].

Shaxsiy mulohazamcha, Sharq rassomlari dostonlardagi voqeani chizishdan ko‘ra, ruhiy holatni chizgan. Miniatyura qahramonning ko‘z qarashida, libos rangida, hatto sahna orqa fonidagi daraxtlar harakatida ham ma’no yashiradi. Bu jihatdan u Sharq falsafasidagi ichki go‘zallik tushunchasiga to‘liq mos keladi.

G‘oyaviy mushtaraklik — tasvir va so‘z birligi. Har ikki san’at turida inson markazda turadi. Dostonlar va miniatyuralarda inson — nafaqat jism, balki ruh, iymon, vijdon va muhabbat timsolidir. Masalan, “Layli va Majnun” dostonida Majnunning cho‘l sahnasida tasvirlanishi — bu shunchaki manzara emas, balki ruhiy iztirob ramzi. Miniatyurada bu sahna ko‘k va oq ranglar uyg‘unligida tasvirlanadi — bu holat ruhiy musaffolikni, dunyoviy narsalardan voz kechishni anglatadi[102]. Sharq miniatyuralarining kuchi ham ana shunda — u so‘zning davomchisi emas, balki ma’nodosh hamrohi. Rassom dostonni o‘qib, keyin uni ichki tasavvurida qayta yaratgan. Shu sababli har bir miniatyura — rassomning o‘z ichki falsafasidir.

Miniatyura o‘z mohiyatiga ko‘ra ramzlar tilida so‘zlaydi. U real dunyoni emas, ruhiy dunyoni tasvirlaydi. Bu jihatdan u sufiyona tafakkurga yaqin. Masalan, miniatyuralarda soyalar deyarli bo‘lmaydi — bu “ilohiy nur”ni inkor etmaslik ramzidir. Dostonlarda ham ayni ramziy usul mavjud: tog‘ — sabr, daryo — hayot oqimi, gul — go‘zallik, qush — erkinlik. Miniatyura bu ramzlarni ko‘rinarli qiladi, ya’ni so‘zdagi timsolni rasmga aylantiradi[103]. Shuni alohida qayd etish kerakki, sharq miniatyurasida har bir rang ma’no tashuvchi unsurdir. Masalan, yashil — poklik, ko‘k — osmoniy ruh, qizil — muhabbat, sariq — ilohiy nur ramzi sifatida qo‘llanadi. Bunday ramziy tahlil Sharq san’atini g‘arb uslubidan tubdan farqlaydi.

Bugungi kunda doston va miniatyura uyg‘unligi san’atlararo sintez namunasi sifatida qayta talqin qilinmoqda. Zamonaviy rassomlar, jumladan, o‘zbek miniatyura maktabi vakillari — Sh. Turdiyev, M. Xolmirzayevlar asarlarida Navoiy va Jomiy dostonlarining zamonaviy talqinlari ko‘zga tashlanadi[104]. Bu holat Sharq san’atining o‘lmasligini ko‘rsatadi. Chunki unda so‘z bilan rang o‘rtasidagi muloqot doimo yangilanib boradi.

[100] Bertels, E.E. Nizomiy Ganjaviy va uning asarlari. Moskva, 1940.
[101] Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
[102] Karimov, B. Sharq miniatyura san’ati tarixi. Toshkent: Fan, 2005.
[103] Karamatov, H. Miniatyura va Sharq estetikasida rang falsafasi. Samarqand, 2010.
[104] Islomova, N. Zamonaviy san’atda miniatura an’analarining talqini. Buxoro, 2021.

Shaxsiy fikrimcha, bu uyg‘unlik bugungi kunda ham dolzarb. Chunki insoniyat hali ham ichki dunyosini ifoda etish uchun so‘z va tasvirning birligiga muhtoj. Doston va miniatyura esa bu birligining eng mukammal modeli bo‘lib qolmoqda.

Sharq san’atida doston va miniatura uyg‘unligi — bu nafaqat estetik hodisa, balki Sharq tafakkuri va badiiy dunyoqarashining o‘ziga xos ifodasidir. Doston so‘zi orqali ifoda etilgan g‘oya, voqelik, tuyg‘u va orzu miniatura san’ati orqali rang, chizgi va kompozitsiya vositasida jonlanadi. Bu uyg‘unlikda so‘z va rang o‘zaro mushtaraklikda ishlaydi: biri tafakkurni ifodalasa, ikkinchisi uni tasvirlaydi. Shu bois doston va miniatura bir-birini to‘ldiruvchi, badiiy yaxlitlikni ta’minlovchi ikki kuch sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq doston va miniatura san’atining uyg‘unligi — bu san’atlar sintezi, ruhiy uyg‘unlik, badiiy tafakkur birligi va insoniyat madaniy merosining beqiyos qismi hisoblanadi. Ushbu uyg‘unlikni o‘rganish bugungi yosh ijodkorlar uchun ham ibrat manbai, badiiy ilhom va milliy g‘urur timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bertels, E.E. Nizomiy Ganjaviy va uning asarlari. Moskva, 1940.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
3. Karimov, B. Sharq miniatyura san’ati tarixi. Toshkent: Fan, 2005.
4. Karamatov, H. Miniatyura va Sharq estetikasida rang falsafasi. Samarqand, 2010.
5. Islomova, N. Zamonaviy san’atda miniatura an’analarining talqini. Buxoro, 2021.

TASVIRIY VA AMALIY BEZAK SAN’ATIDA AN’ANA VA INNOVATSIYANING UYG‘UNLIGI

[1]Sherov Dilshod Reyimberganovich, [2]Quronboyeva Matluba Ergash qizi
[1]dotsent, UrDPI, [2]CHDPU magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421844

Annotatsiya. *Mazkur maqola tasviriy va amaliy bezak san’atida an’ana hamda innovatsiyaning o‘zaro uyg‘unligini ilmiy-nazariy asosda tahlil qiladi. O‘zbekiston san’ati tarixida shakllangan milliy qadriyatlar, xalq amaliy san’ati, miniatyura, ganchkorlik, to‘qimachilik, zargarlik va kulolchilik kabi yo‘nalishlar bilan zamonaviy dizayn, raqamli texnologiyalar va ijodiy eksperimentlarning o‘zaro ta’siri yoritilgan. Tadqiqotda san’atda innovatsiya tushunchasining mohiyati, uning estetik va ijtimoiy vazifalari, milliy meros bilan uzviy aloqasi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, zamonaviy rassomlar, dizaynerlar va amaliy san’at ustalarining ijodida milliy an’analar asosida yangi g‘oyalar qanday shakllanayotgani misollar orqali tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tasviriy san’at, amaliy bezak san’ati, innovatsiya, an’ana, milliy meros, texnologiya, sintez, ijodkorlik, estetika, raqamli dizayn.*

Аннотация*. В данной статье на научно-теоретической основе анализируется взаимосвязь традиций и инноваций в изобразительном и декоративно-прикладном искусстве. Освещается взаимодействие национальных ценностей, народного прикладного искусства, миниатюры, ганчкарства, ткачества, ювелирного и гончарного ремесла, сформировавшихся в истории искусства Узбекистана, с современным дизайном, цифровыми технологиями и творческими экспериментами. В исследовании раскрывается сущность понятия инновации в искусстве, её эстетические и социальные функции, а также органическая связь с национальным наследием. Кроме того, на примерах анализируется, как в творчестве современных художников, дизайнеров и мастеров прикладного искусства формируются новые идеи на основе национальных традиций.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, декоративно-прикладное искусство, инновация, традиция, национальное наследие, технология, синтез, творчество, эстетика, цифровой дизайн.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the relationship between traditions and innovations in the visual and decorative-applied arts. It highlights the interaction between national values, folk applied arts, miniature painting, ganch carving, weaving, jewelry and pottery crafts — all of which have been formed throughout the history of Uzbek art — and modern design, digital technologies, and creative experimentation. The study reveals the essence of the concept of innovation in art, its aesthetic and social functions, as well as its organic connection with national heritage. In addition, examples are analyzed to show how new ideas are formed in the works of contemporary artists, designers, and masters of applied arts on the basis of national traditions.*

Keywords: *visual arts, decorative-applied arts, innovation, tradition, national heritage, technology, synthesis, creativity, aesthetics, digital design.*

Kirish

San’at insoniyat tafakkurining eng yuksak ifodasi sifatida tarix davomida an’ana va yangiliklar asosida rivojlanib kelgan. An’analar – bu xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari, badiiy tajribasining mujassami bo‘lsa, innovatsiya – bu o‘zgarish, yangilanish, shakl va mazmun jihatidan o‘sish jarayonidir. Bugungi globallashuv va raqamli davrda bu ikki tushuncha bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi hodisalar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tasviriy va amaliy bezak san’ati sohalari buni ayniqsa yaqqol namoyon etadi. Chunki bu ikki yo‘nalishda an’anaviy ramzlar, naqshlar, ranglar tizimi bilan bir qatorda, zamonaviy dizayn texnologiyalari, yangi materiallar, kompyuter grafikasining imkoniyatlari ham faol qo‘llanilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston san’ati jadal modernizatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Ammo bu yangilanish o‘z ildizlaridan uzilgancha emas, balki milliy madaniyat, tarixiy meros va xalq amaliy san’ati tajribasiga tayangan holda amalga oshmoqda. Maqolada aynan shu uyg‘unlik — an’ana va innovatsiyaning sinteziga ilmiy va tahliliy yondashuv beriladi.

Tasviriy san’at insonning dunyoni badiiy idrok etish va tasvirlash qobiliyatiga asoslanadi. U qadimiy devoriy suratlardan tortib, zamonaviy raqamli illyustratsiyalargacha bo‘lgan uzluksiz jarayonni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston hududida bu san’at turi o‘zining uzoq tarixiga ega. **Topraq qal’a, Varaxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa** kabi arxeologik yodgorliklarda topilgan devoriy suratlar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi rassomlar kompozitsiya, rang uyg‘unligi, harakat va ifoda kuchini puxta bilganlar.

Masalan, Varaxsha saroyidagi devoriy rasmlarda yirtqich hayvonlarga qarshi kurashayotgan ovchilar, afsonaviy jonivorlar, o‘simlik naqshlari orqali kosmik tartib va hayot falsafasi aks ettirilgan. Bu tasvirlarda realistik va ramziy uslublar bir-biriga singib ketgan.

O‘rta asrlarda esa o‘zbek tasviriy san’atida **miniatura maktabi** yuksak cho‘qqiga chiqdi. **Kamoliddin Behzod** ijodi bunga yorqin misoldir. Uning “Layli va Majnun”, “Shoh va darvesh”, “Majlis sahnasi” asarlarida inson ruhiy holati, muhabbat, tafakkur, go‘zallik tushunchalari nihoyatda nafis ifodalangan. Behzod asarlarida an’anaviy islomiy naqshlar, yozuv bezaklari va rang uyg‘unligi bilan zamonaviy (o‘sha davr uchun) psixologik ifoda uyg‘unlashgan.

Shunday qilib, an’anaviy tasviriy san’at O‘zbekiston madaniyatida nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy rassomchilik uchun ilhom manbai sifatida ham saqlanib kelmoqda. Bugungi rassomlar qadimiy kompozitsion tamoyillar, naqsh ritmlari va rang turlari orqali o‘z ijodini yangicha talqin etmoqda.

Masalan, **Bobur Ismoilov, Azizbek Boltayev, Alisher Mirza** kabi rassomlar asarlarida Behzod maktabining dekorativ ritmik tamoyillari, islimiy naqshlar, xalq estetikasiga xos ramzlar zamonaviy shaklda qayta ishlanmoqda. Bu — an’anaviy estetikaning innovatsion ifodasi.

Amaliy bezak san’ati xalq hayotining badiiy aksidir. Kulolchilik, zargarlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, to‘qimachilik va ganchkorlik kabi turlar asrlar davomida shakllanib, har bir mintaqada o‘ziga xos uslub yaratgan.

Masalan, **Rishton kulollik maktabi** o‘zining tabiiy glazurlari, “firuza”, “ko‘k”, “yashil” ranglarning ohangdoshligi bilan mashhur. Bu buyumlarda naqshlar faqat bezak emas, balki falsafiy ma’no ham ifodalaydi. **Islimiy** naqsh — hayot abadiyligini, **girih** — inson va olam birligini ramziy tarzda bildiradi.

Marg‘ilon atlaslari, Buxoro zargarlik buyumlari, Xorazm ganch o‘ymakorligi — har biri o‘zining hududiy maktabi, estetik talabi va texnik nozikligi bilan ajralib turadi. Bu san’at turlarining ildizi xalq turmush tarzida, e’tiqodida va tabiat bilan uyg‘un hayot falsafasida yotadi.

O‘tgan asrda bu an’analar ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechirdi: sovet davrida ishlab chiqarish mexanizatsiyalashgani sababli ko‘plab hunarmandchilik turlari inqirozga yuz tutgan bo‘lsa-da, mustaqillikdan keyin ularning qayta tiklanishi davlat darajasida qo‘llab-quvvatlandi.

Bugungi kunda o‘zbek amaliy san’ati **YUNESKO nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga** kirgan (masalan, Rishton kulolchilik san’ati, Marg‘ilon atlas to‘qimachiligi, Buxoro zargarlik maktabi). Shu bilan birga, ularning zamonaviy talqinlari — dizayn, moda, interyer, suvenir va brend mahsulotlarida keng qo‘llanilmoqda.

Bu jarayonda an’ana va innovatsiya uyg‘unligi ayniqsa seziladi: hunarmandlar kompyuterda naqsh chizadi, lazerli o‘ymakorlik uskunalaridan foydalanadi, 3D printer orqali sopol naqshlarni modellashtiradi, lekin naqshning o‘z mazmuni o‘zgarmaydi — u milliylikni ifodalaydi.

Zamonaviy san’at — bu texnologiyalar bilan ijodning sintezi. Innovatsiya endi faqat texnik yangilik emas, balki tafakkur, ifoda va estetik konsepsiyaning yangilanishidir.

Bugungi kunda o‘zbek san’ati **raqamli grafika, videoart, NFT-art, installyatsiya, performans** kabi yangi shakllarni o‘zlashtirmoqda. Rassomlar raqamli vositalardan foydalanib, milliy naqshlarni yangi kontekstda talqin etmoqda.

Shuningdek, **O‘zbekiston Badiiy akademiyasi** huzuridagi san’at institutlari va dizayn maktablarida “Raqamli tasviriy san’at”, “Grafik dizayn va madaniy meros” kabi yangi fanlar joriy etilgan. Bu esa an’anaviy estetikani raqamli asr talablari bilan birlashtirishning amaliy natijasidir.

Innovatsiya san’atni xalqaro maydonga olib chiqadi. Masalan, **2023-yil Venetsiya Biennalesi**da o‘zbek rassomlari “Milliy meros va kelajak vizualizatsiyasi” nomli installyatsiya bilan ishtirok etishdi. Bu loyiha orqali qadimiy naqshlar interaktiv 3D proyeksiya shaklida taqdim etildi — ya’ni an’ana innovatsiyaga aylandi.

Bugungi o‘zbek san’ati o‘zini yangi davrga tayyorlamoqda. Endi rassom, dizayner va hunarmand uchun asosiy maqsad — milliylikni zamonaviy global vizual tilda ifoda etishdir. Bu esa **noan’anaviylik, etno-modernizm, milliy minimalizm, postfolklor estetika** kabi yangi yo‘nalishlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Masalan, **Xiva** naqshlaridan ilhomlangan interyer dizaynerlari ularni soddalashtirilgan geometrik formalar orqali zamonaviy ofis va mehmonxonalarda qo‘llamoqda. **Farg‘ona atlas naqshlari** esa grafika va raqamli dizaynning mavzusiga aylanmoqda.

Amaliy san’at sohasida esa an’ana va innovatsiya uyg‘unligi brendlash orqali amalga oshmoqda: milliy naqshlar asosida yaratilgan kiyimlar, sumkalar, texnik aksessuarlar, hatto mobil ilovalar interfeysi dizaynlari paydo bo‘ldi.

Masalan, **“Bibi Hanum”** va **“Artel Design”** kompaniyalari milliy naqshlarni zamonaviy dizayn estetikasida jahon bozoriga olib chiqmoqda. Bu – madaniyatning iqtisodiy innovatsiyaga aylangan shaklidir.

Shuningdek, **3D texnologiyalar** yordamida milliy naqshlardan ilhomlangan haykallar, **AR/VR muzeylar**da qadimiy devoriy suratlarning raqamli rekonstruksiyasi yaratilmoqda.

Shunday qilib, an’ana va innovatsiyaning uyg‘unligi o‘zbek san’atini yangi bosqichga olib chiqmoqda — bu bosqichda milliy ruh, texnologik yangilik va global estetik did bir butunlikda ishlaydi.

Xulosa qilib aytganimizda tasviriy va amaliy bezak san’atidagi an’ana va innovatsiya uyg‘unligi — bu nafaqat badiiy jarayon, balki madaniy strategiya, milliy o‘zlikni asrash va zamon bilan hamnafaslikning yo‘lidir.

An’analar xalq xotirasi, madaniyat va estetik qadriyatlar majmui bo‘lsa, innovatsiya ularni yangi ifoda vositalari bilan boyitadi. O‘zbekiston san’ati bugun bu uyg‘unlikni nafaqat ichki taraqqiyotda, balki xalqaro sahnada ham muvaffaqiyatli namoyon etmoqda.

Milliy san’atning kelajagi ham aynan shu sintezda — o‘z ildizlarini saqlagan holda, zamon bilan birga rivojlanishda ko‘rinadi. Shu sababli, tasviriy va amaliy san’at sohasida an’ana va innovatsiyani uyg‘unlashtirish — milliy madaniyatni global maydonda barqaror saqlab qolishning eng samarali yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolstov S.P. *Drevniy Khorezm.* Moskva, 1948.
2. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V. *Iskusstvo Sredney Azii.* Moskva, 1985.
3. Qodirov A. *O‘zbek tasviriy san’ati tarixi.* Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
4. Yuldashev R. *Milliy san’at va zamonaviylik uyg‘unligi.* Toshkent, 2019.
5. *O‘zbekiston amaliy san’ati* (to‘plam). Toshkent: Kamalak, 2021.
6. Ismoilov B. “Milliy san’at va innovatsion talqinlar.” *San’at* jurnali, 2022, №4.
7. Sobirova M. *Raqamli texnologiyalar va zamonaviy dizayn pedagogikasi.* Toshkent: TDPU, 2023.
8. Kamoladdin Behzod nomidagi Davlat rassomlik va dizayn instituti ilmiy maqolalar to‘plami, 2024.

IMPRESSIONIZM ESTETIKASINING TASVIRIY VA MUSIQIY SAN’ATDAGI INTEGRATSIYASI: YANGI IFODA VA TA’SIRCHANLIK BOSQICHI

[1]Sultanov Xaytboy Eraliyevich, [2]Giyasova Nilufar Barotbayevna
[1]ChDPU, San’atshunoslik fakulteti professori, [2]Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti San’atshunoslik fakulteti,Tasviriy san’at yunalishi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421852

Annotatsiya. *Ushbu maqolada impressionizm estetikasining tasviriy va musiqa san’atidagi integratsiyasi tahlil etiladi. Impressionizm ikki turdagi san’at orqali taassurot, his-tuyg‘u va nozik ruhiy holatlarni ifodalashning yangi bosqichini namoyon etadi. Maqolada Klod Mone va Debyussi kabi ijodkorlar asarlari misolida impressionizmning o‘zaro ta’siri va san’at turlari o‘rtasidagi umumiy xususiyatlar o‘rganiladi. Muallif mazkur integratsiyani san’at ta’limidagi yangi pedagogik imkoniyat sifatida baholab, estetik tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritib beradi.*

Kalit so‘zlar: *impressionizm, integratsiya, tasviriy san’at, musiqa, estetika, ta’lim, his-tuyg‘u, tahlil*

Аннотация*. В данной статье рассматривается интеграция эстетики импрессионизма в изобразительном и музыкальном искусстве. Импрессионизм представлен как новый этап выражения чувств, психологических состояний и впечатлений средствами двух видов искусства. На примере творчества Клода Моне и Клода Дебюсси проводится сравнительный анализ, выявляются общие черты и взаимовлияние. Автор рассматривает такую интеграцию как эффективный педагогический инструмент в современном художественном образовании.*

Ключевые слова: *импрессионизм, интеграция, изобразительное искусство, музыка, эстетика, образование, впечатление, анализ*

Abstract. *This article explores the integration of Impressionist aesthetics in visual and musical arts. Impressionism is presented as a new phase in expressing emotions, psychological depth, and impressions through both art forms. The paper analyzes the works of Claude Monet and Claude Debussy, highlighting the similarities and mutual influences between painting and music. The author evaluates this integration as a promising pedagogical approach in art education, emphasizing its role in developing aesthetic thinking.*

Keywords: *impressionism, integration, visual art, music, aesthetics, education, emotion, analysis*

Kirish: O‘zbekiston davlat rahbari tomonidan qabul qilingan avgust O‘RQ-336-sonda ta’lim jarayonida milliy va jahon san’ati yutuqlaridan keng foydalanish, yoshlarning **2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi**da ham madaniyat va san’atni ta’lim jarayoniga integratsiyalash, fanlararo yondashuvni joriy etish, yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, Strategiyaning 4-ustuvor yo‘nalishi bo‘lmish “Ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirish”da estetik tarbiya va badiiy tafakkurni shakllantirish uchun zamonaviy yondashuvlardan foydalanish zarurligi ta’kidlangan. Mazkur qonun va strategik hujjatlar asosida ta’lim jarayoniga san’at turlarini uyg‘unlashtirish,

xususan, tasviriy san’at va musiqa o‘rtasida integratsiyani shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Shu nuqtai nazardan, impressionizm estetikasining ikki san’at turidagi o‘zaro ta’sirini o‘rganish nafaqat san’atshunoslik nazariyasi uchun, balki zamonaviy pedagogika va ta’lim jarayonlari uchun ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.[105]

Impressionizm — XIX asrning ikkinchi yarmida Fransiyada paydo bo‘lib, keyinchalik butun Yevropa san’atiga ta’sir ko‘rsatgan estetik oqimdir. Bu yo‘nalish tasviriy san’atda realizmdan voz



Klod Mone "Impression: Sunrise" -"Taassurot. Quyosh chiqishi" 1-rasm

kechish, nur va rang o‘yinlari orqali his-tuyg‘ularni ifodalashga intilish bilan tavsiflanadi.Impressionizm 1860-yillarda Fransiyada paydo bo‘lib, 1874-yilda Klod Monening “Impression: Sunrise” (“Taassurot. Quyosh chiqishi”) asari asosida nom olgan. Unga Renuar, Mane, Dega, Pissarro, Sezann, Sisley, Sera va boshqalar mansubdir. Sezann, Gogen va Van Gog esa ko‘proq postimpressionizm vakillari sifatida tilga olinadi. Avvalgi davr realizm an’analaridan farqli o‘laroq, impressionist rassomlar o‘z asarlarida hayotning bevosita lahzalarini, yorug‘lik va harakatni ilib olishga intildilar(1-rasm). Debyussining asarlarida dengiz to‘lqinlari, qushlarning chug‘urlashi, shamolning shitirlashi kabi tabiat hodisalari musiqiy tovushlarga aylantirilgan. Bu uslub o‘zining yangiligi bilan XX asr musiqasiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Shuningdek, musiqa san’atida impressionizm kompozitorlarning an’anaviy shakl va ritmdan voz kechib, tashqi ta’sirlar va ichki his-tuyg‘ularni ifodalovchi maxsus uslublarni yaratishida namoyon bo‘ldi. Impressionizm nafaqat san’at tarixida, balki fanlararo tahlil va ta’limda ham muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Yevropa san’atida yuzaga kelgan bu oqim tasviriy san’at va musiqaning ifoda vositalarini yangilab, ularni o‘zaro uyg‘unlashtirib integratsiyalash imkonini berdi. Ushbu maqolada impressionistlarning tasviriy uslubi va musiqiy kompozitsiyalar orqali tasavvurni qanday o‘ziga xos tarzda ifodalagani tahlil qilinadi va bu jarayon fanlararo integratsiya nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Impressionizm atamasi ilk bor 1874 yilda Klod Monening "Impression, soleil levant" asariga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, bu oqim realistik an’analardan voz kechib, subyektiv taassurot va jarayonni tasvirlashga intiladi. Bu san’atkorlar tashqi muhit kayfiyati, yorug‘lik va ranglar o‘yini orqali ichki his-tuyg‘ularni yetkazishga harakat qildilar. Tasviriy san’atdagi

[105] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son Кучга кириш санаси 29.01.2022

impressionizm rassomlarning tashqi tabiat manzaralarini his-tuyg‘ular orqali yetkazishga urinishini ko‘rsatadi. Masalan, Klod Mone, Edgar Dega, Per-Ogyust Renuar kabi rassomlar bu uslubning asoschilari bo‘lib, ularning asarlarida yorug‘lik, ranglar va harakat asosiy o‘rinni egallaydi. Impressionist rassomlar (Klod Mone, Edgar Dega, Per Ogyust Renuar, Kamil Pissarro va boshqalar) realistik tasvirdan voz kechib, ranglar va yorug‘lik orqali hayot jarayonini ifoda etdilar. Ular nafaqat predmetni, balki uning atrofidagi muhit bilan o‘zaro ta’sirini ham namoyon etardilar. Shu tariqa, harakat va vaqt tuyg‘usi tasvirdagi asosiy unsurga aylandi. Shu bilan birga, musiqiy impressionizmda Klod Debyussi, Moris Ravel kabi kompozitorlar o‘z asarlarida orkestrlash, dinamika va garmoniya orqali ichki his-tuyg‘ularni ifodalashga harakat qilganlar. Har ikki sohada ham tomoshabinga haqqoniylikni emas, balki taassurotni yetkazish asosiy maqsad bo‘lgan. Musiqa sohasida impressionizmning asosiy vakili deb Klod Debyussini aytish mumkin. Uning "Clair de Lune", "La Mer" kabi asarlarida tasviriy san’atdagi kabi yorug‘lik va kayfiyat ufqini musiqiy tonallik orqali ifodalashga urinish kuzatiladi. Garmoniya, ritm va tonallikdagi noaniqlik orqali kompozitorlar go‘yo "yozilgan rangtasvir" taassurotini beradilar. Impressionist san’atda tasvir (vizual) va ovoz (audio) ifodalarining uyg‘unligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, Mone asarlaridagi surunkali tuman, suvda aks etuvchi nurlar va o‘zgaruvchan tabiat tasviri Debyussi musiqasidagi ob-havo o‘zgarishi, asta-sekinlik va dinamika bilan hamohang bo‘ladi. Bu ikki turdagi san’at o‘zaro uyg‘unlashgan holda ichki hissiy taassurotlarni kuchaytiradi. Tasviriy san’at va musiqa ta’limida impressionizm uslubini birlashtirish talabalarda assotsiativ tafakkurni rivojlantirish, ko‘p qirrali yondashuv orqali tasavvurni boyitish va ijodiy ifoda qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Misol uchun, impressionist asarlarni musiqa bilan birgalikda tahlil qilish orqali talabalarda ko‘p tomonlama talqin qilish qobiliyati shakllanadi. Bu esa ta’limning integratsion yechimlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Impressionizm san’atdagi tasvir va musiqaning fanlararo integratsiyaga asoslangan yangi bosqichidir. Bu oqim ta’lim jarayonida ham ko‘rish va eshitish vositalari orqali murakkab ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini yaratadi. Uni zamonaviy badiiy ta’limda fanlararo yondashuv sifatida qo‘llash talabalarda ijodiy va hissiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Debussy, C. (1905). *Clair de Lune*. Paris: Durand.
2. Monet, C. (1872). *Impression, soleil levant*. Musée Marmottan Monet.
3. Gendron, B. (2002). *Between Montmartre and the Mudd Club: Popular Music and the Avant-Garde*. University of Chicago Press.
4. Taruskin, R. (2010). *Music in the Early Twentieth Century*. Oxford University Press.
5. Sultanov, X.E. (2022). Tasviriy san’at ta’limida fanlararo yondashuvlar. Toshkent: "San’at" nashriyoti.
6. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

JAXON TASVIRIY SAN'ATIDA KOMPOZITSIYANING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Tursunov Mannon O'tkir o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at yo'nalishi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421867

Annotatsiya*. Jaxon tasviriy san'atida kompozitsiyaning tarixiy rivojlanishi va uning evolyutsiyasi san'atning estetik, madaniy va ijtimoiy kontekslar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu maqola qadimgi davrdagi ibtidoiy tasvirlardan tortib, zamonaviy san'atgacha kompozitsiya tamoyillarining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi.*
Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, kompozitsiya, ijodkorlik, texnologiya, fikr, mustaqillik.*
Аннотация. *Историческое развитие композиции в изобразительном искусстве свидетельствует о её неразрывной связи с эстетическими, культурными и социальными контекстами. Данная статья анализирует этапы эволюции композиционных принципов, начиная с примитивных изображений древности и заканчивая современным искусством.*
Ключевые слова: *Изобразительное искусство, композиция, творчество, технология, идея, независимость.*
Anatatsion. *The historical development of composition in visual arts demonstrates its intrinsic connection to aesthetic, cultural, and social contexts. This article analyzes the stages of evolution of compositional principles, from primitive depictions of antiquity to contemporary art.*
Keywords: *Visual arts, composition, creativity, technology, idea, independence.*

"Yangi O'zbekiston"ni barpo etish - yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir.[106]

Tasviriy san'at insoniyatning estetik dunyoqarashi, madaniy merosi va ijtimoiy o'zgarishlarining muhim ko'zgusi sifatida rivojlanib kelmoqda. Tasviriy san'at, xususan, kompozitsiya fanining tarixiy rivojlanish bosqichlarini keng qamrovda o'rganish va tahlil qilish orqali talabalarga samarali ta'lim berishga qaratilgan zamonaviy metodikalar ishlab chiqish hamda ilg'or texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar ushbu maqsadni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Yurtimizda bir qator tasviriy san'atni rivojlantirishga qaratilgan muhim qonunlar va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va madaniy merosni asrash bo'yicha farmonlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qaror ijrosi bo'yicha "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishonini ta'sis etildi.[107] 2020-yil 21-apreldagi " Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4688-sonli prezident qarori[108]. Shu bilan birga,

[106] M.J. Maxmudov. Kompozitsiya . O'quv qo'llanma. T.: Yangi chirchiq book, 2023. – 136 b.
[107] https://lex.uz/docs/-4250386#-4253018
[108] https://lex.uz/docs/-4795687

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-son qarori[109], ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, ayniqsa, tasviriy san’at bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish, talabalarda badiiy-estetik did, ijodiy tafakkur, kuzatuvchanlik va mustaqillikni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu islohatlar tasviriy san’at jumladan, kompozitsiya qonuniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘zlashtirish orqali O‘zbekistonning boy madaniy merosini umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga mustahkam zamin yaratmoqda. Mazkur maqola jaxon tasviriy san’atida kompozitsiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tizimli tahlil qilish orqali uning ta’lim tizimidagi o‘rnini belgilamoqda.

Kompozitsiya – san’at asarining tuzilishi va ma’nosini shakllantiruvchi asosiy element sifatida muhim o‘rin tutadi. Kompozitsiya, lotincha «compositio» so‘zidan kelib chiqib, tuzish, to‘qish, joylashtirish alohida qismlarni yaxlit bir butunga birlashtirishni anglatadi. Muvozanat, ritm va markazlashuv kompozitsiyaning asosiy ifodalaydi. Qadimgi ibtidoiy tasvirlardan zamonaviy san’atning innovatsion yondashuvlarigacha bo‘lgan kompozitsiya tamoyillari san’atning estetik, madaniy va ijtimoiy muhit bilan mantiqiy izchilligini ko‘rsatadi. U san’atning turli sohalari, jumladan, tasviriy san’at, musiqa, teatr, adabiyot, va haykaltaroshlikda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, har bir sohada o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Kompozitsiya tushunchasining rivojlanishiga nazar tashlansa, uning bosqichma-bosqich taraqqiyoti ko‘zga tashlanadi. Tasviriy san’atda kompozitsiyaning qonun va qoidalari insoniyatning ibtidoiy taraqqiyot bosqichlaridan boshlab asta-sekin shakllangan. Biroq, paleolit va neolit davrlariga mansub ibtidoiy san’atda kompozitsiya sezgisi hali yetarlicha rivojlanmagan holatda bo‘lgan, chunki o‘sha paytdagi insonlar atrof-muhitni faqat instinktiv kuzatish bilan cheklangan. Buni, masalan, g‘or devorlaridagi (Altamira yoki Laskoda) tasvirlarda ko‘rish mumkin, bu yerda inson figuralari va hayvon suratlari odatda tartibsiz, izolyatsiya qilingan holda joylashtirilgan bo‘lib, yaxlit kompozitsion tuzilishga ega emas.

Qadimgi Sharq san’atidagi kompozitsiya tamoyillari ibtidoiy davrdan keskin farq qiladi. Bu davrda (Misr, Mesopotamiya va Xitoy madaniyatlarida) kompozitsiya mavzusi yassi sirtlarda qat’iy simmetriya va ierarxik tartibga asoslangan holda tasvirlangan bo‘lib, quldorlik jamiyati tuzumiga xos marosim va ijtimoiy normalarga bo‘ysungan. Misr san’atida kompozitsiya qat’iy kanon va ramziy qonuniyatlarga bo‘ysungan. Fir’avinlar haykallari, devoriy rasmlarda asosiy obraz markaziy o‘q bo‘ylab joylashtirilgan, muhim shaxslar kattaroq, oddiy kishilar esa kichikroq tasvirlangan. Yunon san’ati esa muvozanat, proporsiya va go‘zallik idellariga asoslanib, kompozitsiyaning klassik asoslarini yaratdi. Rim san’atida esa monumental me’morchilik va mozaikalarda fazoviy yichimlar keng qo‘llanilgan.

Uyg‘onish davrida kelib kompozitsiyaga ilmiy asosda yondashuvlar shakillandi. Leonardo da Vinchi o‘z asarlarida kompozitsiyani psixologik dramatizm, perspektiva, anatomiya va yorug‘-soya qonuniyatlari bilan uyg‘unlashtirdi. Rafaelning asarlarida ham kompozitsion uyg‘unlik, muvozanat va markaziylik tamoyillari ilgari surilgan. Bu davrda kompozitsiya fanining nazariy asoslari shakillandi va barakko, klassitsizm hamda romantizm davirlari uchun metodologik poydevor yaratildi. Uyg‘onish davrida ishlab chiqilgan kompozitsion qonuniyatlar hozirgi kungacha san’atshunoslik va tasviriy san’at ta’limida asosiy nazariy manbalardan biri bo‘lib kelmoqda.

[109] https://lex.uz/ru/docs/-3153714

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida impressionizm, ekspressionizm, kubizm, futurizm kabi oqimlar an’anaviy kompozitsiya tamoyillarini yangicha talqin qildi. Pablo Pikasso kubizm orqali predmetni turli rakurslardan bir vaqtning o‘zida tasvirlashga erishdi. Anri Matisse ranglarning dekorativ kuchidan foydalangan holda kompozitsiyada emotsional ta’sirni kuchaytirdi. Vassiliy Kandinskiy esa abstrak san’atda kompozitsiyani rang va shakillar uyg‘unligi asosida qurdi.

Markaziy Osiyo hududida shakillangan miniature san’ati, xususan Kamoliddin Behzod ijodida kompozitsiya ramziy, ko‘pfigural kompozitsiyalar bilan ajralib turadi. Miniaturalarda fazoviylik shartli tarzda ifodalangan bo‘lsa-da, dekorativlik va obrazlarning o‘zaro uyg‘un joylashuvi yuksak badiiy did bilan hal etilgan. Kamoliddin Behzodning “Layli va Majnun” asaridagi sahnalar kompozitsiyaning nafaqat dekorativ, balki dramatik mazmunni ifodalashdagi kuchini ko‘rsatadi. O‘zbek xalq san’atida kompozitsiya asosan amaliy san’at, naqsh, gilam, yog‘och o‘ymakorligi, miniatyura va devoriy rasmlarda kompozitsiya o‘ziga xos milliy an’analar asosida rivojlangan. XX asrda Chingiz Ahmarov, Raxim Ahmedov, O‘ral tansiqboyev kabi rassomlar o‘z asarlarida milliy obrazlar va zamonaviy kompozitsiya yechimlarini uyg‘unlashtirdilar. Bu ijodiy tajribalar bugungi tasviriy san’at ta’limida ham o‘z aksini topmoqda.

Hozirgi davrda kompozitsiya san’atda faqat vizual struktura emas, balki kommunikativ va falsafiy vosita sifatida ko‘riladi. Digital san’at, multimedia, interaktiv installyatsiyalar va yangi media texnologiyalari fazoviylik, vaqt va auditoriya bilan o‘zaro aloqani o‘z ichiga oluvchi keng qamrovli kompozitsion shakllarni yaratdi. Bunda klassik tamoyillar muvozanat, markazlashtirish, ritm saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularni talqin qilish shakli zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirilgan. San’at asarining kompozitsiyasi bugun ko‘proq g‘oya va ijtimoiy pozitsiyani aks ettirish vositasi sifatida qaralmoqda.

Jaxon tasviriy san’atida kompozitsiyaning tarixiy rivojlanishi uning estetik, madaniy va ijtimoiy muhit bilan uzviy munosabatda rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ibtidoiy davrdagi tartibsiz tasvirlardan tortib, Qadimgi Sharqning ierarxik tuzilmalari, Uyg‘onish davrining ilmiy asoslangan yondashuvlari va zamonaviy san’atning innovatsion texnologik yechimlarigacha bo‘lgan kompozitsiya tamoyillari san’atning turli bosqichlarida o‘ziga xos shakllarni egalladi. O‘zbekiston san’atida, xususan, Kamoliddin Behzodning miniatyuralari va XX asr rassomlarining ijodida milliy an’analar zamonaviy kompozitsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashdi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, tasviriy san’at ta’limida kompozitsiya qonuniyatlarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish orqali talabalarda ijodiy tafakkur va badiiy-estetik didni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu islohatlar O‘zbekistonning boy madaniy merosini umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib, tasviriy san’atning rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi. Mazkur maqola kompozitsiyaning tarixiy evolyutsiyasini tizimli tahlil qilish orqali uning ta’limdagi ahamiyatini va zamonaviy san’atdagi yangi imkoniyatlarini yoritadi, shu bilan birga yurtimizda san’at ta’limini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohatlarning muhimligini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. X.E. Sultanov X.E. Tasviriy san’at kompozitsiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Yangi chirchiq book. 2023. – 124 b.
2. M.J.Maxmudov. Kompozitsiya. O‘quv qo‘llanma. T.: Yangi chirchiq book, 2023. – 136 b.
3. U. Rajabov Sh. Z.Tursunov. Tasviriy san’at darslarida grafik materiallarda ishlash texnologiyalari. “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi fanlarini boshqa fanlar bilan

integratsiyalashning muammolari va yechimlari” mavzusida Xalqaro miqyosida ilmiy-texnik anjumanining Ma’ruzalar to‘plami, Andijon–2020 y, 287.

4. U.Nasritdinova, X.Sultonov, X.Muratov, R. Ankabaev, U.Ismatov, & A.Abdumajitov. (2024). Application of geoinformation systems in the agricultural complex. In BIO Web of Conferences (Vol. 105, p. 03005). EDP Sciences.
5. U.Sh.Ismatov, M.O‘.Tursunov. Rassom hayoti va ijodi. O‘zbekiston tasviriy san’ati rivojida Ro‘zi Choriyev ijodining o‘rni va ahamiyati Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Termiz-2021.
6. X.X.Muratov (2021). Elektron ta’lim resurslari va multimediali elektron o‘qitish vositalari orqali ta’lim muhitining rivojlanishi. Academic research in educational sciences, 2(1), 1130-1136.
7. X.X.Muratov (2020). Qalamtasvir. O‘quv qo‘llanma. Toshkent Ijod-print.

FESHN INDUSTRIYASIDA BARQAROR RIVOJLANISH: EKOTEKSTIL VA QAYTA ISHLASH TENDENSIYALARI

Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna
CHDPU. Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421881

Annotatsiya. *Ushbu maqolada feshn industriyasida barqaror rivojlanish konsepsiyasining ahamiyati va uning asosiy yo‘nalishlari — ekotekstil hamda qayta ishlash tendensiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada feshn sohasining ekologik muammolari, innovatsion yechimlar, xalqaro tajribalar va milliy moda industriyasi uchun istiqbolli yo‘nalishlar ko‘rib chiqilgan.*

Kirish

Feshn industriyasi insoniyat hayotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Biroq, zamonaviy tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, moda sanoati jahon iqtisodiyotida neft-gaz va avtomobil ishlab chiqarishdan keyingi eng yirik ifloslantiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Xalqaro hisobotlarga ko‘ra, to‘qimachilik sohasi dunyodagi umumiy chiqindilarning 10 foizga yaqinini tashkil qiladi, suv ifloslanishining katta qismi esa aynan bu sohaning hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shu bois, barqaror rivojlanish konsepsiyasini moda industriyasiga joriy qilish dolzarb vazifa sifatida ko‘tarilmoqda. Barqaror moda — bu ekologik toza, ijtimoiy mas’uliyatli va iqtisodiy jihatdan maqbul yechimlarni o‘z ichiga oladigan tizimli yondashuvdir. Maqolaning maqsadi — ekotekstil va qayta ishlash tendensiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning milliy hamda global miqyosdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Asosiy qism

1. Barqaror rivojlanish va ekotekstil tushunchasi

Barqaror rivojlanish atamasi BMTning 1987 yildagi “Biz umumiy kelajagimiz” hisobotida ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u tabiiy resurslarni tejash, ekologik muvozanatni ta’minlash va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilish tamoyillariga asoslanadi. Feshn industriyasida bu konsepsiya asosan ekotekstil tushunchasi orqali amalga oshiriladi.

Ekotekstil — bu ekologik toza yoki qayta ishlangan xomashyodan tayyorlangan matolardir. Bunday materiallar qatoriga organik paxta, bambuk tolasi, qayta ishlangan poliester, konoplya va tabiiy bo‘yoqlar kiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekotekstildan tayyorlangan mahsulotlar inson salomatligi uchun xavfsiz va ekologik jihatdan barqaror hisoblanadi.

2. Qayta ishlash texnologiyalari va innovatsion yechimlar

Moda industriyasida qayta ishlash texnologiyalari chiqindilarni kamaytirishda eng samarali yo‘llardan biri hisoblanadi. Masalan:

plastik chiqindilardan qayta ishlangan poliester tolasi tayyorlanib, libos matosida qo‘llanilmoqda;

to‘qimachilik sanoatidagi qoldiq parchalardan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalari qo‘llanilmoqda;

upcycling (qayta dizayn qilish) usuli orqali eski kiyimlardan yangi va eksklyuziv kolleksiyalar yaratilmoqda.

Innovatsion yechimlardan biri — biorazlagadigan matolar ishlab chiqish bo‘lib, ular tabiatda qisqa muddatda yo‘qolib ketadi. Bunday texnologiyalar moda industriyasining ekologik izini sezilarli darajada kamaytiradi.

Xalqaro tajriba va tendensiyalar

Jahon feshn bozorida barqaror rivojlanish konsepsiyasi allaqachon ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Masalan:

H&M Conscious Collection organik paxta va qayta ishlangan materiallardan foydalanib, barqaror mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.

Patagonia kompaniyasi o‘z mahsulotlarida qayta ishlangan poliesterdan keng foydalanadi va kiyimlarni ta’mirlab, qayta sotish orqali chiqindilarni kamaytiradi.

Stella McCartney brendi hayvon teri va junlaridan voz kechib, faqatgina ekologik toza va biorazlagadigan materiallar bilan ishlaydi.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyada davlat siyosati darajasida qayta ishlash dasturlari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu tajribalar milliy moda industriyasi uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

4. Barqaror moda tendensiyalarining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati

Barqaror feshn nafaqat ekologiya, balki ijtimoiy masalalar bilan ham uzviy bog‘liq. Inson huquqlariga rioya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash barqaror moda siyosatining asosiy tamoyillaridir.

Iqtisodiy nuqtai nazardan esa barqaror mahsulotlar yuqori bozor qiymatiga ega. Xalqaro tahlillarga ko‘ra, 2025 yilga borib barqaror moda segmentining bozor ulushi 20% gacha oshishi kutilmoqda. Milliy bozor uchun bu — yangi eksport imkoniyatlari, mahalliy dizaynerlarning xalqaro podiumlarga chiqishi va “Made in Uzbekistan” brendining qadriyat sifatida shakllanishi demakdir.

Xulosa

Feshn industriyasida barqaror rivojlanish tendensiyalarini joriy qilish zamonaviy jamiyat uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Ekotekstildan foydalanish, qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish va innovatsion yechimlarni keng qo‘llash ekologik muammolarni bartaraf etish bilan birga iqtisodiy samaradorlikka ham erishish imkonini beradi.

Milliy moda industriyasida barqarorlik tamoyillarini qo‘llash orqali mahalliy brendlarni xalqaro darajada raqobatbardosh qilish, turizm va eksport salohiyatini oshirish mumkin. Shu bois, barqaror rivojlanish faqat ekologik emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fletcher K. Sustainable Fashion and Textiles: Design Journeys. – London: Bloomsbury, 2019.
2. Niinimaki K. Sustainable Fashion in a Circular Economy. – Helsinki: Aalto University, 2020.
3. Gwilt A. Fashion Design for Living Planet. – Routledge, 2021.
4. Ellen MacArthur Foundation. Circular Economy in Textiles. – London, 2020.
5. Karimova G. Barqaror moda industriyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademnashr, 2022.

ZAMONAVIY LIBOS DIZAYNIDA MILLIY MOTIVLAR QO‘LLANILISHI

[1]Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna, [2]Mamasoliyeva Shahzoda Arslonbek qizi, [3]Isoqova Zuxra Rustamovna

[1]CHDPU. Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2,3]D.L.G. yo‘nalishi 2- bosqich talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.17421897

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy libos dizaynida milliy motivlarning o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Milliy naqsh va elementlarning tarixi, ularning dizayn nazariyasi nuqtai nazaridan talqini hamda global moda jarayonlarida qo‘llanilishi yoritilgan. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil orqali milliy naqshlarning zamonaviy dizaynda uyg‘unlashuv jarayonlari asoslanadi.*

Kirish

Libos inson hayotida nafaqat amaliy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega. Inson kiyinish madaniyati orqali o‘zining shaxsiy didi, madaniy mansubligi va jamiyatdagi maqomini namoyon etadi. Ayniqsa, milliy libos va naqshlar har bir xalqning madaniy identifikatsiyasini ta’minlaydi.

Globallashuv jarayonida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi asosiy muammolardan biri sifatida ko‘tarilmoqda. Chunki, bir tomondan, yoshlar vakillari zamonaviy trendlarga moyil bo‘lsa, ikkinchi tomondan milliy merosni saqlab qolish zarurati mavjud. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy libos dizaynida milliy motivlarni qo‘llash — madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga, milliy brendlarni xalqaro bozorda targ‘ib etishning samarali yo‘li hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi — zamonaviy libos dizaynida milliy naqshlarning qo‘llanilish jarayonlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va estetik ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Asosiy qism

1. Milliy naqshlarning tarixi va ma’naviy asoslari

Milliy naqshlar va an’anaviy elementlar asrlar davomida xalqning ma’naviy dunyoqarashi, turmush tarzi va estetik didini ifodalash vositasi sifatida rivojlanib kelgan. Masalan, o‘zbek xalqining zardo‘zlik san’atida qo‘llanilgan islimiy va girix naqshlari tabiat, hayot sikli va barqarorlik ramzi sifatida talqin qilingan. Atlas va adras matolaridagi ranglar uyg‘unligi esa quvonch, samimiyat va mehr-muhabbat timsoli hisoblanadi.

Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, milliy naqshlar nafaqat estetik funksiyani bajargan, balki ijtimoiy maqomni ham belgilagan. Masalan, maxsus naqshli matolar ayrim toifadagi kishilar uchun mo‘ljallangan, to‘y va bayram kabi marosimlarda esa liboslar milliy naqshlar bilan boyitilgan.

2. Dizayn nazariyasi nuqtai nazaridan milliy motivlar

Zamonaviy dizayn nazariyasida milliy motivlar vizual kod sifatida qaraladi. Ya’ni, muayyan naqshlar va elementlar ma’lum ma’no yuklaydi, identifikatsiya vositasiga aylanadi. Ilmiy nuqtai nazardan milliy naqshlar orqali:

madaniy merosning uzviyligi ta’minlanadi;

zamonaviy dizaynga emotsional va ma’naviy qiymat qo‘shiladi;

milliy brendning estetik ramzi yaratiladi.

Bundan tashqari, milliy motivlarning libos dizaynida qo‘llanilishi individuallik va eksklyuzivlik tamoyillarini ta’minlaydi. Masalan, dizayner tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy kostyum yoki sport libosiga milliy naqsh elementlari qo‘shilganda, u nafaqat modaviy, balki madaniy qiymatga ham ega bo‘ladi.

3. Xalqaro tajriba va qiyosiy tahlil

Jahon moda industriyasida milliy motivlarni zamonaviy dizaynda qo‘llash keng tarqalgan. Masalan:

Yaponiya dizaynerlari an’anaviy kimono shaklini saqlagan holda uni zamonaviy matolar va texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirmoqda.

Hindistonda sari liboslari global bozorda qayta interpretatsiya qilinib, jahon modasida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda.

Afrika mamlakatlarida etnik naqshlar xalqaro dizaynerlar kolleksiyalarida zamonaviy uslub bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

Bu jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, milliy motivlar jahon modasiga o‘zgacha kolorit va unikallik olib kiradi. O‘zbek milliy naqshlari ham shu jarayonda munosib o‘rin egallashi mumkin. Ayniqsa, adras va atlas matolardan yaratilgan liboslar milliylik bilan bir qatorda xalqaro trendlarga ham javob beradi.

4. Milliy motivlarning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati

Milliy naqshli liboslarning ijtimoiy ahamiyati, avvalo, milliy o‘zlikni asrab-avaylash bilan bog‘liq. Yosh avlodda milliy liboslarga qiziqish uyg‘otish orqali madaniy identifikatsiya kuchayadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan esa milliy naqshli mahsulotlar milliy brend sifatida tashqi bozorga chiqish imkoniyatiga ega. Xususan, milliy naqshli liboslar turizm sohasida suvenir va modaviy mahsulot sifatida katta talabga ega. Shu bilan birga, milliy naqshli kolleksiyalar xalqaro podiumlarda namoyish etilsa, mamlakatning madaniy nufuzi oshadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy libos dizaynida milliy motivlarning qo‘llanilishi ko‘p qirrali ahamiyatga ega. Birinchidan, u milliy madaniyat va an’analarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, milliy naqshlarning zamonaviy moda tendensiyalari bilan uyg‘unligi dizaynerlik jarayonlarini boyitib, yangi ijodiy imkoniyatlar yaratadi. Uchinchidan, milliy naqshli mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarda milliy brend sifatida iqtisodiy samara beradi.

Milliy motivlar zamonaviy dizaynda qo‘llanilganda, ular nafaqat estetik jihatdan, balki ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham yuqori qiymatga ega bo‘ladi. Shu bois, milliy naqshlarning zamonaviy dizaynga integratsiyasini ilmiy asoslangan holda davom ettirish va uning xalqaro miqyosda targ‘ibotini kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva N. Milliy libos dizayni nazariyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. Rasulov I. Madaniy meros va zamonaviy dizayn. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
3. Karimova G. Fashion and Tradition in Central Asia. – London: Routledge, 2020.
4. Fletcher K. Sustainable Fashion and Textiles. – New York: Bloomsbury, 2019.
5. Quinn B. Techno Fashion. – Oxford: Berg Publishers, 2020.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – TURKISTON XALQINING MILLIY QAHRAMONI”

Xudayarova Dilnoza Anvarovna
Chirchiq Davlat Pedagogiga Universteti San’atshunoslik fakulteti Musiqa ta’limi Tyutori
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421910

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri ekanligi, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynaganligi, Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi, milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etganligi, birinchi o‘zbek dramasini yaratib, professional o‘zbek teatr san’atining maydonga kelishiga zamin yaratganligi hamda jamiyatni ma’rifatlashtirish orqali mustaqillikka erishish g‘oyasini olg‘a surgan va shu qutlug‘ yo‘lda halok bo‘lgan ulug‘ ajdodimiz ekanligi xaqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *dramaturgiya, ilm, bilim, ma’naviyat, madaniyat, san’at, adabiyot, aktyor, rejissyor, teatr.*

Аннотация: *Махмудходжа Бехбуди был одним из видных лидеров национального движения пробуждения в Туркестане в начале двадцатого века. Он сыграл важную роль в пробуждении общественного сознания узбекского народа. Говорят, что он заложил основу для возникновения театрального искусства и продвигал идею обретения независимости через просвещение общества, и что он был нашим великим предком, который погиб на этом славном пути.*

Ключевые слова: *драматургия, наука, образование, духовность, культура, искусство, литература, актер, режиссер, театр.*

Abstract: *This article discusses the fact that Mahmudkhodja Behbudiy was one of the prominent leaders of the national revival movement that emerged in Turkestan at the beginning of the 20th century, that he played an important role in the awakening of the social consciousness of the Uzbek people during this period, that he actively participated in the opening of new schools of methods in Turkestan, the emergence of the national press, that he created the first Uzbek drama, laid the foundation for the emergence of professional Uzbek theater art, and that he was our great ancestor who promoted the idea of achieving independence through the enlightenment of society and died on this blessed path.*

Keywords: *dramaturgy, science, knowledge, spirituality, culture, art, literature, actor, director, theater.*

Bugun Behbudiy kabilar muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo‘ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo‘lida fido bo‘lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydirlar.

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘ringa ega bo‘lgan buyuk alloma Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonda madaniyat maorif arbobi, birinchi o‘zbek dramaturgi, milliy teatr muassisi, sifatida Osiyo va Evropaning ko‘pgina mamlakatlarida ham ma’lum va mashhur. SHu bois Behbudiy hayoti va faoliyati deyarli bir asrdan buyon tarixchi, adabiyotshunos, huquqshunos, san’atshunos olimlar, qolaversa, keng jamoatchilik e’tiborida.

Uning ijtimoiy-ijodiy faoliyati turli soha mutaxassislari tomonidan tadqiq qilinmoqda, adabiy merosi chop etilmoqda.[1]

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo‘lib, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi. U Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi, milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etibgina qolmay, birinchi o‘zbek dramasini yaratib, professional o‘zbek teatr san’atining maydonga kelishiga zamin hozirladi. U xalq va jamiyatni ma’rifatlashtirish orqali mustaqillikka erishish g‘oyasini olg‘a surgan va shu qutlug‘ yo‘lda halok bo‘lgan ulug‘ ajdodimizdir. Mahmudxo‘ja Behbudiyning nomi Turkistondagi maktablar islohoti nomi bilan bog‘liq bo‘lib, yangi usuldagi maktablar tashkil etish ishida jonbozlik ko‘rsatdi. U tirikchilik va ro‘zg‘or tashvishlariga mukkasidan ketgan avom xalqni dunyoning eng ilg‘or xalqlari qatoriga qo‘shish uchun eng avvalo yangi maktablar faoliyatini rivojlantirishga kirishadi. Biroq, maktabning o‘zi kamlik qilishini tushunib etadi. SHu bois Behbudiy “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnallarida turli maqolalar nashr ettira boshlaydi. Ularda millat ahvoli, uning haq-huquqi, milliy tilning qadri, chet tillarini o‘rganish va tarix masalalariga doir maqolalar e’lon qiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkistondagi ijtimoiy faoliyatida nihoyatda kuchli jonlanish ro‘y berdi. Bu jonlanish o‘lkada tobora keng miqyosda targ‘ib etila bordi.

“Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondir-ki, makotib – taraqqiyotning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamondosh isloh etib ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘liga kirib madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe’ va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas. «Muborizai hayot» maydonida mutlaqo mag‘lub bo‘lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o‘zgalarning asiri bo‘lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo‘ldan berur. Ana ushbu yo‘llar ila oxiri mahv va nobud bo‘lub ketar.” [2]

Milliy uyg‘onish kayfiyati va uning amaliy ko‘rinishi bo‘lgan jadidchilik hodisasi bilan belgilandi. Jadidchilik harakati tarixan qisqa muddatda ijtimoiy ongni ma’rifatchilikdan siyosiy-ozodlik, mustaqil davlatchilik g‘oyasi tomon rivojlantira oldi. Bu harakat bir necha yo‘nalishdagi amaliy faoliyatda o‘z ifodasini topdi. Jadid ziyolilari ta’biricha teatr ibodatxona “ulug‘lar maktabi” edi. Ayni chog‘da teatr ma’naviy tarbiya maskani bo‘lishi bilan bir qatorda, maktab-moarif sohasini moddiy quvvatlab turuvchi asosiy manbalardan ham edi. SHu boisdan ham taraqqiyparvarlar milliy teatr ishlarini zo‘r berib rivojlantirishga intildilar.

Jadid dramaturgiyasining karvonboshisi Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat Turkistonda balki Markaziy Osiyodagi birinchi O‘zbek dramasi muallifidir. “Padarkush” XX asr boshlarida Turkiston xalqlari hayotining eng dolzarb muammolari mavzuida yozilgan bo‘lib, u jadidchilik mafkurasining dasturi sifatida ma’rifatparvarlikning tub siyosiy va ijtimoiy maqsadini ifodalagan. O‘qimagan bolaning jamiyatning olg‘a siljishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi haqidagi asargina emas, muallif bu pьesada jadidlarning Turkistondagi ijtimoiy tuzumga, mustamlaka zulmiga bo‘lgan munosabatlarini boy va uning o‘qimagan o‘g‘li misolida tasvirlagan. Ammo savodsiz, olamdan xabarsiz, quroli yo‘q xalq mustamlakachilarga qarshi kurasholmas edi. Jadidlar o‘z maqsadlariga etish uchun, avvalo, avom xalqning ko‘zini ochishlari, uni kurashga otlantirishlari kerak edi. [3]

Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma’rifat ulug‘lanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘qimagan bolaning holini, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Dramada Boy va uning o‘g‘li, Toshmurod, yangi fikrli domla, ruscha tahsil olgan ziyoli boyning mirzasi Xayrullo, boyning qotili bo‘lgan Tangriqul va boshqa personajlar mavjud. “Padarkush”

so‘zining lug‘aviy ma’nosi “ota qotili” degan ma’noni anglatadi. Asarning asl moxiyati va muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr asar kahramonlaridan biri Ziyoli tili bilan beriladi: “Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur”. [4]

“Padarkush” dramasidagi har bir obraz muallif tomonidan berilgan kichik izohlar yordamida tasivirlanadi. Muallif Boy obrazi orqali mol-dunyoga ega bo‘lgan, ammo uni ilm va farzand tarbiyasi uchun sarflashni o‘ylamagan kimsa qiyofasini yaratgan. Asar voqealariga ko‘ra Boy Domlaning ham, Ziyolining ham nasihati va maslahatlariga quloq tutmay loqaydlik qiladi, savollariga qo‘pollik bilan javob qaytaradi. Boy hamma narsani: inson qadrini, obro‘-e’toborini boylik bilan o‘lchaydi va boyligi tufayli atrofdagilar ularni “izzat qilishadi” degan fikr bilan yashaydi. Bilamiz-ki, sharqona odob-axloq va madaniyatimizga ko‘ra farzand eng avvalo, otaga so‘zsiz itoat etishi lozim. Inson faqatgina moddiy boylik bilan yashay olmaydi. Insonda ma’naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik bo‘lishi lozim. Pьesada Domla Boyning o‘g‘lini ilm-ma’rifatga chorlaydi. O‘z zimmasidagi vazifasini bajaradi. SHuning uchun ketar chog‘i “Boy, man sizga amri ma’ruf etdim va menga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynumdan soqit qildim. Inshoolloh, mo‘ylab chiqarib, alifni tayoq demayturgan o‘g‘lungiz holini ko‘rarmiz va o‘qutmaganingiz uchun gunohkor bo‘lursiz” degan gapni aytadi.

Dramadagi Domla va Ziyolining vazifasi bir. Ular asardagi Boy, Toshmurod, Tanriqul va Arhun kabi obrazlarga qrama-qarshi turadi. Toshmurod do‘st va dushmanning farqiga bormaydi. SHuning oqibatida Tangriqul bilan birga o‘z uyiga o‘g‘rilikka borishga rozi bo‘ladi. Otasining sandiqdagi mol-mulkini o‘marish yo‘llarini maishatparast sheriklari bilan rejalashtiradi. Ularni o‘z uyiga boshlab boradi va buni sezib qolgan ota Tangriqul tomonidan o‘ldiriladi. O‘g‘rilar Toshmurodning soddaligi keyingi mudxish ishlarida yana as qotishini o‘ylab, uni ruxlantirish uchun: “Barakalla! Ilgari ham o‘g‘rilik qilganga o‘xshaysiz” – deya, maqtovlar keltiradi. Toshmurodning maishatga berilishi, buzuq yo‘llarga kirishi va padarkushga aylanishining asosiy sababi – bu uning ilmsizligidir. Oxir- oqibat ota qotili - padarkush Toshmurodning qulog‘ida ona qarg‘ishi qoldi: “He juvonmarg Toshmurod! Qon Qus! Chechakda ketsayding! Voy Padarkush! Toshmurod!” [5]

Asar qisqa bo‘lishiga qaramasdan, hayotiy voqealar tasvirlangan sahna asari sifatida muvaffaqiyatli namoyish etilgan. Bu paytda jadidchilik g‘oyasi butun Turkiston bo‘ylab keng targ‘ib qilinayotgan edi. Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar ta’lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas’uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta’sirli ifodalangan. Dramada ilk bora turkistonliklarga o‘z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar, ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, jaholat, to‘g‘ri yo‘ldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi ta’sirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib, butun vujudini qamrab oladi. Sahnadagi voqealarni to‘g‘ri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini ko‘rib yig‘laydilar, mamlakat yoshlarini o‘qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushunadilar.[6]

“Teatr - bu ibratxonadir”. Teatrni ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy ana shunday atagan bo‘lsa, bugun yurtboshimiz, teatrni ma’naviyat o‘chog‘i, ijod ahlini esa inson qalbining muhandislari deya yuksak ta’riflaydilar. Haqiqatdan ham teatr har qanday davrda, hayotiy saboqlar beruvchi jonli vosita hisoblangan. Inson ma’naviyatini yuksaltirishda teatrning alohida

o‘rni bor. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu pesasida bir oilani ilmsizlik natijasida parokanda bo‘lgan xolini ko‘rsatib bergan bo‘lsa-da, buning zamirida butun bir jamiyatning ilm-ma’rifatga bo‘lgan extiyojini ko‘rsatib beradi. SHu boisdan ham o‘sha davr buyuk Jadid namoyondachisi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Teatr – bu ibodatxonadur” deya millat ongini yanada yuksaltirish ilm-ma’rifatga, yurt taraqqiyotga o‘zining katta hissasini qo‘shgan buyuk alloma sifatida millat xotirasida qoldi.

Biz yoshlar esa, Ma’rifatparvar ziyoli boblarimiz ruxlarini shod etib, ular yaratgan asarlarni o‘qib, ibratli ishlarini davom ettirishimiz va hikmatlaridan soboq olishimiz bugungi kunning ma’naviy ehtiyojidir. Ularning bebaho asarlari umrboqiyligi bilan ezgulikka intiq va muhtoj ko‘ngillarga taskin beradi. Zulmat qo‘ynidan yorib chiqqan jadidlarimizning yorqin xotirasi avlodlarni jur’atga chorlaydi. Bugungi kunda qatog‘on yillarining qurboni bo‘lgan, nohaq jabr ko‘rgan shoir va yozuvchilarimizning mo‘‘tabar nomlari, sha’ni-shavkati, qora bo‘htonli muhit malomatidan qutilib, o‘z zamonalariga qaytarildi. A.Fitrat, M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Qodiriylar vatanimiz osmonida porlagan so‘nmas yulduzlardir. Biz ana shunday yuksak salohiyatga ega bo‘lgan ajdodlarimizdan faxrlanib, ularni davomchilari sifatida munosib bo‘lishga harakat qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Edvort Olvort. Birinchi o‘zbek dramasi. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2009 yil, 9-son.
2. N.Karimov. M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. – T. 2014. 3-bet.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg‘a murojaat. «Oyna» jurnali. 1914 yil. 41-son. 970-972-betlar.
4. M.Rahmonov. Hamza. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 2001 y. 9-10 betlar.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush. 1913.
6. O‘sha manbaa.

YANGI LIBOSLAR YARATISHDA MILLIY MATOLARDAN FOYDALANISH USLUBLARI

[1]Yusupov Ulug‘bek Kadirovich, [1]Rustamova Ozoda Ulug‘bek qizi, [3]Alimyorova Zarnigor Abdyamrillo qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy sanat va dizayn kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San’atshunoslik fakultetiu, «Libos va gazlamalar dizayni» ta’lim yo‘nalishi. 2-bosqich talabasi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San’atshunoslik fakultetiu, «Libos va gazlamalar dizayni» ta’lim yo‘nalishi. 2-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17421923

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy matolarning (atlas, adras, shoyi, bekasam, bo‘z va boshqalar) tarixiy o‘rni, ularning zamonaviy moda sanoatida qo‘llanish imkoniyatlari hamda libos dizaynida foydalanish uslublari yoritilgan. Shuningdek, milliy va zamonaviy matolar uyg‘unligi, innovatsion yondashuvlar, yosh dizaynerlarning ijodiy izlanishlari va milliy matolarning eksport salohiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida milliy matolardan foydalanishning iqtisodiy, madaniy va pedagogik ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy matolar, atlas, adras, shoyi, libos dizayni, moda, innovatsiya, an’ana.*

Аннотация. *В статье рассматривается историческая роль национальных тканей (атлас, адрас, шёлк, бексам, бёз и др.), их использование в современной модной индустрии, а также методы применения в дизайне одежды. Анализируется гармония национальных и современных материалов, инновационные подходы, творческие поиски молодых дизайнеров и экспортный потенциал национальных тканей. В результате исследования обосновано экономическое, культурное и педагогическое значение применения национальных тканей.*

Ключевые слова: *национальные ткани, атлас, адрас, шёлк, дизайн одежды, мода, инновации, традиция.*

Abstract. *This article examines the historical role of national fabrics (atlas, adras, silk, bekasam, bo‘z, etc.), their application in the modern fashion industry, and methods of use inclothing design. The study analyzes the harmony between national and contemporary materials, innovative approaches, creative explorations of young designers, and the export potential of national textiles. The research substantiates the economic, cultural, and pedagogical significance of utilizing national fabrics.*

Keywords: *national fabrics, atlas, adras, silk, clothing design, fashion, innovation, tradition.*

Bugungi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekistonning boy madaniy merosi orasida milliy matolar alohida o‘rin tutadi. Atlas, adras, shoyi kabi matolar asrlar davomida xalqimizning turmush tarzida, kiyinish madaniyatida va marosim liboslarida keng qo‘llanib kelgan. Maqolaning maqsadi – milliy matolardan foydalanishning ilmiy asoslarini ochib berish, ularning libos dizaynidagi uslublarini tahlil qilish hamda zamonaviy moda

sanoatida qo‘llash istiqbollarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: milliy matolarning estetik va madaniy ahamiyatini yoritish; libos yaratishda qo‘llanish uslublarini tahlil qilish; milliy va zamonaviy modaning uyg‘unlashuv jarayonini o‘rganish; milliy matolardan foydalanishning iqtisodiy va pedagogik ahamiyatini asoslash.

Milliy matolarning kelib chiqishi, ularning ishlab chiqarish texnologiyasi va bezak san’ati bo‘yicha ko‘plab ilmiy manbalar mavjud. Masalan, Sharofiddinov A. (2015) atlas va adras matolarining ijtimoiy-madaniy ahamiyatini yoritgan bo‘lsa,

Yo‘ldoshev Z. (2019) ularning zamonaviy moda industriyasidagi qo‘llanilishi haqida izlanishlar olib borgan.

Jahon miqyosida ham milliy matolar moda sanoatida keng tadqiq etilmoqda.

Hindiston ipaklari, Afrika matolari, Yaponiyaning kimono matolari – bular milliylikni global modaga olib kirgan yorqin misollardir. Shu jihatdan O‘zbekiston milliy matolari ham xalqaro miqyosda katta salohiyatga ega.

1. Milliy matolarning estetik va badiiy ahamiyati. Atlas, adras, shoyi kabi milliy matolar o‘ziga xos rang-barangligi, naqshlarining ramziy mazmuni va tabiiytolalardan tayyorlanishi bilan ajralib turadi. Ular nafaqat kiyim-kechak uchun, balki milliy ruhiyat, qadriyatlar va madaniyatni ifoda etuvchi vosita sifatida ham ahamiyatlidir.

2. Libos dizaynida milliy matolardan foydalanish uslublari. An’anaviy uslub – libosni to‘liq milliy matodan tikish (masalan, atlasdan tikilgan milliy ko‘ylaklar).

Aralash uslub – milliy va zamonaviy matolarni uyg‘unlashtirish (atlasni jinsi, ipak yoki paxta matolari bilan kombinatsiya qilish). Innovatsion uslub – milliy matolardan aksent sifatida foydalanish (yoqa, belbog‘, yeng, sumka, poyabzal detalida milliy elementlardan foydalanish).

3. Jahon modasida milliy matolar o‘rni. Bugungi kunda xalqaro podiumlarda o‘zbek atlaslari va adraslari xorijiy dizaynerlar tomonidan ham ishlatilmoqda. Bu esa milliy matolarimizning jahon bozorida tan olinayotganidan dalolat beradi. Parij,

Milan, Tokio kabi modaning markazlarida O‘zbekiston milliy matolari ishtirokidagi kolleksiyalar namoyishi mamlakatimizning madaniy nufuzi oshishiga xizmat qilmoqda.

4. Mahalliy dizaynerlar tajribasi. O‘zbekistonlik yosh dizaynerlar milliy matolarni zamonaviy liboslarga uyg‘unlashtirish orqali yuksak ijodiy yutuqlarga erishmoqdalar. Ularning kolleksiyalari nafaqat mahalliy ko‘rgazmalarda, balki xalqaro moda haftaliklarida ham namoyish etilmoqda. Bu esa milliy modaning global bozorda o‘z o‘rnini topayotganini ko‘rsatadi.

Milliy matolardan foydalanishning amaliy ahamiyati quyidagi yo‘nalishlarda ko‘zga tashlanadi: iqtisodiy jihatdan – ichki bozor uchun milliy brend mahsulotlari ishlab chiqish va eksport salohiyatini oshirish; madaniy jihatdan – xalqning o‘z milliy merosiga hurmatini mustahkamlash, milliylikni targ‘ib etish; pedagogik jihatdan – dizayn va to‘qimachilik sohalarida o‘qiyotgan yoshlarning ijodiy dunyoqarashini kengaytirish.

Shuningdek, milliy matolar asosida tikilgan liboslar turizmni rivojlantirish, madaniy brend yaratish va “Made in Uzbekistan” tamg‘asini dunyoga tanitishda katta imkoniyatlarga ega.

Milliy matolardan foydalanish masalasi nafaqat moda yo‘nalishida, balki ijtimoiy-madaniy hayotimizda ham o‘ta muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan to‘qimachilik an’analari bugungi kunda zamonaviy dizayn tendensiyalari bilan uyg‘unlashib, yangi badiiy ifoda imkoniyatlarini yaratmoqda.

Milliy matolarning asosiy afzalligi – ularning tabiiyligi, ekologik tozaligi va rangbarang bezak tizimida yotadi. Atlas, adras, shoyi, bekasam kabi matolar o‘zining rang uyg‘unligi, geometriknaqshlari va ramziy mazmuni bilan ajralib turadi. Ular xalqning

dunyoqarashi, tabiatni idrok etish madaniyati va tarixiy xotirasining mujassam ifodasidir.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlab qolish muhim vazifalardan biridir. Zamonaviy moda sohasi ana shu jarayonda madaniy diplomatiya rolini bajaradi: milliy matolardan yaratilgan liboslar xalqaro podiumlarda O‘zbekistonning madaniy brendi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, so‘nggi yillarda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida libosdizayni, to‘qimachilik va milliy amaliy san’at fanlariga ajratilgan dars soatlari kamayib borayotgani achinarli holatdir. Bu esa bo‘lajak mutaxassislarning amaliy ko‘nikmalari va ijodiy salohiyatini to‘laqonli shakllantirish imkonini cheklaydi.

Shunday qilib, milliy matolardan foydalanish – bu nafaqat estetik va amaliy jarayon, balki xalqning o‘zligini, tarixini va ijodiy ruhini ifodalovchi muhim madaniy hodisadir. Uni ilmiy, amaliy va ta’limiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston modasining kelajakdagi barqaror rivojlanishining kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharofiddinov A. Milliy matolar san’ati. – Toshkent: Fan, 2015.
2. Yo‘ldoshev Z. O‘zbekistonda moda industriyasining rivojlanishi. – Toshkent, 2019. 2020.
3. Karimova N. Milliy libos va zamonaviy moda uyg‘unligi. – Buxoro, 2021.
4. UNESCO. Traditional textiles and cultural heritage. – Paris, 2018.
5. Smith J. Fashion and Tradition: Global Perspectives. – London: Routledge

MILLIY LIBOS DIZAYNIDA ZAMONAVIY MODANING O'ZIGA XOS TALQINI

[1]Yusupov Ulug'bek Kadirovich, [2]Mo'minova Nigora Mirzohid qizi, [3]Sultonova Larisa Elyor qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy sanat va dizayn kafedrasi katta o'qituvchisi, [2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San'atshunoslik fakultetiu, «Libos va gazlamalar dizayni» ta'lim yo'nalishi. 2-bosqich talabasi, [3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San'atshunoslik fakultetiu, «Libos va gazlamalar dizayni» ta'lim yo'nalishi. 2-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17421943

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy libos dizaynining zamonaviy modadagi o'rni, milliy va jahon modasi uyg'unligining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. O'zbekistonning boy madaniy merosi, milliy an'analari asosida yaratilayotgan zamonaviy libos dizaynlari nafaqat estetik, balki ijtimoiyma'naviy ahamiyatga ega jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, dizayn sohasida innovatsion yondashuvlar va ekologik barqaror moda tendensiyalari ham tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *milliy libos, dizayn, moda, madaniyat, an'ana, modernizatsiya, estetika, innovatsiya.*

Аннотация . *В данной статье рассматривается роль дизайна национальной одежды в современной моде, а также особенности взаимодействия национальных и мировых модных тенденций. Современные дизайны одежды, созданные на основе богатого культурного наследия и национальных традиций Узбекистана, анализируются не только как эстетическое явление, но и как социально-духовный процесс. Кроме того, рассматриваются инновационные подходы в области дизайна и тенденции устойчивой (экологически ответственной) моды.*

Ключевые слова: *национальная одежда, дизайн, мода, культура, традиция, модернизация, эстетика, инновация.*

Abstract. This article examines the role of national clothing design in contemporary fashion and analyzes the unique aspects of the interaction between national and global fashion trends. Modern clothing designs created on the basis of Uzbekistan's rich cultural heritage and national traditions are considered not only as an aesthetic phenomenon but also as a socio-spiritual process. In addition, the paper discusses innovative approaches in design and the growing trends of sustainable and eco-friendly fashion.

Keywords: *national clothing, design, fashion, culture, tradition, modernization, aesthetics, innovation.*

Milliy libos har bir xalqning madaniyati, tarixi, urf-odatlari va milliy o'zligini ifoda etuvchi muhim ramzlardan biridir. O'zbekiston xalqlarining libos madaniyati asrlar davomida shakllanib, milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi sifatida yashab kelmoqda. Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari, zamonaviy modaning jadal rivojlanishi hamda texnologik yangiliklar libos dizayni sohasida yangi yo'nalishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy libos dizaynida zamonaviy modaning o'ziga xos talqinini o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biridir.

Milliy libos dizaynining madaniy asoslari. O'zbekistonning milliy liboslari o'zining naqshlari, matolari, rang uyg'unligi va shakllari bilan ajralib turadi. Atlas, adras, beqasam, shoyi

kabi milliy matolar asrlar davomida libos yaratishda asosiy material bo‘lib xizmat qilgan. Ularning har biri o‘z hududiga, iqlim sharoitiga va xalqning turmush tarziga mos tarzda rivojlangan.

Zamonaviy modaning milliy dizaynga ta’siri. Global moda sanoati bugungi kunda tez o‘zgaruvchan, kreativ va raqamli yo‘nalishlarda rivojlanmoqda.

O‘zbekistonlik yosh dizaynerlar xalqaro moda tendensiyalarini o‘rganib, ularni milliy ruh bilan uyg‘unlashtirmoqdalar.

Masalan, an’anaviy atlas yoki adras matosidan tikilgan, ammo zamonaviy siluet va kesimlarga ega liboslar bugungi kunda xalqaro podiumlarda ham e’tirof etilmoqda.

Dizaynda innovatsion va texnologik yondashuvlar. Zamonaviy libos dizayni jarayonida 3D-modellashtirish, raqamli naqsh yaratish, sun’iyintellekt asosidagi dizayn yechimlari keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, ekologik barqaror moda konsepsiyasi ham dizaynerlar e’tiborida bo‘lib, tabiiy matolar, qayta ishlangan tolalar va chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish kengaymoqda.

Milliy libos dizaynining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati. Milliy libos – bu nafaqat kiyim, balki millat o‘zligini saqlash, madaniy identifikatsiyani mustahkamlash vositasi hamdir. Liboslar orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va estetik did yosh avlodga yetkaziladi.

Milliy libos dizaynida zamonaviy modaning o‘ziga xos talqini — bu o‘tmish meros va bugungi innovatsiyalar uyg‘unligidir. Zamonaviy modaning tez o‘zgaruvchi xususiyatiga qaramay, milliy dizayn o‘z identitetini saqlab qolish orqali xalqning madaniy qadriyatlarini boyitadi. Shu bois, milliy libos dizayni sohasida ilmiy izlanishlar, zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlarni joriy etish — O‘zbekiston moda industriyasining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, D. (2022). O‘zbekiston milliy libos dizaynining rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: San’at nashriyoti.
2. Ismoilova, S. (2023). Zamonaviy moda tendensiyalari va milliy an’analar uyg‘unligi. – “Dizayn va madaniyat” jurnali, №2.
3. UNESCO (2021). Intangible Cultural Heritage of Humanity: Traditional Uzbek Textile Crafts.
4. Xudoyberdiyeva, M. (2020). O‘zbek liboslarining estetik talqini va yoshlar madaniyatida tutgan o‘rni. – Toshkent davlat san’at va madaniyat instituti.
5. To‘xtayeva, N. (2024). Moda industriyasida ekologik dizayn tamoyillari. – “Innovatsion ta’lim va ilm-fan” jurnali, №4.

MILLIY KASHTACHILIK SAN’ATI: TARIX, AN’ANA VA ZAMONAVIYLIK CHORRAHASIDA

[1]Zulfiyev Rashid Ne’matovich, [2]Xolmatova Shoxista Murodovna
[1]JDPU o‘qituvchisi, [2]JDPU talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421954

Anotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek milliy kashtachilik san’atining tarixiy ildizlari, madaniy-ma’naviy meros sifatidagi o‘rni hamda zamonaviy dizayn va moda sanoati bilan integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Kashtachilik nafaqat amaliy san’at turi, balki xalqning estetik qarashi, ruhiy olami va tarixiy xotirasini o‘zida mujassam etgan san’at shakli sifatida yoritiladi. Shuningdek, maqolada kashtachilik an’analari orqali yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, zamonaviy ta’lim tizimida kasb-hunar yo‘nalishlariga kiritish istiqbollari ham ko‘rib chiqiladi. O‘zbek kashtachilik maktablarining hududiy xususiyatlari, naqshlar ramziyligi va texnik uslublari ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются исторические корни узбекского национального искусства вышивки, её роль как культурного и духовного наследия, а также интеграция в современный дизайн и индустрию моды. Вышивка представляется не только как прикладное искусство, но и как форма художественного выражения национальной эстетики, мировоззрения и исторической памяти народа. Особое внимание уделяется воспитательной функции традиций вышивки в формировании у молодёжи уважения к национальным ценностям, а также возможностям внедрения этого направления в систему профессионального образования. Проведен научный анализ региональных школ вышивки, символики узоров и техники исполнения.*

Abstract. *This article explores the historical foundations of Uzbek national embroidery art, its significance as a cultural and spiritual heritage, and its integration into contemporary design and fashion industries. Embroidery is examined not only as a form of applied art but also as a representation of national aesthetics, worldview, and historical memory. The paper emphasizes the educational and cultural potential of embroidery traditions in instilling respect for national values among the youth and discusses prospects for incorporating it into vocational education systems. A scientific analysis is provided of the regional styles, symbolic meanings of patterns, and technical embroidery methods within the Uzbek tradition.*

Kalit so‘zlar: *Milliy kashtachilik, xalq amaliy san’ati, naqsh ramziyligi, madaniy meros, hunarmandchilik, dizayn, milliy identitet*

Ключевые слова: *Национальная вышивка, народное прикладное искусство, символика узора, культурное наследие, ремесленное мастерство, дизайн, национальная идентичность*

Keywords: *National embroidery, folk applied arts, ornamental symbolism, cultural heritage, handicrafts, design, national identity*

Milliy kashtachilik san’ati o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan estetik dunyoqarashi, didi, ruhiyati va hayot falsafasini o‘zida mujassam etgan noyob madaniy hodisadir. Kashtachilik nafaqat amaliy hunar sifatida, balki xalqning tarixiy xotirasi, urf-odati, diniy va milliy e’tiqodlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan qadimiy san’at turi hisoblanadi.

Ayniqsa, kashtado‘zlik san’ati orqali xalqning go‘zallikka intilishi, nafislikka bo‘lgan munosabati va avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy rishtalar aniq ifodasini topgan. Ushbu maqolada milliy kashtachilikning tarixi, mintaqaviy uslublari, ramzlar semantikasi hamda bugungi kunda uni zamonaviy dizayn va ta’lim tizimida qanday tatbiq etish mumkinligi keng yoritiladi. Kashtachilik san’ati O‘zbekistonning turli hududlarida – Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Farg‘ona, Toshkent va boshqa viloyatlarda o‘ziga xos uslublar asosida shakllangan. Har bir mintaqaning o‘z naqshi, rang tanlovi, kompozitsion qurilishi bor. Masalan, Buxoro kashtachiligida oltin ipdan foydalangan holda zardo‘zlik an’anasi rivojlangan bo‘lsa, Farg‘onada ipak kashta, Samarqandda esa sirg‘ali naqshlar keng qo‘llanilgan.

Kashtachilikdagi naqshlar ramzlar tilida so‘zlaydi – “anor” hosildorlik va barakani bildirsa, “bodom” himoya va farovonlikni ifodalaydi. Bu naqshlar orqali ayollar o‘z hissiyotlarini, umid va orzularini ifodalagan. Kashtachilikda ishlatiladigan texnikalar ham xilma-xildir: “iroqi”, “bosma”, “zarduzi”, “guldo‘zi” kabi usullar milliy maktablar sifatida qaraladi.

Bugungi kunda kashtachilik nafaqat madaniy meros sifatida, balki zamonaviy dizayn va moda industriyasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Milliy brendlar, kiyim-kechak dizaynerlari, hatto interyer dizaynerlari ham kashtachilikdan keng foydalanishmoqda. Bu san’atning qayta tiklanishi va global miqyosda tanilishi uchun katta imkoniyatlar ochmoqda.

Ta’lim tizimida esa kashtachilik darslarini kasb-hunar maktablari, kollejlar va hatto umumta’lim maktablarida yo‘lga qo‘yish yoshlarni milliy hunarlarga o‘rgatish, estetik didini shakllantirish va bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kashtachilik va ayolning jamiyatdagi o‘rni

Milliy kashtachilik san’ati, avvalo, ayol mehnati, sabr-toqati va go‘zallikka bo‘lgan

yondashuvining timsolidir. O‘zbek jamiyatida kashtado‘zlik asosan ayollar tomonidan avloddan-avlodga o‘rgatilgan, bu esa oilaviy qadriyatlar, an’analar va hunarning uzluksizligi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Kashtachilik orqali nafaqat ma’naviy meros saqlanadi, balki ayollar bandligi ta’minlanib, iqtisodiy mustaqillikka erishishlariga ham imkon yaratiladi. Kashtachilik va iqtisodiy rivojlanish

Hozirgi kunda kashtachilik sohasi turizm, moda, xalq amaliy san’ati yarmarkalari orqali iqtisodiy foyda manbaiga aylangan. Ko‘plab kichik tadbirkorlik subyektlari va mahalliy brendlar milliy naqshlardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarmoqda. Bu esa nafaqat milliy o‘zlikni targ‘ib qiladi, balki eksport salohiyatini ham oshiradi.

Raqamli texnologiyalar va kashtachilik

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli naqsh dizayni, 3D modellashtirish va avtomatlashtirilgan kashta tikuv mashinalari yordamida kashtachilik san’atining rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. An’anaviy naqshlar raqamlashtirilmoqda, kashtalar virtual platformalar orqali dunyoga taqdim etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda Milliy kashtachilik san’ati o‘zbek xalqining boy madaniy va ma’naviy merosining ajralmas qismi bo‘lib, asrlar davomida shakllanib, avloddanavlodga o‘tib kelmoqda. Bu san’at turi nafaqat bezakli mahsulotlar tayyorlash bilan cheklanmay, balki xalqning dunyoqarashi, estetik didi va ruhiy olamining aksidir.

Bugungi kunda kashtachilik san’atining zamonaviy dizayn, texnologiya va marketing bilan uyg‘unlashuvi uni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish, iqtisodiy foyda keltirish va ayollar bandligini ta’minlashda muhim vositaga aylantirmoqda.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida an’anaviy naqshlarning

raqamlashtirilishi, virtual ko‘rgazmalar, moda yo‘nalishidagi integratsiyalar milliy kashtachilikni zamon bilan hamnafas qilmoqda. Ushbu san’atni saqlab qolish, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish – madaniy identitet va milliy iftixorni asrashning muhim yo‘nalishidir.

Shu bois, kashtachilik faqat o‘tmish merosi emas, balki kelajakni boyituvchi zamonaviy madaniy kapital sifatida ham qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Атаxонов А. *O‘zbek xalq amaliy san’ati*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
2. Raxmatova M. *O‘zbek milliy hunarmandchiligi tarixi*. – Toshkent: Fan, 2002.
3. Jo‘raeva N. *Kasana va kashtachilik an’analari*. – Toshkent: Sharq, 2011.
4. Azizov X. *O‘zbek kashtachiligida milliy naqshlar*. – Toshkent: San’at, 2017.
5. *O‘zbekiston xalq amaliy san’ati* (ilmiy-tarixiy to‘plam). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
6. Ibrohimova D. *Kashtachilik san’atida zamonaviy tendensiyalar*. – “Ilm-fan va texnologiyalar” jurnali, 2023, №2.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. *“Hunarmandchilikni rivojlantirish va yoshlarni kasbga o‘rgatish chora-tadbirlari to‘g‘risida”* – PQ–5284-son, 2021-yil 17-noyabr.
8. Sodiqova S. *Amaliy bezak san’atining estetik qirralari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
9. X.X.MURATOV, R.R.JABBAROV. Amaliy va badiiy bezak san‘ati CHIRCHIQ–2020
10. Zulfiyev.R. *Amaliy va badiiy bezak san’ati. –Toshkent: “ZEBO PRINT”2025.*
11. Bo‘lajak rassom o‘qituvchini tayyorlashda akademik chizmachilikni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti M.T qizi Hamroqulova, R.N.Zulfiev, B.B.Baymetov 11– Fan va ta’lim ilmiy jurnali, 2020 y.

ИСКУССТВО В ДУХОВНОМ ДИАЛОГЕ ДРЕВНЕЙ РУСИ И БУХАРЫ (ИСТОРИЧЕСКАЯ СПРАВКА)

Абдуллаев Сухроб Сайфуллаевич
доцент БГУ
https://doi.org/10.5281/zenodo.17421963

В данной статье рассмотрены исторические аспекты взаимовлияния и взаимопроникновения искусства Древней Руси и Средней Азии. На основе анализа многочисленных источников проанализирован феномен искусства в их духовном диалоге.

Феномен, духовный диалог, искусство, художественные традиции, Ренессанс, миниатюра, Палехская живопись, лубочная живопись

This article discusses the historical aspects of the mutual influence and interpenetration of the art of Ancient Russia and Central Asia. Based on the analysis of numerous sources, the phenomenon of art is analyzed in their spiritual dialogue

Phenomenon, spiritual dialogue, art, artistic traditions, Renaissance, miniatyure, Palekh painter, cheap popular painting

В духовном диалоге Древней Руси и Средней Азии искусству принадлежит особое место. Искусство в своём художественном содержании оказывается универсальным, своеобразным определителем особой общественной ценности для общества, нации, государства. К примеру, философом Ю.У. Фахт-Бабушкиным в конце 80-х годов прошлого столетия были получены убедительные экспериментальные данные о наличии тесной связи между приобщённостью к искусству и всесторонним духовным развитием. «Человечеству необходимо было найти способ обогащения и коррекции жизненного опыта отдельного человека. Искусство и стало средством сохранения и передачи опыта человечества, рационального и эмоционального» пишет он (1, с.18).

«Искусство в своем художественном содержании, вторит ему философ А. Еремеев… делало бессмертным необходимые обществу чувства, необходимый обществу способ реагирования на мир… оно не давало… опуститься ниже уровня требований, предъявляемых к нему обществом». (2, с.229-230).

Духовный диалог Древней Руси и Средней Азии в сфере искусства и посредством искусства имеет многовековую историю и глубокие художественные традиции. Особенно это характерно для великой эпохи человечества, начинающей со второй половины XV века – эпохи Возрождения в науке, искусстве, культуре. В христианской Италии, Франции, Германии, мусульманских странах Ближнего и среднего Востока - Ираке, Иране, Северной Индии, Центральной Азии наступил невиданный расцвет искусства, эпоха Ренессанса. И если эпоха Возрождения в странах Запада изучена наиболее полно, эпоха Ренессанса в странах мусульманского Востока ещё ждёт своих исследователей.

Наиболее ярко феномен искусства в духовном диалоге Древней Руси и Средней Азии прослеживается на примере взаимовлияния и взаимодействия художественных традиций среднеазиатской миниатюры на живопись средневековой Руси. Известный знаток этой проблемы Л. Рempель в очерке «Искусство Руси и Восток как исторически – культурная и художественная проблема» (3), приходит к ряду важных выводов. В частности, говоря о таких связях он приходит к заключению о взаимном тяготении,

свойственном данным культурам. В IX-XI веках связи со всем Востоком шли в основном через Среднюю Азию и Кавказ. Русское искусство XVI – XVII веков соприкасается с искусством Средней Азии главным образом в прикладном искусстве. Это касалось, в первую очередь книжной миниатюры. Искусство Ирана, Средней Азии и Кавказа, также как и Руси, отмечает ученый, «…отвечает национальным традициям Русской культуры, исторической миссии народов Среднего Востока» (3, с.254). На Руси бытовали самые различные предметы восточного происхождения. Многие образы искусства мусульманского Востока, в том числе и фантастические, нашли на Руси благодатную почву для восприятия и соответствующей транспортировки.

Нет сомнения, что в творчестве иконописца Феофана Грека восточная миниатюра оказала свое влияние. Так О. Сопоцинский пишет: «Перед тем как обосноваться на Руси Феофан работал, упоминает Епифаний, (летописец – прим. авт.) в Константинополе, Халкидоне, Герате и Крымской Кафе» (4 с.18).

В книге А. Свирина – «Искусство книги Древней Руси» (М., 1964), автор пишет, что древнейшие русские рукописи писались на пергамене – особо обработанной коже. Слово «пергамен»: получило своё название от Малоазийского города Пергама, давшему начало этому материалу. Этот термин, безусловно восточного характера, появился на Руси в XVII веке. Как известно, в Европе производство бумаги было занесено арабами, на Руси она появилась в XIV веке и вплоть до конца XVII века пользовались привозной бумагой.

Другой пример связей восточной и русской миниатюр дают иллюстрации рукописи «Апокалипсис» (Гос. библиотека, Москва), датированная XVI веком. Наряду с традиционными персонажами вдруг появились в композициях строения, архитектурная форма которых напоминает архитектуру Индии. Усиливает впечатление и пейзаж явно не местного характера. Некоторые исследователи, например П. Рябинин и А. Свиридова полагают, что возможно эти Изображения храма живы, а также сельского храма на острове Бали. В доказательство приводится описание Афанасия Никитина, жившего в Индии с 1469 по 1472 год. В Записках «Хождение за три моря» он пишет: «А дворец султана Бидарского и велик и чуден несказанно. В нём стоят изваяния чудесные, все резные, украшены золотом. Даже камень последний там вызолочен. И расписан искусно узорами» (5, с.127). Общий ход событий русской истории, пишет далее А. Свирин, - все более связывал Москву – центр русской художественной культуры – со странами Востока и Запада…(5, с.150).

О связях Древней Руси и Средней Азии говорит упоминание старорусских архивов о дарах Бухары и Хивы, поступавших ко дворам московских князей: «шоломы и сабли булатные навожены золотом и травами», «ножны булатные навожены золотом оков серебряный», «тулунбасы булатны и медяны, навожены красками травы и золотом». (6, с 137).

Развитие взаимосвязей искусства Востока с Русью способствовало, по мнению Е. Поляковой и З. Рахимовой, и торговая, культурная связь Хорасана и Мавераннахра с Россией в XIV- XV вв. и как следствие – развитие лубочной живописи на Руси, перенятой у миниатюристов Бухарской и Самаркандской школ живописи XVII века.

Даже из столь краткого анализа видно значение искусства Средней Азии и в частности Бухары в развитии мировой культуры и в частности русского. Это хорошо понимали передовые ученые России. Так, известный востоковед XIX века, декан факультета Восточных языков Санкт – Петербургского университета А. Мирза Казем –

бек писал: «…Преподавание истории Востока…занятия адъюнктов восточной историей принесли бы двойную пользу; для науки в обширном смысле и для полнейшего образования будущих ориенталистов» (6.с.7).

В плане изучения и систематизации традиций двух разновидностей культур как средства духовного диалога типичным является феномен палехского искусства миниатюры, известное исследователям с первой четверти XVII века. Оно уходит своими корнями за рубеж XV столетия. Богатство художественно – орнаментальной культуры, самобытное искусство палехских мастеров перекликается своим орнаментальным и цветовым строем с лучшими образцами среднеазиатской миниатюры.

«Сказочно нарядные терема, богатые наличники, и русские деревенские избы с резными крыльцами…яркие изразцовые орнаменты, опоясывающие храмы, или цветные изразцы; украшенные тонкой чеканкой изделия из серебра, золота, шитые жемчугом ткани и озаряющие светом внутренность темных низких изб золото – красные хохломские изделия; расписные прялки и всякая деревенская утварь с узорчатой домотканой одеждой» (7 с. 22) - … разве не напоминает это красочное описание М. Некрасовой сюжеты великолепных миниатюр Герата, Тебриза с блещущим золотом и лазурью панорамами городов и улиц, мечетей и медресе, яркими многокрасочными изображениями людей, предметов быта?

Сближают их также и своеобразная, усложненная трактовка пространства, по которому кроме иллюзорного пространства, используется принцип многоплановости по всей плоскости листа; как по вертикали, так и по горизонтали.

Желанием показать композицию, пространство и действие во всех его измерениях проникнут способ обратной перспективы, как в палехской, так и в среднеазиатской миниатюре. Этот способ позволял древним мастерам показывать одновременно и первый план, интерьер помещений и убранство площадей, улиц городов и поэтому, сосуществование двух принципов – плоскостного и перспективного, отвечало тем художественным принципам которые сложились на протяжении многовекового развития культуры и искусства Древней Руси и Средней Азии.

Второе, что роднит палехскую и восточную живопись XVII века – это поэтическая сказочность, обращение к народны эпосам, былинам, басням; обращение мастеров к литературным образам; если художники Востока черпали свои сюжеты из бессмертных произведений Фирдауси, Джами, Навои, Низами, - то живописцы Палеха любят композиции на Пушкинскую тематику, фольклор.

Знали восточные мастера в XV - XVII веках и лаковую миниатюру, характерную для живописи Палеха – об этом говорит ряд исследований. Есть ещё много признаков, доказывающих взаимовлияние, этих видов живописи: художественно – стилевые черты, материал и техника письма, сюжеты и композиционные приемы.

Однако, при всем взаимовлиянии художественных культур разных стран и народов, регионов, при всем заимствовании художественных форм и образов, средств, сердцевиной остаётся своеобразие искусства каждого народа, основанной на своей самобытной истории, своих нравственных критериев и идеалов.

И полноценное использование богатейшего многовекового потенциала феномена искусства в сближении Древней Руси и Средней Азии, в частности культур Узбекистана и России – задача передовых людей общества.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Абдуллаев С. Ф., Муродова М. Х. Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению //Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2 (81). – С. 21-24.
2. Абдуллаев С. Ф., Умарова С. М. СКЕТЧ–ЗАРИСОВКИ КАК ИННОВАЦИОННОЕ НАПРАВЛЕНИЕ В ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА: //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 10. – С. 85-88.
3. Абдуллаев С. Ф. Формы организации самостоятельного образования студентов направления изобразительное искусство и инженерная графика //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 271-273.
4. Абдуллаев С. Ф. Муродова Муясар Хикматовна Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению //Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2. – С. 81.
5. Абдуллаев С. С. РОЛЬ И МЕСТО ТРАДИЦИОННОГО НАРОДНОГО ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ХУДОЖЕСТВЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 215-225.

O‘ZBEKISTON YOSH DIZAYNERLARINING IJODIDA INNOVATSIYA VA MILLIYLIK

[1]Rajabova Laylo O‘tkir qizi, [2]Xidayatova Bahoroy Azimjon qizi, [3]Ziyodullayeva Malika Jamoliddin qizi

[1]San’atshunoslik fakulteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi

[2,3]Dizayn:Libos va gazlamalar yo‘nalishi 1 – bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17422003

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston yosh dizaynerlarining ijodiy faoliyati, ularning ishlarida milliylik va zamonaviy innovatsion g‘oyalar uyg‘unligi tahlil qilinadi. Asarda yosh dizaynerlarning an’anaviy naqshlar, ranglar va shakllardan ilhomlanib, ularni zamonaviy moda talablariga moslashtirishdagi mahorati yoritiladi. Shuningdek, dizayn sohasida raqamli texnologiyalar, ekologik yondashuv va yangi materiallardan foydalanish jarayonlari o‘rganiladi. Maqola yosh avlod dizaynerlarining milliy qadriyatlarni asrab-avaylab, ularni global moda sahnasiga olib chiqish yo‘lidagi ijodiy izlanishlariga bag‘ishlanadi.*

Kalit so‘zlar: *libos dizayni, innovatsiya, milliylik, moda, texnologiya, yosh dizaynerlar, an’ana, zamonaviylik.*

Аннотация. *В статье анализируется творческая деятельность молодых дизайнеров Узбекистана, сочетание национализма и современных инновационных идей в их работах. В работе подчеркивается мастерство молодых дизайнеров в адаптации традиционных узоров, цветов и форм к требованиям современной моды, вдохновленной ими. Также рассматриваются процессы использования цифровых технологий, экологического подхода и новых материалов в сфере дизайна. Статья посвящена творческим поискам молодых дизайнеров в сохранении национальных ценностей и их продвижении на мировой модной сцене.*

Ключевые слова: *дизайн одежды, инновации, национальность, мода, технологии, молодые дизайнеры, традиции, современность.*

Abstract. *This article analyzes the creative activity of young designers of Uzbekistan, the combination of nationalism and modern innovative ideas in their work. The work highlights the skill of young designers in adapting traditional patterns, colors and shapes to modern fashion requirements, inspired by them. It also studies the processes of using digital technologies, an ecological approach and new materials in the field of design. The article is devoted to the creative research of young designers in preserving national values and bringing them to the global fashion scene.*

Keywords: *clothing design, innovation, nationality, fashion, technology, young designers, tradition, modernity.*

Bugungi kunda dunyo modasi tobora jadal rivojlanib borayotgan bir davrda O‘zbekiston yosh dizaynerlari ham o‘z iste’dodi, ijodiy g‘oyalari va milliy ruhdagi ishlari bilan ajralib turibdi. Ularning ijodida eng e’tiborga molik jihat — milliylik va innovatsiya uyg‘unligidir. Ya’ni, ular nafaqat o‘z xalqining boy madaniy merosini asrab-avaylamoqda, balki uni zamonaviy moda olamiga yangi texnologiyalar, ilg‘or uslublar va ijodiy yondashuvlar bilan olib kirishmoqda.

Har bir dizayner uchun muhim maqsad — o‘z ijodi orqali millat ruhini ifodalash, o‘ziga xos uslub yaratish va uni dunyo miqyosida tanitishdir. Shu jihatdan O‘zbekiston yosh dizaynerlari so‘nggi yillarda xalqaro moda ko‘rgazmalarida, tanlovlarda va festivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, milliy dizayn maktabining shakllanishiga katta hissa qo‘shmoqdalar.

Milliylik har qanday san’at turining asosi hisoblanadi. O‘zbekiston libos madaniyati qadimiy tarixga ega bo‘lib, unda xalq urf-odatlari, e’tiqodi, turmush tarzi va tabiat manzaralari mujassamdir. Atlas, adras, bekasam kabi matolar, gul naqshlari, milliy bezaklar, ko‘k va oltin rang uyg‘unligi — bularning barchasi o‘zbek libos dizaynining ajralmas belgilaridir.

Yosh dizaynerlar bu merosni zamonaviy moda tili orqali qayta talqin qilmoqdalar. Masalan, milliy matolardan tayyorlangan zamonaviy kesimdagi kostyumlar, atlas va adrasdan ishlangan poyafzallar, hattoki aksessuarlar bugungi moda yo‘nalishida milliylikni zamon bilan uyg‘unlashtirishning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Innovatsiya — bu yangilik, ijod va o‘zgarishlar demakdir. Hozirgi yosh dizaynerlar an’anaviy san’atni saqlagan holda, zamonaviy texnologiyalarni dizayn jarayoniga tatbiq etmoqdalar. Raqamli bosma texnologiyalari, 3D modellashtirish, ekologik toza materiallardan foydalanish, qayta ishlangan tolalardan mato tayyorlash kabi yo‘nalishlar bu sohada dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, yosh ijodkorlar barqaror moda (sustainable fashion) g‘oyasiga katta e’tibor qaratishmoqda. Bu — tabiatga zarar yetkazmaydigan, uzoq muddatli, sifatli va ekologik toza liboslar yaratish demakdir. Shu orqali ular nafaqat moda, balki ekologiya muammolariga ham e’tibor qaratayotganlarini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston yosh dizaynerlari so‘nggi yillarda xalqaro moda haftaliklarida faol ishtirok etishmoqda. Ularning ijodida milliy naqshlar, zamonaviy kesimlar va innovatsion g‘oyalar uyg‘unligi dunyo jamoatchiligi tomonidan e’tirof etilmoqda.

Masalan, Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarimizda o‘tkazilayotgan “Uzbek Fashion Week”, “Style.uz”, “Tashkent Fashion & Art Week” kabi tadbirlar yosh dizaynerlar uchun o‘z ijodini namoyish etish va tajriba almashish maydoniga aylangan.

Bu yoshlar orasida ijodida milliylikni chuqur his qilgan holda yangicha uslub yaratgan dizaynerlar ko‘p. Ular o‘z asarlarida nafaqat milliy qadriyatlarni targ‘ib etadilar, balki ularni zamonaviy estetikaga moslab, global auditoriyaga tanitmoqdalar.

Dizayn san’ati — bu faqat kiyim yaratish emas, balki estetik qadriyatlar tizimini shakllantirishdir. O‘zbekiston dizaynerlari o‘z ishlarida xalq ruhini, o‘zlikni, milliy o‘ziga xoslikni his etadigan obrazlar yaratadilar. Shu bilan birga, ular liboslar orqali zamonaviy ayol obrazini — kuchli, mustaqil, ammo o‘z millatiga sodiq shaxs sifatida tasvirlaydilar.

Milliy ranglar, bezaklar, naqshlar zamonaviy dizayn konsepsiyasida yangicha talqin etilmoqda. Misol uchun, qadimiy suzani naqshlaridan ilhomlanib tayyorlangan zamonaviy liboslar, naqshli matolardan yaratilgan sport kiyimlari yoki zamonaviy aksessuarlar — bu milliylikning yangicha talqinidir.

Xulosa

O‘zbekiston yosh dizaynerlari bugungi kunda milliy qadriyatlarni asrab-avaylab, ularni innovatsion g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi yo‘nalish yaratmoqdalar. Ularning ijodida milliylik va zamonaviylik o‘zaro boyituvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Yosh dizaynerlar nafaqat kiyim yaratmoqda, balki millat ruhini, madaniyatini va o‘zligini jahon modasiga olib chiqayotgan san’atkorlardir. Shu sababli, ularning ijodini qo‘llab-

quvvatlash, ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajriba almashuvini kuchaytirish O‘zbekiston dizayn sohasining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirsoatova, L. (2023, December). PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERI HAMKORLIGI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
2. Мирсоатова, Л. Ў. (2023). Интеграция Средств Компьютерной Графики В Образовательные Стандарты И Курсы Развития Навыков Самостоятельного Обучения. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, *1*(8), 72-76.
3. Султанов ХЭ, Бойназарова НХ, Бердиев ДА, Мирсоатова ЛЎ, Маматкаримова МТ. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишнинг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти. Yangi o ‘zbekistonda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari/may. 2022 May 20:613-20.
4. Mirsoatova, L. (2022). USE OF INNOVATIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’CREATIVE ABILITIES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *3*(01), 45-49.
5. Султанов, Х. Э., & Мирсоатова, Л. У. (2021). МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, *2*(5), 1240-1247.
6. Baymetov, B. B., & Misoatova, L. (2021). DEVELOPMENT OF CREATIVITY AND IMAGINATION OF SCHOOLCHILDREN IN FINE ARTS CLASSES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, *2*(05), 55-61.
7. Baymetov, L. M. B. B. (2020). Theory and methods of depicting the human body in higher pedagogical education. 2020/11" Science and Education. *Scientific Journal*, *1*(8), 467-475.
8. Baymetov, B., & Sharipjonov, M. (2021). OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA INSON QIYOFASINI AMALIY TASVIRLASH JARAYONIDA IJODIY KOMPYETYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*(3), 1066-1070.

BO‘LAJAK TASVIRIY SA’NAT O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA PLENER AMALIYOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Ibragimov Xurshid Xasanovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422015

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida plener amaliyotining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tabiat go‘zalligini kuzatish, yorug‘lik va rang uyg‘unligini to‘g‘ri idrok etish, atrof-muhit bilan bevosita muloqotda bo‘lish rassomning badiiy tafakkurini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi.*
Kalit so‘zlar: *plener, tasviriy san’at, manzara janri, tabiat go‘zalligi, badiiy tafakkur, rang uyg‘unligi, ijodiy ko‘nikma, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagog-rassom.*
Аннотация: *В данной статье раскрываются роль и значение пленэрной практики в процессе подготовки будущих преподавателей изобразительного искусства. Наблюдение за красотой природы, правильное восприятие света и цветовой гармонии, а также непосредственное общение с окружающей средой рассматриваются как одни из основных факторов формирования художественного мышления художника.*
Ключевые слова: *пленэр, изобразительное искусство, жанр пейзажа, красота природы, художественное мышление, цветовая гармония, творческие навыки, будущий преподаватель, педагог-художник.*
Abstract: *This article highlights the role and significance of plein-air practice in the process of training future teachers of fine arts. Observing the beauty of nature, correctly perceiving light and color harmony, and direct interaction with the environment are interpreted as key factors in developing an artist’s creative thinking.*
Keywords: *plein air, fine arts, landscape genre, beauty of nature, artistic thinking, color harmony, creative skills, future teacher, art educator.*

Tabiat go‘zalligi uning takrorlanmasligi o‘ziga xosdir. Quyosh nuri va atrofimizni o‘rab turgan muhit (ranglar) bo‘yoqlar garmoniyasining bitmas-tuganmas manbaidir. Tabiatning insonga chuqur ta’siri, uning inson xissiyotiga, tafakkuriga ta’siri, tasviriy san’atda manzara janrining vujudga kelishiga turtki bo‘ldi.

Manzara janrida yaratilgan tasviriy san’at asarlari bilan tanishish inson ruhiy dunyosini mustahkamlaydi, ichki olamini boyitadi. Tabiat go‘zalligini haqqoniy tasvirlash, unga nisbatan rassom munosabatini belgilaydi, manzara janri inson hissiyotini tarbiyalashning muxim omili xisoblanadi.

Tabiatni o‘rganish va professional mahoratni rivojlantirish, manzarachi-rassomning shakllanishida o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Manzara tasvirlashga ijodiy yondashish, tabiatda bevosita olingan ta’surotlarga, undan kuzatuvlar natijalariga asoslanadi. Tabiat bilan uzoq muddat muloqotda bo‘lish bilan rassomda manzara kompazitsiyasining g‘oyasi tug‘iladi, uning ko‘rinishi shakllanadi. Mashhur rassomlardan biri shunday degan edi: “Etyudlar ustida ishlash – bu eng yuqori maktab hisoblanadi”. Shu bois manzara rangtasviri, manzara

qalamtasvirini bajarishga o‘rgatish, manzarachi rassom tarbiyalashning asosiy va muhim omili xisoblanadi, rangtasvir kursini asosiy bo‘limidir.

Plener o‘zi nima? Plener so‘zi fransuzchadan olingan bo‘lib «plien air» - ya’ni “erkin havo” ma’nosini anglatib, ochiq havoda bajarilgan tasviriy san’at asarlarini nazarda tutadi. Plenerda etyud bajariladi, xona ichida etyud bajarishdan biroz farq qiladi.

Yorug‘likning ko‘pligi, reflekslarning xilma-xilligi manzaradagi ob’ektlarni katta uzoqlikda joylashishi, yorug‘lik manbaining tez o‘zgarishi, uning tabiat holatiga, yil fasliga bog‘liqligi – bularning hammasi yangi va noodatiy sharoit tajribasiga ega bo‘lmagan manzarachi rassomga oldidan bajariladigan jarayonni murakkablashtirib yuboradi.

Manzara etyudining asosiy yutuqlari – tabiatning ma’lum bir holatdagi yoritilishi, havo muhiti va fazoviy kenglik shular jumlasidandir. Bularning barchasini tasvirlashda rassom bo‘yoqlar orqali rang munosabatlarini ko‘rib chiqish bilan erishadi. Rassomning professional maxoratini shakllantirish ushbu qo‘llanmaning mazmunini tashkil etadi.

Plener amaliyotining mohiyatini, malakalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan mashq va mashg‘ulotlar turkumi tashkil etilgan. Bunda o‘quv kompozitsiyalarini yaratishda yoki bajarishning o‘ziga xosliklaridan iborat, ular talabalarga ijodiy muammolarni mustaqil ravishda hal etishga tayyorlashni maqsad qilib qo‘ygan.

Bizgacha yetib kelgan madaniyat va san’at yodgorliklari shu narsaga guvohlik beradiki, qadimgi dunyo odamlari juda qadim zamonlardan tabiatni tasvirlashga harakat qilganlar. Ma’lumki, qadimgi misrlik rassomlar amarn davridan boshlab odamlarni, jonivorlar va hayvonlarni, saroy turmush tarziga oid syujet motivlarni tasvirlaganlar. (XV asr oxiri - XIV asr boshlarida eramizdan avvval) manzaraning gullari va daraxtlari kabi elementlari etrusk rassomlarining bezaklarida uchratish mumkin (VI asr e.a.).

Uyg‘onish davri rassomlari plener rangtasviri rivojlanishiga o‘zlarining buyuk hissalarini qo‘shdilar. Avvalo, ular rangtasvirining nazariy asoslarini yaratish yo‘lida shu sohaga oid ilk ilmiy asarlar yozib qoldirdilar. Antik davr madaniy merosiga murojaat etish bilan birga o‘zlarining kuzatishlari natijalariga suyangan holda Uyg‘onish davri rassomlari borliqni haqqoniy tasvirlashda uning nazariyasi va amaliyotini boyitdilar, hajmni tasvirlash, fazoni, nur, odam gavdasini tasviri, borliq muxit – interyer, manzara sohalariga anchagina o‘zgartirishlar kiritdilar.

Tabiat holatlarini kuzatish, qalamchizgilar va etyudlar ishlash, tabiatni o‘ziga xos holatini kuzatib borish, rangtasvirchi rassomning tayyorlash, voyaga yetkazishning muhim sharti hisoblangan.

Naturadan etyudlar ishlashni nafaqat manzarachi rassomlar ijodiy amaliyotning muhim omilidir, XVIII asr tarixiy janr rassomlarining ham asosiy mashg‘ulotlariga aylandi. Ular tasvirlarni shartli bajarish uslubini yengib, bu davrda manzaralar shu uslubda bajarilar edi, rangtasvirni realistik yo‘nalishda rivojlanishiga katta xissa qo‘shdilar, borliqni obyektiv, haqqoniy tasvirlashga harakat qildilar.

Shunday qilib, plener rangtasviri vujudga kelish jarayonida g‘arbievropa san’atida plener rivojlanishining uchta asosiy yo‘nalishi yaqqol bajariladi: 1) tabiatni o‘rganishda rangtasvirda ijodiy amaliyot mukammallashtirish; 2) haqqoniy rangtasvir nazariyasining shakllanishi; 3) manzara san’ati rivojlanishining asosiy uslubiy ishlanmalari.

Jahon tasviriy san’atida plener XIX asrda yashab ijod etgan ingliz rassomi D. Konstebl plener rangtasviri nazariyasi va amaliyoti rivojlanishida o‘ziga xos o‘ringa egadir. Uning shaxsiy tajribasi, manzara janriga qo‘shgan ulushi, plener soxasi rivojiga oid

tavsiyanomalari hozirgi kunlarda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Konstebl mahoratini doimo charxlab borgan, etyudlar va qoralamalar bajarish bu soxada uning asosiy mashg‘uloti bo‘lgan.

O‘zbek milliy tasviriy san’atida plener rangtasvirining vujudga kelish, o‘rta asrlarda keng rivojlangan miniatyura san’atida uchratishimiz mumkin. Bu tasvirlarda biz tabiat ko‘rinishlarining shartli ravishda ijro etilganini, daraxtlar, ariqlar, tog‘lar, jonivorlar va odamlarni ma’lum qonuniyatlar asosida bajarilganligini ko‘ramiz. Miniatyura san’atining o‘ziga xos estetikasi, tasvir tili mavjud bo‘lib unda tasvirlangan obyektlar shartli ravishda bajarilar edi.

Keyingi davrlarda ijod qilgan buyuk manzarachi rassomlardan O‘.Tansiqboev ijodining asosini ham plener tashkil etadi. Uning manzaralari keng planli bo‘lib, yurtimiz tog‘lari, daryolari, vohalarini tasvirlar ekan, ularning rang koloritini moxirona belgilaydi. Ijodining boshlarida shartli izlanishlarga asoslangan bo‘lsa, keyingi paytlardagi manzara asarlarida realistik rangtasvir prinsiplarini rivojlantirib moxirona rang gammasiga erishdi. Plener rangtasvirida o‘z o‘rniga ega bo‘lish bilan birga bir qator bir-biriga o‘xshamagan manzara asarlari qoldirdi. “Mening qo‘shig‘im” asari O‘zbekiston manzarachiligiga bag‘ishlangan o‘ziga xos madhiya desa xato bo‘lmaydi.

Plener mashg‘ulotlari talabalarning mustaqil fikrlashini, ijodiy izlanishlarini faollashtiradi, ularni tabiat bilan bevosita muloqotda bo‘lishga undaydi. Shuningdek, ochiq havoda ishlash shaxsiy dunyoqarashni kengaytiradi, tasviriy tahlil, rang munosabatlari va kompozitsion yechim topish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Ta’lim jarayonida plener amaliyotining to‘g‘ri tashkil etilishi bo‘lajak pedagoglarda kasbiy mahorat, sabr, aniqlik va ijodiy yondashuv kabi fazilatlarni shakllantiradi. Natijada, ular kelajakda o‘z o‘quvchilariga san’atning estetik go‘zalligini chuqur his etishni o‘rgata oladigan malakali o‘qituvchilarga aylanadi.

Shunday qilib, plener amaliyoti tasviriy san’at ta’limida nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki ruhiy va estetik tarbiyani ham shakllantiruvchi muhim bosqichdir. U bo‘lajak o‘qituvchilarni san’atni qalb bilan his etadigan, o‘z ijodiy tajribasi orqali boshqalarga ilhom beradigan shaxs sifatida tayyorlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adxamova, O. R. (2023). *Tasviriy san’at fanini talabalarga o‘qitishda kreativ metodlar.* International Innovation in the World of Science, 1(23), 125–130
2. Xudoyberdiyev, P. (2023). *Tasviriy san’atni o‘qitishning pedagogik mahorati.* Musiqa va san’at, 4(2), 45–51.
3. Abdirasilov, S. F. (2020). *Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi.* Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti nashriyoti. Retrieved from https://akbt.urdu.uz/uz/books/6053
4. Xurshid Xasanovich Ibragimov (2023). O‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatini plenerda tashkil etish orqali rivojlantirish. Academic research in educational sciences, 4 (10), 93-99.
5. Ibragimov, X. (2023). Rangtasvir fanida nazariya va plener amaliyoti uyg‘unligining didaktik imkoniyatlari. *International scientific and practical conference on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”*, *1*(01).
6. X.H. Ibragimov (2024). Rangtasvir fanidan talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish usullari. Inter education & global study, (9 (1)), 243-249.

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA RAQAMLI INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Qobiljonova Jasmina Jasur qizi
JDPU Tasviriy san'at mutaxassisligi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422030

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasviriy san'at ta'limi tizimiga raqamli innovatsiyalarni joriy etishning ilmiy-metodik asoslari keng yoritilgan. Unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli vositalar va virtual muhitlar tasviriy san'at ta'limining mazmuni, shakl va metodlarini yangilashdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada raqamli texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini individuallashtirish, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tasviriy san'at darslarida "raqamli pedagogika" tamoyillari, multimediya platformalari, sun'iy intellekt va virtual reallik kabi innovatsion vositalardan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli innovatsiyalar tasviriy san'at ta'limining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning vizual tafakkurini rivojlantirish hamda raqamli madaniyatni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada tasviriy san'at o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar, raqamli texnologiyalarni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish mexanizmlari hamda ijodiy ta'lim muhitini yaratish yo'llari taklif etiladi. Natijada, tasviriy san'at darslarining raqamli transformatsiyasi zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at ta'limi, raqamli innovatsiyalar, ilmiy-metodik asos, raqamli pedagogika, sun'iy intellekt, virtual reallik, interaktiv o'qitish, ijodiy kompetensiya.*

Abstract: *This article provides a comprehensive overview of the scientific and methodological foundations of introducing digital innovations into the visual arts education system. It analyzes the role of modern information and communication technologies, digital tools, and virtual environments in updating the content, forms, and methods of visual arts education. The article pays special attention to the issues of individualizing the learning process using digital technologies, establishing interactive cooperation between teachers and students, and developing creative competencies. It also scientifically substantiates the effectiveness of using innovative tools such as the principles of "digital pedagogy", multimedia platforms, artificial intelligence, and virtual reality in visual arts lessons. According to the results of the study, digital innovations are an important factor in increasing the effectiveness of visual arts education, developing students' visual thinking, and forming a digital culture. The article offers methodological recommendations for visual arts teachers, mechanisms for integrating digital technologies into educational content, and ways to create a creative learning environment. As a result, the digital transformation of visual arts lessons is scientifically and methodologically justified as an integral part of the modern educational process.*

Key words: *fine art education, digital innovations, scientific and methodological foundation, digital pedagogy, artificial intelligence, virtual reality, interactive learning, creative competence.*

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni barcha fanlar singari tasviriy san’at yo‘nalishida ham tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirish, vizual fikrlashni rivojlantirish, mustaqil ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli innovatsiyalar — bu ta’lim jarayoniga ilg‘or texnologiyalar, dasturiy vositalar, multimediya resurslari, interaktiv platformalar va virtual muhitlarni tatbiq etish orqali o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan yangicha yondashuvdir. Ular o‘qituvchining metodikasini takomillashtiradi, o‘quvchi faoliyatini faollashtiradi hamda o‘quv jarayonini individuallashtirishga imkon yaratadi.

Raqamli innovatsiyalarni san’at darslariga joriy etish — bu an’anaviy o‘qitish usullarini to‘liq inkor etish emas, balki ularni raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirishdir. Shuning uchun ham raqamli texnologiyalarning metodik asoslarini o‘rganish, ularni to‘g‘ri qo‘llash yo‘llarini aniqlash hozirgi kunda pedagogik ilm-fan oldidagi dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar san’at ta’limining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Agar ilgari san’atni o‘rgatish asosan an’anaviy usullar – qalam va bo‘yoqlar, cholg‘u asboblari, sahna ko‘rinishlari orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy san’at darslarida kompyuter texnologiyalari keng jalb qilinmoqda. [1] Tasviriy san’at ta’limida raqamli innovatsiyalarni qo‘llash o‘quvchilarni raqamli dunyo bilan uyg‘unlashtirish, ularni ijodiy fikrlovchi, raqamli madaniyatga ega shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Masalan, ilg‘or davlatlar ta’lim tizimida “Digital Art Education”, “STEAM Art” va “Smart Creative Learning” kabi dasturlar san’at darslarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu yondashuvlar san’atni faqat badiiy faoliyat sifatida emas, balki texnologik, vizual va kognitiv kompetensiyalarni birlashtiruvchi tizim sifatida qaraydi.

Bugungi kunda raqamli innovatsiyalar nafaqat rasm chizish jarayonida, balki san’at asarlarini tahlil qilish, rivojlantiruvchi o‘yinlar, 3D-modellashtirish, grafik dizayn, animatsiya va multimedia loyihalarini yaratish jarayonida ham keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, bunday vositalar o‘qituvchiga o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Zamonaviy metodlardan interaktiv, pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llanilishi kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarga faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. [1]

Shu tariqa, zamonaviy raqamli texnologiyalar tasviriy san’at ta’limida mustaqil fikrlovchi, tahlilchi va ijodkor shaxsni shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv o‘quvchining faqat bilim oluvchilik rolidan chiqib, san’atni izlovchi va yaratuvchi shaxs darajasiga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Tasviriy san’at darslarida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish, asosan, o‘qituvchining mahoratiga, ilmiy-ijodiy tafakkurining kuchli, serqirra, zamonaviy bo‘lishiga va tashabbuskorligiga bog‘liq bo‘ladi. Agar o‘qituvchi o‘z kasbini, fanini yaxshi bilib, uni seva olsa, u albatta, ijodkor bo‘lib, har bir yangilikdan foydalanishga astoydil kirishadi. Bunday o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyatini o‘rganib, uni o‘zining

pedagogik faoliyatiga olib kiradi. [3] Tasviriy san'at darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil etishning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va san'atga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois, o‘qituvchilar darslarni rejalashtirishda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanishlari va ularni o‘quv jarayoniga samarali joriy etishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at darslarida raqamli innovatsiyalarni joriy etish – bu nafaqat texnologik yangilanish, balki o‘qitish jarayonining ilmiy-metodik transformatsiyasidir. Darslarda raqamli texnologiyalarni joriy etish amaliy ishlarni chetga surib qo‘yish degani emas, balki yangi davada darslarni samarali tashkil etishning yangi usullaridir. Bo‘lajak rassomlar nafaqat real tekislikda, balki vizual muhitda ham ijod qila olsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini shakllantiradi, ularning vizual tafakkurini kengaytiradi hamda san’atni zamonaviy raqamli muhitda anglashga yordam beradi. Kelgusida san’at o‘qituvchilarining raqamli savodxonligini oshirish, innovatsion metodikalarni ishlab chiqish va raqamli kontent yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarur. Shunda raqamli texnologiyalardan nafaqat o‘qituvchilar dars jarayonida zamonaviy metodlar qo‘llashda foydalanadilar, balki o‘quvchilar ham ularning yordamida o‘z ijodiy g‘oyalarini raqamli muhitda ifoda etish, san’at asarlarini tahlil qilish, yangi badiiy yechimlar topish hamda mustaqil tarzda o‘rganish va o‘z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ya’ni, raqamli texnologiyalar tasviriy san’at ta’limida ikki tomonlama jarayonni ta’minlaydi — o‘qituvchi uchun innovatsion metodik vosita, o‘quvchi uchun esa ijodiy o‘sish va o‘zini namoyon etish maydoniga aylanadi. Chunki raqamli innovatsiyalar — bu kelajak san’at ta’limining poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.X.Xamidov- “San’at va pedagogik ta’limda an’anaviy qadriyatlar hamda innovatsion texnlogiyalar integratsiyasi” ZAMONAVIY TASVIRIY-PEDAGOGIK TA'LIMDA AN'ANA VA INNOVATSIYALAR: IZLANISHLAR VA YECHIMLAR xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Buxoro – 2025, 4-bet.
2. S.F.Abdirasilov- “Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi” «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2011-y, 78-bet.
3. B.N. ORIPOV-Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnlogiyasi, didaktikasi va metodikasi, Toshkent - «ILM ZIYO» - 2013, 24-25-bet.

TASVIRIY SAN’AT – INSON QALBINING TILI

[1]Rajabova Laylo O‘tkir qizi, [2]Choriyeva Madina Elbekovna, [3]Mirsoliqova Aziza Begali qizi
[1]San’atshunoslik fakulteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi, [2,3]Dizayn:Libos va gazlamalar yo‘nalishi 1 – bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422039

Annotatsiya. *Ushbu matnda tasviriy san’atning inson qalbidagi o‘rni, uning his-tuyg‘ularni ifodalashdagi ahamiyati yoritilgan. San’at asarlarining ma’naviy va estetik tarbiyada tutgan o‘rni, inson ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri haqida fikr yuritiladi. Rassomlar ijodi misolida san’at orqali inson ichki dunyosini ochish, go‘zallikka intilish va san’at tilini qalb bilan his etish g‘oyalari ilgari surilgan.*
Kalit so‘zi: *Tasviriy san’at, San’at va his-tuyg‘u, Estetik tarbiya, Rassomlik, Inson qalbi, Go‘zallik, Ijodiy ifoda, Ranglar tili, Ma’naviyat, Bolalar tarbiyasi.*

Аннотация. *В тексте рассматривается место изобразительного искусства в душе человека, его значение в выражении чувств. Обсуждается роль произведений искусства в духовно-эстетическом воспитании, их влияние на психику человека. На примере творчества художников выдвигаются идеи раскрытия внутреннего мира человека через искусство, стремления к красоте и постижения языка искусства сердцем.*
Ключевые слова: *изобразительное искусство, искусство и чувства, эстетическое воспитание, живопись, душа человека, красота, творческое самовыражение, язык цвета, духовность, воспитание детей.*

Abstract. *This text discusses the place of fine arts in the human soul, its importance in expressing feelings. The role of works of art in spiritual and aesthetic education, the impact they have on the human psyche are discussed. Using the example of artists' work, the ideas of opening the inner world of man through art, striving for beauty, and feeling the language of art with the heart are put forward.*
Keywords: *Fine arts, Art and feelings, Aesthetic education, Painting, Human soul, Beauty, Creative expression, Language of colors, Spirituality, Child education.*

Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida san’at ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Tasviriy san’at esa bu jarayonning eng qadimiy va ta’sirchan shakllaridan biridir. U inson tafakkurining, his-tuyg‘ularining, estetik qarashlarining timsoli sifatida insoniyat madaniyatida beqiyos o‘rin tutadi. Tasviriy san’at orqali inson o‘z ichki kechinmalarini, dunyo haqidagi tasavvurlarini, shuningdek, go‘zallikka bo‘lgan ehtiyojini ifoda etadi. Bugungi kunda san’at

shunchaki estetik hodisa emas, balki shaxs va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaralmoqda.

Tasviriy san’at insoniyat tafakkurining rivojlanishida asosiy o‘rin egallagan. Dastlabki tosh davriga oid devoriy rasmlar insonning tashqi muhitni anglashga, uni tasvir orqali qayta ifodalashga bo‘lgan tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqan. Shundan boshlab san’at inson ruhiyatining ajralmas qismiga aylandi. Inson o‘z ichki dunyosini, quvonch va iztiroblarini, orzu va intilishlarini ranglar orqali ifoda

etadi. Tasviriy san’atning o‘ziga xosligi shundaki, u til, millat va davr chegaralarini bilmaydi — u butun insoniyat uchun tushunarli bo‘lgan his-tuyg‘ular tilidir.

Har bir san’at asari rassomning dunyoni idrok etish usulini aks ettiradi. Tasviriy san’atda chiziq, rang, kompozitsiya, yorug‘lik va soya kabi elementlar nafaqat tashqi shaklni, balki ma’no va hissiy mazmunni ham ifodalaydi. Masalan, sovuq ranglar – sokinlik va iztirobni, iliq ranglar esa quvonch va hayotni ifoda etadi. Bu jihatdan san’at – bu so‘zsiz muloqot vositasi bo‘lib, u tomoshabinni ruhiy

jihatdan ta’sirlantiradi. Rassomlik inson tafakkurining noan’anaviy shaklini namoyon etadi, u tahlil emas, balki his orqali idrok etiladigan haqiqatni ifodalaydi.

Tasviriy san’at insonda estetik did, sabr-toqat, kuzatuvchanlik va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Ayniqsa, yosh avlodni san’atga jalb etish orqali ularning ma’naviy dunyosini boyitish mumkin. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at bilan muntazam shug‘ullangan o‘quvchilarda hissiy barqarorlik, go‘zallikka intilish, ijodiy fikrlash kabi fazilatlar shakllanadi. San’at insonni yovuzlikdan, qo‘pollikdan uzoqlashtirib, unga ruhiy osoyishtalik bag‘ishlaydi. Shu bois san’at ta’limi — zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas bo‘g‘inidir.

O‘zbek tasviriy san’ati chuqur tarixiy ildizlarga ega. Buyuk rassom Kamoliddin Behzod ijodi Sharq miniatyura san’atining cho‘qqisiga aylangan. U o‘z asarlarida inson qiyofasi, tabiat va ichki tuyg‘ularni nihoyatda nafis uslubda aks ettirgan. Behzod maktabi keyingi asrlarda ko‘plab iste’dodli rassomlar uchun ilhom manbai bo‘ldi. Zamonaviy davrda esa Chingiz Ahmarov, Rauf Tola, Akmal

Nur singari rassomlar o‘z asarlarida milliy ruhni, tarixiy obrazlarni va zamonaviylikni uyg‘unlashtirmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston san’atining jahon miqyosida tan olinishiga zamin yaratmoqda.

XXI asrda texnologik taraqqiyot tasviriy san’atning shakl va uslublariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli rassomlik, 3D dizayn, virtual va kengaytirilgan reallik asosidagi san’at turlari paydo bo‘ldi. Biroq bu yangiliklar san’atning mohiyatini o‘zgartirmaydi — u har doim inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi

vosita bo‘lib qoladi. Raqamli texnologiyalar rassomlarga yangi ijodiy imkoniyatlar yaratmoqda: ular endi vaqt va makon chegaralarisiz o‘z asarlarini dunyo auditoriyasiga taqdim eta oladilar. Zamonaviy san’atning asosiy maqsadi — inson va texnologiya o‘rtasidagi uyg‘unlikni estetik ifoda etishdir.

Tasviriy san’at — inson qalbining eng nozik tuyg‘ularini so‘zsiz ifodalay oladigan til. U insonni go‘zallikka oshno qiladi, tafakkurini yuksaltiradi va ma’naviy dunyosini boyitadi. Ilmiy nuqtai nazardan, san’at shaxsning estetik, intellektual va hissiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, tasviriy san’atni rivojlantirish, uni yosh avlodga singdirish — ma’naviyatli, madaniyatli va

ijodkor jamiyat qurishning muhim omilidir. Zero, san’at bor joyda ruh uyg‘onadi, inson esa o‘zining chin insoniy mohiyatini anglaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Mirsoatova, L. (2023, December). PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERI HAMKORLIGI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
2. Мирсоатова, Л. Ў. (2023). Интеграция Средств Компьютерной Графики В Образовательные Стандарты И Курсы Развития Навыков Самостоятельного Обучения. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, *1*(8), 72-76.

3. Султанов ХЭ, Бойназарова НХ, Бердиев ДА, Мирсоатова ЛЎ, Маматкаримова МТ. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишнинг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти. Yangi o ‘zbekistonda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari/may. 2022 May 20:613-20.
4. Mirsoatova, L. (2022). USE OF INNOVATIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’CREATIVE ABILITIES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *3*(01), 45-49.
5. Султанов, Х. Э., & Мирсоатова, Л. У. (2021). МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, *2*(5), 1240-1247.
6. 6.Baymetov, B. B., & Misoatova, L. (2021). DEVELOPMENT OF CREATIVITY AND IMAGINATION OF SCHOOLCHILDREN IN FINE ARTS CLASSES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, *2*(05), 55-61.
7. Baymetov, L. M. B. B. (2020). Theory and methods of depicting the human body in higher pedagogical education. 2020/11" Science and Education. *Scientific Journal*, *1*(8), 467-475.
8. Baymetov, B., & Sharipjonov, M. (2021). OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA INSON QIYOFASINI AMALIY TASVIRLASH JARAYONIDA IJODIY KOMPYETYENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*(3), 1066-1070.

MINIATYURA SAN’ATINING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI BOSQICHLARI

[1]Baxriyev Ilhomjon Saidazimovich, [2]Akramova Laylo Akmal qizi, [3]Azamatova Asal Xalim qizi

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi katta o‘qituvchisi [2,3]Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.17422052

Annotatsiya. *Ushbu maqolada miniatyura san’atining kelib chiqishi, shakllanish jarayoni va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Sharq miniatyura maktablarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning o‘zaro ta'siri hamda mashhur ustalar ijodi yoritiladi. Maqolaning maqsadi o‘zbek miniatyura an'analarining badiiy va estetik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Miniatyura san’atining milliy madaniyatdagi o‘rni va dolzarbligi asoslab beriladi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются происхождение, формирование и исторические этапы развития искусства миниатюры. Рассматриваются особенности восточных школ миниатюры, их взаимное влияние и творчество выдающихся мастеров. Цель статьи — раскрыть художественное и эстетическое значение узбекских традиций миниатюры. В результате исследования обоснованы роль и актуальность искусства миниатюры в национальной культуре.*

Annotation. *This article analyzes the origin, formation, and historical stages of the development of miniature art. It examines the characteristics of Eastern miniature schools, their mutual influence, and the creative works of prominent masters. The purpose of the article is to reveal the artistic and aesthetic significance of Uzbek miniature traditions. As a result of the study, the role and relevance of miniature art in national culture have been substantiated.*

Kalit so‘zlar: *Miniatyura, rang uyg‘unligi, kompozitsiya, ramziy, mazmun, Kamoliddin Behzod, Sharq san’ati, estetik, shakl, asar*

Kirish

Miniatyura san’ati insoniyat madaniyatining eng nozik, nafis, eng go‘zal va qadimiy turlaridan biridir. Miniatyura san’ati o‘zining aniqligi ranglar uyg‘unligi, nozik chiziqlar, mukammal kompozitsiyasi bilan boshqa san’at turlaridan ajralib turadi. Miniatyura so‘zi lotincha "minium"—"qizil bo‘yoq" sizdan olingan bo‘lib, dastavval o‘rta asrlarda qo‘lyozma, kitoblarni bezashda ishlatilgan. Keyinchalik bu atama fransuz tilida "miniature" shaklida qo‘llangan va shu tariqa keng tarqalgan hamda bu atama kitob sahifalarini bezash, mayda shakllarda chizilgan tasvirlar va nozik bezak san’atini ifodalash ma’nosini kasb etdi.

Miniatyura san’atida asosan tarixiy voqealar, diniy mavzular, tabiat manzaralari, kundalik hayot sahnalar tasvirlanadi. Tarixiy miniatyuralarda hukmdorlar, saroy hayoti, jang sahnalari nozik, lekin aniq tafsilotlar bilan tasvirlanadi. Diniy miniatyuralarda esa diniy marosimlar ifoda etiladi. Shuningdek tabiat manzaralari, bog‘lar, daryo va tog‘lar, hayvonlar va qushlar ham miniatyura san’atida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ularning har bir kichik detalgicha e’tibor qaratiladi. Kundalik hayot sahnalari aks etgan miniatyuralarda esa aholining shahar yoki qishloqdagi

kundalik hayoti tarzi, hunarmandchilik va milliy urf-odatlari, milliy liboslarni tasvirlashga e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari ayrim miniatyuralarda afsona, rivoyat va ertaklar, undagi qahramonlar va mavjudodlar ham tasvirlangan. Miniatyura asarlarida musavvir ranglar uyg‘unligi, har bir chizgiga alohida e'tibor bergan holda yaratadi. Shuningdek miniatyura faqat go‘zalligi va nafisligi uchungina emas, undagi ma’no va tarixiy voqealar va milliylikni o‘zida aks ettirishi bilan ham o‘ziga xosdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Miniatyura san’ati bo‘yicha mavjud adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalishda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar va olimlar o‘ziga xos nuqtai nazarlari va qarashlarini aytib o‘tishadi. O‘zbekiston olimlari va san’atshunoslari xususan, A. Karimov va A. Rasulov, Sh. Xolmatov kabilar va Kamoliddin Behzod, Ahmad Donish, Muhammad Murod Samarqandiy kabi buyuk ustalarning ijodini san’atning ichki tuzilishi va tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilgan. Ularning asarlarida miniatyuraning badiiy xususiyatlari—rang uyg‘unligi, chiziqlarning nafisligi, kompozitsion muvozanat va ramziy mazmun—bir necha jihatdan yoritilgan. Xorijiy tadqiqotchi va olimlar jumladan, G. Pugachenkova va R. Ettinghausen esa miniatyuraning keng tarixiy konteksti va sharq maktablarining o‘zaro ta'siri haqida o‘z asarlarida bayon qilishadi. A. Karimov Kamoliddin Behzod ijodidagi psixologik potret, tafsilotga e'tibor va kompozitsion yechimlar alohida ta’kidlagan. Bundan tashqari G. Pugachenkova miniatyura san’ati musavvirlari ranglar ramziyligiga va muayyan davrning estetik didiga urug‘u bergan. Miniatyura asarlarida badiiy elementlar rang, chiziq kompozitsiya va ramz—bir butun sifatida ishlaydi. Har bir element alohida ma'no berishi bilan birga, umumiy kompozitsiya orqali tarixiy va madaniy kontentni yetkazadi. A. Rasulov miniatyuraning tarixiy rivojlanishi va maktablari haqida keng ma’lumotlar bergan. Sh. Xolmatov Ramziy ma’no va diniy tasvirlarning estetik jihatlarini o‘rgangan.

Muhokama va natijalar

Miniatyura san’ati tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu san’at turi nafaqat estetik jihatdan mukammal, balki tarixiy, madaniy va falsafiy ma’noga boydir. Tadqiqot davomida tanlangan asarlar, jumladan Kamoliddin Behzod, Ahmad Donish va Muhammad Murod Samarqandiy ijodi tahlil qilindi. Ularning asarlarida rang uyg‘unligi, chiziqlarning nafisligi va kompozitsion muvozanat va ramziy mazmun bir butun sifatida ishlatilgan. Shu jihatlar miniatyura san’atini boshqa san’at shakllaridan ajratib turadi. Kamoliddin Behzod asarlarida obrazlarning psixologik ifodasi tafsilotga e'tibor alohida ahamiyatga egadir. Har bir detal chuqur mazmun bilan boyitilgan, ranglar tanlovi esa umumiy kayfiyatni aks ettiradi. Ahmad Donish ijodida ranglar yorqinligi va bezaklar murakkabligi, Ramziy ma’nolar aniq ifodalanganligi bilan ajralib turadi. Muhammad Murod Samarqandiy asarlarida esa kompozitsion muvozanat va chiziqlarning nozikligi bilan diqqatga sazovor bo‘lib, ular asarlarni yanada estetik ta’sirini kuchaytirgan. Har bir rassom o‘z davrining madaniy va estetik didini o‘z uslubida aks ettirgan.

Miniatyura davrlar bo‘yicha o‘zgarib, badiiy xususiyatlari rivojlangan. Xususan, Kamoliddin Behzod ijodida ranglar nafis va nazokatli, obrazlar tafsilotli bo‘lgan bo‘lsa, XIX asr miniatyuralarida ranglar yanada yorqinlashgan, bezaklar esa murakkablashgan. Xorijiy olimlar G. Pugachenkova va R. Ettinghausenning ta’kidlashicha miniatyura asarlaridagi badiiy elementlar—rang, chiziq, kompozitsiya va ramz —bir butun sifatida ishlaydi va ular san’at asarining umumiy mazmuni va ta’sirini belgilaydi. Shuningdek, o‘zbek olimlari va san’atshunoslari A. Karimov, A. Rasulov va Shu. Xolmatovning izlanishlari rassomlarning o‘ziga xos uslublari, tarixiy ahamiyatini yoritadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot miniatyura san’atining badiiy, tarixiy va madaniy ahamiyatini aniqlashga qaratildi. Tanlangan asarlar— Kamoliddin Behzod, Ahmad Donish va Muhammad Murod Samarqandiy ijodi— san’atning nozik va mukammal jihatlarini namoyon qiladi. Har bir asarda ranglar, chiziqlar va kompozitsiya bir butun sifatida ishlaydi, bu esa miniatyuraning o‘ziga xosligi va nafisligini oshiradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki miniatyura san’ati turli davrlar va maktablarda o‘ziga xos shakllarda rivojlangan. Olimlarning tadqiqotlari va izlanishlari rassomlarning uslubiy farqlari va tarixiy kontekstini yoritadi. Shu bilan birga miniatyura inson tafakkuri, estetik didi va madaniy me'rosini ifodalaydigan san’at turi ekanligi yana bir bor o‘z isbotini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. H. To‘raqulov. " O‘zbek miniatyura san’ati tarixi"—Toshkent. O‘zbekiston san’at nashriyoti. 2015.
2. R. Pardaev. " Kamoliddin Behzod va uning ijodiy me'rosi"— Toshkent 2018.
3. S. Rahmatullayev. "Sharq miniatyura san’atining rivojlanish bosqichlari"— Toshkent. 2012.
4. D. Karimova. "O‘zbek miniatyura maktablari: Buxoro, Hirot, Samarqand"—Toshkent. Yangi asr avlodi. 2020.
5. Бахриев, И. (2020). Ривоятларнинг санъат асарларидаги тутган урни ва унинг баркамол ёшларни тарбиялашдаги ахамияти. *Academic research in educational sciences*, (2), 286-295.
6. Султанов, Х. Э., Марасулова, И. М., Махмудов, М. Ж., & Бахриев, И. С. (2020). На пути совершенствования изобразительного искусства в непрерывном образовании: из опыта работы. *Academic research in educational sciences*, (4), 231-237.

TASVIRIY SAN’AT TA’LIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI VA ULARNING IJODIY SALOHIYATGA TA’SIRI

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich
Guliston davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik” kafedrasi v.b. dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422062

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasviriy san’at darslari, xususan, rangtasvir kompozitsiyasi mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida badiiy-estetik tarbiyaning o‘rni, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy texnologiyalar, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini aniqlash, ularni rivojlantirish va o‘quv jarayoniga individual, integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llash zarurati asoslab berilgan. Tasviriy san’at fani orqali estetik did, kompozitsion tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogik maqsad sifatida talqin etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, rangtasvir kompozitsiyasi, ijodiy salohiyat, pedagogik texnologiyalar, estetik tarbiya, integratsiyalashgan yondashuv, xorijiy tajriba, badiiy tafakkur, o‘quvchi shaxsiyati, mustaqil fikrlash.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические и практические основы развития творческого потенциала учащихся через уроки изобразительного искусства, с особым вниманием к занятиям по цветовой композиции. В контексте проводимых реформ в системе образования Узбекистана освещается роль художественно-эстетического воспитания, современных технологий, повышающих эффективность педагогического процесса, а также значимость передового зарубежного опыта. Исследование обосновывает необходимость выявления и развития индивидуальных способностей учащихся посредством интегрированного и персонализированного подхода к учебному процессу. Изобразительное искусство рассматривается как педагогическая задача формирования эстетического вкуса, композиционного мышления и навыков самостоятельного мышления.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, цветовая композиция, творческий потенциал, педагогические технологии, эстетическое воспитание, интегрированный подход, зарубежный опыт, художественное мышление, личность учащегося, самостоятельное мышление*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing students’ creative potential through visual arts lessons, with a particular focus on the practice of color composition. Within the context of ongoing reforms in the education system of Uzbekistan, the article highlights the role of artistic and aesthetic education, modern technologies that enhance the effectiveness of the pedagogical process, as well as the importance of advanced foreign experiences. The study substantiates the necessity of identifying and fostering students’ individual abilities by implementing an integrated and personalized approach to the learning process. Visual arts education is interpreted as a pedagogical objective for cultivating aesthetic taste, compositional thinking, and independent reasoning skills.*

Keywords: *visual arts, color composition, creative potential, pedagogical technologies, aesthetic education, integrated approach, foreign experience, artistic thinking, student personality, independent thinking.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida izchil islohotlar amalga oshirilib, ta’lim mazmuni va shaklini zamon talablari asosida takomillashtirish yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda ta’lim jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish nafaqat dolzarb vazifa, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ushbu islohotlar kontekstida tasviriy san’at fanining o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, rangtasvir kompozitsiyasi mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bunday mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar tasviriy san’atning estetik qonuniyatlarini o‘zlashtirish bilan birga, tasviriy ifoda vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar. Natijada, ularning ijodiy tafakkuri, badiiy didi hamda ongli estetik qarashlari rivojlanadi [1:32]. Shu bilan birga, rangtasvir mashg‘ulotlari o‘quvchilarning tasavvuri va tasviriy tafakkurini chuqurlashtirib, ularni mustaqil fikrlashga undaydi. San’at orqali fikr ifodalash, ranglar uyg‘unligini his qilish va obrazlar yaratish jarayoni o‘quvchilarning ichki dunyosini boyitadi hamda ularni san’atning chuqur ma’no-mohiyatini anglashga yo‘naltiradi [2:24]. Bu esa, o‘z navbatida, ularning nafaqat badiiy-estetik kompetensiyasini, balki ijtimoiy ongini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixida integratsiyaga asoslangan jarayonlar jamiyat rivojlanishining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Bu jarayonlar turli davrlarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sharoitlarga qarab shakllangan bo‘lsa-da, ularning mohiyati o‘zgarishsiz qolgan, ular har doim taraqqiyotning muhim omili sifatida xizmat qilgan [3:11]. Garchi zamon o‘zgarib, jamiyat yangilanib borsa-da, integratsiya tushunchasi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, globallashuv va xalqaro integratsiyalashuv kuchaygan hozirgi davrda bu omil yanada dolzarb tus olgan. Bunday sharoitda, ayniqsa, ta’limiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish zarurati esa, o‘z mohiyatiga ko‘ra, bir kunning ichida paydo bo‘lgan ehtiyoj emas. Bu masala insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, Uyg‘onish davridan boshlab ustuvor yo‘nalish sifatida qaralgan. Tarixan, jamiyatning barqaror rivojlanishi ko‘pincha tajriba va bilimlarning avloddan-avlodga uzatilishi orqali amalga oshirilgan. Ilk davrlarda zamonaviy sinf-dars tizimi mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, yosh avlodga bilim berish turli ijtimoiy faoliyatlar: mehnat, oila, ovchilik va tarbiya orqali yo‘lga qo‘yilgan. Bunda yoshlarning psixofiziologik xususiyatlari hisobga olingan holda ta’lim va tarbiya mazmuni shakllantirilgan.

Tarixiy manbalar ko‘rsatishicha, yoshlarning individual qobiliyatlariga asoslangan bunday yondashuvlar eramizdan avvalgi VI-V asrlarda, qadimgi Misr davridayoq mavjud bo‘lgan [4:4]. Bu davrlarda ham tasviriy san’atni o‘rgatishda o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan. Hatto eng qadimiy davrlarning o‘zida, badiiy hunarlarni egallash jarayonida shogirdlarning individual xususiyatlarini hisobga olish amaliyoti mavjud bo‘lgan.

Xususan, qadimgi Gretsiya va keyinchalik Yevropada Uyg‘onish davri mamlakatlarida tasviriy san’atni o‘qitish pedagogik fikrning markaziy masalalaridan biriga aylangan. O‘sha davrda rassom-ustozlar o‘z badiiy ustaxonalarida o‘quvchi-shogirdlar bilan qat’iy tartibda shug‘ullanganlar. Bunday tizimda shogird faqat bilim oluvchi emas, balki ustozining yordamchisi, ba’zan esa uning san’at yo‘nalishidagi davomchisi sifatida qaralgan. Ustozlar o‘z san’at asarlarini yaratish jarayonida qo‘llagan texnika va uslublarni shogirdlarga bevosita amaliyot orqali o‘rgatganlar. Bu yondashuv esa o‘quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb etish, amaliy tajriba orttirish va san’atga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda muhim metod hisoblangan.

Ayniqsa, Uyg‘onish davri rassomlari: Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo kabi san’atkorlar o‘z ijodiy jarayonlarida nafaqat nazariy yondashuvlarni ilgari surganlar, balki amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar bilan bevosita ishlashgan. Bunday mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar asar yaratilishining har bir bosqichini kuzatish, unga faol ishtirokchi sifatida jalb etilish imkoniga ega bo‘lganlar. Bu esa nafaqat ijodiy ko‘nikmalarning shakllanishi, balki o‘quvchining o‘zini san’atkor sifatida anglashida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Mazkur davrda yaratilgan yozma manbalarda ham ta’lim jarayonida ustoz va shogird o‘rtasidagi bevosita, jonli muloqotning o‘rni alohida ta’kidlangan. Jumladan, taniqli Uyg‘onish davri rassomi va pedagogi Chennino Chennini o‘zining mashhur “San’at haqida kitob” nomli asarida shunday deydi: “Ko‘pchilik tasviriy san’atni ustozsiz o‘rgandik desa, sen ularga aslo ishonma. Misol tariqasida shu kitobchani o‘qib chiq: kechayu-kunduz o‘qib o‘rgansang ham, ammo ustoz ko‘rmasang, o‘rganib-o‘qib bo‘lganingdan so‘ng ham sen ustozlar qatoridan joy ololmaysan” [5:76]. Chenninining ushbu fikridan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, sifatli ta’lim jarayoni uchun o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli va uzluksiz aloqaning mavjudligi zarurdir. Ayniqsa, tasviriy san’at singari amaliy jihatdan faol yondashuvni talab qiladigan fanlarda o‘qituvchi darsni nafaqat san’at qonun-qoidalariga tayangan holda olib borishi, balki har bir o‘quvchining individual va ijodiy xususiyatlarini inobatga olib, ta’lim jarayonini moslashtirib borishi lozim.

Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bu boradagi ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilar ekanmiz, ayniqsa AQSh va Fransiya ta’lim tizimlarida shakllangan yondashuvlar alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur mamlakatlarda XX asr boshlaridan boshlab interfaol ta’lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish orqali o‘quv jarayonining sifati sezilarli darajada oshirilgan. Bu texnologiyalar barcha fanlar bo‘yicha qo‘llanilgan bo‘lib, ular 5-sinfdan boshlab dars hamda darsdan tashqari mashg‘ulotlarga uzviy integratsiyalashgan.

Ushbu yondashuvlarning ilk namunalaridan biri sifatida amerikalik pedagog S.Vashburn tomonidan ishlab chiqilgan va ijodiy ta’limga yo‘naltirilgan loyiha ko‘rsatiladi. Mazkur modelga ko‘ra, o‘quvchilar kunning birinchi yarmida o‘qituvchining ko‘rsatmalariga asoslangan mustaqil topshiriqlarni bajaradilar, ikkinchi yarmida esa ular o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda kichik guruhlarga bo‘linib, amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishadi [6:40]. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi, balki ularda mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Shu kabi ijodiy yondashuvlar Fransiya umumiy o‘rta ta’lim tizimida ham samarali qo‘llanilmoqda. Fransuz pedagogikasi amaliyotida bunday metodlarning paydo bo‘lishiga asosiy sabab – an’anaviy dars shakllarining o‘quvchilarda yetarlicha bilim shakllantira olmasligi bilan bog‘liq deb qaraladi. Xususan, taniqli fransuz pedagogu R.Dottrens tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim dasturlarida o‘quvchilarning aqliy salohiyati, qiziqishlari, charchoqqa chidamliligi va

ijodiy yondashuvlari chuqur tahlil asosida inobatga olingan. Bu modelda o‘quvchilarga topshiriqlarni tanlashda muayyan erkinlik berilgan bo‘lib, ularning shaxsiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Dottrens tomonidan taklif etilgan yondashuv ikki asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Birinchi yo‘nalish – minimum darajadagi o‘quv dasturlari asosida barcha o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan universal ta’lim; ikkinchisi esa iqtidorli o‘quvchilar uchun murakkab va ijodiy topshiriqlar orqali ularning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Shu bilan birga, bilim olishda qiynalayotgan o‘quvchilar uchun maxsus moslashtirilgan o‘quv rejalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orqali bilimdagi bo‘shliqlarni bartaraf etish nazarda tutilgan. Fransuz pedagogikasi bu jarayonni zamonaviy ta’limning ajralmas tarmog‘i sifatida ko‘radi [7:86]. Xususan, frontal va guruhli o‘qitish shakllarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllantiriladi, bu esa ularning ijtimoiy jihatdan faollashuviga xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyotning o‘rganilishi shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur ilg‘or yondashuvlar O‘zbekiston ta’lim tizimida ham samarali qo‘llanishi mumkin. Buning uchun avvalo, umumta’lim maktablarini zamonaviy texnika vositalari va metodik materiallar bilan ta’minlash, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga doir faoliyat ijtimoiy, didaktik, psixologik va metodik ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks vazifa sifatida qaralishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, milliy ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ijodiy tafakkurga ega yosh avlodni voyaga yetkazishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur masalada, eng avvalo, xorijiy mamlakatlarda shakllangan ilg‘or pedagogik va psixologik qarashlarni chuqur o‘rganish, ularni tahlil qilish hamda mahalliy sharoitga moslashtirish asosida umumlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, Respublikamizda ta’lim sohasini isloh qilish yo‘lida olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlar, metodistlar, o‘qituvchilar va olimlar tomonidan amalga oshirilayotgan izlanishlar xalq ta’limini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishiga xizmat qilmoqda [8:3].

Xususan, tasviriy san’at fanini o‘qitish borasida olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar alohida e’tiborga loyiqdir. T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar ayni paytda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda [9:103]. Mazkur tadqiqotlar natijasida tasviriy san’at fani bo‘yicha o‘quvchilarga ta’lim berishda respublika sharoitiga mos dastlabki ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan [10].

Jumladan, professor R.Hasanov tomonidan tasviriy san’at darslari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar doirasida o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy maqolalar e’lon qilingan. Ushbu ishlar o‘quv jarayonining o‘ziga xos pedagogik xususiyatlarini yoritishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, mazkur yo‘nalish hali yetarli darajada mukammal ilmiy asosga ega emas.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ularning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali joriy etish zarurati bir nechta muhim omillar bilan izohlanadi:

Dunyo miqyosida fan, texnika va madaniyatning jadallik bilan rivojlanayotgani, bu esa o‘quv jarayonining mazmuni, metodikasi va shakllarining yangilanishini talab etadi;

O‘zbekistonda davlat ta’lim standartlarining ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi;

Xorijiy mamlakatlarda to‘plangan ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish ehtiyoji [11:60].

Ta’kidlash joizki, tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda rangtasvir kompozitsiyasining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Bu yo‘nalish orqali o‘quvchilarda tasviriy san’at bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar hamda mustahkam malakalar shakllantiriladi. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish esa mazkur fan doirasida tizimli, integratsiyalashgan va texnologik yondashuvni talab etadi [12]. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodik yangiliklar, texnologik modellar hamda badiiy ta’lim sohasida shakllangan ilg‘or xorijiy tajribalardan oqilona foydalanish muhim metodik talab sifatida qaraladi. Shu bilan birga, tasviriy san’at darslarining mazmunan boy, texnologik jihatdan asoslangan tarzda tashkil etilishi o‘quvchilarda nafaqat badiiy-estetik didni, balki mustaqil fikrlash, kompozitsion tafakkur, individual yondashuv va ijtimoiy ongning shakllanishiga bevosita xizmat qiladi [13]. Shu o‘rinda zamonaviy o‘qituvchidan faqat bilim berish emas, balki o‘quvchining ichki imkoniyatlarini aniqlash, ularni rag‘batlantirish va ijodiy salohiyatini ochish talab etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogning kasbiy mahorati, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga tayyorligi va ijodiy yondashuviga bevosita bog‘liqdir [14]. Ayniqsa, rangtasvir kompozitsiyasi orqali o‘quvchilarning shaxsiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari, estetik dunyoqarashi ifoda topadi [15]. Mazkur mashg‘ulotlar o‘quvchi uchun erkin fikrlash va ijodiy ifoda imkonini beruvchi muhit yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at darslari, ayniqsa, rangtasvir kompozitsiyasi mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda salmoqli ta’sirga ega. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish bu faqat bitta fan doirasidagi vazifa emas, balki umumta’limning ustuvor strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda xorijiy tajribalarni tahlil qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’limga joriy etish, individual yondashuv va ilmiy asoslangan metodikani shakllantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Ta’lim jarayoniga tizimli va integratsiyalashgan yondashuv orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, estetik tafakkur, ijtimoiy faollik va badiiy didni shakllantirish mumkin. Shu bois, tasviriy san’at fanining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyatini kuchaytirish, bu boradagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Usmonov. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish (tasviriy san’at darslarida) T.: O‘qituvchi. 1987.
2. O.Xudoyorova. O‘zbekiston maktablarida tasviriy san’atdan dars samaradorligini oshirishning ba’zi masalalari. T.: O‘qituvchi. 1995.
3. Asqarali Sulaymonov, Sunnat Shovdirov UMUMINSONIY VA MILLIY BADIIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TASVIRIY SAN’AT TA’LIMI SIFATINI OSHIRISH // Inter education & global study. 2023. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/umuminsoniy-va-milliy-badiiy-qadriyatlar-integratsiyasi-asosida-tasviriy-san-at-ta-limi-sifatini-oshirish
4. R.Hasanov. Tabaqalashtirilgan ta’lim: muammo va yechim. “Ma’rifat” gazetasi. 2003 y. 15-noyabr.
5. Ченнино Ченнини. Трактат о живописи. М.: 1933.
6. S.Washburne, S.Marland. Winnetka: The historiy and signiticane of an edicational experiment Englewood ditts. 1963.

7. R.Dottrens. Lanseignement indiviendhalisse. Paris.: 1986.
8. Jumaboev Nabi Pardaboevich. (2025). DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.17306753.
9. R.Hasanov. Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at darslari. T.: O‘qituvchi. 1983.
10. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.
11. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limi kontsepsiyasi. T.: 1995.
12. Ibadullaeva , Z. ., & Jumaboev , N. . (2025). UZBEK NATIONAL ART AND ITS SCHOOLS. New Uzbekistan Journal of Academic Research, 2(2), 127-130. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/yoitj/article/view/68532.
13. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677.
14. Inoyatov, O. (2025). TEKISLIKLARNING O‘ZARO PARALLELLIGI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/1), 495–500. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N76
15. Berikbaev, A. (2021, April). TEACHING PROFESSION AND SKILLS WAYS TO BE A TEACHER. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 142-144).

TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Abdullayev O‘ktamjon Ergashevich
Namangan davlat pedagogika Institute professori
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422095

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy san’at mashg‘ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Maqolada ta’lim jarayoniga zamonaviy interfaol metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, loyihaviy va muammoli ta’lim usullarini joriy etishning o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, tasviriy san’at fanini o‘qitishda o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni ochib berilgan. Maqolada o‘qituvchining zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga samarali tatbiq etishdagi roli ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ijodiy fikrlash, AKT, estetik tarbiya, loyihaviy yondashuv.*

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of applying innovative pedagogical technologies in visual arts education. It analyzes the importance of implementing modern interactive methods, information and communication technologies, project-based and problem-based learning in developing students’ creative thinking. The article also highlights the role of innovative technologies in fostering students’ aesthetic taste, enhancing their independent learning skills, and increasing their interest in art. Furthermore, the author emphasizes the teacher’s role in effectively integrating modern technologies into the educational process to improve the quality of visual arts instruction.*

Keywords: *visual arts, innovative pedagogical technologies, interactive methods, creative thinking, ICT, aesthetic education, project-based approach.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты применения инновационных педагогических технологий на занятиях изобразительным искусством. Анализируется значение внедрения современных интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, проектного и проблемного обучения в развитии творческого мышления учащихся. Особое внимание уделяется роли инновационных технологий в формировании эстетического вкуса, развитии самостоятельных навыков и повышении интереса учащихся к искусству. В статье также раскрывается роль учителя в эффективном использовании современных технологий в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, творческое мышление, ИКТ, эстетическое воспитание, проектный подход.*

Hozirda zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishi, jamiyatda raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi o‘qituvchidan o‘z kasbiga yangicha yondashuvni, o‘quv jarayonini interfaol va ijodiy tashkil etishni talab qilmoqda. Shu boisdan “innovatsion pedagogik texnologiyalar” tushunchasi bugungi ta’limning ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda o‘qituvchi tomonidan innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytiradi, ularda tasviriy san’atga bo‘lgan muhabbatni oshiradi hamda o‘z fikrini tasviriy ifoda etish malakasini shakllantiradi. Tasviriy san’at darslari orqali o‘quvchi nafaqat rasm chizishni, balki dunyoni go‘zallik mezonida idrok etishni, ranglar va shakllar orqali his-tuyg‘ularni ifodalashni o‘rganadi.

Bugungi ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarni faollashtirish, shuningdek, o‘qituvchi faoliyatini modernizatsiya qilishning eng muhim vositasidir. O‘qituvchining asosiy vazifasi - o‘quvchilarga tayyor bilimni berish emas, balki ularni mustaqil o‘rganishga, tahlil qilishga, izlanishga va ijodiy fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Shu maqsadda **zamonaviy va ilg‘or ta’lim texnologiyalari** ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Innovatsion pedagogik texnologiya” so‘zi lotincha “innovatio” (yangilanish) va “techne” (mahorat, usul) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, ta’lim jarayoniga yangi metodlar, vositalar va yondashuvlarni kiritishni anglatadi. Pedagogik adabiyotlarda innovatsion texnologiyalar - bu **ta’lim jarayonini o‘quvchining shaxsiy faolligiga asoslangan, natijadorlikka yo‘naltirilgan interfaol tizim** sifatida izohlanadi. Tasviriy san’at fanida bu texnologiyalar quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi: (1) o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish; (2) mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni shakllantirish; (3) san’atga estetik va hissiy munosabatni rivojlantirish; (4) o‘qitish jarayonini zamonaviy vositalar yordamida samarali tashkil etish hisoblanadi.

Tasviriy san’at - bu faqat chizish yoki bo‘yash jarayoni emas, balki **inson tafakkurini, estetik didini, ijodiy tafakkurini va hayotga badiiy qarashini shakllantiruvchi muhim fan**dir. Shu sababli, bu fan o‘qitilishida **zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash** o‘ta zarur. Ma’lumki an’anaviy o‘qitish usullari o‘quvchining faolligini, mustaqil fikrlashini to‘liq ta’minlay olmaydi. Shu bois, **interfaol metodlar, AKT, loyihaviy yondashuv, muammoli o‘qitish** kabi ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash tasviriy san’at mashg‘ulotlarini yanada samarali, ijodiy va qiziqarli jarayonga aylantiradi.

Bugungi kunda tasviriy san’at fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalasi ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Chunki mazkur fan orqali o‘quvchilarda estetik did, ijodiy tafakkur, badiiy idrok va go‘zallikka intilish hissi shakllanadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, ularda san’atga muhabbat uyg‘otuvchi rahbar sifatida faoliyat yuritadi.

Hozirgi davrda o‘quvchilarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirishda qiziqarli va sermazmun mavzular tanlash bilan bir qatorda, innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar hamda zamonaviy chizish vositalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Maktablarda o‘quvchilar endilikda faqat rasm daftari, oddiy bo‘yoq va qalamlar bilan cheklanib qolmasdan, xorijda ishlab chiqarilgan turli xil sifatli rangli qalamlar, akril va guash bo‘yoqlar, dekorativ bezak ishlarida yorqinlikni oshiruvchi materiallardan samarali foydalanmoqdalar. Bunday ashyolar bilan ishlash o‘quvchilarning badiiy faoliyatini faollashtiradi, ijodiy ruhini ko‘taradi va san’atga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, tasviriy san’at mashg‘ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va ularni samarali joriy etish uchun o‘qituvchi didaktik jarayonni puxta o‘rganishi, har bir usulni fan mazmuniga moslashtira bilishi zarur. Chunki bu sohada maxsus metodik

qo‘llanmalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar hanuz yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud adabiyotlarda umumiy didaktik yondashuvlar bayon etilgan bo‘lsa-da, aynan tasviriy san’at fanining o‘ziga xos xususiyatlarini - rang, kompozitsiya, tasvir, badiiy ifoda va ijodiy jarayonni o‘qitishda texnologik yondashuvlarni amaliy asoslashga bag‘ishlangan tadqiqotlar kam uchraydi.

Tasviriy san’at darslarida interfaol o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish, san’atga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va o‘qitish jarayonini jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Interfaol” so‘zi “o‘zaro faol ta’sir” degan ma’noni bildiradi. Ya’ni, bu usullar orqali o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, faol muloqot, fikr almashish va ijodiy tahlil muhiti yaratiladi. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida interfaol texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, o‘z fikrini bildiruvchi, ijodiy qarashini namoyon qiluvchi shaxs sifatida shakllanadi. Bunday yondashuv darsni an’anaviy monolog tarzidan chiqargan holda, uni o‘zaro fikr almashuv, tahlil va tajriba asosidagi interaktiv jarayonga aylantiradi.

Interfaol texnologiyalar tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan mustaqil fikrlashini faollashtirish, estetik idrok va badiiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish hamda jamoada ishlash, fikrini asoslash va himoya qilish madaniyatini rivojlantirish maqsadlarda qo‘llaniladi.Quyidagi metodlar orqali ko‘rib chiqamiz:

1. “Aqliy hujum” (Brainstorming). Dars boshida o‘quvchilarga muayyan savol beriladi, masalan: “Rang uyg‘unligi deganda siz nima tushunasiz?” yoki “Nega tabiat ranglaridagi o‘zgarishlar rassomni ilhomlantiradi?” O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bildiradilar, o‘qituvchi esa ularni umumlashtirib, dars mavzusiga olib kiradi. Bu usul o‘quvchilarning tafakkurini faollashtiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

2. “Klaster” (Tarmoqlash) usuli. Bu usul orqali o‘quvchilar asosiy g‘oyani markazga joylashtirib, unga bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni tarmoqlab yozadilar. Masalan, “Kompozitsiya” mavzusida o‘quvchilar “muvozanat”, “markaz”, “ritm”, “rang uyg‘unligi” kabi tushunchalarni yozish orqali mavzuning ichki tuzilishini ochib beradilar.

3. “Rol o‘ynash” (Rol o‘yinlari). O‘quvchilar mashhur rassomlar rolida chiqishlari, ularning asarlari haqida so‘zlab berishlari yoki o‘zlarini rassom sifatida tasavvur qilib, ijodiy qarashlarini ifoda etishlari mumkin. Masalan, “Men – Kamoliddin Behzodman, asarlarimda milliy ruhni aks ettirishga harakat qilaman” kabi chiqishlar o‘quvchilarda san’at tarixiga qiziqish uyg‘otadi.

4. “Galereya usuli”. Dars yakunida o‘quvchilarning ishlari sinf devorlariga osiladi, qolgan o‘quvchilar esa ularni tomosha qilib, o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu jarayon o‘zaro baholashni, san’at asariga estetik munosabat bildirishni va o‘zini tahlil qilishni o‘rgatadi.

Ta’lim tizimi jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan sharoitda innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish har bir pedagog oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, tasviriy san’at fanida zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish darslarni samarali, mazmunli va o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarni nafaqat rasm chizishga o‘rgatadi, balki ularning ijodiy fikrlash, estetik did, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tasviriy san’at darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash deganda faqat texnik vositalardan foydalanish emas, balki ilg‘or pedagogik metodlarni, o‘quvchi shaxsini markazga qo‘ygan interfaol yondashuvlarni qo‘llash tushuniladi. Bunday darslarda o‘quvchilar faqat

tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, tahlilchi va ijodkor sifatida qatnashadi. Bu esa o‘quv jarayonini biryoqlama bilim berishdan ijodiy hamkorlikka asoslangan ta’limga aylantiradi.

Interfaol metodlarning o‘rni tasviriy san’at mashg‘ulotlarida beqiyosdir. Chunki san’at - bu faqat nazariya emas, balki his-tuyg‘u, sezgi va amaliy faoliyat uyg‘unligi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Galereya usuli”, “Rol o‘ynash”, “Insert” kabi interfaol metodlar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularni erkin fikrlashga undaydi va san’atga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Masalan, “Galereya usuli” orqali o‘quvchilarning ishlari sinfda namoyish etilib, tengdoshlarining fikr-mulohazalari asosida baholanadi. Bu jarayon o‘zaro hurmat, tanqidiy fikrlash va badiiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan darslarda o‘quvchilar zamonaviy elektron vositalardan faol foydalanishadi. Interfaol doskalar, planshetlar, grafik dasturlar (Paint, Sketchbook, Adobe Fresco, CorelDRAW va boshqalar) orqali o‘quvchilar rang uyg‘unligini sinab ko‘rish, shakl va kompozitsiyalarni tajriba asosida yaratish imkoniga ega bo‘ladilar. Bunday yondashuv nafaqat ijodiy imkoniyatlarni kengaytiradi, balki o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish va o‘z ishini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan interfaol metodlarning asosiy afzalliklari quyidagilardir:

- o‘quvchilarda fanlarga nisbatan qiziqish va motivatsiyani oshiradi;
- darsni jonli, faol muloqot va hamkorlik muhiti sifatida tashkil etadi;
- o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini va badiiy didini rivojlantiradi;
- o‘z fikrini asoslash, himoya qilish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi;
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, bu texnologiyalar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytiradi, san’atni hayot bilan bog‘lash, atrof-muhitdagi go‘zallikni ko‘ra olish va uni badiiy ifodalash qobiliyatini kuchaytiradi. Har bir o‘quvchi o‘z ishini tahlil qilib, o‘z xatolarini ko‘ra olish, o‘z asarini yanada takomillashtirish yo‘lida izlanadi.

Innovatsion-interfaol yondashuvning foydali jihatlaridan biri shundaki, u dars jarayonini an’anaviy shakldan zamonaviy, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga aylantiradi. Har bir o‘quvchining individual qobiliyatlari hisobga olinadi, har biri o‘z ijodiy yo‘nalishida o‘sish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchiga o‘quvchi shaxsini chuqurroq bilish, uning kuchli tomonlarini rivojlantirishga yo‘naltirish imkonini beradi.

Hozirgi zamon ta’lim jarayoni innovatsion yondashuvlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu jumladan, tasviriy san’at ta’limida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo‘llash darslarning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, mustaqil o‘rganishga va san’atni hayotiy qadriyat sifatida anglashga yo‘naltiruvchi eng muhim omil hisoblanadi.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish - bu o‘quv jarayonini texnik vositalar bilan boyitishgina emas, balki o‘qitish usullarini yangicha yondashuv asosida tashkil etish demakdir. Interfaol metodlar - “Aqliy hujum”, “Galereya usuli”, “Rol o‘ynash”, “Klaster”, “Insert” kabi usullar o‘quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi, uning ijodiy va estetik tafakkurini rivojlantiradi, san’atga nisbatan ongli munosabat shakllantiradi. Bu usullar o‘quvchining fikrlash, tahlil qilish, o‘z nuqtayi nazarini asoslab berish hamda jamoaviy faoliyatda o‘z o‘rnini topish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar interfaol doska, planshet, grafik dasturlar (Paint, Sketchbook, Adobe Fresco, CorelDRAW va boshqalar) orqali rang uyg‘unligini, kompozitsiya yechimlarini tajriba asosida sinovdan o‘tkazishadi. Bu esa dars jarayonini zamonaviy, vizual va tahliliy asosda tashkil etish imkonini beradi. O‘quvchi o‘z ishini tahlil qiladi, xatolarini ko‘radi, natijasini baholaydi va ijodiy o‘sish sari intiladi. Shu orqali tasviriy san’at darslari shunchaki chizish mashg‘ulotidan chiqib, to‘laqonli badiiy-estetik tarbiya vositasiga aylanadi.

Interfaol metodlar bilan uyg‘unlashgan innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshiradi, darsda faol ishtirokni ta’minlaydi, o‘zaro muloqotni kuchaytiradi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikka asoslangan muhit yaratiladi. Bunday darslarda har bir o‘quvchining qobiliyati va qiziqishi inobatga olinadi, bu esa ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tarzda olib borish imkonini beradi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar tasviriy san’atni boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkonini ham yaratadi. Masalan, informatika, tarix, texnologiya, madaniyatshunoslik fanlari bilan bog‘langan darslar orqali o‘quvchi nafaqat chizishni, balki badiiy asar yaratish jarayonidagi madaniy, ilmiy va texnik jihatlarni ham o‘rganadi. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, milliy va jahon san’ati yutuqlariga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda mustaqil izlanish, yangilik yaratishga intilish, san’atni o‘z hayoti bilan bog‘lash kabi ijobiy sifatlarni shakllantiradi. Natijada o‘quvchi o‘z fikrini rasmlar orqali ifoda eta oladigan, go‘zallikni his qiladigan, san’atga estetik nuqtayi nazardan qaraydigan ijodkor shaxsga aylanadi.

Umuman olganda, tasviriy san’at mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish - ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish va badiiy ijodiy faoliyatini faollashtirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Bunday yondashuv o‘qituvchidan yangilikka intilish, zamonaviy axborot vositalarini o‘rganish va ularni dars jarayoniga to‘g‘ri tatbiq etishni talab qiladi. Shu sababli har bir tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘z faoliyatida innovatsion va interfaol texnologiyalarni qo‘llab, o‘quvchilarni nafaqat san’atga o‘rgatishi, balki ularni ijodkor, mustaqil fikrlovchi, milliy va jahon madaniyatiga hurmat bilan qaraydigan barkamol insonlar qilib tarbiyalashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, O. E. (2021). The impact of historical monuments on human spirituality. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(8), 263-268.
2. Mirziyoyev, S. (2018). TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARINING ZAMONAVIY TA’LIMI Abdullayev O‘ktamjon Ergashevich NamDU TSMG kafedrasi mudiri, dotsent. *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ*, 9.
3. Raximov H., Abdullayeva S. 5-SINF O ‘QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN’AT MASHG ‘ULOTLARIDA NATYURMORT ISHLASHNI O ‘RGATISH //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 4.3. – C. 191-195.
4. Raximov, H., & Abdinabiyeva, M. (2025). O ‘QUVCHILARGA KULOLCHILIK SAN’ATINI O ‘RGATISHNING NAZARIY MASALALARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *2*(4.3), 219-223.
5. Раҳимов, Х. (2023, December). ТАСВИРИЙ САНЪАТ НАМУНАЛАРИ ОРҚАЛИ САНЪАТШУНОСЛИК СОҲАСИГА ТАЙЁРЛАШ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC*

AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions” (Vol. 1, No. 01).

6. ogli Rakhimov, H. U. AJMR. *AJMR*.
7. Umarjon o‘g‘li, H. R. (2021). Technologies for Improving Composition and Drawing Skills Based on the Rules of Composition. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 765-767.
8. Odilboyeva, U. (2025). TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO ‘NALISHI TALABALARIGA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA INGLIZ TILINI O ‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *2*(4.3), 320-322.

AKADEMIK RANGTASVIR FANIDA O‘QUVCHILARNI KOMPOZITSIYADA CHIZISHGA O‘RGATISH

Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna
Guliston davlat pedagogika instituti, San’atshunoslik kafedrasi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422114

Annotatsiya. *Ushbu maqolada akademik rangtasvir fanidan o‘quvchilarga rasm chizish davomida kompozitsiya tushunchasini o‘rgatish, shu bilan birgalikda kompozitsiyaning turlari, rang perspektivasi, rang refleksi va boshqalar haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, o‘quvchilarga akademik rangtasvirda kompozitsiyada rasm chizishdan oldin akademik qalamtasvir fanini chuqur o‘rganishlari kerak ekanligi haqida aytib o‘tilgan.*
Kalit so‘zlar: *Rang, kompozitsiya, akademik rangtasvir, rangshunoslik, perspektiva.*
Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы обучения учащихся понятию композиции в процессе рисования на занятиях по академической живописи. Также представлены сведения о видах композиций, цветовой перспективе, цветовых рефлексах и других смежных понятиях. Отдельно подчёркивается, что для успешного выполнения композиционных заданий в академической живописи учащимся необходимо предварительно углублённо изучить академический рисунок.*
Ключевые слова: *цвет, композиция, академическая живопись, колористика, перспектива*
Abstract: *This article explores the teaching of composition concepts to students during drawing lessons in the field of academic painting. It provides information on various types of compositions, color perspective, color reflection, and other related aspects. Furthermore, the article emphasizes the necessity for students to thoroughly study academic drawing before engaging in compositional drawing within academic painting.*
Keywords: *color, composition, academic painting, color science, perspective*

Ma’lumki, rangtasvir tasviriy san’atning turiga kirib, rassom rangtasvirda rasm chizishdan oldin qalamtasvirda rasmni mukammal chizishni o‘rgansagina, u rangtasvirda ham mahorat bilan rasm chiza oladi. Tasviriy san’atda rassom tekis yuzaga turli xil ranglardan va materiallardan foydalangan holda chizilgan tasvirga rangtasvir deyiladi. O‘quv jarayonida bajariladigan ko‘rgazmali rangtasvir rasmlarida hamda tasviriy san’atning nazariyasida va amaliyotida akademik rangtasvir tushunchasini o‘rni katta ahamiyatga ega.

Rangtasvir asarlari qog‘oz, mato, karton, devor, oyna yog‘och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rangtasvir ishda avval uni rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, yorug‘soya, rang asosiy o‘rinni egallaydi. Rangtasvir asarlari bajarilishi texnikasi jihatdan turli-tuman bo‘ladilar. Ular moy bo‘yoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli hisoblanadilar [1:15]. Demak, tasviriy san’at fanida o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda ularni avval qalamtasvirda chizishni, so‘ngra esa rangtasvirda rasm chizishni mukammal o‘rgatish lozim. Dars jarayonida o‘qituvchi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning faolligini oshirish, chizish vaqtida mavzu va xotira asosida rasm chizishni o‘rgatishi kerak.

Tasviriy san’at ta‘limi – muayyan tizimda san’at sohasida maxsus bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni egallash jarayonidir. Uning natijasi tahsil oluvchining kasbiy badiiy-estetik ijod bilan shug‘ullanishga tayyorgarligi hisoblanadi [2:9].

Tasviriy san’at fanida akademik rangtasvirda rasm chizishdan oldin bu fanda o‘quvchilar nazariy bilim olishlari, so‘ngra esa amaliy bilimlarni o‘rganishlari kerak. Albatta, tasvir san’atda o‘quvchilar bilimlarni egallashi bilan birgalikda ularning dunyoqarashi, tafakkuri ham rivojlanadi. Darsda o‘quvchilarnig biliminini xotirada mustahkamlash saqlash uchun qiziqarli tarzda o‘tish kerak. Tasviriy san’at o‘qituvchisi mukammal o‘z fanini bilishi bilan birgalikda, kasb ko‘nikmalari hamda malakalariga ega bo‘lishlari, mavzularni o‘quvchilarga mohirlik bilan tushuntirib bera olishi kerak. O‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda fanning bilishga oid bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan holda motivatsion-qiziqarli tomonlariga ahamiyat berishi lozim.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, rasm chizishni o‘rganish o‘quvchilarga atrofdagi jismlarni realistik tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Rasm chizish asoslarini o‘rganish, narsaning o‘ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi [3:6]. Rangtasvirning ham o‘ziga xos turlari mavjud bo‘lib, ularga monumental rangtasvir, dastgohli rangtasvir, dekorativ rangtasvir, teatr-dekorativ rangtasvir va miniatyura rangtasviriga bo‘linadi. Agar katta o‘lchovda rangtasvir, masalan,tempera bo‘yoqlari bilan binolarning tashqi va ichki devorlariga ishlansa bu monumental rangtasvir deyiladi. Agar rassom maxsus- dastgox (molbert) bilan rasmni chizsa, dastgohli rangtasvir deyiladi. Dekorativ rangtasvirda esa asosan binolarning tashqi va ichki devorlarini bezatishda ishlatiladi. Spektakl dekoratsiyalari teatr rassomi tomonidan tayyorlanadi va bunday dekoratsiyalar teatr-dekorativ rangtasviriga kiradi.Tasviriy san’at fanida juda kichik, nozik san’at asarlari miniatyura rangtasviriga kiradi.

Har bir mashg‘ulot o‘qituvchi tomonidan o‘tiladigan yangi mavzuga oid material, tarqatma varoqlar va ko‘rgazmalar tayyorlanadi. Darsga o‘qituvchi puxta tayyorgarlik ko‘rishi, kerakli ko‘rgazmalar, didaktik materiallar, tarqatma materiallar tarqatishi va ulardan o‘z o‘rnida foydalanishlari juda muhim hisoblanadi[4:486].

Shuningdek, tasviriy san’at fanida kompozitsiya tushunchasi ham bo‘lib, u lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “Tuzish”, “Birlashtirish” degan ma’noni anglatadi. Kompozitsiyaning uch turi bor bo‘lib, bularga frontal kompozitsiya, hajmli kompozitsiya va chuqur fazoviy kompozitsiya kiradi.Frontal kompozitsiyaga rangtasvir, naqshlar, relefli haykallar kiradi. Hajmli kompozitsiyada esa uch o‘lchovdagi tasvirlar bo‘lib, ularga amaliy san’at buyumlari, me’morchilik san’ati, yumaloq haykallar va boshqalarni kiritish mumkin. Agar rassom turar joylarni, jamoat binolarini ichki qismi, teatr sahnasini va boshqalarni loyihalarini tasvirlasa bunday kompozitsiya chuqur fazoviy kompozitsiyaga kiradi.

Tasviriy san’atda asarida detallarning o‘zaro bog‘liq holda bo‘lishi, shu detallarnng asar g‘oyasiga bo‘ysundirilgan holda, asarda muvozanat qonunining bo‘lishi,kontraslar, hayotiylik qonuni kabilarni kompozitsiya qonunlariga kiradi. Shuningdek, kompozitsiyada ritm, chizilgan rasmda kompozitsion markaz hamda joylashuvi simmetrik yoki assimmetrik, harakat va boshqalardan iborat bo‘lsa, kompozitsiya qoidalari deyiladi.

Agar chizilgan rasmda ranglar, chiziqli shuningdek havo ya‘ni rang perspektivasi, oq, qora, shu bilan birgalikda chiziqlar bilan tasvirlansa, bu kompozitsiya vositalari deyiladi.

Shuningdek, kompozitsiyada rasm chizishda rangtasvirda avval xavaskor rassomlar nazariy bilimlarni o‘rganishlari lozim. Xususan, ranglar ikki turga asosiy va qo‘shimcha

ranglarga bo‘linadi. Undan tashqari, ranglar xromatik va axromatik ranglarga bo‘linadi. Tasviriy san’atda oq va qora ranglar axromatik ranglarga kiradi. Oq va qora ranglardan boshqa barcha ranglarni xromatik ranglar qatoriga kiritishimiz mumkin. Tasviriy san’atda ranglar qarama-qarshiligi atamasi qo‘llanilib, asosan, tasvirlashda bir rangni ikki to‘q va och rangda ishlatish, bir rangni chizishda ko‘p tuslarini ishlashda e’tibor bergan holda, ikki rangni to‘q va och tuslarini ishlash orqali rasm chizishda qo‘llaniladi. Chizilayotgan rasmda umumiy yorug‘lik hamda rang birikmalari barcha ranglardan ustunlik qilsa, kolorit deyiladi.

Tasviriy san’atda perspekpektivaning uch xili bor bo‘lib, bularga chiziqli perspektiva, rang perspektivasi va hajm perspektivasini misol qilib keltirish mumkin. Tasvirda har xil uzoqlikda tabiatdagi narsalarning o‘lchovlari qisqarib ko‘rinadigan bo‘lsa, u holda chiziqli perspektiva deyiladi. Agar rassom rangtasvirda chizish vaqtida undan tabiatdagi narsa va hodisalarni yoki yaqinlashganda ularning o‘zgaradigan ranglariga havo perspektivasi yoki rang perspektivasi deyiladi. Tasvirda narsalarning aniq hajmi hamda chegaralari xiralashadigan bo‘lsa, hajm perspektivasi deyiladi. Undan tashqari, ilmiy asosda perspektivalar kuzatish perspektivasi, fazoviy perspektiva, geometrik perspektiva, chiziqli perspektiva, kinoperspektiva va aeroperspektivadan iborat bo‘ladi. Albatta, rasm chizish jarayonida rangtasvirda yorug‘lik, soya, blik,yarim soya, tushuvchi soya, shaxsiy soya va refleks tushunchalarini o‘rganib olib, rasm chizish tavsiya etiladi. Yorug‘lik maydoni tushayotgan tabiiy yoki sun‘iy manbayidan iborat bo‘lsa, yorug‘lik deb ataladi. Rasm chizish jarayonida qarama-qarshi yorug‘lik maydoniga, joylashishi teskari bo‘lsa, u soya deyiladi. Rangtasvirda chizish vaqtida refleks tushunchasi ham ishlatilib, aks-shu’la naturaga tushayotgan bo‘lsa, u refleks hisoblanadi.

Shuningdek, tasviriy san’at darslarida rangtasvirda kompozitsiya chizishda avvalo o‘quvchilarga rangtasvir tushunchasi haqida ma’lumot berish, ularni kompozitsiyada rasmlarni chizishga ko‘proq o‘rgatish tavsiya etiladi.

Rangtasvir darslarida o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, ranglar olami orqali borliqni anglash va his qildirish metodlarini rivojlantirish mavzusidagi ishlarning barchasi shaxsiy va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan [5:625].

Tasviriy san’at darsida o‘quvchilarga kompozitsiya haqida tushuncha berish va kompozitsiyaning simmetriya, asimmetriya, statika va dinamika, ritm shuningdek, muvozanat, asosiyga ikkinchi darajali narsalarning bo‘ysunishi,ko‘rish markazi hamda kompozitsion markazni mos keladiganini bo‘ysundirish va boshqa qoidalarni o‘rgatish kerak.

Shu bilan birga, tasviriy san’at ta’limida perspektivaning turli shakllarini to‘g‘ri anglash va ularni rasm chizish jarayoniga tadbiq etish o‘quvchilarning tasviriy tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tasviriy san’atda uch asosiy turdagi perspektiva mavjud bo‘lib, ular chiziqli, rang (yoki havo) va hajmiy perspektivalardir [6:163].

Chiziqli perspektiva – bu tabiatdagi obyektlar uzoqlashgan sari kichrayib ko‘rinadigan hodisani anglatadi. Bu turdagi perspektiva tasvirda chuqurlik hissini hosil qilishda qo‘llaniladi. **Rang perspektivasi** esa obyektlar uzoqlashgani sari ularning ranglarida yuzaga keladigan o‘zgarishlarga asoslanadi. Masalan, yaqin masofadagi obyektlar rangi aniq va to‘yingan bo‘lsa, uzoqdagilar rang jihatdan xira va sovuq ko‘rinadi. Shu sababli u “havo perspektivasi” deb ham yuritiladi [7:495]. **Hajm perspektivasi** esa shakl va formaning o‘lcham, aniqlik hamda xiralashuv darajasiga qarab tasvirda chuqurlik va fazoviylik berishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy nazariy manbalarda perspektivaning yana bir nechta turlari – kuzatuv (observatsion) perspektivasi, fazoviy (spatial), geometrik, kino (kinetik) va aero (havo) perspektivalar mavjudligi e’tirof etiladi. Bularning har biri o‘ziga xos kompozitsion maqsadlarga

xizmat qiladi va o‘quvchilarning rasm chizish ko‘nikmalarini kengaytirishda yordam beradi [8:249]. Rangtasvir mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga yorug‘lik va soya tushunchalarini ham chuqur o‘zlashtirish zarur. Rasmda yorug‘lik – bu tabiiy yoki sun’iy manbadan tushayotgan nurlanish maydoni bo‘lib, tasvirda asosiy ifoda vositalaridan biri hisoblanadi [9:461]. Soya esa yorug‘lik manbaiga qarama-qarshi tomonda joylashgan va yorug‘lik yetib bormagan sohalarni bildiradi. Yorug‘lik va soya o‘zaro kontrast orqali shakl va hajmni ifodalaydi. Shu bilan birga**, blik (yorqin aks), yarim soya, tushuvchi soya, shaxsiy soya** kabi detallar va **refleks** (aks etgan nur) kabi elementlar ham tasvirda realizmga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarda tasviriy-estetik did va ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun rangtasvirda kompozitsiya yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Buning uchun esa, avvalo, **rangtasvir** tushunchasining nazariy asoslari, uning amaliy ahamiyati va kompozitsion qurilish prinsiplari o‘rgatilishi lozim [10:489]. Shu bilan birga, o‘quvchilarga **akademik qalamtasvir** fanini puxta egallash orqali chizma asoslarini mustahkamlash tavsiya etiladi.

Kompozitsiya yaratish jarayonida o‘quvchilarga simmetriya va asimmetriya, statika va dinamika, ritm, vizual muvozanat, asosiy hamda ikkinchi darajali obyektlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, ko‘rish markazi va kompozitsion markazni belgilash kabi muhim qoidalarni o‘rgatish kerak [11]. Ushbu bilim va ko‘nikmalar o‘quvchilarga nafaqat texnik jihatdan to‘g‘ri chizish, balki mazmunli va badiiy ifodali asarlar yaratish imkonini beradi. Shunday qilib, akademik rangtasvir darslarida o‘quvchilarga kompozitsiyaviy tafakkurni shakllantirish, rang va shakl orqali obraz yaratish, yorug‘lik va soya vositasida hajm berish, shuningdek, ijodiy yondashuv asosida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini singdirish orqali ularning san’atga bo‘lgan qiziqishi va estetik didini rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Akademik rangtasvir fanida o‘quvchilarning kompozitsion tafakkurini shakllantirish, ularni rasm chizishda ilmiy asoslangan yondashuvlar bilan tanishtirish – ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi [12]. Kompozitsiyaga oid nazariy bilimlar, xususan, perspektiva turlari, yorug‘lik va soya qonuniyatlari, rang refleksi va boshqa tasviriy ifoda vositalarining o‘zlashtirilishi o‘quvchilar tasviriy asarlarini badiiy va mazmun jihatdan boyitadi.

Rangtasvir mashg‘ulotlarida chiziqli, rang va hajmiy perspektivalarning farqlanishini o‘rgatish, shuningdek, refleks, blik, tushuvchi soya kabi elementlardan to‘g‘ri foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilar realistik va estetik jihatdan mukammal ishlanmalarni yaratishga o‘rganadilar. Bunda akademik qalamtasvir bilan bog‘liq asosiy ko‘nikmalarni chuqur egallash, kompozitsiya tamoyillarini puxta o‘zlashtirish darslarning samaradorligini yanada oshiradi. Shu boisdan, tasviriy san’at darslarida zamonaviy metodik yondashuvlar asosida kompozitsiya chizishga o‘rgatish nafaqat o‘quvchilarning badiiy tafakkurini, balki mustaqil fikrlash, kuzatish va estetik baholash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Akademik rangtasvirni o‘rgatishda izchillik, nazariya va amaliyot uyg‘unligi, shuningdek, shaxsiy yondashuv asosiy tamoyil sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.P.Jumaboyev. “Rangtasvir” O‘quv qo‘llanma “ILM ZIYO ZAKOVAT”. T.: 2023.
2. A.A.Berikbayev. “Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish”, monografiya. “GRANT KONDOR PRINT”. T.: 2024.
3. B.B.Nusharov, B.A.Usmonov. “Chizmatasvir” o‘quv qo‘llanma. “ZIYO nashr-matbaa”, Guliston.: 2023.

4. Yusupova, S. (2024). TALABALARNING TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(11). https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N72
5. Xo‘jaqulov , R. (2025). BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(2), 622–625. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N99
6. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "ORGANIZING VISUAL ARTS LESSONS AND ENHANCING THEIR EFFECTIVENESS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL REQUIREMENTS." CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. Vol. 1. No. 5. 2025.
7. Inoyatov, O. (2025). TEKISLIKLARNING O‘ZARO PARALLELLIGI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/1), 495–500. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N76
8. Имомов F. . (2025). CHIZMACHILIK FANINING O‘QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJIGA TA’SIRI. Свет науки, (10(45). извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/102914
9. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.
10. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677
11. Khudayberdievich, B. A. . (2024). The Role of Physiognomics in Teaching Students to Draw Portraits. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.38

ZAMONAVIY SAN’ATDA MILLIYLIK: TASVIRIY VA AMALIY BEZAK SAN’ATIDA AN’ANA VA INNOVATSIYANING UYG‘UNLIGI

[1]Oltmishev Toxirjon Turgunovich, [2]Akromova Shahlo
[1]Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
[2]Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422138

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy san’atda milliylikning o‘rni hamda tasviriy va amaliy bezak san’atida an’ana bilan innovatsiya uyg‘unligi tahlil qilinadi. Maqolada milliy san’atning tarixiy ildizlari, o‘zbek xalqining badiiy merosi, tasviriy san’atning asosiy yo‘nalishlari va ularning bugungi davrda yangicha talqin etilishi haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, yosh avlod ijodkorlarining milliy qadriyatlarni zamonaviy san’at orqali ifodalashga bo‘lgan intilishi, an’ana va innovatsiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qilib, san’atning jamiyat ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritilgan. Maqola milliy san’atning o‘ziga xosligini asrab qolgan holda, uni zamonaviy madaniy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Milliylik, zamonaviy san’at, tasviriy san’at, amaliy bezak san’ati, an’ana, innovatsiya, estetik qadriyatlar, madaniyat, o‘zlik, ijodkorlik, milliy meros, modernizatsiya, globallashuv, dizayn, madaniy uyg‘unlik.*

Аннотация: *В статье анализируется роль национальности в современном искусстве и гармония традиций и новаторства в изобразительном и декоративно-прикладном искусстве. В статье рассматриваются исторические корни национального искусства, художественное наследие узбекского народа, основные направления изобразительного искусства и их новая интерпретация в современную эпоху. Анализируется стремление молодого поколения художников выражать национальные ценности через современное искусство, неразрывная связь традиций и новаторства, а также подчеркивается значение искусства в формировании духовности общества. В статье подчеркивается необходимость сохранения самобытности национального искусства, сочетая его с современными культурными процессами.*

Ключевые слова: *Национальность, современное искусство, изобразительное искусство, декоративно-прикладное искусство, традиция, новаторство, эстетические ценности, культура, идентичность, творчество, национальное наследие, модернизация, глобализация, дизайн, культурная гармония.*

Abstract: *This article analyzes the role of nationality in modern art and the harmony of tradition and innovation in fine and applied decorative arts. The article discusses the historical roots of national art, the artistic heritage of the Uzbek people, the main directions of fine arts and their new interpretation in the present era. It also analyzes the desire of the younger generation of artists to express national values through modern art, the inextricable link between tradition and innovation, and highlights the importance of art in shaping the spirituality of society. The article emphasizes the need to preserve the uniqueness of national art, while combining it with modern cultural processes.*

Keywords: *Nationality, modern art, fine arts, applied decorative arts, tradition, innovation, aesthetic values, culture, identity, creativity, national heritage, modernization, globalization, design, cultural harmony.*

Zamonaviy san’at bugungi kunda global madaniyat jarayonlarining ajralmas qismi sifatida shakllanib, milliy o‘zlik va zamon ruhi o‘rtasida muvozanat yaratishga intilmoqda. Har bir xalqning san’ati uning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, qadriyatlari va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etadi. Shu bois milliylik — bu faqat bezak yoki naqshdagi belgilar emas, balki butun xalqning ma’naviy ruhi, o‘zligini ifodalovchi ma’naviy ko‘zgudir. Tasviriy va amaliy bezak san’atlarida milliy an’analar asrlar davomida shakllangan. O‘zbek xalqining naqsh, kashtachilik, miniatyura, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik va zargarlik kabi san’at turlari o‘zining boy tarixiga ega. Har bir naqsh, har bir rang va shakl o‘ziga xos ramziy ma’no anglatadi. Masalan, “islimiy” naqshlar tabiatning uyg‘unligini, “girih” naqshlari esa abadiyat va mukammallik g‘oyasini ifodalaydi. Ushbu an’analar nafaqat o‘tmish yodgorligi, balki zamonaviy san’atning ijodiy manbai sifatida ham ahamiyatlidir. Ular xalqning estetik didini, dunyoqarashini va ruhiyati ifodasini belgilab beradi. San’atkor uchun an’ana — bu tayyor qolip emas, balki ilhom manbai, o‘zligini anglashning kalitidir.

Bugungi kunda texnologiyalar, global axborot oqimlari va turli madaniyatlar o‘zaro yaqinlashgani tufayli san’atda yangi g‘oyalar, uslublar va texnikalar paydo bo‘lmoqda. Rassomlar va hunarmandlar raqamli dizayn, zamonaviy kompozitsiya va yangi materiallardan foydalanib, o‘z asarlariga innovatsion yondashuv olib kirishmoqda. Masalan, an’anaviy “suzani” naqshlari zamonaviy tekstil dizaynida yangi shaklda talqin qilinmoqda, qadimiy miniatyura san’ati esa raqamli formatda interaktiv ekspozitsiyalar ko‘rinishida qayta yaratilmoqda.

Shu tarzda san’at an’ana bilan innovatsiya o‘rtasida yangi uyg‘unlikni topmoqda — bu uyg‘unlik esa xalqning madaniy o‘zligini saqlagan holda zamon bilan hamnafas bo‘lish imkonini beradi. Milliy san’atni zamonaviy jarayonlarga moslashtirish — bu oddiy shakliy o‘zgarish emas, balki falsafiy yondashuvdir. Zamonaviy san’atdagi milliylik o‘z tarixini unutmagan, lekin kelajakka yuzlangan xalqning ruhi sifatida namoyon bo‘ladi. Rassom yoki dizayner milliy unsurlarni bevosita takrorlamaydi, balki ularni yangi mazmunda, yangi kontekstda qayta talqin qiladi. Tasviriy san’at — real borliqni shakl, rang, chiziq, kompozitsiya va tus yordamida ifodalash san’ati bo‘lib, u insonning his-tuyg‘usi, fikri va dunyoqarashini badiiy obrazlar orqali tomoshabinga yetkazadi.

San’atkor voqelikni bevosita ko‘chirmas, balki uni qayta talqin etadi: tasvir orqali fikr, his-tuyg‘u va ijtimoiy g‘oyani ochib beradi. Tasviriy san’at bir qancha yo‘nalish va janrlarga bo‘linadi: rangtasvir (moybo‘yoq, akvarel, guash va hk.), grafika, haykaltaroshlik va boshqa amaliy dekorativ yo‘nalishlar.

Bugungi kunda ko‘plab o‘zbek san’atkori ana shunday yo‘l tutmoqda. Ular o‘z asarlarida qadimiy naqshlarni minimalizm, abstraksiya yoki modernizm unsurlari bilan uyg‘unlashtirib, milliylikni zamonaviy tilda ifodalamoqda. Bu yondashuv milliy san’atning xalqaro miqyosda ham tanilishiga xizmat qiladi. An’ana va innovatsiya bir-biriga qarama-qarshi emas. Ular san’atda uzviy bog‘liq ikki qutbdir: biri ildiz, ikkinchisi esa o‘sish yo‘nalishi. An’anasiz innovatsiya bevosita asosini yo‘qotadi, innovatsiyasiz esa an’ana hayotiyligini yo‘qotadi. Shu bois haqiqiy san’atkor bu ikki unsurni uyg‘unlashtira olgan ijodkordir. Mamlakatimizda o‘zbek tasviriy va amaliy san’atida bu jarayon aniq ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, kulollar qadimiy

shakllarni saqlab qolgan holda zamonaviy ranglar bilan tajriba o‘tkazmoqda; dizaynerlar esa xalq bezaklarini yangi modalar bilan birlashtirib, milliy brendlarni yaratmoqda.

O‘zbekiston san’atida so‘nggi yillarda milliylikni zamonaviy talqin etish yo‘nalishi tobora kuchayib bormoqda. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 01.07.2025 yildagi PQ-212-son qarori Tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida „O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish va jahon miqyosida ommalashtirish, iste’dodli yosh rassomlarni qo‘llab-quvvatlash, badiiy ta’lim sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish hamda yangi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda kreativ loyihalarni amalga oshirish’’ maqsadida tasdiqlandi .Qarorga muvofiq quyidagilar tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn sohasini rivojlantirishda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi (keyingi o‘rinlarda — Badiiy akademiya) faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

(a) tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn sohasi xodimlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning samarali ijod qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

(b) iste’dodli yosh rassomlar uchun mo‘ljallangan ijodiy ustaxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularning shaxsiy va jamoaviy ko‘rgazmalarini uyushtirish;

(v) yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida iste’dodli yoshlarni tasviriy va amaliy san’at sohalariga keng jalb etish hamda ularning ushbu yo‘nalishda turli kreativ loyihalardagi ishtirokini rag‘batlantirish;

(g) badiiy ta’lim sohasida kadrlar tayyorlashga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish va takomillashtirish, shuningdek, akademik badiiy ta’limning izchilligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarni hal etish;

(d) O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atini jahon miqyosida ommalashtirish maqsadida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2. 2026-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida:

(a) Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasining ko‘rgazmalar zali jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilinsin va jihozlansin; Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q. Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn sohasi xodimlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning samarali ijod qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

(b) iste’dodli yosh rassomlar uchun mo‘ljallangan ijodiy ustaxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularning shaxsiy va jamoaviy ko‘rgazmalarini uyushtirish;

(v) yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida iste’dodli yoshlarni tasviriy va amaliy san’at sohalariga keng jalb etish hamda ularning ushbu yo‘nalishda turli kreativ loyihalardagi ishtirokini rag‘batlantirish;

(g) badiiy ta’lim sohasida kadrlar tayyorlashga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish va takomillashtirish, shuningdek, akademik badiiy ta’limning izchilligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarni hal etish;

(d) O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atini jahon miqyosida ommalashtirish maqsadida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2. 2026-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida:

(a) Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasining ko‘rgazmalar zali jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilinsin va jihozlansin;

Qarorga muvofiq yurtimizda bir qancha imkoniyatlar yaratilmoqda. Yangi avlod rassomlari, dizaynerlari, haykaltaroshlari va amaliy bezak ustalari o‘z ijodida milliy qadriyatlarni global san’at maydoniga olib chiqish maqsadida yangicha yondashuvlarni qo‘llamoqda. Ularning asarlarida milliy motivlar, o‘zbek xalqining hayot tarzi, qadimiy naqshlar va madaniy ramzlar zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashadi. Masalan, so‘nggi yillarda kulolchilikda 3D shakllantirish texnologiyasi yordamida an’anaviy sopol buyumlar yangi dizayn va rang uyg‘unligida yaratilmoqda. Kashtachilikda esa lazerli naqsh tushirish usullari bilan milliy gullar zamonaviy liboslarda qayta talqin qilinmoqda. Bularning barchasi milliy san’atni yangi bosqichga olib chiqish, uni dunyo madaniyatining ajralmas qismiga aylantirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi vaqtda yosh ijodkorlar o‘z ijodida nafaqat estetik go‘zallikka, balki ma’naviy g‘oyaga ham e’tibor qaratmoqda. Ular uchun san’at — bu o‘zligini izlash, milliy ruhni ifodalash va uni dunyoga tanitish vositasidir. Shuning uchun ham zamonaviy o‘zbek san’atida “milliylik” tushunchasi faqat shakl yoki naqsh bilan cheklanib qolmayapti, balki chuqur falsafiy mazmun kasb etmoqda. Yosh rassomlar asarlarida o‘z xalqining ruhiy dunyosini, qadriyatlarini va hozirgi zamon muammolarini birlashtirib tasvirlaydi. Bu esa san’atni nafaqat go‘zallik, balki fikr, tahlil va hayot haqidagi mushohada maydoniga aylantirmoqda.

Milliylik faqat san’atning ichki masalasi emas, balki jamiyatning o‘zligiga bo‘lgan munosabati bilan ham bevosita bog‘liq. Agar xalq o‘z tarixini, madaniyatini qadrlasa, bu san’atda ham aks etadi. Shu sababli san’atkor milliy merosni asrab-avaylash, uni yangi shaklda targ‘ib qilish orqali xalq ruhiyatiga ta’sir etadi.

Bugungi san’at asarlari ko‘pincha ekologik mavzular, qadriyatlar inqirozi, texnologiyalar ta’siri kabi zamonaviy masalalarni milliy ramzlar orqali yoritadi. Bu esa san’atning faqat bezak yoki estetik vosita emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuch ekanini ko‘rsatadi. Globallashuv jarayonlari kuchaygan hozirgi davrda milliy san’at o‘zligini saqlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki umumjahon madaniy oqimida milliy o‘zlikni yo‘qotish xavfi mavjud. Shu sababli milliy san’atning zamonaviy talqini — bu nafaqat ijodiy yangilik, balki madaniy mustaqillikni saqlash vositasidir. O‘zbekiston rassomlari xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etar ekan, o‘z milliy uslubi bilan ajralib turadi. Bu hol milliy san’atning jahon miqyosida qadrlanishiga, o‘zbek madaniyatining nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida

Tasviriy va amaliy bezak san’atida an’ana va innovatsiyaning uyg‘unligi — bu madaniyatning yashovchanligi belgisi. Agar san’at o‘z ildizidan uzilmasa, u har qanday zamonaviy shaklda ham o‘z ruhini saqlab qoladi. Shu bois, har bir ijodkor o‘z asarida milliylikni his etgan holda yangilik yaratishi zarur. Chunki o‘tgan avloddan meros bo‘lgan san’at faqat takror emas, balki davomdir. Bugungi san’at — bu kechagi an’ana va ertangi innovatsiya o‘rtasidagi ko‘prikdir. Shu ko‘prik orqali milliy madaniyat yangi avlod ongiga singadi, xalqning o‘zligi, estetik didi va ruhiy merosi abadiy yashaydi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch.” – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi.” – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Yo‘ldoshev B. “San’atshunoslik asoslari.” – Toshkent: San’at, 2015.
4. Xolmatova D. “O‘zbek amaliy bezak san’ati tarixi.” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

5. Rafiqov Sh. “Tasviriy san’at nazariyasi va metodikasi.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
6. Tursunova N. “Milliylik va zamonaviylik: O‘zbek san’atida yangicha izlanishlar.” // O‘zbekiston san’ati jurnali, №4, 2020.
7. Qodirova M. “Bezak san’atida an’ana va innovatsiya uyg‘unligi.” – Toshkent: Kamalak, 2019.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.07.2025 yildagi PQ-212-son Tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

[1]Ismatov Ulfat Shuhratovich, [2]Sultonnazarova Ziyodaxon Maxamadnosir qizi
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi dotsenti
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi sirtqi 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422166

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb pedagogik va metodik muammolar tahlil qilinadi. Jumladan, o'qituvchi kadrlarning malakasi, moddiy-texnik ta'minotning ahvoli, o'quv dasturlari va metodikalarning zamonaviy talablarga mosligi kabi masalalar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, umumta'lim maktablari, metodika, pedagogik texnologiyalar, badiiy-estetik tarbiya, ijodiy qobiliyat.*

Tasviriy san'at fani shaxsni shakllantirishda, xususan, uning estetik didi, ijodiy qobiliyati va fazoviy tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda xalq ta'limi tizimini isloh qilish jarayonida tasviriy san'at ta'limining mazmuni va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"[110]gi, 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[111]gi, qarorlarining qabul qilinishi ushbu yo'nalish rivojiga katta e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Shunga qaramay, umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitish amaliyotida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'rganishlar va mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida tasviriy san'at ta'limi sohasida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

1. O'qituvchi kadrlarning malakasi va yetishmasligi;

Ba'zi hollarda tasviriy san'at darslarini mutaxassis bo'lmagan (masalan, boshlang'ich sinf yoki boshqa fan o'qituvchilari) olib borishi kuzatiladi. Vaholanki, boshlang'ich sinflardan boshlab darslarni mutaxassis rassom-pedagoglar o'tishi zarurligi ta'kidlanadi.

An'anaviy metodlardan uzoqlashmaslik: Ko'plab o'qituvchilar dars jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan yetarli darajada foydalana olmaydilar.

2. Moddiy-texnik ta'minotning holati;

Ko'rgazmali qurollar va materiallar yetishmovchiligi: Darsni yuqori malakada o'tish uchun zarur bo'lgan plakatlar, reproduksiyalar, natyurmortlar va amaliy ish uchun materiallarning yetishmovchiligi amaliy mashg'ulotlar samaradorligini pasaytiradi.

[110] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2020-y., 07/20/4688/0475-son. https://lex.uz/docs/4795687.

[111] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 07/22/112/0099-son. https://lex.uz/docs/-5849580.

3. O‘qitish metodikasi va dasturlaridagi kamchiliklar

An’anaviy yondashuvlarning ustunligi: Dars jarayonlarida “og‘zaki bayon” (hikoya, suhbat), “vizual o‘qitish” (namoyish, ekskursiya) va “amaliy ish” kabi an’anaviy usullardan foydalanilsa-da, “aralash metod” kabi murakkab va samarali usullarni qo‘llashda tizimli yondashuv yetishmaydi.

Ijodiy mustaqillikni cheklash: An’anaviy o‘qitish tizimida o‘quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan, mustaqil o‘rganish va tahlil qilishga qiziqish past bo‘ladi.

Tasviriy san’at ta’limi sifatini oshirish uchun aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks yechimlar joriy etilishi zarur.

1. Kadrlar salohiyatini oshirish;

Boshlang‘ich sinfdan boshlab dars mashg‘ulotlarini mutaxassis o‘qituvchilarning o‘zi o‘qitishi ta’minlash lozim. Tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Dars texnologiyasi, O‘qitish texnologiyasi, Ta’lim texnologiyasi) hamda interaktiv metodlar (klaster, B/B/B, grafik organayzerlar) asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish: O‘qituvchilarni kompyuter vositalari orqali “mahorat darslari”, san’at muzeylariga virtual sayohatlar, 3D videoroliklar va kompyuter grafikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga o‘rgatish.

2. Moddiy-texnik baza va ta’minotni mustahkamlash;

Raqamli texnologiyalarni joriy etish: Maktablarni multimediya proyektorlari, kompyuterlar va internet resurslari bilan ta’minlashni kuchaytirish, bu orqali raqamli texnologiyalardan foydalangan holda dars samaradorligini oshirish.

O‘quv-metodik majmualar bilan ta’minlash: O‘quvchilarni tasviriy savodxonlikka oid bilimlar, sifatli darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va kerakli badiiy materiallar bilan to‘liq ta’minlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

3. Ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish;

Kreativ yondashuvni rivojlantirish: Darslarda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishga undaydigan, ijodiy erkinlikni ta’minlaydigan metodlarni (loyihalash mashqlari, badiiy asarlar tahlili) keng qo‘llash.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (Individual yondashuv): Har bir o‘quvchining layoqatiga mos, tabaqalashtirib o‘qitish prinsiplarini qo‘llash orqali ularning ijodkorligini individual shakllantirish va rivojlantirish.

Xulosa

Umumta’lim maktablarida tasviriy san’at fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirish muammosi murakkab va kompleks yechimni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, asosiy e’tibor malakali kadrlar tayyorlash, maktablarni zamonaviy moddiy-texnik baza bilan ta’minlash va ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etishga qaratilishi lozim.

Bu chora-tadbirlar o‘quvchilarda estetik idrok, badiiy tafakkur va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, natijada umumiy ta’lim sifatini jahon standartlari darajasiga ko‘tarishga asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A’zamjonov A. A. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’at fanini o‘qitishga innovatsion yondashuv yo‘llari mavzusi bo‘yicha amaliy ishlanma. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.

2. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
3. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2005.
4. Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of Working on Graphic Materials in Fine Arts Classes. Journal of Asian Multicultural Research for Educational Study, 1(2), 1-4.
5. Ismatov, U. Sh. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida grafik materiallarda tasvirlar bajarishga o‘rgatish texnologiyalarini takomillashtirish. // МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ. Ilmiy-metodik jurnal. – 2023. – № 2/3.
6. Ismatov, U. S. Rangtasvir. O ‘quv qo ‘llanma.,“Nazokathon ziyo print”., Chirchiq-2023.
7. U.Sh. Ismatov. Bo‘lajak tasviriy san'at o‘qtuvchilarini grafik materiallarda ishlashga o‘rgatish orqali ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish. Maktab va hayot, Ilmiy-metodik jurnal. 2020-yil. Tom-2.
8. Ismatov, U. S. (2023). Methodology Of Teaching Students To Describe Still Life Composition. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 60-65.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSION YONDASHUV

Usmonaliyeva Yulduz Baxrom qizi
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim 2-kurs magistri)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422181

Annotatsiya. *Mazkur maqolada integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni, uning afzalliklari, metodlari hamda maktabgacha ta'lim jarayonida ijodkorlikni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada Reggio Emilia metodikasi orqali bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning afzalliklari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, integratsiya, ijodkorlik, qobiliyat, rivojlantirish, Reggio Emilia metodikasi, kretivlik.*

Аннотация: *В данной статье раскрыта сущность развития творческих способностей детей дошкольного возраста на основе интегративного подхода, его преимущества, методы, а также роль формирования креативности в процессе дошкольного образования. В статье также проанализированы преимущества развития творческих способностей ребёнка посредством методики Реджо Эмилия.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, интеграция, творчество, способность, развитие, методика Реджо Эмилия, креативность.*

Abstract:*This article highlights the essence of developing preschool children's creative abilities based on an integrative approach, its advantages, methods, and the role of creativity formation in the preschool education process. The article also analyzes the benefits of developing a child's creative abilities through the Reggio Emilia approach.*

Keywords: *Preschool education, integration, creativity, ability, development, Reggio Emilia approach, creativity.*

Maktabgacha ta'lim davri – bolaning shaxs sifatida shakllanishi, tafakkuri, his-tuyg'ulari va ijodiy qobiliyatlari jadal rivojlanadigan eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni kuzatish, tajriba qilish, savol berish, mustaqil fikrlash va yangi g'oyalar yaratishga intila boshlaydi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish tarbiya va ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tajribalarda ko'rsatilishicha, bolalarning aynan ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta'lim yosh davriga to'g'ri kelishi o'z isbotini topgan. Hozirgi zamon standartlarini amaliyotda tadbiq etish boladan nafaqat yuqori va doimiy izlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Bolaning kreativligi o'z tajribalari va ixtirolarini qayta ko'rib chiqishi va yanada yaxshilash, natijani anglash hamda ijodiy foydalana bilish, yangiliklar yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bolaning kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanib takomillashib boradi. Har bir bolaning o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga ega ekanligi bilan bog'liq.

Bola o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta sekin takomillashib, rivojlanib

boradi. Bolalarda ijodkorlik qobiliyatning shakllanishida rivojlantiruvchi muhitning o‘rni beqiyosdir.

Ijodkorlik - bu yangi, o‘ziga xos narsalarni yaratish jarayoni. Pedagogikaning muhim vazifalaridan biri ijodiy shaxsni shakllantirishdir. Zamonaviy jamiyat ijodiy faoliyatga qodir bo‘lgan nostandart diversifikatsiyalangan shaxslarga muhtoj. Ijodiy qobiliyatlarga quyidagilar kiradi: tasavvur, fantaziya, sezgi, xayoliy fikrlash, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik va nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati.

Ijodkorlikni erta yoshdan qo‘llab-quvvatlash bolalarning o‘ziga ishonchini oshirishga yordam beradi, dunyoqarashini kengaytiradi va boshqalar sezmagan yangi imkoniyatlarni ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradi. Ota-onalar bolaning ijodiy rivojlanishini rag‘batlantirishi, nafaqat uning o‘zini o‘zi anglashiga hissa qo‘shadi, balki uning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda integratsion yondashuv muhim metod sifatida e’tirof etilmoqda. “Integratsiya” so‘zi lug‘atlarda izohlanishicha lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, qayta qurish, tiklash, to‘ldirish (“integr” - to‘liq, butun, yaxlit) degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, boshqa bir lug‘atlarda “integratsiya” - o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish deyilsa, sohaviy lug‘atlarda “integratsiya” - o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish, deb izohlanadi. Maktabgacha ta’lim tizimida esa integratsiya – turli fanlar, faoliyat turlari va metodlarni bir butun holda uyg‘unlashtirish orqali bolaga kengroq va chuqurroq tajriba berish demakdir. Musiqa, rasm, sahnalashtirish, nutq rivojlantirish, matematika va tabiatshunoslik elementlarini birgalikda qo‘llash bola tafakkurini faollashtiradi, uning tasavvur doirasini kengaytiradi hamda ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining 2-bob 3-bandida integratsiya tushunchasiga alohida to‘xtalib, integratsiya — bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi jarayon ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan Intergativ yondashuv pedagogik jarayonning xohlagan tarkibiy qismida integratsiya tamoyilini ro‘yobga chiqarishni nazarda tutadi hamda uning bir butunligini va tizimliligini ta’minlaydi. Integrativ jarayonlar tizimning alohida elementlarini yoki butun tizimning sifat jihatidan qayta yaratilishi jarayonlaridir. Integratsiya-bu mashg‘ulotlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni mashg‘ulotlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishida namoyon etadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan.

Integratsiyalashuv printsipi zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda yetakchi tamoyil hisoblanmoqda. Integratsiyalashuv tamoyilining mohiyati shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish jarayoni fanlar, faoliyat turlari va tarbiyaviy ta’sirlarning yagona maqsad sari yo‘naltirilgan holda bir-biri bilan uzviy bog‘lanishini talab etadi. Bunda tarbiyachi bolaga tayyor bilimni beribgina qolmay, balki uning fikrlashi, his-tuyg‘ulari, tasavvuri va ijodiy ifodasini uyg‘un ravishda rivojlantirishga xizmat qiluvchi sharoit yaratadi. Integratsiyalashgan ta’lim jarayonida san’at, nutq, matematika, tabiat, konstruktorlik, musiqa va harakat faoliyati o‘zaro qo‘shilib, bola uchun mazmunli, hayotiy va ijodiy tajriba maydonini hosil qiladi. Bunday yondashuv bolaning qiziqishi va ehtiyojlariga asoslanib, uni faollikka undaydi, mustaqil izlanish, savol berish, o‘z fikrini turli shakllarda ifodalash imkonini beradi. Natijada, bola nafaqat bilim oladi, balki ularni amaliyotda qo‘llashni, o‘ylashni, his qilishni, yaratishni va hamkorlikda ishlashni ham o‘rganadi.

Reggio Emilia metodikasi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda integratsion yondashuvning eng yaqqol namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvda bola shaxsini markazga qo‘yish, uning tabiiy qiziqishi va tashabbusini qo‘llab-quvvatlash asosiy o‘rinda turadi. Reggio Emilia tizimida ta’lim alohida fanlarga bo‘linib emas, balki loyiha asosida, turli faoliyat turlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladi. Masalan, rasm chizish, qurish-yasash, drama, musiqa, til va kommunikatsiya, tabiatni o‘rganish kabi yo‘nalishlar bir-biriga bog‘lanib, yagona maqsad sari yo‘naltiriladi. Bu jarayon bolada ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish, emotsional ifoda, estetika va muloqot ko‘nikmalarini kompleks rivojlantiradi.

Reggio Emilia yondashuvi:

- Bolaning qiziqishiga asoslangan mustaqil ta’lim.
- San’at va ijodiy faoliyat asosiy metodlardan biri sifatida qo‘llaniladi.
- O‘qituvchilar bolalar bilan birga o‘rganib, ularni qo‘llab-quvvatlash rolini bajaradi.
- Ota-onalar ham ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi

Reggio Emilia metodikasidagi “bolaning 100 tili” konsepsiyasi har bir bola o‘z fikrini turli shakllarda ifoda eta olishini e’tirof etadi. Bu esa san’at, harakat, so‘z, musiqa, sahnalashtirish kabi ko‘plab ifoda vositalarini integratsiyalashgan holda qo‘llashni taqozo etadi. Shuningdek, ta’lim muhiti “uchinchi tarbiyachi” sifatida tashkil etilib, markazlar o‘zaro bog‘liq holda joylashtiriladi, bu esa bolani tabiiy ravishda ko‘pyoqlama faoliyatga jalb etadi. Reggio Emilia metodikasida tarbiyachi tayyor bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi. U bolaning savollaridan kelib chiqib, turli yo‘nalishdagi faoliyatlarni birlashtiradi va shu orqali haqiqiy integratsion ta’lim jarayonini yaratadi.

Reggio pedagogikasini qo‘llash maktabgacha ta’lim ishtirokchilarida ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish orqali har bir bolaning individualligini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda bola asosiy qahramon va o‘quv jarayonining markaziga joylashadi. Ta’lim oluvchiga pedagog passiv bilim oluvchi sifatida emas, balki o‘z ta’limining faol ishtirokchisi sifatida qaraydi. Pedagog bolaning bilim olishga, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi. Pedagog har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bolalarga yondashadi va moslashadi. Bolalarga yangi narsalarni kashf qilish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Reggio Emilia pedagogikasi bu shunchaki maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash qaratilgan pedagogika emas, balki u bolani erkin, mustaqil, ijodkor, kreativ fikrlovchi, muammolarga yechim topuvchi, o‘z fikriga ega va o‘z “men”nini anglagan bola bo‘lib shaklanishiga yordam beruvchi pedagogikadir. U Yevropa, Osiyo va AQSHdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keng qo‘llaniladigan pedagogika bo‘lib, natijalar an’anaviy pedagogika bilan o‘qitilgan bolalarning natijalaridan katta farq qiladi. Reggio mashg‘ulotlari bolalarning ijodiy salohiyatini ochishga cheksiz imkoniyatlar beradi. Harakat, nutq, mantiqiy fikrlash, hissiy intellekt va mustaqil rivojlantirishga, kattalar hayotida zarur bo‘ladigan va maktabga moslashishga yordam beradigan ko‘nikmalarning shakllanishiga yordam beradi. Bolalarni o‘rab turgan barcha narsalar ularga dunyoni va o‘zlarini tushunishlariga yordam beradi. Reggio pedagogikasida atrofdagi har bir buyum, hodisalarga o‘rganish vositalari sifatida qaraladi.

Reggio Emilia pedagogikasi – bolalarga shaxs sifatida yondashuvchi, uning tug‘ma qobiliyatlari, ijodkorligi va qobiliyatlarini tan oluvchi zamonaviy integratsion yondashuvdir. Bu pedagogika, ayniqsa, uzluksiz ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u har bir bosqichda bolalarning rivojlanishiga mos moslashuvchan ta’lim muhitini yaratishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta’limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun integratsion yondashuv eng samarali metodlardan biridir. U turli fanlar va faoliyatlarni yagona maqsad asosida uyg‘unlashtirib, bolada mustaqil fikrlash, tasavvur, qiziqish va kreativlikni rivojlantiradi. Bu jarayonda tarbiyachi yo‘naltiruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi, bola esa faol subyektga aylanadi. Reggio Emilia metodikasi integratsion yondashuvning amaliy namunasi bo‘lib, “100 til” konsepsiyasi orqali bolalarning ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etish imkonini beradi. Shunday qilib, integratsion ta’lim bolani har tomonlama rivojlantirib, kelajakda ijodkor va mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar
1. rivojlanishiga qo„yiladigan davlat talablari. 2018-yil. 18-iyun.
2. D.B. Bazarbayeva. Maktabgacha ta’lim tizimida integratsion yondashuvning ahamiyati // Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari. – 2023. - B. 103-108.
3. O. Fozilova, Q.G. Islomxo‘jayeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari //Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi. – 2023. - B. 26-29
4. G.I. Xasanova. Integrativ yondashuv asosida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi tarbiyachilarining pedagogic qobiliyatlarini takomillashtirish // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – B. 826-830.
5. http//cyberleninka.ru

TASVIRIY SAN’AT FANLARINIO‘QITISHDA INTERFAOL TA’LIM METODLARDAN FOYDALANISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI (PORTRET CHIZISH MISOLIDA)

Xudaynazarova Ug‘iloy Sharifovna
CHDPU “Tasviriy san’at va dizayn”kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422188

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi, ularning o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, estetik did va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Dars jarayonida “Keys-stadi”, “Aqliy hujum”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin” kabi metodlardan foydalanish orqali talabalarning faolligi, qiziqishi va bilim darajasi oshishi isbotlangan. Ayniqsa, nemis rassomi Albrecht Dyurer ijodini portret janrini o‘qitishda qo‘llashning amaliy afzalliklari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Portret, didaktik, interfaol ,metod, Keys-stadi, “Aqliy hujum”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin”, global, interaktiv*

Аннотация. *В данной статье рассматривается эффективность применения интерактивных методов обучения при преподавании изобразительного искусства, их роль в формировании у студентов творческого мышления, эстетического вкуса и самостоятельности. Использование таких методов, как «кейс-стади», «мозговой штурм», «дискуссия» и «ролевые игры», способствует активизации учебного процесса. Особое внимание уделено использованию произведений немецкого художника Альбрехта Дюрера при обучении жанру портрета.*

Ключевые слова: *Портрет, дидактический, интерактивный, метод, кейс-стади, «Мозговой штурм», «Обсуждение», «Ролевая игра», глобальный, интерактивный*

Annotation. *This article analyzes the effectiveness of using interactive teaching methods in art education and their role in developing students’ creative thinking, aesthetic perception, and independent learning skills. Methods such as “case study,” “brainstorming,” “debate,” and “role play” increase students’ engagement and learning outcomes. The pedagogical value of applying the works of the German artist Albrecht Dyurer in teaching the portrait genre is particularly emphasized.*

Keywords: *Portrait, didactic, interactive, method, case study, "Brainstorming", "Discussion", "Role playing", global, interactive*

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib,

ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Dars jarayonida interfaol metodlar asosida ish olib borilganda esa turli xil faol metodlar, har xil grafik organayzerlardan foydalanib, pedagogik texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etishni anglatadi. Eng asosiy mazmun darsning faol o‘tishidir, bunda o‘qituvchi ham talabalar ham faol ishtirok etadi. Yana bir qulaylik taraflari shundan iboratki interfaol tarzda amalga oshirilgan dars tiplarida passiv o‘zlashtiruvchi talabalar ham faollikka intilishadi natijada unda shu mavzu yuzasidan tushunchalar hosil qilinadi va baholanadi. O‘qituvchi hamda talabalarning birgalikda olib boriladigan bunday faoliyati an’anaviy dars tiplaridan tubdan farq qiladi, chunki interfaol ta’lim, interfaol metodlar no an’anaviy darslarda yaxshi samara beradi

Interfaol o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini shunday tashkil etadiki unda barcha talabalar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, kunning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunday muammoni hal qilishda barcha fanlarni ta’limiy va tarbiyaviy ahamyatini o‘quvchilarga uqtirib o‘qitish o‘z samarasini berishi shubxasiz. SHunday fanlar qatorida tasviriy san’at fanining ham ahamiyati kattadir. Bu fanni o‘qitishda ayniqsa nemis rassomi Dyurrerning asarlaridan foydalanib darslarni tashkil qilish o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Buyuk portretchi rassom Dyurrerning portret asarlari asosida ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda “Tasviriy san’atda portret. Portret janrida ishlangan asarlarni badiiy idrok etish” mavzusini “Keys-stadi” ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish bo‘yicha dars ishlanma namunasini keltirib o‘tamiz.

O‘quv fani: Qalamtasvir

Mavzu: Tasviriy san’atda portret. Portret janrida ishlangan asarlarni badiiy idrok etish.

Keysning asosiy maqsadi: o‘quvchilarga tasviriy san’atda portret janrining ahamyati haqida tushuncha berish, serqirra nemis rassomi Dyurrerning portret janrida ishlangan asarlarni badiiy idrok etishga o‘rgatish hamda uning hayoti va ijodi bilan tanishtirish.

O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

1. Portret janri va uning rivojlanish tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zlashtiradi;
2. Portret janrida ishlangan asarlarni badiiy idrok etadi;
3. Buyuk portretchi rassom Dyurrerning hayoti va ijodi, asarlarining yaratilishi to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikmalar shakllanadi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar oldindan quyidagi kompetensiyaga ega bo‘lishlari kerak:

Talaba quyidagilarni bilishi kerak: Portret janri va uning rivojlanish tarixi, portret janrida ijod qilgan rassomlar va ularning asarlari, Buyuk portretchi rassom Dyurrerning ayrim asarlari to‘g‘risidagi bilimlarni.

Talaba quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak: mavzuni mustaqil o‘rganish; muammoning mohiyatini aniqlashtirish; g‘oyalarni ilgari surish; o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqarish; o‘quv ma’lumotlar bilan mustaqil ishlash; ma’lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish.

Talaba quyidagi malakalarga ega bo‘lishi kerak: individual va hamkorlikda ishlash, kognitiv, evristik, kreativ faoliyat malakalari.

Keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan echimning individual va guruhiy tahlilida bilim va ko‘nikmalarni qayta topshirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- o‘quv axborotlarni o‘zlashtirish.

Muammoli topshiriqlar

1-muammoli topshiriq. Portret janri qachon paydo bo‘lgan?

_____

_____

2-muammoli topshiriq Nemis rassomi Dyurrerning asarlaridan foydalanishning qanday afzalliklari mavjud?

_____

_____

3-muammoli topshiriq. Buyuk portretchi rassom Dyurerning hayoti va ijodiga oid berilgan anketa so‘rovnomasini to‘ldiring.

_____

_____

Yuqoridagi tadbirlar to‘g‘ri va o‘z o‘rnida tashkil etilsa, darslarda, xususan qalamtasvir fanlarida turli xil interfaol metodlar talabalarga bilim berishda qo‘llansa, bo‘lajak rassom-pedagoglarni har tomonlama mukammal qilib tayyorlash, ularning kreativlik qobilyatlarini shakillantirish va kasbiy kompotentligini rivojlantirish imkoniyatiga erishiladi.

Tasviriy san’at fanlarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, “Keys-stadi” metodini qo‘llash darslarni real hayotiy muammolar bilan bog‘lab, bilimni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltiradi.

Albrecht Dyurer ijodi asosida portret janrini o‘rgatish esa ta’limda estetik did, mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Interfaol metodlardan samarali foydalanish natijasida bo‘lajak rassom-pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, ijodiy faolligi va san’atga bo‘lgan qiziqishi oshadi.

Shunday qilib, interfaol ta’lim metodlari zamonaviy tasviriy san’at ta’limining ajralmas qismi bo‘lib, ular orqali o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, milliy va jahon san’atiga hurmat ruhida tarbiyalash imkoniyati yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliakbarova Sh. “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
2. Gombrix E. “Искусство и его история”. – Москва: Искусство, 1988.

3. R. Rajabov, H.Sultonov, “Tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma)Toshkent -2008
4. Khudoynazarova, O. Oliy pedagogik ta’limda talabalarga inson portretini tasvirlashda plastik anatomiyaning nazariy asoslari.
5. Sultanov X.E (2023). Mustaqil ta’limni tashkil etish orqali talabalardagi kasbiy va ijodiy qobilyatlarini faollashtirish. International scientific and practical conference on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions”, *1*(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/125
6. Sultanov Xaytboy Eralievich. (2023). A cluster approach as a tool for supporting the integration of indisciplinary research and educational networks. current research journal of pedagogics, 4(11), 91–98. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-16
7. The role of integrative education in student activation. (2024). *Web of Teachers: Inderscience Research* , *2*(11), 151-155. https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/2188

TASVIRIY SAN’AT O‘QUV JARAYONIDA INTERFAOL O‘QITISH VOSITALARI VA METODLARDAN FOYDALANISH

Abdirasilov Sunatulla Fayzullayevich[1], Abdujabborova Maftuna Xamrali qizi[1], Musurmonova Pokiza Muzuffar qizi[1], Nurmahanova Jasmina Abduxalik qizi[1]
[1]O‘MPU professori, [1]O‘MPU magistri, [1]O‘MPU magistri, [1]O‘MPU talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422212

Annotatsiya. *Ushbu maqolada interfaol tushunchasi, interaktiv vositalari, interfaol metodlar, interfaol ta’lim usuli va texnologiyalari, innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitish jarayoni, tasviriy san’at o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari keltirilgan, shuningdek, pedagogik shart-sharoitlar interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari orqali talabalarda ijodiy qobiliyatlarining shakllantirishda ahamiyat kasb etishi bayon etilgan.*
Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, interfaol, ta’lim vositasi, interfaol metodi, interfaol usuli, pedagogik texnologiya, interfaol texnologiyasi.*
Аннотация. *В данной статье представлены понятие интерактивность, интерактивные средства, интерактивные методы и технологии обучения, процесс обучения посредством инновационных образовательных и информационно-коммуникационных технологий, эффективные формы организации учебных занятий по изобразительному искусству, а также педагогические условия, интерактивные методы и технологии обучения образовании имеет важное значение в формировании у студентов творческих способностей.*
Ключевые слова: *изобразительное искусство, интерактивность, образовательный инструмент, интерактивные приёмы, интерактивный метод, педагогическая технология, интерактивная технология.*
Abstract. *This article presents the concept of interactivity, interactive tools, interactive methods and technologies of education, the learning process through innovative educational and information and communication technologies, effective forms of organizing training sessions in the visual arts, as well as pedagogical conditions, interactive methods and technologies of education education is important in the formation of students creativity.*
Key words: *art, interactivity, educational tool, interactive techniques, interactive method, pedagogical technology, interactive technology.*

Har bir davlatning taraqqiyotini, uning ijtimoiy va iqtisodiy ravnaqi va kelajagini ta’minlovchi asosiy omil bu - ta’lim-tarbiyadir. So‘nggi yillarda Prezidentimiz tomonlaridan olib borilayotgan siyosatning tub mohiyatida o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga e’tibor qaratish va sifatli kadrlar bo‘lib etishida o‘quv muassalarida dars o‘tish tizimini yangilash asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri 12 bob, 73 moddadan iborat bo‘lib, 1997-yildagi qabul qilingan amaldagi qonundan tubdan farq qiladi. Bu qonunga rivojlangan davlatlarning ta’lim to‘g‘risidagi qonunlari asosiy poydevor sifatida tanlanmoqda.

Zamonaviy dunyoning doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish ijodiy qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogini muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish, tarbiyalash, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorliklar asosida yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga olib keladi

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san’at o‘quv jarayonini modernizatsiyalash, tasviriy san’at o‘qituvchisi bo‘ladigan mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-ijodiy innovatsiyalardan mustaqil ravishda foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vazifalardan sanaladi.

Bunda badiiy ta’lim bosqichlarining o‘zaro mazmunan bog‘liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash; oliy ta’limda tasviriy san’at o‘quv jarayonini tashkil etishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o‘quv uslubiy majmualar sifatini ta’minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o‘qituvchilarning kompyuter va Internetdan foydalanish bo‘yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta’limning axborot resurs va zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at o‘qituvchilarining faoliyat yo‘nalishlari tarkibini belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ma’lumki oliy ta’lim tizimini xususan, tasviriy san’at ta’lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern - yangilangan, zamonaviy, o‘sish) o‘quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi.

Bu borada innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zini ijodiy faolashtirish, kreativ ishlanmalar(mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan erkin ta’lim muhitini tashkil etish A. Abduqodirov, N. Azizxodjaeva, U. Begimqulov, J. Yo‘ldoshev, N. Sayidahmedov, O‘. Tolipov, B. Xodjaev, G. Ibragimovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan.

Hozirgi kunda barcha e’tibor kompyuter texnologiyalariga qaratilmoqda. Har qanday inson zamonaviy sharoitda o‘zini qulay his qila olishi uchun u zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanadigan maktablar insonni hayotga to‘liq tayyorlay olmaydi.


Axborot texnologiyalari - axborot jarayonlarini amalga oshirish uchun texnik va dasturiy vositalar, axborot texnologiyalarining mohiyatini texnik vositalar yordamida axborotni olish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va takror ishlab chiqarish usullari tashkil etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarida markaziy o‘rinni kompyuter va uning dasturiy ta’minoti egallaydi. [7]

Pedagogik texnologiya - shakllar, usullar, uslublar, o‘qitish usullari, tarbiya vositalarining maxsus majmuini belgilovchi psixologik-pedagogik munosabatlar majmui; bu pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy quroli (B.T.Lixachev);

- bu rejalashtirilgan ta’lim natijalariga erishish jarayonining tavsifi (I.P.Volkov);
- bu o‘quv jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi (V.P. Bespalko);
- o‘qituvchiga ko‘proq samaradorlik bilan, o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazishda, to‘g‘ri o‘qitish va ta’sir qilish usuli bilan yordam beradigan barcha zarur ko‘nikma, qobiliyat va bilimlar majmui degan fikrni bir qator olimlar bildirishgan.

Interfaol ta’lim vositasi - bu real vaqt rejimida foydalanuvchi va u ishlaydigan axborot tizimi o‘rtasida faol xabar almashinuvi mavjud bo‘lgan dialogning paydo bo‘lishini ta’minlaydigan vosita.

Zamonaviy texnologiyalar talaba egallayotgan bilimlarni o‘zi qidirib topish, mustaqil o‘rganib, tahlil qilish, xulosalarni ham o‘zi keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Talabalar o‘z-o‘zini rivojlantirish, tarbiyalash, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorliklar asosida yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga olib keladi



Jadval 1. Interfaol ta’lim vositalari.

Ta’lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta’minotning mavjudligini ko‘zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san’at o‘quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o‘quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo‘nalishlardan sanaladi.

Bu esa o‘z navbatida tasviriy san’at o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma’ruza (muammoli ma’ruza, ma’ruza-seminar, virtualtexnologik ma’ruza, vizual ma’ruza, binar ma’ruza, kirish ma’ruzasi, ma’ruza-konferensiya, axborotli ma’ruza, ma’ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma’ruza, on-line ma’ruza) trening, videotrening, vebinarlar,

internet konferensiyalar, innovatsion o‘qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o‘yinlar, o‘quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi tasviriy san’at o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o‘ziga xos hisoblanadi.

Interfaol - so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, “inter” - o‘zaro va “activ” - harakat qilmoq ma’nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya’ni o‘zaro harakat qilmoq ma’nosini anglatadi. [6]

Interfaol ta’limda o‘qituvchi o‘quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo‘lib, talaba bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Interfaol ta’limni amalga oshirishning muhim vositasi – interfaol o‘qitish metodlaridir.

Interfaol o‘qitish metodlari talabalardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonidagi faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalga oshishiga yordam beradi.

Interfaol metodlar – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini hamda o‘qituvchi bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar.

Interfaol metodlarning mohiyati o‘qitish jarayonida talaba faolligini oshirish, talabani pedagogik faoliyatning asosiy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Talabalarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo‘llaniladigan usullarni to‘g‘ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsda mavzuga qo‘yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo‘li, usuli puxta ko‘rib chiqilishi lozim. O‘qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usuli talabaga nima berishini oldindan ko‘ra olishi va darsni to‘g‘ri tashkil qilishi kerak.

Interfaol ta’lim o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

O‘qituvchi interfaol ta’lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘qituvchi talabalarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi

Interfaol metodlar bilan an’anaviy ta’lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini tanlashda to‘g‘ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo‘llash mashg‘ulotlarida hamda o‘quv fanining xususiyatlarini

hisobga olgan holda har bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘g‘ri tanlash nazarda tutiladi. To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun talabalarning tayyorliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bular mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalardan iborat.

Interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi - talabalarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, talabalar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Hozir interfaol mashg‘ulotlarni olib borishda ma’lumki, asosan interfaol usullar qo‘llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o‘sib o‘tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o‘zaro farqini bizningcha, shunday ta’riflash mumkin.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi – har bir o‘qituvchi barcha talabalar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha ayrim tajribalarni o‘rganish asosida bu mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ayrim omillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o‘qituvchiga, talabalarga, ta’lim vositalariga bog‘liq omillar deb atash mumkin.

Badiiy ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi **pedagogik shart-sharoitlar**ga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– talabalarda ijodiy faoliyatni egallash, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

– talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligini, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

– o‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nik-malarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart echimlar bilan birga nostandart echimlar qabul qilishga undash;

– ijodiy faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari talabalarda ijodiy qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni. Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi https://lex.uz/.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii v podgotovke uchitelya. – T.: TDPU, 2000. – 80 b.
3. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 y. 1.2.
4. Ibragimova G.N. Interfaol ukitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik kobiliyatlarini rivojlantirish. / Monografiya. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. – 77 b.
5. Davletshin M.G., Jalilova S.I. Oliy maktabda ta’lim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari – T.: TDPU, 2001. – 10 b.
6. Mirsolieva M., Ibragimova G. Ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. - T.: 2015.
7. Katta entsiklopedik lug‘at /Axborot texnologiyalari [Elektron resurs]: http://dis.academic.ru.
8. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2006.
9. Abdirasilov S., Azimov B. Rangtasvir. T.: Musiqa nashriyoti, 2011.
10. Moleva N.M., Belyutin E.M. Vыdayuщiesya russkie xudojniki-pedagogi. - M.: Prosveщenie, 1991.
11. Abdirasilov, S. F. (2022). Patriotic Education of Schoolchildren by Means of National Fine Arts. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(5), 52-58.
12. Abdusalomxodjaev Nozim Nizomxujaevich, Abdirasilov Sunatulla Fayzullaevich, & Akbarxujaev Abdulaziz Axmadxodjaevich (2017). Master-klass jivopisi ot masterov. Nauka, obrazovanie i kultura, (9 (24)), 73-75.
13. Boltaboev A.K., & Abdirasilov S.F. (2023). METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS BY MAKING PENCIL DRAWINGS AND DRAFTS. Ekonomika i sotsium, (3-2(106)),57-60b.
14. Komoldinov S.J., & Abdirasilov S.F. (2023). ON THE INTEGRITY OF ILLUSTRATION IN PAINTING LESSONS AND ITS RELATIONSHIP WITH COMPOSITION ACTIVITY. Ekonomika i sotsium, (3-2 (106)), 168-171 b.
15. S. Abdirasilov, & B. B. Kurbanov. (2022). PORTRET JANRIDA ORQALI TALABALARDA BADIIY OBRAZNI SHAKLLANTIRISH. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, 1(2), 53–59. Retrieved from https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/282
16. Abdirasilov, S., & Maxkamova, S. (2019). Research of Structure of Fractals in a Life of Mankind and Fine Arts Products. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 302-305 b.

5-7-SINFLARDA TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR

Boboqulov Javohir Hamzayevich
Navoiy Davlat Universiteti 70110501 – Tasviriy san'at magistratura ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422230

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 5-7-sinf o'quvchilarini tasviriy san'at ta'limi jarayonida zamonaviy metodik yondashuvlardan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xususan, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, STEAM yondashuvi va milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik metodlar qiyosiy o'rganildi. Tadqiqotda tasviriy san'atni o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, vizual savodxonligini oshirish va san'at orqali umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashish masalalari yoritilgan. Maqolada ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.*

Annotation: *This article analyzes the possibilities of effectively applying modern methodological approaches in teaching visual arts to students of grades 5–7. In particular, it examines interactive methods, information and communication technologies, the STEAM approach, and pedagogical methods based on national values. The study highlights the development of students' creative thinking, the enhancement of visual literacy, and the promotion of respect for universal human values through art. The article also provides scientific suggestions and recommendations aimed at improving the quality of education.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы возможности эффективного использования современных методических подходов в процессе преподавания изобразительного искусства учащимся 5-7-х классов. В частности, рассмотрены интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, STEAM-подход и педагогические методы, основанные на национальных ценностях. В исследовании освещены вопросы развития творческого мышления учащихся, повышения визуальной грамотности и воспитания уважительного отношения к общечеловеческим ценностям через искусство. В статье представлены научные предложения и рекомендации, направленные на повышение качества образования.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, 5-7-sinf, zamonaviy metodik yondashuv, innovatsion texnologiya, interaktiv usullar, vizual savodxonlik, ijodiy tafakkur, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, STEAM.*

Keywords: *visual arts, grades 5-7, modern methodological approaches, innovative technologies, interactive methods, visual literacy, creative thinking, national and universal values, STEAM.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, 5-7-е классы, современные методические подходы, инновационные технологии, интерактивные методы, визуальная грамотность, творческое мышление, национальные и общечеловеческие ценности, STEAM.*

Kirish. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasini isloh qilish, uni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish masalasi davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalar sirasiga kiradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: – “Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ilm-ma’rifat va tarbiya masalasi eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolishi kerak”[112]. Shu jihatdan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanini samarali tashkil etish va unda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

5-7-sinflar o‘quvchilari ijodiy tafakkur, vizual savodxonlik va badiiy dunyoqarash shakllanib boradigan muhim bosqichda turibdilar. Ana shu bosqichda tasviriy san’at ta’limi faqatgina chizma va ranglar bilan ishlash ko‘nikmasini emas, balki ularda mustaqil fikrlash, go‘zallikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini ham tarbiyalaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari, interfaol usullar va STEAM yondashuvini joriy etish orqali tasviriy san’atdan olib borilayotgan dars mashg‘ulotlarini yanada mazmunli va samarali qilish mumkin. Bu esa nafaqat fanni o‘qitish sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyati va estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mavzunung dolzarbligi shu bilan asoslanadiki, tasviriy san’at fanini o‘qitishda an’anaviy uslublar bilan cheklanib qolmasdan, balki zamonaviy pedagogik metodlar, innovatsion yondashuvlar va milliy merosga suyangan holda fandan samarali natijaga erishish mumkin.

Mavzuni o‘rganilganlik darajasi borasida qo‘yidagilarni aytib o‘tishni joiz topdek.

Tasviriy san’at ta’limi va uni takomillashtirish masalasi jahon ilmiy hamjamiyatida keng o‘rganilgan. Xorijiy olimlardan J. Dyui, G. Rid, V. Louenfeld kabi tadqiqotchilar san’at ta’limining shaxs rivojlanishi va ijodiy tafakkur shakllanishidagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ular ta’limda vizual madaniyatni shakllantirish, estetik didni rivojlantirish va ijtimoiy qobiliyatlarni oshirishga alohida e’tibor qaratganlar.

O‘zbekistonda ham tasviriy san’at ta’limini takomillashtirish yo‘nalishida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, pedagog olimlar B. Hamidov, D. Rajabov, Sh. Ashurov, N. Tursunov va boshqalar o‘z ishlarida umumta’lim maktablarida san’at fanlarini zamonaviy metodlar asosida o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berganlar.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda Prezident va Hukumat qarorlarida ta’lim sifatini oshirish, ijodiy fanlarning o‘rnini kuchaytirish va yoshlarda estetik madaniyatni shakllantirish masalasiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham ta’limning har bir bosqichida zamonaviy innovatsion metodik yondashuvlarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu asosda aytish mumkinki, mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlar bo‘lgan bo‘lsa-da, 5-7-sinflarda tasviriy san’at ta’limida zamonaviy metodik yondashuvlarning samaradorligi maxsus ilmiy tadqiqot sifatida yetarlicha yoritilmagan. Bu esa mazkur maqolaning ilmiy-amaliy qiymatini yanada oshiradi.

O‘rganiladigan mavzumiz yuzasidan qo‘yidagicha maqsad bilgiladik:

5-7-sinflarda tasviriy san’at ta’limini zamonaviy metodik yondashuvlar asosida takomillashtirish, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini, vizual savodxonligini va estetik didini rivojlantirish, shu orqali umumiy ta’lim sifatini oshirish.

Albatta oldimizga qo‘ygan maqsadimizdan kelib chiqib qo‘yidagi vazifalarni bilgiladik:

[112] Sh.M.Mirziyoevning nutqidan

1. Tasviriy san’at ta’limi sohasidagi ilmiy-nazariy manbalarni o‘rganish va tahlil qilish;

2. 5-7-sinflarda tasviriy san’at ta’limining hozirgi holatini tahlil qilish;

3. Zamonaviy metodik yondashuvlarni (interaktiv usullar, AKT, STEAM, proyektli va kollaborativ ta’lim) o‘quv jarayoniga tadbiq qilish imkoniyatlarini o‘rganish;

4. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyati va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy metodik yondashuvlarning samaradorligini asoslab berish;

5. Tasviriy san’at ta’limida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish yo‘llarini ko‘rsatib berish;

6. Olingan natijalar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

1. 5-7-sinflarda tasviriy san’at ta’limining hozirgi holati:

– Bugungi kunda tasviriy san’at fanini o‘qitish jarayonida ko‘p hollarda an’anaviy usullarga asoslanilmoqda. Darslarda o‘qituvchi tomonidan bilim berish markaziy o‘rinda bo‘lib, o‘quvchi faoliyati yetarlicha rag‘batlantirilmaydi. Natijada, ayrim o‘quvchilarda ijodkorlikka qiziqish susayishi va mustaqil fikrlashda qiyinchiliklar kuzatilmoqda. SHu bilan birga, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to‘liq foydalanilmasligi ta’lim sifatini pasaytiradi.

2. Zamonaviy metodik yondashuvlar:

a) Interaktiv usullar;

– “Breynstorming”, “Klaster”, “Ajurli pila” kabi interfaol usullardan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi va ularda ijodiy g‘oyalarni erkin ifoda etish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

b) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT);

– Tasviriy san’at darslarida multimedia vositalari, elektron platformalar va raqamli tasvir texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni fanga qiziqtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, grafik dizayn dasturlari yordamida kompozitsiya yaratish yoki 3D modellashtirish mashg‘ulotlari.

v) STEAM yondashuvi;

– Fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) va matematika (Mathematics)ni uyg‘unlashtirgan holda tasviriy san’atni o‘qitish o‘quvchilarning kompleks tafakkurini rivojlantiradi. Masalan, geometriya elementlaridan foydalanib ornament yoki arxitektura detallarini chizish.

g) Milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv;

– Dars jarayonida milliy naqshlar, amaliy san’at namunalari, xalq ustalari merosidan foydalanish o‘quvchilarda milliy g‘urur va qadriyatlarga hurmatni oshiradi. SHu orqali ularning ma’naviy dunyoqarashi boyiydi.

3. O‘quvchi va o‘qituvchi faolligini ta’minlashda innovatsion texnologiyalar:

– “Loyiha usuli” orqali o‘quvchilarga kichik ijodiy topshiriqlar berish (masalan, “Mening uyim arxitekturasi” mavzusida mini-loyiha);

– “Kollaborativ ta’lim” orqali guruhlarda ishlash, birgalikda kompozitsiya tayyorlash;

– “Gamification” – o‘yin elementlari yordamida dars jarayonini qiziqarli qilish;

4. Ta’limda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish:

– Tasviriy san’at orqali bolalar nafaqat milliy an’analar, balki dunyo xalqlari madaniyati bilan ham tanishadilar. Bu esa ularda bag‘rikenglik, estetik did va umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantiradi.

Tasviriy san’at ta’limini takomillashtirish masalasi bo‘yicha turli olimlar turli yondashuvlarni ilgari surganlar. Masalan, J. Dyui ta’limda ijodkorlik va tajribaviy faoliyatni ustuvor deb hisoblagan bo‘lsa, V. Louenfeld bolalarning psixologiyasiga mos metodlarni ishlab chiqqan. Ularga ko‘ra, san’at orqali shaxsning individual xususiyatlari va ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi.

O‘zbek olimlaridan B. Hamidov tasviriy san’at ta’limini milliy meros bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. D. Rajabov esa interfaol usullarni qo‘llash o‘quvchilar ijodkorligi va mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishini ko‘rsatib o‘tgan.

Amaliyotda esa ko‘pgina umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanini o‘qitishda an’anaviy dars shakllari hali ham asosiy o‘rinni egallaydi. Bu esa o‘quvchilarda fanga qiziqishni kamaytiradi va ijodkorlik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqishida to‘siq bo‘ladi.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda ayrim maktablarda AKT vositalari, multimedia resurslari va STEAM yondashuvi asosida tasviriy san’at o‘quv fanidan dars mashg‘ulotlari tashkil etilmoqda. Masalan, rasm chizish jarayonida elektron planshetlardan foydalanish, geometriya bilan bog‘liq kompozitsiya mashg‘ulotlari yoki loyiha asosida topshiriqlarni bajarish o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Buning o‘zi zamonaviy metodik yondashuvlar samaradorligini tasdiqlaydi.

Munozaradan shu xulosaga kelish mumkinki, tasviriy san’at ta’limini zamonaviy metodlar bilan boyitish orqali faqatgina bilim berish emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, estetik didi va ijodiy tafakkuri ham yuksaladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin bo‘lsa, 5-7-sinflarda tasviriy san’at ta’limini zamonaviy metodik yondashuvlar asosida tashkil etish – o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini boyitish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni mustaqil fikrlaydigan, zamon talabiga javob beradigan shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega:

1. Zamonaviy metodik yondashuvlar (interaktiv usullar, AKT vositalari, STEAM yondashuv) o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi;

2. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi;

3. Dars jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bilimlarni o‘zlashtirish darajasini yuqori saviyaga ko‘taradi;

4. Zamonaviy metodlar asosida o‘qitish – pedagog uchun yangi ishlanmalar yaratish, amaliy mashg‘ulotlarni boyitish imkonini beradi.

Mavzu yuzasidan beradigan takliflarimiz qo‘yidagicha:

– tasviriy san’at fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha o‘qituvchilar uchun muntazam seminar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur;

– maktablarda raqamli vositalar va multimedia jihozlaridan keng foydalanish uchun shart-sharoit yaratish kerak;

– 5-7-sinflar uchun tasviriy san’atga moslashtirilgan interaktiv elektron darslik va qo‘llanmalar ishlab chiqish lozim;

– dars jarayonida milliy an’analar va jahon san’ati namunalarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatlari kengayadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” PF-60-sonli Farmoni. – Toshkent, 2022.
4. Qodirov, A. Pedagogika nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.
5. Abduraxmonov, N. Tasviriy san’at ta’limida innovatsion yondashuvlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
6. Xasanov, B. Art Education and Digital Technologies in Secondary Schools. – Tashkent: Innovatsiya Press, 2021.
7. UNESCO. Arts Education Policy Review. – Paris, 2020.
8. Elliot, D. Music and Art Education: Critical Perspectives. – New York: Routledge, 2019.
9. Шавдиров С. А. Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 109-110.
10. Ibraimov X., Shovdirov S. Theoretical Principles of The Formation of Study Competencies Regarding Art Literacy in Students //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B10. – С. 192-198.
11. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1. – С. 131-134.
12. Shovdirov S. Analyzing the sources and consequences of atmospheric pollution: A case study of the Navoi region //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 587. – С. 02016.
13. Shavdirov S. Method of organization of classes in higher education institutions using flipped classroom technology //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – Т. 3268. – №. 1. – С. 070035.
14. Шавдиров С. А. Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 6. – С. 15-21.
15. Baymetov B. B., Shovdirov S. A. Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 60-66.
16. Shovdirov S. TASVIRIY SAVODXONLIKKA OID O ‘QUV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA O ‘QUVCHILARNI MANTIQIY VA ABSTRAKT FIKRLASHGA O ‘RGATISH //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 193-196.

MAGISTRATURADA TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

Tohirov Javohir Akbar o‘g‘li
Navoiy Davlat Universiteti 70110501 – Tasviriy san’at magistratura ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422259

Annotatsiya*. Ushbu maqolada magistratura bosqichida tasviriy san’at fanini o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy metodik yondashuvlar, xususan, miniatyura san’ati asosidagi o‘qitish usullarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada miniatyura san’atining o‘ziga xos xususiyatlari – rang uyg‘unligi, kompozitsion tuzilma, chiziqning nafisligi va obrazlarning ramziy ifodasi – tasviriy san’atni o‘qitish metodikasida muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Maqolada ilgari surilgan metodik tavsiyalar san’at ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.*

Annotation: *This article analyzes modern methodological approaches applied in the process of teaching fine arts at the master’s level, particularly the theoretical and practical aspects of teaching methods based on the art of miniature. The article emphasizes that the distinctive features of miniature art – color harmony, compositional structure, the delicacy of line, and the symbolic expression of images – play an important role in the methodology of teaching fine arts. The methodological recommendations proposed in the article can serve as a practical guide for educators working in the field of art education.*

Аннотация: *В данной статье анализируются современные методические подходы, применяемые в процессе преподавания изобразительного искусства на уровне магистратуры, в частности, теоретические и практические аспекты методов обучения, основанных на искусстве миниатюры. В статье подчёркивается, что характерные особенности миниатюрного искусства — гармония цвета, композиционная структура, утончённость линии и символическое выражение образов — занимают важное место в методике преподавания изобразительного искусства. Предложенные в статье методические рекомендации могут служить практическим пособием для педагогов, работающих в системе художественного образования.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, miniatyura san’ati, rangtasvir, metodika, magistratura, o‘qitish usullari, badiiy tafakkur, estetik tarbiya, milliy meros, innovatsion ta’lim.*

Keywords: *fine arts, miniature art, painting, methodology, master’s degree, teaching methods, artistic thinking, aesthetic education, national heritage, innovative education.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, искусство миниатюры, живопись, методика, магистратура, методы обучения, художественное мышление, эстетическое воспитание, национальное наследие, инновационное образование.*

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, xususan, “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan maqsadlar san’at ta’limining mazmunini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida milliy madaniyatni, xalq amaliy san’atini asrab-avaylash va uni

yosh avlod ongiga singdirish, ularning estetik didini, badiiy tafakkurini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tasviriy san’at insonning nafosat olamiga kirish darvozasi bo‘lib, u orqali shaxs voqelikni badiiy idrok etadi, rang, shakl, kompozitsiya va ifoda vositalari yordamida dunyoni qayta yaratadi. Shu bois, tasviriy san’at fanini o‘qitish faqat texnik chizmachilik yoki rasm mashg‘uloti emas, balki estetik tarbiya, ma’naviy-axloqiy shakllanish, ijodiy fikrlash jarayonidir. Ayniqsa, magistratura bosqichida bu yo‘nalish bo‘yicha chuqur metodik bilim va malaka shakllantirish zamon talabi hisoblanadi.Magistrant san’atshunos, pedagog va ijodkor sifatida nafaqat chizish mahoratini, balki badiiy tahlil, metodik rejalashtirish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish jarayonlarini chuqur o‘rganishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, tasviriy san’at fanini o‘qitish metodlarini milliy miniatyura san’ati asosida o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida e’tirof etiladi.

Miniatyura san’ati Sharq uyg‘onish davri madaniyatining eng go‘zal yutuqlaridan biri bo‘lib, u o‘zining badiiy ifoda vositalari, rang uyg‘unligi, obrazlilik, ramziylik va estetik mukammalligi bilan ajralib turadi. Behzod, Mirak Naqqosh, Ahmad Musavvir, Mahmud Muzahhib kabi buyuk musavvirlar yaratgan asarlar Sharq miniatyura maktablarining yuksak badiiy saviyasini ko‘rsatadi. Ushbu boy merosni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish, uni yosh avlod qalbida qayta jonlantirish – san’at pedagogikasining muhim vazifalaridan biridir. Bugungi kunda tasviriy san’at darslarida milliy uslubda ishlash, miniatyura elementlarini qo‘llash, ramzlar tilidan foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytirish, ularni estetik zavq bilan ishlashga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, rangtasvir yo‘nalishida miniatyura uslublaridan foydalanish o‘quvchi va magistrantlarni milliy badiiy tafakkurga yaqinlashtiradi, ular orqali Sharqona kompozitsiya, rang madaniyati va obrazlilikni chuqur his etish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasiga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan uch asosiy yo‘nalishda jamlangan:

1. Tasviriy san’at ta’limining umumiy nazariy va metodik asoslari;
2. Rangtasvir mashg‘ulotlarida badiiy tafakkurni rivojlantirish metodlari;
3. Milliy san’at – xususan, miniatyura an’analarining pedagogik ahamiyati.

Tasviriy san’at ta’limining umumiy nazariy asoslarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, avvalo: – Tasviriy san’atni o‘qitish masalalari o‘zbek pedagogikasida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab chuqur o‘rganila boshlandi. S.Abdirasilov, N.Abdullayev, S.Abdullayev, X.Alyaminov, A.Amanullayev, B.Boymetov, A.Vosiqov, J.Darmenov, A.Inog‘omov, N.Kevish, J.Majidov, O‘.Nurtoyev, N.Oydinov, B.Oripov, R.Rajabov, D.Sobirova, A.Sulaymonov, N.Tolipov, A.Turdaliyev, S.Fayzulina, O.Xudoyorova, N.YUldasheva, K.G‘ulomov, Q.Qosimov, B.Qo‘chqorov, R.Hasanov, S.SHovdirovlar tasviriy san’at ta’limi mazmunini takomillashtirish, badiiy ta’lim va tarbiyani tashkil etish, tasviriy san’at darslari samaradorligini oshirish, uzluksiz ta’limda tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borishgan. Shuningdek, xorijiy manbalarda (J. Dewey, H. Read, R. Arnheim, L. S. Vygotskiy va boshqalar) san’at ta’limining psixologik va falsafiy asoslari keng tahlil qilingan. J. Dyui san’atni “tajriba orqali o‘zini anglash jarayoni” deb ta’riflab, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni ta’limning markaziga qo‘yadi.

O‘zbekistonlik san’atshunos va pedagog olimlar – S.Bulatov, M.Nabiyev, N. Raxmonov, T. Ergashov, M. Otabekov, A. Mamatqulov, G. Jumayeva, E.SHavqiyev tadqiqotlarida

rangtasvir mashg‘ulotlarining o‘qitish metodikasi, rang hissiyotini rivojlantirish, badiiy idrokni shakllantirish masalalari yoritilgan.Masalan, N. Raxmonov o‘zining “Rang va obraz uyg‘unligi” nomli ishida rangtasvir mashg‘ulotlarida o‘quvchining emotsional sezgirligini rivojlantirish, har bir rangning psixologik ta’sirini to‘g‘ri anglash zarurligini ta’kidlaydi.G. Jumayeva esa “Ijodiy tafakkur va rang madaniyati” tadqiqotida o‘qitish jarayonida ijodiy mustaqillikni rag‘batlantirish, talabalarga individual yondashuv orqali natijaga erishish samarali ekanligini ilmiy isbotlaydi.Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’atni o‘qitishda an’anaviy metodlardan tashqari interfaol yondashuvlar – “ijodiy loyiha”, “rangli tahlil”, “mavzuli kompozitsiya” kabi metodlar badiiy tafakkurni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Miniatyura san’ati tarixiga oid tadqiqotlar o‘zbek va xorijiy manbalarda keng yoritilgan. Eng avvalo, Sharq miniatyura maktablarining buyuk namoyandalari – Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Sulton Muhammad, Ahmad Musavvir kabi musavvirlar ijodi haqida A. Karimov, O. Xoldorov, B. Rahimov, X. Salayev, Z. Qodirova asarlarida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. A. Karimovning “Sharq miniatyura san’ati tarixi” kitobida miniatyuraning estetik mohiyati, kompozitsiya qonuniyatlari, rang uyg‘unligi va ramziy obrazlar tizimi keng tahlil qilingan. Muallif ta’kidlashicha, miniatyura nafaqat tasviriy san’at namunasi, balki o‘z davrining falsafasi, ma’naviy merosi va ramziy tilini o‘zida mujassam etgan san’at turidir.

O.Xoldorovning “Behzod maktabining badiiy an’analari” asarida esa Kamoliddin Behzod ijodining metodik jihatlari – tafsilotlarga e’tibor, chiziqning psixologik ifodasi, obrazlar plastikasining didaktik qiymati o‘rganilgan.Bu tadqiqotlar zamonaviy rangtasvir mashg‘ulotlarida miniatyura elementlarini qo‘llash uchun nazariy asos yaratadi. Zamonaviy o‘zbek miniatyura san’atiga oid izlanishlarda (J. Alimov, R. Norqulov, D. Jalolov, Sh. Akromova va boshqalar) milliy an’analarni qayta tiklash, rang uyg‘unligi, kompozitsiya tuzilishi, g‘oyaviy mazmunni talabalarga o‘rgatishning amaliy yo‘llari ko‘rsatilgan.

So‘nggi yillarda pedagogik texnologiyalarni san’at ta’limiga joriy etish bo‘yicha ham qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. A. Shirinov, M. Qo‘ldosheva, Z. Amonova ishlarida san’at darslarida “klaster”, “aql xaritasi”, “muammoli tahlil”, “ijodiy loyiha” kabi metodlarning samaradorligi tahlil qilingan. Ushbu izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, san’atni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va milliy san’at an’analarining uyg‘unligi o‘quvchilarning estetik tafakkurini chuqurlashtiradi, ularni ijodiy faoliyatga faol jalb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida tasviriy san’at fanini o‘qitish bo‘yicha ilg‘or tajribalar, pedagogik metodlar hamda miniatyura san’atining o‘qitishdagi o‘rni tahlil qilindi. Ma’lum bo‘ldiki, miniatyura san’ati nafaqat badiiy meros sifatida, balki ijodiy tafakkur va estetik idrokni rivojlantiruvchi samarali ta’lim vositasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega.Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, magistratura bosqichida tasviriy san’atni o‘qitishda ko‘plab darslar texnik yondashuvga asoslangan bo‘lib, talabalarda obrazli tafakkur, milliylik va ramzlar tilini anglash ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmagan. Miniatyura san’atini o‘quv jarayoniga qo‘llash esa bu kamchiliklarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.Miniatyura asarlarining tahlili natijasida quyidagilar aniqlangan:

– miniatyuralarda rang uyg‘unligi va kompozitsion muvozanat qat’iy qonuniyatlarga asoslanadi;

– har bir detal ramziy ma’no kasb etib, o‘quvchi tafakkurida badiiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi;

– miniatyura uslubida ishlash jarayonida talabada sabr, aniqlik, kuzatuvchanlik va nozik did rivojlanadi.

Eksperimental mashg‘ulotlar jarayonida ikki yo‘nalishdagi talabalar guruhi bilan ish olib borildi. Tajriba guruhi miniatyura san’ati asosida rangtasvir mashg‘ulotlarini bajarib bordi. Natijalar tahliliga ko‘ra:

– talabalar rang uyg‘unligini anglashda 35-40% yuqori natija ko‘rsatgan;

– kompozitsion fikrlash darajasi oshgan;

– milliy obrazlarni tahlil qilish, ularni asarda ifodalash qobiliyati kuchaygan.

Pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, miniatyura elementlarini darslarga kiritish o‘quvchilarni san’atga yangicha qarashga, milliy qadriyatlarni chuqur his etishga undaydi. Miniatyura orqali o‘qitilgan darslar talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va estetik tafakkurni rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi.Umuman olganda, tahlil va tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. Miniatyura san’ati asosidagi metodik yondashuv tasviriy san’at fanini o‘qitish samaradorligini oshiradi;

2. Rangtasvir mashg‘ulotlariga milliy badiiy an’analarni tatbiq etish magistrantlarning ijodiy salohiyatini kengaytiradi;

3. Talabalarda milliy o‘zlikni anglash, estetik idrok va ramziy tafakkur ko‘nikmalari shakllanadi.

XULOSALAR

Yuqoridagi tahlillar va amaliy tajriba natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, magistratura bosqichida tasviriy san’at fanini o‘qitishda miniatyura san’ati elementlaridan foydalanish o‘quv jarayonining ilmiy-badiiy darajasini sezilarli darajada oshiradi. Miniatyura san’ati – bu nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ta’lim uchun ijodiy, estetik va tarbiyaviy imkoniyatlarga boy metodik manba hisoblanadi. Miniatyura asosidagi o‘qitish jarayonida talabalar rang uyg‘unligi, kompozitsion tafakkur, chiziq nafisligi va ramzlar tilini o‘zlashtiradilar. Bu esa ularning ijodiy tafakkurini kengaytiradi, san’atga estetik munosabatini shakllantiradi hamda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini kuchaytiradi.Tadqiqot davomida aniqlanishicha, miniatyura san’ati asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarni:

– ranglarni tahlil qilishga, ularning ma’naviy mazmunini anglashga o‘rgatadi;

– kompozitsion muvozanatni mustaqil yaratish qobiliyatini oshiradi;

– san’at asarlariga badiiy yondashuvni shakllantiradi;

– ijodkor sifatida o‘z fikrini rang va shakl orqali ifodalashga yo‘naltiradi.

Miniatyura san’atining didaktik imkoniyatlari shundan iboratki, u tasviriy san’atni o‘qitishda nafaqat estetik didni, balki milliy o‘zlikni, tarixiy xotirani va badiiy tafakkurni ham rivojlantiradi. Shu bois, magistratura bosqichida san’at fanlarini o‘qitishda miniatyura asosidagi metodik yondashuvlarni keng qo‘llash zarur. Umuman olganda, ushbu maqolada ilgari surilgan metodik takliflar san’at ta’limi tizimini takomillashtirish, o‘qituvchilarning metodik saviyasini oshirish hamda magistrantlarda milliy badiiy merosni chuqur anglash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 610-son qarori. Tasviriy va amaliy san’atni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
3. Tursunov A., Qodirova S. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.
4. G‘ulomov N. San’at nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
5. To‘xtayev B. Rangtasvir asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018.
6. Razzokov R. Miniatyura san’ati tarixi va uslubi. – Toshkent: “Ijod dunyosi”, 2020.
7. Akramova Z. Milliy san’at an’analarini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish. – “Pedagogika va san’at ta’limi” jurnali, №3, 2022.
8. Behzod K. Rang va chiziq uyg‘unligi haqida risola. – Hirot, 1500-yillar (manba tarjimasi asosida).
9. Ashrafiy L. O‘zbek miniatyura san’ati: an’ana va yangilanish. – Toshkent: “Ijodiy meros” nashriyoti, 2021.
10. Bessonova I. Metodika prepodavaniya izobrazitelnogo iskusstva. – Moskva: Akademiya, 2017.
11. Read, Herbert. Education Through Art. – London: Faber and Faber, 1943.
12. Lowenfeld V., Brittain W. Creative and Mental Growth. – New York: Macmillan, 1970.
13. Arnheim R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. – University of California Press, 1974.
14. Шавдиров С. А. Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 109-110.
15. Ibraimov X., Shovdirov S. Theoretical Principles of The Formation of Study Competencies Regarding Art Literacy in Students //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B10. – С. 192-198.
16. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1. – С. 131-134.
17. Shovdirov S. Analyzing the sources and consequences of atmospheric pollution: A case study of the Navoi region //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 587. – С. 02016.
18. Shavdirov S. Method of organization of classes in higher education institutions using flipped classroom technology //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – Т. 3268. – №. 1. – С. 070035.
19. Шавдиров С. А. Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 6. – С. 15-21.
20. Baymetov B. B., Shovdirov S. A. Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 60-66.
21. Shovdirov S. TASVIRIY SAVODXONLIKKA OID O ‘QUV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA O ‘QUVCHILARNI MANTIQIY VA ABSTRAKT FIKRLASHGA O ‘RGATISH //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 193-196.

IJODIY TA'LIM JARAYONIDA RANGTASVIR VOSITALARI ORQALI TALABALAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH

Sohibova Z. A.
Navoiy Davlat Universiteti Tasviriy san'at magistratura ta'lim yo'nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422275

"San'at-mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin".

Ibn Sino.

Annotatsiya. *Ushbu maqola ijodiy ta'lim jarayonida rangtasvir vositalari orqali talabalar dunyoqarashini rivojlantirish masalalarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganadi. Tadqiqotda rangtasvir vositalarining pedagogik ahamiyati, talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirish usullari va amaliy mashg'ulotlarda ularni qo'llash samaradorligi tahlil qilinadi. Maqoladan quyidagilar o'rin olgan: Rangtasvir vositalari yordamida talabalarning vizual tafakkuri va estetik didini rivojlantirish; Turli rang va shakl tanlash orqali ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirish; Talabalarni dars jarayonida ijodiy faoliyatga jalb qilish metodlari va boshqalardan iborat.*

Kalit so'zlar: *İjodiy ta'lim, talabalar dunyoqarashi, pedagogika, estetik san'at, san'atda psixologiya, ranglarni anglash, tushunish va his qilish, analitik fikrlash, suhbat va intervyu metodi, nazariy tahlil metodi, amaliy kuzatuv metodi, tajriba va eksperiment metodi, klassik realizm uslub.*

Kirish. Ijodiy ta'lim zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va talabalarning shaxsiy rivojlanishi, dunyoqarashi hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda rangtasvir vositalari nafaqat estetik didni rivojlantirish, balki talabalarning fikrlash, tahlil qilish, muammolarni hal etish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirishda ham keng qo'llaniladi.

Rangtasvir vositalari yordamida talabalarning shaxsiy dunyoqarashi va san'atga bo'lgan qiziqishini kengaytirish. Ranglarni anglash, tushunish va his qilish orqali eng avvalo o'zini ichki olamini tushunish, dunyoni ranglar orqali ko'ra olishni o'rganish asnosida tadqiqot nazariy tahlil, amaliy kuzatuv va intervyular asosida olib borildi. Amaliy misollar yordamida rangtasvir vositalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi ko'rsatildi.

Rangtasvir vositalari yordamida talabalar:

Ob'yektlarni tasvirlash orqali vizual tafakkurini rivojlantiradi;

Rang va shakl o'zaro bog'liqligini tushunib, analitik fikrlash qobiliyatini oshiradi;

Ijodiy jarayonda turli variantlar yaratish orqali muammoni yechish qobiliyatini mustahkamlaydi;

Estetik didi va san'atga bo'lgan qiziqishi orqali shaxsiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Maqolada rangtasvir vositalarining pedagogik ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi, shuningdek, ijodiy ta'lim jarayonida ularni amaliy qo'llash misollari bilan ko'rsatib beriladi.

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar va ilg‘or pedagogik tajribalar asosida talabalarning dunyoqarashini rivojlantirishda rangtasvir vositalarining o‘rni batafsil yoritiladi.

Shuningdek, maqolada quyidagi savollarga javob izlanadi:

1. Rangtasvir vositalari talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda qanday rol o‘ynaydi?

2. Ijodiy ta’lim jarayonida rangtasvir vositalaridan samarali foydalanish metodlari qanday?

3. Rangtasvir vositalari yordamida talabalarning dunyoqarashi va estetik didi qanday shakllanadi?

Kirish bo‘limi talabalarning ijodiy salohiyati va dunyoqarashini rivojlantirishdagi rangtasvir vositalarining nazariy asosini yoritib, keyingi bo‘limlar uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

Asosiy qism: Ijodiy ta’lim jarayonida rangtasvir vositalarining pedagogik ahamiyatini tahlil qilish uchun maqolada quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

1. Nazariy tahlil metodi – rangtasvir vositalarining tarixi, pedagogik ahamiyati va zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni ilmiy adabiyotlar orqali o‘rganildi. Shu orqali talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda rangtasvir vositalarining samarali usullari aniqlanadi.

2. Amaliy kuzatuv metodi – talabalarning dars jarayonidagi faoliyati kuzatilib, rangtasvir vositalarini qo‘llash orqali ularning ijodiy fikrlash va dunyoqarashi qanday o‘zgargani tahlil qilindi.

3. Tajriba va eksperiment metodi – turli ijodiy mashg‘ulotlarda rangtasvir vositalaridan foydalanish natijalari solishtirildi. Masalan, talabalarga bir xil mavzuda erkin rasm chizish topshirig‘i berilib, rang va shaklni tanlashdagi ijodiy yondashuvlari baholandi.

4. Suhbat va intervyu metodi – talabalar bilan suhbatlar o‘tkazilib, rangtasvir vositalari orqali o‘z dunyoqarashlarini ifodalash imkoniyatlari va fikrlari o‘rganildi.

Amaliy misollar:

Dars jarayonida talabalar “Tabiat manzarasi” mavzusida rasm chizishdi. Ranglarning uyg‘unligi va kompozitsiyaning ijodiy yechimlari orqali ularning vizual tafakkuri va estetik didi rivojlandi.

Talabalar bir xil ob’ektni turli ranglar va texnikalar yordamida tasvirlashdi, bu esa ularning muammolarni yechish va ijodiy fikrlash qobiliyatini mustahkamladi.

Suhbatlar natijasida talabalarning ko‘pchiligi rangtasvir vositalari yordamida o‘z hissiyotlarini ifodalash imkoniyatlari ortganini qayd etdilar.

Metodologik yondashuvlar orqali rangtasvir vositalarining ta’lim jarayonidagi samaradorligi va talabalarning ijodiy dunyoqarashini rivojlantirishdagi roli ilmiy asosda tasdiqlanadi.

Natijalar va Muhokama

Ijodiy ta’lim jarayonida rangtasvir vositalaridan foydalanish natijalari talabalarning dunyoqarashi va ijodiy qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida amaliy mashg‘ulotlarda turli rangtasvir vositalari — suv bo‘yoqlari, akril, qalam ranglar va kollaj texnikalari qo‘llanildi.

1. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish;

Talabalar bir xil mavzu asosida turli uslublarda rasm yaratishdi. Misol uchun, “Tabiat manzarasi” mavzusida:

Ba’zi talabalar klassik realizm uslubida chizishdi, boshqalar ekspressiv ranglar va geometrik shakllar orqali o‘z hissiyotlarini ifodalashdi. Bu jarayon talabalarning muammoni yechish va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirdi. Ranglarni tanlash va kompozitsiya yaratish jarayonida ular turli variantlarni sinab ko‘rishdi, bu esa analitik va kreativ tafakkurni mustahkamladi.

2. Estetik did va dunyoqarashni kengaytirish;

Rangtasvir vositalari yordamida talabalar estetik didni rivojlantirdi. Masalan, suv bo‘yoqlari bilan erkin rasm chizish mashg‘ulotida talabalar ranglarni aralashtirib, turli ohanglar yaratishdi. Bu ularning vizual tafakkurini va san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirdi.

3. Pedagogik ahamiyat;

Rangtasvir vositalarini ta’lim jarayonida qo‘llash:

Talabalarni ijodiy faoliyatga jalb qiladi, ularning fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi, shaxsiy dunyoqarash va estetik didni shakllantirishga yordam beradi.

4. Amaliy kuzatuv va intervyu natijalari;

Talabalarning 85% dan ortig‘i rangtasvir vositalari yordamida o‘z fikrini va hissiyotini ifodalash osonlashganini qayd etdi. 70% talaba rangtanlash va kompozitsiya yaratish jarayonida yangi yondashuvlarni sinab ko‘rish imkoniyati mavjudligini ta’kidladi.

Suhbatlar natijasida talabalarning ijodiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshgani aniqlangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rangtasvir vositalari nafaqat ijodiy ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning shaxsiy dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri va estetik didini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, rangtasvir vositalarini darslarda maqsadli va metodik tarzda qo‘llash ta’lim sifatini yanada oshiradi.

Xulosa: Ijodiy ta’lim jarayonida rangtasvir vositalarini qo‘llash – bu nafaqat san’at darslarini bezatish, balki talabalarda estetik tafakkur, mustaqil fikrlash va badiiy dunyoqarashni shakllantirishning eng samarali usullaridan biridir. Rang, shakl, chiziq va kompozitsiya unsurlari orqali talabalar nafaqat tasviriy ifoda vositalarini o‘zlashtiradilar, balki ularning yordamida o‘z his-tuyg‘ulari va ichki kechinmalarini badiiy shaklda ifoda etishni o‘rganadilar. Ya’ni Ijodiy ta’lim jarayonida rangtasvir vositalarining qo‘llanilishi – bu san’at ta’limining estetik, psixologik va tarbiyaviy jihatlarini birlashtiruvchi murakkab, ammo nihoyatda samarali jarayondir. Rangtasvir insonning dunyoni badiiy idrok etish, uni his etish va o‘z ichki kechinmalarini ifoda etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan, ta’lim tizimida rangtasvir vositalarini metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, talabalar dunyoqarashini kengaytirish va ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish uchun muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, rangtasvir vositalarining ta’lim jarayoniga kiritilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

Talabalarda estetik did va badiiy qarashlar tizimi shakllanadi;

Rang va shakl o‘zaro uyg‘unligini his etish orqali kompozitsion tafakkur rivojlanadi;

Ijodiy mustaqillik va o‘z fikrini san’at tilida ifoda etish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi;

Ranglarning psixologik ta’sirini tahlil qilish orqali emotsional barqarorlik va ijodiy motivatsiya kuchayadi;

Talabalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni badiiy timsollar orqali anglab yetadilar. Shuningdek, rangtasvir jarayonida tasavvur, emotsiya va tafakkur o‘zaro uyg‘un holda kechadi. Bu esa shaxsning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy faoliyat jarayonida talaba atrof-muhitni tahlil qiladi, estetik tahlil orqali go‘zallik qonuniyatlarini

anglaydi hamda o‘zining ichki dunyosini rang va shakl vositasida ifodalay oladi. Sababi tasviriy san’atning rangtasvir jarayonida psixologik yondashuvlar, rangning inson kayfiyati, ruhiyatiga ta’siri va ijodiy muhitni yaratish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, bunday yondashuv ta’lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va tarbiyaviy jihatdan boyitadi. Shuning uchun rangtasvir nafaqat badiiy, balki pedagogik va psixologik vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy ta’limda rangtasvir vositalaridan foydalanish - shaxsni barkamol, ijodkor, estetik didi yuqori inson sifatida shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Bunda o‘qituvchi nafaqat texnik bilim beruvchi, balki talabaning badiiy dunyoqarashini shakllantiruvchi rahbar sifatida faoliyat yuritadi.

Tavsiyalar:

1. Rangtasvir mashg‘ulotlarini modernizatsiya qilish – zamonaviy raqamli vositalar, interaktiv dasturlar va grafik texnologiyalarni dars jarayoniga joriy etish.

2. Ijodiy muhit yaratish – talabalar uchun erkin fikrlash, rang bilan tajriba o‘tkazish va o‘z badiiy g‘oyalarini erkin ifoda etish imkonini beruvchi sharoitni yaratish.

3. Metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish – rangtasvir vositalaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar, tavsiyalar to‘plamlari va dars ishlanmalari tayyorlash.

4. Tahliliy baholash tizimini joriy etish – talabalar ijodiy ishlari faqat natija emas, balki ijodiy jarayonni ham baholovchi mezonlar asosida tahlil qilinishi zarur.

5. O‘qituvchilar malakasini oshirish – rangtasvir yo‘nalishidagi o‘qituvchilarning ijodiy ta’lim metodikasi bo‘yicha doimiy seminar va treninglarda ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

6. Fanlararo integratsiyani kuchaytirish – rangtasvir mashg‘ulotlarini psixologiya, estetika va san’atshunoslik bilan bog‘lab o‘qitish orqali talabalar dunyoqarashini yanada kengaytirish.

Bu tavsiyalar orqali har tomonlama rivojlanish bosqichiga erishishimiz mumkin. Ya’ni bu jarayon tasviriy san’atning rivoji bilan bir qatorda talabalarning ichki ruhiy olami, dunyoqarashi va rivojlanishi uchun ko‘maklashadi.

Shu bilan birga ranglarni his qilishi orqali tabiat go‘zalliklarini, ohanglarini qalban his qilgan holda rasmlarda tasvirlay olishiga xizmat qiladi. Shuningdek, rangtasvir jarayonida psixologik yondashuvlar, rangning inson kayfiyatiga ta’siri va ijodiy muhitni yaratish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, bunday yondashuv ta’lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va tarbiyaviy jihatdan boyitadi.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. Toshkent O‘zbekiston, 2022.
2. Nuriddinov B., To‘laganova M. “Tasviriy san’at nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Abdullayev S. “Rangtasvir asoslari”. Toshkent: Kamalak, 2021.
4. Xamidova G. “Ijodiy ta’lim metodikasi va pedagogik innovatsiyalar”. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Omonova N. San’at psixologiyasi va estetik idrok. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
6. Dewey, J. Art as Experience. New York: Penguin Group, 2005.
7. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 2011.
8. Jalolov J. “Pedagogik mahorat va ijodkorlik asoslari”. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

9. Rasulova M. “Rangtasvir vositalari orqali estetik tarbiya berish metodikasi”. “Pedagogik ta’lim” jurnali, №4, 2022
10. UNESCO. Arts Education Policy Review. Paris, 2019.
11. Karimova D. Ijodiy faoliyatda ranglarning psixologik ta’siri. “San’at va Ta’lim” jurnali, №2, 2021.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarori. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
13. E.Umarov,R. Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyxo‘jayeva “Estetika asoslari”. Toshkent-2007
14. Шавдиров С. А. Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 109-110.
15. Ibraimov X., Shovdirov S. Theoretical Principles of The Formation of Study Competencies Regarding Art Literacy in Students //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B10. – С. 192-198.
16. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1. – С. 131-134.
17. Shovdirov S. Analyzing the sources and consequences of atmospheric pollution: A case study of the Navoi region //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 587. – С. 02016.
18. Shavdirov S. Method of organization of classes in higher education institutions using flipped classroom technology //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2025. – Т. 3268. – №. 1. – С. 070035.
19. Шавдиров С. А. Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 6. – С. 15-21.
20. Baymetov B. B., Shovdirov S. A. Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 60-66.
21. Shovdirov S. TASVIRIY SAVODXONLIKKA OID O ‘QUV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA O ‘QUVCHILARNI MANTIQIY VA ABSTRAKT FIKRLASHGA O ‘RGATISH //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 193-196.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN’AT FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TENDENSIYALAR

Jo‘raeva Mohira Olimjon qizi
Navoiy Davlat Universiteti “Tasviriy san’at” magistratura ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17422286

